

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

F.I.XAYDAROV, N.I.XALILOVA

UMUMIY PSIXOLOGIYA
darslik

TOSHKENT
“INNOVATSIYA-ZIYO”
2019

UDK:15.010

BBK:88.3

X-18

F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova

**Umumiy psixologiya/darslik/ Toshkent, "INNOVATSIYA-ZIYO"-
2019, 360 bet.**

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ilmiy metodik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash qaroriga muvofiq nashrga tavsiya etilgan

Ushbu darslikda inson shaxsidagi psixologik holatlar, xususiyatlar, jarayonlar haqidagi dastlabki bilimlar majmuasi bayon etilgan. Darslik psixologiyaga kirish, muloqot, faoliyat, shaxs, bilish jarayonlari, shaxsning hissiy-irodaviy motivatsion sohasi, shaxsning individual psixologik xususiyatlari nomli bo'limlardan iborat. Darslikda bo'limlar bo'yicha nazariy bilimlar, test topshiriqlari, mustaqil ishlash uchun mavzular hamda nazorat savollari keltirilgan.

Darslikdan oliy o'quv yurtlarining pedagogika va psixologiya, psixologiya yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalari, magistrantlar, o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va shu sohaga qiziqqan keng kitobxonlar ommasi foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar: Psixologiya fanlari doktori, professor Z.T.Nishonova
Psixologiya fanlari nomzodi, dosent Sh.A.Do'stmuhammedova

Ma'sul muharrir: Psixologiya fanlari doktori, professor M.G.Davletshin

ISBN 978-9943-5614-6-5

"INNOVATSIYA-ZIYO" – 2019

KIRISH

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining maqsad va vazifalari, davlatimizning bu borada amalga oshirayotgan siyosati zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimini tashkil qilishga yo'naltirilgan. Mamlakatimizdagi uzluksiz ta'lim tizimi strategiyasi xalqimizning boy ma'naviy merosi va umuminsoniy qadriyatlarini, madaniyat, iqtisod, fan-texnika va texnologiyalarda erishilgan yutuqlar negizida psixologiya fani sohasida ham pedagogik kadrlar tayyorlash tizimi islohotlarini hayotga tatbiq etishni jonlantiruvchi asosiy vazifalarini belgilab bergan.

Aynan mazkur masalalarni keng doirada tatbiq qilish zamon talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni ko'zda tutadi. Bu inson psixologiyasini bilish, ularda kechadigan psixologik o'zgarishlarni anglagan holda yondashishni talab etadi. Mazkur jarayonda psixologik bilimlarga bo'lgan ehtiyojning ortib borishini ko'rish mumkin. Chunki insonlar haqidagi bilimlarni qo'lga kiritish uchun psixologik bilimlardan xabardor bo'lish lozim. Shu bois, yozilgan darslik shaxs psixologiyasiga doir dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarni, tushuncha va tasavvurlarni hosil qilishga yordam beradi.

Inson psixologiyasini bilish asosida inson shaxsini shakllantirish, uning ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratish mamlakatimiz taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" uzluksiz ta'limning o'ziga xos modeli sifatida keng imkoniyatlar yaratmoqda. Bu ulkan vazifani yechish inson omili bilan bog'liq bo'lib, bunda psixologiya fanlarining alohida o'rni hamda mas'uliyati yaqqol sezilib turadi.

"Umumiy psixologiya" fanidan tayyorlangan ushbu darslik yuqorida qayd etilgan barcha masalalarni o'z ichida qamrab olgan.

PSIXOLOGIYANING PREDMETI


Psixologiya haqida tushuncha

Inson mavjud ekan, u o'z hayotiy tajribaciga asoslanib u yoki bu holda idrok etish, olamni anglash, narsa va hodisalarni ajratish kabi xususiyatlarga ega ekanligi haqida o'ziga-o'zi hisob beradi. Biz har kuni qushlarning sho'x navosini, musiqa asboblarning xonishini, inson nutqini, uchib o'tayotgan samolyot shovqinini eshitamiz, atrofimizni o'rab turgan narsa, daraxt, hayvonlar, mashinalarni ko'ramiz. Ularning rangi va hajmini ajrata olamiz. Mazkur jarayonlar insondagi aks ettirish xususiyati bilan chambarchas bog'liq. Psixologiya fanining predmetini tahlil qilishda asosiy e'tiborni quyidagilarga qaratish lozim. Jumladan, shaxs haqida fikr yurituvchi fanlar sirasiga psixologiya va pedagogika fanlarini kiritish mumkin. Shunga ko'ra, **pedagogika** shaxsni ta'lim-tarbiya jarayonida kamol topishini tadqiq qilsa, psixologiya shaxsda kechadigan ruhiy jarayonlarni o'rganadi. Shundan xulosa qilishimiz mumkinki, **psixologiya fanining predmetini** – shaxsning psixikasi va uning psixologik xususiyatlari tashkil qiladi.

Psixologiya so'zining lug'aviy ma'nosi grekcha psyuxe – jon, ruh, logos – fan, ta'limot degan ma'noni anglatadi. **Psixologiya** fan sifatida psixik faktlar, ularning qonuniyatlari va mexanizmlarini o'rganadi. Psixologiya asosan psixikani keng doirada tadqiq qiladi. Shunga ko'ra, psixikaning yuzaga keltiruvchi asosiy psixik faoliyatlari ko'rsatilgan. Aynan psixik faoliyatlar quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:


- **bilish faoliyatlari:** diqqat, nutq, faoliyat;
- **bilish jarayonlari:** sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur;
- **shaxsning, hissiy, irodaviy sohasi:** - hissiyot, iroda;
- **shaxsning individual psixologik xususiyatlari:** temperament, xarakter, qobiliyat.

Psixikaning paydo bo'lishining asosiy shakllari M.Gamezo va Domashenkolarning "Атлас по психологии" nomli qo'llanmasida quyidagicha ifodalanadi:



Shunga muvofiq bir qator olimlar tomonidan psixikaga ta'riflar berilib, uning mazmun mohiyati ochib berilgan. Jumladan, professor M.G.Davletshin fikricha, **psixika** deganda – oliy darajadagi materiyaning (miyaning) xususiyati tushunilib, u obyektiv borliqni aks ettirilishida namoyon bo'ladi, subyekt faoliyatini ma'lum maqsad asosida yo'naltiradi hamda xulq-atvor negizida shakllanadi. **Professor V.M.Karimovanning** fikricha **psixika** – inson ruhiyatining shunday holatiki, u tashqi olamni (ichki ruhiy olamni) ongli tarzda aks ettirishimizni, ya'ni bilishimiz, anglashimizni ta'minlaydi.

Psixika bu aks ettirishdir. Jonli va jonsiz tabiatda aks ettirishning o'ziga xos usullari mavjud. Aks ettirish jarayonini quyidagicha ifodalash mumkin.



Jonsiz materiya uchun aks ettirishning mexanik, kimyoviy va fizik turlari xosdir. Masalan, ko'zguning aks ettirishi, suvdagi ta'sir va boshqalar. Jonli materiya uchun aks ettirishning fiziologik, psixik aks ettirish turlari xos bo'lib, ong va o'zini o'zi anglash uning eng yuqori bosqichidir. Psixik aks ettirish quyidagi xususiyatlarga ega:

- 1)obyektiv borliqni to'g'ri aks ettirish imkoniyatini beradi;
- 2)shaxsning faoliyati davomida mukammallikka erishib boradi;
- 3)doimo rivojlanib va takomillashib boradi;
- 4)shaxsning individualligi orqali namoyon bo'ladi.

Psixologiyaning fan sifatida shakllanishi

Insonda jismoniy tanadan tashqari undan farqlanuvchi yana nimadir borligi haqidagi tasavvurlar qadimdan mavjud bo'lgan. Eng qadimgi davrlardayoq inson tush ko'rish hodisasi orqali ayrim odamlarning noyob qobiliyatlari (masalan, ovdagi muvaffaqiyatlar) o'lim va boshqa hodisalarning sabablarini tushuntirishga intilgan. Ammo dastlabki qarashlar mifologik xarakterda edi. Ular fikrlash orqali emas, ko'r-kona ishonch vositasida egallanardi. Ruh haqidagi qarashlar ko'pincha nafas bilan bog'lanardi, ruhni esa uchar mahluq sifatida tasavvur etardilar.

Psixologiya haqidagi fikrlar qadim zamonlardan beri mavjuddir. Ilk davrlarda psixologik xususiyatlarni jonning ishi deb tushuntirilgan. Jonning o'zi esa odam tanasidagi maxsus ikkilamchi jism deb qaralgan. Bunday tasavvurlar «animizm» deb ataladi. **Animizm** so'zi –anima «jon» degan ma'noni anglatadi. Jon o'z mohiyatiga

ko'ra olovsimon uchqundan iborat ekanligi **Geraklit** tomonidan, yoki olovsimon atomdan iboratligi **Demokrit** tomonidan ta'kidlangan.

Platonning «ideyalar tug'ma bo'ladi» degan g'oyalari psixologik fikr taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shdi. Platon ta'limotiga ko'ra, «ideyalar» mohiyati abadiy va o'zgarmas, ularning tabiiy olamdan tashqarida oliy olam mavjud bo'lib, ularni odam ko'zi bilan ko'ra olmaydi.

Platon psixologiyada «**dualizm**» oqimining asoschisi hisoblanadi. **Dualizm** so'zi ikki yoqlamalik yoki ikki mustaqil fikr degan ma'noni anglatadi. **Dualizm ta'limoti** mohiyati moddiy va ruhiy olam tana va psixikaning bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lib, azaldan qarama-qarshi narsalar deb tushuntiradi.

Platonning dualizm shogirdi **Arastu (Aristotel)** eramizdan oldingi IV asr 384-322-yillar) tomonidan birmuncha muvaffaqiyatli bartaraf etildi. Aristotelning «**Jon haqida**» asari o'sha davrdayoq psixologiya maxsus fan sifatida maydonga kela boshlaganidan dalolat beradi. Ana shu tufayli psixologiya jon haqidagi fan sifatida maydonga kelgan va hozirgi kunda psixologiya fani o'z mazmunini batamom o'zgartirgan.

Arastu kishilik tafakkuri tarixida birinchi bo'lib ruh va jonli tananing ajralmasligini isbotlab berdi. Unga ko'ra, jon qismlarga bo'linmaydi, lekin u faoliyatimiz davomida oziqlanishi, his etishi va harakatga kelishi, aql-idrok kabi turlarga oid qobiliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin. **Birinchi qobiliyatlar** o'simlik uchun, **ikkinchisi va uchinchisi** hayvonlarga, **to'rtinchisi** esa insonlar uchun xosdir. O'simliklar, hayvonlar ruhi va aql idrok odam ruhi ta'limoti bilan Arastu oliy qobiliyatlar va ularning negizida paydo bo'lishini bildiradigan rivojlanish tamoyilini joriy etdi. Arastu organizmning tabiatdan olgan qobiliyatlarni faqat o'zining xususiy faolligi orqali ruyobga chiqarishga asoslangan holda xarakterning faoliyatda shakllanishi to'g'risidagi nazariyani ilgari surdi.

Psixologiyaning fan sifatida yuzaga kelish bosqichlari quyidagi jadvalda o'z aksini topgan:

4-bosqich	Psixologiya, psixikaning mexanizmlari, qonuniyatlari va faktlarini o'rganuvchi fan sifatida	◀	Dunyoga materialistik nuqtai-nazardan qarish shakllangan. Rossiya psixologiyasining asosida aks ettirish nazariyasi asosiy qonuniyat sifatida ko'rsatiladi.
3-bosqich	Psixologiya xulq-atvor haqidagi fan	◀	XIX asrdan boshlanadi. Psixologiyaning vazifasi ko'rgan narsalarni bevosita kuzatish, aniqrog'i inson hulq-atvorining faoliyatini reaksiyasini kuzatish deb hisoblangan. Bunda motivlarning o'rnini hisobga olinmagan.
2-bosqich	Psixologiya ong haqidagi fan sifatida.	◀	XVII asrda tabiiy fanlar rivojlanishi bilan boshlanadi. Fikrlash, xoxlash, his qilish, qobiliyatini ong deb atashgan. O'zini o'zi kuzatish asosiy metod hisoblangan.
1-bosqich	Psixologiya jon haqidagi fan	◀	Bu yo'nalish psixologiyada bundan 2500-yil oldin paydo bo'lgan. Inson hayotidagi barcha narsalar tushunchalarni, tushunarsiz hodisalarni jon, ruh bilan tushuntirishga harakat qilganlar.

Geraklit, Demokrit, Aflotun, Arastularning ta'limotlari keyingi asrlarda psixologik g'oyalarni rivojlanishida tayanch nuqta bo'lib hisoblanadi.

Mazkur davrlarda Sharqda ham ilk psixologik qarashlar yuzaga keldi. Sharqda psixologik qarashlarning paydo bo'lishida buyuk Sharq mutafakkirlarining roli katta bo'lgan. Ular orasida Al-Xorazmiy, Al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek kabilar o'zlarining inson psixikasi va yosh avlodni tarbiyalashga doir boy fikrlar va qarashlarini meros sifatida qoldirganlar. Ular orasida ayniqsa, Abu Ali ibn Sinoning mantiq, metafizika, tabiiy, tibbiyot fanlar haqidagi fikrlari o'sha davr ilmiy taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. U maxsus psixologik muammolar bilan shug'ullangan olimlardan biridir. Uning ruh, asab tizimi haqidagi qarashlari katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, Abu Ali ibn Sinoning temperament xususiyatlariga qarab yondashish zarurligi haqidagi fikrlari ming yildan so'ng ham zamonaviy psixologiyada o'z qimmatini yo'qotmagan. Abu Ali ibn Sino dunyoda birinchi bo'lib psixoterapevtik usullarni qo'llab ko'rgan olimlardan biridir.

Asta-sekin ruh haqidagi tushuncha hayotning barcha ko'rinishlariga emas, faqat hozir biz psixika deb atalgan darajaga nisbatan qo'llana boshlandi. Psixika kategoriyasining negizida idrok va tafakkurdan tashqari ong tushunchasi yuzaga keldi, buning natijasida ixtiyoriy harakatlar va ularni nazorat qilish imkoniyati tug'ildi. Masalan, **Galen** (eramizdan oldingi II asr) fiziologiya va tibbiyot yutuqlarini umumlashtirib, psixikaning fiziologik asoslari to'g'risidagi tasavvurlarini yanada boyitdi. Uning ilgari surgan g'oyalari «ong» tushunchasi talqiniga muayyan darajada yaqinlashadi.

XVII asr biologiya va psixologiya fanlari uchun muhim davr bo'lib hisoblanadi. Jumladan fransiya olimi **Dekart (1596-1650)** tomonidan xulq-atvorning reflektor (g'ayriixtiyoriy) tabiatga ega ekanligini kashf etilishi, yurakdagi mushaklarning ishlashi (faoliyati) qon aylanishning ichki mexanizmi bilan boshqarilayotganligini tushuntirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, **refleks** (lotincha reflexus aks ettirish) organizmning tashqi ta'sirga qonuniy ravishdagi javob reaksiyasi sifatida talqin qilinib, asab-mushak faoliyatini obyektiv tarzda bilish vositasiga aylandi. Sezgi, assotsiatsiya, ehtiros yuzaga kelishini izohlashga imkon yaratildi.

Psixologiya fanining ilmiy asosga qurilishida ingliz olimi **Gobbs (1588-1679)** ruhni mutlaqo rad etib, mexanik harakatni yagona voqelik deb tan olib, uning qonuniyatlari psixologiyaning ham qonuniyatlari ekanligini ta'kidladi. Uning negizida – **epifenomalizm** (yunoncha eri - o'ta, rhainominon – g'ayritabiiy hodisa) vujudga keldi, ya'ni psixologiya tanadagi jarayonlarning soyasi singari ro'y beradigan ruhiy hodisalar to'g'risidagi ta'limotga aylandi.

Niderlandiyalik olim **Spinoza (1632-1677)** ongni katta ko'lamga ega materiyadan sira qolishmaydigan voqelik, ya'ni yaqqol narsa deb, tushuntirdi. U **determinizm** (lotincha demmerminara - belgilayman) tamoyilining, ya'ni tabiat, jamiyat hodisalarining, shu jumladan psixik hodisalarning obyektiv sabablar bilan belgilanligi haqidagi ta'limot targ'ibotchisi edi.

XVII asrdagi yirik nemis mutafakkiri **Leybnis (1646-1716)** ning ta'limoti matematika, jumladan, integral va differensial hisoblar kashf etilishiga ta'sir etgan

edi. Psixika hayot manzarasi arifmetik yig'indi tariqasida emas, balki integral tarzda namoyon bo'ladi. **Leybnis** tasavvurlarning uzluksiz chegaralanishi g'oyasiga tayangan holda persepsiya (bevosita ongsiz idrok)ni appersepsiyalar diqqat va xotirani o'z ichiga olgan anglangan idroklardan farqlagan edi. **Leybnis** psixologiyaga psixikaning faolligi tabiati va uzluksiz rivojlanishi hamda psixikaning onglik va ongsizlik ko'rinishlari o'rtasidagi murakkab nisbat haqidagi g'oyani olib kirdi.

XVII asrda emperizm va sensualizmi tajriba va his etiladigan bilimning «sof» aql-idrokdan afzalligi haqidagi ta'limotning, ya'ni aqlda hech qanday tug'ma g'oyalar va tamoyillar bo'lishi mumkin emasligi haqidagi ta'limotning oldingi marraga ko'tarilishiga olib keldi. Bu ta'limotni ingliz faylasufi va pedagogi **Djon Lokk (1632-1704)** astoydil himoya qilib chiqqan edi. Uni empirik psixologiyaning asoschisi deb, hisoblash qabul qilingan. Barcha bilimlarning tajribadan kelib chiqishi haqidagi ta'limoti psixologiya uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Chunki u ruhiy hayotning aniq faktlari oddiy hodisalardan murakkab hodisalarga o'tish yo'llari puxta o'rganilishini taqazo etadi. **Dj.Lokkning** fikricha, tajribaning ikkita manbai mavjud bo'lib, *biri* tashqi sezgi a'zolarining faoliyati (tashqi tajriba) va *ikkinchisi* o'zining xususiy miyani idrok etuvchi aqlning ichki faoliyati (ichki tajriba) dir. Kishi hech qanday g'oyalarga ega bo'lmagan holda dunyoga keladi. Uning ruhi – «toza taxta» bo'lib, keyinchalik, unga tajriba yozuvlari bitiladi. Tajriba oddiy va murakkab g'oyalardan tarkib topadi. Bu g'oyalar yo sezgilardan, yo ichki idrok (refleksiya) lardan hosil bo'ladi. Ikkinchi holatda ong real narsalarga emas, balki o'z xususiy mahsuliga yo'naltirilib, o'zi bilan o'zi bo'lib qoladi. **Dj.Lokkning** refleksiya ta'limoti kishi psixologik faktlarni introspektiv tarzda bilib oladi, degan taxminga asoslangan edi. Bu bilan yana dualizm ta'limoti ilgari suriladi. Ong va tashqi olamni prinsipial jihatdan turlicha usullar yordamida bilish mumkinligi jihatidan ham ular bir-biriga qarama-qarshi qo'yilar edi.

Dj.Lokkning tashqi va ichki tajriba to'g'risidagi ta'limoti ikki xil xarakterga ega ekanligi ham **materialistik** ham **idealistik** ta'limotlarning taraqqiyotiga turtki bo'ldi. **Materialistlar Gartli (1705-1784)** bosh bo'lgan **fransuz, A.N.Radishchev (1749-1802)** boshchiligidagi rus materialistlari olamni bilishda tashqi tajribani asos qilib, olib inson psixikasining ichki mazmuni asosida odam atrof-muhit bilan o'zaro munosabati yotadi degan edilar.

XVIII asrga kelib nerv sistemasini tadqiq qilishda ulkan yutuqlarga erishildi (Galler, Proxazka). Buning natijasida psixika miya funksiyasi ekanligi haqidagi ta'limot vujudga keldi. Ingliz tadqiqotchisi **Charlz Bell** va fransuz **Fransua Majandi** tomonidan yoyiluvchi va harakat nervlari o'rtasidagi tafovut ochib berildi. Uning negizida psixologiya fanida **reflektor yoyi** degan yangi tushuncha paydo bo'ldi. Bularning natijasida ixtiyoriy (ongli) va ixtiyorsiz (ongsiz) reflektor turlari kashf qilindi.

Yuqoridagi ilmiy kashfiyotlar ta'sirida rus olimi **I.M.Sechenovning (1892-1905)** reflektor nazariyasi ruyobga chiqdi va ushbu nazariya psixologiya fanining fiziologik asoslari, mexanizmlari bosh miya reflekslarining o'ziga xos xususiyatlari tabiatini ochib berish imkoniyatini yaratadi.

Xorij psixologlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarga asoslangan holda rus psixologlari tomonidan psixologiya fanining rivojlanishi borasida qator ishlar olib borilgan.

Aytish kerakki, psixologiya fani borasidagi tadqiqotlar, kashfiyotlar shu bilan tugab qolmasdan, balki bu boradagi ishlar yanada kuchaytirilib samarali natijalarga erishilmoqda.

Miya va psixika

Psixika yuksak darajada tashkil topgan materiyaning alohida xossasi bo'lib, u obyektiv olamni alohida bir tarzda aks ettiradi. Yuksak darajada tashkil topgan materiya deganda biz miyani tushunamiz. Demak, inson va hayvonlar psixikasining moddiy asosini markaziy nerv tizimining eng yuksak qismi bo'lmish bosh miya tashkil etadi. Ammo insonlar miyasi hayvonlar miyasiga qaraganda ancha murakkabroq tuzilgan bo'ladi. Odam miyasi hajmi jihatidan ham katta. Agar maymun miyasining og'irligi 400-500 g bo'lsa, odam miyasining og'irligi o'rtacha hisobda 1400 g dir.

Miya funksiyasi organizm hayotida shunchalik murakkabki, buni biz miya butun gavda og'irligining 2 foizini tashkil qilishidan va organizmga kiradigan kislorodning 18 foizidan ortiqrog'ini ishlashidan ham ko'rishimiz mumkin. Hayvon taraqqiyotining qanchalik yuqoriroq bosqichida tursa, uning tanasiga nisbatan miyasi shunchalik og'irroq bo'lib boraveradi.

Miyaning tanaga bo'lgan nisbati:

Kit miyasining tanasiga nisbati $\frac{1}{20000}$, fil miyasining tanasiga nisbati $\frac{1}{400}$, maymun miyasining tanasiga nisbati $\frac{1}{100}$. Odam miyasining tanasiga nisbati $\frac{1}{46}$.

Ayniqsa, bosh miya katta yarim sharlari kishi organizmi hayotida muhim ahamiyatga ega. Odamda o'rtacha 14-15 milliard neyrondan iborat. Eng muhim rolni miya po'stining peshona qismi o'ynaydi. Hayvon taraqqiyotining yuqoriroq bosqichiga qanchalik ko'tarilsa, miya yarim sharlari po'stining peshona qismi shunchalik kattaroq bo'ladi.

Inson bosh miyasi, hayvon miyasidan ancha og'irdir.

Odam miyasi – 1400 g.

Ot miyasi – 650 g.

Gorilla miyasi – 400 g.

Ho'kiz miyasi – 500 g.

Kit miyasi – 2800 g.

Fil miyasi – 4000 g.

Individ psixik hayotida miyaning og'irligi alohida ahamiyat kasb etadi. Ammo miyaning tuzilishi juda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun kishining aqli haqida miyaning og'irligiga qarab hukm chiqarish to'g'ri emas. Ba'zi kishilar miyasining vazni o'rtacha vazniga qaraganda ancha og'ir bo'lgani shuningdek, ba'zi kishilarning miya vazni o'rtacha darajadan kamroq ham bo'lgani ma'lum.

Masalan, I.S.Turgenevning miyasi 2012 g, V.M.Bexterevning miyasi 1720 g, I.P.Pavlovning miyasi 1653 g, D.I.Mendeleevning miyasi 1751 g, Anatol Fransisning miyasi 1017 g bo'lgan.

Odanning bosh miyasi kishi psixikasini o'ziga xos takrorlanmas, murakkab organi hisoblanib, u katta yarim sharlar, miyacha, oraliq miya, o'rta miya va uzunchoq miyadan iborat.

Bosh miya orqa miya bilan markaziy nerv tuzilmasini tashkil qilib, odam organizmidagi barcha organlarning o'zaro faoliyati va bir-biri bilan bog'lanishini hamda uning tashqi muhit bilan bo'ladigan aloqasini ta'minlaydi. Psixik faoliyatlarning ko'pgina qismi bir necha qator bo'lib, joylashgan nihoyatda ko'p nerv hujayralaridan (15 milliarddan ko'p) tashkil topgan, kulrang modda qatlamidan iborat bo'lgan bosh miya katta yarim sharlari qobig'ining faoliyati bilan bog'liqdir.

Nerv tizimi nerv to'qimasidan tashkil topgan bo'lib, u o'z navbatida **nerv hujayralaridan** iborat.

Har bir nerv hujayrasi, ya'ni neyron yadrosi bo'lgan juda ko'p tarmoqlangan kalta o'simtalar – **dendritlar** va bitta uzun o'simta - **akson**dan iborat hujayradan tashkil topgan.

Turli nerv hujayralarining tutashgan joyi **sinaps** deyiladi va u bir neyron dan boshqasiga impulslarni o'tkazish (to'xtatish yoki ushlab qolish) ni ta'minlaydi.

Nerv hujayralari to'plami miyaning kulrang moddasini, nerv tolalarining to'plami esa miyaning **oq moddasini** tashkil etadi. Nerv to'qimasi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular **qo'zg'aluvchanlik** va **o'tkazuvchanlik** asosiy xususiyatlar hisoblanadi.

Markaziy nerv tizimi **bosh va orqa miyadan** iborat. **Orqa miya** umurtqa pog'onasining kanalida joylashgan bo'lib, nerv to'qimasidan iborat. Orqa miya ikkita yarim, ya'ni **o'ng va chap qismlardan** iborat bo'lib, ularni uzunasiga ketgan oldingi va orqa kesiklar ajratib turadi.

Orqa miyada nerv tolalarining tutamlari joylashgan bo'lib, sklet muskullari, nerv va shilliq qavatidagi periferik nerv uchlaridan qo'zg'alish nerv impulslari ko'rinishida, ular orqali miyaga u yerdan esa periferiyaga yetkaziladi.

Orqa miyada ongsiz reflektor harakatlarning gavda va qo'l-oyoqlar muskullarning, shuningdek bir qator fiziologik jarayonlarning tomirlarni harakatlantiruvchi, teri ajratuvchi va boshqa markazlar joylashgan.

Bosh miya qutida joylashgan bo'lib, orqa miyaning ustida joylashganga o'xshaydi. **Bosh miyada uzunchoq miya, orqa miya, o'rta miya, oraliq miya va oldingi miya** farqlanadi.

Orqa miya, Varoliy ko'prigi va miyachadan iborat bo'lib, uzunchoq miya bilan birgalikda **miya sopini** tashkil qiladi. Miya sopi orqa miyani davomidek tutashgan.

Uzunchoq miya orqali orqa miyadan bosh miyaning yuqori bo'limlarga impulslar o'tadi va orqaga qaytadi. Uzunchoq miyaning yadrolari murakkab refleks aktlarida ishtirok etadi: so'rish, chaynash, so'lak ajratish va hokazo.

Miyacha tana harakatlarini muvofiqlashtirishda ishtirok etadi. **O'rta miya**–to'rt tepalik qizil yadro muskul tonusining me'yoriy taqsimlanishini, tovush va yorug'lik qo'zg'atuvchilarini hamda og'irlik kuchiga nisbatan tananing to'g'ri joylashishini idora etadi.

Oraliq miyada sezuvchanlikning oraliq markazlari mujassamlashgan. Oldingi miya va uni qoplab turgan po'stloq bosh miyaning oliy qismlarini tashkil etadi.

Oldingi miya bosh miyaning eng katta qismini deyarli **80 foizini** tashkil qiladi va peshona sohasidan ensagacha cho'zilgan yoriq bilan ajrashgan ikkita o'ng va chap yarim sharlardan bir-biri bilan qadoqsimon tana yordamida birikadi.

Yarim sharlarning barcha yuzasi (qariyb 2200 sm) **miya po'stlog'i** deyiladi. Miya po'stlog'i kulrang moddadan tashkil topgan. Uning qalinligi turlicha bo'lib 4-5 mm.gacha boradi. Bosh miya katta yarim sharlari qobig'ining yuzasi odamda katta sohaga ajratiladi, **peshona (eng katta), tepa, ensa** va chakkadan iborat. Bir xildagi hujayralar qatlamidan iborat qismlar (qobiq shakli va faoliyatining vazifalari turlicha bo'lgan oltita qatlam hujayralaridan tashkil topgan) **qavatlardan** (maydon) iborat. Odamda hammasi bo'lib, **52 ta** maydon mavjud.

Bosh miyaning po'stlog'i ostida yotgan qismlarini **qobiq osti sohasi** deyiladi. Qobiq osti sohasi va qobiq osti tutamlari umumiy sezuvchanlikning differensiyalashgan markazlari hisoblanadi. Bu soha bizning emotsiyalarimiz va instinktlarimiz bilan bog'langan.

Periferik nerv tizim markaziy nerv tizimi bilan ajralmas yaxlitlikni tashkil etadi. Periferik nerv tizimi markaziy nerv tizimidan chiqib, tarmoqlanib, shu bilan birga butun organizmni markaziy nerv tizimi bilan bog'lovchi nervlardan tashkil topadi.

Bosh miyadan **12 juft**, orqa miyadan esa **31 juft** nervlar chiqadi. Periferik nervlarning ikki turi: **sezuvchi va harakat nervlari** farqlanadi. Sezuvchi nervlar nerv uchlaridagi tuzilmalarda ta'sirlovchilar tufayli hosil bo'lgan qo'zg'alishni markazga, ya'ni orqa miya va bosh miyaga yetkazib beradi. Ushbu nervlar boshqacha qilib aytganda, qo'zg'alishni qabul qiluvchi **markazga intiluvchi yoki afferent nervlar** deyiladi.

Harkatlantiruvchi (motor) nervlar markazdan kelayotgan impulsni muskullarga va bezlarga yetkazadi. Bu nervlarni **markazdan qochuvchi yoki efferent nervlar** deb ham ataladi. **Vegetativ nerv tizimi** – orqa miya bo'ylab va undan chetda joylashgan nerv tizimlari alohida tutamlar va nerv tugunlarining chigallaridan iboratdir. Vegetativ nerv tizimining alohida tutamlari ovqat hazm qilish, qon aylanish, nafas olish va boshqa organlarida joylashgan bo'lib, ichki organlarning faoliyatini idora qiladi.

Vegetativ nerv tizimidan (uning markazlari gipotalamusda orqa miyaning kurak va yuqori bel segmentlarida joylashgan) va **parasimpatik nerv tizimidan** (uning markazlari o'rta miyadagi turli tepalikda Varoliy ko'prigida, uzunchoq miyada va orqa miyaning dumg'aza qismida joylashgan) iborat.

Simpatik va parasimpatik nerv tizimi ichki a'zolar faoliyatini idora qilishda o'ziga xos "antagonistlar" qarama-qarshi bo'lib, bir organ faoliyatini qarama-qarshi holatga keltiradi. *Masalan*, simpatik tizim yurak faoliyatini tezlashtirsa, parasimpatik tizim esa bu faoliyatni susaytiradi. Organizmning me'yordagi faoliyati simpatik va parasimpatik vegetativ nerv tizimining ma'lum bir "muvozanatida" saqlanadi. Vegetativ nerv tizimi emotsional kechinmalarda katta rol o'ynaydi.

Odamning ko'pincha psixik jarayonlarini, xususiyatlarini va holatlarini idora etishda **retikulyar formatsiya** alohida rol o'ynaydi. **Retikulyar formatsiya** orqali

miyada uzunchiq va keyingi miyada joylashgan nerv tolalari tarmog'i bilan o'zaro birikkan to'rsimon tuzilmadir. U bosh miyaning elektrik faoliyatiga, bosh miya qobig'ining funksional holatiga, qobiqosti markazlariga, miyachaga va orqa miyaga ta'sir qiladi.

Ilmiy psixologiyada miya psixikaning organi sifatidagi o'rganish tarixi **ikkita yo'nalishda** borgan organizm va muhit munosabatlarini idrok etish asoslarini o'rganish va miyaning alohida tuzilmalarini morfologiyasi va funksiyasini ochishdan iborat.

R.Dekart tomonidan **XVII asrda** refleks tushunchasini fanga kiritilishi organizm va muhit ta'siri asoslari ochilishi borasidagi muhim nazariyalardan biri sifatida rol o'ynaydi.

Refleks – organizmning tashqi va ichki ta'sirotlarga markaziy nerv tizimi orqali bergan javob reaksiyasidir. **I.M.Sechenov (1829-1905)** tomonidan amalga oshirilgan bu tushunchaning rivojlantirilishi va bu mexanizmning barcha psixik jarayonlarga tegishli ekanligi shunga olib keladi-ki, ilmiy psixologiyada **determinizm tamoyili** uzil-kesil o'z tasdig'ini topdi.

Inson hayotida reflekslarni yuqori baholab, **I.M.Sechenov** tomonidan quyidagicha ta'rif beriladi: "*Ongli va ongsiz hayotning barcha aktlari (harakatlari) kelib chiqishi usuliga (mohiyatiga) ko'ra reflekslardir*".

Reflektor aktda **I.M.Sechenov** uchta bo'g'imni ajratadi:

1. Birinchi bo'g'imda sezayotgan "to'pning" ta'sirlanishi nerv qo'zg'alishiga aylanadi.

2. Qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari asosida o'ziga xos ravishda axborotni qayta ishlash va qaror qabul qilish ro'y beradi.

3. Buyruqni amalga oshiruvchi organlarga (muskullarga va bezlar va hokazo) uzatish.

I.P.Pavlov (1849-1936) I.M.Sechenovning miya reflektor faoliyatini o'rganish borasidagi g'oyasini rivojlantirib, refleks tushunchasiga yangi mazmun kiritdi hamda shartli reflekslarning hosil bo'lish asoslarini yaratdi. Reflekslarning **ikki turi** farqlanadi: **shartsiz va shartli reflekslar**.

Shartsiz reflekslar tug'ma bo'lib, hayotning dastlabki kunlaridan va keyinchalik, hech qanday tajribasiz (malakasiz) namoyon bo'la boshlaydi. **Masalan**, igna sanchilganda qo'lni tortib olinishi, ovqatning og'iz bo'shlig'ida tushgandagi so'lakning ajralishi.

Shartsiz reflekslarning markazlari turlichadir – shartsiz reflekslar yoylarning tutashuvchi orqa miyadan va bosh miyaning o'sishidan ro'y beradi. Shartli reflekslarning hosil bo'lish sohasi bosh miya po'stlog'idir. Shartli ta'sirlagich organizmning hayoti uchun muhim bo'lgan qandaydir hodisalarning mavjudligi haqida, masalan, ovqatning mavjudligi, xavf- xatarning paydo bo'lishi haqida xabar beradi.

Shuning uchun **I.P.Pavlov** bosh miya qobig'i faoliyatini signal faoliyati deb nomladi. **I.P.Pavlov** shartli reflekslar metodidan foydalanib, shuni aniqladiki, bosh miya katta yarim sharlari faoliyati organizmning ichki muhitidan va tashqi muhitdan nerv tizimiga kelayotgan ko'pgina ta'sirlovchilarning tahlil va sintez jarayonlaridan


iborat ekan. Analiz va sintez **I.P.Pavlov** tomonidan **analizatorlar** deb nomlangan o'ziga xos nerv tizimlari yordamida amalga oshiriladi.

Analizatorlar – bu nerv fiziologik apparat bo'lib, periferiyadagi nerv uchidan (**retseptor**) sezuvchi nervdan (**o'tkazish yo'li**) va miya qobig'ining tegishli qo'zg'atuvchini qabul qiluvchi sohasidan iboratdir.

I.P.Pavlovning birinchi va ikkinchi signal tizimlari to'g'risidagi ta'limoti ilmiy psixologiya uchun katta ahamiyatga egadir.


Hayvonlar uchun borliq katta yarim sharlaridagi ta'sirlagichlar va ularning izlari bilan signallashib ular organizmning ko'rish, eshitish retseptorlariga bevosita kelib turadi. Bu **birinchi signallar** tizimi bo'lib, odam va hayvonlarda umumiydir. So'zlar **ikkinchi**, maxsus insoniy signal tizimini tashkil etadi. So'zlar narsa va hodisalardan kelayotgan signallarning o'mini egallagani uchun **I.P.Pavlov** tomonidan "**signallar signali**" deb nomlangan. Ikkinchi signal tizimining faoliyati birinchi signal tizimidan ajralmagan holda bevosita bog'liq tarzda boradi. Ikkinchi signallar tizimi **tafakkur va nutqning** fiziologik asosi hisoblanadi.

Refleksning klassik tushunchasi yordamida psixik faoliyat asoslarini tushuntirishdagi muhim kamchilik shundan iboratki, refleks tizimi inson psixikasining idora etuvchi va o'zgartiruvchi rolini tushuntirib bermaydi. **I.P.Pavlovning** shogirdlari va izdoshlari bu kamchilikni reflektor organik tizimi tushunchasini reflektor halqasi tizimi tushunchasiga o'zgartirish yo'li bilan yechishga intildilar.



Reflektorlik faoliyatini anatomik fiziologik mexanizmi:
Analizatorning sxemasi. (1,2,3) Reflektorlik faoliyati.
(1,2,3,4,5) va reflektorlik aylanasi (1,2,3,4,5,6,7). 1-
retseptor, 2-afferent nerv yo'li, 3-markaziy bug'in, 4-
efferent nerv, 5-effektor, 6-7- qaytish kanali.

Nerv tizimining reflektorlik faoliyati borasida qator ishlar amalga oshirilgan bo'lib, ular tomonidan turli sxemalar ishlab chiqilgan. Jumladan, **Bernshteyn** bo'yicha reflektor aylanasi quyidagi ko'rinishga ega.



Bernshteyn bo'yicha reflektor aylanasining tuzilishi

Psixikaning fiziologik asoslarini ochish muammolariga hayotning ko'p yillarini bag'ishlagan rus fiziologi **P.K.Anoxin (1898-1974)** qaytarma afferentatsiya tizimlarini aniqladi, natijada **harakat akseptori** deb nomlangan harakatini rejalashtiruvchi va idora etuvchi o'ziga xos funksional organlarga ajratildi.

Fanda ilmiy soha sifatida frenologiyaning asoschisi **F.Gall XIX asrning** boshlarida odamning turli qobiliyatlari, hatto kalla suyagining yuza qavatdagi turli nerv to'qimalari uchraib turadigan joyning kuchliroq rivojlanishi bilan bog'liq deb isbot qilishga harakat qilgan. Alohida psixik funksiyalarning bosh miyasini ma'lum bir qismlariga tegishli ekanini, uning lokal (joylashish) jarohatlanganligida kuzatishgan. Shu yo'l bilan chap yarim sharining uchinchi peshona burilishida nutq artikulyatsiyasini (talaffuzini) amalga oshiradigan **Broka markazi** (uni aniqlagan fransuz anatomi P.Broka nomi bilan atalgan) so'ngra esa o'sha chap yarim sharining yuqori chakka burmasining orqa qismida "nutqni tushunishini idora qiladigan" **Vernike markazi** (uni ochgan nemis psixiatri K.Vernike nomi bilan atalgan) ajratilgan.

Mashhur neyropsixolog **A.R.Luriyaning** fikricha, aynan shuning uchun miyaning cheklangan sohalaridagi psixik funksiyalarni "lokalizatsiyalash" vazifasi "ushbu funksional tizimni amalga oshiradigan birgalikda ishlovchi miya zonalarining o'sha tizimini tahlili, boshqacha qilib aytganda qanday qilib funksional tizim bosh miya apparatlari bo'ylab, tegishli tizimlar bo'ylab, joylashganligining tahlili" vazifasi bilan almashtirilishi lozim.

Inson miyasining funksional tuzilishini **A.R.Luriya 3 ta blokka** ajratadi:

1-blok – energetik blok, u miya po‘stloq qismining normal ishlash tonusini ta‘minlaydi. Miya po‘stining yuqoridagi qismida joylashgan. **2-blok** – axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash va saqlash bloki (ikkala yarim sharlarning orqa qismiga tepa chakka va ensa qismlariga joylashgan). **3-blok** – faoliyatni dasturlashtirish, boshqarish va nazorat qilishni ta‘minlaydi (peshona qismida joylashgan).

Odami va hayvonlar miyasining funksional tizimida muhim farqlar kuzatiladi. Hayvonlarning ikkala yarim sharlari bir xil qiymatga ega bo‘lgan bir vaqtda odamning chap yarim shari odamda dominanta (hukmron) bo‘lib, o‘ng miya yarim shari esa unga bo‘ysungandir va bu o‘ng qo‘lning yetakchi roli bilan bog‘langan (chapaqaylarda bunday dominantlik yoki o‘chib ketadi, yoki o‘ng yarim sharga o‘tadi).

Chap miya yarim sharida odamning xatti-harakati va faoliyatining murakkab shakllarini idora etish bilan bog‘liq bo‘lgan nutq markazlari joylashgan.

Bu markazlarning buzilishi mantiqiy-grammatik operatsiyalarning (semantik afaziya) va tafakkurning ijodiy shakllarini buzilishiga olib kelsa, ayni shu damdagi o‘ng miya yarim shar xuddi shunday sohalarining buzilishi esa idrokning tasavvur komponentlarini va emotsional jarayonlarini buzadi.

To‘plangan ilmiy ma‘lumot asosida shuni ta‘kidlash mumkinki, chap miya yarim shari o‘ng yarim sharining ishiga nisbatan differensialashganidir.

Odami bosh miyasi, miya katta yarim sharlarining ixtisoslashgan funksiyalarining mavjudligi haqidagi ma‘lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

№	Chap yarim shar	O‘ng yarim shar
1.	Xronologik tarkib	O‘tayotgan vaqt
2.	Xarita va chizmalarni o‘qish	Aniq makon
3.	Nomlarni, izlarni belgilarni yodda saqlab qolish	Tasavvurlar, aniq voqealarni yodda saqlab qolish
4.	Nutq faoliyati mohiyatini his etish	Emotsional holatni idrok etish
5.	Olamni xursandchilikda osoyishta ko‘rish	Olamni g‘amgin holda ko‘rish
6.	Batafsil idrok qilish	Yaxlit idrok qilish

Odamning har bir psixik jarayoni holati va xususiyati butun markaziy nerv tizimining faoliyati bilan bog‘liqdir.

Ong haqida tushuncha

Ong psixikaning eng yuksak darajasi bo‘lib u faqat insongagina xosdir. Ong ijtimoiy tarixiy sharoitda odam mehnat faoliyatining tarkib topishida til yordamida boshqa kishilar bilan doimiy munosabatda bo‘lish natijasidir. Bu ma‘noda ong mutafakkirlar ta‘kidlab o‘tganlaridek, ijtimoiy mahsulotdir.

Onguving birinchi xossasi – bu anglash demakdir. Inson ongi tevarakatrofdagi tashqi olamga doir bilimlar yig‘indisidan iboratdir. Anglash tashqi olamdagi narsalarni tushunish bo‘lib, uring tarkibiga muhim bilish jarayonlari kiradi.

Ogning ikkinchi xossasiga binoan, ongda obyekt bilan subyekt o'rtasidagi aniq farq o'z ifodasini topadi, ya'ni odam «men» degan tushunchani «men emas» tushunchasidan farqini ajratadi. Odam o'zini bilish qobiliyatiga ega bo'lgan, ya'ni psixik faoliyatda o'zini o'zi tekshira oladigan yagona mavjudotdir.

Ogning uchinchi xossasiga asosan ong yordami bilan odamning maqsadni ko'zlash faoliyati ta'minlanadi. Faoliyat maqsadlarini yaratish oning vazifasiga kiradi. Bunday faoliyat motivlari yuzaga keladi va chamalab ko'riladi, irodaviy qarorlar qabul qilinadi, harakatlarni bajarish yo'llari hisobga olinadi.

Ogning to'rtinchi xossasiga asosan turli munosabatlardan ongli ravishda turli his-tuyg'ular yuzaga keladi. Ong kishilar munosabatlarining yig'indisidir.

Ong yuzaga kelishining asosiy sharti, vositasi **tildir**. Psixikaning eng quyi darajasi ongsizlikdir. **Ongsizlik** – bu shunday psixik jarayonlar va hodisalar yig'indisiki, unda inson o'z xatti-harakatlariga javob bermaydi, anglamaydi. Bunga tush ko'rish, ba'zi patologik hodisalar, alaxlash, gallyusinatsiya kabilar kiradi.

Xulosa qilib aytganda, psixologiya hayot faoliyatining o'ziga xos shakli bo'lib, psixik rivojlanishning qonuniyat va mexanizmlarini o'rganuvchi fandır. Psixologiya fanining **asosiy vazifasi** psixik hodisalarni o'rganish va ilmiy asoslashdir. Psixik hodisalar ma'lum qonuniyatlarga bo'ysunadi. Psixologiya shunday qonuniyatlarni mohiyatini ochishga, ularni tarkib topishi va rivojlanishini o'rganishga qaratilgandır. Ushbu qonuniyatlarni bilish, ularni boshqarish, tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri olib borishga yordam beradi.

Tayanch tushunchalar

Akc ettirish nazariyasi- in'ikos nazariyasi; psixik hodisalar borliqni aks ettirishning shakllaridan biri deb qaraladigan nazariya.

Animizm (lot. anima - jon) - odam, hayvonot, o'simlik, predmetlarda mustaqil jon mavjudligi haqidagi tasavvur tizimi.

Asab tizimi - xayvon va odam organizmining barcha funksiyalarini o'zaro hamda tashqi muhit bilan to'g'rilab, uyg'unlashtirib turuvchi a'zolar tizimi.

Birinchi signal tizimi - narsa va xodisalarning sezgi, a'zolariga bevosita ta'sir etishi natijasida bosh miya yarim sharlari qobig'ida hosil bo'ladigan shartli muvaqqat nerv bog'lanishlari, u sezgi va idrok turlarida namoyon bo'ladi.

Bosh miya - markaziy nerv tizimining old (yuqori, oliy) qismi bo'lib, u bosh miya qobig'ida joylashgan oliy nerv tizimining moddiy asosi.

Bosh miya katta yarim sharlari - bosh miyaning ikki pallasi. Uning ustki qismi uchun chuqur bo'lmagan o'nqir cho'nqirlardan iborat. Bosh miya katta yarim shari orqa, old, yon, orolcha, orqa umurtqalarga bo'linadi. Miya nerv kataklari neyronlardan iborat bo'lib, ikki katta yarim sharlar po'stlog'ini tashkil etadi. Miyadagi oq suyuqlik neyron o'simtlaridan tarkib topib, miya yo'llarini ko'rsatib turadi.

Vegetativ nerv tizimi (lot. vegetatio - o'simlik) - nerv tizimining organizm ichki a'zolari faoliyatini va modda almashinuvini boshqarib turadigan bir qismi.

Dualizm (lot, duafis - ikki yoqqlami) – borliq ham moddiy, ham ruhiy bo'lgan ikki asosdan tashkil topgan deb hisoblovchi falsafiy ta'limot bo'lib, psixofizik parallelizm konsepsiyasining asosidir.

Ikkinchi signal tizimi - odamga xos shartli reflektor bog'lanishlar tizimi bo'lib, nutq signallarining bevosita ta'sirida shakllanadi.

Mielin (yunon. myelos – iliq)- nerv tolalarning yumshoq qobig'i tarkibiga kiruvchi yog'simon moddalar aralashmasi.

Neyron (lot. neuron - tola, ip) - asab tizimining asosiy tuzilishi va funksional birligi, u asab katakchalari, to'qima va undan uzoqlashuvchi o'simtalardan iborat.

Nervlar - tizimchasimon murakkab tuzilma, nerv tolalari tutami, ular miyani va nerv tushunchalarini tananing boshqa a'zolari bilan bog'laydi.

Ong - obyektiv borliqni psixik aks etirishning faqat insongagina xos yuqori usuli. Odamlarning ijtimoiy tarixiy faoliyati vositasida paydo bo'lgan.

Ongsizlik - odam ongiga borib yetmagan psixik jarayonlar majmui.

Ongosti holatlari - faol ravishda anglab olinmaydigan psixik jarayonlar va psixik holatlar yig'indisi. Odamning xatti -harakatlari va uning ongi mazmuniga ta'sir etishga qodir.

Psixika (yunon. psychikos – ruhiy) - yuksak darajada tashkil topgan materiya – miyaning funksiyasi. Uning mohiyati tuyg'ular, idrok, tasavvur, fikrlar, iroda va boshqalar ko'rinishida aks etirishdan iborat.

Psixik jarayonlar - u yoki bu psixik mahsulot va natijalarni (psixik obrazlar, holatlar, tushunchalar, hissiyot va x.k.) hosil qiluvchi, shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi jarayon.

Psixologiya (yunon. Psyche – puh logos - bilim) - odamning obyektiv borliqni sezgi, idrok, tafakkur, tuyg'u - hissiyot va boshqa psixik holatlar orqali aks ettirish jarayonini o'rganadigan fan.

Refleks (lot. Reflexus - aks etish) - organizmning markaziy nerv tizimi orqali ichki yoki tashqi muhit omillari ta'sirida retseptorlar qo'zg'alishiga javoban ko'rsatiladigan reaksiyasi.

Retseptor (lot, recipere - qabul qilmoq) - analizatorning qo'zg'alishini qabul qiluvchi ichki qismi.

Shartli refleks (lot. reflexus - aks etish) - reflektor nazariyasining asosiy tushunchasi, shartli qo'zg'ovchilarga javob berishdan iborat refleks.

Shartsiz refleks (lot. reflexes - aks etish) - psixikaning I.M.Sechenov va I.P.Pavlov tomonidan kashf etilgan reflektor nazariyasining asosiy tushunchasi har qanday ta'sirga instinktiv javob berishdan iborat tug'ma refleks.

Efferent nerv (lot, efferens - olib chiquvchi, neuron - asab) – nerv impulslarini markaziy nerv tizimidan ish bajaruvchi a'zolarga o'tkazuvchi nerv.

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan mavzular

- 1.Psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
- 2.Psixologiyani fan sifatida shakllanishi.
- 3.Miya va psixika.
- 4.Ong haqida tushuncha va uning xossalari
- 5.Ong va ongsizlik muammosi
- 6.Sharq mutafakkirlarining psixologiya fani rivojlanishiga qo'shgan hissasi.
- 7.Inson ongi va hayvon psixikasi o'rtasidagi farqlar.
- 8.Psixologiyaning moddiy asoslari.

9. Psixika va aks ettirish xususiyatlari

Test topshiriqlari

1. Psixologiya fani nimani o'rganadi?

- A) Idrok qilish shakllarini;
- B) Jon va ruh haqidagi ta'limot;
- V) Ruhiy jarayonlar bilish faoliyatlari, individual psixologik xususiyatlarni;
- G) Psixik faktlar va uning mexanizmlari, qonuniyatlari haqidagi fan;
- D) Inson shaxsi uning psixologik xususiyatlarini.

2. Psixik faktlar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Bilish faoliyatlari: diqqat, nutq, faoliyat;
- B) Bilish jarayonlari: sezgi, idrok xotira, tafakkur va xayol;
- V) Ruhiy holatlar yoki shaxsning xissiy irodaviy sohasi: hissiyot, iroda;
- G) Ruhiy xususiyatlar yoki individual psixologik xususiyatlar: temperament, karakter, qobiliyat;
- D) Barcha javoblar to'g'ri.

3. Qaysi qatorda psixik aks ettirish xususiyatlari ko'rsatilgan?

- A) Obyektiv borliqni to'g'ri aks ettirish imkonini beradi;
- B) Obyektiv borliqni to'g'ri aks ettirish xususiyatlari ko'rsatilgan;
- V) Doimo rivojlanib va shakllanib boradi;
- G) Shaxsning individualligi orqali namoyon bo'ladi;
- D) Barcha javoblar to'g'ri.

4. Qaysi qatorda dastlabki psixologiya to'g'risidagi ilk tasavvur ko'rsatilgan?

- A) Dualizm;
- B) Animizm;
- V) Afaziya;
- G) Ideyalar tug'ma bo'ladi;
- D) To'g'ri javob berilmagan.

5. Jon o'z mohiyatiga ko'ra olovsimon uchqundan iboratligini ilgari surgan olim?

- A) Geraklit;
- B) Demokrit;
- V) Aflotun;
- G) Arastu;
- D) Fales;

6. Jon o'z mohiyatiga ko'ra, olovsimon atomdan iboratligini ilgari surgan olim?

- A) Geraklit;
- B) Demokrit;
- V) Aflotun;
- G) Arastu;
- D) Fales.

7.«Ideyalar abadiy va o'zgarmas mohiyatdir, ularning tabiiy olamidan tashqarida oliy olam mavjud bo'lib, ularni odam ko'zi bilan ko'ra olmaydi» mazkur fikr muallifini toping.

- A) Geraklit;
- B) Demokrit;
- V) Aflotun;
- G) Arastu;
- D) Fales.

8.«Dualizm» oqimining asoschisi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Geraklit;
- B) Demokrit;
- V) Aflotun;
- G) Arastu;
- D) Fales.

9. Dualizm talimotining mohiyati?

A) moddiy va ruhiy olam tana va psixikasining bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lib, azaldan qarama- qarshi narsalar deb tushuntiradi;

B) ideyalar adabiy va o'zgarmas mohiyatdir;

V) jon va tana bir-biriga bog'liqdir;

G) jon va tana bo'linmas birlik ega, lekin faoliyatlar jarayonida ular bir-birlarini tark etadilar;

D) to'g'ri javob berilmagan.

10. Kishilik tafakkuri tarixida kim birinchi bo'lib, ruh va jonli tananing ajralmasligini isbotlab berdi?

- A) Aflotun;
- B) Anakseman;
- V) Arastu;
- G) Geraklit;
- D) Fales.

11.«Jon qismlarga bo'linmaydi, lekin u faoliyatning oziqlanishi, his etishi va harakatga kelishi, aql-idrok kabi turlarga oid qobiliyatlarni namoyon qiladi» mazkur fikr kim tomonidan ilgari surilgan?

- A) Aflotun;
- B) Anakseman;
- V) Arastu;
- G) Geraklit;
- D) Fales.

12. Dunyoda kim birinchi bo'lib psixoterapevtik usullarni qo'llagan?

- A) Aflotun;
- B) Arastu;
- V) Abu Ali ibn Sino;
- G) Abu Nasr Forobiy;
- D) Abu Rayhon Beruniy.

13. Qaysi qatorda inson miyasining og'irligi to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) 1250-1300g ;

- B) 1250-1350g;
- V) 1380-1450g;
- D) 1350-1475g;
- G) 1350-1400g.

14. Inson miyasida qancha miqdorda nerv hujayralari mavjud?

- A) 11 mil;
- B) 13 mil;
- V) 14-15 mil;
- G) 13-14mil;
- D) 12-13 mil.

15. Inson miyasining funksional tuzilishini o'rgangan olim qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) I.P.Pavlov;
- B) I.M.Sechenov;
- V) A.R.Luriya;
- G) M.Teplov;
- D) Neblitsin.

16. Nerv hujayrasi va uning o'simtalari ularni qoplovchi pardalar deb ataladi.

- A) akson;
- B) dendrit;
- V) sinaps;
- G) neyron;
- D) refleks.

17. «Bosh miya reflekslari» asarining muallifi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) I.P.Pavlov;
- B) I.M.Sechenov;
- V) A.R.Luriya;
- G) M.Teplov;
- D) Neblitsin.

18. «Ongli va ongsiz hayotning barcha aktlari o'zining yuzaga kelishi jihatidan reflekslardan iboratdir» mazkur fikr muallifi va asarning nomi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) I.M.Sechenov «Bosh miya funksiyalari»;
- B) I.P.Pavlov «Bosh miya reflekslari»;
- V) I.P.Pavlov «Oliy nerv faoliyati qonuniyatlari»;
- G) I.M.Sechenov «Refleks va reflektor yoyi»;
- D) I.M.Sechenov «Bosh miya reflekslari».

22. Psixik jarayonlar organizmda qanday funksiyalarni bajaradi?

- A) aks ettiruvchanlik;
- B) signallilik;
- V) boshqaruv;
- G) psixik;
- D) aks ettiruvchilik, signallik, boshqaruv.

19. Psixik faoliyatning ruhiy jihatdan boshqarilishi reflektor xarakterga ega ekanligi haqidagi g'oyani ilgari surgan psixolog olim qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) I.P.Pavlov;
- B) I.M.Sechenov;
- V) A.R.Luriya;
- G) M. Teplov;
- D) Neblitsin.

20. I.P.Pavlovning psixologiya fanidagi yangiligi nimadan iborat?

- A) oliy nerv faoliyati qonuniyatlarini
- B) ikki xil signal tizimi haqidagi talimot
- V) shartsiz va shartli reflekslar tajriba asosida o'rganildi.
- G) oliy nerv faoliyati qonuniyatlarini, ikki xil signal tizimi haqidagi talimot.
- D) Barcha javoblar to'g'ri.

21.psixikaning eng yuksak darajasi bo'lib, u, faqat insongagina xosdir.

- A) psixika;
- B) ongsizlik ;
- V) ong;
- G) amaliy tafakkur;
- D) to'g'ri javob yo'q;

22. Ongning xarakterli xossalari qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) anglash;
- B) obyekt bilan subyekt o'rtasidagi farqni anglash;
- V) maqsad ko'zlash;
- G) kishilar munosabatlarining yig'inishidir.
- D) barcha javoblar to'g'ri.

23.bu shunday psixik jarayonlar holatlar yig'indisiki, unda inson o'z xatti-harakatlariga javob bermaydi, anglamaydi.

- A) tush ko'rish;
- B) ongsizlik;
- V) alahlash;
- G) gallyusinatsiya;
- D) patalogik hodisalar;

24. Turli nerv hujayralarining to'plashgan joyi bu.....

- A) oraliq miya;
- B) neyron;
- V) dendrit;
- G) akson;
- D) sinaps.

25. Refleks tushunchasi dastlab fanga kim tomonidan kiritilgan?

- A) I.M.Sechenov;
- B) I.P.Pavlov;
- V) R.Dekart;
- G) Spinoza;

D) Anoxin;

26. Organizmning tashqi va ichki ta'sirotlariga markaziy nerv tizimi orqali beradigan javob reaksiyasi deb ataladi.

A) instinct;

B) reflex;

V) ko'nikma;

G) malaka;

D) odat.

27. Quyidagi fikr kim tomonidan ilgari surilgan «Ongni katta ko'lamiga ega materiyadan sira qolishmaydigan voqelik, yani yaqqol narsa deb tushuntiradi».

A) Leybnis;

B) Gartli;

V) Spinoza;

G) Gobbs;

D) Dekart.

28. Ruhni mutlaqo rad etib, mexanik harakatning yagona voqelik deb tan olib, uning qonuniyatlari psixologiyaning ham qonuniyatlari ekanligini takidlagan olim qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) Leybnis;

B) Gartli;

V) Spinoza;

G) Gobbs;

D) Dekart.

29. Psixika miyaning funksiyasi haqidagi talimot qachon vujudga keldi?

A) XVII asrda;

B) XVI;

V) XIX asr o'rtalarida;

G) XVIII asrda;

D) XVIII asr o'rtalarida.

30. Determinizm tamoyilini targ'ibotchisi bo'lgan psixolog olim qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) Gartli;

B) Gobbs;

V) Dekart;

G) Jon Lokk;

D) Spinoza.

Nazorat savollari

1. Psixologiya fanining predmeti maqsadi va vazifalarini ko'rsatib o'ting?
2. Psixologiya fanining shakllanish bosqichlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Psixologiyaning moddiy asosi nimalar bilan belgilanadi?
4. Ong tushunchasining mohiyatini izohlang?
5. Insonlarda ongsizlik holati qachon ro'y beradi?
6. Inson va hayvon psixikasi o'rtasidagi farqlar nimalarda ko'rinadi?


PSIXIKA VA ONGNING TARAQQIYOTI

Psixikaning filogenetik taraqqiyoti

Jamiki materiya, jonsiz anorganik materiyadan tortib, to organik materiyaning yuksak hamda murakkab shakli – inson miyasigacha moddiy olamning umumiy xususiyatiga, ya'ni turli ta'sirlarga javob qaytarish qobiliyatiga egadir.

Voqelikdagi ta'sirni aks etish qobiliyati-materiyaning umumiy xususiyatidir. Lekin olamda tirik va o'lik tabiatni aks etishi turlichadir. Tirik materiyaning tashqaridan ta'sir etayotgan moddalar almashinuviga javob berishi ta'sirlanuvchanlik deb ataladi. Oddiy ta'sirlanuvchanlik barcha o'simliklarga xos. Evolyutsiya jarayonida organizmlar tashqi muhit bilan munosabatlarining umumiy turini o'zgarishi natijasida ta'sirlanuvchanlikning sifat jihatidan yangi bosqichga o'tishi sezuvchanlikni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. A.N.Leontevning faraziga asosan sezuvchanlik «genetik shunday ta'sirlanuvchanlik-ki tashqi muhit ta'siriga organizmni yo'naltiradi va buning natijasida organizm tashqi muhitida signal vazifasini bajaradi.

Jonsiz tabiatda harakat, jism yoki moddalarning o'zaro mexanik, fizik va kimyoviy munosabatlari tarzida namoyon bo'lishi mumkin. Materiyaning aks ettirish shaklini quyidagicha ifodalash mumkin:



Demak, sezuvchanlik shunday ta'sirlanuvchanlik-ki, uning natijasida hayot uchun zarur ta'sirlar signallashadi. Sezuvchanlikning namoyon bo'lishi, psixikaning paydo bo'lishiga obyektiv biologik belgi sifatida xizmat qiladi. Psixik ta'sirlanuvchanlikning o'ziga xos yuqori sifat o'zgarishi –sezuvchanlik-psixik aks ettirishning oddiy turi yuzaga kelganida boshlanadi. Hayvonlar evolyutsiyasi jarayonidagi psixikaning sifat o'zgarishlarini A.N.Leontev o'zi ifodalagan psixik rivojlanish bosqichlariga asos qilib oldi. A.N.Leontev bo'yicha psixika rivojlanish bosqichlarining jadval ko'rinishi va ularning sxematik ifodalanishi:

ASOSIY BOSQICHLAR

III	<i>intellektual bosqich</i> – predmet-lararo aloqalarni aks ettiradi.	
II	<i>perseptiv bosqich</i> – predmetni idrok etish bilan bog'liq.	
I	<i>sensor bosqich</i> – elementar sezuvchanlik bilan belgilanadi.	

1. **Elementar (sodda) sensor psixika bosqichi** - A.N.Leontev ta'rificha, tashqi muhit obyektning u yoki bu sifatiga qarab javob beraveradi. Bu oddiy sezish bosqichidir. **K.E.Fabri fikricha**, oddiy sensor psixikaning ikki-past va yuqori darajasiga ajratiladi. Ko'pgina bir hujayralilar hamda ayrim ko'p hujayralilarda psixik rivojlanishning past darajasi kuzatiladi. Bunda psixik faollikning oddiy turlari namoyon bo'ladi. Elementar psixikaning yuqori bosqichida ko'p hujayrali umurtqasizlarda namoyon bo'ladi. Bu hayvonot evolyutsiyasining zarur davridir. Nerv tizimi diffuz, to'rsimon ganglioz yoki zanjirsimon bo'lib, ular alohida predmetlarning sifatlarinigina aks eta oladilar. Hayvonlar uchun ushbu bosqichda predmet olami mavjud bo'lmaydi, ular obyektни idrok eta olmaydilar. Ular psixik aks ettirishi oddiy sezgi tarzida bo'ladi.

2. **Perseptiv bosqich** bo'lib, u tashqi, obyektiv voqelikni yaxlit aks etishi bilan xarakterlanib, alohida oddiy sezish turi emas. **K.E.Fabrining fikricha**, perseptiv psixikani ham ikki darajasi mavjud. **Past darajaga** yuqori darajali umurtqasizlar kiradi. Perseptiv psixikaning **quyi bosqichida** mavjud bo'lgan hayvonlar uchun ijobiy ta'sir etuvchilarni faol izlash xususiyati xosdir.


Predmetni idrok etish-perseptiv psixikaning yuqori darajasidir. Ushbu daraja rivojlangan nerv tizimiga ega umurtqalilarga xosdir.

3. **Intellektual bosqich** – yuksak darajada rivojlangan nerv tizimiga ega bo'lganlar, ya'ni odamsimon maymunlarga xosdir.

Seskanuvchanlik va tropizm

Hamma tirik organizmlar o'simliklardan tortib, hayvonlargacha aks ettirishning biologik shakli seskanuvchanlik xususiyatiga egadir. **Seskanuvchanlik** - tirik organizmning biologik ahamiyatiga ega bo'lgan ta'sirlariga javob qaytarish qobiliyatidir. Biotik, ya'ni biologik ahamiyatga ega bo'lgan omillariga maxsus harakatlar bilan reaksiya qilish usullariga **tropizm yoki taksislar** deyiladi.

Tropizm turlari quyidagi jadvalda yaqqol aks ettirilgan.



1. **Fototropizm** - bu tirik organizmning yorug'lik ta'sirida harakatga kelishidir. **Masalan**, yoz kuni tungi chiroq yorug'ligiga mayda chivinlarning uchib kelishi.

2.Termotropizm - tirik organizmning issiqlik ta'siri ostida harakat qilishga moyilligidir. *Masalan*, bahor kelishi bilan hashoratlarning jonlanib harakatga kelishi.

3.Xemotropizm - tirik organizmning fizik-ximiyaviy muhitni tanlab olishga bo'lgan moyilligidir. *Masalan*, achigan, qatiq, mevalarga mayda chivinlarning yig'ilishi.

4.Topotropizm - tirik organizmlarning mexanik qo'zg'atuvchilar ta'siri ostida harakat qilishga moyilligidir. *Masalan*, chirigan olmaga tegilsa, unga yig'ilgan mayda hashoratlarning hammasi uchib ketadi. **Mimoza** o'simligiga tegilsa, u darhol yaprog'ini yopib oladi.

5.Gemotropizm - tirik organizmning quyosh nuri ta'siri ostida harakat qilishga moyilligidir. *Masalan*, kungaboqar o'simligining quyosh nuri tomon harakatlanishi.

6.Barotropizm - tirik organizmning havo bosimi ostida harakat qilishga moyilligidir. *Masalan*, havo bulut bo'lganida, havoda uchib yurgan hashoratlar yerga pastga qarab uchadilar.

7.Gidrotropizm - tirik organizmning namlik suv ta'siri ostida harakat qilishga moyilligidir.

O'simliklarda aks ettirishning biologik shakli faqatgina tropizmlardan iborat bo'lib, bu harakatlar o'simliklarga o'zini o'zi boshqarishga yordam beradi, ya'ni ular o'zlari uchun foydali bo'lgan manbaga qarab intiladi yoki o'zini himoya qilishga doir boshqacha harakat qiladi. *Masalan*, nomozshomgul kechki payt ochilib, kunduzi yorug'likdan yopiladi. Hayvonlarda aks ettirishning yangi turi - sezuvchanlik yuzaga keladi. Sezuvchanlik qobiliyati tufayli, hayvonlar, o'simliklarga nisbatan ancha ko'p ta'surotlarni aks ettirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Hayvon nerv tizimi va miyasi qanchalik yuksak darajada taraqqiy etgan bo'lsa, uning psixikasi ham shunchalik yuqori bosqichga ko'tarilgan bo'ladi. Odamda psixikaning rivojlanishi eng yuqori bo'lib, ong darajasiga ega.

Hayvonlarning instinktlari

Instinktlar - hayvoning tabiiy ehtiyojlarini qondirish uchun qiladigan murakkab tug'ma harakatlaridir. Qushlar juda ustalik bilan in yasar ekanlar, material tanlash va inni pishiq qilib qurish yo'lida xilma-xil harakatlarni bajaradilar. *Masalan*, qaldirg'ochlarning in qurishi, Kalyushka deb ataluvchi baliqning erkagi suv tagida yerdan chuqurcha kovlab, uni mayda suv o'simliklari bilan to'sadi, inining yon devorini quradi va ustini berkitadi buni u yiriqroq o'simliklardan o'z tanasidan yelimsimon modda chiqarib yasaydi. Shundan keyin erkak baliq urg'ochi baliqni urug' qo'yish uchun haydab kirgizadi va to urug'dan baliqchalar ochib chiqqunga qadar in atrofini qo'riqlab turadi. **Rus zoopsixologi V.A.Vanger (1849-1934)** urg'ochi o'rgimchakning nomaqul bo'lib qolgan instinktlari sharotida uning xatti-harakatlarini kuzatgan va tasvirlab bergan edi. Chunonchi, ko'pincha o'rgimchak pillasining ichidagi zararkunandalar yeb ketgan bo'ladi. Lekin urg'ochi o'rgimchak bo'shab qolgan pillani qo'riqlashda va u yoqdan-bu yoqqa ko'chirishda davom etadi. Shunday hollar ham bo'ladi-ki, urg'ochi o'rgimchak pillani yasab va odatda tuxum qo'yish chog'ida bajariladigan harakatlarni bir necha marta takrorlab, amalda tuxum qo'ymasligi ham mumkin. Shunday bo'lsa-da, u kelgusi bosqichga, ya'ni bo'sh pillani qo'riqlashga va uni u yoqdan - bu yoqqa ko'chirishga o'tadi.

Asalarilar reaksiyasining maqsadga muvofiqligi ham nisbiydir. Agar muktakning orqa tomoni teshib qo'yilsa, asalari yaroqsiz uyaga ma'lum miqdordagi shirani to'kib bo'lgach, garchi uning ikkinchi tomonidan shira oqib ketadigan bo'lsa ham mum bilan berkitib ketadi. Fransuz tadqiqotchisi **K.E.Fabri** yer arisining bir qolipdagi maqsadga muvofiq bo'lmagan xatti-harakatini kuzatgan edi. Yer arisi uyasining oldiga chalajon chigirtkani keltirib, barcha arilar singari uyasini tekshirish uchun kirib ketganida tadqiqotchi uning o'ljasini yiroqqa surib ko'yadi. Ari uyasidan chiqib, uni izlab, shoshib yana uyasining oldiga qo'yadi va tekshirish uchun yana uyasiga kirib ketadi. **K.E.Fabri** arining uyasi oldidan chigirtkani qirq marta chetga surib qo'yadi va ari qirq martasida ham o'ljasini topib, uni olib kirish uchun uyasini tekshirgan. Bu misollar instinktning cheklanganligini ko'rsatadi. Instinktiv harakatlar muayyan shart-sharoitlarga qat'iy bog'liq bo'ladi. Instinktning amal qilish mexanizmi shundan iborat-ki, tashqi shart-sharoitlar reflektor munosabatni bildirishga undaydi, eng oxirida esa navbatdagi munosabat bildirish uchun qo'zg'aydi va hokazo. Shu tarzda reflekslarning butun bir zanjirini harakatga keltiradi va nasliy yo'l bilan mustahkamlangan dasturni amalga oshiradi. Instinktiv harakatlar standart shart-sharoitlar o'zgarishi bilan o'zining maqsadga muvofiqligini yo'qotadi. Shunday qilib, xatti-harakatlarning instinktiv shakllari faqat doimiy sharoitlardagina maqsadga muvofiqdir. Hayvonlarning instinktlari turli xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. **Ovqatlanish instinkti** – hayvonlarning o'zi va bolasi uchun ovqat qidirib topish, ovqat g'amlash harakatlardir. **Himoyalash instinkti** – hayvon o'z hayotini va omonligini saqlash harakatlarida ifodalanib, u ikki ko'rinishda sodir bo'ladi. **Birinchisi** dushmanga hujum qilish, **ikkinchisi** o'zini himoya qilishdir. Har bir hayvon dushmandan himoya qilish uchun biror organidan shoxlari, tuyoqlari, tish-tirmoqlari, tikanlari kabi yoki zaharli-hidli suyuqlikdan foydalanadi. **Masalan**, Afrika kobrasi o'z zahrini 3,5 metr masofagacha ota oladi. Amerikada terisining usti qora jun bilan qoplangan uncha katta bo'lmagan bir yirtqich hayvon yashaydi. U amalda barcha turdagi yirtqich hayvonlarning hujumidan saqlangandir. Hayvonlar uni orqasidagi uzun chizig'idan tanib oladi. Bu hayvon skuns deb ataladi. Tabiat skunsga bir bezni ato etganki, u benihoya zaharli, hidli suyuqlik tarqatadi. Salgina xavf tug'ilishi bilan oq, skuns dushmaniga orqasini o'girib, dumini ko'taradi va havoga suyuqlik purkaydi. Natijada eng katta yirtqichlar ham bir necha soat davomida «hushidan ketib qoladi». Amerika qit'asidagi barcha hayvonlar skunsni chetlab o'tishga harakat qiladilar. Bu hayvonni yangi iqlimga moslashtirishga qaror qilinib, yosh hayvonlarni oldiniga o'ralgan maydonda saqlashdi. Yirtqichlarni parvarish qilishda xizmatchilar qiynalmasliklari uchun hayvonlardagi mumak bezlari olib tashlandi. Erkinlikka qo'yib yuborilgan skunslar o'rmonlarda bema'lol yurishardi. Skunslarga hujum qila boshlanganida, ular qochmasdan, orqalarini o'girib turishaverdi va dushmanlarining yengilgina o'ljasiga aylanishdi. Shundan keyin, skunslarning bezlari kesib tashlanmay, ularni boqishning boshqa usullari topildi.

Nasl qoldirish instinkti – bu ota-onalik instinkti sifatida ko'rinib, nasl – avlod uchun g'amxo'rlik qilish, uni ma'lum vaqtgacha ovqat bilan ta'min etish, xavf-xatardan saqlash o'z bolalarini parvarish qilish tug'ma mahoratiga ega bo'lib, o'z naslining kelajagi haqida g'amxo'rlik qiladi. Jumladan, o'rgimchakning ba'zi turlarida urg'ochilari o'z tuxumi uchun tolalardan pillalar yasaydi. Bu pillani urg'ochi

o'rgimchak qo'riqlab va tez-tez ko'chirib yuradi, o'rgimchak bolalari paydo bo'lishi bilan urg'ochi o'rgimchak uyalarini yonidan siljimasdan qo'riqlab turadi. Nasli kattalashgani sari urg'ochi o'rgimchak ham ularga shuncha befarq bo'la boradi va so'ngra esa o'rgimchak bolalari mustaqil harakat qiladigan bo'lib, qolgandan keyin ularni tashlab ketadi.

To'da bo'lib yashash instinkti—bu instinkt hayvonlarning turli usullar bilan o'zaro aloqa qilishida xilma-xil shaklda birgalashib, to'dalashib, poda bo'lib, gala bo'lib yashashlarida zohir bo'ladi. Bu to'dalanish ba'zi hayvonlarda **doimiy** xarakterga ega bo'lsa (chunonchi, chumolilar, asalarilar), ba'zilari esa o'ziga o'xshash hayvonlar bilan **vaqti-vaqti bilan** birgalashib yashaydi asosan yirtqich hayvonlar *masalan*, qoplon eng kuchli va maymun uchun eng qo'rqinchli yirtqich hisoblanadi. Qoplon maymunlarga yerda doim mushukdek chaqqon hujum qiladi, Shimpanze doim kuchli hayvon, lekin qoplondan ularga doim kun yo'q. Shimpanzalar qoplonni odatda yomon ko'radilar, uni ko'rishlari bilanoq shimpanze maymunlari to'da bo'lib, vahshiyona bukchayib qo'llarini pastga tushirib, sakrab, baqirishib hayvonni hamma tomonidan qurshab oladilar. Ayrim hollarda shimpanzalar qo'llariga kaltak olib, qoplonni urib haydaydilar. Hashoratlar galasi, kushlar galasi, sut emizuvchilar podasi, yirtqichlar to'dasi, hayvonlarning doimiy to'da bo'lib yashash shaklidir.

Ma'lumki, asalarilar uyasida bitta ona ari, bir necha o'nlab erkak va bir necha yuzlab bepust ishchi ari (jinsiy organlari yetishmagan)lar bo'ladi. Ishchi arilarning xatti —harakatlari juda ham murakkabdir. Rivojlana borgan sari har bir ishchi asalari uyadagi vazifasini o'zgartira boradi. Oldiniga u asalari bolalarini (gumaklarini) boqadi, uyani tozalaydi, so'ngra uyani qo'riqlaydi, ozuqa topib keladi, katakchalar yasaydi. Yerda yashaydigan arining instinktlari ham juda murakkab harakatlar zanjiridan iboratdir. U o'ziga uya qazib olib, uchib ketishidan oldin har gal uni og'zini tuproq bilan qoplaydi. O'ljasini olib kelganidan keyin ari uni uyaga kiraverishiga qo'yib, haligi tuproqni chetga surib, uyani tekshirib ko'radi, shundan keyingina uni uyaga olib kiradi. Instinktiv harakatlar, tug'ma va nasldan-nasiga o'tadigan ongsiz harakatlardir. Ular hayvonlarning hayot uchun kurashish va muhitga eng muvaffaqiyatli uyg'unlashish jarayonida hosil qilingan holda irsiy yo'l bilan mustahkamlanib qolgan, ongsiz harakatlardir. Bular aql bilan o'ylab bajariladigan oqilona harakatlar emas. *Masalan*, yangi tug'ilgan sichqon bolalarini cho'miltirib, mushuk oldiga olib kelinsa, u sichqonni o'z bolalaridek mehr bilan boqadi, emizadi, himoya qiladi, ammo uni sichqon bolasi ekanligini anglamaydi. O'rdak tuxumlari tovuqqa bostirilganda, u o'rdak tuxumining farqiga bormasdan, shu tuxumdan chiqqan o'rdak bolalarini boqadi, ular svuga tushib sugzanlarida suv labida u yoq, bu yoqqa yurib ularning tovuq jo'jalari emasligini anglamaydi. Demak, instinktlar doimo bir shaklda ko'rinadigan harakatlardir, ammo instinktlar sharoitga muvofiq o'zgarishi mumkin.

Hayvonlarning ko'nikmalari

Taraqqiyotning yuqori bosqichidagi hayvonlarda harakatning instinktiv shakllari bilan bir qatorda, xatti-harakatning individual o'zgaruvchan shakllari — ko'nikma va intellektual harakatlar ham mavjud. **Ko'nikma** — bu hayvonlarda shartli

✓ bog'lanishlar asosida yuzaga keluvchi va avtomatik ravishda sodir bo'luvchi harakatlardir, ya'ni biror faoliyatni takrorlanib turishi natijasida asta-sekin hosil qilingan xatti-harakatlardir. Nerv tizimining rivojlanishi jihatidan hayvon qanchalik yuqori o'rinni egalasa, u o'zida shunchalik murakkab ko'nikmalarini hosil qila oladi. Instinktlarga qaraganda, ko'nikma xatti-harakatlarning ancha o'zgaruvchan shakli hisoblanadi. Hayvonlarning ko'nikmalari, ota-onala-ridan "o'rganish" yo'li bilan ham hosil bo'ladi. *Masalan*, bo'rilar bolalarini ovga o'rgatadilar, qari bo'ri qilgan harakatni yosh bo'ri takrorlaydi, bu taqlid qilish instinktiga asoslangan, xatti-harakatlar ko'nikmasidir. Uy hayvonlarini odam «o'rgatganda» ular ko'p ko'nikmalar hosil qiladi. Shuningdek, sirkda o'rgatilgan hayvonlar xilma-xil juda murakkab ko'nikmalarni namoyon etadilar. Ma'lumki, hayvonda odam tomonidan ko'nikmalar hosil qilinishi o'rgatish yoki *dressirovka* deyiladi. Mashhur hayvon o'rgatuvchi **V.Durovning** ta'kidlashicha, ma'lum narsaga o'rgatishda hayvonlar kerakli harakatni bajargan paytda ularga ovqat berib, rag'batlantirgan, shu yo'sinda murakkab ishlarni bajarishga o'rgatgan. *Masalan*, ayiqlarni velosipedda yurishga yoki samovarni stolga qo'yishga, fillarni uyin tushishga va shu kabi murakkab xilma-xil ko'nikmalarga o'rgatgan.

Hosil bo'lgan ko'nikmalar hatto ayrim instinktlarni to'xtatib qo'ya oladi. Jumladan, baliqlarda shartli bog'lanishlar ancha tez hosil bo'ladi. Shartli bog'lanishlarning hosil bo'lishi uchun yorug'lik, rang, narsaning shakli, shuningdek, tovush va ta'm belgilari signal bo'lib xizmat qilishi mumkin. Lekin bu bog'lanishlar tez o'zgaraydigan bo'ladi. Chunonchi cho'rtanbaliqda mayda baliqlarni ovlashga oid shartli refleks osongina hosil bo'ladi. Lekin bu refleksni susaytirish juda qiyin. Tadqiqotda mayda baliqlar cho'rtanbaliqdan shisha bilan ajratib qo'yilganda yirtqich yangidan vaqtinchalik bog'lanish hosil qilmagunga qadar uzoq vaqt davomida shishaga urilib turdi, shisha olib qo'yilgandan so'ng esa yangi bog'lanish o'z navbatida uzoq vaqt saqlanib turadi. Shundan keyin cho'rtanbaliq yonida suzib yurgan mayda baliqlarga umuman ahamiyat bermay qo'yadi. Bu faktlardan ma'lumki sharoit o'zgarib ketganda shartli bog'lanishlar hayvonlarning xatti-harakatlarini bir oz o'zgartirishi mumkin ekan. Shunday qilib, ko'nikmalar bir-biridan muhim jihatidan farq qilishi mumkin: bir holatda ko'nikmalar o'zlarining avtomatizmlarga ko'ra instinktlarga yaqinlashsalar, boshqa bir holatda intellektual harakatlarga yaqinlashadilar.

Hayvonlarning intellektual harakatlari

✓ Aql (intellektual) bosqichi hayvonlarning deyarli murakkab faoliyati bilan tavsiflanib, u aks ettirishning murakkab turidir. «Hayvonlarning borliqni psixik aks etish usuli intellektual faoliyatga o'tishida alohida narsalargina emas, balki ularning munosabatlarini aks ettirish ham vujudga keladi. Hayvonlar rivojlanishning bu bosqichida, narsalar orasidagi bog'lanishlarni aks ettira oladilar.

Nemis zoopsixologi **V.Kyolerning** tadqiqotlarida maymunlarga yetib bo'lmaydigan joyga xo'rak qo'yiladi. Xo'rakdan yaqinroq, lekin bevosita yetib bo'lmaydigan joyga uzun tayoq qo'yiladi. Bu tayoqqa yetishish uchun qafasda qisqa tayoqcha bilan xo'rakni olib bo'lmaydi. Maymun esa birinchi bosqichda qisqa tayoq

bilan uzun tayoqni oladi. Ikkinchi bosqichda esa uzun tayoq orqali xo'rakni olishga muvaffaq bo'ladi.

A.N.Leontevning fikricha, muvaffaqiyatsiz harakatlardan so'ng to'sardan javobni topishi aqliy xatti-harakatlarning yana xususiyatidir. Bu hodisa **V.Kyoler** tomonidan "insayt"-ravshanlashish deb atalgan.

Aqliy xatti-harakat boshqa ikki xususiyati mavjud bo'lib, bu topilgan muammoning yechimini tez eslab qolish va shu bilan shakllangan operatsiyalarni bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga o'tkaza olishdir. Hayvonot olamining yuksak bosqichidagi vakillari (quruqlikda yashovchilardan, xususan, odamsimon maymunlar, dengiz hayvonlaridan delfinlar) instinkt, ko'nikmalarni egallashdan tashqari yana murakkab harakatlarni bajara oladi, hayvonlarning bunday xatti-harakatlarini **intellektual** harakatlar desa bo'ladi. Intellektual xatti-harakatlar hayvonning ancha yuksak shakldagi psixik faoliyati bilan bog'liq bo'lib, u tug'ma instinktlar va hayotda hosil qilingan ko'nikmalar hayvonning yashash sharoiti talablariga javob bera olmagan taqdirda yuzaga keladi. Yuksak taraqqiy qilgan hayvonlar ular uchun ma'lum muammolar bilan bir qatorda yangi bo'lgan narsani ham hal qila oladilar. **Masalan**, tajriba o'tkazilgan asbob ikkita bo'sh naychadan iborat edi. Naychadan bittasiga qarg'aning ko'z o'ngida inga bog'langan xo'rak bir parcha go'sht joylashtirildi. Qarg'a xo'rakning naycha ichiga kirib ketganini ko'radi. Qarg'a shu zahotiyoq ikkinchi naychani oxiriga sakrab boradi va xo'rakning paydo bo'lishini kutib turadi. Shuningdek, maymunlarda o'tkazilgan tadqiqot ham bunga yaqqol misoldir. Qafasning shipiga banan osib, qafas ichiga ikki - uchta yashik yoki bir ikkita qamishli tayoqcha qo'yadilar. Maymun qafas ichiga kirishi bilan mevani olmoqchi bo'ladi, ammo bo'yi yetmaydi. Maymun tevarak-atrofiga ko'z yugurtirib, yerda yotgan qamishni ko'radi, va bu qamish bilan mevani qoqib tushirishga harakat qiladi. Lekin unda ham bo'yi yetmaganidan so'ng qamishlarni olib, bir necha vaqt ular bilan turlicha harakatlarni qilib ko'rib, ular bir-birini ichigi kirib, uzunlashadi, keyin maymun bananni qoqib tushiradi. Yoki yerda yotgan yashikni ustma-ust qo'yib uni mevani tagiga surib keltiradi va ustiga chiqib mevani olmoqchi bo'ladi, ammo bo'yi yetmaydi. Shunda maymun yerda yotgan boshqa yashiklarni ustma-ust qo'yib, narvon qiladi va ularning ustiga chiqib mevani olib yeydi.

Kishi ko'ziga maymunlar nechog'li aqlli hayvon bo'lib tuyulmasin, ammo ularning tafakkuri nihoyatda tordir. Bu fikrni isbotlash uchun shunday bir tajriba o'tkazilgan. Yashik qo'yilgan meva oldiga spirt lampasi yoqib, yonib turgan spirt lampasining tepasiga suvli - jo'mrakli bak va stakan qo'yiladi. Mevani olish uchun maymun avval olovni o'chirish kerak bo'ladi. Bir odam olovni o'chirib, ovqat olish yo'lini maymunga ko'rsatadi, maymun bakdagi suvdan krujkaga quyib olovga sepadi va so'ng mevani olib yeydi. Keyinchalik suv to'ldirilgan bak boshqa stolga ko'chiriladi. Maymun bir stoldan, ikkinchisiga o'tish uchun uzun ko'priki yasab ko'priki orqali boshqasiga o'tgan va bakdan krujkaga suv to'ldirib yana orqasiga qaytgan, nihoyat olovni o'chirib, mevani olib yegan. Aynan maymun atrofida suv turib bundan foydalanmagani qiziqdir. Bu maymunda umumlashtirish xususiyati yo'qligidan dalolat beradi, ya'ni har qanday suv olovni o'chira olishini maymun mutlaqo tushunmaydi, u o'zi ko'rgan ishini, ya'ni bakdan olingan suv bilan olovni o'chirishigina qila oladi, xolos. Bulardan ma'lumki, aqlni ishlatish bilan biror bir

masalani hal qilishda maymun masalani yechishni barcha zarur shartlarini ko'ra olmaydi, ulardan faqat ayrimlarinigina fahmlaydi, xolos. Maymunlarning intellektual harakatlari har qanday harakatlarni sinab ko'rish jarayonida aniq amaliy tafakkur tarzida sodir bo'ladi. Taqlidchanlik - maymunlar hulq-atvorining xarakterli xususiyatidir. *Masalan*, maymun supurgi bilan polni supuradi va «lattani ho'llab siqadi», «polni artadi», «yuvadi». Odatda, maymunlar harakatning natijasiga emas, balki harakatning o'ziga taqlid qiladilar. Maymun polni supurur ekan, axlatni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirib yuraveradi-yu, lekin axlatni poldan tozalab ola bilmaydi. Shunday tadqiqot o'tkazilgan, uyga bo'sh chelak va quruq latta qo'yilgan. Maymun latta bilan polni artadi va har safar u lattani chelakka tushurib aylantirib siqadi, bu ishni maymun farrosh qilgani kabi bajaradi. Shuningdek, maymun qalam bilan daftarga «yozadi» (chiziqalar chizadi) va unga diqqat bilan qaraydi. Maymunga qalam o'rniga tayoqcha berilsa, ham u «yozishni» davom ettiradi. Intellektual harakatning natijasiga taqlid qilish maymunlarda uchramaydi.

Amerikalik olimlar **G.Xarlou, M.Xarlou, S.Suomilarning** tadqiqotlari yangi tug'ilgan maymunlar bolasi sun'iy onaning ayrim turlarigagina haddan ziyod ixlos qo'yishi mumkinligini ko'rsatadi. Tajriba qo'yidagicha olib boriladi, ya'ni Makaka maymunining yangi tug'ilgan bolalarini xuddi haqiqiy onasining kattaligida qilib ishlangan sun'iy ona bilan qafasga solib qo'yiladi. Maymunchalarning biriga metall kraskadan yasalgan «ona», ikkinchisiga yog'och silindrdan yasalib, tukli mato bilan o'ralgan «ona» to'g'ri keladi. Yumshoq onalik maymuncha ko'p vaqtini uning yonida o'tkazadi, uni goh quchoqlar, goh uning ustiga ham chiqib ketardi. U har gal xavf tug'ilsa, onasining himoyasiga qochib borgan. Metall onaga tekkan maymuncha esa juda qiynaldi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maymunlarning bolalari sut bergan onadan ko'ra, sut bermasa ham matodan yasalgan onani afzal ko'rishadi. Matodan yasalgan onalar maymunlarda xavfsizlik va ishonch hissini uyg'otadi. Biroq yuksak taraqqiy etgan katta maymunlarning instinktiv xatti-harakati, bir hujayrali hayvonlar instinktidan jiddiy farq qiladi. Yuksak taraqqiy etgan maymunlar (jumladan shimpanze)da xatti-harakatning uya qurishdek tug'ma shakli mavjuddir. Tabiiy sharoitlarda ular har kuni daraxtlarda shox-shabaldardan uya qurishadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, maymunlar uya qurishda, materiallarni tanlash chog'ida amaliy tahlilga binoan ish ko'radilar. Tadqiqot jarayonida maymunlarning binokorlik «faoliyati» kemiruvchilar (kalamush)ning uya qurishi bilan taqqoslab ko'rildi. Qattiqligi turlicha materiallar, jumladan, daraxt shoxlari va qog'oz mavjud bo'lgan holda shimpanze va kalamushlar ham uyani bir xil tipda, ya'ni uyaning asosiy qismini qattiq materialdan yasab, ichiga ancha yumshoqroq material to'shaydi. Agar shimpanze va kalamushga faqat yumshoq material berilsa, u holda ikkalasi ham uyani shu materialdan qurishga tushadi. Lekin ular tavsiya qilingan materialdan uylarini yasab bo'lganlaridan keyin ularga ancha dag'alroq material berilsa, u holda hayvonlarning reaksiyalarida darhol sifat farq ko'rinadi. Shimpanze ancha dag'al materialga ega bo'lganidan keyin shu zahotiyoyq uyasini qayta qurishga kirishadi. Yumshoq materialdan qurilgan inshootini bir chekkaga surib qo'yadi va ancha dag'al materialdan uyaning asosini qura boshlaydi. Shundan keyingina u yumshoq materialdan foydalanadi, uni uyasining ichki yuzalariga to'shaydi, kalamushlarda ham xuddi shunga o'xshash vaziyatni ko'rishni davom ettiradilar, dag'al materialni

yumshoq material ustidan tushay beradilar. Shunday qilib, uya qurish maymunlarda garchi instinktiv harakatlar natijasida amalga oshirilgan bo'lsa, ham bu harakatlar tashqi shart-sharoitlar hisobiga olingan holda yuz beradi.

Intellectual xatti-harakatlar hayvonlarning ko'pincha yashirin imkoniyati sifatida qolib ketadi. Jumladan, rus psixologi N.N.Ladigina –Kots (1889-1963) ning tajribalarida Paris degan shimpanze ichiga xo'rak solingan naychani olishi bilan oq naychani ichiga kiritish uchun yaroqli bo'lgan, ishlatishga qulay qurolni tanlashga tushardi. Bunda Paris turli belgilarni, narsalarning shakli, uzunligi, kengligi, qalinligini ajrata bilardi. Agar mos keladigan narsa topilmasa Paris yonida yotgan daraxt shoxlaridan yon shoxlarini yulib olar, enli taxtadan payraxalar ajratib chiqar, buklangan simlarni to'g'irlar, xullas maymunlar «qurol» yasar edi. Biroq yuksak taraqqiy etgan maymunlardan «qurol yasash» faoliyatining ahamiyatini oshirib yuborish yaramaydi. E.G.Vasuro, N.N.Ladigina-Kotslar o'tkazgan tajribalaridan ma'lumki, shimpanzalar aynan bir xildagi vaziyatda, ya'ni maqsadga erishish uchun ikkita tayoqni birlashtirish zarur bo'lgan paytda o'zlarini yo'qotib qo'yishadi. Buni quyidagicha izohlash mumkin, ya'ni shoxlarni g'ajish, payraxalarni ajratish maymunning tabiatda bajaradigan harakatlaridir. Lekin maymunlar tabiiy sharoitlarda tayoqlarni bir-biriga ulab ish ko'rmaydi.

Psixikaning muhit va a'zolar tuzilishiga bog'liqligi

Muhit sharoiti jihatidan nihoyat darajada har xil ekan, bu hol organizmlarning differentsiallanishiga olib kelgan. Barcha tirik organizmlar mavjud sharoitga moslashadi. O'zini o'zi boshqarish oddiy ta'sirlanuvchanlikdan boshlanib, o'zining yuksak taraqqiyotiga erishadi.

Aks ettirish usuli qanchalik yuksak bo'lsa, mazkur turdagi hayvon muhitning bevosita ta'siridan shunchalik ozod bo'ladi. Muhitdagi haroratning o'zgarishi bilan organizmdagi kimyoviy reaksiyalar tezligi ham o'zgaradi, harorat ko'tarilsa, reaksiya tezligi oshadi, harorat pasaysa reaksiya tezligi kamayadi. Bordini-yu, harorat juda oshib yoki juda tushib ketsa: bir hujayrali organizm halok bo'ladi. Yuksak taraqqiy etgan hayvonlar esa sharoit o'zgarishi bilan bir joydan ikkinchi joyga ko'chishga majbur bo'ladi. **Masalan:** kemiruvchilar yerni chuqur kavlab ichkariga kirib ketadi. Bunda instinkt ta'sir qiladi. Yozning issiq kunida fil o'ziga suv sepib turadi. Hayvonlar taraqqiyotining har qanday darajasida ham muhitga bo'lgan bog'liqlikdan batamom qutula olmaydi. Muhit tirik organizmning yashash sharoiti, tirik organizmlar hayotini belgilovchi omildir.

Taraqqiyotning navbatdagi pog'onasida asab tizimida bir qator sifat o'zgarishlar yuzaga keladi. Tuguncha shaklidagi nerv hujayralari asab tizimining ko'proq miqdordagi qo'zg'atuvchilarni qabul qilish va qayta ishlash imkoniyatini beradi. Chunki bunday asab tizimi uchun muhit qandaydir o'zgarmaydigan doimiy narsa emas.

Inson ongining rivojlanishi

Inson psixikasi bilan eng yuksak taraqqiy etgan hayvon psixikasi o'rtasida katta farq mavjud. Hayvonlar "tili" bilan inson tilini hech bir jihatdan taqqoslab bo'lmaydi.

Hayvon o'z to'dasidagi boshqa o'ziga o'xshash hayvonlarga ayni choqdagi bevosita vaziyat bilan cheklangan hodisalar xaqida faqatgina signal berolsa, inson til yordami bilan boshqa odamlarga o'tgan, hozirgi va kelgusi zamondagi narsalar haqida axborot berishi va ularga ijtimoiy tajribani o'tkazishi mumkin.

Hayvon va odam tafakkurining bir-biridan farq qilishi ular tili o'rtasidagi farqqa bog'liqdir. Inson abstrakt tafakkurga, hayvon esa amaliy tafakkurga ega. Odam zaruriyatga mos ravishda ongli suratda ish ko'rish qobiliyatiga ega. **Qurol yasash va uni asrash qobiliyatiga** egalik odam psixikasi bilan hayvon psixikasining bir-biridan ajratuvchi ikkinchi muhim farq hisoblanadi. Konkret vaziyatdan tashqarida hayvon hech vaqt qurolni boshqa narsalardan farqlab, qurol sifatida ajratmaydi va uni keyinchalik foydalanish uchun saqlab qo'ymaydi. Aniq vaziyatda qurol o'z rolini o'tab bo'lgach, shu zahotiyiq, hayvon uchun qurollik sifatini yo'qotadi. Odam ilgari o'ylab qo'yilgan reja bilan qurol yasaydi, quroldan tegishli maqsadlarda foydalanadi hamda uni saqlab qo'yadi. Odam nisbatan doimiy buyumlar olamida yashaydi. Odam quroldan foydalanish tajribasini boshqalardan o'rganadi va o'zi bu tajribani boshqalarga o'rgatadi. Odam psixik faoliyatining hayvonlar psixikasidagi uchinchi farqi shuki, **inson o'zidan keyingi avlodlarga ijtimoiy tajriba qoldiradi.**

Odam bilan hayvon o'rtasidagi to'rtinchi g'oyat muhim farq **hissiyot o'rtasidagi farqdir.** Rivojlanish sharoitlarining turlicha bo'lishi odam psixikasining hayvon psixikadan ajratuvchi muhim farqlardan hisoblanadi. Agar odam insoniyat tajribasini o'zlashtirmas ekan, o'ziga o'xshagan odamlar bilan munosabatga kirishmas ekan, shaxs sifatida tarkib topmaydi. Inson ongining rivojlanishiga asosiy omil mehnat faoliyati, ya'ni odamlarning birgalikda qurol yasash va undan foydalanish faoliyatlari bo'lgan.

Mehnat faoliyati ijtimoiy munosabatlar taraqqiyotiga ta'sir qiladi, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi esa mehnat faoliyatining takomillashuviga ta'sir ko'rsatadi. Inson ongi mehnatda rivojlanadi. Inson ongi evolyutsion taraqqiyot jarayonida aks ettirishning eng yuksak shakli sifatida maydonga kelib, ong tufayli odam moddiy dunyodagi narsalarning obyektiv, barqaror xususiyatlarini ajrata oladi va shu asosda tevarak-atrofdagi voqelikni o'zgartira oladi. Demak, inson psixikasining oliy bosqichini ong deb atash mumkin.

Tayanch tushunchalar

Instinkt - (lot. *instinctus* uyg'onish) - murakkab shartsiz refleks, u hulk - atvorning tug'ma yig'indisi, tashqi yoki ichki ta'sirotlarga javoban hosil bo'ladi.

Ontogenez (yunon. *on,ontos* - asl, tub, *genesis* - tug'ilish, paydo bo'lish) - organizmning individual rivojlanishi. Tirik mavjudotning paydo bo'lgan davridan to oxirigacha bo'lgan davrdagi o'zgarishlar majmui.

Seskanuvchanlik - tirik organizmlarning ta'sirlarga biologik ahamiyata ega javob qaytarish qobiliyati.

Filogenez (yunon. *phyle* - qabila, urug', *genesis* - paydo bo'lish) - muayyan tirik mavjudot turining yerda hayot boshlanganidan keyingi evolyutsion taraqqiyot jarayoni.

Qo'zg'atuvchanlik, qo'zg'aluvchanlik - tashqi qo'zg'ovchi omillar ta'sirida fiziologik holatlarini o'zgartirib yuborish qobiliyati. Barcha tirik mavjudotga xos xususiyat.

Mustaqil ishlash uchun tavsifiya etilayotgan mavzular

1. Psixikaning filogenetik taraqqiyoti.
2. Seskanuvchanlik va sezuvchanlik tushunchalarining o'zaro munosabati
3. Tropizm tushunchasining mohiyati
4. Hayvonlarning xatti-harakat tiplari.
5. Sensor bosqich va uning xarakterli xususiyati.
6. Perseptiv bosqich va uning xarakterli xususiyati.
7. Intellektual bosqich va uning xarakterli xususiyati.
8. A.N.Leontev va K.E Fabri bo'yicha psixikaning rivojlanish bosqichlari.
9. Instinkt tushunchasining mazmuni.
10. Ko'nikma va malakalarning mohiyati.
11. Hayvonlarning intellektual xatti-harakatlari.
12. Psixikaning muhit va a'zolar tuzilishiga bog'liqligi.
13. Inson ongining rivojlanishi.

Test topshiriqlari

1.....tirik organizmlarning biologik ahamiyatga ega bo'lgan ta'sirlarga javob qaytarish qobiliyatidir.

- A) seskanuvchanlik;
- B) sezuvchanlik;
- V) tropizm;
- G) instinkt;
- D) sensor bosqich.

2. Biologik omillarga maxsus harakatlar bilan reaksiya qilish usullariga deb ataladi.

- A) seskanuvchanlik;
- B) sezuvchanlik;
- V) tropizm;
- G) instinkt;
- D) sensor bosqich.

3. Bu bosqich uchun xarakterli xususiyati shundan iboratki bu bosqichda organizm narsalarning o'zini emas balki alohida xususiyatlarini aks ettiradi?

- A) seskanuvchanlik;
- B) sezuvchanlik;
- V) tropizm;
- G) instinkt;
- D) sensor bosqich.

4. Mazkur bosqichga mansub hayvonlar atrof-muhitining ayrim xususiyatlarini emas, balki ularni butun narsalar sifatida aks ettiradi.

- A) seskanuvchanlik;
- B) perseptiv;
- V) tropizm;

- G)instinkt;
- D)sensor bosqich.

5.Hayvonlarning o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun qiladigan tug‘ma murakkab harakatlari deb ataladi.

- A)seskanuvchanlik;
- B)perseptiv;
- V)tropism;
- G)instinct;
- D)sensor bosqich.

6. Hayvonlarning biologik ehtiyojlariga qarab instinktiv harakatlari qanday turlarga bo‘linadi?

- A)ovqatlanish;
- B)saqlanish;
- V)nasl qoldirish;
- G)poda-poda bo‘lib yashash;
- D)barcha javoblar to‘g‘ri.

7.Instinktlar qaysi yo‘l bilan hosil qilinadi?

- A)mashq qilish;
- B)o‘rganish;
- G)shartsiz reflekslar asosida;
- V)biologik irsiyat;
- D)to‘g‘ri javob yo‘q.

8.Instinktlarning nerv fizologik asosini nima tashkil qiladi?

- A)bosh miya po‘stloq qismi;
- B)shartli refleks;
- V)murakkab harakatlar;
- G)reflektor yoyi;
- D)shartsiz refleks.

9.Hayvonlarning individual hayoti davomida paydo bo‘ladigan harakatlar bu.....

- A)instinkt ;
- B)malaka;
- V)ko‘nikma;
- G)tajriba;
- D)odat.

10.Hayvon ko‘nikmalarini nimalar asosida vujudga keladi?

- A)instinktlar;
- B)ilgari hosil qilingan reflekslar;
- V)shartsiz refleks;
- G)barcha javoblar to‘g‘ri;
- D) instinktlar, ilgari hosil qilingan reflekslar.

11.Ayrim narsalar o‘rtasida murakkab munosabatlarning aks ettirilishi bu.....

- A)sensor bosqich;
- B)perseptiv bosqich;

- V) intellektual bosqich;
- G) instinkt;
- D) ko'nikma.

12. tirik organizmlarning yashash sharoiti, tirik organizmlar hayotini belgilovchi omildir.

- A) ko'nikma;
- B) malaka;
- V) odat;
- G) muhit;
- D) retseptor.

13. Inson va hayvon psixikasi o'rtasidagi farq qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) til va tafakkur;
- B) qurol yasash va uni asrash;
- V) ijtimoiy tajriba;
- G) hissiyot;
- D) barcha javoblar to'g'ri.

14. Asalari va chumolilarning murakkab xatti-harakatlarini nima deb atash mumkin?

- A) aqliy harakatlar;
- B) ko'nikma;
- V) instinktiv harakatlar;
- G) mehnat;
- D) malaka.

15. Bahor kelishi bilan hashoratlarning jonlanib harakatga kelishi qaysi tropizm turiga misol bo'la oladi.

- A) termotropizm;
- B) fototropizm;
- V) xemotropizm;
- G) topotropizm;
- D) geotropizm.

16.bu tirik organizmning ma'lum fizikaviy ximiyaviy muhitni tanlab olishga bo'lgan moyilligidir.

- A) termotropizm;
- B) fototropizm;
- V) xemotropizm;
- G) topotropizm;
- D) geotropizm.

17. Achigan qatiq turli chirigan mevalarga mayda chivinlarning yig'ilishi qaysi tropizm turiga misol bo'ladi.

- A) termotropizm;
- B) fototropizm ;
- V) xemotropizm;
- G) topotropizm;
- D) geotropizm.

18. Tirik organizmning mexanik qo'zg'atuvchi ta'siri ostida harakat qilishga moyilligideb ataladi.

- A) termotropizm;
- B) fototropizm;
- V) xemotropizm;
- G) topotropizm;
- D) geotropizm.

19. Chirigan olmaga yig'ilgan mayda hashoratlarga tegilsa hammasi barovar uchib ketadi, mimuza o'simligiga tegilsa u darov yaprog'ini yopib oladi mazkur misol tropizmning qaysi turiga tegishli.

- A) termotropizm;
- B) fototropizm;
- V) xemotropizm;
- G) topotropizm;
- D) geotropizm.

20. bu tirik organizmning quyosh nuri ta'siri ostida harakat qilishga moyilligidir.

- A) termotropizm;
- B) fototropizm;
- V) xemotropizm;
- G) topotropizm;
- D) geotropizm.

21. Kungaboqar o'simligining quyosh nuri tomon harakatlanishi qaysi tropizm turiga misol bo'la oladi.

- A) termotropizm;
- B) fototropizm;
- V) xemotropizm;
- G) topotropizm;
- D) geotropizm.

22. Tirik organizmning havo bosimi ta'siri ostida harakat qilishga moyilligideb ataladi.

- A) termotropizm;
- B) fototropizm;
- V) xemotropizm;
- G) topotropizm;
- D) barotropizm.

23. Quyidagi misol qaysi tropizm turiga taalluqli masalan, havo bulut bo'lganda havoda uchib yurgan hashoratlarga yerga –pastga qarab uchadilar.

- A) termotropizm;
- B) fototropizm;
- V) xemotropizm;
- G) topotropizm;
- D) barotropizm.

24. Tirik organizmning namlik suv ta'siri ostida harakat qilishga moyilligi.

- A) termotropizm;

- B) fototropizm;
- V) xemotropizm;
- G) gidrotropizm;
- D) geotropizm.

25. Qaysi qatorda mashhur dressirovkachining nomi ko'rsatilgan?

- A) Vladimir Durov;
- B) V. A. Vanger;
- V) A. I. Oparin;
- G) I. P. Pavlov;
- D) G. Xarlou, M. Xarlou.

26. Hayvonlardagi to'da-to'da bo'lib yashashlarining asosiy xususiyati.

- A) dushmanlarga birgalikda kurashish;
- B) o'zini himoya qilish;
- V) xujum qilish, himoya qilish;
- G) vaqtinchalik, doimiy;
- D) to'da, gala, poda bo'lib yashash.

27. Amerikalik olimlar G.Xarlou, MXarlou, S.Suomilarning tadqiqotlarining mazmuni nimadan iborat.

- A) Yangi tug'ilgan maymun bolasi bilan sun'iy ona o'rtasidagi munosabat;
- B) Urg'ochi o'rgamchaklarda;
- V) Kalamushlarda in qurish jarayonida;
- G) Maymunlarda mevali yashiklar bilan;
- D) Qarg'a va bo'sh naychalarda.

28. bu tirik organizmning yorug'lik ta'siri ostida harakatga kelishidir.

- A) termotropizm;
- B) fototropizm;
- V) xemotropizm;
- G) topotropizm;
- D) geotropizm.

29. Yoz kuni tungi chiroq yorug'iga mayda chivinlarning uchib kelishi qaysi tropizm turiga misol bo'la oladi.

- A) termotropizm;
- B) fototropizm;
- V) xemotropizm;
- G) topotropizm;
- D) geotropizm.

30. Tirik organizmning issiqlik ta'siri ostida harakat qilishga moyilligi.....deb ataladi.

- A) termotropizm;
- B) fototropizm;
- V) xemotropizm;
- G) topotropizm;
- D) geotropizm.

Nazorat savollari

1. Psixikaning filogenetik taraqqiyoti nimalar bilan belgilanadi?
2. Hayvonlarning xatti-harakat tiplariga nimalar kiradi?
3. Sensor bosqich va uning xarakterli xususiyatini ko'rsating?
4. Perseptiv bosqich va uning xarakterli xususiyatini ko'rsating?
5. Intellektual bosqich va uning xarakterli xususiyatini ko'rsating?
6. Psixikaning muhit va a'zolar tuzilishiga bog'liqligini izohlang?

HOZIRGI ZAMON PSIXOLOGIYASINING TUZILISHI VA TADQIQOT METODLARI

Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'rni

Psixologiya ko'plab fanlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib bormoqda. Fanlar orasidagi bog'liqliklar psixologiyaning fanlar tizimidagi o'rnini belgilab beradi. Bizga ma'lumki, mavjud fanlar gumanitar, tabiiy va falsafiy turlarga bo'linadi. Bir qator bir-biri bilan yondosh bo'lgan fanlar mazkur tasniflashga kiritiladi, lekin psixologiya mustaqil fan sifatida namoyon bo'ladi. U inson ruhiy faoliyatining tabiiy, tarixiy va ijtimoiy tomonini o'rganadi. Psixologiya barcha turdagi fanlar orasida muhim o'rinni egallaydi. Psixologiya falsafa, tarix, san'atshunoslik, texnika, pedagogika fanlari bilan uzviy bog'liq. Shunga muvofiq, psixologiyani fanlar orasidagi bog'liqligini tahlil qilsak. Ayniqsa, psixologiya fanining fanlar tizimida tutgan o'rni xususida 44-betdagi jadvalda ma'lumotlar keltiriladi.

Psixologiya falsafa fani bilan chambarchas bog'langan. Bu bog'liqlik ikkala fanning inson va uning hayoti mohiyatini to'la anglash va rivojlantirish an'alarini belgilashdagi o'rni va ahamiyatidan kelib chiqadi.

Tabiat, jamiyat va inson tafakkurini rivojlanishiga oid bo'lgan umumiy qonuniyatlar va tamoyillarni psixologiya falsafaning bazasidan oladi va shu bilan birga o'zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatlari sohasidagi yutuqlar bilan falsafani boy ma'lumotlarga ega bo'lishiga yordam beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillik mafkurasi va milliy ongni shakllanishiga taalluqli, umumiy, ilmiy qonuniyatlarni tizimlashda bu ikkala fan - falsafa va psixologiyaning hamkorligi bevosita sezilmoqda. Bu bog'liqlik avvalo yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirish muammosi ko'ndalang turgan tarixiy davrda milliy istiqlol g'oyalari yurtdoshlarimiz ongi va tafakkurida shakllantirish kabi dolzarb vazifalarni bajarishga xizmat qilmoqda.

Sotsiologiya fani ham yangicha munosabatlar sharoitida o'z taraqqiyotining muhim bosqichiga erishar ekan, psixologiya ushbu fan tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlardan foydalanadi hamda ularning qo'llanilishiga, ommalashishiga baholi qudrat xizmat qiladi. Ayniqsa, psixologiyadan mustaqil ravishda rivojlanib, ajralib chiqqan bugungi taraqqiyot davrimizda alohida ahamiyat kasb etgan ijtimoiy psixologiyaning sotsiologiya bilan aloqasi uzviy bo'lib, ular jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va rivojlanishni ta'minlash ishiga xizmat qiladi. Qolaversa, huquqiy-demokratik davlat qurish ishini sobitqadamlik bilan amalga oshirayotgan O'zbekiston aholisining huquqiy madaniyatini va demokratik o'zgarishlarga psixologik jihatdan

tayyorligini amalda ta'minlash bu sohada muntazam tarzda ijtimoiy fikr, insonlar fikr va qarashlaridagi o'zgarishlarni o'rganish, bashorat qilish va taraqqiyot mezonlarini ishlab chiqishda ikkala fan metodologiyasi va metodlarini birlashtirish tabiiy ahamiyat kasb etadi.

Psixika asosida yotuvchi miyaning biologik va fiziologik jarayonlarini o'rganuvchi tuzilishi.

Tabiiy fanlar biologiya, fiziologiya, ximiya, fizika va boshqalar

KIBERNETIKA

Inson shaxsining o'zini-o'zi boshqarish jarayonlarini o'rganadi.

Ijtimoiy psixologiyaga doir masala yechish va ijtimoiy rivojlanishda psixologiyaning rolini o'rganadi.

SOTSILOGIYA

PEDAGOGIKA

Ta'lim - tarbiya jara-yonida inson shaxsining shakllanishini o'rganadi.

Psixikani o'rganish uchun texnik vositalarni ishlab chiqish, shuningdek, texnik taraqqiyot sharoitida inson faoliyatini optimal shartlarini o'rganadi.

TEXNIK FANLAR

Pedagogika bilan psixologiyaning o'zaro hamkorligi va aloqasi an'anaviy va azaliy bo'lib, ularni yosh avlod tarbiyasining zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufuziga xosdir. O'z-o'zidan ravshanki, bunday aloqa hamisha ham mavjud bo'lib kelgan va buni ilg'or psixologlar va pedagoglar tushuntirib berishga harakat qilishgan. Rus pedagogi va psixologi K.D.Ushinskiy pedagogika uchun o'z ahamiyatiga ko'ra, psixologiya barcha fanlar ichida birinchi o'rinda turadi, deb ta'kidlagan edi. Kishini har jihatdan tarbiyalamoq uchun, - deb qayd etgan edi K.D.Ushinskiy, uni har jihatdan o'rganmoq darkor.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan yangi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun hamda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ni amalga oshirilishi ham ikki fan hamkorligi va o'zaro aloqasini har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ydi. Milliy dasturda e'tirof etilgan yangicha modeldagi shaxsni kamol toptirish, uni chuqur bilimlar sohibi bo'lib yetishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart-sharoitlar orasida yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim va tarbiya jarayonlariga tadbiq etishda pedagogikaning o'z uslub va qoidalari yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun ham psixologiya u bilan hamkorlikda yosh avlod ongining ta'lim olish davrlaridagi rivojlanish an'alaridan tortib, toki yangicha o'qitish texnologiyalarini bola tomonidan o'zlashtirilishi va undagi aqliy qobiliyatlarga nechog'li ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish, shu asosda ishni tashkil etish, psixologiyadagi metodlarni didaktik metodlar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Ayniqsa, ma'naviy barkamollik tamoyillarini maktabda va yangi tipdagi ta'lim muassasalarida joriy etish ham shaxs psixologiyasini teran bilgan holda o'qitishning eng ilg'or va zamonaviy shakllarini amaliyotga tadbiq etishni nazarda tutadi.

Tabiiy fanlar – biologiya, fiziologiya, ximiya, fizika va boshqalar psixik jarayonlarning tabiiy fiziologik mexanizmlarini tushunish va shu orqali ularning kechish qonuniyatlarini obyektiv o'rganish uchun materiallar beradi. Ayniqsa, bosh miyaning hamda markaziy asab tizimining psixik faoliyatlarini boshqarishda va ularni muvofiqlashtirishdagi rolini e'tirof etgan holda psixologiya fani tabiiy fanlar erishgan yutuqlar va ulardagi tadqiqot usullaridan omilkorona foydalanadi. Masalan, shaxs qobiliyatlarini diagnostika qilish uning tug'ma layoqatlari hamda orttirilgan sifatlarini bir vaqtda bilishni taqozo etganligi sababli unga tabiiy layoqatning xususiyatlarini aniqlashda psixofiziologiyaning qator usullaridan o'z o'rnida foydalanadi va biologiya, anatomiya, fiziologiya, neyrofiziologiya kabi fanlarning shu kungacha erishgan yutuqlaridan foydalanadi. Shuning uchun tabiiy fanlar sohasida erishilgan barcha yutuqlar psixologiya fanining predmetini mukammalroq yoritishga o'z hissasini qo'shgan.

Kibernetika fani sohasidagi erishilgan yutuqlar psixologiya uchun ham ahamiyatli va zarur bo'lib, u inson shaxsining o'zini-o'zi boshqarish va psixik jarayonlarni takomillashtirish borasida axborotlar texnologiyasi va kibernetika fani tomonidan qo'lgan kiritilgan yutuqlar va tadqiqot metodlari, maxsus dasturlardan o'z o'rnida foydalanadi. Ayniqsa, ma'lumotlar asri bo'lgan XX-asrda va har bir alohida ma'lumotning qadr-qimmatini oshishi bashorat qilingan. XXI-asrda global axboriy jarayonlar va yangi ilg'or texnologiyalarni modellashtirish borasida psixologiya hamda kibernetika hamkorligining salohiyati yanada ortadi. Masalan, oddiy muloqot jarayonini yanada takomillashtirish, har bir so'zning shaxslararo munosabatlardagi ta'sirchanligini oshirish maqsadida, hamda ana shunday ijtimoiy faoliyatli jarayonda shaxs tizimini takomillashtirishda turli kibernetik modellardan o'rinli foydalanish zamonaviy psixologiyaning jamiyatdagi o'rnini va rolini oshiradi va maxsus kompyuter dasturlarining keng qo'llanilishi, inson miyasi va ruhiy olami sirlarini tez va aniq o'rganishni kafolatlaydi.

Texnika fanlari bilan psixologiyaning o'zaro aloqasi va hamkorligi ayniqsa, hozirgi kunga kelib yaqqol sezilmoqda. Bir tomondan, murakkab texnikani boshqaruvchi inson muammosini yechishda, ikkinchi tomondan psixik holatni

murakkab qirralarini ochishda maxsus texnik vositalardan foydalanish zarurati bu ikki yo'nalishning erishgan yutuqlarini birlashtirishni nazarda tutadi. Masalaning yana bir alohida tomoni ham borki, u ham bo'lsa, texnika taraqqiyotiga bir vaqtda murakkab texnika va mashinalar bilan muloqot qilayotgan shaxs faoliyatini yanada takomil-lashtirish va uning imkoniyatlariga mosligi masalasi ham ana shu hamkorlikda qilinishi lozim bo'lgan masalalardir. Ayniqsa, mustaqil O'zbekiston uchun murakkab zamonaviy texnika sir-asrorlarini biladigan, uning jamiyat va fan ravnaqiga xizmatini ta'minlash qanchalik dolzarb bo'lsa, ana shu texnikaga har bir oddiy fuqaro ongi, tafakkuri va qobiliyatlarini moslashtirish va odam-mashina dialogining eng samarali yo'llarini izlab topish juda muhim. Texnika bilan bemaol "tillashadigan" malakali mutaxassislar tayyorlash borasida ham texnika fani pedagogika va psixologiya fanlari metodlaridan foydalana olsagina muvaffaqiyatga erishadi.

Iqtisodiyot bilan psixologiyaning o'zaro aloqasi va hamkorligi XX asrning yangiliklaridan bo'lib, ayniqsa, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish sharoitida iqtisodiy ong ham iqtisodiy xulqning o'ziga xos namoyon bo'lish qonuniyatlarini o'rganishda ikkala fanga xizmat qiladi.

O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridanoq fuqarolarning birinchi navbatda onglarida yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirishning jamiyat iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyatiga e'tiborni qaratgan edilar. Demak, yangi davr shaxsni tarbiyalash va uning jamiyatga moslashuvi masalasida psixologiya iqtisodiyot fanida qo'lga kiritilgan yutuqlar, yangiliklar va iqtisodiy samaraga erishish amaliyotlarini hisobga olsa, iqtisodiyot o'z navbatida islohotlarning obyeksi hamda subyekti bo'lmish inson olamidagi barcha psixologik o'zgartirishlarni aniqlash, tahlil qilish va shu asnoda bashorat qilish vazifalarini yechishi kerak. Bundan tashqari menejment, marketing boshqaruvi sohasidagi har bir izlanish hoh u iqtisodchi tomonidan amalga oshiriladimi, hoh psixologlar tomonidanmi, baribir ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishda shaxsning individual qobiliyatlarini inobatga olish insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning sirlarini mustahkamlash bilan inson resurslari masalasiga to'g'ri, odilona yondashishni taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida shaxs va guruhlar psixologiyasini bilish va ishlab chiqarishning iqtisodiy omillarini odam qobiliyatiga muvofiqlashtirishni nazarda tutadi.

Psixologiyaning tabiatshunoslik bilan aloqasining tobora mustahkamlanishiga quyidagi omil asosiy sabab bo'lgan. Bu jarayon XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangan edi. Eksperiment metodining G.Fexner tomonidan fanga joriy etilganligi ana shu jumladan bo'lib, bu I.M.Sechenovning "Bosh miya reflekslari" kitobi bosmadan chiqqanidan keyin ayniqsa keng tus olgan edi. Bu kitobda psixik hodisalar ham xuddi odam organizmining boshqa barcha funksiyalari kabi tabiiy hodisalar ekanligi, ular sababsiz yuz bermasdan, balki nerv tizimining reflektor aks etishi faoliyati natijasi ekanligi ko'rsatib berilgan edi. I.M.Sechenovning reflektor nazariyasi psixologik bilimlarning tabiiy-ilmiiy negizini tashkil etadi. Bu nazariya keyinchalik I.P.Pavlovning shartli reflekslar haqidagi ta'limotida uning shogirdlari L.A.Orbeli P.K.Anoxin K.M.Bikov, N.I.Krasnogorskiylarning asarlarida, shuningdek, A.A.Uxtomskiy N.A.Bernshteyn I.S.Beritashvili va boshqalarning

izlanishlarida yanada rivojlantiriladi. Hozirgi paytda psixologiya fanining tabiiy-ilmiiy jihatdan bu xilda asoslanganligi olimlar tomonidan miya faoliyatining neyrofiziologik mexanizmlari o'rganilayotganligi hisobiga tobora kuchaytirilmoqda. Shu tariqa psixik faoliyatning murakkab fiziologik mexanizmlari tizimini tadqiq qilish berasidagi yutuqlar psixologiya bilan tabiatshunoslik o'rtasidagi aloqalarning aniq natijasi sifatida yuz beradi.

Hozirgi zamon psixologiyasining asosiy muammolarini tadqiq qilishda buyuk tabiatshunos Ch.Darvin tomonidan 1859-yilda yozilgan "Tabiiy tanlanish yo'li bilan turlarning kelib chiqishi to'g'risida yoki yashash uchun kurashda qulaylikka ega bo'lgan turlarning saqlanishi" kitobida bayon etilgan evolyutsion g'oyalari juda katta ta'sir ko'rsatadi. Bu g'oyalar jonli mavjudotlar muhitning o'zgaruvchan sharoitlariga moslashish jarayonida psixikaning rolini aniqlash, psixik faoliyatning oliy shakllari quyi ancha sodda shakllaridan kelib chiqqanligini anglash imkonini beradi. Ch.Darvin butun jonzotning evolyutsion g'oyasini hayvonlarda sezgining paydo bo'lishiga nisbatan qo'llashga muvaffaq bo'ladi. U biologik rivojlanish jarayonida tananing tuzilishidagi va uning ayrim a'zolaridagi o'zgarishlarga olib keladigan o'sha asosiy omillarni ko'rsatib beradiki, bu filogenezdagi psixik taraqqiyotning kuchlari bo'lib hisoblanadi. Psixologiyada Ch.Darvinning hayvonlar psixikasining evolyutsiyasi haqidagi g'oyalari ko'pgina olimlarning va eng avvalo A.N.Seversov bilan V.A.Vangerning ilmiy ishlarida rivojlantirildi. Bu hayvonlar psixik faoliyatining turli xil shakllarini, ularning kelib chiqishidan boshlab tadqiq etish imkonini beradi. A.N.Seversovning tasdiqlashicha, hayvonlarda organizmlar tuzilishi o'zgarilmagan holda faqat ularning xatti-harakatini o'zgartirish yo'li bilan muhitga moslashtirishning evolyutsiyasi bir-biriga qo'shilmaydigan ikki yo'ldan borgan va hayvonot olamining ikkita tipida o'zining yuksak taraqqiyot darajasiga erishgan. Bug'imoyoqlilar turida xatti-harakatning irsiy o'zgarishlari jadal tarzda evolyutsiyalasha boshladi, ularning yuksak taraqqiy etgan vakillari bo'lgan hashoratlarda esa hayot tarzining barcha iker-chikirlariga moslashgan g'oyat murakkab va mukammal instinktiv faoliyatning bu murakkab va mukammal apparati ayni chog'da o'ta qoloq hamdir, hayvonlar muhitning tez o'zgarishlariga moslasha olmaydilar. Xordalilar turida evolyutsiya boshqa yo'ldan boradi, instinktiv faoliyat juda katta yuksaklikka erishmasa, ham lekin xatti-harakatni individual tarzda o'zgartirish orqali moslashuv jadalroq rivojlana boshladi va organizmning o'zgaruvchanligini juda ham oshirib yuboradi. Irsiy moslashuvchanlik ustida xatti-harakatning individual tarzda o'zgaruvchanligidan iborat ustqurma paydo bo'ladi.

Shunday qilib, evolyutsion ta'limot xulq-atvorning irsiyat bilan dasturlashtirilgan instinktiv shakllarining ham hayot kechirish davomida shartli reflekslar murakkab tizimining paydo bo'lishi natijasida orttiriladigan shakllarining ham kelib chiqishini tushuntirib berish imkonini tug'diradi.

Tibbiyot psixologiyasi asoslarini tadqiq etgan klinitsist psixologlar (V.M.Bextero, S.P.Botkin, S.S.Korsakov, A.R.Luriya, V.N.Myasishchev va boshqalar) tadqiqotlarining kishi xulq-atvorida psixikaning qanday rol o'ynashini aniqlashdagi o'zni kattadir. Psixologiya va tibbiyotning tutashgan joyida bo'lgan tibbiyot psixologiyasi psixologiya fanining yutuqlarini kasalliklarning oldini olish bilan bog'liq masalalarni o'rganishda qo'llanib kelinmoqda. Kasallikning zo'rayishi

bir tomondan psixik omillarga (tushkunlikka berilish vasvasaga tushush, hadiksirash va shu kabilarga) bog‘liq bo‘lsa, **ikkinchidan** dardning o‘zi ham, jumladan terapevtik muolajaning samaradorligini pasaytirib yuborishi mumkin bo‘lgan alohida psixik holatlarni keltirib chiqaradiki, bu hol vrach va psixologning kuch-g‘ayratlari birlashtirilishini zarurat qilib qo‘yadi. Shu bilan barobar miya qobig‘ining ba‘zi bir joylari, masalan, chakka qismi lat yeganda psixikaning buzilishini klinik-psixologik tadqiq qilish natijasida idrok va xotiraning qonuniyatlarini tushunish imkonini beradigan yangi ma‘lumotlar olindi. Psixolog-klinitsist bemorning og‘zaki yoki yozma nutqini psixologik jihatdan buzilishi xususiyatlarini aniqlab, dardning manbai kishi bosh miyasi katta yarim sharlarining muayyan bo‘lmasida ekanligini qayd qiladi va bu bilan neyroxirurgiyaga yordam beradi.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, psixologiya tibbiyot, tabiatshunoslik fanlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular bir-birini nazariy va amaliy bilimlar bilan boyitib boradi.

Umumiy psixologiyani bu sohalar bilan bir qatorda qo‘yish noto‘g‘ri chunki, umumiy psixologiya inson ruhiyatining umumiy qonunlarini turlarini metodologik va nazariy tamoyillari asosida o‘rganish bilan shug‘ullanadi.

Albatta, bugungi kunda psixologiya fani ko‘plab fanlar bilan uzviy bog‘liqdir. Buni psixofizika, psixofiziologiya, psixolingivistika, matematik psixologiya va hokazolar misolida ko‘rish mumkin. Akademik B.M.Kedrovning klassifikatsiyasi bo‘yicha barcha fanlar 3 guruhga bo‘linadi: gumanitar, falsafiy va tabiiy fanlar. Psixologiya faniga to‘xtaladigan bo‘lsak: B.M.Kedrov fikricha, bu katta uch guruhdan fanlar tizimida psixologiya mustaqil fan sifatida namoyon bo‘ladi, hamda u inson psixik faoliyatini tabiiy- tarixiy va ijtimoiy tomonini o‘rganadi.

Hozirgi zamon psixologiyasining tamoyillari

Psixologiya fanining rivojlanishi qator bosqichlarni o‘z ichiga qamrab olib, bu davrlarda samarali tadqiqot ishlari olib borilgan. Aynan tadqiqot ishlarini samarali bo‘lishi uchun fan doirasida tamoyillarni ishlab chiqish uchun zarurat sezila boshladi. Bu boradagi ishlar Amerika va boshqa chet el psixologiyasi yo‘nalishlari namoyandalari tomonidan ilgari surildi. XX asr boshlarida bixeviorizm, freydizm yo‘nalishlari vujudga kelgan edi. Bixeviorizm yo‘nalishi hayvonlarda o‘tkazilgan kuzatishlar natijasiga asoslangan bo‘lib, uning namoyandalari E.Torndayk va Dj.Uotsonlar hisoblanadi. “Bixeviorizm” ingliz tilida “hulq-atvor” degan ma‘noni bildiradi. Bu oqim psixika va ongni inkor qilib, hulq bilan tashqi muhit o‘rtasidagi munosabatlarni, qonuniyatlarni tekshirishni taklif qiladi. Ularning fikricha, psixologiyaning vazifasi stimulga (qo‘zg‘atuvchi), ya‘ni sezgi a‘zolariga ta‘sir qilayotgan qo‘zg‘atuvchiga o‘q otish, unga qanday javob reaksiyasi bo‘lishini, yoki bunday reaksiyani qanday stimul tug‘dirishini oldindan aytib bera olishdan iborat. Bixevioristlarning formulasi “S -> R” dir.

Psixologiyaning asosiy tamoyillari

- DETERMINIZM

Psixika hayot sharoiti bilan bog'liqligini anglatib, tashqi sharoitlar o'zgarishi bilan o'zgaradi.

- ONG VA FAOLIYAT BIRLIGI

Ong va faoliyat bir butunlikni tashkil etmaydi. Ong inson faoliyatini ichki rejasini tuzib beradi.

PSIXIKA – ONGNI FAOLIYATDA RIVOJLANISHI

Psixikani to'g'ri tushunish mumkin bo'lsa psixikaga taraqqiyot mahsuli va faoliyat natijasi deb qaralsa, uni to'g'ri tushunish, hamda tushuntirib berish mumkin

1923-yilda psixologlarning birinchi yig'ilishida **K.N.Kornilov** psixologiyani qayta qurish vazifasini ilgari surdi. Psixologiya fanini rivojlantirishda judayam katta rol o'ynagan psixologlar quyidagilar: B.G.Ananov, P.P.Blonskiy, S.L.Rubinshteyn, L.S.Vigotskiy, R.S.Nemov va boshqalar, shuningdek, keyinchalik o'zbekistonda ham yirik olimlar yetishib chiqdi. Ular jumlasiga M.G.Davletshin, E.G.G'oziyev, M.Vohidov, V.A.Tokareva, R.Z.Gaynutdinov, V.M.Karimova, G.B.Shoumarov, R.I.Sunnatova, Z.T.Nishonova va boshqalarni kiritish mumkin. Yuqorida nomlari tilga olingan olimlar o'zlarining g'oyalari va milliy mafkuralar bilan yoshlarda tafakkur sifatlaridan «mustaqillik», «tanqidiylik» kabilarni shakllantirishga e'tibor berib kelmoqdalar.

Hozirgi mustaqillik sharoitida psixologiyaga bo'lgan talab-ehtiyoj juda kuchayib ketdi. Yoshlar ma'naviyatini boyitish uchun ularning dunyoqarashi, tafakkuri, irodasi, umuman olganda ongini o'stirish zarur. Buning uchun eksperimental ishlarni kuchaytirish, ta'lim jarayonini yangi texnologiyalar asosida qayta qurishi lozim. Hozirda Respublikamiz universitetlarining psixologiya bo'limlari, kafedra, laboratoriyalari ilmiy fikrlar markaziga aylantirildi.

Mazkur muassasalarda psixologik tadqiqotlar o'tkazilib, psixik jarayonlar, holatlar, shaxsning individual xususiyatlari, hissiy-irodaviy sohasiga doir nazariy va amaliy bilimlar qo'lga kiritildi. Ayniqsa, fan sohasida tadqiqotlar shu darajada ko'paydiki, ular ma'lum qonun qoidaga tayanishi lozim. Shu bois, olib borilayotgan izlanishlarga asos bo'lishi uchun tamoyillar ishlab chiqildi.

Shunga ko'ra psixologiyaning tamoyillari quyidagicha:

1. Determinizm tamoyili;

2. Ong va faoliyat birligi tamoyili;

3. Psixika va onging faoliyatda rivojlanishi tamoyili.

Psixologiya tamoyillarining jadval ko'rinishi.

Tamoyil – ma'lum faoliyatni bajarishda tayaniladigan dastlabki qoidalar tizimidir. **Determinizm** tamoyiliga ko'ra, psixika yashash sharoiti bilan belgilanadi va sharoit o'zgarishi bilan o'zgaradi. Hayvonlar psixikasining taraqqiyoti tabiiy saralanish bilan, odam psixikasi taraqqiyoti esa ijtimoiy taraqqiyot qonunlari bilan belgilanadi.

Ong va faoliyat birligi tamoyiliga ko'ra, ong va faoliyat bir-biriga qarama-qarshi ham, aynan bir narsa ham emas. Ular bir butunlikni tashkil etadi. Ong faoliyatni ichki rejasini, dasturini tashkil etadi. Bu tamoyil psixologlarga inson xulq-atvori, xatti-harakatlari va faoliyatlarini o'rganish orqali xatti-harakatlardan ko'zlangan maqsadlarga, muvaffaqiyatlarga erishishni ta'minlovchi ichki psixologik mexanizm, ya'ni psixikani obyektiv qonuniyatlarini ochishga imkon beradi.

Psixika va onging faoliyatda taraqqiy etish tamoyiliga ko'ra, psixikaga taraqqiyot mahsuloti va faoliyat natijasi deb qaralsa, uni to'g'ri tushunish hamda tushuntirib berish mumkin. Bu tamoyil L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, V.M.Teplov kabi psixologlarning ishlarida o'z aksini topgan. L.S.Vigotskiy *ta'lim psixikani rivojlantirishga yo'naltirishini*, P.P.Blonskiy esa *tafakkurning kichik maktab yoshida o'yinlar bilan o'spirinlik yoshida o'qish bilan bog'liq tarzda rivojlanishini* tahlil qildi. S.L.Rubinshteyn "Ong faoliyatda paydo bo'lib, faoliyatda shakllanadi" degan edi.

Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi

Hozirgi zamon psixologiya sohalarini hozirgi kunga kelib 300 dan ortiqni tashkil qiladi. Bu sohalar o'ziga xos obyektga ega bo'lib, bir-biridan farq qiladi. Shu bois fan sohalarini o'rganish qulay bo'lishi uchun tarmoqlarni ma'lum tizimga keltirish maqsadida ma'lum guruhlariga tasniflash joriy qilingan. Bu borada professor A.V.Petrovskiy psixologiya fan sohalarini quyidagicha tasniflashni ilgari surdi:

- **Aniq faoliyat turlarini o'rganuvchi psixologiya sohalarini.**
- **Rivojlanishning yosh xususiyatlarini o'rganuvchi psixologiya sohalarini.**
- **Shaxs va jamiyatga bo'lgan munosabatni o'rganuvchi psixologiya sohalarini.**

Psixologiya fani sohalarining tuzilish tarkibi quyida aks ettirilgan:

Faoliyatning xarakteriga ko'ra turlari

Mehnat psixologiyasi – turli xil ijtimoiy hayotda inson faoliyatining psixik xususiyatlarini o'rganadi.

Rivojlanishiga ko'ra:

Yosh psixologiyasi - hayot jarayonida shaxsni psixik rivojlanishini o'rganadi.

Qiyosiy psixologiyasi - hayvonlar psixikasini o'rganadi.

Maxsus psixologiyasi – psixikaning rivojlanishidagi o'zgarishlarni o'rganadi.

Shaxs va jamiyatga bo'lgan munosabatlariga ko'ra:

Ijtimoiy psixologiya – jamoada insonlarni o‘zaro mu-nosabatdagi psixik jarayonlar-ni paydo bo‘lishini o‘rganadi.

Shaxs psixologiyasi – shaxsning psixologik xususiyatlarini o‘rganadi.

Aniq faoliyat turiga ko‘ra psixologiyaning quyidagi turlari mavjud:

- **mehnat psixologiyasi:** inson mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil qilishning psixologik tamoyillarini o‘rganadi. **Mehnat psixologiyasining bir nechta bo‘limlari mavjud:**

a) **muhandislik psixologiyasi** - inson bilan mashina o‘rtasidagi vazifalarni taqsimlash masalalarini hal qiladi va asosan operatorlarning faoliyatini o‘rganadi;

b) **aviatsiya psixologiyasi**- uchishga o‘rganish jarayoni va uchish moslamalarini boshqarishda inson faoliyatining psixologik qonuniyatlarini o‘rganadi;

v) **kosmik psixologiya** - vaznsizlik holati, fazoviy tasavvurlar chalkashib ketgan vaqtda va organizmga juda ko‘p ortiqcha ta’sirlar yuklangan paytda asab va ruhiy zo‘r berish bilan bog‘liq bo‘lgan alohida holatlar tug‘ilganda odam faoliyatining xususiyatlarini o‘rganadi.

Pedagogik psixologiya-uning predmeti o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini o‘rganish, o‘quvchilar tafakkurini taraqqiy topishi, intellektual faoliyat malakalari va usullarini o‘zlashtirish jarayonini boshqarish masalalarini o‘rganadi. **Pedagogik psixologiya bo‘limlari quyidagilardir:**

a) **ta’lim psixologiyasi;**

b) **tarbiya psixologiyasi;**

v) **o‘qituvchi psixologiyasi;**

Tibbiyot psixologiyasi shifokor faoliyatining va bemor xulq-atvorining psixologik jihatlarini o‘rganadi. **Uni quyidagi tarmoqlari mavjud:**

a) **neyropsixologiya** — psixik hodisalar bilan miyadagi fiziologik tuzilishlar o‘rtasidagi nisbatni o‘rganadi;

b) **psixofarmakologiya** — dorivor moddalarning shaxs ruhiy holatiga ta’sirini o‘rganadi;

v) **psixoterapiya** — bemorni davolash uchun ruhiy ta’sir vositalarini o‘rganadi;

Yuridik psixologiya-xuquq tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik masalalarni o‘rganadi. **Uning quyidagi tarmoqlari mavjud:**

a) **sud psixologiyasi** - jinoiy jarayon ishtirokchilarining xulq-atvorini, ruhiy xususiyatlarini tahlil qiladi;

b) **kriminal psixologiya** - jinoyatchining xulq-atvori, shaxsining shakllanishiga doir psixologik masalalar, jinoyatning motivlari bilan shug‘ullanadi.

Harbiy psixologiya- kishining harbiy harakatlar sharoitidagi xulq-atvori bilan bog‘liq hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarini, psixologik targ‘ibot metodlarini, harbiy texnikani boshqarishning psixologik muammolarini o‘rganadi.

Sport psixologiyasi - sportchilar shaxsi va faoliyati xususiyatlarini, ularning psixologik jihatdan tayyorligining shart-sharoitlari, musobaqalarni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq psixologik omillarni o‘rganadi.

Savdo psixologiyasi – asosan rivojlangan mamlakatlarda keng taraqqiy etgan bo‘lib, kishilar ruhiyatiga tijoratning ta’sirini psixologik shart-sharoitini, xaridorlarga

xizmat ko'rsatishning psixologik omillarini aniqlaydi. Modalar psixologiyasini tadqiq qiladi.

San'at psixologiyasi — san'at asarlarining yaratilishida faoliyatning psixologik tomonlarini, inson tomonidan badiiy asarlarni idrok etilishi, turli hodisalarni paydo bo'lishi va estetik tarbiya muammolari, musiqaviy, badiiy, adabiy qobiliyatlarni shakllantirish va tarbiyalash muammolarini o'rganadi.

Ilmij ijodiyot psixologiyasi ilmiy faoliyatning psixologik xususiyatlari, ijodiyotda intuitsiya va ilhomni tadqiq qiladi.

&Rivojlanishning yosh xususiyatlarini o'rganuvchi sohalar.

A) yosh psixologiyasi - inson shaxsining psixologik xususiyatlari va bilish jarayonlarining ontogenezda rivojlanishini o'rganadi. Yosh psixologiyasi bolalar psixologiyasi, o'smirlar psixologiyasi, kattalar psixologiyasi, gerontopsixologiya kabi tarmoqlarga bo'linadi.

B) patopsixologiya- miya faoliyati buzilishlari natijasida kelib chiqadigan turli shakldagi ruhiy rivojlanishdan chetlanishni o'rganadi.

Oligofrenopsixologiya - miyaning tug'ma kamchiliklari tufayli paydo bo'ladigan bo'limlarni o'rganadi.

Surdopsixologiya – eshitish faoliyatida jiddiy nuqsonlari bo'lgan bolalarning rivojlanishini o'rganadi.

Tiflopsixologiya – ko'rish qobiliyati past yoki umuman ko'rmaydigan kishi faoliyatini o'rganadi.

Qiyosiy psixologiya – hayotning filogenetik shakllarini o'rganuvchi psixologiya sohasi bo'lib, inson va hayvonlar psixologiyasini solishtirish orqali o'xshashlik va farq qiluvchi tomonlarini aniqlaydi.

Akmeologiya yetuklik darajasiga erishgan shaxs rivojlanishining yuqori darajasi ularning qonuniyatlari va mexanizmlarini, ayniqsa rivojlanishining eng yuqori cho'qqiga erishish xususiyatlarini o'rganadi.

&Inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning psixologik tomonlarini o'rganuvchi psixologiya sohalar:

1. Ijtimoiy psixologiya – uyushgan va uyushmagan ijtimoiy guruhlardagi shaxslararo o'zaro tasir jarayonida paydo bo'ladigan psixologik hodisalarni o'rganadi.

2. Differensial psixologiya – shaxs shakllanishining individual psixologik yo'naltirilganligi kabi xususiyatlarni o'rganadi.

3. Din psixologiyasi – inson ongiga diniy qarashlarning tasiri masalalarini o'rganadi.

4. Etnopsixologiya – inson psixologiyasining etnik xususiyatlari, milliy xarakter, milliy tuyg'u, milliy g'oya, o'zini o'zi anglash, etnik stereotip, ularning qonuniyatlari va vujudga kelish xususiyatlarini o'rganadi.

5. Boshqaruv psixologiyasi – bu psixologiya fanining shunday sohasiki, unda inson tomonidan – boshqarishning psixologik tomonlarini o'rganadi.

6. Marketing psixologiyasi – yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishda ishlab chiqarish korxonalarini va firmalarni boshqarishni va ular faoliyatini tashkil etishning psixologik muammolarini tadqiq qiladi.

Shu bilan birga psixologiyaning bir qator **tadbiiy sohalarini** ham mavjud.

Ekspirimental psixologiya – eksperimental metodlar yordamida psixik hodisalarni tadqiq qilishning umumiy sohasi. Psixologiya fan sifatida falsafadan ajralib chiqishida, eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish asosiy rol o‘ynagan.

Ekstremal psixologiya – insonning o‘zgargan muhit shart-sharoitlarida psixik faoliyatning kechishi qonuniyatlarini o‘rganadigan psixologiya sohasi.

Psixofiziologiya – odamlarning individual psixologik va psixofiziologik farqlarini tadqiq qiluvchi, psixologiya sohasi.

Siyosiy psixologiya – jamiyatning siyosiy hayotidagi psixologik xususiyatlar, holatlar, qonuniyatlar, ta’sirchanlik va ta’sir ko‘rsatish jarayonlari kabi jabhalarni tekshiruvchi psixologiya sohasi.

Oila psixologiyasi – oila psixologiyasini o‘rganuvchi, fanlararo tadqiqot qilishga yo‘nalgan psixologiya sohasi.

Parapsixologiya – hozirgi zamon fanining chegarasidan tashqaridagi, tushuntirish qiyin bo‘lgan psixik hodisalarni o‘rganadi.

Fan rivojlanib, taraqqiy etib borishi jarayonida uning sohalari ham kengayib bormoqda.

Hozirgi zamon psixologiyasining ilmiy tadqiqot metodlari

Ma’lumki, har qanday fan o‘z predmetiga ega. Psixologiyaning predmeti psixika bo‘lib, u obyektiv olamni psixik hodisalar asosida aks ettirib, yuzaga kelgan va shakllangan obraz subekt faoliyatini, hulq-atvorini maqsad sari yo‘naltiradi.

Bundan tashqari har qanday fan qandaydir hodisa qonuniyatlarini bilish uchun malum bir metodlardan foydalanadi. **I.P.Pavlov** “*Metodning qo‘lida tadqiqot taqdiri yotadi*” degan edi. Metodlar tizimi fanning umumiy metodologiyasiga birlashadi.

Metodologiyani keng manoda oladigan bo‘lsak, u malum tizimga ega bo‘lgan va bilimlarni izlab topishga qaratilgan, mantiqan ketma-ketlikka ega bo‘lgan metodlardir. Ko‘pchilik olimlar bu atamani ilmiy metod tushunchasiga mos tarzda tushunadilar va foydalanadilar, metodologiya faqat ilmiy tarzda qabul qilinishi deb takidlaydilar.

Metodologiya (yunoncha methodes – bilish, tadqiq qilish, izlanish yo‘li, logos – tushuncha, talimot) amaliy faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish tamoyillari, usullari tizimi hamda ushbu tizim haqidagi talimotdir. **Metodlar** – psixologiyani o‘rganish usullari va yo‘llari yig‘indisi, “*Metod*” bu bilish, anglash yo‘li bo‘lib, bu usul orqali fanning predmeti aniqlanadi (S.L.Rubinshteyn).

Shuni alohida takidlash lozimki, psixologik tadqiqotlarning tashkil etilishiga va o‘tkazilishiga malum bir talablar qo‘yiladi. Ular quyidagilardir:

1. Tadqiqotlarni rejalashtirish. Metod va metodikalarni tanlash va ularni sinab ko‘rish.

2. Tadqiqotni o‘tkazish joyi.

3. Tadqiqotni texnik jihozlash.

4. Tadqiq qilinuvchilarni tanlash.

5. Tadqiqotchi, shubhasiz, tadqiqotning borishiga tasir etadi va tadqiqotni rejalashtirishdan to xulosa va tavsiyalar chiqarishga qadar mas’uliyatni his qiladi va bu muhim ahamiyatga ega.

6. Ko‘rsatma – u aniq va qisqa bo‘lishi lozim.

7. Tadqiqot qoidasi bayonnoma to'liq va maqsadga yo'nalgan bo'lishi kerak.

8. Tadqiqot natijalarini qayta ishlash.

Tadqiqot murakkab jarayon bo'lib, uning o'z bosqichlari va pog'onalari mavjud.

Psixologik tadqiqot bosqichlarini quyidagi sxemada ko'rish mumkin:

IV	Natijalami sharxlash va xulosalarni ifoda etib berish.
III	Tadqiqot natijalari miqdor tahlili. O'rtacha kattalikni, korrelatsiya koeffitsientini aniqlash, ishlab chiqish va boshqalar. Grafiklarni tuzish
II	Xulosalarning to'g'riligini isbotlash. Buning uchun turli metodlardan foydalaniladi.
I	Tayyorlov bosqichi – ilgari surilgan vazifalarni o'rganish, farqlarni aniqlash. Tadqiqot vazifalari va ilmiy farazini belgilash, metodikalarini ishlab chiqish.

Shuningdek, ayrim adabiyotlarda psixologik tadqiqot bosqichlarining ifodalanishi 54-betdagi rasmda ham ko'rsatilgan.

Har bir fan taraqqiyotining asosiy sharoitlaridan biri uning malum darajada mumkin qadar obyektiv, aniq ishonchli uslublarga ega ekanligidir. *Metod* – uslubning manosi biror narsaga borish yo'li demakdir. Umuman psixologiyada inson psixikasini tadqiq qilishda metodlarning turli tasnifi mavjuddir. Tadqiqot metodlarini ilmiy jihatdan tahlil qilgan rus psixologi **B.G.Ananev** mazkur metodlarni xususiyatlariga qarab klassifikatsiya qilgan.

B.G.Ananev psixikani o'rganish metodlarini turli guruhga ajratib, o'rgangan:

A) tashkiliy guruhga - qiyoslash, longityud, kompleks metodlari kiradi;

B) empirik guruhga kuzatish, eksperiment, suhbat, so'rovnomma, test, faoliyat mahsulini o'rganish metodi, biografiya, sotsiometriya;

V) natijalarni qayta ishlash yoki statistik metodlar;

G) sharhlash guruhiga genetik va donalash metodlari kiradi.

B.G.Ananev tomonidan ajratilgan klassifikatsiyaga ko'ra, tadqiqot ishlarida foydalaniladigan asosiy metodlar empirik guruh metodlari hisoblanadi. Shunday bo'lsada boshqa guruh metodlariga ham qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Tadqiqot metodlarining birinchi *tashkiliy guruhi* o'z ichiga qiyoslash, longityud (uzluksiz), kompleks (ko'pyoqlama) deb ataladigan turlarni qamrab oladi.

Qiyoslash metodidan umumiy psixologiya, ijtimoiy psixologiyada katta yoki kichik guruhlarni hamda ularning har xil toifalarini o'zaro taqqoslash uchun, meditsina psixologiyasida – sog'lom va bemor kishilarning psixik xususiyatlarini qiyoslash maqsadida, sport psixologiyasida sportchilarning holati, o'quvligini va ishchanligini o'zaro taqqoslash maqsadida foydalaniladi.

Qiyoslash metodi turli yoshdagi odamlarning bilish jarayonlari shaxs xususiyatlari, bilimlarni o'zlashtirish, aqliy qobiliyati, salohiyati, rivojlanish dinamikasi, jinslarning tafovutlari va o'ziga xosligini o'rganishda qo'llaniladi. Psixologlardan L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, A.A.Smironov, B.G.Ananev, D.B.Elkonin, P.Galperin va ularning shogirdlari olib borgan tadqiqotlar (chaqaloqlik,

go'daklik, ilk bolalik, kichik maktab yoshi, o'smirlik, o'spirinlik yosh davrlarini o'zaro solishtirish) shu metoddan foydalanib amalga oshirilgan.

Psixologik tadqiqot bosqichlari

Xulosalarni aniq ifoda qilish va ma'lumotlarni interpretatsiya qilish.
Ma'lumotlarni miqdoriy ishlab chiqish tadqiqoti: o'rtacha kattaliklar uzunliklarni aniqlash, ma'lumotlarni birlashtirish, koeffitsientlarni korrelatsiyalash va boshqalar. Grafiklar tuzish
Faktli ma'lumotlarni yig'ish va aniqlangan ta'minlovchi shartlari. Uning uchun turli metodlardan foydalaniladi va bos qichlarga ajratiladi.
Tayyorlovchi bosqich – ma'lum masaladagi savollarni o'rganish ishchi farazni o'rganish tadqiqot metodikalarini ishlab chiqish.

Longityud metodining boshqa metodlardan farqi bir yoki bir nechta sinaluvchilar uzoq muddat, hatto o'n yillab tekshiriladilar. Longityud metodidan *nemis psixologi V.Shtern, fransuz psixologi R.Zazzo, rus psixologlari N.A.Menchinskaya, A.N.Gvozdev, N.S.Leytes, V.S.Muxina* va boshqalar ko'p yillardan beri foydalanmoqdalar.

Mazkur metod orqali bir xil jinsli (Hasan-Husan, Fotima- Zuhra yoki aralash jinsli Hasan – Zuhra, Fotima- Husan) egizaklar kuzatilgan. Longityud metodi yordamida subyektiv omillarning o'ziga xosligini obyektiv shart – sharoitlari va ijtimoiy muhitning sinaluvchiga ta'siri o'rganiladi. Chunonchi egizaklarning o'xshashligi va tafovuti, ta'sirlanishi, his-tuyg'uni o'zgarishi kishilar o'rtasidagi individual farqlar (ishchanligi, temperamenti, oliy nerv faoliyati tizimi va hokazo) bo'yicha ma'lumotlar olish longityud metodi orqali amalga oshiriladi.

Kompleks metodi yordamida o'rganilgan obyektidagi o'zgarishlar turli nuqta - nazardan tahlil qilinadi yoki ularga har xil yondashiladi. *Masalan*, bolada oddiy bilimlarni o'zlashtirish xususiyati psixologik jihatdan tekshirilayotgan bo'lsa, kompleks yondashish ta'sirida ana shu o'zlashtirishning falsafiy, mantiqiy, fiziologik,

ijtimoiy, biologik xususiyatlari yoritiladi. Aytaylik, keksayishning biologik omillarini o'rganish, uning psixologik, fiziologik, mantiqiy jihatlarini yoritishga xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqot metodlarining uchinchi guruhi *natijalarni qayta ishlash bo'lib, ular statistik (miqdor) va psixologik (sifat) tahlil* turlariga bo'linadi.

Ilmiy tadqiqot metodlarini *sharhlash guruhi* genetik va donalash metodlaridan iboratdir.

Genetik metod bilan tadqiqot davomida tugallangan ma'lumotlar yaxlit holda, maqsadga muvofiq tarzda sharhlanadi. Bu metoddan foydalanishning *asosiy maqsadi* sinaluvchida vujudga kelayotgan ichki, jamiki obrazlarning rivojlanishi, faoliyat va bilish jarayonlarining o'zgarishiga tajriba natijasiga suyanib ta'rif va tavsif berishdir. Shuningdek, bunda mazkur fazilat va xususiyatlarning namoyon bo'lish davri, bosqichi hamda ba'zi mashaqqatli daqiqalarga, holatlarga qo'shimcha sharhlar berish imkoniyati tug'iladi. Genetik metodga asoslanib psixik o'zgarishlar bilan rivojlanish bosqichlarining bevosita bog'liqligi ildizi aniqlanadi.

Donalash metodi tadqiqot obyektiga kirgan shaxs psixikasidagi barcha o'zgarishlardagi o'ziga xoslik, o'zaro aloqa, o'zaro ta'sir va uyg'unlikning o'zaro bog'lanishlari o'rganiladi. Jumladan, inson xulqini idrok qilish uchun sezgi, idrok, xotira, tafakkur jarayonlarining bir paytda, birgalikda tadqiq qilinishi bunga yorqin misoldir. Bunda har bir bilish jarayonining usuli ifodalanadi yoki uning ahamiyati alohida ta'kidlanadi, ularning o'zaro bog'liqligi asoslab beriladi.

Empirik metodlar guruhi o'z navbatida ikkiga, ya'ni *asosiy va yordamchi metodlarga* bo'linadi. *Asosiy metodlarga* kuzatish va eksperiment metodlari kirsa, *yordamchi metodlarga* suhbat, so'rovnoma, test, sotsiometriya va faoliyat natijalarini tahlil qilish kabi metodlarni kiritish mumkin.

Kuzatish metodi – ikki xil bo'lib, *obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) kuzatish* turlari mavjud. Inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

- a) kuzatishning maqsad, vazifasi belgilanadi;
- b) kuzatilayotgan obyekt tanlanadi;
- v) tadqiqot o'tkazish vaqti rejalashtiriladi;
- g) kuzatish qancha davom etishi qat'iy lashtiriladi;
- d) kuzatish insonning qaysi faoliyatida (o'qish, o'yin, mehnat, sport) amalga oshirilishi aniqlanadi;

ye) kuzatishning shakli (yakka, guruh, jamoa) tanlanadi;

yo) kuzatilganlarni qayd qilib borish vositalari (kundalik suhbat daftari, kuzatish varaqasi, magnitafon, videomagnitafon) tayyorlab qo'yiladi. Kuzatish orqali turli yoshdagi odamlarning diqqati, his-tuyg'ulari, asab tizimining tashqi ifodalari, imo-ishoralari, sezgirligi, xulq-atvori, nutq faoliyati kabilar o'rganiladi. Ammo o'ta murakkab ichki kechinmalar, yuksak hissiyotlar, tafakkur, mantiqiy xotira va aql-zakovatni tadqiq etishga bu metodning imkoni yetmaydi.

Masalan, o'spirin yoshlarning sport faoliyatini kuzatish orqali ularning irodasi, ishchanligi, his-tuyg'usining o'zgarish xususiyatlari, talabga intilish, o'z harakatini idora qila olish yuzasidan materiallarni yig'ish mumkin.

Tashqi kuzatishda ba'zan tafakkur bo'yicha ham ma'lumotlar olish mumkin. Ish ustidagi kayfiyatni, chehradagi tashvish va iztirobni, sinchkovlik kabi ruhiy

holatlarni kuzatib, tafakkurdagi o'zgarishni aniqlash mumkin. Bundan tashkari qo'lning titrashi, asabiylashish, nutqning buzilishi ham insonning ruhiyatidagi o'zgarishlar bo'yicha ma'lumotlar beradi. Psixologiyada o'zini o'zi kuzatish, ya'ni interospeksiya metodidan ham foydalaniladi, lekin bu psixologiyaning ilmiy bo'lmagan metodi hisoblanadi.

Tajriba yoki eksperiment metodi – o'z navbatida *tabiiy va laboratoriya* metodlariga ajratiladi. Tabiiy tajriba metodlarining ilmiy asoslarini *1910-yilda rus psixologi A.F.Lazurskiy* tomonidan ishlab chiqilgan. U kichik maktab yoshidagi bola shaxsining shakllanishini o'rganish maqsadida ushbu metodni qo'llagan. Tabiiy metoddan ishlab chiqarish jamoalari a'zolarining, ilmiy muassasalar xodimlarining, o'qituvchilar, keksa kishilardagi psixologik o'zgarishlari, o'zaro munosabatlari, ish qobiliyatlari, mutaxassislikka yaroqliligi muammolarini hal qilish jarayonida foydalanish nazarda tutiladi. Tabiiy sharoitda inson psixikasini o'rganishdan sinaluvchilarning o'zlari bexabar bo'lishi, ta'lim jarayonida berilayotgan bilimlar tadqiqot maqsadiga muvofiqlashtirilishi, katta yoshdagi odamlarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish, kundalik mehnat doirasida amalga oshirilishi, zavod va fabrikada esa moddiy mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim.

Tabiiy eksperiment metodi *sirtidan kuzatish metodidan* keskin farq qiladi. *Sirtidan kuzatish metodida* biror psixik jarayon kuzatilayotgan kishi o'sha jarayon qanday yuz bersa, shu holicha tekshiraveradi, lekin bu jarayonning namoyon bo'lishiga aralashmaydi, ya'ni psixik jarayonni yuzaga keltiruvchi sharoitni o'zgartirmaydi. *Tabiiy eksprement metodidan* foydalanganda esa tekshiruvchi o'rganilayotgan biror psixik jarayonni o'zi vujudga keltiradi, lekin uni tekshirilayotgan odam uchun tabiiy bir sharoitda va unga sezdirmasdan o'tkazadi.

Laboratoriya (klinika) eksperimenti metodining (1879-yili V.Vunt kiritgan) asosiy xususiyati, shundan iboratki bunda o'rganilishi lozim bo'lgan psixik jarayonlarning (masalan idrok, diqqat, xotira kabi) qanday sharoitda qachon yuz berishini kutib o'tirmasdan tekshiruvchi kishi (eksperimentator) sinalayotgan odamda shu jarayonlarni maxsus tarzda ishga soladi. Bundan tashqari laboratoriya eksprementi sharoitida eksperimentator o'rganayotgan har bir psixik jarayonni hohlagan marta, ya'ni takror-takror yaxshilab sinab ko'rishi mumkin. Bu murakkab psixik jarayonlarning tabiatini o'rganishda katta qulaylik tug'diradi. *Birinchidan*, istalgan psixik jarayonni hohlagan paytda yuzaga keltirish vaqtini tejash imkonini bersa, *ikkinchidan* har bir psixik jarayonni takror-takror yuzaga keltirib, sinchiklab o'rganish bu jarayonlarning qonuniyatlarini aniqlash imkoniyatini beradi.

Hozirgi kunda odamdagi ayrim psixik jarayonlarning yuz berish tezligini, diqqatning barqarorligi va kengligini, xotiraning xususiyat-larini uquv hamda malakalarning qonuniyatlarini aniq va puxta tekshira oladigan ko'plab maxsus asboblardan mavjuddir. *Masalan, elektron xronoskop* orqali ayrim psixik (aks ettirish, ko'rish, eshitish, hid bilish, teri sezgilari kabi) jarayonlarning yuzaga kelish tezligini aniq o'lchash mumkin. *Elektron taxistoskop* orqali diqqatning xususiyatlarini belgilash mumkin, *perseptometr* orqali idrok qilish xususiyatlarini o'rganish mumkin, *audiometr* orqali eshitish xususiyatlarini o'rganish mumkin va boshqalar. Umuman, hozirgi kunda texnikaning ildam taraqqiyoti munosabati bilan laboratoriya eksprementining imkoniyati ortib bormoqda.

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, laboratoriya eksperimenti metodi bilan turli yoshdagi insonlarning psixik jarayonlari o'rganiladigan bo'lsa eksperimentni tayyorlash va o'tkazishda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Psixik jarayonlarning moddiy, ya'ni nerv-fiziologik asoslarini ham laboratoriya eksprementi yordami bilan tekshiriladi. Psixik jarayonlarning nerv-fiziologik asoslarini aniqlashda akademik *I.P.Pavlovning* shartli reflekslar metodi juda katta ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda bu metod bolalarning o'sishini tekshirishda hamda birinchi va ikkinchi signallar tizimlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tekshirishda keng qo'llanilmoqda.

Laboratoriya eksperimenti metodi eng aniq metod sifatida psixologiya fanining taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega. Lekin laboratoriya eksperiment metodining ham ma'lum kamchiligi mavjud. Bu kamchilik shundan iboratki, laboratoriya sharoitida o'tkazilayotgan tekshirish hech vaqt ma'lum sun'iylikdan xoli bo'lmaydi. Tekshirilayotgan odamga hech narsa deyilmasa ham, bari bir laboratoriya sharoitining o'zi tekshirilayotgan odamning tabiiy psixik holatiga ta'sir qiladi. Binobarin, bu narsa o'z navbatida tekshirish natijalariga salbiy ta'sir qiladi. Ana shuni nazarda tutib laboratoriya eksprementi yordami bilan qo'lga kiritilgan natijalarni ba'zan boshqa metodlar yordami bilan tekshirib ko'rish lozim bo'ladi. Laboratoriya eksperimenti metodi maxsus xona va turli asboblardan bog'liq bo'lganligi sababli bu metoddan ayrim sharoitlarda foydalanish imkoniyati bo'lmaydi. Shuning uchun psixologiya fanida laboratoriya eksprementi bilan bir qatorda tabiiy eksprement metodidan ham keng foydalaniladi.

Yordamchi metodlar

Suhbat metodi bilan inson psixikasini o'rganishda foydalanildi. Uning maqsadi va vazifasi belgilanadi. Suhbatning obyekti va subyekti tanlanadi, mavzu o'tkaziladigan vaqti aniqlanadi, yakka shaxslar, guruh va jamoa bilan o'tkazish rejalashtiriladi, o'rganilayotgan narsa bilan bog'liq savol-javob tartibi tayyorlanadi. Suhbatning bosh maqsadi ma'lum bir vaziyat yoki muammoni hal qilish jarayonida inson psixikasidagi o'zgarishlarni o'rganishdir. Suhbat orqali turli yoshdagi odamlarning tafakkuri, aql-zakovati, xulq-atvori, qiziqishi, bilim saviyasi, e'tiqodi, dunyoqarashi, irodasi to'g'risidagi ma'lumotlar olinadi. Suhbat chog'ida o'zaro izchil bog'langan savollar beriladi.

Suhbat metodidan to'g'ri foydalanish va undan kutiladigan natijaga erishish suhbat o'tkazish uchun puxta tayyorlanishga bog'liqdir. *Suhbat metodi quyidagi shartlarga rioya qilishni talab etadi:*

- o'tkazilgan suhbatning mavzusi va mazmuni sinaluvchining taraqqiyot darajasi hamda yosh xususiyatlariga mos bo'lishi kerak;
- suhbat paytida sinaluvchilarga berilgan savollar mazmunan yaxshilab o'ylab olinishi lozim;
- suhbat paytida berilgan savollarga "ha", "yo'q" kabi qisqa tarzda emas, balki batafsil javob olishga erishish kerak;
- sinaluvchilar zerikib yoki toliqib qolmasliklari uchun suhbat haddan tashqari cho'zilib ketmasligi lozim.

Suhbat metodining yuqorida ta'kidlangan ijobiy jihatlari bilan birga ayrim zaif tomonlari ham mavjud. Takrorlangan so'zlar, "g'aliz" iboralar nutqning tezligi, fikrning mavhumligi, zerikarliligi, muvaffaqiyatsizlikka sabab bo'ladi. Shuningdek, savol-javobning bir xil shaklda emasligi sinaluvchida o'ziga xos ishlash uslubi oshkoralikning yetishmasligi, imanish, uyalish atroflicha ma'lumotlar olishni qiyinlashtiradi va shu sababli boshqa metodlarga murojaat qilishga to'g'ri keladi.

Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi

Inson xotirasi, tafakkuri, qobiliyati va xayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida bu metod faoliyat psixologiyasida keng qo'llaniladi. Bolalar chizgan rasmlar, yasagan o'yinchoqlar, modellar, yozgan she'rlarini tahlil qilish orqali ularning mantiqiy xotirasi, tafakkuri, texnik, badiiy va adabiy qobiliyati, ijodiy xayoli yuzasidan materiallarni qo'llash mumkin. Mazkur metoddan foydalanishda mahsulotni yaratgan shaxs bevosita ishtirok etmaydi. Obyekt bilan subyekt o'rtasida muloqot o'rnatish uchun shaxsning psixikasi to'g'risida sirdan ma'lum hukm, xulosa chiqariladi.

Ijodiy faoliyat mahsullarini tahlil qilish orqali bolalar, o'quvchilar, talabalar, konstruktorlar, olimlar, hunarmandlar, ishchilar psixik xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash mumkin. Lekin insondagi psixik o'zgarishlar kamol topish va ularning kechishini ifodalovchi materiallar yig'ish uchun bu metodning o'zi yetmaydi. Shuning uchun inson psixikasini o'rganish maqsadida boshqa metodlardan ham foydalanish ma'qul.

Test metodi – "Test" inglizcha so'z bo'lib, sinash tekshirish demakdir. Shaxsning aqliy o'sishini, qobiliyatini, irodaviy sifatleri va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llaniladigan qisqa standart masala, topshiriq *test* deb ataladi. Test ayniqsa, odamning qanday kasbni egallashi mumkinligi, kasbga yaroqliligi yoki yaroqsizligini, iste'dodlilar va aqli zaiflarni aniqlashda keng qo'llaniladi. Test metodining qimmatli tajribaning ilmiylik darajasiga tekshiruvchining mahoratiga va qiziqishiga, yig'ilgan psixologik materiallarning obyektivligi va ularni ilmiy tahlil qilishga bog'liqdir.

1905-yildan fransuz psixologi A.Bine va uning shogirdi A.Simon insonning aqliy o'sishi va iste'dod darajalarini o'lchash imkoniyati borligi g'oyasini ilgari surgandan keyin psixologiyada test metodi qo'llana boshladi.

Biografiya (tarjimai hol) metodi - inson psixikasini tadqiq qilish uchun uning hayot faoliyati, ijodiyoti to'g'risidagi og'zaki va yozma ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega. Bu borada kishilarning tarjimai holi, xotiralari, esdaliklari, o'zgalar ijodiga bergan baholari, taqrizlari alohida o'rin egallaydi. Shu bilan birga o'zgalar tomonidan to'plangan tarjimai hol haqidagi materiallar, esdaliklar, xatlar, rasmlar, tavsiflar, baholar, magnitafon ovozlari, fotolavhalar, hujjatli filmlar o'rganilayotgan shaxsni to'liqroq tasavvur etishga xizmat qiladi. Tarjimai hol ma'lumotlari inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatishda uning suhbat va tajriba metodlari bilan o'rganib bo'lmaydigan jihatlarni ochishga yordam beradi.

So'rovnomalar metodi - psixologiyada keng qo'llaniladigan metodlardan biridir. Uning yordamida turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlari narsa va

hodisalarga munosabatlari o'rganiladi. *So'rovnomada 3 xil* tuzilishda bo'ladi. Ularning *birinchisi* anglangan motivlarni aniqlashga mo'ljallangan savollardan tuziladi. *Ikkinchi* xilida har bir savolning bir nechtdan tayyor javoblari beriladi. *Uchinchi* turida sinaluvchiga yozilgan to'g'ri javoblarni ballar bilan baholash tavsiya etiladi. So'rovnomadan turli yoshdagi odamlarning layoqatlarini, muayyan sohaga qiziqishlari va qobiliyatlarini, o'ziga, tengdoshlariga, katta va kichiklarga munosabatlarini aniqlashda foydalaniladi.

Sotsiometrik metod. Bu metod kichik guruh a'zolari o'rtasidagi bevosita emotsional munosabatlarni o'rganish va ularning darajasini o'lchashda qo'llaniladi. Bunga Amerikalik sotsiolog *Dj. Moreno* asos solgan, Mazkur *metod yordamida* muayyan guruh a'zolarining bir-birlari bilan munosabatini aniqlash uchun uning qaysi faoliyatda kim bilan birga qatnashishi so'raladi. Olingan ma'lumotlar matritsa, grafik, sxema, jadval shaklida ifodalanadi. Ulardagi miqdor ko'rsatkichlar guruhdagi kishilarning shaxslararo munosabatlari to'g'risida tasavvur hosil qiladi. Bu ma'lumotlar guruhiy munosabatlarning tashqi ko'rinishini aks ettiradi.

Shuning uchun hozir *Ya.L. Kolominskiy* va *I.P. Volkov* tomonidan sotsiometriyaning yosh davri psixologiyasiga moslab o'zgartirilgan yangi turlari ishlab chiqarilgan. Bular shaxsning bir-birini tanlash motivlarini keng ifodalash imkonini beradi. Ayniqsa sotsiometriyaning *Ya.L. Kolominskiy* ishlab chiqqan o'zgartirilgan turi bolalar jamoasidagi shaxslararo munosabatlar haqida to'laroq axborot beradi.

Tayanch iboralar

Aviatsiya psixologiyasi (lot. Avis - qush - yunon, psyche - pyh logos - tushuncha, ta'limot) - psixologiya tarmog'i bo'lib, uchuvchilar shaxsi va turli uchish faoliyatining psixik xususiyatlarini o'rganadi.

Akmeologiya (yunon. Akme yuksak pog'ona, ziyraklik, yuqori, logos - tushuncha ta'limot) - tibbiyot, ijtimoiy va tabiiy fanlarning tutashuvida maydonga kelib, fenomenologiyani, inson taraqqiyotining qonuniyat va mexanizmlarini, insonning kamolotga erishish pog'onasida uning bu taraqqiyoti ancha yuqori darajaga erishuvini o'rganadigan fan.

Biografik metod (yunon. bios - hayot, grapho - yozaman, ko'rsataman) - odam uning tarjimai holi bilan bog'liq bo'lgan hujjatlar orqali o'rganish usuli.

Boshqarish psixologiyasi - psixologiya fanining boshqarish faoliyatining psixologik qonuniyatlarini o'rganuvchi sohasi.

Genetik metod (denetikos - kelib chiqishga oid, methodos - tekshirish, tadqiqot) - psixik holatlarning paydo bo'lishi va ularning quyidan yuqoriga qarab rivojlanishi jarayonini o'rganish usullari.

Genetik psixologiya (yunon. Denetikos - kelib chiqishga oid, psycko -pyh) odamning individual-psixologik xususiyatlarining kelib chiqishi, ularning shakllanishida genotip va muhitning roli o'rganadi.

Determinizm (lot, determinare - aniqlamoq) - tabiatdagi barcha narsalar, shu jumladan, psixik hodisalarning ro'y berishi obyektiv sabablar va qonunlar bilan belgilanadi degan ta'limot.

Din psixologiyasi - diniy ong xususiyatlari, tizimi va funksiyalarining ijtimoiy - psixologik omillarini o'rganuvchi psixologiya tarmog'i.

Differensial psixologiya - (lot. differentia – farq) psixologiya fanining bir qismi bo'lib, kishilar o'rtasidagi individual psixologik farqlarni o'rganadi.

Yosh psixologiyasi - psixologiya fani tarmoqlaridan bo'lib, turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlarini va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi.

Zoopsixologiya (yunon. zoon hayvon, psyche - pyh, lodos ta'limot) - psixologiya tarmoqlaridan biri bo'lib, hayvon psixikasining taraqqiyotini o'rganadigan soha.

Intervyu (interview – suhbat)- bu ijtimoiy psixologiya metodi bo'lib, qo'yilgan savollarga berilgan javob tariqasida axborotlarni to'plash usuli.

Introspektiv metod – bu odamning o'zini o'zi kuzatishga asoslangan psixologik metodi.

Kuzatish - psixologik metodlaridan biri bo'lib, odamning xatti- harakatlarida namoyon bo'ladigan turli hodisalarni hisobga olish va subyektiv psixik hodisalar to'g'risida fikr oliydan iborat.

Laboratoriya tajribasi (lot. laborate – ishlamoq) - psixologiya metodlaridan biri tekshiriluvchiga ta'sir etuvchi barcha omillarni nazorat qilgan holda sun'iy sharoitda olib boriladigan tadqiqot usuli.

Longitudinal tadqiqot (ing. longitude – uzoq muddat) - tekshiriluvchilarni uzoq muddat va doimiy ravishda o'rganish.

Metod (yunon. Methodos tadqiqot, tekshirish) - bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisi.

Mehnat psixologiyasi - turli mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini o'rganadi.

Modellashtirish - bilim obyektlarini modellar asosida qarama - qarshi qilish qandaydir hodisa va jarayonlarning o'zini bosuvchi, taqdim etuvchi bajaruvchi sifatidagi modellarni tadqiq qilish va yaratish.

Musiqiy psixologiya - san'at psixologiyasining sohasi bo'lib, odamga va uning faol musiqa faoliyatiga ta'sirini o'rganadi.

Muhandislik psixologiyasi - psixologiyaning tarmog'i, odam mehnatining psixologik xususiyatlarini, faoliyat jarayonida texnika vositasi bilan munosabatda bo'lishini o'rganadi.

Neyropsixologiya – muayyan psixik jarayonlar sodir bo'lishini ta'minlaydigan neyron tarmoqlarini o'rganuvchi fan.

Ong va faoliyat birligi - psixologiyaning ong bilan faoliyatning birligi, uning o'zaro bog'liqligini e'tirof etuvchi g'oya

Proektiv metod (lot. Prjektus - oldinga tashlangan, yunon. methodos – tadqiqot) - shaxsni tadqiq qilish metodlaridan biri. Bu metoddan mas., tajriba vaziyatlarida rasmlar idrok qilinib, uning talqini beriladi.

Prinsip (yunon. principium boshlang'ich asos) - biror bir narsaning ta'lim nazariyasi yoki fan, dunyoqarashning kelib chiqish asoslari, u odamning ichki e'tiqodi bo'lib, o'ziga, borliqda, boshqalarga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi.

Statistik metod (lot. status - holat, yunon. methodos – tadqiqot) - o'tkazilgan tadqiqot natijalarini miqdoriy hisoblab chiqish usuli.

Suhbat - psixologiya metodlaridan biri, nutq muloqoti yordamida bevosita yoki bivosita ma'lumot olinadi.

Tabiiy eksperiment (lotin. experimentum – sinov, tajriba) - tekshiriluvchini o'ziga bildirmagan holda uni o'yin, o'qish yoki mehnat faoliyatida o'rganishdan iborat psixologik tajriba.

Test (ing. test – tekshirmoq) standartlashtirilgan psixologik sinov. Buning natijasida u yoki bu holdagi psixik jarayon baholanadi, shaxs bir butunligicha yoki uning ayrim xususiyatlari o'rganiladi.

Shakllantiruvchi tajriba - psixologiya metodi, bu metod orqali shaxsda zaruriy psixik jarayon yoki sifatlar rejali ravishda shakllantiriladi.

Egizaklar metodi - bir xil irsiyat, egizak bolalarni qiyoslab tadqiq qilish. Bu metodni F. Galton taklif qilgan.

Eksperiment - tajriba (lot. experimentum - namuna, tajriba)- psixologiyaning asosiy metodlaridan, o'zgaruvchan mustaqil psixik holatlarning boshqa nomustaqil holatlariga ta'sir etishdagi aniq ma'lumotlarga tayanadi.

Empirik metod (yunon.- empeiria - tajriba, methodos tadqiqot) - tekshiriluvchi haqidagi ma'lumotlarni tajribaga asoslanib, amaliy tajribalar bilan aniqlash usuli.

Harbiy psixologiya - psixologiya sohasi. Harbiylar shaxsini, turli harbiy faoliyatning psixologik xususiyatlarini harbiy jamoalarning jangovar tayyorgarlik metodlarini o'rganadi.

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan mavzular

1. Hozirgi zamon psixologiyasi fanining tamoyillari.
2. Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi.
3. Aniq faoliyatni o'rganuvchi psixologiya sohalari.
4. Rivojlanishning yosh xususiyatlarini o'rganuvchi psixologiya sohalari.
5. Shaxs va jamiyat bo'lgan munosabatlarni o'rganuvchi psixologiya sohalari.
6. Hozirgi zamon psixologiyasining tadqiqot metodlari.
7. Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'ri.
8. Tashkiliy guruh metodlari.
9. Empirik guruh metodlari.
10. Natijalarni qayta ishlash yoki matematik statistik metod.
11. Sharhlash guruhi metodi.
12. Metod va metodologiya tushunchalarining mohiyati

Test topshiriqlari

1. Freydizm yo'nalishiga kim asos solgan?

- A) Z. Freyd;
- B) K.N Komilov;
- V) E. Tomdayk;
- G) Dj. Uotson;
- D) S.L. Rubinshteyn.

2. Hozirgi zamon psixologiyasining asosiy tamoyillari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) determinizm;
- B) ong va faoliyatda rivojlanish;
- V) psixikaning faoliyatda rivojlanishi;

G) Barcha javoblar to'g'ri;

D) to'g'ri javob yo'q.

3.psixika yashash sharoiti bilan belgilanadi va sharoit o'zgarishi bilan o'zgaradi.

A) determinizm;

B) ong va faoliyat birligi;

V) ongni faoliyatda rivojlanishi;

G) ong;

D) psixika.

5. ong va faoliyat bir-biriga qarama-qarshi ham aynan bir narsa emas ular bir butunlikni tashkil etadi.

A) determinizm;

B) ong va faoliyat birligi;

V) ongni faoliyatda rivojlanishi;

G) psixika;

D) barcha javoblar to'g'ri.

6. psixika taraqqiyot mahsuli va faoliyat natijasi deb qaralsa uni to'g'ri tushunish mumkin.

A) determinizm;

B) ong va faoliyat birligi;

V) ongni faoliyatda rivojlanishi;

G) psixika;

D) barcha javoblar to'g'ri.

7. Talim psixikani rivojlanishini yo'naltiradi. Mazkur fikr muallifi qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) L.S.Vigotskiy;

B) S.L.Rubinshteyn;

V) V.M.Teplov;

G) P.P.Blonskiy;

D) D.B.Elkonin.

8. Tafakkurning kichik maktab yoshida o'yinlar bilan o'spirinlik yoshida o'qish bilan bog'liq tarzda rivojlanishini tahlil qilgan olim qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) L.S.Vigotskiy;

B) V.M.Teplov;

V) S.L.Rubinshteyn;

G) P.P.Blonskiy;

D) D.B.Elkonin.

9. "Ong faoliyatda paydo bo'ladi va faoliyatida shakllanadi" mazkur fikr muallifi qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) L.S.Vigotskiy;

B) V.M.Teplov;

V) S.L.Rubinshteyn;

G) P.P.Blonskiy;

D) D.B.Elkonin.

10. Aniq faoliyat turlariga ko'ra, psixologiya sohalari qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) muhandislik, mehnat, pedagogik psixologiya, aviatsiya;
- B) yosh psixologiyasi, maxsus psixologiya, oligofrenopsixologiya;
- V) mehnat psixologiyasi, tibbiyot psixologiyasi, maxsus psixologiya;
- G) sport psixologiyasi, savdo psixologiyasi, harbiy psixologiya, instinktiv psixologiya;
- D) barcha javoblar to'g'ri.

11. Pedagogik psixologiya bo'limlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) talim psixologiyasi;
- B) tarbiya psixologiyasi;
- V) o'qituvchi psixologiyasi;
- G) anamal bolalar psixologiyasi;
- D) barcha javoblar to'g'ri.

12. inson mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil qilinishining psixologik tamoyillarini o'rganadi.

- A) mehnat psixologiyasi;
- B) muhandislik;
- V) aviatsiya;
- G) kosmik psixologiya;
- D) barcha javoblar to'g'ri.

13. Shaxs va jamiyat munosabatlarini o'rganuvchi psixologiya sohalari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) sud psixologiya, ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, din psixologiyasi;
- B) harbiy psixologiya, ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, din psixologiyasi;
- V) ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, din psixologiyasi, instinktiv psixologiya;
- G) ijtimoiy psixologiya, aviatsiya psixologiya, din psixologiyasi;
- D) barcha javoblar to'g'ri.

14. "Metod" so'zining ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) uslub;
- B) biror narsaga borish yo'li;
- V) qo'llanilish uslubi;
- G) uslub biror narsaga borish yo'li;
- D) barcha javoblar to'g'ri.

15. Uyushgan va uyushmagan ijtimoiy guruhlardagi shaxslararo o'zaro tasir jarayonida paydo bo'ladigan psixologik hodisalarni o'rganadigan psixologiya sohasi bu.....

- A) din psixologiyasi;
- B) shaxs psixologiyasi;
- V) instinktiv psixologiyasi;
- G) ijtimoiy psixologiya;
- D) jamoa psixologiya.

16. Tabiiy tajriba metodini fanga kiritgan olim qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) I.P.Pavlov;
- B) Dj.Moreno;
- V) A.F.Lazurskiy;
- G) I.M.Sechenov;
- D) D.B.Elkonin.

17. Bolalarning ruhiy jihatdan rivojlanishi qonuniyatlarini psixologiya fanining qaysi tarmog'i o'rganadi?

- A) pedagogik psixologiya;
- B) mehnat psixologiyasi;
- V) ijtimoiy psixologiya;
- G) yosh psixologiyasi;
- D) talim psixologiyasi.

18. Dastlabki psixologik tadqiqotlar laboratoriyasi qachon kim tomonidan ochildi?

- A) 1879-yil V.Vundt;
- B) 1875-yil Z.Freyd;
- V) 1889-yil V.Vundt;
- G) 1880-yil V.M.Bexterev;
- D) 1869-yil V.Vundt.

19. Dastlabki psixologik tadqiqot laboratoriyasi qaysi universitet qoshida tashkil qilindi?

- A) Oksford;
- B) Parij;
- V) London;
- G) Lomonosov;
- D) Leypsig.

20. Akademik B.M.Kedrov tomonidan barcha fanlar klassifikatsiya qilinib, ular qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) gumanitar, xorijiy filologiya, falsafiy;
- B) gumanitar, ijtimoiy, tabiiy;
- V) aniq xorijiy filologiya, ijtimoiy-gumanitar, tabiiy;
- G) gumanitar, falsafiy, tabiiy;
- D) gumanitar, tabiiy, aniq.

21. Psixologiya fanini fanlar tizimidagi o'rni qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) tabiiy fanlar tarkibida;
- B) gumanitar fanlar tarkibida;
- V) falsafiy fanlar tarkibida;
- G) aniq fanlar tarkibida;
- D) oraliq fanlar.

22. "Metodning qo'lida tadqiqot taqdiri yotadi" mazkur fikr muallifi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) I.M.Sechenov;
- B) V.Vundt;

- V) I.P.Pavlov;
- G) E.Ebbingauz;
- D) S.L.Rubinshteyn.

23. "Metod bu bilish, anglash yo'li bo'lib, bu usul orqali fanning predmeti aniqlanadi, o'rganiladi" mazkur fikr muallifi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) I.M.Sechenov;

B) V.Vundt;

V) I.P.Pavlov;

G) E.Ebbingauz;

D) S.L.Rubinshteyn.

24. Metodologiya so'zining ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) bilish;

B) tadqiq qilish;

V) izlanish yo'li;

G) bilish tadqiq qilish;

D) Barcha javoblar to'g'ri.

25. Qaysi qatorda tashkiliy guruh metodlari ko'rsatilgan?

A) kuzatish, eksperiment, longtyud, qiyoslash;

B) longtyud, qiyoslash, kompleks;

V) genetik, donalash, kuzatish, anketa;

G) sotsiometriya, kuzatish kompleks qiyoslash;

D) biografiya, test, genetik, kompleks.

26. Longtyud metodi yordamida tadqiqot ishini olib borgan O'zbekistonlik psixolog olim qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) B.R.Qodirov;

B) Z.T.Nishonova ;

V) E.G'.G'oziyev;

G) N.Nig'matov;

D) M.G.Davletshin.

27. ijtimoiy psixologiya metodi bo'lib qo'yilgan savoilarga javob olishga va buning natijasida ma'lumot olishga mo'ljallangan metoddir.

A) suhbat;

B) so'rovnoma;

V) intervyu;

G) kontent analiz;

D) sotsiometriya.

28. ilk bora test tushunchasi kim tomonidan ishlatilgan?

A) Bine;

B) Simon;

V) D.Kettell;

G) V. Shtern;

D) G.Marrey.

29. O'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini aniqlovchi test birinchi bo'lib kimlar tomonidan yaratilgan?

A) A.Bine va G.Simonlar;

- B) V.Shtern va D. Veksler;
- V) G.Marrey va G.Ayzenk;
- G) K.M.Gurevich va V.Shtern;
- D) D. Veksler va G.Simonlar.

30. Aqliy iste'dod koeffitsenti kim tomonidan fanga kiritilgan?

- A) G.Marrey;
- B) G.Ayzenk;
- V) V.Shtern;
- G)M.Gurevich;
- D) G.Simonlar.

Nazorat savollari

- 1.Hozirgi zamon psixologiyasi fanining tamoyillarini sanang?
- 2.Determinizm tamoyilining mohiyatini izohlang?
- 3.Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi tarmoqlari xususida fikr yuriting?
- 4.Hozirgi zamon psixologiyasining tadqiqot metodlarini ko'rsating?
- 5.Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'rini qanday izohlaysiz?
- 6.A.V.Petrovskiy bo'yicha psixologiya sohalarini tasnifini keltiring?

FAOLIYAT. MULOQOT. SHAXS

Faoliyat haqida tushuncha

Odam tabiati jihatidan faol mavjudotdir. U ma'lum faoliyatda bo'lmasdan yashay olmaydi. Inson faoliyatining turi juda ko'p bo'lib, ulardan eng muhimi ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan ishlab chiqarish mehnatdir. Odam har doim jamoada bo'lib mehnat qiladi va mehnat natijalarini ham jamoa turmush tarzini o'zlashtiradi. Har bir tirik organizmning faolligi uning ehtiyojlarini qondirilishiga qaratilgan bo'ladi. Anglab bo'lmaydigan va anglab bo'ladigan tabiiy yoki, madaniy, yoki ma'naviy, shaxsiy yoki ijtimoiy-shaxsiy ehtiyojlar odamda har turli faollik tug'diradi. Ma'lumki, inson faoliyati jarayonida ma'lum bir mahsulotni yaratadi va undan ishlab chiqarish jarayonida foydalanadi. Aynan faoliyatda erishilayotgan muvaffaqiyatini ta'minlovchi bir qator omillari mavjud. Shular jumlasiga obyektiv va subyektiv omillarni kiritish mumkin va u 68-betdagi jadvalda aks ettirilgan.

Agar hayvonlarni xatti-harakatlari bevosita tevarak-atrofdagi muhit bilan belgilansa, odamning faolligi esa ilk yoshlik davridan boshlaboq, butun insoniyatning tajribasi va jamiyat talabi bilan boshqariladi. Shu bois "faoliyat", "faollik", "xatti-harakat" tushunchalarining mazmun mohiyatini anglab olish lozim. Shunga ko'ra, adabiyotlarda mazkur tushunchalarga berilgan ta'riflarga asosiy e'tiborni qaratish lozim.

A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" darsligida: "Faoliyat – kishining anglangan maqsad bilan boshqarilib turiladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) faolligidir" –deb ta'riflanadi.


M.G.Davletshin muallifligida chop etilgan "Psixologiya" qisqacha izohli lug'atida: "Faollik – tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak-atrofdagi muhit bilan o'zaro ta'sirida namoyon bo'ladi. *Psixik faollik* bu o'zaro ta'sir shu asosda faollik ko'rsatish bilan tavsiflanadi"-deya ta'riflangan.

Faoliyat – insoniyatga xos ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli, paydo bo‘ladigan va tashqi olam bilan kishining o‘zini o‘zi bilishga, uni qayta qurishga yo‘naltirilgan faolligidir.

Harakat – maqsadga muvofiq yo‘naltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig‘indisi. Harakat ongli faoliyatlarning tarkibiy qismlari va motivlaridan biridir.

Q.Turg‘unovning “Psixologiya” terminlarining qisqacha ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘atida: **Faollik** – shaxsning ehtiyojlarini qondirish uchun voqelikni o‘zlashitirishga qaratilgan muhim qobiliyatidir. Faollik ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo‘lib, kishining faoliyati mehnat, o‘qish, o‘yin, ijtimoiy hayot, sport, ijod kabilarda yaqqol namoyon bo‘ladi” – deb ko‘rsatiladi.

Faoliyat – inson hayotining uning voqelikka nisbatan faol munosabatining ro‘yobga chiqish shakli. **Harakat** – maqsadga muvofiq yo‘naltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig‘indisi ongli faoliyat tarkibiy qismlari va motivlaridan iborat.



V.M.Karimovning “Psixologiya” o‘quv qo‘llanmasida quyidagicha ta‘riflar uchraydi:

Faollik – shaxsning hayotdagi barcha xatti–harakatlarini namoyon etishni tushuntiruvchi kategoriyadir.

Faoliyat – inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman ehtiyojlardan kelib chiqadigan hamda tashqi olamni va o‘z-o‘zini o‘zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o‘ziga xos faollik shaklidir.

Mazkur ta‘riflardan ko‘rinadiki, faoliyat tushunchasi o‘z tarkibiga shaxsning u yoki bu darajadagi faollik ko‘rsata olish darajalarini qamrab oladi va unga umumiy tarzda quyidagicha ta‘rif berishi mumkin: **Faoliyat**–anglangan maqsad bilan boshqariladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) harakatlar yig‘indisiga aytiladi.

Adabiyotlarda faollik va harakat tushunchalari o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘lgani bilan ular o‘rtasidagi ayrim farqli belgilar kuzatiladi. **Jumladan**, faoliyatning mazmuni to‘la-to‘kis uni yuzaga keltirgan tabiiy-biologik va ma‘naviy ehtiyojlar bilan shartlashmaganligi tufayli uning psixologik mexanizmi ham o‘zgacha negizda qurilishi mumkin.

Ikkinchidan, faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlash uchun psixik narsa va hodisalarning xususiyat obyektiv xossalarni aks ettirishi, qo'yilgan maqsadga erishish yo'l-yo'riqlarini aniqlab berish lozim.

Uchinchidan, faoliyat shaxsning xulq-atvorini maqsadga qaratilgan harakatlarni ruyobga chiqarish, yuzaga kelgan ehtiyojlarni va yordamga muhtojligi, faollikning imkonini beradigan boshqarishni uddalash lozim. Shuning uchun faoliyatni bilish jarayonlarisiz, irodaviy zo'r berishsiz amalga oshirish juda mushkul. Aynan ikkala omil o'zaro uzviy aloqaga kirgandagina yaratuvchanlik xususiyatini kasb etadi.

Inson faolligining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, faoliyatning mazmuni ana shu faoliyatni yuzaga keltirgan ehtiyojning bir o'zi bilan belgilanmaydi. Agar ehtiyoj faoliyatga motiv sifatida madad berib, uni rag'batlantirib tursa faoliyatning shakli va mazmuni ijtimoiy sharoitlar, ijtimoiy talablar hamda tajribalar bilan belgilanadi.

Faoliyatning muhim xususiyatlari	
Hayvonlar faolligi	Inson faoliyati
Instinktiv – biologik faollik	Bilishga va muloqatga bo'lgan ehtiyojlar bilan yo'naltirilgan.
Hamkorlikdagi faoliyat emas, biologik maqsadlar, (oziqlanish, himoyalaniş)ga asoslangan to'da bo'lib yurish,	Kishilik jamiyati hamkorligidagi faoliyat asosida tashkil topgan, har bir harakat inson uchun hamkorlikdagi faoliyatidagi o'niga ko'ra ahamiyatlidir.
Ko'rgazmali – yaqqol vaziyatlar bilan boshqariladi	Predmet va hodisalarni mavhumlashtirish, ular o'rtasidagi sababiy bog'lanish va munosabatlarni aniqlash mumkin.
Irsiy jihatdan mustahkamlangan dastur (instinkt)lar asosidagi xatti-harakatlar, ko'nikmalar yakka tartibda hosil bo'lib hayvonning yashash uchun tashqi sharoitlarga moslashishi sifatida namoyon bo'ladi.	Tajribani berish va o'zlashtirish muloqotning ijtimoiy vositalari (til va boshqa belgilar tizimi) yoki moddiy madaniyat mahsulotlari orqali amalga oshiriladi.
Yordamchi qurollar, vositalar yasashi mumkin, ammo undan qurol sifatida doimo foydalanmaydi. Bir qurol yordamida boshqa qurol yasay olmaydi.	Mehnat qurollari yasab, uni keyingi avlodlariga ham qoldirishi mumkin. Turli predmet va qurollardan foydalanib, yangi qurol va vositalar yarata oladi.
Tashqi muhitga moslashadi	O'z ehtiyojlariga muvofiq tarzda tashqi dunyoni o'zgartiradi.

Odamni ishlashga majbur qiluvchi motiv uning ovqatlanish ehtiyoji bo'lishi mumkin. Biroq odam, masalan, dastgohni ochlik ehtiyojini qondirish uchun boshqarmaydi. Inson faoliyatining mazmuni jamiyat talab qiladigan biron mahsulotni

tayyorlash maqsadi bilan belgilanadi. Faollik manbai bo'lgan faoliyat yaxshi anglab olingan maqsad bilan belgilanadi.

Yuqoridagi jadvalda inson faoliyati bilan hayvonlar xatti-harakati o'rtasidagi farqlar aks ettirilgan. Faoliyat faollikni anglab olingan maqsad bilan boshqaradi. Faoliyatni anglash qanday darajada bo'lmasin maqsadni anglash hamma vaqt ham zaruriy belgi sifatida qolaveradi.

I.M.Sechenov fiziologik organlar va tizimlar faolligi yoki ishi to'g'risida tasavvurga ega bo'lgan, shu sababdan uning asarlarida "Tafakkurning faol shakli", "Tafakkur faoliyati", "Miya faoliyati", "Muskul faoliyati" so'z birikmalar keng ko'lamda joy olganligi *I.P.Pavlov* tomonidan "Oliy nerv faoliyati", *N.A.Bernshteyn* esa "Fiziologik faollik" atamani fan olamiga olib kirgan. Lekin *N.A.Bernshteyn* faollik, faoliyat, ish, mehnat tushunchalarini ma'nosiga ko'ra, farqlagan bo'lishiga qaramay, u aksariyat hollarda faollikni faoliyat ma'nosida qo'llagan.

Psixofiziologiyada faoliyat faollikni fiziologik ma'nosi sifatida talqin qilingan bo'lsa, ish, mehnat faoliyati, "mehnat faollik" mazmunida qo'llaniladi. Ijtimoiy psixologiyada "Faoliyat – faollik – ish - mehnat", "Faoliyat - xulq", "mehnat – xulq, faoliyat" ko'rinishlari juftligi uchrab turadi. *S.L.Rubinshteyn* ong va faoliyat birligi tamoyilini ilgari surib, uni atroficha asoslab berib, faoliyat psixologiyasini yaratish zarurligini tushuntira oldi. Uningcha, mehnat psixologik emas, balki "ijtimoiy kategoriya", psixologiya esa "mehnat faoliyatining psixologik jabhalarini" tadqiq etadi.

A.N.Leontev faoliyatning psixologik nazariyasini yaratib, uning asosiy tushunchasi sifatida "Predmetli faoliyat" so'z birikmasini fanga olib kirdi. Muallif tomonidan "Odamning hissiy amaliy faoliyati" so'z birikmasi "ijtimoiy inson" sifatida talqin etiladi. Uning asarlarida "Faoliyat", "Xulq" tushunchalari har xil mazmunda ishlatiladi, jumladan "Teskari aloqalar vositasida xulqni boshqarish", "Faoliyatning halqali tuzilishi", "Faoliyatni boshqarish", "Qo'lining tuyush faoliyati", "Perseptiv faoliyat", "Retseptor va effektor" apparatlarining hamkorlik faoliyati kabilar.

B.G.Ananev faoliyat psixologiyasini faollik psixologiyasi ma'nosida tushunadi. Uning fikricha bilish va muomala faoliyatning birlamchi ko'rinishidir. Tadqiqotchi "Inson faoliyati", "Tashkiliy ish", "Tashkilotchilik faoliyati", "Xulq jarayonining algoritmlari" atamalaridan har xil ma'noda foydalanadi.

Faoliyatning interiorizatsiyasi va eksteriorizatsiyasi

Tashqi olamda turli hodisalar ma'lum darajada o'zaro doimiy bog'liqlikka, ma'lum sharoitlarda namoyon bo'ladigan biror mustahkam xususiyatga va tuzilishga egadir.

Obyektlar bilan hodisalar o'rtasidagi bunday barqaror (invariant) munosabatlarni obyektarning muhim xususiyatlari deb yuritiladi. Bu ularning kelajakda qay darajada o'zgarishi va shu maqsadga muvofiq ish tutish, ya'ni obyekt va hodisalarning "xatti-harakatlari"ni oldindan ko'ra olish imkoniyatini beradi. Tashqi, ya'ni buyumlar bilan qilinadigan bunday holda guyo ichki, ya'ni ildam faoliyatni oldindan payqab olinadi. Obyekt (narsa) ustida qilinadigan konkret ishlar

bu obyektning muhim xususiyatlari ustida qilinadigan operatsiyalar bilan, ya'ni ideal (psixik) ishlar bilan almashinadi. Boshqacha qilib aytganda, narsalar bilan jismoniy tarzda qilinadigan ishlar shu narsalarning mazmuni bilan almashinadi.

Tashqi real ishdan ichki ideal ishga mana shunday o'tish jarayonini **interiorizatsiya** deb yuritiladi (ichki ishga aylanadi). Inson psixikasi interiorizatsiyasi tufayli ayni chog'da ko'z o'ngida yo'q bo'lgan narsalarning obrazlari bilan ishlay bilish qobiliyatiga ega. Interiorizatsiya muammosi rus olimlari *L.S.Vigotskiy*, *A.N.Leontev*, *P.Ya.Galperin* va ularning shogirdlari tomonidan turli jabhalarda tadqiq qilingan. Interiorizatsiya orqali inson psixikasi muayyan vaqt oralig'ida uning idrok maydonida yo'q narsalarning timsoli (obrazi) dan foydalanish qurbiga ega bo'ladi. Shu narsa ma'lumki, bunday o'zgarishlarning muhim quroli bo'lib, so'z o'zgarishi vositasi sifatida nutqiy faoliyat xizmat qiladi. Shuning uchun so'zlarni to'g'ri ishlatishga odatlanish favqulodda buyumlarning muhim xususiyatlari haqida axborotdan foydalanishning usullarini o'zlashtirish demakdir. Inson aqliy taraqqiyotida interiorizatsiyaning ahamiyati kattadir.

Ma'lumki, odamning ichki dunyosi paydo bo'lgandan so'ng har bir narsani, har bir harakatni oldindan ichida o'ylab so'ngra amalga oshiradi. Oldin ichida o'ylab, so'ngra bevosita tashqi munosabatga o'tishi faoliyatning **eksteriorizatsiyasi** deb yuritiladi.

Shuning uchun shaxs faoliyatining jismoniy (tashqi) va psixik (ichki) tuzilmalari bir-biri bilan uyg'unlashganligi ko'zga tashlanadi. Inson faoliyatining tashqi jabhasi uning atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishga mo'ljallangan sa'i – harakatlari ichki psixik jihati bog'liq bo'lib, ularni motivlashtiradi, bilishga undaydi va boshqaradi. Shuningdek, tashqi jabha o'z navbatida a) psixik faoliyat buyumlar va jarayonlar xususiyatini o'zida namoyon qiladi; b) ularning maqsadga muvofiq tarzda qayta o'zgartirilishini amalga oshiradi; v) psixik andozalar o'xshashligini, natijalar va harakatlarning kutilmalariga muvofiqligini ko'rsatadi; g) ularni uzluksiz ravishda yo'naltirib va nazorat qilib turadi. Shunga muvofiq ravishda tashqi yaqqol faoliyatini ham ichki (psixik) faoliyatning eksteriorizatsiyalashuvga aylanishi deb baholash maqsadga muvofiq.

Faoliyatning tarkibi

Inson faoliyati juda xilma-xildir. Unga mehnat, pedagogik, badiiy-ijod, ilmiy-tadqiqot faoliyatlarini kiritish mumkin. Inson faoliyati tarkibini tahlil qilish, shuni ko'rsatadiki, faoliyat tashqi dunyoni ongli psixik aks ettirilishida namoyon bo'ladi. Har qanday faoliyatda inson o'z xatti-harakatlarini maqsadini anglaydi, kutilayotgan natijani tasavvur qiladi, sharoitni idrok qiladi va baholaydi, bajariladigan harakat tarkibini o'ylaydi, irodaviy zo'r beradi, faoliyatning borishini kuzatadi, muvaffaqiyat va mag'lubiyatini o'ylaydi.

Faoliyat *bir tomondan*, shaxsning rivojlanishi va sifatlarining namoyon bo'lish sharoiti, *ikkinchidan*, shu faoliyat subyekti bo'lgan shaxsning taraqqiyot darajasiga bog'liqdir.

Barcha faoliyat turlari tarkibida uchta tarkibiy qismini: **maqsad-motiv-harakatni** ajratish mumkindir.


Maqsad – inson faoliyati soʻnggi natijasining obrazi sifatida namoyon boʻladi va ehtiyojlarini amalga oshirilishidir.

Motiv – kishini faoliyatga undaydi va unga mazmun baxsh etadi.

Ish-harakat galdagi bitta oddiy vazifani bajarishga qaratilgan, nisbatan tugallangan faoliyatning tarkibi. Faoliyatga qaratilgan maqsad ozmi–koʻpmi uzoq yoki yaqin boʻlishi mumkin.

Shuning uchun bu maqsadga erishish odam tomonidan ana shu maqsad sari harakat qilish davomida uning oldida tugʻiladigan qator juzʻiy maqsadlarni izchillik bilan hosil qilishdan iborat boʻladi.

Quyida harakatning muhim tarkibiy qismlari koʻrsatilgan:




Tashqi olamdagi narsalarning holatini va xossalarini oʻzgartirishga qaratilgan harakatlarni *ish-harakat* (*saʼi-harakat*) deb yuritiladi. Narsalar bilan qilinadigan istalgan bir ish maʼkon va zamon bilan bogʻliq boʻlgan maʼlum harakatlardan tashkil topadi. *Masalan*: “A”, “I” harflarni yozishdagi harakatlar, bir-biridan farq qiladi. Odamlarning narsalar bilan qiladigan harakatlari tahlili shuni koʻrsatadiki, bu harakatlar tashqi jihatdan juda koʻp, rang-barangdir. Shunday boʻlsa ham, odatda ular uchta sodda elementlardan tashkil topgandir; “olmoq”, “joyini oʻzgartirmoq”, “quyib yubormoq” bu harakatlar odamning tanasi, oyoqlari va boshi bilan qilinadigan yordamchi harakatlar bilan amalga oshiriladi. Predmetli harakat tarkibi 73-betdagi jadvalda izohlanadi.

Inson faoliyatiga yoʻnaltirilgan maqsadga erishish uchun shu yoʻlda harakat qilish tufayli xususiy vazifalarni bajarishga kirishadi. U oʻz oldida turgan maqsadni amalga oshirish uchun maʼlum vaqt oraligʻida u yoki bu amalni bajaradi. Biror matnni kompyuterda tayyorlash uchun inson oldin uni elektr tokiga ulaydi, ekranni ishga sozlaydi, uning tugmachalarini bosish orqali harf va soʻzlarni teradi, soʻngra maʼlum maʼno anglovchi matn paydo boʻladi.

Inson faoliyati narsalarni oʻzlashtirishga yoʻnaltirilgan saʼi – harakatlardan tashqari: a) tananing fazoviy holati, b) qiyofaning saqlanishi (tik turish, oʻtirish), v) joy almashish (yurish-yugurish), g) aloqa vositalari saʼi–harakatlari qatnashadi. Odatda aloqa vositalari tarkibiga; a) ifodali saʼi– harakat (imo-ishora, pantomimika), b) maʼnoli ishora, v) nutqiy saʼi– harakatlarni kiritadi. Saʼy–harakatlarning ushbu turlarida taʼkidlab oʻtilganidan tashqari mushaklar, hiqildoq, tovush paychalari, nafas olish aʼzolari ishtirok etadi. Demak, narsalarni oʻzlashtirishga qaratilgan harakatning ishga tushishi muayyan saʼi–harakatlar tizimining amalga oshirilishini anglatadi. Bu

hodisa ko'p jihatdan harakatning amalga oshishi, shart-sharoitlarga bog'liq. Jumladan: a) kitobni olish qalamni olishdan boshqacharoq tarzidagi sa'i-harakatni taqazo etadi, b) avtomobilni haydash velosepedda uchishga qaraganda o'zgacha sa'i-harakat talab qiladi, v) ellik kilogramm shtangani ko'tarishda bir pudlik toshga qaraganda ko'proq quvvat sarflanadi, g) kartonga katta shaklni joylashtirish, qiyin kechadi.



Yuqorida keltirilgan misollar turlicha obyektarga taalluqli bo'lishiga qaramay, ularda harakatning maqsadi yagonadir. Obyektlarning turlicha ekanligi sa'i-harakatning oldiga va mushak faoliyati tuzilishiga har xil talablarni qo'yadi. Ushbu voqelik rus olimlari P.K.Anoxin, N.A.Bernshteyn, E.A.Asratyanlarning tadqiqotlarida isbotlab berilgan. Ularning umumiy mulohazalariga qaraganda, mushaklarning faoliyati sa'i-harakat vazifasi bilan emas, balki mazkur sa'i-harakat ro'y beradigan shart-sharoitlar bilan boshqarilish mumkin. Mushaklar bu o'rinda

sa'i- harakatlarning yo'nalishini va tezligini ta'minlash uchun xizmat qiladi, har xil qarshiliklarni (hajm, kuch, vazn ta'siri) muayyan darajada susaytiradi.

Sa'i-harakatlarning nazorat qilish jarayoni va ularni boshqarish teskari aloqa tamoyiliga binoan ro'yobga chiqadi. Ushbu hodisani amalga oshish imkoniyati quyidagi omillarga bevosita bog'liq holda kechadi: a) sezgi a'zolari aloqa kanali vazifasini bajargan taqdirda; b) ular axborot manbai sifatida harakat rolini o'ynaganda; v) sa'i-harakatlarni aks ettiruvchi alomatlar bu jarayonda xabar yetkazuvchi sifatida qatnashganida va boshqalar. Ta'kidlab o'tilgan omillar orqali amalga oshadigan teskari aloqaning bunday shaklini (ko'inishini) rus tadqiqotchisi **P.K.Anoxin** teskari afferentatsiya deb atagan. **Afferentatsiya** (lotincha *afforens* keltiruvchi degan ma'noni anglatadi) tashqi qo'zg'atuvchilardan hamda ichki organlardan axborotni qabul qiluvchi hissiy a'zoldan markaziy nerv tizimiga kelib tushuvchi nerv impulslarining doimiy oqimini bildiradi. To'g'ri aloqa axborotlarning tashqaridan kirib borishini anglatib kelsa, teskari afferentatsiya uning aks holatini namoyon qiladi. Sa'i - harakatlarning hammasi ham organlarning faoliyatini tushuntirish uchun xizmat qiladi va nazorat (boshqaruv) jarayoni qanday kechishini tahlil etish imkoniyatiga ega.

Faoliyat tarkibiga kiruvchi sa'i-harakatlar tizimi oxir oqibatda mazkur harakatning maqsadi bilan nazorat qilinadi, baholanadi va to'g'rilab turiladi. Maqsad miyada faoliyatning bo'lg'usi mahsuloti timsoli, o'zgaruvchan andazasi tarzida vujudga kelishi mumkin. Ezgu niyatga aylangan bo'lg'usi andoza bilan harakatning amaliy natijasi qiyoslanadi, o'z navbatida andoza sa'i-harakatni yo'naltirib turadi. Ana shu holatning turlicha psixofiziologik talqinlari mavjud bo'lib, ular "Bo'lg'usi harakat modellari", "sa'i-harakat dasturi", "maqsadning dasturi", "miyada harakatning o'zi oldindan hosil qiladigan andozalari" singari tushunchalarida o'z ifodasini topadi. Jumladan, ularning eng muhimlari; "Harakat akseptori" va "Ilgarilab aks ettirish" (P.K.Anoxin), "Harakatlantiruvchi vazifa" va "Bo'lg'usi ehtiyoj andozasi" (N.A.Bernshhteyn), "Zaruriy mohiyat" va "Kelajak andozasi" (Mittelshtedt, U.Eshbi) va boshqalar. Sanab o'tilgan tadqiqotchilarning talqinlari ilmiy faraz (taxmin) tarzida berilganligi tufayli ular miyada qanday aks etilishi mumkinligini mukammal bilishga qodir emasmi. Lekin ularning miyada ilgarilab aks ettirish to'g'risidagi mulohazalari, bu borada tasavvurlarning yaratilishi psixologiya fani uchun ijobiy ilmiy voqelik bo'lib hisoblanadi.

Narsalar bilan qilinadigan ish-harakatidan tashqari, odamning faoliyatini badanning ma'lum vaziyatini va qiyofasini saqlab turishni ta'minlaydigan harakatlar, organizmning bir joyidan ikkinchi joyiga o'rin almashtirishi, kommunikatsiyani ta'minlaydigan harakatlar, ifodali harakatlar va nutq harakatlari mavjud.

Narsalar bilan qilinadigan ishlarni bajarish ma'lum tizimdagi harakatlarni amalga oshirishdan iborat. Harakatlar tizimi va maqsadi bilan, bu maqsad yo'naltirilgan narsalar xususiyati va ish sharoiti bilan bog'liqdir. *Masalan*, stakan va qalamni olish, piyoda va chang'ida yurish, og'ir va yengil narsani boshqa joyga olib qo'yish, mayda va katta mixni qoqish, gantel va shtangani ko'tarish, harakatlari bir-biridan farq qiladi.

Harakatning boshqarilishi va uning natijalarini erishiladigan pirovard maqsad, taqqoslash yo'li bilan doim nazorat qilib boriladi va to'ldirib turiladi. Unday nazorat

sezgi a'zolari yordami bilan erishilishi mumkin bo'lgan narsalar tashkil etadi. Demak, maqsad miyada, kelajakdagi faoliyat natijasida, tilakdagi kelajak modeli bilan ishning mazkur natijalari taqqoslanadi, xuddi ana shu ishning qay yo'sinda bo'lishi boshqariladi.

Harakatlarning istagan bir tomonlarini ularning *motor, sensor va markaziy tarkibiy qismlari* deb atash mumkin. Ishni amalga oshirishda bajaradigan vazifalariga muvofiq, ular ishni *ijro qiluvchi, boshqaruvchi* deb belgilanishi mumkin. Bu vazifalarning har birini kishi ongli va ongsiz ravishda bajarishi mumkin. Odam talaffuz qilmoqchi bo'lgan gapning grammatik shakli va mazmuni hamisha ong yordamida oldindan payqab olinadi. Odatda, ishdan ko'zlangan maqsad va shuning bilan birga ishning umumiy xarakteri hamma vaqt anglab olinadi. *Masalan*, velosipedda ketayotgan odam mutlaqo ongsizlik holatida buning uddasidan chiqa olmaydi.

Bajariladigan harakatning ma'lum tomonlari dastavval to'la anglab boshqarishni talab qilinadi, undan keyin ishning bajarilishi ongning ishtirokini borgan sari kamroq talab qiladi. Bunday hollarda ishning bajarilishi avtomatlashadi. Odamdagi maqsadga muvofiq harakatlarning amalga oshirilishi va avtomatlashuvi **malaka** deb aytiladi. Ishning tuzilishi shunday qisman avtomatlashuvi tufayli o'zgarish imkoniyati quyidagidan iborat:

1. Harakatlarni ijro qilish usullarining o'zgarishi. Bundan avval har biri alohida-alohida bajarilgan ayrim harakatlar bir butun harakat tarkibidagi oddiy harakatlar o'rtasida hech qanday "to'xtab qolish" va tanaffuslar bo'lmaydigan bitta yaxlit aktga aylanadi. *Masalan*, kotibaning o'rganayotgan haydovchi, yozishni o'rganayotgan bola harakatini ko'rish mumkin.

2. Ishni bajarishda sensor, ya'ni hissiy nazorat usullarining o'zgarishi. Ishni bajarish ustidan qilinadigan ko'rish nazorati ko'p jihatdan muskul nazorat bilan almashinadi. *Masalan*, mashinistkaning xat yozishdagi, haydovchi motor ovoqidagi, po'lat quyuvchi metal rangining o'zgarishini farq qiladi.

3. Ish-harakat markaziy boshqaruvchi usullarining o'zgarishi. Diqqat ish-harakatining usullarini idrok qilishdan ozod bo'ladi va asosan ish-amalning hamda natijalarni idrok qilishga qaratiladi. Ayrim hisoblash, qarorga kelish va boshqa intellektual operatsiyalar tez va birlashgan holda "intuitiv" bajarila boshlaydi.

Malaka faoliyat tarkibida o'ziga xos o'rin tutadi. **Malaka** deb mashq qilish jarayonida ish harakatlar bajarilishining avtomatlashgan usullariga aytiladi. Malaka ish unumdorligining ortishiga, vaqtni tejashga, aqliy faoliyatni bir muncha muhimroq narsalarga safarbar qilishga imkon beradi. **Malaka quyidagicha hosil qilinadi:**

a) mehnat harakatlari, ularni egallab olishning zarur ekanligi va ahamiyatini anglash;

b) harakat namunasini esda olib qolish;

v) malaka namunalarini ko'p marta bajarish, mashq qilish;

g) izchillik bilan olib boriladigan mashq natijasida harakatlar tezlashadi, xatolar kamayadi;

d) malaka harakatlarni avtomatlashtirish bilan shakllanadi. Ayrim ortiqcha harakat elementlari tushib qoladi.

Biror faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud bilimlardan va malakalardan foydalana olish **k o' n i k m a** deyiladi.

Malaka turli yo'llar bilan ko'rsatish va tushuntirishni qo'shib olib borish orqali hosil qilinishi mumkin.

Har bir ko'nikma va malaka odamning o'z tajribasida avval egallab olgan malakalari asosida yuzaga keladi va amal qiladi. Malaka, ko'nikmalarning *ayrimlari* kishining ko'nikma hosil qilishiga va malakali ishlashiga yordam beradi, *boshqa birlari* halaqit beradi, *uchinchilari*, yangi ko'nikmalarni o'zgartirib boradi. Bu hodisa psixologiyada malakalarning o'zaro ta'siri deyiladi.

Avval hosil qilingan malakalarning yangi malakalarga ijobiy ta'siri malakalarning ko'chishi yoki **malakalar induksiyasi** deb ataladi. *Masalan*, matematika darsida hosil bo'lgan ko'nikmani, fizikada ham qo'llash mumkin.

Faoliyatning yana bir qismi odat bo'lib, ko'nikma malakalardan hech qanday samara yoki natijaga ega emasligi bilan ajralib turadi. Odatda odam tomonidan beixtiyor, ongsiz tarzda muayyan maqsadga yo'naltirilmagan holda amalga oshiriladi. Ba'zi hollarda odatlar shaxs tomonidan nazorat qilinishi mumkin, lekin har doim ham aqlli va kerakli harakatlar bo'lmasligi mumkin.

Faoliyatning asosiy turlari

Odamlarning faoliyati ongli faollik sifatida inson ongining tarkib topishi va taraqqiyoti bilan bog'liq holda tarkib topadi va rivojlanadi. Inson faoliyatida taraqqiyotning asosi hamda ong mazmunining manbai bo'lib xizmat qiladi.

Faoliyatda insonning shaxsi ifodalanadi, shu bilan birga faoliyat odam shaxsini tarkib toptiradi. Odamlarda har xil turdagi faoliyatlarning paydo bo'lishi va taraqqiyoti juda ham murakkab hamda uzoq davom etadigan jarayon. Bolaning faoliyati uning kamoloti davomida faqat asta-sekin ta'lim va tarbiyaning ta'siri ostida ongli maqsadga mos faoliyat shaklini egallab boradi.

Inson faoliyati asosan *uch turga* bo'linadi: o'yin, mehnat, ta'lim faoliyati. Bu faoliyat turlari bola shaxsining tarkib topishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

O'yin. Bola bir yoshga to'lgandan boshlab unda faoliyatning sodda shakllarini egallash uchun shart-sharoitlar yuzaga kela boshlaydi. Bunday shart-sharoitlardan birinchisi o'yindir. O'yin faoliyatini hayvon bolalarida ham uchratish mumkin. Hayvonlarning yosh bolalarida kuzatiladigan o'yin faoliyatiga har xil narsalar bilan shug'ullanish, yolg'ondakam urishishlar, yugurishni va shu kabilarni kiritish mumkin. Bolalarda ham o'yin ularning faoliyatlarini, faolliklarini amalga oshirish shaklidir. Sof holdagi o'yin faoliyatini yuzaga keltiradigan sabab ehtiyoj bo'lsa, uning manbai taqlid va tajribadir. Bolalar narsalar bilan rolli qoidali, harakatli, didaktik mazmunli o'yinlarni o'ynaydilar.

O'yin narsa va hodisalarning mazmunini bolaning o'z tajribasida bilib olishga, mazkur mazmunlarni ishlata bilishga mashq qildiradi. Bolaning shaxsiy sifatлари boshqalar bilan munosabatlarda tarkib topib boradi.

O'yin faoliyatida bola ijtimoiy voqelikni taqlid, rol orqali ijro etishga harakat qiladi va shu yo'sinda atrof-muhit to'g'risidagi, ijtimoiy turmushdagi shaxslararo munosabatlarni o'zlashtira boradi. Ijtimoiy turmushdagi u yoki bu hodisani rol orqali

ijro qiladi. Soʻz bilan harakatning birikuvini natijasida oʻyin faoliyati tusini oladi va muayyan maʼnoda axborot berish, uzatish imkoniyatiga ega boʻladi. Dastlabki oʻyin aynan kattalar xatti-harakatini takrorlash, ularga taqlid qilish bilan tavsiflanadi. Syujetli oʻyinlar borliqning goh anglangan, goho anglanmagan tarzda u yoki bu tomonlarini egallashga harakat qiladi. Oʻyin dastavval bola uchun vaqt oʻtkazish, uni mashgʻul qilish funksiyasini bajarsa, keyinchalik, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot namunalari ifodalash darajasiga oʻsib oʻtadi. Rollar, maʼnoli harakatlar, ibratli imo-ishoralar, tushunchalar bola shaxsini shakllantirishda faol ishtirok etadi. Bola tugʻilgandan to maktab taʼlimigacha uning uchun oʻyin faoliyati yetakchi faoliyat rolini bajaradi, shuningdek oʻyin didaktik tus kasb etishi ham mumkin.

Taʼlim faoliyati oʻyin faoliyatining pirovardida yuzaga keladi. Bu faoliyatning maqsadi maʼlum axborotlarni, bilimlarni, harakatlar va amallarni oʻzlashtirishdan iboratdir. Odamning oʻz maqsadiga koʻra, batamom oʻrganish va oʻzlashtirishdan iborat boʻlgan mana shunday maxsus faoliyati **taʼlim faoliyati** deyiladi. Psixologik jihatdan olganda, taʼlim faoliyati oʻz ichiga quyidagi jarayonlarni oladi: maʼlum bir nazariya va amaliy faoliyat turini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun obyektiv olamning eng muhim xususiyatlariga doir axborotlarni oʻzlashtirish. Bu jarayonning mahsuloti bilimlardir. Mana shu faoliyatni, yaʼni bilimlarni oʻzlashtirishda yuzaga keladigan usul va operatsiyalarni egallash, bu jarayonlarning mahsuloti malaka va uquvlardan iboratdir. Taʼlim faoliyatining tarkibi juda ham murakkab boʻlib, bilimlar, tushunchalar, malakalar, odatlar, uquvlar kiradi.

Taʼlim faoliyati maʼlum ravishda tashkil etilgan sharoitda amalga oshiriladi. Katta yoshli kishilar bolalarning taraqqiyotiga faol taʼsir etib, ularning taʼlim faoliyatlarini hamda bu faoliyat bilan bogʻliq boʻlgan xatti-harakatlarni tashkil qiladilar. Bu faoliyat va harakatlarni insoniyat ijtimoiy tajribasini oʻrganish tomon yoʻnaltirishdir. Shunday qilib, taʼlim faoliyati katta kishilar tomonidan tashkil qilinib, boshqariladi va tizimli ravishda nazorat qilib boriladi. Maʼlumki, taʼlim faoliyati bilan tarbiya ishlari uzviy bogʻliqdir. Bizning maktablarimizda har qanday taʼlim jarayoni hamma vaqt tarbiyaviy xarakterga ega, bolalarga u yoki bu fan boʻyicha taʼlim berar ekanmiz, shuning bilan birga ularni biz tarbiyalashimiz kerak. Maktabdagi tarbiyaviy ishlarni asosan tushuntirish, ishonitirish, koʻrsatish, ragʻbatlantirish, talab qilish, vazifa berish va jazolash kabi vositalar yordamida amalga oshiriladi. Maktabdagi barcha tarbiyaviy ishlarni asosiy maqsadi oʻquvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Mehnat faoliyati – maʼlum ijtimoiy foydali, moddiy yoki madaniy, maʼnaviy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyatdan iborat. Kishilarning mehnati maʼlum maqsadga qaratilgan har doim ijtimoiy tabiatga ega boʻladi.

Mehnat faoliyatining maqsadi kishilarning isteʼmol qilinadigan narsalarni, yaʼni non, mashinalar, turli ishlab chiqarish mahsulotlarini tayyorlash, yaʼni kiyim-kechak oziq-ovqat va boshqa shu kabi narsalarni ishlab chiqarishga qaratilgan boʻlishi mumkin.

Mehnat faoliyati oʻz mohiyati jihatdan ham ijtimoiydir. Mehnat taqsimoti ham ijtimoiydir. Mehnat taqsimoti tufayli birorta kishi ham oʻziga kerak boʻladigan narsalarni faqat ishlab chiqarishga qatnashmay, balki deyarli hech qachon hatto birgina narsani boshdan oxirigacha ishlab chiqarishda ham qatnashmaydi. Shuning

uchun odam hayoti uchun zarur bo'lgan hamma narsalarni jamiyatdan oladi, o'z ehtiyojlarini qondiradi.

Tayanch tushunchalar

Yetakchi faoliyat – faoliyat turlaridan biri bo'lib, bunda ma'lum davr ichida shaxs sifat jihatidan o'zgarib shakllanadi.

Interiorizatsiya (lot. interior - ichki) – tashqi amaliy harakatlarning ichki aqliy amallarga aylanish jarayoni.

Ko'nikma – odamning ma'lum ishni bajarishga tayyorligida ko'rinadigan qobiliyati.

Malakalar interferensiyasi (lot. later - orasida, ferens – tarqatuvchi) avval hosil qilingan malakalarning keyinchalik, boshqa yangi malakalarning hosil bo'lish jarayoniga sal'biy ta'sir ko'rsatishi natijasida yangi malakalarning susayib qolishi.

Mehnat – odamning ma'lum maqsadga, o'z ehtiyojlarini qondirish uchun borliqni bilish va uni qayta qurishga, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishga yo'naltirilgan faoliyati.

Faoliyat – insongagina xos, ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli paydo bo'ladigan va tashqi olam bilan kishining o'z-o'zini bilishga, uni qayta ko'rishga yo'naltirilgan faolligi.

Faoliyat mahsulini tahlil qilish – psixologiyaning ilmiy-tekshirish metodlaridan biri; shaxsning bilim va mahorati, qobiliyati, qiziqishlari, didi, faoliyat turiga bo'lgan munosabatlari va uning o'zgarishini o'rganish usuli.

Faollik – tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak-atrofdagi muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'lishida namoyon bo'ladi.

Eksteriorizatsiya (lot. Exterior – tashqiga aylanish) – ichki psixik faoliyatning tashqi amaliy faoliyati, jonli mushohadaga aylanishi.

O'yin – faoliyat turlaridan biri. Bu bolalarning kattalar faoliyatini, ularning ish-harakatlarini, odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarini aks ettirishda ifodalanadigan va tevarak-atrofdagi borliqni bilishga qaratilgan faoliyatidir.

O'qish – shaxsning bilim va faoliyat usullarini egallashga hamda uni mustahkam esda saqlab qolish jarayoni.

Harakat – maqsadga muvofiq yo'naltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig'indisi.

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan mavzular

1. Faoliyat haqida tushuncha.
2. Faoliyatning tuzilishi.
3. Faoliyatning o'ziga xosligi.
4. Faoliyatning interorizatsiyasi va ekstrorizatsiyasi.
5. Faoliyatning o'zlashtirilishi va malakalarni egallash.
6. Faoliyatning asosiy turlari.
7. A.N.Leontev bo'yicha faoliyat tuzilishi.
8. Faollik va faoliyat tushunchalarining mazmuni.
9. Inson faoliyati va hayvonlarning xatti-harakati o'rtasidagi farq.
10. Faoliyatni egallash
11. Ko'nikma va malaka tushunchalarining mazmuni.

12. Odat tushunchasining mazmuni.
13. Faoliyatni o'zlashtirish bosqichlari.

Test topshiriqlari

1. Qaysi qatorda faoliyat tushunchasiga to'liq ta'rif berilgan?

- A) bajarilish ehtiyojga aylangan harakat yoki xulq-atvorning tarkibiy qismi;
B) mashq qilish natijasida turli malakalarning shakllanish jarayoni ;
V) har bir tirik organizmni o'z ehtiyojlarini qondirish uchun qiladigan faolligi ;
G) shaxsning o'z ehtiyojlarini qondirish uchun ko'rsatadigan jismoniy va ruhiy faolligiga aytiladi

D) ixtiyorsiz yoki anglangan holda bajariladigan harakat.

2. Inson faoliyatini so'nggi natijasining obrazi sifatida namoyon bo'ladigan va ehtiyojlarni amalga oshirilishi bu.....

- A) odat;
B) motiv;
V) ish-harakat;
G) sa'i -harakat;
D) maqsad.

3. Kishini faoliyatga undaydigan va unga mazmun baxsh etadigan kuch bu.....

- A) odat;
B) motiv;
V) ish-harakat;
G) sa'i -harakat;
D) maqsad.

4.galdagi bitta oddiy vazifani bajarishga qaratilgan nisbatan tugallangan faoliyatning tarkibiy qismi.

- A) odat ;
B) motiv;
V) ish-harakat;
G) sa'i -harakat;
D) maqsad.

5. Tashqi olamdagi narsalarning holatini va xossalarini o'zgartirishga qaratilgan harakatlarni deb yuritiladi.

- A) odat;
B) motiv;
V) ish-harakat;
G) sa'i -harakat;
D) maqsad.

6.bajarilishi ehtiyojga aylangan harakat yoki xulq-atvorning tarkibiy qismi.

- A) odat;
B) motiv;
V) ish-harakat;
G) sa'i -harakat;

D) maqsad.

7. Teskari afferentatsiya tushunchasi kim tomonidan fanga kiritilgan?

- A) N.A.Bernshteyn;
- B) A.K.Anoxin;
- V) A.N.Leontev;
- G) S.L.Rubinshteyn;
- D) B.G.Ananev.

8. Teskari afferentatsiya tushunchasining mazmuni qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) tananing fazoviy holati;
- B) tashqi qo'zg'atuvchilardan hamda ichki organlardan axborot qabul qiluvchi hissiy a'zolardan markaziy nerv tizimiga impulslarining doimiy oqimi;
- V) bajarilishi ehtiyojga aylangan harakat yoki xulq-atvorning tarkibiy qismi;
- G) tashqi olamdagi narsalarning holatini va xossalarini o'zgartirishga qaratilgan harakatlar;

D) inson faoliyati so'nggi natijasining obrazi sifatida namoyon bo'ladigan va ehtiyojlarni amalga oshirilishi.

9. Qaysi olim tadqiqotlarida faoliyatga nisbatan "tafakkurning faol shakli", "miya faoliyati", "muskul faoliyati" iboralari qo'llaniladi?

- A) N.A.Bernshteyn;
- B) A.K.Anoxin;
- V) A.N.Leontev;
- G) S.L.Rubinshteyn;
- D) I.M.Sechenov.

10. Qaysi olim tomonidan "oliy nerv faoliyati" tushunchasini faoliyat tushunchasiga nisbatan qo'llanilgan?

- A) N.A.Bernshteyn;
- B) I.P.Pavlov;
- V) A.N.Leontev;
- G) S.L.Rubinshteyn;
- D) I.M.Sechenov.

11. N.A.Bernshteyn tomonidan qanday tushuncha fanga kiritildi?

- A) muskul faoliyati;
- B) miya faoliyati;
- V) fiziologik faolligi;
- G) tafakkurning faol shakli;
- D) tafakkur faoliyati.

12. Faoliyat psixologiyasini qaysi olim tomonidan asoslab berildi?

- A) N.A.Bernshteyn ;
- B) A.K.Anoxin;
- V) A.N.Leontev;
- G) S.L.Rubinshteyn;
- D) I.M.Sechenov.

13. Mehnat psixologik emas balki “ijtimoiy kategoriya” psixologiya esa “mehnat faoliyatining psixologik jabhalarini tadqiq etadi”. Mazkur fikr muallifi qaysi qatorda ko‘rsatilgan?

- A) N.A.Bernshteyn;
- B) A.K.Anoxin;
- V) A.N.Leontev;
- G) S.L.Rubinshteyn;
- D) I.M.Sechenov.

14. Faoliyatning psixologik nazariyasini ishlab chiqqan olim qaysi qatorda ko‘rsatilgan?

- A) N.A.Bernshteyn;
- B) A.K.Anoxin;
- V) A.N.Leontev;
- G) S.L.Rubinshteyn;
- D) I.M.Sechenov.

15. Predmetli faoliyat tushunchasini fanga kiritgan olim qaysi qatorda ko‘rsatilgan?

- A) N.A.Bernshteyn;
- B) A.K.Anoxin;
- V) A.N.Leontev;
- G) S.L.Rubinshteyn;
- D) I.M.Sechenov.

16. Bilish va muomala faoliyatning birlamchi ko‘rinishidir. Mazkur fikr muallifini aniqlang?

- A) B.G.Ananev;
- B) A.K.Anoxin;
- V) A.N.Leontev;
- G) S.L.Rubinshteyn ;
- D) I.M.Sechenov.

17. Faoliyat psixologiyasini faollik psixologiyasi sifatida talqin etgan olim qaysi qatorda ko‘rsatilgan?

- A) B.G.Ananev;
- B) A.K.Anoxin;
- V) A.N.Leontev;
- G) S.L.Rubinshteyn;
- D) I.M.Sechenov.

18. Faoliyatning interorizatsiyasi muammosi qaysi olimlar tomonidan o‘rganilgan?

- A) L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev;
- B) P.Ya.Galperin, S.L.Rubinshteyn;
- V) S.L.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn;
- G) B.G.Ananev, A.N.Leontev;
- D) B.G.Ananev, K.P.Anoxin.

19. Obyektning barqaror bog‘lanishlari yig‘indisi bo‘lib, turli tashqi va ichki o‘zgarishlardan qat’iy nazar o‘z maqsadi va butunligini saqlaydi.

- A) tizim;
- B) motiv;
- V) ish-harakat;
- G) sa'i -harakat;
- D) maqsad.

20. Bu faoliyatning nisbatan tugallangan elementi bo'lib, u motivga bo'ysungan oraliq maqsadga erishishni nazarda tutadi.

- A) odat;
- B) xatti-harakat;
- V) ish-harakat;
- G) sa'i -harakat;
- D) maqsad.

21. Predmetli xatti-harakatlar nechta harakatlarni qamrab oladi.

- A) 2ta ;
- B) 3 ta ;
- V) 4 ta ;
- G) 6 ta ;
- D) 7 ta .

22. Qaysi qatorda aqliy xatti-harakatlar ko'rsatilgan?

A) perseptiv uning asosida predmetlarni idrok etish asosida yaxlit obraz yuzaga keladi.;

- B) mnemik materialni faoliyat jarayonida yodlash, esga tushirish, eslab qolish;
- V) fikrlash orqali masalalarni yechish;
- G) barcha javoblar to'g'ri;
- D) to'g'ri javob berilmagan.

23. Ko'nikmalarni shakllanishi asosan necha bosqichni o'z ichiga oladi?

- A) 2ta;
- B) 3 ta;
- V) 4 ta;
- G) 6 ta;
- D) 7 ta.

24. Tashqi real ishdan ichki ideal ishga o'tish jarayoni bu.....

- A) ekstrorizatsiya;
- B) malaka;
- V) ko'nikma;
- G) sa'i -harakat;
- D) interorizatsiya.

25. Ichki aqliy harakatdan tashqi predmetli harakatga o'tish jarayoni bu...

- A) ekstrorizatsiya;
- B) malaka;
- V) ko'nikma;
- G) sa'i -harakat;
- D) interorizatsiya.

26. Biror faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud bilimlardan va malakalardan foydalana olish.....deb ataladi.

- A) ekstrorizatsiya;
- B) malaka;
- V) ko'nikma;
- G) sa'i –harakat;
- D) interorizatsiya.

27. Odamdagi maqsadga muvofiq harakatlarning amalga oshirilishi va avtomatlashuvi deb ataladi.

- A) ekstrorizatsiya;
- B) malaka;
- V) ko'nikma;
- G) sa'i –harakat;
- D) interorizatsiya.

28. Odamning o'z maqsadiga ko'ra, batamom o'rganish va o'zlashtirishdan iborat bo'lgan maxsus faoliyati bu..... deyiladi.

- A) mehnat;
- B) malaka;
- V) ko'nikma;
- G) ta'lim;
- D) o'yin.

29.ma'lum ijtimoiy foydali moddiy yoki madaniy, ma'naviy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat.

- A) mehnat;
- B) malaka;
- V) ko'nikma;
- G) ta'lim;
- D) o'yin.

30. Yetakchi faoliyat tushunchasi mazmuni qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan.

- A) faoliyatda inson shaxsini ifodalaydi va tarkib toptiradi;
- B) inson taraqqiyoti bilan bog'liq;
- V) bola shaxsini tarkib topishida asosiy rol o'ynaydi;
- G) shaxsning muayyan yosh davrida sifat jihatidan o'zgarishni ta'minlaydigan faoliyat turi;
- D) bajarilishi ehtiyojga aylangan harakat yoki xulq-atvorning tarkibiy qismi.

Nazorat savollari

1. Faoliyat tushunchasining mohiyatini izohlang?
2. Faoliyatning tuzilishi xususida nimalarni bilasiz?
3. Faoliyatning interorizatsiyasi va ekstrorizatsiyasi tushunchasining mohiyatini izohlang?
4. Faoliyatning o'zlashtirilishi va malakalarni egallashni mohiyati nimalar bilan belgilanadi?
5. Faoliyatning asosiy turlarini ko'rsating?
6. A.N.Leontev bo'yicha faoliyat tuzilishining mohiyatini izohlang?

MULOQOT

Muloqot haqida tushuncha

Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatini o'zlashtirish va o'z individual ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib, keyinchalik, ular insonning ichiga kiradi. Shaxsning tafakkuri, olamni va o'zining obrazini tahlil qilish hamda baholash qobiliyati muloqot jarayonida shakllanadi. Mazkur muammoga atroflicha baho bergan polshalik psixolog **Ye.Melibruda** quyidagilarni ta'kidlaydi: *«Muloqot shaxslararo munosabatlarda biz uchun havodek ahamiyatga egadir».*

Muloqot o'ta murakkab jarayon bo'lganligi sababli unga yagona to'g'ri ta'rifni berish juda mushkul. Shuning uchun odatda muloqot tushunchasining mazmuni uning ayrim tomonlariga urg'u berish orqali ta'riflanadi.

A) **muloqot** – hamkorlikda faoliyat ehtiyoji bilan taqazolangan aloqa o'rnatish va uni rivojlantirish jarayoni .

B) **muloqot** – subyektlarning belgilar tizimi orqali o'zaro ta'sirlanishuvi.

A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan *“Umumiy psixologiya”* darsligida **muloqot** ikki va undan ortiq kishilar o'rtasidagi axborot ayriboshlash, o'zaro ta'sir va bir-birini tushunishdan iborat jarayon sifatida e'tirof etiladi.

M.G.Davletshin muallifligida chop etilgan *“Umumiy psixologiya”* o'quv qo'llanmasida **muloqot** – bu ikki yoki undan ortiq kishilar orasidagi affektiv baholovchi xarakterda va bilish bo'yicha ma'lumot almashinishidan iborat bo'lgan o'zaro ta'sir etishdir”- deb ta'kidlanadi.

M.G.Davletshin rahbarligida chop etilgan *“Psixologiya”* qisqacha izohli lug'atida muloqotga quyidagicha ta'rif beriladi: **muloqot**- ikki yoki undan ortiq odamlarning o'zaro bir-biriga ta'sir etishidir.

Yuqoridagi ta'riflarga muvofiq **muloqotga** umumiy tarzda quyidagicha ta'rif berish mumkin: **muloqot** – kamida ikki kishining o'zaro ta'sir jarayoni bo'lib, bu ta'sir davomida axborot almashinadi, munosabat o'rnatiladi, rivojlantiriladi.

Muloqot tushunchasini kommunikatsiya tushunchasidan farqlash lozim. **Kommunikatsiya** - tirik va o'lik tabiatdagi tizimlar o'rtasida axborot almashinuvini anglatadi. Hayvonlar o'rtasidagi signallar almashinuvi, insonning texnik vositalar bilan aloqa qilishi, bularning barchasi kommunikatsiyaga misol bo'ladi. Muloqot faqat insonlar o'rtasida amalga oshirilishi mumkin. Muloqotning inson hayotidagi ahamiyati beqiyosdir. Inson bolasi aynan boshqalar bilan muloqotda, munosabatda bo'lish jarayonida shaxsga aylanib boradi. Muloqot orqali inson ijtimoiy tajriba va madaniyatni egallab boradi. Yangi tug'ilgan inson boshqalar bilan muloqotda bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lsa, u hech qachon shaxsga aylana olmaydi, ya'ni u o'z psixik taraqqiyoti bo'yicha orqada qolib ketadi. Zero, inson psixik taraqqiyoti muloqotdan boshlanadi.

Muloqotsiz insoniyat jamiyati bo'lishi mumkin emas. Aynan muloqot hamkorlikda faoliyat yurituvchi individlar jamoasini shakllantiradi. Hamkorlikdagi faoliyat rejasini tuzish va uni ruyobga chiqarish uchun individlar o'rtasida muloqot amalga oshirilishi shart. Muloqot vositasida hamkorlikdagi faoliyat tashkil etiladi va

amalga oshiriladi. Ayni vaqtda faoliyat davomida insonlar o'rtasida yangi-yangi munosabatlar va aloqalar shakllanadi. Demak, muloqot va faoliyat o'zaro chambarchas bog'liqdir.

Muloqot inson hayotida qanchalik yuksak ahamiyatga ega ekanligini quyidagi misollarda yaqqol ko'rishimiz mumkin:

1-misol 1938-yil Richard Bard o'z hohishi bilan Antarktida muzliklarida 6 oy tanho qoladi. Bir tomondan u tajriba natijalariga qiziqsa, ikkinchi tomondan kundalik hayotning g'ala-g'ovuridan biroz dam olishni istagan edi. Keyinchalik, u mazkur davmi quyidagi so'zlar bilan eslaydi "Bu yerdagi hayotim davomida bora-bora har bir harakatim har bir ishim tobora mazmunsiz, mantiqsiz, maqsadsiz bo'lib borayotganday edi. Xavf xatarlardan qo'rqmaydigan odam bo'lsam-da, negadir bu yerda tomning bosib qolishidan xavfsiray boshladim. Ovqatlanishimda muntazamlik yo'qoldi, yuvinmay qo'ydim".

2-misol. Tarixda yaponlarda "Moritao" nomli insonning o'zini o'zi takomillashtirish tizimi mavjud bo'lgan. Vaholanki, inson hech qanday jismoniy azoblarga duchor bo'lmaydi. Faqatgina bir haftaga g'orga kirib ketib, u yerda tanho qoladi. Bu yerda u hatto o'zi bilan gaplashishi mumkin bo'lmagan. Sinovdan o'tganlar keyinchalik har qanday uchrashuv va suhbatni xursandchilik bilan qarshi oladilar. Qizig'i shundaki, ularda ko'proq gapirish ehtiyoji emas, balki tinglash ehtiyoji kuchayar ekan.

3-misol. Bir paytlarda Amerikada barcha tamaddixonalarni avtomatlashtirish avj olgan edi. Ammo ko'p o'tmay ularning egalari kasodga uchray boshladi. Ma'lum bo'lishicha, bu yerga odamlar nafaqat tammadi qilish, balki suhbatdosh topish uchun ham kelganlar.

Bundan ko'rinadiki, insonlar doimo muloqotga ehtiyoj sezadilar va uni qondirishga harakat qiladilar.

Muloqot jarayonida muloqot funksiyalari ham muhim rol o'ynaydi. *Muloqot funksiyalari* deganda muloqotning inson hayotida bajaradigan funksiyalari tushuniladi. *Muloqot funksiyalari* xilma-xil bo'lib, eng keng tarqalgan tasnifga ko'ra, ya'ni *B.F.Lomov* tomonidan taklif qilingan bo'lib, u quyidagilardan iborat.

➤ **Informatsion-kommunikativ funksiya** – axborot almashinuvini ta'minlash vazifasi. Axborot almashinuvi turli belgilar tizimlari orqali amalga oshiriladi. Odatda verbal va nonverbal kommunikatsiya farqlanadi.

➤ **Regulyatsion-kommunikativ funksiyasi** suhbatdoshlar xulq-atvorining regulyatsiya qilinishini ta'minlash vazifasi. Individlar muloqot jarayonida verbal yo'llar bilan bir-birining motivlariga, maqsadlariga, qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazishi, biror harakatga undashi va harakatini nazorat qilishi, bir-birining xulq-atvoriga stimullash-tiruvchi va korreksiyalovchi tarzida ta'sir ko'rsatishi mumkin.

➤ **Affektiv-kommunikativ funksiya** inson emotsional sohasining regulyatsiya qilinishini ta'minlash vazifasi. Muloqot inson emotsional holatlarining eng muhim determinatsiyasidir. Chunki turli tuman emotsional holatlar muloqot jarayonida paydo bo'ladi va o'zgaradi.

L.A.Karpenko taklif etgan tasnifga ko'ra, muloqotning quyidagi vazifalari ajratib ko'rsatiladi.

✓ **Aloqa o'rnatish vazifasi** – suhbatdoshni aloqaga kirishish uchun tayyorlash;

- ✓ *Informatsion vazifa* – suhbatdosh bilan muayyan ma'lumotlar, fikrlar va rejalamni almashish;
- ✓ *Faoliyatga undash* – suhbatdoshni biror harakatni bajarishga stimullashtirish;
- ✓ *Koordinatsion vazifa* – suhbatdosh bilan hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish va uni amalga oshirishda harakatlarni muvofiqlashtirish;
- ✓ *Tushunishni ta'minlash vazifasi* – suhbatdoshning fikrlari va hissiyotlarini tushunish;
- ✓ *Amotiv vazifasi* – suhbatdoshda muayyan hissiyotlarni uyg'otish hamda ularni o'zgartirish;
- ✓ *Munosabat o'rnatish* – munosabatlar tizimidagi shaxsiy o'rinni, mavqei aniqlash;
- ✓ *Ta'sir ko'rsatish* – suhbatdoshning xulq-atvori shaxsiy xususiyatlarini maqsadlari va ustanovkalarini o'zgartirish.

Muloqotning kommunikativ tomoni

Birgalikdagi faoliyat davomida odamlar turli fikrlar, o'y-xayollar, his kechinmalar bilan o'rtoqlashadilar. Bunda o'y-fikrlar, his-kechinmalarni axborot sifatida, kommunikatsiyani esa axborot almashinuvi sifatida talqin etish mumkin. Ammo shuni e'tiborga olish kerakki insonlararo kommunikatsiya shunchaki axborot almashinuvidan iborat emas. Chunki muloqot jarayonida axborot nafaqat uzatiladi, balki shakllantiriladi, aniqlashtiriladi, rivojlantiriladi. Demak, inson muloqotni shunchaki axborot almashinuvidan iborat jarayon deb hisoblashi mumkin emas. Zero, *birinchidan* muloqot jarayonida axborot bir tomondan ikkinchi tomonga shunchaki harakatlanmaydi, balki faol almashinadi (kommunikativ jarayon ishtirokchilari bir-biriga axborot yuborayotganda bir-birining motivlari, maqsadlari, ustanovkalari va boshqalarni tahlil qiladilar); *ikkinchidan* muloqot jarayonida axborot almasha turib kishilar belgilar orqali bir-biriga ta'sir etishi mumkin (insonlararo axborot almashinuvida, albatta suhbatdosh xulq-atvoriga muayyan ta'sir o'tkaziladi); *uchinchidan* muloqot jarayonida *kommunikator* (axborot yuboryotgan odam) va *resipient* (axborotni qabul qilayotgan odam) bir xil kodlashtirish tizimiga ega bo'lishi kerak, *to'rtinchidan* muloqot jarayonida faqat insonlararo kommunikatsiyaga xos to'siqlar vujudga kelishi mumkin.

Kommunikativ jarayonda qo'llaniladigan bir necha belgilar tizimi mavjud. Ular *verbal kommunikatsiya* (nutq orqali) va *noverbal* (nutq bilan bog'liq bo'lmaydigan belgilar orqali) kommunikatsiyadir.

Verbal kommunikatsiya. Inson nutqi belgilar tizimi sifatida qo'llaniladi. Nutq – inson tomonidan qo'llaniladigan tovush signallari yoki yozma belgilardan iborat bo'lib, ular orqali muloqotdan olingan ma'lumot qayta ishlanadi, saqlanadi va uzatiladi. U jarayon til orqali amalga oshiriladi. Til so'z belgilari tizimi bo'lib, u muloqot jarayonida psixik faoliyat mahsuli bo'lib yuzaga keladi.

Til muomala vositasidir. Til muomalaga kirishuvchilar o'rtasidagi kommunikatsiyani ta'minlaydi, chunki uni axborot beruvchi ham, uni qabul qiluvchi ham birday tushunadi. Boshqa kishiga axborot beruvchi (kommunikator) va uni qabul

qiluvchi (resipient) muloqot jarayonida bir xil tildan foydalanishi kerak, aks holda bir-birini to'g'ri tushunolmaydi. Axborot almashish muomala qatnashuvchilariga tushunarli belgi va mazmunga ega bo'lishi kerak. Til so'z belgilari yig'indisidan iboratdir. So'zning ma'nosi uning mazmuniy tomonidir. Har bir alohida odamning harakatlari va faoliyatlarini boshqa odamning harakati va faoliyatlarini 3 ta muhim omil belgilaydi.

Birinchidan, butun insoniyatning yoki bir muncha tor doiradagi kishilar jamoasining ijtimoiy-tarixiy tajribasini belgilaydi. Kichkina bola dunyoni mustaqil ravishda bilib olmaydi. U ota-onasiga savollar beradi va ular unga javob beradilar, bu javoblardan bola o'z faoliyatini keyinchalik foydalanadigan umumiy bilimlarning faqat ozgina qismini oladi. Umumiy bilimlarning bu ozginagina qismini bola til shaklida, til yordamida so'z belgilari tizimida hosil qila oladi. Maktabda ham xuddi shunday bo'ladi, o'quvchi olam haqida barcha bilimlarni o'qituvchining tushuntirishidan yoki darslikdan, ya'ni til yordamida o'zlashtiradi. Bu yerda til o'zining muhim vazifalaridan birini bajaradigan, ya'ni yashash vositasi, ijtimoiy-tarixiy tajribani berish va o'zlashtirish vositasi tarzida namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, har bir alohida odamning ish-harakati va faoliyatini ko'pincha ijtimoiy qiymatga ega bo'lmagan o'zga kishilarning bevosita tajribalarini belgilaydi. *Masalan*, men oshxona tomon yo'l olaman. Yo'lda o'rtog'im uchrab menga: "oshxona yopilgan", deydi. Shu paytda bu xabar mening faoliyatimni ma'lum bir tarzda boshqaradi: men qayrilib, boshqa oshxona tomon jo'nayman. Bu yerda til o'zining boshqa muhim vazifasi bilan, ya'ni vosita yoki kommunikatsiya usuli yoki olamning xatti-harakatlarini boshqaruvchi bir vosita sifatida namoyon bo'ladi. Natijada har qanday kommunikatsiya, har qanday munosabat suhbatdoshiga ta'sir qilishdan iboratdir.

Uchinchidan, har bir alohida odamning ish-harakatlari va faoliyatlarini har bir ayrim kishilarning shaxsiy tajribasi belgilaydi. Odamning "shaxsiy" o'z individual tajribasi boshqa kishilarning tajribalari va ijtimoiy tajribaning o'ziga xos aralashmasidan iborat. Odam hayvondan farqli o'laroq, o'z harakatlarini rejalashtira oladi. Bunday rejalashtirish va umumiy fikriy masalalarni hal qilishning asosiy quroli tildir. Bu yerda biz tilning uchinchi vazifasi aqliy faoliyatning (idrok, xotira, tafakkur, xayol) quroli sifatidagi vazifasiga to'qnash keldik. So'z belgilari tizimi sifatida tildan nutq faoliyatida foydalaniladi.

Nutq faoliyati – odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish va avlodlarga berish yoki kommunikatsiya o'rnatish, o'z harakatlarini rejalashtirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir. Til aloqa vositasi yoxud quroldir, nutq faoliyati yoki nutq esa aloqa jarayonining o'zidir. Bu jarayonda nutq faoliyatining faol va passiv turlari farqlanadi. So'zlovchining nutqi **faol nutq**, tinglovchining nutqi **passiv nutq** hisoblanadi. Nutq **ichki va tashqi nutqqa** bo'linadi. **Tashqi nutq** – yozma va og'zaki nutqqa, og'zaki nutq esa **monolog va dialogik nutqqa** bo'linadi. **Monolog** – bir kishining o'ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqidir. Bu o'qituvchining bayoni, o'quvchining to'laroq javobi, ma'ruza va boshqalardir. Monologik nutq ma'lum qiyinchiliklarga ega. Monologda gapirayotgan kishi fikrlarning aniqligiga, grammatik qoidalarning saqlanishiga, mantiq va aytilayotgan fikrlarning izchilligiga e'tibor berishi kerak. Dialogik nutqqa nisbatan monologik

nutq kechroq shakllanadi. Maktabda o'qituvchilar o'quvchilarda monologik nutqni rivojlantirishga alohida e'tibor berishlari kerak. Ikki yoki undan ortiq kishilar o'rtasidagi nutq – **dialog** deyiladi. Dialogik nutqda bayon qilinayotgan fikr ko'p jihatdan undan oldingi fikrga bog'liq bo'ladi. Dialogik nutqda suhbatdoshlarga ma'lum bo'lgan ayrim so'zlar tushirib qoldiriladi. Shuning uchun yozib olingan dialog boshqalarga unchalik tushunarli bo'lmasligi mumkin: Dialogik nutqda har xil turdagi shablonlar, ya'ni odatlanib qolingan so'z birikmasi ko'p uchraydi (qoyil, marhamat qilib aytingchi). Nutqning **ichki nutq** deb atalgan turi nutq faoliyatining alohida turi hisoblanadi. Ichki nutq amaliy va nazariy faoliyatni rejalashtirish fazasi sifatida namoyon bo'ladi. Biz so'zni chala-yarim aytishimiz bilanoq tushunaveramiz. Ichki nutq ayrim og'zaki nutq aktlaridan ilgariroq, xususan ixtiyoriylik darajasi ancha yuksakroq bo'lgan og'zaki nutqdan ilgariroq sodir bo'lishi mumkin. Yozma nutq monologik nutqning turlaridan biri bo'lib, yozma nutq monologik nutqqa nisbatan batafsilroqdir. Muloqotning kommunikativ akti sifatida quyidagilarni tasavvur etish mumkin:

Kommunikator adresant	Muloqot subyekti sifatidagi omil namoyon bo'ladi.
Retseptient aderesat	Bu ma'lumot kimga uzatilmoqda
Ma'lumot	Nima uzatilmoqda
Kod	Qanday vositalar asosida
Maqsad	Nima uchun uzatilmoqda
Aloqa kanali	Ovoz, xat, e'fir orqali aloqa
Natija	Nimaga erishildi.

Shuningdek amerikalik jurnalist *G.Lussuel besh unsur*dan iborat bo'lgan kommunikativ jarayonning modelini taklif etadi.

- ✓ **Kim** (axborot kim tomonidan uzatilmoqda)
- ✓ **Nima** (qanday axborot uzatilmoqda)
- ✓ **Qanday** (axborot qanday yo'l bilan uzatilmoqda)
- ✓ **Kimga** (axborot kimga yo'naltirilmoqda)
- ✓ **Qanchalik samarali** (axborot qanchalik samarador uzatildi)

Kommunikativ jarayon **aksial** (bunda axborot ayrim aniq odamlarga yo'naltiriladi) yoki **retial** (bunda axborot bir qancha ehtimol qilinayotgan resipientlarga yo'naltiriladi) xarakterda bo'lishi mumkin.

Kommunikativ jarayonda o'zaro munosabatga kirishuvchilarni bir-birlarini tushinishlari juda muhimdir. Bunda nutqning quyidagi muhim xususiyatlari paydo bo'ladi, ya'ni mazmundorlik, tushunarlilik, ifodalilik, ta'sirchanlik ko'rsatiladi.

Buyuk fransuz yozuvchisi *Antuan Sent Ekzyuperi* "Muloqot – shunday ne'matki, u orqali inson lazzatlanadi". deb yozgan edi.

So'zning mohiyati haqida *Sa'diy* "Aqlimisan yoki ahmoq kattamisan yoki kichik buni bir so'z aytmaguncha bila olmaymiz" degan edi.

Xalqimizda shunday ibratli ibora bor "Inson aql farosati uning nutqining aniqligida namoyon bo'ladi".

Noverbal kommunikatsiya vositalariga yuz ifodasi, mimika, ohang, pauza, poza (holat), ko'z yosh, kulgu va boshqalar kiradi. Bu vositalar verbal kommunikatsiya – so'zni to'ldiradi, kuchaytiradi va ba'zan uning o'rini bosadi. Bolgarlarda boshni

qimirlatish yo'q degani, ruslarniki teskarisi bo'ladi. Turli yosh guruhlarida noverbal kommunikatsiya vositasi turlicha bo'ladi. *Masalan*, bolalar ko'pincha kattalarga ta'sir etish, ularga o'z hohish va kayfiyatlarini o'tkazishda yig'idan vosita sifatida foydalanadilar. Axborotni so'z bilan bayon etishning mazmuni va maqsadiga noverbal kommunikatsiya vositalarining mos kelishi muomala madaniyatining bir turidir.

Noverbal kommunikatsiyaga belgilarning optik-kinetik tizimi kirib, ularga *jestlar (qo'l harakatlari)*, *mimika (yuz harakatlari)* va *pantomimika (qo'l, oyoq, tana harakatlari)* kiradi.

Jestlar – insonning qo'l harakatlari bo'lib, u orqali insonning ichki holati, biror-bir obyektga munosabati va tashqi olamga yo'nalganligi ifodalanadi. U yoki bu xalqlarda jestlar turlicha qabul qilinadi. Italian va fransuzlar o'z muloqotlarini jestsiz tavsavvur eta olmaydilar. O'zbek xalqida nutqda jestlardan foydalanish yaxshi odat sifatida qabul qilinmaydi. Lekin shuni ham ta'kidlash lozimki, noverbal kommunikatsiya og'zaki nutqda aytilmay qolgan fikrlarni ifoda etish imkonini beradi.

Mimika – inson yuz harakatlarining bir qismi bo'lib, u orqali insonning o'ylari, xatti-harakatlari, tasavvurlari, xotirlashi, taajjubi va hokazolarda namoyon bo'ladi.

Pantomimika – inson tanasi yoki uning qismlari yordamida ifodalanadigan harakatlar tizimidir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kundalik muloqot jarayonida so'zlar 7% ni, tovushlar va intonatsiya 38% ni, nutqsiz muloqot esa 55% ni, tashkil qiladi.

Publitsiy aytganidek, biz «*Ovoz bilan gapiramiz tana bilan suhbatlashamiz*». Noverbal kommunikatsiyaning boshqa belgilar tizimlarini ko'rib chiqsak maqsadga muvofiqdir.

Paralingvistik va ekstralingvistik belgilar tizimi – bu lokalizatsiya tizimi bo'lib, u ovoz sifatida diapozonini nutqdagi pauzalar, yo'tal, yig'i, kulgu, nutq tempida namoyon bo'ladi.

Muloqot jarayonida muloqotga kirishuvchilarni bir-birlariga nisbatan joylashishlari ham muhim ahamiyatga ega. *Masalan*, auditoriyadagi stollar joylashishi muloqot uchun juda noqulaydir. Ayniqsa, seminar mashg'ulotlari jarayonida o'qituvchi, ma'ruzachi muloqoti vaqtida qolganlari munozarada faol ishtirok etish imkoniyatiga ega emasdir.

Seminarlarni yoki shu kabi suhbatlarni "T" shaklida joylashgan stol stullarda o'tkazish ham foydali, lekin dumaloq shaklda joylashtirilgan stol, stullarda muloqot juda samaralidir.

Vizual muloqotda "ko'z kontakti" belgilar tizimi ham qo'llaniladi. Ushbu tizim pedagoglar, rahbarlar ish faoliyatida muhim ahamiyatga egadir.

Qiziqarli belgilar tizimi sifatida muloqot jarayonida gul, fotorasm va boshqalardan foydalanish mumkin. Ehtimol gullar orqali insonlar ma'lum bir ma'lumotni uzatish imkoniyatiga egalar. Shu bois, gullar tarixi haqida ayrim ma'lumotlarni keltiramiz. Gullar tili qadimda Sharqda paydo bo'lgan. Uni ayollar yaratishgan. O'z yuzlarini ochish imkoniyatiga ega bo'lmagan ayollar o'z hislarini va kayfiyatlarini gullar orqali ifodalashga harakat qilganlar. Assotsiatsiya sifatida paydo bo'lgan belgilar qat'iy odatlarga aylangan. *Masalan*, azaliya guli sog'inch, yolg'izlik,

gnatsint g'unchalarining soni uchrashuv kunini, qo'ng'iroq gullar soni uchrashuv vaqtini anglatadi.

XIX asrga kelib, gullar tili dastlab Fransiyada, so'ng Angliya va butun jahonga tarqalgan. Asta-sekin gullar tili bilan ranglar tili ham yuzaga keldi. *Jumladan*, Yevropaning ko'p davlatlarida siyoh rang do'stlik, hashamatlilik, to'kinlik ramzi bo'lsa, Yaponiyada-g'am og'riq belgisi bo'lgan. Har qaysi rang ma'lum holat, kayfiyat ma'nosini anglatadi. Jumladan qizil rang hayot, sevgi, pushti – yoshlik, sariq – baxt, quyosh, to'y, xursandchilik, yashil – tinchlik, xotirjamlik, ko'k – ishonch, vafo, qora – tantanavorlik, qayg'u, oq – poklik, beg'uborlik ramzi sifatida tushuniladi.

Muloqot kishilar o'rtasidagi o'zaro ta'sir etish

Kishilar muloqotga kirishar ekan, savol berish, buyruq, iltimos qilish, biror narsani tushuntirish bilan birga o'z oldiga boshqalarga ta'sir etish, shu narsani ularga tushuntirish maqsadini qo'yadi.

Muloqotning maqsadi kishilarning birgalikdagi faoliyatiga ehtiyojini aks ettiradi. Bunda muloqot shaxslararo o'zaro ta'siri sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni kishilarning birgalikdagi faoliyati jarayonida paydo bo'luvchi aloqa va o'zaro ta'sirlar yig'indisidir. Birgalikdagi faoliyat va muloqot ijtimoiy nazorat sharoitida ro'y beradi. Jamiyat ijtimoiy normalar sifatida maxsus hulq-atvor namunalari tuzilishini ishlab chiqqan. Ijtimoiy normalar ko'lami nihoyat keng – mehnat intizomi harbiy burch va vatanparvarlik, xushmuomalalik qoidalari ana shular jumlasidir. Ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan muloqotga kirishuvchilar bajaradigan rolning "repertuar"iga mos holda namoyon bo'ladi. Psixologiyada "rol" deganda ijtimoiy (sotsial) mavqeni egallab turuvchi har bir kishidan atrofdaigilardan kutadigan, normativ tomonidan ma'qullangan hulq-atvor namunasi tushuniladi. (yosh, mansab, jins va oiladagi, o'qituvchi va o'quvchi shifokor va bemor, katta kishi yoki bola, boshliq yoki xodim, ona yoki buvi, erkak yoki ayol, mehmon yoki mezbon rovida namoyon bo'lishi mumkin). O'z navbatida har bir rol o'ziga mos talablarga javob berishi kerak.

Bir kishi turli muloqot vazifalarida turli rollarni bajarishi mumkin. *Masalan*, xizmat joyida direktor, kasal bo'lsa, shifokor ko'rsatmalariga itoat etuvchi bemor, oilada kekxa ota-onasining qobil farzandi, mehmondo'st oila boshlig'i bo'ladi. Turli rollarni bajaruvchi kishilarning o'zaro munosabati rol kutishlari bilan boshqariladi. Xohlaydimi yoki yo'qmi atrofdaigilar undan ma'lum namunaga mos keluvchi xulq-atvorni kutadilar. Agar rol yaxshi bajarilmasa, ijtimoiy nazorat tomonidan baholanadi, ozmi-ko'pmi cheklanishlar qilinadi. Muloqotning bevosita muvaffaqiyatining sharti o'zaro ta'sir etuvchi kishilarning har biridan kutilayotgan harakatlarga mos keluvchi xulq-atvor namunasi qo'llanishidir. Kishining boshqalar undan nimani kutayotganini, nimani eshitishga va unda nimani ko'rishga tayyor ekanligini to'g'ri, aniq, xatosiz ko'chira olish qobiliyati takt deb ataladi.

Ma'lumki, takt pedagogik faoliyatda muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Ayniqsa, pedagogik jarayon o'qituvchi va o'quvchilarning uyushgan faoliyatlari asosida tuzilgan. Shu bois, o'qituvchi pedagogik jarayonni o'quvchilar jamoasidan tashkil topganligini unutmashligi har bir o'quvchi shaxsini e'tibordan chetda

qoldirmasligi kerak. O'quvchilar bilan psixologik aloqaning qisqa muddatga bo'lsada yo'qolishi, og'ir oqibatlarni vujudga keltiradi.

Muloqotning interaktiv tomoni deganda, birgalikdagi faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishda muloqot ishtirokchilarining bir-biriga ta'sir o'tkazishi tushuniladi.

Kommunikatsiya orqali odamlar birgalikdagi faoliyatni tashkil etadilar. Umumiy faoliyatda ishtirok etar ekan, odamlar bir-birlariga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'zaro ta'sir birgalikdagi faoliyatning tashkil etilishi sifatida tushuniladi.

Birgalikdagi faoliyatning uch xil modeli mavjud:

&har bir ishtirokchi boshqalardan mustaqil ravishda ishning o'ziga tegishli qismini bajarishi (*masalan, shanbalikdagi ish*);

&umumiy vazifani bosqichma-bosqich har bir ishtirokchi tomonidan bajarilishi (*masalan, konveyerdagi ish*)

&har bir ishtirokchi boshqalar bilan birgalikda bir vaqtning o'zida umumiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lishi (*masalan, futbol jamoasidagi ish*).

Odatda muloqot jarayonidagi o'zaro ta'sirning **ikki xil turi** ajratiladi.

a) kooperatsiyaga asoslangan o'zaro ta'sir – kommunikativ jarayon ishtirokchilarining umumiy maqsad yo'lida o'z kuchlarini birlashtirishdan iborat. **Kooperatsiyalarning bir necha turi farqlanadi:**

avtomatik (instinktiv-biologik darajada mavjud bo'ladi);

avtomatik (tarkib topgan ijtimoiy me'yorlar bilan an'ana va urf odatlar bilan taqozolangan bo'ladi);

spontan (do'stlik, muhabbat va shu kabi munosabatlar bilan taqozolangan bo'ladi);

direktiv (majburiy hamkorlik hukm suruvchi joylarda mavjud bo'ladi);

shartnomaviy (rasmiy kelishuvlar bilan taqozolangan bo'ladi);

kooperatsiya- birgalikdagi faoliyatning zaruriy elementi.

b) Raqobatga asoslangan o'zaro ta'sir – kommunikativ jarayon ishtirokchilarining shaxsiy yoki guruhiiy maqsadlarga erishish uchun o'zaro kurash sharoitida bir-biriga ta'sir ko'rsatishdan iborat. Bunday o'zaro ta'sirda tomonlarning shaxsiy faolligi odatda yuqori bo'ladi. Shunday bo'lsa-da u kooperatsiya bilan ma'lum darajada bog'liqdir. Chunki raqobat davomida ham muayyan qoidalar o'rnatilishi talab etiladi. Aks holda o'zaro kurash urushga aylanib ketishi mumkin. Raqobatning eng yorqin shakli nizodir. Nizo – muloqot ishtirokchilarining har biri muhim bo'lgan muammoni hal etish vaqtida ular o'rtasida vujudga kelgan qarama-qarshilik va kurashning keskin kuchayib ketish jarayonidir.

Muloqot jarayonida nizoning odatda **ikki xil turi** farqlanadi.

a) Destruktiv nizo. Uning kelib chiqish sabablari quyidagilardan iborat:

-shaxsiy xususiyatlarni bir-biriga mos kelmasligi tufayli vujudga keladi;

-munosabatlarning buzilishiga olib keladi;

-ishtirokchilar soni ortib boradi;

-qarama-qarshi tomonga nisbatan negativ baholar kuchayib boradi;

-nizo jarayonidagi obyektning shaxsga ko'chishi oson yuz beradi.

b) Produktiv nizoning kelib chiqish sabablari quyidagilardan iborat:

&nuqtai - nazarlarning bir-biriga mos kelmasligi sababli vujudga keladi;

&muammoni kengroq qarshi olishga olib keladi;
&qulay yechimning topilishiga yordam beradi;
&shaxsga ko'chirilmaydi.

Muloqot kishilarning bir-birini tushunishi

Birgalikdagi faoliyatning muvaffaqiyatli ro'y berishi ko'p jihatdan kommunikativ jarayon ishtirokchilari bir-birini qanday idrok etayotganini, har bir ishtirokchida boshqa ishtirokchi haqida qanday tasavvurlar shakllanayotganligiga bog'liq. Bu esa muloqotning perseptiv tomonini o'rganish zaruratini vujudga keltiradi.

Kishilarning bir-birini idrok etish jarayoni muloqotning ajralmas qismi bo'lib, u muloqotning perseptiv tomonini tashkil etadi.

Insonning inson tomonidan idrok etilishi "**ijtimoiy persepsiya**" deyiladi. Dastlab bu atama *Dj. Bruner* tomonidan 1947-yil ishlatilgan bo'lib, u perseptiv jarayonlarning ijtimoiy determinatsiyasini anglatgan. Keyinchalik, bu atama boshqacharoq ma'noga ega bo'lib, u ijtimoiy obyektlarni, ya'ni odamlar ijtimoiy guruhlar, katta ijtimoiy tuzilmalarni idrok etish jarayonini anglati boshlagan.

Ijtimoiy perseptiv jarayonlarda individ quyidagilarni idrok etishi mumkin:

- a) o'z guruhiga munosib individni;
- b) boshqa guruhga mansub individni;
- v) o'zining guruhini;
- g) o'zga guruhni.

Ijtimoiy perseptiv jarayonlarda guruh quyidagilarni idrok etishi mumkin:

- a) o'z individini;
- b) o'zga guruh individini;
- v) o'zini;
- g) o'zga guruhni.

Rus psixologi **A.A. Bødalev** "Insonni inson tomonidan idrok etilishiga" sinonim ravishda "Insonning boshqa insonni bilishi" iborasini qo'llaydi. Inson jamiyat a'zosi sifatida qabul qilinganligi sababli muloqotda ham shaxs sifatida namoyon bo'ladi. *S.L. Rubinshteyn* aytganidek, "*Biz insonni tashqi xulq-atvoriga qarab uni o'qiyamiz*". Bundan, insonni tashqi qiyofasi uni qanday shaxs ekanligidan dalolat berishini anglashimiz mumkin.

"*Boshqa odamni bila turib, o'rganayotgan individning o'zi ham shakllanadi*" - deb yozadi L.S. Vigotskiy.

Insonni inson tomonidan idrok etilishida eng kamida ikki kishi jalb qilingan bo'lishi lozim bo'lib, ularning ikkalovi ham faol subyektdir. Demakki, o'zaro idrok jarayonida ikkala tomon bir-birlarining ehtiyojlari, motivlari va yo'nalishlarini bilishlari va o'zlarini qarama-qarshi tomon o'rniga qo'ya olishlari lozim. Muloqot jarayonida bir-birini idrok etayotgan odamlar bir-birini tushunishga harakat qiladilar. Buning uchun quyidagi mexanizm ishga solinadi.

- a) identifikatsiya;
- b) refleksiya;
- v) stereotipizatsiya;

g)empatiya

Identifikatsiya (lotincha tenglashtirish) –u kishiga tenglashtirish, baravarlash ma'nosini anglatib, insonning o'zini xayolan suhbatdoshi o'miga qo'yish orqali uning fikrlari va tasavvurlarini tushinishga intilishi.

Refleksiya (lotincha aks ettirish) – insonning suhbatdoshi tomonidan qanday idrok etilayotgani va tushunilayotganini anglashga intilishi. Kishini kishi tomonidan idrok qilinishini ikkilangan oynadagi aks ettirishga o'xshatish mumkin. Odam boshqa kishini aks ettirar ekan, shu bilan birga o'zini ham aks ettiradi, agar kishi o'zi muloqotga kirishadigan kishilar haqida to'liq, ilmiy asoslangan axborotlarga ega bo'lsa, ular bilan bexato aniqlikda o'zaro ta'sir o'rnatishi mumkin. Biroq, subyekt hamma vaqt bunday aniq ma'lumotga ega emas. Shuning uchun u boshqalar xatti-harakatining sabablarini o'ylab chiqishga majbur bo'ladi. Boshqa kishining harakatlarini tushuntirish uchun faoliyat motivlari, his-tuyg'ular, intilish va fikrlashning o'ylab chiqarilishi **kauzal atributsiya** deb ataladi. O'qituvchilar tomonidan bola harakatlarining shunday sababini talqin qilinishi maktabdagi pedagogik muomalani qiyinlashtiradi.

Stereotipizatsiya – grekcha o'zgarishsiz, takrorlanish degan ma'noni bildirib, insonning suhbatdoshini tushinishga intilishi yo'lida muayyan shablondan foydalanishi. Stereotipizatsiya ma'lum yoki taxminan ma'lum bo'lgan voqealarni tiklash, nisbat berish yo'li bilan xulq normalarini tasniflash va ularning sabablarini izohlash demakdir. Ba'zan muomala jarayonida noto'g'ri stereotip vujudga keladi. *Masalan, A.A.Bodalev* tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, kishining tashqi qiyofasi va uning xarakteri haqidagi stereotip tasavvurlar ommaviylashib ketganligi tasdiqlandi. So'ralgan 72 kishining 9 tasi agar insonning yuz tuzilishi kvadrat ko'rinishiga ega bo'lganlar kuchli, irodali, 17 kishi peshonasi katta kishi aqlli, 3 kishi sochi tikka kishilar yengilmas, bo'ysunmas xarakterga ega. 5 kishi bo'yi o'rtachadan past kishilar boshqalar ustidan hukmronlik qilishga, buyruq berishga intiluvchi kishilar, 5 kishi chiroyli kishilar yo ahmoq yoki o'zini yaxshi ko'radigan kishilar bo'ladi deb tasdiqlagan. Begona kishini idrok qilishda birinchi axborot, dastlabki tasavvur katta ahamiyatga ega. Kishilar tashqi qiyofasi ham muhim o'rin tutadi. Amerikalik psixologlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqot bunga yaqqol misol bo'la oladi. 400 ta o'qituvchilarni baholash uchun tarqatilgan ishlarni ular 200 tasi ijobiy, chiroyli, 200 tasi salbiy xunuk, yoqimsiz deb berganlar. Ekspertlardan tashqi qiyofasini emas, balki xarakterini ta'riflash so'ralgan edi. Afsuski baholarning subyektivligi kishining tashqi qiyofasini baholash bilan bog'liqdir.

Empatiya – insoning o'zini xayolan suhbatdoshi o'miga qo'yish orqali uning kechinmalari va hissiyotlarini tushinishga intilishi. Bunda insonning emotsional muammolariga yondashishi tushuniladi. Bu boshqa odam hissiyotlari va kechinmalariga hamdard bo'la olishdir. *Bir tomondan* obyektini tushinishda uni o'miga o'zini qo'ya olishi muhim bo'lsa, *ikkinchi* tomondan uning ichki hissiyotlarini tushunish unga hamdard bo'la olish ham muhimdir.

Insonning inson tomonidan idrok etilishida yo'naltirishning roli kattadir. Bu ayniqsa, inson haqida, noma'lum inson haqida ilk fikrlarni olishda muhimdir. Bu borada *A.A.Bodalevning* o'tkazgan tadqiqotlari nihoyatda ahamiyatlidir. Ikki guruh talabalariga bir inson rasmi beriladi. Birinchi rasmda berilgan inson jinoyatchi deb,

ikkinchi guruhda esa rasmdagi kishi yirik olim deb e'lon qilinib, ularga portretini yozma ifodalash vazifasi beriladi. Birinchi holatda quyidagi tavsiflar beriladi, ya'ni ko'zlarini ichiga kirib ketgani, ichki alam, qasosdan uzun dahan boshlagan ishi, jumladan jinoyatni yakuniga yetkazish kabilar ekanligi qayd etiladi.

Ikkinchi guruhda ichiga kirgan ko'zlari fikrning chuqurligi haqida gapirib, bunda uzun dahan qiyinchiliklarga bardoshlilik, irodalilik sifatida baholangan.

Keltirilgan mulohazalardan ko'rinadiki, insonni inson tomonidan idrok qilinishida tashqi tomondan berilayotgan ko'rsatma, shaxsning bu boradagi bilim, ko'nikma va malakalari muhim rol o'ynaydi.

Muloqotning qonuniyatlarini, malaka va qobiliyatlarining shakllanishini bilish pedagog uchun g'oyat muhimdir. Bu to'laqonli pedagogik muloqotni yoki muomalani yo'lga qo'yishni ta'minlaydi. **Pedagogik muloqot** pedagog va o'quvchilarning o'zaro ta'sir etish usullari yig'indisidir. Muloqotning mazmuni axborot almashish, o'qituvchi tomonidan turli kommunikativ vositalar yordamida o'quvchilar bilan o'zaro tushunish va o'zaro munosabatlarni tashkil etishdir. Pedagoglarning tarbiyaviy va didaktik vazifalarni o'qituvchilar hamda o'quvchilar jamoasi o'rtasida munosabatlarni ta'minlamay turib amalga oshirib bo'lmaydi.

Pedagogik faoliyatdagi muloqot

- o'quv vazifalarni bajarish vositasi;
- tarbiyaviy jarayonni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik tizimi;
- ta'lim-tarbiya jarayoni muvaffaqiyatini ta'minlovchi o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabatini tashkil qilish usuli;
- o'quvchining individual xususiyatlarini tarbiyalash jarayoni sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik muloqot – bu muloqotning o'quv tarbiyaviy jarayonlarni hissiy foni va vosita, mazmunini tashkil etadi.

Muloqot muvaffaqiyatli bo'lishi uchun u albatta qayta aloqaga ega bo'lishi, ya'ni subyekt o'zaro ta'sir natijalari haqida axborot olishi kerak. Kommunikator o'zi uzatgan axborotni resipient qanday qabul qilishini va qanday munosabatda bo'layotganligini qayta axborot ma'lumotlariga asoslanib bilib oladi. Muomalada suhbatdoshni yoki tinglovchini idrok etish bir-birini tushunishning asosiy shartidir. Agar o'qituvchi o'quvchilarini qanday idrok etayotganligini, tushunayotganligini anglay olmasa, pedagogik munosabat yaxshi bo'lmaydi. Ayniqsa, ma'ruza o'tayotganda bu juda muhimdir.

Tayanch tushunchalar

Avtonom nutq (yunon, autos - o'zi - nomos - qonun) - bolaning o'z nutqi ko'p ma'no va noaniq so'zlar bilan xarakterlanadigan, ichki nutq, bunda turli narsalarning bir-biri bilan beqaror va uzviy bog'liqligi tufayli so'zlarning ma'nosi ham vaziyatga qarab o'zgaradi, bolalarning avtonom nutqi kattalar nutqiga o'tish davri bo'lib hisoblanadi.

Agrafiya (yunon. A - inkor yuklamasi, grapho - yozaman) nutqdagi turli buzilishlar natijasida yozuvning izdan chiqishi.

Afaziya (yunon. A - inkor yuklamasi, phasia – nutq) - bosh miya qobig'ining ayrim qismlarini zararlanishi natijasida nutqining izdan chiqishidan iborat psixopatologik nuqson.

Vepbal (lot, verbalis – og‘zaki) - atama. Verbal nutq – og‘zaki ifodalanadigan nutq.

Identifikatsiya (lot. identifisage – tenglashtirmoq) - shaxsning o‘zini o‘zga odam bilan emotsional va boshqa tomondan tenglashtirishi.

Ichki nutq – nutq faoliyatining ovoz chiqarmasdan ifoda etiladigan alohida turi.

Kommunkatsiya (lot. communio – aloqa, fikr olishuv ma’lumot berish) - til va boshqa belgilar vositasida axborot berish.

Monologik nutq – bir odamning o‘z fikrlarini og‘zaki yoki yozma ravida ifodalash nutqi.

Muloqot – ikki yoki undan ortiq odamlarning o‘zaro bir - biriga ta’sir etishi.

Nizo – o‘zaro ta’sir ko‘rsatayotgan kishilarning qarama - qarshi qiziqishi.

Nutq – odamlarning til vositasi bilan aloqa qilishning tarixan tarkib topgan shakli.

Nutq madaniyati – muloqot jarayonida ma’lum til normalariga asoslangan holda ma’noli nutqni ifoda etish.

Pantomimika (yunon. panto - mimos - hamma narsaga taqlid qiluvchi)-inson gavdasining mimika, imo-ishora, intonatsiyalar bilan birga uning psixik holatini, ayniqsa, his – tuyg‘ularini ifodalovchi harakatlari.

Pedagogik muloqot – o‘qituvchining o‘quvchi bilan muloqotda bo‘lishi.

Refleksiya (lot. Reflexus - aks ettirish) - odam bilimlarining o‘z - o‘ziga, o‘zining ichki olamiga, psixik sifatleri va psixik holatlariga qaratilishi.

Resipient (lot. Recipientis - qabul qiluvchi kishi) - o‘ziga yo‘llangan xabarni qabul qilib oluvchi kishi.

Empatiya (yunon. empatheia - birgalikda dardlashmoq) – boshqa odamlarning psixik holatlarini tushunish va ularga hamdardlik qilish qobiliyati.

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan mavzular

- 1.Muloqot haqida tushuncha.
- 2.Muloqot turlari va vazifalari.
- 3.Muloqotning verbal va noverbal vositalari.
- 4.Muloqot shaxslararo o‘zaro ta’sir etish.
- 5.Muloqot insonlarning bir-birini tushunishi.
- 6.Muloqot texnikasi va usullar.
- 7.Pedagogik faoliyatda muloqot.
- 8.Til va nutq tushunchalarining mazmuni.
- 9.Muloqot va muomala tushunchalarining mazmuni.
- 10.Identifikatsiya tushunchalarining mazmuni.
- 11.Refleksiya tushunchalarining mazmuni.
- 12.Sterotipizatsiya tushunchalarining mazmuni.
- 13.Noverbal vositalar muloqotda qanday ahamiyatga ega.

Test topshiriqlari

1. Ikki yoki undan ortiq kishilar o‘rtasidagi axborot ayriboshlash o‘zaro ta’sir va bir-birini tushunishdan iborat jarayon bu

- A) afaziya;
- B) muloqot ;
- V) refleksiya ;
- G) kommunikatsiya ;
- D) sterotiplashtirish.

2. Til yoki boshqa belgilar vositasida axborot berish bu

- A) kommunikatsiya;
- B) identifikatsiya;
- V) muloqot;
- G) refleksiya;
- D) steriotiplashtirish.

3. Subyektning u bilan munosabatga kirishgan sherigi tomonidan qay tarzda idrok etishini anglab yetishi deb ataladi.

- A) kommunikatsiya;
- B) muloqot ;
- V) identifikatsiya;
- G) refleksiya;
- D) steriotiplashtirish.

4. Xulq-atvor shakllarini tasniflash va ularni hozirgacha ma'lum va mashhur deb sanalgan ya'ni ijtimoiy qoliplarga mos keladigan hodisalar jumlasiga kiritish yo'li bilan ularning sabablarini izohlash deb ataladi.

- A) kommunikatsiya;
- B) muloqot;
- V) identifikatsiya;
- G) refleksiya;
- D) steriotiplashtirish.

5. O'zini boshqa kishi o'rniga qo'yish orqali unga o'zini tenglashtirish bu.....

- A) kommunikatsiya;
- B) muloqot;
- V) identifikatsiya;
- G) refleksiya;
- D) steriotiplashtirish.

6. bu muloqotdagi individlarni o'zaro ma'lumot almashinishidir.

- A) kommunikativ;
- B) intraktiv;
- V) perseptiv;
- G) refleksiya;
- D) steriotiplashtirish.

7. bu individlar muloqotda nafaqat bilish va g'oyalar balki harakatlar bo'yicha ham o'zaro ta'sirini tashkil etishdan iborat.

- A) kommunikativ;
- B) interaktiv;
- V) perseptiv;
- G) refleksiya;

D) steriotiplashtirish.

8. Pedagog va o'quvchilarning o'zaro ta'sir etish usullari yig'indisi

.....

- A) hamkorlik;
- B) faollikka kirishish;
- V) pedagogik muloqot;
- G) o'zaro tushunish;
- D) to'g'ri javob yo'q.

9. Pedagogik faoliyatda muloqot qanday funksiyani boshqaradi?

- A) o'quv vazifalarini bajarish vositasi;
- B) tarbiyaviy jarayonini ta'minlashning ijtimoiy psixologik va ijtimoiy tizimini ;
- V) ta'lim va tarbiya jarayoni muvaffaqiyatlarini ta'minlovchi o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabatlarini tashkil qilish usuli ;
- G) o'quvchining individual xususiyatlarini tarbiyalash jarayoni sifatida namoyon bo'ladi;

D) barcha javoblar to'g'ri.

10. Boshqa kishiga axborot beruvchi kishi bu

- A) retseptient;
- B) axborot uzatuvchi;
- V) kommunikator;
- G) afferent;
- D) efferent.

11. Berilgan axborotni qabul qiluvchi inson

- A) retseptient;
- B) axborot uzatuvchi;
- V) kommunikator;
- G) afferent;
- D) efferent.

12. So'zlovchining nutqi qanday nutq hisoblanadi?

- A) faol nutq;
- B) passiv nutq;
- V) monologik nutq;
- G) ichki nutq;
- D) tashki nutq.

13. Tinglovchining nutqi esa hisoblanadi.

- A) faol;
- B) passiv;
- V) monolog;
- G) ichki;
- D) tashqi.

14. Muloqotning maqsadi bu

- A) shaxslararo o'zaro ta'sir sifatida namoyon bo'ladi;
- B) birgalikdagi ijtimoiy sharoitda yuzaga chiqadi;
- V) jamiyatning ijtimoiy formulasini aks ettiradi;
- G) aloqa va o'zaro ta'sirlar yig'indisidir;

D) kishilarning birgalikdagi faoliyatiga ehtiyojini aks ettiradi.

15.ijtimoiy mavqeini egallab turuvchi har bir kishidan atrofdagilar kutadigan normativ tomonidan ma'qullangan xulq-atvor namunasi tushuniladi.

- A) indentifikatsiya;
- B) rol;
- V) refleksiya;
- G) stereotipizatsiya;
- D) kommunikativ.

16. Kishining boshqalar undan nimani kutayotganini nimani eshitishga va undan nimani ko'rishga tayyor ekanligini to'g'ri aniq xatosiz ko'chira olish qobiliyati deb ataladi.

- A) indentifikatsiya;
- B) rol;
- V) refleksiya;
- G) takt;
- D) taqlid.

17. so'z belgilari tizimi bo'lib, u muloqot jarayonida psixik faoliyat mahsuli sifatida yuzaga keladi?

- A) verbal;
- B) noverbal;
- V) nutq;
- G) so'z;
- D) til.

18. "Ovoz bilan gapiramiz, tana bilan suhbatlashamiz" mazkur fikr muallifini aniqlang?

- A) Abu Nasr Forobiy;
- B) Egziyure;
- V) L.S.Vigotskiy;
- G) Publitsiy;
- D) S.L.Rubinshteyn.

19. "Muloqot- bu shunday ne'matki u orqali inson lazzatlanadi" mazkur fikr muallifini aniqlang?

- A) Abu Nasr Forobiy;
- B) Ekzyupern;
- V) L.S.Vigotskiy;
- G) Publitsiy;
- D) S.L.Rubinshteyn.

20. Hayot va sevgini anglatuvchi rangni toping?

- A) qizil;
- B) pushti;
- V) oq;
- G) sariq;
- D) yashil.

21. Tinchlik va xotirjamlik ramzi bo'lgan rang?

- A) qizil;
- B) pushti;
- V) oq;
- G) sariq;
- D) yashil.

22. Gullar tili qaysi davlatda keng tarqalgan?

- A) Germaniya;
- B) Fransiya;
- V) Angliya;
- G) Ispaniya;
- D) Amerika.

23. Shaxslararo, shaxsiy, guruhiy, ommaviy kommunikatsiyalar muloqotning qaysi jarayonini ifodalaydi?

- A) funksiyalari;
- B) turlari;
- V) operatsiyalari;
- G) tomonlari;
- D) vazifalari.

24. Insonni boshqa tomonidan tushunilishining o'ziga xos xususiyati bu

.....

- A) identifikatsiya;
- B) stereotipizatsiya;
- V) refleksiya;
- G) empatiya;
- D) apatiya.

25. O'zaro birgalikdagi harakatning turlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) konkurensiya nizo;
- B) faoliyatga kirishish va undan chiqish;
- V) refleksiya va stereotipizatsiya;
- G) kooperatsiya va konkurensiya;
- D) empatiya va apatiya .

26. faoliyatni tashkil etish shakli bo'lib, ma'lum kishilar guruhi birgalikda bitta va turli bir-biri bilan bog'liq faoliyat jarayonida ishtirok etishi.

- A) kooperatsiya;
- B) konkurensiya;
- V) empatiya;
- G) apatiya;
- D) nizo.

27. "Biz insonni tashki xulq-atvoriga qarab o'qiyamiz" mazkur fikrning muallifi?

- A) A.A. Bodalev;
- B) S.L. Rubinshteyn;
- V) L.S. Vigotskiy;

G) Suxomlinskiy;

D) A.P.Anoxin.

28. “Boshqa odamni bila turib individning o‘zi ham shakllanadi” mazkur fikr muallifini aniqlang?

A) A.A.Bodalev;

B) S.L.Rubinshteyn;

V) L.S.Vigotskiy;

G) Suxomlinskiy;

D) A.P.Anoxin.

29. odamlar o‘rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog‘lanishlar, rivojlanishning ko‘p qirrali jarayonidir.

A) muloqot;

B) kommunikatsiya;

V) munosabat;

G) hamkorlik;

D) raqobat.

30. Ishonch va vafro ramzi bo‘lgan rang qaysi qatorda ko‘rsatilgan?

A) qizil;

B) pushti;

V) oq;

G) sariq;

D) ko‘k.

Nazorat savollari

1.Muloqot tushunchasining mohiyatini izohlang?

2.Muloqot turlarining mohiyatining izohlang?

3.Muloqot vazifalari nimalardan iboratligining ko‘rsating?

4.Muloqotning verbal vositalariga nimalar kiradi?

5.Muloqotning noverbal vositalariga nialar kiradi?


6.Muloqot shaxslararo o‘zaro tasir etish asosiy funksiyalari nimalardan iborat?

SHAXS

Shaxs haqida tushuncha

Shaxs tushunchasi keng va ko‘p qirralidir. Mehnat qila olish ko‘nikmasining mavjudligi, insonlar bilan birgalikda faoliyat munosabatni amalga oshirayotgan kishi asta – sekin shaxsga aylanib boradi. Bevosita moddiy dunyoni, jamiyatni va xususan o‘zini o‘rganish va faol tarzda qayta o‘zgartirish jarayonining subyektg aylanmoqda. Shu o‘rinda haqli bir savol tug‘iladi, ya’ni shaxs, individ, individuallik tushunchasining o‘zaro bog‘liqlik jihatlari mavjudmi? Buning uchun mazkur tushunchalarning mazmunini tahlil qilish samarali hisoblanadi. Shuning uchun ham dastlab individ tushunchasining mazmuniga to‘xtalish lozim. A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan “Umumiy psixologiya” darsligida “Individ” tushunchasida kishining nasl-nasabi ham mujassamlashgandir. Yangi tug‘ilgan chaqaloqni, katta yoshdagi odamni ham, mutafakkimi ham, aqli zaif ovsarni ham, yovvoyilik bosqichidagi qabilaning vakilini ham, madaniyatli mamlakatda yashayotgan yuksak bilimli kishini

ham individ deb hisoblash lozim. Individ tushunchasi professor E.G'oziyevning "Umumiy psixologiya" darsligida tavsiflanishicha, *individ* lotincha ajralmas, alohida zot ma'nolarini anglatib, inson zotiga xoslik masalasini belgilab beradi. Shuningdek, katta yoshdagi ruhiy sog'lom odamlar ham, chaqaloq ham, nutqi yo'q, oddiy malakalarni o'zlashtira olmaydigan aqli zaiflar ham individlar deb ataladi.



M.G.Davletshin tahriri ostida chiqqan "Psixologiyadan qisqacha izohli lug'atda" *individ* bo'linmas, ayrim jins, shaxs ma'nolarini anglatib, biologik turga kiruvchi alohida tirik mavjudot sifatida ko'rsatib o'tiladi. Keltirilgan ta'riflardan shuni xulosa qilish mumkinki *shaxs* deb muayyan jamiyatda yashovchi faoliyatning biror turi bilan shug'ullanuvchi, kishilar bilan normal til orqali munosabatga kirishuvchi ongli individga aytiladi. *Individ* sifatida dunyoga kelgan odam ijtimoiy muhit ta'sirida keyinchalik shaxsga aylanadi, shuning uchun bu jarayon ijtimoiy-tarixiy xususiyatga egadir. Dunyoga kelayotgan chaqaloqning gavda tuzilishi unda tik yurish uchun imkoniyatining mavjudligini taqozo etsa, miyasining tuzilishi aql-hushining rivojlanishi uchun imkoniyat tug'diradi, qo'llarining shakli shamoyili mehnat qurollaridan foydalanish istiqbollarning mavjudligini ko'rsatadi. Yuqorida aytilganlarning barchasida chaqaloqning inson zotiga mansubligini ta'kidlanadi va bu fakt individ tushunchasida qayd etiladi. Buni quyidagi sxema asosida tushuntirish lozim. Shaxsning eng muhim xususiyatli jihatlaridan biri – bu uning individualligidir. *Individuallik* deganda insonning shaxsiy psixologik xususiyatlarining betakror birikmasi tushuniladi. Individuallik kishining o'ziga xosligini, uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasidir. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, hukmron xususiyatlar yig'indisi, iroda, faoliyat motivlari, inson maslagi, dunyoqarashi, iqtidori, har xil shakldagi reaksiyalar, qobiliyatlari va shu kabilar kiradi. Individuallik individning boshqalardan farqlaydigan ijtimoiy xususiyatlari va psixikasining o'ziga xosligi hamda uning qaytarilmasligidir. Zikr etilgan psixologik xususiyatlarning bir xildagi birikmasini o'zida mujassamlashtirgan odam yo'q, inson shaxsi o'z individualligi jihatidan betakrordir.

“Endopsixika” va “ekzopsixika” haqida tushuncha

Hozirgi kunda asosiy muammolardan biri bir shaxsning boshqa odamlardan ajratib turadigan individual tuzilishga ega ekanligidir. Ushbu psixologik muammoni hal qilish shaxsning mazkur tuzilishining ichki sharoitlarida ifodalanuvchi xulq-atvorni oldindan bashorat qilish imkonini yaratadi.

Shaxs tuzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan ikkinchi masala esa bunday tuzilishning bir necha tarkibiy qismlarga ajratishni taqozo etadi binobarin, ushbu bo‘laklarning yig‘indisi yaxlit inson shaxsini vujudga keltiradi. Jahon psixologiya fanida psixologlar shaxsning psixologik tuzilishining tarkibiy qismlarini turli jihatlariga asoslanib, turkumlarga ajratishni tavsiya etmoqdalar.


Hozirgi zamon jahon psixologiyasida biologik (tabiiy) va ijtimoiy omillarning voqelikka ta’siri ostida shakllangan inson shaxsida ikkita muhim qism bo‘lganligini tasdiqlovchi nazariya yuksak mavqeni egallab turibdi. Mazkur nazariyaga binoan “*ichki psixik*” (“*endopsixik*” – yunoncha endo ichki degan ma’noni bildiradi) degan g‘oyani ilgari surdilar. Uning talqiniga ko‘ra, “*endopsixika*” shaxsning psixik tuzilishining ichki qismlari sifatida psixik elementlar va funksiyalarning o‘zaro bog‘liqligini aks ettiradi. Uning negizida insonning nerv-psixologik tuzilishi bilan “*endopsixika*” aynan bir narsa degan tushuncha tasdiqlanadi, chunki u odam shaxsining ichki mexanizmini yuzaga keltiradi. Psixik tuzilishning “*endopsixik*” qismi bo‘lsa, shaxsning tashqi muhitga nisbatan munosabatini, shaxsiga qarama-qarshi bo‘lgan barcha jihatlarini, shaxslararo va obyektiv munosabatini belgilaydi. “*Endopsixika*” o‘z navbatida shaxsning ta’sirlanishi, xotira, tafakkur, xayol kabi bilish jarayonlarining xususiyatlarini irodaviy zo‘r berish xislatlarini ixtiyorsiz harakatlarni va shu kabi fazilatlarini aks ettiradi. “*Ekzopsixika*” esa o‘z tarkibida shaxs munosabatlarining tizimini va uning qiziqishlari, mayllari, ideallari, maslagi ustunlik qiluvchi, hukmron hissiyotlarini, egallagan bilimlarni, tajribalarni qamrab oladi. Tabiiy asosga ega bo‘lgan “*endopsixika*” biologik shart-sharoitlarga bog‘liq bo‘lsa, “*ekzopsixika*” aksincha ijtimoiy voqeliklar ta’sir ostida yuzaga keladi, tarkib topadi va takomillashib boradi.

Ta’kidlab o‘tilgan, fikrlarni tasdiqlash maqsadida ular o‘tkazgan tajribalariga murojaat qilamiz. *Qo‘sh omillik nazariyasi* tadqiqotchilari tajribalarida 80-130 sm balandlikdagi odamning shaxs xususiyatlarini tarkib toptirish uchun o‘rganilgan. Buning natijasida ular shaxsi tuzilishida ko‘p xislatlari o‘xshashligi topilgan. Bunday odamlarning past (pakana) bo‘lishlaridan tashqari, ularning tuzilishida hech qanday nuqson va kamchilik yo‘q ekanligi aniqlangan. Bunday toifaga kiruvchi bolalarga xos kulguni hech bir tanqidsiz, o‘ta soddalikni, muayyan darajada emosional (hissiy) zo‘riqishni namoyon qiladigan vaziyatga nisbatan chidamlilikni, uyat hissining kamroq ekanligini uchratish mumkin. Shaxsning xislatlariga na “*endopsixika*”, na “*ekzopsixika*” qismlarini kiritish mumkin emas. Chunki shaxsning sifatleri mitti odamlarning mahsuli bo‘lib ular bo‘yicha nisbatan o‘z tengqurlari o‘rtasidagi farq aniqlangan davrdan e’tiboran shunday bir ijtimoiy vaziyatda paydo bo‘lishi, tarkib topishining takomillashishi tabiiydir. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, mitti odamlarga bo‘ydor kishilarga qaraganda boshqacha munosabat – ularni pisand qilmaslik, kamsitilish, ular ham barcha kabi narsalarni his qilishi, orzu qilishi,

ajablanishi, hayron qolishi sababli ularda shaxsning o'ziga xos tuzilishi vujudga keladi. Bunday yaqqol voqelik ularning ruhiy ezilishini, ba'zan boshqalarga, hatto o'zlariga nisbatan tajovuzkorona yo'l tutishlarini niqoblaydi, xolos. Mabodo biz mitti o'zlari bilan bab-baravar bo'lyi kishilar muhitida yashaydi deb tasavvur qilsak, u holda ularda ham tevarak-atrofdagi boshqa odamlardagi kabi mutlaqo boshqacha shaxsiy fazilatlar, xususiyatlar, xislatlar sifatlar mujassamlashishi mumkin bo'lar edi.

Jahon psixologiyasida shaxs nazariyalari

Jahon psixologiya fanida shaxsning kamoloti uning rivojlanishi to'g'risida xilma-xil nazariyalar yaratilgan bo'lib, tadqiqotchilar inson shaxsini o'rganishda turlicha pozitsiyada turadilar va muammo mohiyatini yoritishda o'ziga xos yondashuvga egadirlar. Mazkur nazariyalar qatoriga *biogenetik*, *sosiogenetik*, *psixogenetik*, *kognitiv*, *psixoanalitik*, *bixevioristik* kabilarni kiritish mumkin. Ularni quyidagi tizimda yaqqol ko'rish imkoniyatini beradi.



Biogenetik nazariyaning negizida yetilish bosh omil sifatida qabul qilingan bo'lib, qolgan jarayonlarning taraqqiyotini ixtiyoriy xususiyat kasb etib, ular bilan o'zaro aloqa tan olinadi, xolos. *Mazkur nazariyaga binoan, taraqqiyotning bosh omili biologik determinantlarga (aniqlov-chilarga) qaratiladi va ularning mohiyatida ijtimoiy-psixologik xususiyatlar keltirib chiqariladi.*

Taraqqiyot jarayonining o'zi biologik etilishning universal bosqichi sifatida sharhlanadi va talqin qilinadi. *Biogenetik qonunni F.Myuller va Gekkellar* kashf qilishgan, biogenetik qonuniyat fanning taraqqiyoti nazariyani tashkil qilganda hamda antidarvinchilarga qarshi kurashda muayyan darajada tarixiy rol o'ynagan. Biroq fanning individual va tarixiy taraqqiyoti munosabatlarini tushuntirishda qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yilgan. Jumladan, **biologik qonunga ko'ra, shaxs psixologiyasining individual taraqqiyoti (ontogenez) butun insoniyatni tarixiy taraqqiyotining (filogenez) asosiy bosqichlarini qisqacha takrorlaydi, degan g'oya edi.**

Biogenetik nazariyaning yirik namoyandalaridan bo'lmish amerikalik psixolog *S.Xoll* psixologik taraqqiyotning bosh qonuni deb "*rekapitulatsiya qonuni*"ni (filogenezni qisqacha takrorlanishini) hisoblaydi. Uning fikricha, ontogenezdagi *individual taraqqiyot filogenezning muhim bosqichlarini takrorlaydi*.

Biogenetik konsepsiyaning boshqa bir turi nemis "*Konstitutsion psixologiyasi*" (inson tana tuzilishiga asoslangan nazariya) namoyandalari tomonidan ishlab chiqilgan. (*E.Krechmer*) shaxs tipologiyasi negizida bir qancha biologik omillarni (masalan tana tuzilishining tipi va boshqalarni) kiritib, insonning jismoniy tipi bilan psixologik xususiyati o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud deb taxmin qiladi. *E.Krechmer* odamlarni ikkita katta guruhga ajratadi va uning bir boshida *sikloid toifasiga* xos (tez qo'zg'aluvchi, his-tuyg'usi o'ta barqaror), ikkinchi uchida *shizoid toifasiga* (odamovi, munosabatga qiyin kirishuvchi, his-tuyg'usi cheklangan) xos odamlar turishini aytadi. Bu taxmini u shaxs rivojlanishi davriga ko'chirishga harakat qiladi, natijada o'smirlarda sikloid xususiyatlari (o'ta qo'zg'aluvchanlik, tajovuzkorlik, affektiv tabiatlilik, ilk o'spirinlarda esa shizoidlik xususiyatlari) bo'ladi degan xulosa chiqaradi.

Biogenetik nazariyaning namoyandalari amerikalik psixologlar *A.Gezell*, *S.Xoll* taraqqiyotning biologik modeliga asoslanib ish ko'radilar va bu jarayonda muvozanat, integratsiya va yangilanish sikllari o'zaro o'rin almashinib turadi, degan xulosaga keladilar.

Psixologiya tarixida biologizmning eng yaqqol ko'rinishi *Zigmund Freydn* shaxsning barcha xatti-harakatlari (xulqi) ongsiz biologik mayllar yoki instinktlar bilan shartlangan, ayniqsa, birinchi navbatda u jinsiy maylga (libidoga) bog'liqdir.

Biologik nazariyaga qarama-qarshi bo'lgan nazariya sosiogenetik nazariya hisoblanadi. *Sosiogenetik yondashuvga* binoan shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlar jamiyatning tuzilishi ijtimoiylashish usullari va uni qurshab turgan odamlar bilan o'zaro munosabati vositalaridan kelib chiqqan holda tushuntiriladi. *Ijtimoiylashuv nazariyasiga ko'ra* inson biologik tur sifatida tug'ilib, hayotning ijtimoiy shart-sharoitlarining bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi.

G'arbiy Evropaning eng muhim nufuzli nazariyalaridan biri bu *rollar nazariyasidir*. Ushbu nazariyaning mohiyatiga binoan jamiyat o'zining har bir a'zosiga status (haq-huquq) deb nomlangan xatti-harakat (xulq)ning barqaror usullari majmuasini taklif qiladi. Inson ijtimoiy muhitda bajarishi shart bo'lgan maxsus rollari shaxsning xulq-atvor xususiyatlarida o'zgaralar bilan munosabat muloqot o'rtasida sezilarli iz qoldiradi.

AQShda keng tarqalgan nazariyalardan yana biri bu individual tajriba va bilimlarni egallash (mustaqil o'zlashtirish) nazariyasidir. Mazkur nazariyaga binoan shaxsning hayoti va uning voqelikka nisbatan munosabati ko'pincha ko'nikmalarni egallash, bilimlarni o'zlashtirishdan iborat bo'lib, uning samarasi qo'zg'atuvchini uzluksiz ravishda mustahkamlab borilishining mahsulidir. Bu nazariyaning tarafdorlari *E.Torndayk* va *B.Skinnerlar* hisoblanadi.

K.Levin tomonidan tavsiya qilingan "*Fazoviy zarurat maydoni*" nazariyasi psixologiya fani uchun (o'z davrida) muhim ahamiyatni kasb etadi. *K.Levinning nazariyasiga ko'ra*, individning xulqi (xatti-harakati) psixologik kuch vazifasini

o'tovchi ishtiyiq (intilish) maqsadlar bilan boshqarilib turiladi, va ular fazoviy zarurat maydonining ko'lamini va tayanch nuqtasiga yo'naltirilgan bo'ladi.

Psixologiyada *psixogenetik yondashish* ham mavjud bo'lib, u biogenetik, sosiogenetik omillarning qiymatini kamsitmaydi, balki psixik jarayonlar taraqqiyotini birinchi darajali ahamiyatga ega, deb hisoblaydi. Ushbu yondashuvni uchta mustaqil yo'nalishga ajratib tahlil qilish mumkin, chunki ularning har biri o'z mohiyati, mahsuli va jarayon sifatida kechishi bilan o'zaro tafovutlanadi.

Psixologiyaning irrashional (aqliy bilish jarayonlaridan tashqari) tarkibiy qismlari bo'lishi emosiya, mayl va shu kabilar yordamida shaxs xulqini tahlil qiluvchi nazariya *psixodinamika* deyiladi. Mazkur nazariyaning yirik namoyandalaridan biri amerikalik psixolog *E.Eriksondir*. U shaxs rivojini 8 ta davrga ajratadi va ularning har qaysisi o'ziga xos betakror xususiyatga egaligini ta'kidlaydi.

Kognitiv yo'nalishning asoschilari qatoriga *J.Piaje, J.Kelli* va boshqalarni kiritish mumkin.

J.Piajening intellekt nazariyasi ikkita muhim jihatga ajratilgan bo'lib, u *intellekt funksiyalari* va *intellekt davrlari* ta'limotini o'z ichiga qamrab oladi. Intellektning asosiy funksiyalari uyushqoqlik (tartiblilik) va adaptasiya (moslashish, ko'nikish) dan iborat bo'lib, intellektning *funksional invariantligi* deb yuritiladi.

Sobiq sovet psixologiyasida shaxsning rivojlanishi muammosi *L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, B.G.Ananov, L.I.Bojovich* singari yirik psixologlarning asarlarida o'z aksini topa boshlagan. Keyinchalik, bu masala bilan shug'ullanuvchilar safi kengayib bordi. Xuddi shu boisdan shaxsning tuzilishi, ilmiy manbai, rivojlanishning o'ziga xosligi bo'yicha yondashuvda muayyan darajada tafovutga ega. Hozirgi davrda shaxsning rivojlanishi yuzasidan mulohaza yuritilganda olimlarning ilmiy qarashlarini muayyan guruhlariga ajratish va undan so'ng ularning mohiyatini ochish maqsadga muvofiq. Ontogenezda shaxs taraqqiyotini bir necha bosqichlarga ajratish va ularning har biriga alohida ilmiy psixologik ta'rif berish nuqtai-nazaridan yondashishni quyidagi nazariya va yo'nalishlarini ko'rsatib berish mumkin. *Jumladan, rivojlanishdagi inqirozga binoan* (L.S.Vigotskiy); *motivatsion yondashish* (L.I.Bojovich); *faoliyatga ko'ra munosabat* (D.B.Elkonin); *shaxsning ijtimoiylashuv xususiyatiga e'tiboran* (A.V.Petrovskiy); *shaxsning tutgan pozitsiyasini hisobga olib* (D.I.Feldshteyn) va hokazo.

Shunday qilib, jahon va hamdo'stlik mamlakatlari psixologlari tomonidan bir qator puxta ilmiy-metodologik asosga ega bo'lgan shaxsning rivojlanishi nazariyalari ishlab chiqilgan. Ularning aksariyati ontogenezda shaxsning shakllanishi qonuniyatlarini ochishga muayyan hissa bo'lib, xizmat qiladi, amaliy va nazariy muammolarni echishda keng ko'lamda qo'llaniladi.

Sobiq sovet psixologiyasida shaxs ta'rif

Umumiy psixologiya fanida shaxsning shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlari hamda ularning mexanizmlari tadqiq etiladi. Bu borada psixologlar tomonidan shaxsga nisbatan turlicha ta'rif berilgan va uning tuzilishini o'ziga xos

tarzda tasavvur qilishgan. Quyida mualliflar tomonidan keltirilgan ta'riflar tahlillarining keltirib o'tamiz.

A.G.Kovalyovning fikricha, *shaxs* – bu ijtimoiy munosabatlarning ham obyekt ham subyektidir. *A.N.Leont'ev* ushbu masalaga boshqacharoq yondashadi va unga shunday ta'rif beradi: *shaxs* faoliyat subyektidir. *K.K.Platonovning* talqiniga binoan jamiyatda o'z rolini anglovchi, jamiyatning ishga layoqatli, yaroqli a'zosi *shaxs* deyiladi. Bu muammo mohiyatini chuqurroq ochishga harakat qilgan *S.L.Rubinshteyn* ta'rificha, *shaxs* – bu tashqi ta'sirlar yo'nalishini o'zgartiruvchi, ichki shart-sharoitlar majmuasidir.

Psixologiya fanida bir-biriga yaqin, lekin o'zaro farqlanib turuvchi tushunchalar qo'llanib kelinadi, chunonchi odam, shaxs, individuallik. Ularning mohiyatini aniqroq izohlab berish, har birining psixologik tabiatini tahlil qilish maqsadga muvofiq:

1. Odam sut emizuvchilar sinfiga dahldorligi biologik jonzot ekanligi odamning o'ziga xos xususiyatidir. Tik yurishlik qo'llarning mehnat faoliyatiga moslashganligi, yuksak taraqqiy etgan miyaga egaligi, sut emizuvchilar tasnifiga kirishi, uning o'ziga xos tomonlarini aks ettiradi. Ijtimoiy jonzot sifatida odam ong bilan qurollanganligi tufayli borliqni ongli aks ettirish qobiliyatidan tashqari o'z qiziqishlari va ehtiyojlariga mutanosib tarzda uni o'zgartirish imkoniga ham egadir.

2. Shaxs mehnat tufayli hayvonot olamidani ajralib chiqqan. Jamiyatda rivojlanuvchi til yordami bilan boshqa kishilar bilan (muloqot) muomalaga kirishuvchi odam shaxsga aylanadi. Ijtimoiy mohiyati shaxsning asosiy tavsifi hisoblanadi.

3. Individuallik – har qanday insonning betakror, o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Shaxsning o'ziga xos qirralarining mujassamlashuvi individuallikni vujudga keltiradi. Individuallik shaxsning intellektual, emosional va irodaviy sohalarida namoyon bo'ladi.

Sobiq sovet psixologiyasida shaxs tuzilishiga doir qator manbalar keltirilgan. Jumladan, S.L.Rubinshteyn bo'yicha shaxs tuzilishi quyidagi ko'rinishga ega:

1. *Yo'nalganlik* – ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar, e'tiqodlar faoliyat va xulqning ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarda ifodalanadi.

2. *Bilimlar, ko'nikmalar, malakalar* – hayot va faoliyat jarayonida egallanadi.

3. *Individual tipologik xususiyatlar* – temperament, xarakter, qobiliyatlarda aks etadi.


K.K.Platonov ta'limotiga ko'ra shaxs tuzilishi quyidagicha shaklga ega:

1. *Yo'nalganlik osttuzilishi* – shaxsning ahloqiy qiyofasi va munosabatlarini birlashtiradi. Unda harakatchanlik, barqarorlik jadallik ko'lami (hajmi) darajalarini farqlash lozim.

2. *Ijtimoiy tajriba osttuzilishi* – ta'lim natijasida shaxsiy tajribada egallangan bilimlar, ko'nikmalar, malakalar va odatlarni qamrab oladi.

3. *Psixologik aks ettirish shakllari osttuzilishi* – ijtimoiy turmush jarayonida shakllanuvchi bilish jarayonlarining individual xususiyatlari.

4. *Biologik shartlanganlik osttuzilishi* – miya morfologik va fiziologik xususiyatlariga muayyan darajada bog'liq bo'lgan patologik o'zgarishlarni, shaxsning yosh, jins xususiyatlarini va uning tipologik holatlarini birlashtiradi.



A.G.Kovalyov taqliniga binoan shaxs quyidagi tuzilishga ega:

1. *Yo'nalganlik* – voqelikka nisbatan inson munosabatini aniqlaydi, unga o'zaro ta'sir etuvchi har xil xususiyatli g'oyaviy va amaliy ustanovkalar, qiziqishlar, ehtiyojlar kiradi. Ustuvor yo'nalganlik shaxsning barcha psixik faoliyatini belgilaydi.

2. *Imkoniyatlar* – faoliyatning muvafaqqiyatli amalga oshirishini ta'minlovchi tizim, o'zaro ta'sir etuvchi va o'zaro bog'liq bo'lgan turlicha qobiliyatlar.

3. *Xarakter* – ijtimoiy muhitda shaxsning xulq-atvor uslubini aniqlaydi. Odamning ruhiy hayoti shakli va mazmuni unda namoyon bo'ladi. Xarakter tizimi irodaviy va ma'naviy sharoitlarga ajraladi.

4. *Mashqlar to'plami* – hayot va faoliyat, harakat va xulq-atvorni tuzatish (korreksiyalash), o'zini o'zi nazorat qilish, o'zini o'zi boshqarishni ta'minlaydi.

Shaxsning faolligi

Shaxs o'zining faoliyati tufayli tevarak-atrofdagi olam bilan faol munosabatda bo'ladi. *Shaxsning faolligi* deganda odamning atrofdagi tashqi muhitga ko'rsatadigan ta'siri tushuniladi. Tashqi muhit bilan faqat odamlar emas, hayvonlar ham o'zaro munosabatda bo'ladilar. Lekin hayvonlar tashqi muhitga moslashib yashaydilar, odamlar esa tashqi muhitga moslashibgina qolmasdan, uni o'zgartirishga ham qodirlar. Shaxsning faolligi uning turli qiziqishlarida, ehtiyojlarida namoyon bo'ladi. *XX asr boshlarida* avstriyalik psixolog *Z.Freyd* shaxs faolligini quyidagicha tushuntiradi. Odam o'zining avlodlaridan nasliy yo'l bilan o'tgan instinktiv mayllarining namoyon bo'lishi tufayli faoldir, instinktiv mayllar asosan jinsiy instinktlar shaklida namoyon bo'ladi. *Z.Freyd* shaxsning faolligini jinsiy mayllar bilan bog'laydi. Shaxsning faolligini hozirgi zamon ilmiy psixologiyasi to'g'ri hal qilib beradi. Inson shaxsiy faolligining asosiy manbai uning *ehtiyolar*, deb tushuntiradi. Psixologik nuqtai nazardan borliq to'g'risida mulohaza yuritilganda, tirik mavjudotlarning (oddiy tuzilishga ega bo'lganidan tortib, to murakkabigacha) tevarak-atrof bilan hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan turli xususiyatli bog'lanishlarni ta'minlab turuvchi faoliyati (qaysi darajasi, shakli ekanligidan qat'iy nazar) ularning

barchasi uchun umumiy bo'lgan xususiyat hisoblanadi. Ularning faolligi tufayli murakkab tuzilishli faoliyat yuzaga kelib, (ongning mahsuli sifatida) turli-tuman mohiyatli har xil ko'rinishdagi ehtiyojlar (ularning toifalarga aloqadorligi kelib chiqishi jihatidan biologik, moddiy, ma'naviy va boshqalar)ni qondirish uchun xizmat qiladi. Xuddi shu boisdan faollik faoliyatning asosiy mexanizmlaridan biri bo'lib, tirik mavjudotlarning o'z imkoniyati darajasida tashqi olam ta'sirlariga javob qilish uquvchanligining tarkibi sanaladi. Shu o'rinda *A.Maslouning ehtiyojlar* ierarxiasini keltirib o'tish zarur.



Psixologik manbalarga asoslanib, fikr yuritishimizda *ehtiyoj* – jonli mavjudotning tobe ekanligini ifoda etuvchi va mazkur shart-sharoitlarga nisbatan faolligini namoyon qiluvchi holat tariqasida ifodalaniladi.

Insonning faolligi boshqa mavjudotlardan ham mohiyat, ham shakl jihatidan tafovutga ega bo'lib, yuzaga kelgan ehtiyojlarning turli vaziyatlarda qondirilishida o'z ifodasini topadi. Jumladan, mavjudotlar va hayvonlar o'zlarining tanasi va uning a'zolari tuzilishiga, instinktlarning turli-tumanligiga binoan, o'z o'ljasini tutib olishga nisbatan intilishni vujudga keltiruvchi tabiiy imkoniyati uni oldindan payqash, sezgirlik orqali zudlik bilan faol harakat qiladi. Hayvonlar ehtiyojlarining qondirilish jarayoni qanchalik maqsadga muvofiq ravishda kechgan bo'lsa, bu esa o'z navbatida ularning qurshab olgan yashash muhitiga engillik bilan moslashuvini ta'minlaydi. *Masalan*, asalari xatti-harakatlarining tug'ma, irsiy dasturida uning gullarga qo'nib,

nektar yig'ish ehtiyojlari bilan cheklanib qolmasdan, balki bu ehtiyojlarni qondirish obyektlari (gullarning navlari, ularning uzoq va yaqinligi, qaysi tomonda joylashganligi, mo'l-ko'lligi kabilar va hokozo) aks etadi. Shu boisdan mavjudotlarning ehtiyojlarida ularning faolligi omili sifatida tabiiy alomatlar instinktlar, shartsiz reflekslar va hokazolar bevosita qatnashadi.

Odamning ehtiyoji unga ta'lim va tarbiya berish jarayonida shakllanadi, ya'ni insoniyat tomonidan yaratilgan ijtimoiy tajriba, ko'nikma, malaka, odat, ma'naviyat, qadriyatlar bilan yaqindan tanishishi ularni o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Tabiat tomonidan vujudga keltirilgan jism, narsa, buyum inson uchun biologik ehtiyojni qondiruvchi o'lja ma'nosini va ahamiyatini yo'qotadi. Odam boshqa mavjudotlardan farqli o'laroq, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davrining xususiy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi muayyan buyumni zaruriyat talabiga binoan tubdan qayta o'zlashtirishga, takomillashtirishga qodir ongli zotdir. Xuddi shu boisdan, odamning o'z ehtiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot darajasi bilan o'lchanadigan faoliyat shakli va turini egallashning faol muayyan maqsadga yo'naltirilganligi, ma'lum rejaga asoslangan ijodiy ko'rinishi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Insondagi tor ma'nodagi ehtiyojlar uning shaxsiy talablarini qondirish bilan cheklanib qolmasdan, balki hamkorlik faoliyatida yuzaga keluvchi jamoaviy ehtiyojlar yakkaxolligiga oid xususiyat kasb etadi. Aytaylik, ma'ruza o'qishga taklif qilingan mashg'ulotga o'qituvchining puxta tayyorgarligi o'z predmetining o'ta fidoiysi ekanligi uchun emas, balki jamoa nufuziga dog'tushirmaslik mas'uliyati ijtimoiy burch hissiga nisbatan ehtiyoj sezganligi tufayli amalga oshadi. Shaxsiy ehtiyoj guruhiy, jamoaviy munosabatlar uyg'unlashib ketganligi sababli o'zaro qorishiq xususiyatiga ega bo'ladi. Har qanday individual faoliyatga nisbatan ehtiyojning tuzilishi ijtimoiy alomat, umumiylik, hamkorlik xususiyatini kasb etib, faoliyatga yondashuvda yakkaxollik umumiylikni, umumiylik esa alohidalikni uzluksiz ravishda beto'xtov aks ettirib turadi.

Psixologiya fanida ehtiyojlarni tasniflash ularni kelib chiqishi va o'z predmetining xususiyatiga binoan amalga oshiriladi.

Odatda o'zlarining kelib chiqishiga binoan ehtiyojlar *tabiiy* va *madaniy* turga ajraladi.

Tabiiy ehtiyojlarda inson faoliyati faolligi o'z shaxsiy hayotini himoya qilish, o'z avlodi hayotini saqlash, uni qo'llab-quvvatlash uchun zaruriy shart-sharoitlarga yuritilganlik, tobelik aks etadi. *Tabiiy ehtiyojlar* tarkibiga odamlarning ovqatlanishi, tashnalikni qondirishi, jinsiy moyillik, uxlash, issiq va sovuqdan saqlanish, musaffo havoga intilish tana a'zolariga dam berish kabilar kiradi. *Tabiiy ehtiyojlar* uzoq vaqt davomida qondirilmasa, uning oqibatida inson halokatga mahkum bo'ladi, o'z sulolasi hayoti va faoliyatini xavf ostida qoldiradi.

Inson faoliyatining faolligi insoniyat madaniyati mahsuli bilan bog'liqligini ifodalab, madaniy ehtiyojlarni yuzaga keltiradi. Madaniy ehtiyojlar to'g'risida mulohaza yuritilganda uning ijtimoiy ildizlari kishilik tarixining dastlabki manbalari bilan uzviy bog'lanib ketishini ta'kidlab o'tish lozim.

Lekin tabiiy ehtiyojlar madaniy ehtiyojlar bilan o'zaro uyg'unlashgan bo'lib, birinchisi ikkinchisini taqozo etadi. Chunki ular bir-birining negizidan kelib chiqadi. Xuddi shu boisdan madaniy ehtiyojlar obyektiga tabiiy ehtiyojlarini qondiruvchi uy-

ro'zg'or buyumlari, mehnat faoliyati orqali boshqa kishilar bilan bog'lanish vositalari, madaniy aloqalar o'rnatish usullari, shaxslararo muomalaga kirishish uslublari, ijtimoiy turmush zaruriyatiga aylangan narsalar, o'qish va tajriba orttirish yo'llari kiradi. Odatda jamiyatda ta'lim va tarbiya tizimini egallash, xalq an'analari, marosimlari, bayramlari, odatlari rasm-rusumlari, xulq-atvor ko'nikmalarini o'zlashtirish jarayonida rang-barang madaniy ehtiyojlar vujudga keladi, yangicha ma'no kasb eta boshlaydi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, tabiiy ehtiyojlar qondirilmasa, ular insonni halokat yoqasiga etaklaydi, biroq madaniy ehtiyojning qondirilmasligi unday oqibatlariga olib kelmaydi, uning kamolotini sekinlashtiradi.

Psixologiya fanida *ehtiyojlar o'z predmetining xususiyatiga ko'ra moddiy va ma'naviy turlarga* ajratiladi, ularni keltirib chiqaruvchi mexanizmlar manbai turlicha ekanligi e'tirof etiladi.

Insonning ovqatlanishi, kiyinishi, uy-joyga ega bo'lishi, maishiy turmush ashyolariga intilishi, komfort hissini qondirish bilan bog'liq madaniyat predmetlariga nisbatan ehtiyoj sezish moddiy ehtiyojlar majmuasini yuzaga keltiradi. Ma'naviy madaniyatni yaratish va o'zlashtirish shaxsning o'z fikr-mulohazalari va his-tuyg'ulari bo'yicha boshqa odamlar bilan muomalaga kirishishi hamda axborot almashtirishi, badiiy va ilmiy adabiyotlar bilan tanishishi, mahalliy matbuotni o'qish, kino va teatr ko'rish, musiqa tinglash kabilarga ehtiyoj sezish, ya'ni ijtimoiy ong mahsuliga tobeklik ma'naviy ehtiyojlar tizimini vujudga keltiradi.

Ma'naviy ehtiyojlar moddiy ehtiyojlar bilan uzviy bog'liq bo'lib vujudga kelgan ma'naviy ehtiyojlarni qondirish jarayoni moddiy ehtiyojning tarkibiga kiruvchi moddiy narsalar yordamida amalga oshiriladi, chunonchi kitob, yozuv qog'ozi va boshqalar.

Ehtiyojning turlari haqida fikr bildirilganda yana shu narsaga e'tibor berish kerakki, kelib chiqishiga binoan tabiiy turga taalluqli ehtiyoj o'z predmetiga ko'ra moddiy guruhga xuddi shu mezonlar bo'yicha bir davrning o'zida madaniy ehtiyojning moddiy yoki ma'naviy ehtiyoj turkumiga kiritish mumkin. Shu tariqa ehtiyojning kelib chiqishi va predmeti, xususiyati bo'yicha ikki mezoniga asoslanib, muayyan guruhlariga ajratiladi. Inson ongining tarixiy taraqqiyotiga nisbatan va ehtiyojning obyektiga bo'lgan munosabatiga binoan har xil tasniflanadi va xuddi shu mezonlarga ko'ra ular rang-barang turlarga ajratiladi. Ularning izchilligi, barqarorligi, davomiyligi, ko'lami, ahamiyatligi, predmetligi, ijtimoiyligi, individualligi kabi xususiyatlari bilan o'zaro bir-biridan farqlanadi. Ehtiyojlar faoliyati va xulq-atvor motivlari bilan teng aloqada bo'ladi.

Psixologiya fanida ehtiyoj quyidagi tiplarga ajratiladi:

1. Individual – yakka shaxsga yo'naltirilgan.

2. Guruhiy – real guruhlariga moddiy va ma'naviy intilish.

3. Jamoaviy – jipslashgan guruhlar talabi majmuasi.

4. Hududiy – etnik guruhning muayyan o'ziga xos talablarini qondirilishi.

5. Etnik – ma'lum millat yoki xalqlarning safarbarligini ta'minlash.

6. Umumbashariy – er yuzi xalqlarining umumiy talablarining majmuaviy aks etishi.

Inson shaxsining faolligi uning qiziqishlarida ham namoyon bo'ladi. Qiziqish shaxsning muhim psixologik jabhalaridan biri hisoblanib, unda insonning individual

xususiyati bevosita mujassamlashadi. *Qiziqish* – insonlarning dunyoqarashi, e'tiqodlari, ideallari, ya'ni uning oliy maqsadlari, orzu niyatlari, orzu umidlari bilan bevosita muhim rol o'ynaydi hamda ularning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Qiziqishlarning klassifikatsiyasi va ularning mazmuni quyidagi jadvallarda ifodalanadi.



Qiziqish bilimlarni ongli, puxta, barqaror, anglagan holda o'zlashtirishda, shaxs qobiliyati, zehni, uquvchanligini rivojlantirishga, olamni mukammalroq tushunishga, bilim saviyasining kengayishiga yordam beradi.

Qiziqish motiv singari borliqning mo'jizakor tomonlarini bilishga, fan asoslarini egallashga, faoliyatning turli-tuman shakllariga nisbatan ijodiy yondashishni vujudga keltiradi, mehnatga, ta'limga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishni shakllantiradi, har qaysi yakkahol (individual) shaxsga ishchanlik, g'ayrat-shijoat, engilmas irodani tarkib toptirishga puxta psixologik shart-sharoitlarni yaratadi.


Qiziqishning psixologik mohiyatidan kelib chiqqan holda yondashilganda, qiziqish, insonga intilish, faollik, ichki turki ehtiyojni ro'yobga chiqarish manbai, rolini bajaradi.

Qiziqish muammosi psixologik nuqtai nazardan *L.A.Dobrinin, N.D.Levitov, M.F.Belyayev, L.A.Gordon, L.I.Bojovich, N.G.Mordova, M.G.Davletshin, M.V.Vohidov, E.G'G'oziyev* va boshqalarning nazariy metodologik xususiyatga ega bo'lgan asarlarida hamda maxsus eksperimental tadqiqotlarida rivojlantirildi.

Qiziqishni psixologik mohiyatining dastlabki ko'rinishi – bu odamlar tomonidan anglab etish yoki tushunish imkoniyatidir. Shaxs qiziqish mahsulini, uning oqibatini anglash, tasavvur etish orqaligina obyektiv borliqdagi narsa va hodisalarga ongli, tanlab munosabatda bo'ladi. Lekin bu voqelik (anglash, tushunish) insonda birdaniga sodir bo'lmaydi, balki muayyan vaqt davomida unda bilish jarayonlari, shaxsiy fazilatlarini, individual-tipologik xususiyatlari rivojlanishi tufayli yuzaga keladi. Inson o'z shaxsiy qiziqishini qondirgandan keyin unda yoqimli his-tuyg'ular

uyg'onadi, ruhiy qoniqish esa o'z navbatida lazzatlanish (praksik) hissini vujudga keltiradi, buning natijasida frustrasiya (ruhiy tushkunlikka tushish) uning shaxsiyatini egallaydi.

Shu o'rinda qiziqishlarning tarkibiy qismlar sifatida quyidagilarni keltirib o'tish joiz:



Qiziqishni psixologik mohiyatining uchinchi ko'rinishi-uning irodaviy sifatlar bilan umumlashgan tarzda vujudga kelishidir. Irodaviy zo'r berish, muayyan qaror bo'yicha intilish, ba'zi qiyinchiliklarni yengish, mustaqillikni namoyon qilish xususiyatini qaror toptiradi, shaxsni maqsad sari etaklaydi.

Qiziqishni psixologik mohiyatining to'rtinchi ko'rinishi-uni oliy nerv faoliyati xususiyatlari va temperament tiplari bilan birga mujassamlashgan holda namoyon bo'lishidir.

Qiziqishning nerv-fiziologik mexanizmlari to'g'risida mulohaza yuritilganda, dastavval rus olimi *I.P.Pavlovning* oliy nerv faoliyati haqidagi ta'limotini ta'kidlab o'tish joiz, uning "*bu nima?*" refleksi, ya'ni orientirovka (mo'ljal olish) refleksi qiziqishning moddiy negizini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi. *I.P.Pavlov* va uning shogirdlaridan keyin *P.K.Anoxin*, *N.A.Bernshteyn*, *B.M.Teplov*, *V.S.Merlin*, *V.D.Nebilitin* va boshqalar insondagi qiziqishning nerv-fiziologik mexanizmlarini bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'ida orientirovka refleksi negizida murakkab muvaqqat bog'lanishlarning vujudga kelishidir, degan tarzda talqin qildilar. Qiziqishning moddiy asoslari o'zaro induksiya qonuni, po'stloqdagi optimal qo'zg'alish o'chog'i va *dinamik stereotiplar* (*I.P.Pavlov*), *dominanta* (*A.A.Uxtomskiy*), *orientir murakkab psixofiziologik hodisa ekani* (*E.N.Sokolov*) va boshqalar bo'lib hisoblanadi.

Psixologiyada qiziqish mana bunday tiplarga ajratilishi mumkin:

- *Mazmuniga ko'ra:* shaxsiy va ijtimoiy;
- *Maqsadiga binoan:* bevosita va bilvosita;

- *Ko'lamiga qaraganda*: keng va tor;
- *Qiziqishlar darajasi bo'yicha*: barqaror va beqaror va boshqalar.

Qiziqishning mazmun jihatidan o'zaro tafavutlanishi quyidagilarda mujassamlashadi: bilish ehtiyojlarining obyektlari qaysilar, bilimning mazkur faoliyat maqsadi bilan mutanosibligi; shaxsning yashayotgan muhitiga nisbatan munosabati kabilar.

Qiziqishning maqsad jihatidan farqi bevosita va bilvosita namoyon bo'ladigan qiziqishlarning voqelik, jismlar va hodisalarning emosional jozibaliligi, his-tuyg'ularga ega bo'lishligi, tashqi ta'sirlarga beriluvchanligi tufayli vujudga keladi. Bevosita qiziqishlar o'rganilayotgan narsaning ma'nosi bilan uning shaxs faoliyati uchun ahamiyati moc tushgan taqdirda paydo bo'lishi mumkin. Psixologiyada bevosita qiziqishning yuzaga kelishi faoliyatning maqsadini anglash bilan bog'liq bo'lgan bilishni *ehtiyoj* deb atash qabul qilingan. U yoki bu narsalarni (hodisalar mohiyatini) bilish, ko'rish, idrok qilish, anglab etish uchun qiziqarli tuyulgan ichki kechinmalar bevosita qiziqishni aks ettiradi. Bilvosita qiziqishlar mehnat faoliyati yoki ta'lim olish jarayonining muayyan ijtimoiy ahamiyati bilan uning shaxs uchun subyektiv ahamiyati o'zaro mos tushganida bilvosita qiziqish yuzaga keladi. Mehnat faoliyati va ta'lim jarayonini ongli tashkil etish etakchi va ustuvor rol o'ynaydigan bilvosita qiziqishlarni tarkib toptirish uchun maxsus tamoyillarga, omilkor yo'l-yo'riqlarga o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

Odamlarning qiziqishlari o'zining ko'lami bilan bir-biridan farq qiladi. Shunday shaxslar toifasi ham mavjudki, ularning qiziqishlari faqat bir sohaga qaratilgan bo'ladi. Boshqa bir toifaga taalluqli odamlarda esa qiziqishlar qator sohalarga, fanlarga, obyektlarga yo'naltirilganini uchratishimiz mumkin. Lekin turli sohaga nisbatan qiziqishlarning biri, agarda ularni oqilona boshqarish imkoniyatiga bo'lsa, *ikkinchisiga* salbiy ta'sir etishi mumkin emas, Qiziqishning torligi ko'pincha salbiy hodisa sifatida baholanishi mumkin, lekin ayni chog'da ularning kengligi ham nuqson tariqasida tahlil qilinsa bo'ladi. Biroq shaxsning barkamol shaxs bo'lib kamol topishi qiziqishlar ko'lamini tor emas, balki keng miqyosda bo'lishini taqazo etadi.

Qiziqishlar o'zlarining darajasiga qarab *barqaror va beqaror turlarga* ajratiladi. *Barqaror qiziqishga* ega bo'lgan shaxs uzoq vaqt davomida yoqtirgan predmetlariga, obyektlariga, hodisalarga nisbatan o'z maylini hech o'zgarishsiz saqlab tura oladi. Shu boisdan inson ehtiyojlarini o'zida mujassamlashtiruvchi, shaxsning ruhiy fazilatiga aylana boshlagan qiziqishlar barqaror qiziqishlar deyiladi.

Inson shaxsi xulq-atvorining o'z motivlari bo'ladi. *Motiv* – ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq bo'lgan qandaydir faoliyatga moyillikdir. Agar ehtiyojlar inson shaxsi faolligining mohiyatini tashkil etsa, motivlar bu mohiyatning namoyon bo'lishidan iboratdir. Shaxsning ehtiyojlari motivlar bilan bog'liqdir. Shuning uchun motivlar bir-biridan ehtiyoj turlariga qarab farqlanadi. *Masalan*, moddiy ehtiyojning qondirilishi bilan bog'liq bo'lgan motivlar yoki ma'naviy ehtiyojlarning qondirilishi bilan bog'liq bo'lgan motivlar bo'lishi mumkin. Motivlar anglanilgan va anglanilmagan bo'lishi mumkin. Anglanilmagan motivda odam nimanidir istaydi, ammo o'sha narsa nimaligini tasavvur qila olmaydi. Demak, motivlar inson shaxsi hulq-atvorini va turli faoliyatlarini harakatga keltiruvchi sababdir. Xatti-harakatlarning muhim motivi e'tiqoddur. *E'tiqod* – shaxsning o'z qarashlari,

tamoyillari, dunyoqarashiga mos ravishda harakat qilishga undovchi anglanilgan ehtiyojlar tizimidir. Tilaklar ham xatti-harakat motivlari bo'lib, bu motivlarda mazkur vaziyatda bevosita bo'lmagan yashash va taraqqiy etish sharoitlarida ehtiyojlar o'z ifodasini topadi.

Faoliyatga nisbatan anglanilmagan mayllar borasida eng ko'p o'rganilgan masala *ko'rsatma berishdir*. Bu masala gruzin psixologi D.N.Uznadze va uning xodimlari tomonidan ishlangan. *Ko'rsatma berish* deganda bilish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlarni ma'lum usulda qondirishga tayyor turish tushuniladi. Talabalar o'qituvchilar beradigan topshiriqlarni bajarishga doim tayyor turadilar.

Shaxsning malaka va odatlari

Har bir odam bilim bilan birga malaka va odatlarni egallaydi. Malakalar bir necha xil bo'ladi (yozish, o'qish, yurish, musiqa chalish, sport va hokazo). Maqsadni ko'zlab biror nima bajarish malakaga bog'liqdir. *Malaka* – deb avval ongli bajarilib, keyinchalik avtomatlashgan xatti-harakatlarga aytiladi. Istalgan malakani qayta-qayta takrorlash natijasida hosil qilish mumkin. Malakalar *sodda va murakkab* bo'lishi mumkin. *Masalan*, mashina haydash, musiqa chalish, kasb egallash murakkab malaka, mix qoqish, o'tin arralash-*sodda malaka* hisoblanadi. Malakalarni mashq qilish natijasida egallanadi. Shaxsda malakadan tashqari odatlar ham bo'ladi. *Odat* kishi qalbiga o'mashib, uning ehtiyojiga aylanib qolgan harakatlardir. *Masalan*, ertalab turib yuvinish, ovqatlanish, ozoda yurish kabilar. Odatlar *ijobiy va salbiy* bo'ladi. *Salbiy odatlarga* yolg'on gapirish, ichish, chekish kabilar kiradi. Malaka va odatlarning nerv-fiziologik asoslarini *shartli refleksning hosil bo'lish mexanizmi* tashkil qiladi. Bu shartli refleks oddiy emas, balki dinamik stereotip tarzidagi, ya'ni takrorlash natijasida mustahkamlangan shartli reflekslar majmuasidan iborat. *Masalan*, bola bolalar bog'chasiga o'rganguncha qiynaladi, chunki undagi sharoitga ularda dinamik stereotip hosil bo'ladi. Yangi hosil qilinadigan malakalar ilgari hosil qilingan malakalarga bog'liq bo'ladi. Ilgarigi malakalar yangisiga ijobiy ta'sir qilsa, malakalarning kuchayishi kuzatiladi. *Masalan*, chet tillaridan birortasini o'rgangan odam boshqa bir chet tilini o'rganishda qiynalmaydi. Agar ilgari malaka yangisini hosil qilishga salbiy ta'sir qilsa malakalar *interferensiyasi* deyiladi. *Masalan*, bir sohada ishlagan odam butunlay boshqa sohaga o'tsa qiynaladi. Shaxs shug'ullanayotgan ishi bilan uzoq vaqt shug'ullanmasa *malakalar so'nishi hodisasi* kuzatiladi. Bu *malakalarning diavtomatizatsiyasi* deyiladi. Malakalarning hosil bo'lish negizi va mustahkamlanishi odamning yoshiga bog'liq, *masalan* tilga 4-5 yoshda tez o'rganiladi. Hunar egallash 12-13 yoshda tez o'rganiladi. Malakalarning mustahkamligi qiziqishlarga, shaxsning individual xususiyatlariga hamda asab tizimiga bog'liq bo'ladi. *Masalan*, xoleriklarda malaka tez, melanxoliklarda sekin hosil bo'ladi.

Demak, malakalar shaxsning tarkib topishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shaxsni individualligi uning ijtimoiy munosabatlarida belgilanadi. Bu borada quyidagi fikrlarni keltirib o'tish joiz. Atoqli psixolog *K.K.Platonov* shaxsni "konkret odam yoki dunyoni yaratuvchi subyektdir", *L.I.Bojovich* esa "odam o'zini anglash jarayonida yaxlitligini idrok qiladi, unda "Men" degan tushuncha paydo bo'ladi" deb

ta'kidlaydilar. *A.N.Leontevning* "Faoliyat, Ong, Shaxs" degan kitobida shaxs haqida ajoyib fikrlar mavjud. "Bu oliy olam birligi hayotida doimiyligini saqlaydi, har qanday sharoitda shaxsligicha boshqalar ko'z o'ngida va o'z ko'z o'ngida qoladi".

Mazkur fikrlardan ko'rinadiki, shaxs o'zini o'zi anglashga qodir, ijtimoiy munosabatlarning subyektini, o'zini o'zi anglash imkoniyatiga ega bo'lgan ongli mavjudot sifatida e'tirof etiladi. Shu bois, insonlar jamoasi, ijtimoiy tarixiy jarayonlarining ta'sirida kamolga yetadi.

Shaxsning psixologik tuzilishi modellari tahlili

Shaxsning tuzilishi to'g'risidagi muammo o'zining tadqiqot doirasi predmetidan tashqariga chiqadi. Shaxs tuzilishiga oid ilmiy tasavvurlarning yaratilishi, ishlab chiqilishi yaxlit nazariyaning zaruriy sharti hisoblanib, insonning ijtimoiy mohiyati qirralarini ochish imkoniga egadir. Xuddi shu boisdan psixologiya hamda uni talqin qilish yuzasidan falsafa, pedagogika, tibbiyot singari fanlarning namoyandalari tomonidan turlicha fikrlar bildirilayotganligi bunga yaqqol misoldir.

Psixologiya fanida shaxsga strukturaviy yondashish bo'yicha eng salmoqli ilmiy izlanishlar amalga oshirilganligi qonuniy holat bo'lib, shaxs tuzilishning xilma-xil modeli yaratilganligi fikrimizning yorqin dalilidir. **B.G.Anan'evning fikricha**, psixologik hodisalarni aql (intellekt), hissiyot (emosiya) va irodaga ajratish jarayonini inson psixologiyasida strukturaviy yondashish tajribasining dastlabki ko'rinishi bo'lib, uning haqchilligi ko'pgina psixologlar tomonidan tan olingan. **L.S.Vigotskiyning mulohazasiga ko'ra**, insonning psixik funksiyalarini yuksak, madaniy hamda quyi, tabiiy turlarga ajratish mumkin. Chunki ularning negizida ta'lim bilan insonning oliy nerv faoliyatida birinchi va ikkinchi signallar tizimi o'zaro ta'sirining ifodalanishi yotadi.

Shaxs tuzilishining modelini ishlab chiqishdagi muhim qiyinchilikni eng asosiy sababi har xil nuqtai nazarlar mavjudligida namoyon bo'ladi. Ular shaxsning tuzilishiga ko'ra, substansional va ideal, irsiy va psixologik tomonlarga ega bo'lib, u V.M.Banishikov tadqiqotlarida asoslaniladi.

Mulohazadan ko'rinib turibdiki, bunda shaxsning "substansional tomonini" irsiy, kundalik faoliyatda egallagan somatik jabhalar bilan taqqoslaganda, mustaqil strukturaviy tarkib sifatida, alohida realikka ega emas. Bunday tahlil individual voqelik ustida gap borayotganini bildiradi. **A.G.Kovalevning fikricha**, temperament tabiiy xususiyatlarning muhimligini bildirib keladi.

B.D.Pariginning fikricha, shaxsning statik tuzilishiga quyidagilar kiradi:

- umuminsoniy psixologik xususiyatlar;
- milliy, kasbiy, iqtisodiy, siyosiy, sinfiy birlikka aloqador ijtimoiy o'ziga xos xususiyatlar;
- shaxsning individual betakror xususiyatlari.

Chet el psixologlarining shaxs tuzilishi mohiyatini ochib berishga qaratilgan ko'pgina yondashuvlari ham yuksak ko'rsatkichlarga erishmaganligi tufayli bu masalani yoritish uchun keskin o'zgarish kiritilmadi. Olimlarning shaxsning psixologik mohiyatini tushunchalar tuzish yordami bilan xaspo'shlashi ijobiy izlanish

tarzida o'ziga tortadi, lekin unda shaxs "kundalik turmushimizda biz bilgan shaxsning aynan timsolidir" deb ta'riflanadi.

AQSh psixologi G.Ollportning fikricha, shaxs: ichki tizim, "dinamik qurilma", "men", "qandaydir metapsixologik men", o'zida oldindan maqsad va dizpozitsiyani va aks ettiruvchi inson tafakkuri va hulq-atvorida mutanosib ravishda qaror toptiruvchi jonzotdir". Xuddi shu boisdan shaxsning sinfiy, tarixiy jihatdan yaqqol baholanishi ochilmay qoladi, ijtimoiy tahlil o'rini psixologik talqin egallaydi.

Psixologlardan **T.Parsond, G.Mid** va boshqalar "Shaxsning rolli tuzilishi" nomli konsepsiyani ishlab chiqib, odamning yaxlit subyektiv dunyosini uning psixologik qiyofasini diqqat markazidan, idrok maydonidan chetda qoldiradilar.

Keyingi yillarda chet el psixologiyasida olimlar diqqatini shaxs modelining psixologik omillari tortmoqda. Ularning asosiy variantlari **G.Ayzenk, R.Kettell** konsepsiyalari bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur konsepsiyalar ko'p yoki oz miqdordagi omillar (Ayzenkda ular 2-3 ta, Kettellda esa 20 tadan ziyod) ga asoslangan bo'lib, ular muayyan darajada umumlashgan individuallikni yoki shaxs qiyofasini ifodalovchi psixologik xususiyatlarni aks ettiruvchi ruhiy tizimni qayd qilishga asoslanadi. Ammo tub ma'nodagi shaxsning psixologik konsepsiyasi ham individuallik qiyofalarini haqiqiy ijtimoiy psixologik mohiyatini ochish imkoniyatiga ega emas, chunki xususiyatlarning qonuniy ravishdagi o'zaro aloqalari tavsiflanmay qolgan.

K.K.Platonov tomonidan ilgari surilgan shaxsning dinamik funksional tuzilishi katta qiziqish uyg'otadi. Olim shaxs xususiyatlarining barcha boyliklarini qamrab oluvchi modelini yaratishga intiladi. Shaxs xususiyatlari, qiyofasi uning tuzilish elementlari bo'lib, xossalari hisoblanadi. **K.K.Platonov** shaxs tuzilishini turli tomonlariga aloqador 4 tuzilmaga ajratadi :

1.Shaxsning axloqiy munosabatga yo'nalganlikni birlashtiruvchi ijtimoiy shartlangan osttuzilish. Bu osttuzilishga aloqador shaxsning xislatlari tabiiy mayllarga bevosita bog'liq bo'lmay, tarbiyaviy yo'l bilan shakllantiriladi.

2.Tajriba osttuzilishi, unga ta'limiy yo'l bilan egallagan bilimlar, malakalar, ko'nikmalar, odatlar kiradi. Ammo bu narsa shaxs qiyofasining biologik shartlangan ta'siri ostida kechadi. Ushbu ost tuzilish orqali shaxs insoniyatning tarixiy tajribasi bilan bog'liq bo'ladi.

3.Shaxsning individual xususiyatlari bilan shartlangan ba'zi psixik jarayonlar kiritiladi. Bunda biologik shartlangan xususiyatlarining ta'siri aniqroq ko'zga tashlanadi.

4.Biologik shartlangan osttuzilish bo'lib, biopsixik xususiyatlarni fazilatlar temperament, jinsiy va yosh xususiyatlar, shuningdek, insonning patologik o'zgarish birlashtiradi. Bu ost tuzilish mashq orqali shakllantiriladi.

K.K.Platonov "Shaxsning tomonlari va uning ost tuzilishi" tushunchalarini sinonim sifatida qo'llanilganligini quyidagicha izohlab beradi: shaxsning moddiy jabhalari emas, balki funksional tomonlarining o'zaro ta'siri to'g'risida to'xtalish muhimdir".

V.S.Merlin ham shaxsning tuzilishi masalasiga alohida ahamiyat bergan. Uning fikricha, shaxsning qismlarga ajratib talqin qilinmaydigan jabha bu uning xislatidir, ularning har biri muayyan yo'nalganlik mohiyatini mujassamlashtirgan

bo'lib, shaxs munosabatini aks ettiradi. Shaxs tuzilishi deganda **V.S.Merlin** bo'yicha insonning o'z-o'ziga, o'zgalarga, mehnatga u yoki bu munosabatni o'zida birlashtiruvchi shaxs xususiyatlarining tashkiliy aloqadorligini anglatuvchi "simptomkomleks" – ni tushuniladi. Tadqiqotchi **N.I.Raynvaldning fikricha**, shaxsning tuzilishi va uning har bir qiyofasi (timsoli) uch mezon asosida tahlil qilinishi lozim:

-orientirovka darajasi va anglanganlik xususiyati;

-u yoki bu ehtiyojij holatlarni harakatlantirishning xususiyati hamda tashkiliyligi;

-insonning emotsional irodaviy bilishga oid sifatlarini namoyon bo'lishining jadalligi, jiddiyligi va zo'riqishi va boshqalar.

N.I.Raynvaldning izohlashicha, faollikning regulatsiyasida psixik funksiyalarni umumlashgan guruhlashtirish uch o'Ichovli (mezonli) tasnifi aql (intellekt), hissiyot (emotsiya) va iroda mohiyati zimmasiga tushishi, shaxs tuzilishini temperament, xarakter va qobiliyatlarga, ikkinchi tomondan esa ekstrovertsiya, introvertsiya omillariga ajratilishiga barham beradi.

N.I.Reynvaldning ushbu yondashuvi A.R.Luriyani miya faoliyatining uch blokli rolli tasnifiga bevosita mos tushadi, chunonchi aql (intellekt) ko'p hollarda informatsion blok orqali analga oshadi, iroda (tashkiliik) programmashtirish bloki bilan bog'liq, xilma-xil emotsional holatlar (hissiyot) yuzaga kelishining negizida "energetik" blok yotadi. Aql, hissiyot, iroda va ularni ro'yobga chiqaruvchi miyaning bloklari, harakatlantiruvchilarni emas, balki o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatining uch tomonini anglatadi.

Keltirilgan fikr-mulohazalardan shuni xulosa qilish mumkinki, shaxsning tuzilish tarkibi, uning o'ziga xos individual-xususiyatlari bilan belgilansa, ayrim olimlar tomonidan tashqi obyektiv omillar asosida yuzaga kelishi ko'rsatib o'tilgan.

Tayanch tushunchalar

Autizm (yunon. auto - o'zim) – individning o'zini atrofda odamlardan chegaralab, o'zining kechinmalariga berilishdan iborat psixologik begonalashuv.

Biogenetik qonun (yunon bios - hayot, genesis - kelib chiqmoq - psixologiyada E.Gekkel tomonidan ochilgan biologik qonun bo'lib, unga ko'ra ontogenez filogenezni takrorlaydi deb hisoblanadi.

Ideal (yunon. idea - g'oya, tushuncha tasavvur) - biror narsaning namunasi, ayrim odam, guruh va sinf xatti - harakatlari va intilishini belgilovchi oliy maqsad.

Individ – (lot, iudividuum bo'linmas ayrim jins, shaxs) - biologik turga kiruvchi alohida tirik mavjudot.

Individuallik – individning boshqalardan farqlanadigan ijtimoiy xususiyatlari va psixikasining o'ziga xosligi hamda uning qaytarilmasligi.

Konformlik (lot. conformis o'xshash, mos) – individning rpyh fikrlariga tegishli tomondangina qo'shilib, ichki tomondan esa qo'shilmay o'z fikrida qolishi, guruhga ongli ravimda moslashishi.

"Men" – **konsepsiya** (lot. conceptio - qabul etish - odanning o'zi to'g'risida nisbatan barqaror, aniqlangan, o'z kechinmalarida ifodalanadigan taassurotlar tizimi.

Frustratsiya (yunon, frustration – aldanish, behuda ko‘rish, xafagarchilik, rejalarining izdan chiqishi) – kishining hacadga erishish yo‘lida uchraydigan, obyektiv ravishda yengib bo‘lmaydigan yoki subyektiv ravishda shunday tuyuladigan qiyinchiliklar tufayli paydo bo‘ladigan psixik holati.

Shaxs – ijtimoiy munosabatlarga kiruvchi va ongli faoliyat bilan shug‘ullanuvchi betakror odam.

Ehtiyoj – odam va hayvon faolligining asosiy manbai, aniq sharoitlar bilan bog‘liq zaruriyatning ichki holati.

Qiziqish – shaxsning o‘zi uchun qimmatli va yoqimli bo‘lgan muayyan narsa yoki hodisalarga munosabati, keng va tor, chuqur va yuzaki barqaror bo‘lishi mumkin.

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan mavzular

1. Shaxs haqida tushuncha.
2. Individ shaxs, individuallik tushunchalari.
3. Shaxs faolligi tushunchalarining mazmuni.
4. Shaxs shakllanishiga tasir etuvchi omillar.
5. Shaxsning malaka va odatlari.
6. Endopsixika va ekzopsixika haqida tushuncha.
7. Chet el psixologiyasida shaxs nazariyalari.
8. Sobiq sovet psixologiyasida shaxs rivojlanishi nazariyalari.
10. Shaxsning psixologik tuzilishi modellari tahlili.
11. Shaxsda o‘zini o‘zi anglashni tarkib topishi.
12. Ijtimoiy muhit va shaxs shakllanishi.
13. Shaxs shakllanishi da irsiyat
14. Shaxs shakllanishi va talim-tarbiya.
15. Ehtiyojlar faollik manbai sifatida
16. Ehtiyojlar turlari.
17. Inson ehtiyojlarining rivojlanishi
18. Qiziqishning psixologik tavsifi.
19. Shaxsning ustanovkasi yoki anglanmagan mayillar.
20. Shaxsning e’tiqod va dunyoqarashi.

Test topshiriqlari

1. Shaxs tushunchasiga to‘g‘ri ta’rif berilgan qatorni toping?

A) Jamiyatda rivojlanuvchi til yordamida boshqa odamlar bilan munosabatga kirishuvchi inson;

B) Odam boshqa odamlar bilan munosabatda shaxsga aylanadi;

V) Voqelikni bildiruvchi va uni o‘zgartiruvchi subyektga aytiladi;

G) Ongli subyekt faoliyatda bo‘ladigan muloqot madaniyatiga ega bo‘lgan jamiyatda yashaydigan komil inson;

D) Kishilik jamiyatida yashaydigan faoliyatning biror turi bilan shug‘ullanadigan til orqali atrofdegilar bilan normal muloqotda bo‘ladigan ongli individ.

2. Biogenetik nazariyaning mazmuni qaysi qatorda ko‘rsatilgan?

A) Biologik qarish;

- B) Bilish jarayonlari va biologik yangilik;
V) Taraqqiyotning bosh maqsadi biologik determinantlarga qaratiladi va ularning mehnatidan ijtimoiy psixologik xususiyatlar keltirib chiqaradi;
G) barcha javoblar to'g'ri;
D) to'g'ri javob berilmagan.

3. Biogenetik qonun qaysi olimlar tomonidan kashf qilingan?

- A) Krechmer. Myuller;
B) Myuller va Gekkel;
V) Xoll va Shtern;
G) Myuller va Xoll;
D) Krechmer va Gekkel.

4. Mazkur qonunga ko'ra, shaxs psixologiyaning individual taraqqiyoti butun insoniyat taraqqiyotining asosiy bosqichlarini qisqacha takrorlaydi degan g'oya yotadi...

- A) Sotsiogenetik;
B) Psixogenetik;
V) Psixodinamik;
G) Biogenetik;
D) Kongnitiv.

5. Qaysi qatorda biogenetik nazariya namoyandalari ko'rsatilgan?

- A) V.Shtern va E.Erikson;
B) K.Levin va E.Krechmer;
V) V.Shtern va E.Krechmer;
G) S.Xoll va E.Torndayk;
D) B.Skinner va K.Levin.

6. Psixologik taraqqiyotning bosh konuni deb nomlangan rekaptulyatsiya qonuni ya'ni filogenezni qisqacha takrorlashi qonunini kashf qilgan olim?

- A) E.Krechmer;
B) V.Shtern;
V) S.Xoll;
G) Myuller;
D) Gekkel.

7. Konstitutsion psixologiya ya'ni insonning tana tuzilishiga asoslangan nazariya namoyandasi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) E.Krechmer;
B) V.Shtern;
V) S.Xoll;
G) Myuller;
D) Gekkel.

8. Krechmer insonlarning tana tuzilishiga qarab, ularni necha guruhga ajratadi?

- A) Ikkita;
B) Uchta;
V) To'rtta;
G) Beshta;

D) Oltita.

9. Shaxs faolligi deganda nimani tushuniladi?

- A) Tevarak-atrofdagi olam bilan munosabatda bo'lad;
- B) Tashqi muhit bilan aloqasi;
- V) Shaxsning qiziqishlari va ehtiyojlarida aks etadi;
- G) Odamning atrofdagi tashqi muhitga ko'rsatadigan ta'siri;
- D) Barcha javoblar to'g'ri.

10. "Odam o'zining avlodlaridan nasliy yo'l bilan o'tgan instinktiv mayllarning namoyon bo'lishi tufayli faoldir. Instinktiv mayllar asosan jinsiy instinktlar shaklida namoyon bo'lad". Mazkur fikr kim tomonidan ilgari surilgan?

- A) V.Vundt;
- B) E.Torndayk;
- V) Z.Freyd;
- G) S.Xoll;
- D) E.Krechmer.

11. Z.Freyd shaxs faoliyatida nimani e'tirof etadi?

- A) Ehtiyoj;
- B) Qiziqish;
- V) Jinsiy mayllar;
- G) Motiv;
- D) Ishtiyoq.

12. Hozirgi zamon psixologiyasida shaxs faolligi manbai – bu ...

- A) Ehtiyoj;
- B) Qiziqish;
- V) Ishtiyoq;
- G) Jinsiy mayllar;
- D) Motiv.

13. Shaxs faolligining manbai sifatida namoyon bo'ladigan va uning yashash sharoitiga bog'liqlikni ifodalovchi holat – bu

- A) Ehtiyoj;
- B) Qiziqish;
- V) Motiv;
- G) Ishtiyoq;
- D) Jinsiy mayllar.

14. Shaxsning oliy nerv faoliyatidagi narsa va hodisalarni bilishi, anglashi istagi bilan bog'liq bo'lgan munosabat deb ataladi.

- A) Ehtiyoj;
- B) Motiv;
- V) Qiziqish;
- G) Jinsiy mayllar;
- D) Ishtiyoq.

15. Ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq bo'lgan qandaydir faoliyatga moyillik deb ataladi.

- A) Ehtiyoj;

- B) Motiv;
- V) Qiziqish;
- G) Jinsiy mayllar;
- D) Ishtiyiq.

16. shaxsni o'z qarashlari tamoyillari dunyoqarashlariga mos ravishda harakat qilishga undovchi anglangan ehtiyojlar tizimidir.

- A) Ehtiyoj;
- B) Faollik;
- V) E'tiqod;
- G) Maqsad;
- D) Malaka.

17. Ko'rsatma berish qaysi olim tomonidan fanga kiritilgan?

- A) L.S.Vigotskiy;
- B) S.L.Rubinshteyn;
- V) D.B.Elkonin;
- G) D.N.Uznadze;
- D) K.D.Ushinskiy.

18. Ko'rsatma berish tushunchasiga berilgan ta'rif qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) Ehtiyojlar orqali faollikka undash;
- B) Bilish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlarni ma'lum usulda qondirishga tayyor turishi;
- V) Faoliyatga nisbatan anglangan mayllar;
- G) Inson shaxsi xulq-atvorini va turli faoliyatlarini harakatga keltiruvchi sabablar;
- D) Odamning atrofdagi tashqi muhitga ko'rsatadigan ta'siri.

19. Avval ongli bajarib, keyinchalik avtomatlashgan xatti-harakatlarga aytiladi.

- A) Malaka;
- B) Ko'nikma;
- V) Odat;
- G) Maqsad;
- D) Motiv.

20. Psixodinamika nazariyasining namoyandasi qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) E.Krechmer;
- B) E.Erikson;
- V) S.Xoll;
- G) V.Shtern;
- D) K.Levin.

21. "Fazoviy zarurat maydoni" nazariyasining asoschisi qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) E.Krechmer;
- B) E.Erikson;
- V) S.Xoll;
- G) V.Shtern;

D) K.Levin.

22. Qaysi qatorda psixogenetik nazariyaga to'g'ri ta'rif berilgan?

A) Psixikaning proporsional tarkibiy qismi bo'lmish emotsiya va shu kabilar yordamida shaxs xulqini tahlil qiluvchi nazariya;

B) Ijtimoiy xulqni muhit bilan bog'liqligini o'rganuvchi nazariya;

V) Inson hayotini ijtimoiy tarixiy vazifalari va obyektiv shart-sharoitlari mutlaqo e'tiborga olinmaydi;

G) Psixik jarayonlarning taraqqiyoti bilan belgilanadi;

D) Individdning xuquqi psixologik kuch vazifasini o'tovchi ishtiyoq maqsadlar bilan boshqarib turiladi.

23. Qaysi qatorda psixodinamika nazariyasiga to'g'ri ta'rif berilgan?

A) Psixikaning proporsional tarkibiy qismi bo'lmish emotsiya, mayl va shu kabilar yordamida shaxs xulqini tahlil qiluvchi nazariya;

B) Ijtimoiy xulqni muhit bilan bog'liqlikni o'rganuvchi nazariya;

V) Inson hayotining ijtimoiy-tarixiy vazifalari va obyektiv shart-sharoitlari e'tiborga olinadi;

G) Psixik jarayonlarning taraqqiyoti bilan belgilanadi;

D) Individdning xulqi psixologik kuch vazifasini undovchi ishtiyoq maqsadlar bilan boshqarib turiladi.

24. Qaysi qatorda sotsiogenetik yo'nalishning nufuzli nazariyasi to'g'ri ko'rsatilgan?

A) Individual tajriba va bilimlarni o'zlashtirish;

B) Rollar nazariyasi;

V) Fazoviy zarurat maydoni;

G) Konstitutsion nazariya;

D) Psixoanaliz.

25. Mazkur nazariyaga binoan shaxsning hayoti va uning voqelikka nisbatan munosabati ko'pincha ko'nikmalarni egallash, bilimlarni o'zlashtirishining samarasi ko'zg'atuvchini uzluksiz ravishda mustahkamlanib borishining mahsulidir. Ushbu nazariya qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) Individual tajriba va bilimlarni o'zlashtirish.

B) Rollar nazariyasi;

V) Fazoviy zarurat maydoni;

G) Konstitutsion nazariya;

D) Psixoanaliz.

26. Qaysi qatorda kognitivistik yo'nalishi asoschilari ko'rsatilgan?

A) Piaje, Kelli;

B) Vallon, Grimle;

V) Kolberg, Bromley;

G) Zazzo, Grimle;

D) Piaje, Zazzo.

27. Tirik mavjudotlarning o'z imkoniyati darajasida tashqi olam ta'sirlariga javob qilish quvvanchligideb ataladi.

A) faoliyat;

B) ehtiyoj;

- V) qiziqish;
- G) faollik;
- D) e'tiqod.

28. Ehtiyojlar kelib chiqishiga ko'ra qanday turlarga ajratiladi.

- A) tabiiy va madaniy;
- B) moddiy va ma'naviy;
- V) tabiiy va ma'naviy;
- G) moddiy va madaniy;
- D) barcha javoblar to'g'ri.

29. Qiziqish tiplari nimalarga asoslanadi?

- A) mazmuniga ko'ra shaxsiy va ijtimoiy;
- B) maqsadiga binoan bevosita va bilvosita;
- V) ko'lamiga qaraganda keng va tor;
- G) darajasiga ko'ra barqaror va beqaror;
- D) barcha javoblar to'g'ri.

30. Qiziqishning psixologik mohiyati qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) uni odamlar tomonidan anglab yetishi yoki tushunish imkoniyatidir;
- B) uning his-tuyg'lar emotsional holatlar bilan uyg'unlashgan mujassamlashgan tarzda ifodalanishidir;
- V) irodali sifatlar bilan yoinki iroda akti bilan umumlashgan tarzda vujudga kelishidir;
- G) uni oliy nerv faoliyati xususiyati va temperament tiplari bilan birga mujassamlashgan holda namoyon bo'lishidir;
- D) barcha javoblar to'g'ri.

Nazorat savollari

1. Shaxs tushunchaning mohiyatini izohlang?
2. Individ, shaxs, individuallik tushunchalarining mazmunini asoslang?
3. Shaxs faolligi tushunchalarining mohiyatiga nimalardan iborat?
4. Shaxs shakllanishiga tasir etuvchi omillarni aniqlang?
5. Shaxsning malaka va odatlarining mazmuni nima bilan belgilanadi?
6. Shaxsning psixologik tuzilish modellari tahlilini ko'rsating?

BILISH JARAYONLARI. DIQQAT

Diqqat haqida tushuncha

Odamga har bir daqiqada atrof-muhitdan juda ko'p narsa va hodisalar ta'sir etib turadi. Lekin odamga ta'sir etayotgan bu narsa va hodisalarning hammasi bir xil aniqlikda aks ettirilmaydi. Ulardan ayrimlari aniq yaqqol aks ettirilsa, boshqalari shunchaki juda xira aks ettiriladi, yoki umuman aks ettirilmaydi. Bu esa odamga ta'sir etayotgan narsalarga diqqatning qay darajada qaratilishiga bog'liqdir. Demak, diqqatimiz qaratilgan narsa va hodisalar aniq va to'la aks ettiriladi.

Diqqat tushunchasiga psixolog olimlar tomonidan bir qator ta'riflar keltirilgan. Xususan, psixolog P.I.Ivanov tomonidan **diqqat** deb- ongni bir nuqtaga to'plab muayyan bir obyektga faol qaratilishga aytiladi.

F.N.Dobrinin, N.V.Kuzmina, I.V.Straxov, M.V.Gamezo, N.F.Gonobolin va boshqalarning fikriga ko'ra, diqqatning vujudga kelishi ongning bir nuqtaga to'planishi, ong doirasining torayishini bildiradi, guyoki bunda ong doirasi bir muncha tig'izlanadi.

Ye.B.Pirogovaning ta'kidlashicha, **diqqat** individning hissiy, aqliy yoki harakatlantiruvchi faolligi darajasining oshirilishini taqazo etadigan tarzda ongni yo'naltirilganligi va biror narsaga qaratilganligidir. Professor *M.G.Davletshin* muallifligidagi "*Psixologik atamalarni qisqacha izohli lug'ati*" da **diqqat** - ongimizning muayyan obyektga yo'naltirilishi va unda to'planishidan iborat psixik holat. Professor *V.M.Karimovaning* fikricha, **diqqat**-shunday psixik jarayonki, uning yordamida ongimiz o'zimiz uchun ahamiyatli bo'lgan narsalar, hodisalar predmetlar mohiyatiga qaratiladi. Ya'ni **diqqat**-ongning yo'nalganligini tushuntiruvchi psixik jarayondir. Psixologik lug'atda **diqqat**-ongimizning muayyan obyektga yo'naltirilishi va unda to'planishidan iborat psixik holat. Ongimiz yo'naltirilgan narsalar **diqqatning obyekti** deb ataladi. Obyektiv voqelikdagi narsa va hodisalar, shuningdek, subyektiv kechinmalarimiz, taassurotlarimiz diqqat obyekti bo'lishi mumkin. Diqqat aql, hissiyot va iroda singari mustaqil ong sohasini tashkil qilmaydi, u har bir ong fuksiyasi bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Shaxs diqqat bilan idrok, tasavvur va tafakkur qiladi, diqqat bilan esda qoldiradi va esga tushiradi.

Diqqatda ongning voqelikka nisbatan tanlab munosabatda bo'lish xususiyati namoyon bo'ladi. Biz biror obyektga diqqat qilar ekanmiz, ongimizda faqat shu obyektning o'ziningina aks ettirib, ayni vaqtda qolgan narsa hamda hodisalarni ong doirasidan chetda qoldiramiz. Shunday qilib, **diqqat** -ongni muayyan bir nuqtaga to'plab, obyektga faol yo'naltirishdir.

Diqqat shunday muhim jarayondirki, u odamning barcha faoliyatlarida albatta ishtirok qiladi. Eng sodda faoliyatdan tortib, eng murakkab faoliyatni ham diqqatning ishtirokisiz bajarish mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi roli benihoya kattadir. *Jumladan*, fransuz olimi *Kyuve* geniallikni chidamli diqqat deb ta'riflashi, *Nyutonning* kashfiyot fikrni doimo shu masalaga qaratilish jarayoni deyishi, *K.D.Ushinskiyning* "Diqqat ruhiy hayotimizning shunday yagona eshigidirki, ongimizga kiradigan narsalarning barchasi shu eshik orqali o'tib kiradi" degan fikrlari uning nechog'li ahamiyatli ekanini bildiradi. Haqiqatdan ham diqqat eshigidan tashqarida qolgan narsa ongimizga yetib bormaydi.

Diqqat psixik faoliyatning yo'naltirilishi va shaxs uchun ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan obyekt ustida to'planishidan iborat bilish jarayonidir. **Yo'naltirish** deganda, psixik faoliyatning tanlovchanlik tabiati, obyektini ixtiyoriy va beixtiyoriy tanlash tushuniladi. O'quvchi maktabda o'qituvchi gapirayotgan gaplarni eshitib o'tirish jarayonida tinglayotganlarini ongli ravishda tanlab oladi hamda uning diqqati ongli ravishda qo'zg'algan shu maqsadga bo'ysundirilgan bo'ladi. O'quvchining biror boshqa narsaga chalg'imasdan o'quv materialining mazmuniga zehn qo'yib o'tirishida uning psixik faoliyatining yo'nalishi ifodalangani.

Psixik faoliyatning yo'naltirilishi deganda ana shu tanlashgina tushunilib qolmay, balki tanlanganlarini saqlash va qo'llab-quvvatlash tushuniladi.

Diqqatning bilish jarayoni uchun ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tish lozimdir. Diqqat sezish jarayonida, idrok qilishda, xotira, xayol va tafakkur jarayonlarida har

doim ishtirok etadi. Diqqat barcha aks ettirish jarayonlarimizning doimiy yoʻldoshidir. Diqqat barcha psixik jarayonlarimizda qatnashsa ham, lekin diqqatning oʻzi hech narsani aks ettirmaydi.

Odam biror narsaga zoʻr diqqat bilan kirishgan paytida uning tashqi qiyofasida ayrim oʻzgarishlar koʻzga tashlanadi. Demak, diqqat odatda oʻzining sirtqi yaʼni tashqi alomatlariga egadir:

*Birinchi*dan, diqqat qaratilgan narsani yaxshi idrok qilish uchun unga muvofiqlashishga urinishdan iborat harakatlar (tikilib qarash, quloq solish) qilinadi.

*Ikkinchi*dan, ortiqcha harakatlar toʻxtaydi. Jiddiy diqqatning xususiyatlaridan biri qimirlamasdan jim turishdir. *Masalan*, auditoriya va teatr zalidagi jimlik diqqat vaqtidagi harakatsizlik natijasi boʻlib, bu jimlik odamlar maʼruzachini yoki artistni zoʻr eʼtibor bilan tinglashayotganini anglatadi.

*Uchinchi*dan, kuchli diqqat paytida kishining nafas olishi sekinlashib va pasayib qoladi.

Demak, diqqat paytida organizm retseptorlarimiz alohida holatda boʻladi. Ammo bu holat diqqatning faqat tashqi ifodasi boʻlibgina qolmay, balki uning maʼlum yoʻnalishi va barqarorligini saqlab turuvchi shartlardan biri hamdir. Shuning uchun koʻpincha biror ishni bajarishdan avval organizmimizni shu ishga moslab muayyan bir holatda tutib olamiz.

Diqqatning tashqi ifodalinishiga rassomlarning rasmlari, turli jurnallardan olingan suratlar eng yaxshi illyustrativ material hisoblanadi. Ular yordamida kishi diqqatining tashqi ifodasiga xos boʻlgan mimika va pantomimikani koʻrsatish mumkin.

Diqqatning nerv-fiziologik asoslari

Odamga har bir daqiqada taʼsir qilib turadigan qoʻzgʻatuvchilar turlicha reflekslarga sabab boʻladi. Chunki har qanday refleks organizmning tashqi taʼsurotga beradigan qonuniy javob reaksiyasidir.

Diqqatning nerv-fiziologik asosida **orientirovka yoki tekshirish** deb ataladigan maxsus refleks yotadi. Bunday refleksni akademik **I.P.Pavlov** maxsus ibora bilan **“Bu nima gap refleksi”** deb ham ataydi. Ana shu refleks odatda organizmga toʻsatdan birorta yangi narsaning taʼsiri yoki haddan tashqari kuchli taʼsurot orqali hosil boʻladi. Orientirovka yoki tekshirish refleksi diqqatning fiziologik asosi hisoblanadi, chunki bu refleks bosh miya yarim sharlarining poʻstida kuchli qoʻzgʻalish jarayonidan iborat boʻladi. Boshqacha qilib aytganda har bir daqiqada organizmga turli narsalarning taʼsiridan hosil boʻlgan qoʻzgʻalishlarga nisbatan orientirovka yoki tekshirish refleksi ayni chogʻda nisbatan kuchli (yaʼni optimal) qoʻzgʻalish manbaini yuzaga keltiradi.

Bosh miya yarim sharlarining poʻstida paydo boʻladigan kuchli qoʻzgʻalish manbai nisbatan uzoqroq saqlanib turadigan mustahkam qoʻzgʻalish boʻladi. Ana shu nuqtai- nazardan akademik **I.P.Pavlov** *“Diqqatning fiziologik asosini bosh miya poʻsti qismidagi optimal qoʻzgʻalish manbai tashkil qiladi”*, deb taʼkidlagan. Buni biz akademik **I.P.Pavlovning** quyidagi soʻzlaridan ochiq oydin koʻrishimiz mumkin. *“Miya yarim sharlarining optimal qoʻzgʻalishga ega boʻlgan qismida –deydi I.P.Pavlov, – yangi shartli reflekslar yengillik bilan hosil boʻladi va*

differensirovkalar muvaffaqiyatli ravishda paydo bo'ladi. Shunday qilib, optimal qo'zg'alishga ega bo'lgan joy ayni chog'da bosh miya yarim sharlarining ijodga layoqatli qismi desa bo'ladi. Miya yarim sharlarining sust qo'zg'algan boshqa qismlari bunday xususiyatga qobil emas. Ularning ayni chog'da funksiyasi juda nari borganda tegishli qo'zg'ovchilar asosida ilgari hosil qilingan reflekslarni qayta tiklashdan iboratdir".

I.P.Pavlov tomonidan kashf etilgan *nerv jarayonlarining induksiya qonuni* diqqatning fiziologik asoslarini tushunib olish uchun ahamiyatga egadir. Mana shu qonunga muvofiq, bosh miya po'stining bir joyida maydonga kelgan qo'zg'alish jarayonlari bosh miya po'stining boshqa joylarida tormozlanish jarayonlarini yuzaga keltiradi. Bosh miya po'stining ayrim bir joyida yuzaga kelgan tormozlanish jarayoni bosh miya po'stining boshqa joylarida kuchli qo'zg'alish jarayonlarini paydo bo'lishiga olib keladi. Ayni shu paytda har bir onida miya po'stida qo'zg'alish jarayoni uchun optimal, ya'ni nihoyatda qulaylik bilan harakatlanuvchi biror bir kuchli qo'zg'alish manbai mavjud bo'ladi. "Agar bosh suyagiga qarash imkoni bo'lganda, degan edi I.P.Pavlov, uning ichidagi miya ko'rinadigan bo'lsa, agar miya yarim sharlarida optimal kuchli qo'zg'alish uchun eng yaxshi sharoit tug'ilgan nuqtasi miltilab ko'rinadigan bo'lsa, yangi sog'lom bir narsani o'ylab turgan odamning miyasiga qaraganimizda uni miyasini katta yarim sharlarida juda g'alati jimjimador shakli, surati va hajmi har damda bir o'zgarib, turlanib, jimir-jimirlab qilib turgan yorug' narsani u yoqdan bu yoqqa yugurib qimirlab turganini va miya yarim sharining bu yorug' narsa atrofidagi boshqa yerlarni bir muncha xira tortib turganini ko'radik".

A.A.Uxtomskiy tomonidan ilgari surilgan *dominantlik tamoyili* ham diqqatning fiziologik asoslarini aniqlash uchun katta ahamiyatga ega. *Dominantlik tamoyiliga muvofiq miyada qo'zg'alishning har doim ustun turadigan hukmron o'chog'i mavjud bo'ladi, bu hukmron qo'zg'alish o'chog'i aynan shu damda miyaga ta'sir qilib, unda yuzaga kelayotgan hamma qo'zg'alishlarni qandaydir ravishda o'ziga tortib oladi va buning natijasida boshqa qo'zg'alishlarga nisbatan uning hukmronligi yanada oshib boradi. Nerv tizimi faoliyatining tabiati qo'zg'alishning hukmron bo'lishi yoki dominantning mavjudligi bilan asoslanadi.*

Bu hol psixologik jihatdan biror qo'zg'atuvchilarga diqqatning qaratilishi va ayni chog'da ta'sir qilib turgan boshqa qo'zg'atuvchilardan diqqatning chalg'ishida ifodalanadi.


Jiddiy diqqat, odatda o'ziga xarakterli bo'lgan tashqi ifodalari bilan bog'liq bo'ladi. Narsani yaxshilab idrok qilishga qaratilgan harakatlar bilan (tikilib qarash bilan eshitish) ortiqcha harakatlarni to'xtatish, nafas olishni sekinlashtirish, diqqat uchun xos bo'lgan yuz harakatlari bilan bog'liq bo'ladi.

Diqqat turlari

Odam ayrim narsalarga o'z diqqatini ongli ravishda o'zi hohlab qaratsa, boshqa bir narsalar diqqatni beixtiyor ya'ni bizning hohishimizdan tashqari jalb qiladi. Odam psixik faoliyatining muayyan obyektga yo'naltirilishi va to'planishida ifodalanadigan *diqqat quyidagi turlarga* bo'linadi.

- **diqqatning aktivligiga qarab** – ixtiyorsiz, ixtiyoriy va ixtiyoriydan so‘nggi diqqat;
- **diqqatning obyektiga qarab** – tashqi va ichki diqqat;
- **diqqatning faoliyat turlariga qarab** – individual, guruhiy va jamoaviy diqqat.
 - **Ixtiyorsiz diqqat** deb to‘satdan ta‘sir qilgan biror sabab tufayli bizning hohishimizdan tashqari hosil bo‘ladigan diqqatga aytiladi.
 - Odamning ko‘z o‘ngida paydo bo‘ladigan juda yorqin rangli narsalar, o‘zining tashqi ko‘rinishi jihatidan odatdagi narsalardan keskin farq qiluvchi predmetlar, to‘satdan paydo bo‘lgan qattiq tovush, biror narsaning keskin harakati va shu kabilar ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiruvchi sabablar bo‘lishi mumkin. *Masalan*, hikoya o‘qish mashg‘uloti paytida to‘satdan uchib o‘tgan reaktiv samolyotning qattiq va bahaybat tovushi hammaning diqqatini beixtiyor o‘ziga jalb qiladi.
 - Ixtiyorsiz diqqat odamning har turli ehtiyojlari va qiziqishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan diqqatdir. Shuning uchun ham ayni chog‘dagi ehtiyojlarimiz, qiziqishlarimiz bilan bog‘liq bo‘lgan narsalarning ta‘siri ixtiyorsiz diqqatga sabab bo‘ladi. *Masalan*, erkin o‘yin paytida zaldan eshitib qolgan bolani qiziqtirgan musiqa ovozi uning diqqatini o‘yindan darhol o‘ziga jalb qilib oladi.

Ayrim adabiyotlarda diqqatning ikkita va ayrimlarida uchta deb ko‘rsatiladi. Ular **ixtiyorsiz diqqat, ixtiyoriy diqqat va ixtiyoriydan so‘nggi diqqat turlaridan** iboratdir.



Diqqat turlarida insonda yuzaga keladigan holatlar quyidagi jadvalda aks ettirilgan:

<i>Diqqat turlari</i>	<i>Maqsad</i>	<i>Irodaviy zo‘r berish</i>
Ixtiyorsiz	-	-
Ixtiyoriy	+	+
Ixtiyoriydan so‘nggi	+	-

Ixtiyorsiz diqqatning *nerv-fiziologik asosini orientirovka yoki bu nima?* refleksi tashkil qiladi. Chunki tevarak-atrofimizdagi narsalarning salgina o‘zgarishi

bizda darhol orientirovka refleksini yuzaga keltiradi. Boshqacha qilib aytganda, "Nima gap" degan ma'noda atrofimizga razm sola boshlaymiz.

Ixtiyoriy diqqat deb, oldindan belgilangan qat'iy bir maqsad asosida va ongli ravishda diqqatimizni ma'lum bir narsa va hodisalarga qaratishimizga aytiladi.

Odamning ko'pchilik faoliyatlari asosan ixtiyoriy diqqatning ishtiroki bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun barcha faoliyat turlarida, ya'ni o'qish, o'yin va mehnat faoliyatlarida ixtiyoriy diqqatning roli juda kattadir. Ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqatga nisbatan uzoq vaqt mobaynida davom etadigan diqqat turi bo'lib, u zo'r berishlikni, ya'ni irodaviy kuch sarf qilishlikni talab etadi.

Ixtiyoriy diqqatning *nerv fiziologik asosida* miya yarim sharlarining po'stida vujudga keladigan optimal qo'zg'alish manbai bilan ikkinchi signallar sistemasining faoliyati yotadi. Ixtiyoriy diqqatning yuzaga kelishida nutqning roli g'oyat kattadir. Chunki ko'pchilik hollarda hoh ta'lim jarayonida bo'lsin, hoh mehnat jarayonida bo'lsin nutq orqali turli vazifalar qo'yish bilan ixtiyoriy diqqat ishga solinadi.

Shuni aytish lozimki, ixtiyoriy diqqat har doim ixtiyorsiz diqqat bilan almashinib turadi. Ixtiyoriy diqqat vaqtida odam tez charchaydi, chunki ixtiyoriy diqqat odamdan hamma vaqt iroda kuchini sarflashni talab etadi. Iroda kuchini sarflash orqali, ya'ni odam o'zini majbur qilish orqali diqqatni safarbar qilishi odamni charchatadi. Ixtiyorsiz diqqatda esa hech qanday iroda kuchini ishga solish talab etilmaydi. Shuning uchun ixtiyorsiz diqqatda odam charchamaydi. Ana shu jihatdan olganda ta'lim va mehnat jarayonida ixtiyoriy diqqatning vaqti-vaqti bilan ixtiyorsiz diqqatga o'tib turishi yaxshi bo'ladi.


Ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqatdan tashqari uning yana bir alohida turini *ixtiyoriydan so'nggi diqqatni* ko'rsatib o'tish mumkin. Bu tushuncha psixologiyaga N.F.Dobrinin tomonidan kiritilgan.

Agar maqsadga qaratilgan faoliyatda shaxs uchun diqqatning ixtiyoriy to'planganidagi kabi faqat faoliyat natijasi emas, balki uning mazmuni va jarayonning o'zi qiziqarli va ahamiyatli bo'lsa *ixtiyoriydan so'nggi diqqat* deb tushunish mumkin. Bu holda faoliyat kishini shu qadar qiziqtirib yuboradiki, u diqqatni obyektga qaratish uchun sezilarli irodaviy kuch-g'ayrat sarflamasa ham bo'laveradi. Shunday qilib, ixtiyoriydan so'nggi diqqat ixtiyoriy diqqatdan keyin namoyon bo'lgan holda shuning o'zidagina iborat deb hisoblash mumkin emas. *Masalan*, yuqori sinf o'quvchisi imtihonga tayyorlanayotib qiyin kitobni qisqacha mazmunini yozib chiqar ekan, oldiniga o'zini diqqat-e'tiborli bo'lishga, chalg'imaslikka majbur qiladi. Lekin keyinchalik u ishga shunday qiziqib ketadiki, oqibatda uni kitobdan chalg'itish qiyin bo'ladi. Dastavval irodaviy kuch-g'ayratlar madadiga tayangan diqqat ixtiyoriydan so'nggi diqqatga aylanadi. Ixtiyoriydan so'nggi diqqat biror narsaga uzoq vaqt davomida juda ham barqaror qaratilishi bilan belgilanadi, ko'proq yuqori darajadagi jadal va unumli aqliy faoliyatning barcha turdagi mehnatning yuksak unumdorligini asosli ravishda ana shunday diqqat turi bilan bog'liq deb hisoblaydilar.

Diqqat xususiyatlari

Odamning diqqati bir qancha xususiyatlarga ega bo'lib, ulardan asosiylari – *diqqatning kuchi va barqarorligi, diqqatning ko'lami, diqqatning bo'linuvchanligi*

va diqqatning ko'chuvchanligidan iboratdir. Diqqatning mazkur xususiyatlari quyidagi jadvalda to'liq aks ettirilgan va shunga muvofiq har biriga qisqacha ta'rif berib o'tamiz.



Diqqatning kuchi va barqarorligiga ko'ra, odamlarning diqqatlari o'zining kuchi va barqarorligi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Ayrim odamlarning diqqati kuchli va barqaror bo'lsa, boshqa bir odamlarning diqqati kuchsiz va beqaror bo'ladi.

Diqqatning kuchi va barqarorligi deb, odam o'z diqqatini biror narsa yoki hodisaga uzoq muddat davomida muttasil qaratib tura olishiga aytiladi. Diqqatning kuchi va barqarorligi inson hayotida juda katta ahamiyatga ega. Chunki diqqatni ma'lum muddat biror narsaga muttasil, ya'ni uzluksiz tarzda qaratib odam ishlay ham olmaydi, o'qiy ham olmaydi va hatto o'ynay ham olmaydi.

Diqqatning kuchli va barqaror bo'lishi bir qancha sabablarga bog'liqdir. *Birinchidan*, diqqatimiz qaratilgan narsaning xususiyatlari, biz uchun bo'lgan ahamiyatiga, *ikkinchidan*, diqqatimiz qaratilgan narsa bilan amalga oshiriladigan faoliyatlarimizga, *uchinchidan*, nerv tizimining ayrim xususiyatlariga bog'liqdir. Bularning hammasi obyektiv, ya'ni bizning irodemiz bilan bog'liq bo'lmagan sabablardir. Diqqatning kuchi va barqarorligi albatta subyektiv, ya'ni odamning ayni chog'dagi holati bilan ham bog'liq. *Masalan*, ayni chog'da betobroq bo'lib turgan odamning yoki boshiga bir og'ir tashvish tushgan odamning diqqati kuchli va barqaror bo'la olmaydi.

Odamlar o'z diqqatlarining ko'lami jihatidan ham bir-birlaridan farq qiladilar. Ayrim odamlar diqqatining ko'lami keng bo'lsa, boshqa bir odamlar diqqatining ko'lami torroq bo'ladi. Diqqatning ko'lami ayni bir vaqtda odamning idrokiga sig'ishi mumkin bo'lgan narsalar miqdori bilan belgilanadi. Boshqacharoq qilib aytganda, idrok qilish jarayonida diqqatimiz qaratilgan narsalardan qanchasini ongimizga sig'ira olishimiz diqqatning ko'lamini tashkil etadi.

Diqqat ko'lamini tajriba yo'li bilan aniqlash qiyin emas. Buning uchun diqqatning ko'lamini aniqlayotgan odamga ayni bir vaqtning o'zida bir necha o'zaro bog'lanmagan harflarni, raqamlarni va turli geometrik shakllarni ko'rsatish yo'li

bilan aniqlash mumkin. Bunda odam ko'rsatilayotgan narsalardan ayni vaqtda qanchalik ko'pini birdaniga idrok eta olsa, uning diqqati shunchalik keng bo'ladi.

Diqqatning ko'lami odatda *taxistoskop* degan maxsus asbob bilan aniqlanadi. Bu asbob yordamida ayni bir vaqtning o'zida idrok ettiriladigan narsalar juda tez ko'rsatiladi. Bunda odam o'z diqqati doirasiga qancha narsa sig'dira olsa, ana shunga qarab, diqqatning keng yoki torligi aniqlanadi. O'tkazilgan tajribalarning ko'rsatishicha, katta yoshli odamlarda o'z diqqat doiralari ayni bir vaqtda 3 tadan 6 tagacha bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan narsalarni sig'dira oladilar.

Diqqat ko'laminin keng bo'lishi odam idrok qilayotgan narsalarini atroflicha va chuqur aks ettirishi, binobarin bilish jarayonlarini sifatli bo'lishi uchun juda katta ahamiyatga egadir.

Odamning diqqati bir vaqtda faqat bitta narsagagina emas, balki ikkita yoki uchta narsaga ham birdaniga qaratilishi mumkin. Ana shunday paytlarda diqqatning bo'linishi talab qilinadi. Demak, *diqqatning bo'linishi* deganda biz ayni bir vaqtda diqqatimizni ikki yoki uch narsaga qaratishimizga aytamiz. Agar diqqatimiz bitta narsaga qaratilgan bo'lsa, ya'ni diqqatimiz bitta narsa ustida to'plangan bo'lsa, uni *konsentratsiyalashgan (to'plangan) diqqat* deb yuritiladi. Buning aksincha agar diqqatimiz ayni bir vaqtda bir necha narsaga qaratilgan bo'lsa, buni *bo'lingan, diqqat* deb yuritiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, aslini olganda diqqatning ayni bir chog'da ikki yoki undan ortiq narsaga qaratilishi, ya'ni bir necha narsalarga bo'linishi amaliy jihatdan mumkin emas. Shuning uchun diqqatning bo'linishi, ya'ni ayni bir vaqtda ikki yoki uch narsaga birdaniga qaratilishi o'z mohiyati jihatidan diqqatning bir narsadan boshqa bir narsaga nihoyatda tezlik bilan bo'linishini talab qilgan vaqtda diqqatimiz bir narsadan ikkinchi narsaga shu qadar tezlik bilan ko'chadiki, buni biz payqay olmaymiz. Natijada diqqatimiz ayni bir vaqtning o'zida bir necha narsalarga birdaniga qaratilayotgandek bo'lib ko'rinadi.

Diqqatning ana shunday bo'linuvchanlik xususiyati hayotda juda katta ahamiyatga ega. Chunki bir qancha mehnat turlari diqqatning bo'linuvchanlik xususiyatiga ega bo'lishlikni talab qiladi. Bunday xususiyat pedagoglar uchun juda zarur bo'lgan xususiyatdir. *Masalan*, tarbiyachi bolalar bilan biror mashg'ulot yoki suhbat o'tkazayotgan paytida diqqatni bir necha narsalarga, ya'ni gapirayotgan gapiga, bolalami quloq solib o'tirishlariga va bundan so'ng nimalar haqida gapirishga qarata olishi lozim. Ana shundagina tarbiyachi suhbat yoki mashg'ulot paytida guruhni boshqara oladi.

Diqqatning bo'linishi har kimda har xil bo'ladi. Buning sababi shundaki diqqatning yengillik bilan bo'linishi diqqatimiz qaratilgan narsalarning ilgaridan bizga qanchalik tanishligi bilan bog'liqdir. Agar diqqatimiz qaratilgan narsalarning ayrimlari bizga yaxshi tanish bo'lsa ya'ni biz ularni ilgaridan yaxshi bilsak faoliyat jarayonida bir necha ishlarni birdaniga ya'ni birga qo'shib bajara olamiz. *Masalan*, yozish harakati ilgaridan bizga yaxshi tanish bo'lgani uchun darsda ham eshitib, ham yozib o'tira olamiz. Shunday qilib, diqqatning bo'linuvchanligi juda ko'p faoliyatlarimiz uchun zarur bo'lgan xususiyatdir.

Diqqatning ko'chuvchanligi odamning diqqati har doim bir narsadan ikkinchi bir narsaga, bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga ko'chib turadi. Diqqatning ana

shunday xususiyatini *diqqatning ko'chuvchanligi* deb yuritiladi. Diqqatning ko'chuvchanligi diqqatning bo'lunuvchanligi bilan bog'liq xususiyatdir. Yuqorida aytib o'tganimizdek, diqqatning ayni bir vaqtda birdaniga bir necha narsaga qaratilishi, ya'ni diqqatning bo'linishi o'z mohiyati jihatidan diqqatning bir narsadan ikkinchi narsaga juda tez ko'chishidan iboratdir. Ana shu jihatdan olganda diqqatning ko'chuvchanlik xususiyati juda ko'p faoliyat va uning turlari uchun zarur bo'lgan xususiyatdir. *Masalan*, hikoya o'qib berish mashg'ulotida bolalar o'z diqqatlarini hikoya eshitishdan surat ko'rishga, undan so'ng yana eshitishga bema'lol ko'chira olishlari kerak. Agar maktab o'quvchilariga nisbatan oladigan bo'lsak, o'quvchilar o'z diqqatlarini bir dars predmetidan boshqa bir dars predmetiga bema'lol ko'chira olishlari kerak. Aks holda o'quvchilar o'tgan dars ta'sirida o'tirib, yangi darsning mazmunini sifatli o'zlashtira olmaydilar.

Diqqat hamma vaqt ham bir narsadan ikkinchi narsaga, bir faoliyat turidan boshqa bir faoliyat turiga osonlik bilan ko'cha bermaydi. Ba'zan qiyinchiliklarga to'g'ri kelib qoladi. Albatta buning o'z sabablari bordir. *Masalan*, bunday sabablardan biri – diqqatimiz ko'chirilishi lozim bo'lgan narsalar yoki harakatlar o'rtasida bog'lanish bor yoki yo'qligiga bog'liq. Agarda diqqatimiz ko'chirilishi lozim bo'lgan narsalar o'rtasida ma'lum jihatdan mazmuniy bog'liqlik bo'lsa, diqqatimiz osonlik bilan ko'chadi. Odamning qiziqishlari va ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan narsalarga ham diqqat yengillik bilan ko'chadi.

Shunday qilib, diqqatning ana shu yuqorida ko'rib o'tgan asosiy xususiyatlari odamning barcha turdagi faoliyatlari uchun juda kerakli xususiyatlardir. Diqqatning ana shu xususiyatlari tufayli odam atrofidagi muhitga, undagi turli-tuman o'zgarishlarga tez moslasha oladi. Diqqatning bu asosiy xususiyatlari odamga tug'ma ravishda, ya'ni irsiy yo'l bilan berilmaydi. Bu xususiyatlar odamning yoshlik chog'idan boshlab turli faoliyatlar o'yin, o'qish va mehnat faoliyatlari jarayonida tarkib topib boradi.

Diqqat borasidagi psixologik nazariyalar

Psixologiya fanining aksariyat manbalarida *diqqat* deb psixik faoliyatning yo'naltirilishi va shaxs uchun ma'lum darajada ahamiyatga ega bo'lgan obyektning ustida to'planishi tushuniladi. Diqqat shunday muhim bir psixik jarayonki, u insonning jamiki faoliyatlarida bevosita ishtirok etadi. *I.P.Pavlovning* oliy nerv faoliyati haqidagi ta'limoti va *A.A.Uxtomskiylar* tomonidan ilgari surgan dominantlik tamoyili va ularning zamondoshlari tadqiqotlarida diqqatning fiziologik asoslari va mexanizmlarini ilmiy nuqtai nazardan tushuntirish imkonini yaratdi.

Sobiq sovet psixologiyasida diqqat muammosi xorij psixologiyasiga nisbatan ancha murakkab mustaqil ilmiy manbalarga ega hisoblanadi va u shu bilan o'zaro farq qiladi. Sobiq sovet psixologiyasida diqqatga nisbatan mukammal qat'iy fikr vujudga kelgani yo'q, lekin uning atrofida juda ko'p tortishuvlar, munozaralar bo'lib o'tgan. Diqqatning psixologik tabiati to'g'risidagi *20-30-yillarda* boshlangan ilmiy bahslar, to hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. Ilmiy munozaralarning zamirida asosiy fikr diqqatning bitta obyektga qaratilishidir. Bu ilmiy model ong obyekt tarzida ifodalanadi. Bu g'oyani yirik psixolog *P.P.Blonskiy* ilgari surgan va asoslagan. Uning fikricha, odamning ongi bitta obyektga qaratilgandan keyin u

atrofdagi narsa va hodisalarni ko'rmaydi. Ko'pchilik psixologlar P.P.Blonskiyning bu fikriga qo'shilmaydilar. Jumladan, atoqli psixolog *S.L.Rubinshteyn mulohazasiga ko'ra*, diqqat ongga ham, obyektning xususiyatlariga ham bog'liq emas. Buning ahamiyatli tomoni diqqatning obyektga yo'naltirilishidir. Mazkur yo'naltirishning asosiy sabablari sifatida shaxs, ehtiyoj, maqsad ko'rsatiladi. Demak, diqqat odamning munosabati orqali ifodalanadi, ya'ni diqqat – munosabatdir. Bu yerda diqqat psixik jarayon emas, balki shaxs xususiyatini belgilab beriyapti.

Diqqat qaralgan tashqi ifodaga ega bo'lgan obyektzni sezish, idrok qilishdan iboratdir. Shu o'rinda qarana-qarshilik vujudga keladi, chunki obyektning yo'qolishi bilan diqqat ham o'z funksiyasini tugatadi. *A.N.Leontev mulohazasiga ko'ra*, bu orientir faoliyati emas, chunki obyektning paydo bo'lishi bilan diqqat ham namoyon bo'ladi, obyekt yo'q bo'lsa, demak diqqat ham bo'lmaydi, deb ta'kidlaydi. *P.Ya.Galperin* esa obyektning paydo bo'lishi bilan diqqat yuzaga keladi. Obyekt yo'qolgandan keyin esa psixik qism bo'lgan tekshirish, nazorat qilish jarayoni boshlanadi. Demak, diqqat ongning bir obyektga yo'naltirilishi va ongli holatni nazorat qiluvchi jarayondan iboratdir.

Psixologiyada diqqatni "*yo'naltirish*" deganda, psixik faoliyatning tanlovchanligi va ixtiyoriy hamda ixtiyorsizligi tushuniladi.

20-yillarda bir qancha psixologlar diqqat muammosini ustanovka bilan bog'lab tushuntirishga harakat qiladilar. Buning yaqqol isboti sifatida *K.N.Kornilov* tahriri ostida 1926-yilda chop qilingan psixologiya darsligidagi bir mavzu "*Ustanovka va diqqat*" deb atalganligi bilan izohlash mumkin. Darslikda yozilishicha, qator obyektlardan bir obyektzni ajratish diqqatning subyektiv kechinmasidir va buni obyektiv hodisalar bilan taqqoslash, sezgi organlarining ustanovkasidan, ishlash vaziyatidan iboratdir.

Shunga o'xshash g'oya L.S.Vigotskiyning dastlabki tadqiqotlarida ham ko'zga tashlanadi. L.S.Vigotskiy diqqat bilan aloqador bo'lgan ikkita ustanovka turini ajratib ko'rsatadi, ular:

a) sensor ustanovka – tayyorgarlikda idrokning ustunligi qobiliyati;

b) motor ustanovka – tayyorgarlikda harakatning ustunligi qobiliyati.

Sensor ustanovkada idrok, motor ustanovkada esa harakat ustunligi sezilib turadi. L.S.Vigotskiy unga misol qilib jismoniy tarbiya mashg'ulotida komanda (buyruq) berishni misol keltiradi. Safda turganlarga qarab "O'ng" deb aytamiz. Shu zahotiy oq saflanganlar buyruq oxirini aytishga sensor ustanovka qo'zg'aydi "ga!" deyish oyoqlarni aylantirishga moslashish bilan bog'liq motor ustanovka komanda oxirini eshitishni ta'minlaydi.

Bu yillarda psixologlar ustanovkani kishining ijtimoiy tajribasi bilan bog'liq ravishda tadqiqot qilishga harakat qilganlar. *P.P.Blonskiyning mulohazasicha*, diqqatning asosida kishining ijtimoiy qiziqishlari yotadi. Psixologlar orasida diqqatni tushuntirishda turli qarashlar, nazariyalar vujudga keladi. Vaholanki, *P.P.Blonskiy* diqqat bilan qo'rquv, vahimani bir narsa deb qaraydi. *Qo'rquv* – bu diqqatning intensivroq namoyon bo'lishi, ya'ni maksimal darajada aks etishi deb tushuntiradi. Bu yerda psixik faoliyatning ma'nosi butunlay yo'qotib ko'rsatilgandek tuyuladi va diqqat biologik nuqtai nazardan qaraganga o'xshab ketadi. Biologik pozitsiyada

diqqat bosh miya yarim sharlari faoliyati bilan emas, balki vegetativ nerv tizimi bilan bog'liqlikda tushuntiriladi.

Taniqli psixolog *D.N.Uznadzening* diqqatni ustanovka bilan bog'lash nazariyasiga *N.F.Dobrinin* qarshi chiqdi. *N.F.Dobrinin fikricha*, diqqatni ustanovka bilan bog'lovchi nazariya quyidagi jihatlarni hisobga olmagan. Diqqat haqiqatdan ma'lum moslashuvchi harakatlar bilan birga bo'ladi, lekin bu harakatlarga borib yetmaydi. Agar tomoshabin sahnadan o'girilsa, ko'zini yumadi, qulog'ini berkitadi, u sahnada nima bo'layotganiga diqqat qilolmaydi. Sahnaga qarash va eshitish uchun boshqa hamma narsalardan chalg'ish kerak va idrokni sahnada bo'layotgan hodisalarga qaratish lozim. Qarab turib ko'rmaslik, tinglab turib eshitmaslik mumkin. Diqqat shundan iboratki, u nimaga qaratilgan bo'lsa uni ko'rish demakdir. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda *N.F.Dobrinin* diqqatni kishi psixik faoliyatini biron-bir obyektga yo'naltirish va to'plash bilan boshqa obyektlardan chalg'ish orqali tushuntiradi.

Diqqat psixik faoliyatning qandaydir obyektga yo'nalishi va to'planishi orqali o'rganishni qator mualliflar tanqid qiladilar. Ana shulardan biri S.L.Rubinshteyndir. S.L.Rubinshteyn diqqatni alohida mazmunga ega emasligiga qo'shiladi, lekin uning guvohlik berishicha, diqqatni biror obyektga tanlab yo'nalishi uning fenomenologik xarakteridir. Bunday fenomenologik tavsifnomada ham diqqatning tabiati va xususiyatlari ochilmay qolaverar ekan.

Psixolog G.S.Bakradze diqqatning obyektida to'planishi faoliyatning roli haqida qiziqarli ilmiy tekshirish tajribasini o'tkazgan. Agarda diqqatni zaifligini tekshiruvchi o'z vaqtida payqab, unga nisbatan qandaydir muskul harakatini amalga oshirsa, u yana tiklanadi. Bulardan tashqari diqqat barqarorligini faoliyatning xarakteriga, shaxsning o'ziga bog'liqligi bir qancha psixologlar tomonidan isbotlangan.

Jumladan, A.P.Gazova diqqatning bo'linuvchanligini ko'p stanokda ishlovchi to'quvchilarda o'rganib, juda qimmatli materiallarni yig'adi. Uning fikricha, diqqat bu kasbdagi odamlarda ixtiyorsiz va ixtiyoriy muvozanatlashgan bo'lishi mumkin. Bir necha stanokda ishlash malakalari hosil bo'lishi natijasida bularda ixtiyoriy muvozanatlashgan diqqat turi vujudga keladi.

Diqqatning bo'linuvchanligi ustida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ikkita yoki uchta ishni birdaniga bajarish mumkin, bunda I.P.Pavlov ko'rsatganidek, ulardan biri tanish (ishlash oldin bajarilganligini eslatuvchi) va bosh miya yarim sharlar po'stlog'ida "navbatchi punktlar" mavjud bo'lsa amalga oshiriladi. Ikkita faoliyatni bir davrning o'zida bajarish uchun faoliyatning biri diqqatni talab qilmaydigan yoki avtomatlashgan bo'lishi talab qilinadi. Kishida bunday imkoniyat faqat mashq qilish orqaligina yuzaga kelishi mumkin.

Sobiq sovet psixologiyasi namoyandalari, jumladan *N.F.Dobrinin* o'zi va shogirdlari o'tkazgan tekshirishlariga asoslanib, bunday tipologiya diqqatning mohiyatini ochishga yetarli emas deb hisoblaydi. Turmushda shunday odamlar uchraydiki, ular obyektini ko'p, ham aniq idrok qila oladilar. Yana shunday toifadagi kishilar mavjudki, ular narsalarni ham kam, ham noaniq idrok qiladilar, o'zlaridan ko'p narsalarni qo'shib yuboradilar.

Tadqiqotchi **Ye.B.Pirogova** o'quvchilarda eshitish va ko'rish diqqatini o'rganib, eshitish diqqatining ko'lami ko'rish diqqatidan bir necha bor kichikligini ta'kidlab o'tadi.

Diqqat muammosini o'rganuvchi olimlar uning boshqa psixik jarayonlar bilan bog'liqligi va roli masalalarini o'rgananganlar. Jumladan, **N.N.Lange**, **A.R.Luriya** va boshqalarning tadqiqotlarida ko'rishimiz mumkin.

N.N.Lange diqqatning iroda, reflektiv, instinktiv, perseptiv holatlar bilan bog'liqligini o'zining "*Irodaviy diqqat nazariyasi*" asarida ko'rsatib beradi. **A.R.Luriyaning** fikricha, kichik yoshdagi bolalarda diqqatning bu holatini ko'rish oson. Birinchi bosqichda u beqarorligi va ko'laminin torligi uchun qo'zg'atuvchilar qurshovidagi diqqat bo'lolmaydi.

Ulug' rus pedagogi **K.D.Ushinskiy** ishlarida diqqat to'g'risida bir qator fikrlar aytilgan. Diqqat obyektini to'la va aniq idrok qilish qobiliyatiga ega. Ziyraklikning qator sabablariga oldin idrok qilingan obyekt izlarining ahamiyatidan tashqari **K.D.Ushinskiy** "*Ta'sirotning kuchi va to'plangan aktlarni boshqara olishni ko'rsatadi*". Bolaning rivojlanishi uchun diqqatini to'g'ri yo'naltira olish muhimligini ko'rsatib o'tadilar. Diqqatning to'laligi barqarorligini ta'minlovchi to'planishning psixologik mexanizmlarini muhokama qilish ham **K.D.Ushinskiyning** asarlarida uchraydi. U diqqatning asosiy omili irodaviy boshqarish deb hisoblaydi. Shuning uchun diqqatni maqsadga yo'naltirib, boshqara olish qiyin va murakkab jarayondir. **K.D.Ushinskiyning** ko'rsatishicha, kishi o'z hissiyotlarini diqqat orqali boshqaradi, bunda u ixtiyoriy yoki faol turlarga ajratadi. Uningcha, ixtiyoriy diqqat bizning tomonimizdan zo'r berish orqali o'ziga predmet tanlaydi. Ixtiyoriy diqqatni obyektivlashtirish faol xarakteridan biridir. Chunki u kishining o'zi orqali qo'zg'atiladi va qo'llaniladi.

K.D.Ushinskiyning aytishicha, ixtiyorsiz diqqat tashqi va ichki sabablarga ko'ra hosil bo'ladi. Tashqi sabablar qo'zg'atuvchining kuchiga organizmning ayni vaqtdagi holatiga bog'liq. Passiv diqqatning ichki sabablari sezgilarimiz izlarining bog'lanishidir. Idrok qilingan obyektning yangiliklar bosqichini diqqatning istovchi omili ekanligini muallif farqlaydi. Diqqat qaratilayotgan obyekt ma'lum o'lchovda bo'lishi kerak.

Diqqatning psixologik tahlilini **K.D.Ushinskiy** tarbiya muammosi bilan bog'lab, diqqatni boshqara bilishni aqliy rivojlanish va amaliy faoliyat uchun asosiy omil deb hisoblaydi. Diqqatning maqsadga muvofiq boshqarish yoki idrok qilish paytida asosiy ishdan tashqaridagilarga chalg'imaslik tushuniladi. Tarbiyachining vazifasi bolalarning faol diqqatini to'g'ri yo'nalishda ko'rish va ularning diqqatini o'zlari boshqarishga o'rgatishdan iboratdir.

K.D.Ushinskiy tomonidan yechilgan muammolar o'tkazilgan tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, u onging to'planish qobiliyatini diqqat deb tushundi, shu bois diqqatni o'rganishda shaxs psixologiyasidan kelib chiqib yondashdi va tabiiy-ilmiy jihatlarini tushuntirishda o'z davrining fiziologik bilimlaridan unumli foydalandi.

40-yillarda psixologiya fani bir qator muvaffaqiyatlarga erishdi. Psixologiya fani nazariya va tajribaga asoslangan holda juda ko'p muammolarni yechishga muvaffaq bo'ldi. Nazariy jihatdan katta o'rin olgan masalalardan biri "*Oliy psixik*

funksiyalarning rivojlanishi va tuzilishi” to’g’risidagi **L.S.Vigotskiy** ilgari surgan konsepsiyadir. Buning asosida ikkita faraz yotadi:

A) psixik faoliyatning xarakteri haqidagi;

B) birlamchi tashqi va ichki faoliyatdan ichki psixik jarayonlarning namoyon bo’lishi haqidagi.

L.S.Vigotskiy psixik funksiyalar rivojlanishini o’rgana borib, ular ichiga ixtiyoriy diqqatni ham kiritadi. Uning fikricha, bola diqqatining tarixi – bu bola hulqining paydo bo’lishi tarixidir. **L.S.Vigotskiy** ishlarining xarakterli tomoni kishi psixikasini tushunishda tarixiy va genetik yondashishdir. Buni u diqqatni o’rganishga ham tadbiiq qilgan va diqqatning rivojlanishini ko’rsata olgan. **Muallif diqqat rivojlanishining ikkita yo’nalishini ko’rsatadi.**

1.*Diqqatning natural (tabiiy) rivojlanishi.* Bunda muallif umumorganik rivojlanishini tushuntiradi, ya’ni markaziy nerv tizimining strukturaviy va funksional jihatdan o’sishini ko’rsatadi. Bu rivojlanish butun hayot davomida bo’ladi, ammo bunda “sekinlashgan” va “bir oz pasaytirilgan” ko’rinishlari mavjud.

2.*Diqqatning madaniy rivojlanishi.* Bunda ixtiyoriy diqqatning namoyon bo’lish xususiyati madaniy konsepsiya bilan bog’liq deb tushuntiriladi. Katta yoshdagi odamlar diqqatining psixologik mexanizmi haqida gapirib, tashqi operatsiya organizm xulqini ichki operatsiyasiga aylanadi, deydi. Madaniy rivojlanish bola tashqi muhit bilan aloqa qila boshlagandan o’sa boshlaydi.

L.S.Vigotskiyning ilmiy yutug’i shundan iboratki, u diqqat muammosini o’rganishda ijtimoiy va genetik nuqtai nazardan yondashdi. Ixtiyoriy diqqatni tashqi stimullar vositasida nutq funksiyasini yo’naltirish deb tushuntira oldi.

L.S.Vigotskiy ishlarini **A.N.Leontev** o’z tadqiqotlarida davom ettirib, ixtiyoriy diqqatning rivojlanishini o’rgandi. U ixtiyoriy diqqat xatti-harakatni boshqarishning oliy shakli va tarixiy rivojlanish mahsuli deb tushundi. **Bolalarda diqqat shakllarini tahlil qilib 3 ta bosqich mavjudligini ko’rsatdi.**

1. Natural bevosita, to’g’ridan-to’g’ri aktlardan iborat.

Bunda to’planish ixtiyorsiz namoyon bo’lib, asosan maktabgacha bo’lgan bolalarda vujudga keladi. Ya’ni bu bolalar o’z xulq-atvorlarini o’zlari boshqara boshlaydilar.

2. Tashqi belgining ahamiyatini egallash, tushuna bilishlari turadi. Bu bosqich boshlang’ich ta’limda asosiy rol o’ynaydi.

3. Tashqi taassurotlarning ichki ta’sirlarga aylanish jarayoni bilan bog’liq bo’lib, bu asosan katta yoshdagi kishilarda bo’ladi.

Uzoq vaqt **A.N.Leontev** maktabgacha yoshdagi bolalar diqqatini tekshiradi. Chunonchi, idrok bilan diqqat aloqasini o’rgandi. Diqqat hodisasi shunday hodisaki, u idrokning qanday kechishi bilan belgilanadi, deb tushuntirdi. **A.N.Leontev** keyingi ishlarini o’quvchilar diqqatini rivojlantirish va ularda idrokni boshqarish, ko’rish, eshitish, qo’yilgan topshiriqni tushunish kabilarni egallash muhim rol o’ynashini ko’rsatdi.

N.F.Dobrinin diqqatni kishi psixik faoliyatini biror bir obyektga yo’naltirish va to’plash bilan boshqa obyektlardan chalg’ishi orqali tushuntiradi. Agar yo’nalish va to’planish ixtiyorsiz bo’lsa ixtiyorsiz diqqat vujudga keladi. Agar ong qo’yilgan maqsadga muvofiq bo’lsa, u holda ixtiyoriy diqqat namoyon bo’ladi. Bular qatorida

N.F.Dobrinin diqqatning uchta turini ajratadi. Uning fikricha, diqqatning uchinchi turi *“Ixtiyoriydan keyingi diqqat”* deb ataladi. Bu ixtiyoriy diqqat kabi maqsadga qaratilgan bo‘lib, irodaviy zo‘r berishni talab qilmaydi. Bular to‘g‘risida **N.F.Dobrinin** shunday deydi. *“Ixtiyoriy diqqatda qiziqishga intilishga o‘rin bor, lekin bu qiziqish faoliyatning natijasiga qiziqishdir. Faoliyatning o‘zi esa qiziqarsizdir. Kishi psixik faoliyatining ajoyib xususiyati shundan iboratki, natijaga qiziqish jarayonga qiziqishga aylanadi. Bu ixtiyoriy diqqat ixtiyoriydan so‘nggi diqqatga aylanganda bo‘ladi”*.

B.G.Ananev *“O‘quvchilarda diqqatni tarbiyalash”* nomli asarida diqqatni hamma vaqt tekshirish, tadqiq qilish kerak deydi. Buning uchun mana bunday vaziyatlarga e‘tibor qilishni ko‘rsatib o‘tadi, darsni to‘g‘ri tashkil qilish, ta‘limning puxtaligi, o‘qituvchining pedagogik mahorati, o‘quvchilarning darsdagi faoliyatini to‘g‘ri tashkil qila bilish kabilarni ta‘kidlaydi. **B.G.Ananev** bu bilan diqqatning uzoq vaqt bir obyekt ustida to‘play bilish kerakligini uqtiradi.

Diqqat muammosini tadqiq qilish **I.V.Straxov** asarlarida o‘z aksini topgan. Uning qarashlariga ko‘ra, kishi diqqati kelib chiqishiga va ishlash uslubiga qarab ijtimoiy tabiatga ega. U kishilarning mehnat faoliyatiga sabab bo‘ladi va mehnat jarayonining asosiy psixologik komponentlaridan biri bo‘lib sanaladi. Diqqatning muhim belgisi faoliyat jarayonida va atrofdegilar bilan aloqada kishi psixikasining to‘planishidir.

Qator munosabatlarda to‘planish ikki xil xarakterda bo‘ladi, u predmet va hodisalarga tanlab yo‘naltiriladi, ya‘ni diqqat obyektini ongli ajratish, bu vaqtda boshqa ko‘p obyektlardan chalg‘ish vositasi bilan aktlar tizimini tashkil qiladi, to‘planish mehnat predmetiga yo‘naltiriladi, lekin uning jarayoni ham diqqat obyektini hisoblanadi. To‘planish faoliyat obyektiga va u bilan harakatga yo‘naltiradi.

Diqqat psixikaning alohida tomoni va shakli hisoblanmaydi va qandaydir birorta funksiyani bajarishga o‘z-o‘zidan ko‘chmaydi. Maqsadga yo‘nalgan, intensiv-psixik faoliyatning strukturaligi funksional asosini o‘zgarishga, mahsuldorligining oshishiga va miyaning barqaror ishlashiga olib keladi.

Kishi diqqati mehnat faoliyatiga, faoliyat jarayoniga, mehnat qurollariga yo‘naltiriladi. Diqqat predmetlari bir xil emas, balki har xil faoliyat turlarida turlicha bajariladigan mehnat operatsiyalari va vositalari kishi mehnat predmetiga ta‘sir qiladi. Bularga bog‘liq ravishda diqqatni faoliyat turlarida o‘rganish psixologik muammolari vujudga keladi. O‘tkazilgan tekshirishlar asosida **I.V.Straxov** diqqat ko‘p funksiyali jarayondir, degan xulosaga keladi. Bu funksiyalarni amaliy bajarish – mehnat, o‘qish, ilmiy va boshqa faoliyat turlaridan birortasining shart-sharoiti mahsuldorligini belgilaydi. Faoliyatning har bir turi diqqatga alohida mas‘uliyat yuklaydi. Shuning uchun uning funksiyasi faoliyatning shu turiga to‘g‘ri kelishi muhimdir.

Diqqatning nazorat qilish-tuzatish funksiyasi ham kam ahamiyatli emas. Uning shakllari mehnat va o‘quv faoliyatining har xil davrlarida bir xil bo‘lmaydi.

Diqqat alohida kishilarning munosabatlarida jamoada o‘ziga xos funksiyani bajaradi. Kishilarning kuzatuvchanligida, boshqa odamlarning psixik holatini tushunishda, ziyraklikning faol shakllarida aks etadi. Ziyraklik mehnatda va kishi bilan munosabatida ahloqiy-psixologik ahamiyatga ega bo‘ladi. Shunga muvofiq

ziyraklikning motivatsiyasi o'rganilib, uning aks etishining shakllari va ularni tarbiyalash masalasi ko'rib chiqiladi. Ziyraklikning bunday o'rganilishi uning tahlilida va shaxs psixologiyasida yangi yo'nalishdir. Ular o'z ishlarida diqqatning o'rganilishi ko'rsatilgan aspektlarini sintez qilishga harakat qiladilar.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, **I.V.Straxov** diqqatning bilish jarayonidagi ahamiyatiga uning faol psixologik aks ettirish imkoniyatiga alohida e'tibor beradi. Shuningdek, diqqat bilish faoliyatining borliq bilan aloqasida, uni keng va chuqur aks etishida muhim mexanizm bo'lib hisoblanadi.

Diqqat shaxsning yo'nalishida to'plangan jarayon sifatida ishlaydi. Keng ma'noda bu so'z asosida ehtiyoj, qiziqish, qarash, ideal kabi tarkibiy qismlar mavjud. Diqqat psixik jarayonlar tuzilishida ko'rsatilgan omillardan hosil qilingan hodisa sifatidagina qatnashmay, balki u shaxsning boshqa xususiyatlariga munosabatda tayanch xususiyat sifatida qatnashadi. Diqqat va ziyraklikning pedagogik takt (odob)ning shakllanishidagi psixologik shart-sharoit ekanligi bunga misol bo'ladi.

I.V.Straxov "Diqqat va nutq" muammosi bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borgan. U nutq shakllari va funksiyalarini hamda tasviriy faoliyatni tahlil qiladi. U o'quvchilarda sport gimnastikasi darslarini psixologik tahlil qiladi va o'rganadi.

Muallifning ta'kidlashicha, diqqatni nutqiy boshqarish quyidagi omillarda, ya'ni predmetni nomlashda, yoki maqsadli harakatlarga to'plashda, faoliyatni rejalashtirishda diqqatni ilgarilab ketish aktlarida, qidirish faoliyatlarida, diqqatni ko'chish jarayonining verbalizatsiyasida, diqqatni nazorat qilish funksiyasini aktivlashtirishda, ziyraklikning aks etishida va uning ahloqiy psixologik ahamiyatida namoyon bo'ladi.

Diqqat va butun faoliyat jarayonini boshqarish *nutqning ichki va tashqi turlari* orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, bu boshqarishda muallif fikricha, integral (yuqoridagi ikki nutq oralig'idagi) nutq ishtirok etadi. Bularni tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, grafik harakatlarni amalga oshirish aqliy – nutqiy jarayonlar ularni anglash va yo'naltirish bilan birga boradi.

Shunday qilib, diqqatni boshqarish va uni tarbiyalash, o'quvchilarda rivojlantirish masalasi **I.V.Straxov** tomonidan atroficha o'rganilgan.

Psixolog **N.V.Kuzminaning fikricha**, o'qituvchilarning dars davomida berilayotgan bilimni qanchalik o'zlashtirishi unda asosiy va yetakchi rolni diqqat o'ynaydi. Shuning uchun ham ta'lim – tarbiya jarayonida hammadan avval tarbiyachi o'quvchining diqqatini torta bilish uning asosiy maqsadi bo'lishi kerak. Bu esa o'tilgan materialni o'quvchi puxta bilishni talab qiladi. Bundan kelib chiqadiki, diqqatning tarbiyalanishi va shakllanishi ham vujudga keladi.

F.N.Gonobolin, M.R.Rahmonova D.B.Elkonin, V.V.Repkin va boshqa qator tadqiqotchilar tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarda diqqatning namoyon bo'lishi, kechishi, rivojlanishining o'ziga xos xossalari, individualligi kabi jihatlarini o'rganilgan.

Diqqatning buzilishi

Diqqatning salbiy jihatlaridan biri parisonxotirlikdir. **Parisonxotirlik** diqqatni uzoq vaqt davomida biron ishga layoqatsizlikda diqqatning osongina va tez-tez bo'linib turishida namoyon bo'lishi mumkin. Parisonxotirlikning bu ko'rinishi

ko'pincha ish qobiliyati susayib ketishining va xulq-atvordagi uyushmaganlikning sabablaridan biri hisoblanadi.

Parishonxotirlikning sabablari har xildir. Parishonxotirlik shaxsning barqaror xislati sifatida ixtiyoriy diqqatning sustligi ko'rsatkichi hisoblanadi va noto'g'ri tarbiya natijasi (bolaning erkalatib yuborilishi, jazolanmasdan qolishi, taassurotlarning har xilligiga odatlanish va boshqalar) bo'lishi mumkin. Bu xildagi parishonxotirlikka qarshi avvalo shaxsda irodaviy sifatلامي shakllantirish yo'li bilan kurash olib borish kerak. Parishonxotirlikni bola salomatligining yaxshi emasligi, nerv tizimining umuman buzilganligi bilan izohlash mumkin. Parishonxotirlik haddan tashqari hissiy hayajonlanish, yoxud charchash oqibati sifatida qisqa muddatli bo'lishi ham mumkin. So'nggi holatda u ko'pincha o'qish kuni va haftasining oxirida namoyon bo'ladi. Pedagogik ish tajribasida diqqatni tarbiyalash maqsadida parishonxotirlikning barcha sabablari va xususiyatlarini inobatga olinishi shart.

Qachonki, kishi ishga berilib ketib o'z xayollari, kechinmalari bilan bo'lib, mashg'ul bo'lgan ishidan boshqa hech narsani ko'rmayotgan va eshitmayotgan hollarda ham "parishonxotirlik" haqida so'z yuritiladi. U masalan tevarakatrofdagilarga e'tibor bermaydi, o'ziga qaratilgan savollarga parvo qilmaydi. Bunday "parishonxotirlik" diqqatning yorqin ifodalagan holdagi tanlanganligidan, uning behad jamlanganligi va jadalligidan hosil bo'ladi. Diqqatni eng ko'p darajada jamlanganligi yuqorida qayd qilib o'tilganidek, faoliyatda muvaffaqiyat qozonishning muhim sharti bo'lib hisoblanadi. Lekin diqqatning faqat bir obyektga qaratilganligi uning taqsimlanishi va ko'chirilishida qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Bu xildagi parishonxotirlik kundalik hayotda amaliy faoliyatda kishining tevarakatrofdagi olam bilan munosabatini mushkullashtirib qo'yadi va shuning uchun ham unga diqqatning nuqsoni sifatida qaraladi.

Maktab hayotidagi parishonxotirlik "qoidaga sig'maydigan" deb atalmish xatolarda dars paytida o'quvchida tegishli maktab anjomlari yo'qligining ma'lum bo'lishida, o'quvchining dars jarayoniga yetarlicha jalb etilmaganligida va shu kabi boshqa hollarda namoyon bo'ladi. Bolalarda, ayniqsa, kichik yoshdagi bolalarda parishonxotirlik juda ko'p uchraydi.

Diqqatning parishonxotirlikdan tashqari boshqa xildagi buzilishlari ham borligi e'tirof etiladi. Diqqatning haddan tashqari harakatchanligi bir obyektidan va faoliyat turidan boshqalariga doimiy ravishda o'tib turishi, yoki aksincha harakatsizligi, diqqatning sust harakat qilishi, uning tor doiradagi tasavvurlar va fikrlarga patologik tarzda qayd etilishi shular jumlasiga kiradi. Diqqatning bu xildagi buzilishlari miyaning ba'zi bir organik kasalliklari eng avvalo uning peshona qismidagi kasalliklari yuz bergan paytlarda kuzatiladi.

Diqqatning fazilatlarini bilan bir qatorda uning buzilishi va nuqsonlari bo'lishi mumkinligini psixologik jihatdan asoslangan tarzda hisobga olish diqqatni o'zida aks ettiradigan bilish jarayonlarini tadqiq etishning zarur shartidir.

Ayrim ruhiy kasallik holatlarida diqqatning inertligi (sustligi) yoki mutlaqo harakatsizligi, qandaydir biron obyekt ustida to'xtab qolish holatlarini kuzatish mumkin. Bola hayotining bir oylik davrlarida uning uchun faqat ixtiyorsiz diqqat xos bo'ladi. Bu davrda bola dastavval tashqi qo'zg'atuvchilardan, ularning keskin o'zgarishlaridan ta'sirlanadi. Masalan, to'satdan paydo bo'ladigan qattiq ovozlardan

harakatning o'zgarishidan va boshqa narsalardan ta'sirlanadi. Ixtiyoriy diqqatning alomatlari odatda bola yoshiga to'lgandan so'ng yoki ikki yoshga qadam qo'ygan davrda paydo bo'la boshlaydi. Ixtiyoriy diqqat tarbiya jarayonida yuzaga keladi, bolaning atrofidagi odamlar nima qilish lozimligini asta-sekin o'rgatadilar. Bolalar o'z diqqatlarini rivojlantirishda ulardan talab qilinayotgan harakatlarni bajarishga o'zlarining bevosita mayllaridan voz kechishlariga to'g'ri keladi. Bolada, albatta juda sodda go'daklik shakli bo'lsa ham onglilik namoyon bo'ladi. Bolani ozodalikka, tartiblilikka, ma'lum intizomlilikka, jamoat qoidalariga rioya qilishga o'rgatar ekanmiz, buning bilan biz bolada ixtiyoriy diqqatni rivojlantiramiz. Bog'cha yoshidagi davrda bolaning ixtiyoriy diqqatini rivojlantirish uchun o'yin katta ahamiyatga egadir. Bog'cha yoshidagi bolalar diqqati juda barqaror bo'ladi. Mashq qilish usuli bilan o'z diqqatini to'plash qobiliyati asta-sekin rivojlanadi.

O'quv jarayonida ixtiyoriy diqqatni tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Maktab mashg'ulotlarini intizomlashtiruvchi ta'siri, dars davomida sinfda o'tirish, o'quvchilarning so'zlarini eshitish zaruriyati, chalg'imaslik bularning hammasi ixtiyoriy diqqatni tarbiyalashda katta rol o'ynaydi. Har turli ta'lim ishlari maktabdagi o'quv mashg'uloti ustida ongning yo'nalganligi va to'planganligini saqlab turishni talab qiladi. Bolalarning hissiyotlari ko'pincha kuchli bo'ladi. Shuning uchun ularning diqqatlari qisqa vaqt ichida davom etsa ham kuchli bo'ladi.

Maktab yoshidagi bolalarning hissiyotlari ancha barqaror bo'la boshlaydi. Shuning uchun pedagog o'qish materialini hissiy daqiqalar bilan boyitar ekan, buning bilan diqqatning barqarorligi va kuchini saqlab turilishiga yordam beradi. Biror narsaga qiziqib kelgan maktab yoshidagi o'quvchi uzoq vaqt diqqatli bo'lishi mumkin. Ammo kattalarning nazorati pasayib qolsa, u zarur vazifani bajarishdan chalg'ib boshqa narsaga kirishib ketishi mumkin. Masalan, adabiyotni o'rganayotgan o'quvchi kino yoki biror o'qigan asari haqida xayol surib ketishi mumkin. Ayrim bolalar jismoniy mehnat darslarida diqqat bilan o'tirsalar boshqalari aqliy mehnatda kuchli diqqat bilan o'tiradilar. O'zi yoqtirgan darslarda kuchli diqqat bilan o'tirgan o'quvchilar boshqa darslarda o'qituvchilarni ancha tashvishga solib qo'yishlari mumkin.

O'quvchilarning o'quv fanlariga munosabati, unga diqqat bilan qarash ko'p jihatdan darsda o'quvchining o'quv materialini jonli, emotsional, qiziqarli, tushunarli, shu bilan birga to'liq va chuqur o'qita bilishga bog'liq. Bu talablarga rioya qilmaslik darsda o'quvchilarning parishonligiga yoki ikkinchi darajali qiziqishlarning paydo bo'lishiga olib keladi. O'smirlarda chuqur, barqaror qiziqishni tarbiyalash, o'qitishning mazmunini jiddiy o'ylab ko'rilganligi ularda diqqatni tarbiyalashning zaruriy sharti hisoblanadi.

Bu shart-sharoitlarga rioya qilinsa, o'smir diqqatini boshqarishga halal beradigan ba'zi impulsiv (ixtiyorsiz) harakatlarga qaramay, o'z diqqatini ixtiyoriy ravishda boshqarish va to'xtab turish mumkinligini tezda egallab oladi. U o'zi uchun qiziqarsiz va qiyin ishni diqqat bilan bajarish zarur bo'lsa, o'zini bu ishga majbur eta oladi. *Masalan*, hamma fanlardan beriladigan vazifalarga nisbatan o'smirlarda kichik maktab yoshidagi bolaga qaraganda diqqatning tashqi ifodasi ham o'zgaradi. Agar kichik yoshdagi maktab o'quvchining yuz ifodasi va gavda holati uning qanchalik

diqqatligini aniq belgilab bersa, o'smir esa o'zining diqqatsizligini yashira oladi. Faqat o'qituvchining kuzatuvchanligi orqali buni aniqlashi mumkin.

Tayanch iboralar

Diqqat – ongimizning muayyan obyektga yo'naltirilishi va unda to'planishidan iborat psixik holat.

Diqqatning barkarorligi – diqqatning ma'lum obyektga uzoq vaqt davomida mutassil qaratilish imkoniyati.

Diqqatning ko'lami – bir vaqtning o'zida diqqatning bir qancha obyektga qaratilishi imkoniyati.

Diqqatning taqsimlanishi – diqqatning bir vaqtda bir necha obyektga yoki faoliyatga taqsimlanish xususiyati.

Diqqatning ko'chishi – diqqatni ixtiyoriy ravishda bir obyektidan ikkinchi obyektga ko'chirish.

Dominanta (lot. dorainans-hukmron) – markaziy nerv tizimining vaqtincha hukmron qismi bo'lib, boshqa qismlar faoliyatini tormozlaydi.

Orientatsiya refleksi (lot. oriens – sharq reflexus – aks etish) – shartsiz refleksning bir turi, u har qanday yangi qo'zg'ovchi ta'siriga birinchi bo'lib javob beradi.

Taxistoskop (yunon. tachy tez, skopeo – ko'raman) – qat'iy belgilangan qisqa vaqt davomida ko'rish qo'zg'atuvchilarini namoyon qilish sababi. Idrok, xotira, diqqat va boshqa jarayonlarni tadqiqot qilishda ishlatiladi.

Tush ko'rish – uxlab yotgan odam bosh miya yarim sharlari qobig'idagi ba'zi nerv markazlari faoliyati natijasida uyqu vaqtida hosil bo'ladigan ma'lum darajadagi aniq obrazlar.

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan mavzular

1. Diqqat haqida tushuncha.
2. Diqqat turlari.
3. Diqqatning xususiyatlari.
4. Diqqatning rivojlanishi.
5. Parisonxotirlik tushunchasining mazmuni.
6. Jahon psixologiyasida diqqat nazariyalari.

Test topshiriqlari

1. Qaysi qatorda diqqat tushunchasiga to'g'ri tarif berilgan?

- A) ongimizning muayyan obyektga yo'naltirilishi va unda to'planishidan iborat psixik holat;
- B) insonning amaliy faoliyatiga kiritilgan bo'lib, ularning muvaffaqiyatini taminlaydi;
- V) ma'lum obyektga uzoq vaqt davomida mutassil qaratilishi;
- G) bir vaqtda bir necha obyektga yoki faoliyatga taqsimlanishi;
- D) markaziy nerv tizimining vaqtincha hukmron qismi bo'lib, boshqa qismlar faoliyatini tormozlaydi.

2. Dominanta tushunchasini fanga kiritgan olim qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) A.A. Uxtomiskiy;

- B) A.R.Luriya;
- V) I.P.Pavlov;
- G) I.M.Sechenov;
- D) P.Ya.Galperin.

3. Oliy nerv faoliyatidagi qo'zg'alishi va tormozlanish jarayonlari o'rtasidagi o'zaro munosabat..... deb ataladi.

- A) dominant;
- B) nerv jarayonlarining induksiyasi;
- V) parishonxotirlik;
- G) diqqatsizlik;
- D) retikulyar formatsiya.

4. Muayyan nerv uchastkasidagi kuchli qo'zg'aluvchanlik qobiliyatiga ega bo'lgan markaz..... deb ataladi.

- A) dominant;
- B) nerv jarayonlarining induksiyasi;
- V) parishonxotirlik;
- G) diqqatsizlik;
- D) retikulyar formatsiya.

5. Markaziy nerv tizimidagi qo'zg'alishi yoki tormozlanish jarayonlarining vaqt o'tishi bilan dastlabki paydo bo'lgan uchastkasiga to'planish qonuni nima deb ataladi?

- A) dominant;
- B) nerv jarayonlarining induksiyasi;
- V) nerv jarayonlarining konsentratsiyasi;
- G) parishonxotirlik;
- D) retikulyar formatsiya.

6. Yo'naltirish tushunchasining mazmuni qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) mazkur faoliyatga butunlay berilishi;
- B) ana shu faoliyatning tanlashgina tushunilib qolmay, balki ana shu tanlanganligini saqlab va qo'llab-quvvatlash tushuniladi;
- V) shaxs uchun ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan obyekt ustida to'planishidir;
- G) psixik faoliyatning tanlovchanlik tabiati bo'lib, obyektни ixtiyoriy va beixtiyoriy tanlash tushuniladi;
- D) diqqat xossasi bo'lib asab tizimi charchaganda shikastlanganda vujudga keladi.

7. Psixik faoliyatning yo'naltirish tushunchasiga berilgan ta'rif qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) mazkur faoliyatga butunlay berilish;
- B) ana shu faoliyatning tanlashgina tushunilib qolmay, balki ana shu tanlanganini saqlab va qo'llab-quvvatlash tushuniladi;
- V) shaxs uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan obyekt ustida to'planishidir;
- G) psixik faoliyatning tanlovchanlik tabiati bo'lib, obyektни ixtiyoriy va beixtiyoriy tanlash tushuniladi;
- D) diqqat xossasi bo'lib asab tizimi charchaganda shikastlanganda vujudga keladi.

8. Diqqatning nerv fiziologik asosi qaysi olimlar tomonidan o'rganilgan?

- A) I.P.Pavlov, A.A.Uxtomiskiy;

- B) A.A.Uxtomiskiy, I.M.Sechenov;
- V) I.P.Pavlov, I.M.Sechenov;
- G) I.P.Pavlov, A.R.Luriya;
- D) A.R.Luriya, N.M.Brenshteyn.

9. I.P.Pavlovning takidlashicha, diqqatning nerv-fiziologik asosini nima tashkil qiladi?

- A) shartli reflekslar;
- B) shartsiz reflekslar;
- V) bu nima refleksi;
- G) nerv jarayonlarining induksiyasi;
- D) dominant.

10. Nerv jarayonlarining induksiyasi qonuni qaysi olim tomonidan kashf qilingan?

- A) I.M.Sechenov;
- B) I.P.Pavlov;
- V) A.R.Luriya;
- G) A.A.Uxtomiskiy;
- D) D.B. Neblitsin.

11. To'satdan tasir qilgan biror sabab tufayli bizning hohishimizdan tashqari hosil bo'ladigan diqqatgaaytiladi.

- A) ixtiyoriy;
- B) ixtiyorsiz;
- V) ixtiyordan so'nggi diqqat;
- G) bo'linuvchanlik;
- D) konsentratsiyasi.

12. Bolalar uyquga yotgan jim-jit xonaga qamalib qolgan arining g'ing'illab uchishi va deraza oynasiga urilishi hali uxlayotgan bolalarning diqqatini..... ravishda o'ziga jalb etadi.

- A) ixtiyoriy;
- B) ixtiyoriydan so'nggi diqqat;
- V) ixtiyorsiz;
- G) bo'linuvchanlik;
- D) konsentratsiyasi.

13. Ixtiyorsiz diqqaning nerv-fiziologik asosini nima tashkil qiladi?

- A) orientirovka refleksi;
- B) tekshirish refleksi;
- V) bu nima refleksi;
- G) dominant;
- D) orientirovka yoki tekshirish refleksi.

14. Diqqatning yuzaga kelishida qaysi jarayon muhim rol o'ynaydi?

- A) sezgi;
- B) idrok;
- V) xotira;
- G) nutq;
- D) tafakkur.

15. deb oldindan belgilangan qat'iy bir maqsad asosida va ongli ravishda diqqatimizni malum narsa hamda hodisalarga qaratilishiga aytiladi.
- A) ixtiyoriy;
 - B) ixiyorsiz;
 - V) ixtiyoriydan keyingi diqqat;
 - G) bo'linuvchanlik;
 - D) konsentratsiyasi.
16. Ixtiyoriy diqqatning nerv-fiziologik asosini nima tashkil qiladi?
- A) miya yarim sharlarining po'stida vujudga keladigan optimal qo'zg'alishi;
 - B) ikkinchi signallar tizimi;
 - V) shartsiz va shartli reflekslar;
 - G) miya yarim sharlarining po'stida vujudga keladigan optimal qo'zg'alishi va ikkinchi signallar tizimi;
 - D) Barcha javoblar to'g'ri.
17. Insonda diqqat ko'lanining keng bo'lishi nimalarga bog'liq?
- A) sezgi va idrokka;
 - B) tajribasiga;
 - V) turmush tajribasiga;
 - G) narsa va hodisalarni chuqur aks ettirilishiga;
 - D) barcha javoblar to'g'ri.
18. deb odam o'z diqqatini biror narsa yoki hodisaga uzoq muddat davomida muttasil qaratib tura olishiga aytiladi.
- A) diqqatning ko'lami;
 - B) diqqatning bo'linuvchanligi;
 - V) diqqatning konsentratsiyasi;
 - G) diqqatning kuchi va barqarorligi ;
 - D) diqqatning taqsimlanganligi.
19. Diqqatning kuchli va barqaror bo'lishi ko'proq nimalarga bog'liq?
- A) diqqatimiz qaratilgan narsaning xususiyatlari va ahamiyatiga;
 - B) diqqatimiz qaratilgan narsa bilan amalga oshiriladigan faoliyatimizga;
 - V) nerv tizimining ayrim xususiyatlariga va odamning ayni chog'dagi holatiga;
 - G) diqqatimiz qaratilgan narsaning xususiyatlari, ahamiyatiga va diqqatimiz qaratilgan narsa bilan amalga oshiriladigan faoliyatimizga bog'liq;
 - D) Barcha javoblar to'g'ri .
20. ayni bir vaqtda odamning idrokiga sig'ishi mumkin bo'lgan narsalar miqdori bilan belgilanadi.
- A) diqqatning ko'lami;
 - B) diqqatning bo'linuvchanligi;
 - V) diqqatning konsentratsiyasi;
 - G) diqqatning kuchi va barqarorligi;
 - D) diqqatning taqsimlanganligi.
21. Diqqatning ko'lami qaysi asbob yordamida o'lchanadi?
- A) varometr;
 - B) manometr;
 - V) sekundometr;

- G) taxistoskop;
 D) hech qanday asbob bilan o'lchash imkoniyati yo'q.
- 22. biz ayni bir vaqtda diqqatimizning ikki uch narsaga qaratilishiga aytiladi.**
- A) diqqatning ko'lami;
 B) diqqatning bo'linuvchanligi;
 V) diqqatning konsentratsiyasi;
 G) diqqatning kuchi va barqarorligi;
 D) diqqatning taqsimlanganligi.
- 23. Agar diqqatimiz faqat bitta narsaga qaratilgan bo'lsa buni.....**
- A) diqqatning ko'lami;
 B) diqqatning bo'linuvchanligi;
 V) diqqatning konsentratsiyasi;
 G) diqqatning kuchi va barqarorligi;
 D) diqqatning taqsimlanganligi.
- 24. Agar diqqatimiz ayni bir vaqtda bir necha narsaga qaratilgan bo'lsa bu.....**
- A) diqqatning ko'lami;
 B) diqqatning bo'linuvchanligi;
 V) diqqatning konsentratsiyasi;
 G) diqqatning kuchi va barqarorligi ;
 D) diqqatning taqsimlanganligi.
- 25. Faoliyat jarayonida diqqatning ongli ravishda bir obyektidan ikkinchi obyektga ko'chirilishiga aytiladi.**
- A) diqqatning ko'lami;
 B) diqqatning bo'linuvchanligi;
 V) diqqatning konsentratsiyasi;
 G) diqqatning kuchi va barqarorligi;
 D) diqqatning taqsimlanganligi.
- 26. Ixtiyoriydan keyingi diqqat tushunchasi kim tomonidan fanga kiritilgan?**
- A) I.M. Sechenov;
 B) I.P.Pavlov;
 V) A.A. Uxtomiskiy;;
 G) N.F.Dobrinin;
 D) D.B. Elkonin.
- 27. Diqqat tushunchasini ustanovka bilan bog'lagan olim qaysi qatorda ko'rsatilgan?**
- A) D.B.Elkonin;
 B) S.L.Rubinshteyn;
 V) P.P.Blonskiy;
 G) L.S.Vigotskiy;
 D) D.N.Uznadze.
- 28. Qaysi olim diqqatning asosida ijtimoiy qiziqishlar yotishini isbotlagan?**
- A) D.B.Elkonin;
 B) S.L.Rubinshteyn;
 V) P.P.Blonskiy;

G) L.S.Vigotskiy;

D) D.N.Uznadze.

29. O'quvchilarda eshitish va ko'rish diqqatini o'rganib, eshitish diqqatining ko'lami ko'rish diqqatidan bir necha bor kichikligini ta'kidlagan olim qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) P.Ya.Galperin;

B) N.N.Lange;

V) Ye.B. Pirogova;

G) A.R.Luriya;

D) R.Ribo.

30. Diqqat muammosini o'rganib uni sakkizta turkumga ajratgan holda tahlil qilgan olim qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) P.Ya.Galperin ;

B) N.N.Lange;

V) Ye.B. Pirogova;

G) A.R.Luriya;

D) R.Ribo.

Nazorat savollari

1. Diqqat tushunchasining mohiyatini izohlang?
2. Diqqatning fiziologik asosini nima tashkil qiladi?
3. Diqqat turlarini ko'rsating?
4. Diqqatning xususiyatlarini ajratib ko'rsating?
5. Parisonxotirlik tushunchalarining mazmuni nimalarda ko'rinadi?
6. Jahon psixologiyasida diqqat nazariyalari xususida nimalarni ayta olamiz?

S E Z G I

Sezgi haqida tushuncha

Ma'lumki bizni o'rab turgan tashqi olamdagi narsa va hodisalarning juda ko'p belgi va xususiyatlari mavjud. *Masalan*, narsalarning rangi, ta'mi, hidi, qattiq yoki yumshoqligi, g'adir-budur yoki tekisligi, harorat va boshqalar. Ana shu narsa va hodisalarning turli xil belgi, xususiyatlarini biz ham turlicha sezgi a'zolarimiz orqali ongimizda aks ettiramiz.

Tevarak-atrofimizdagi narsa va hodisalarning turli xil belgi hamda xususiyatlari har doim ham bizning sezgi a'zolarimizga ta'sir etib turadi. Natijada bizda turli sezgilar hosil bo'ladi. Chunonchi, nurlarning ko'zimizga ta'sir qilishi natijasida ko'rish sezgisi, har xil tezlik va kuchlanishdagi havo to'lqinlarining qulog'imizga ta'sir etishi natijasida eshitish sezgisi, nafas olish paytida havo bilan birga burun bo'shlig'iga kirgan har turli modda zarrachalarining ta'siri natijasida hid sezgisi, biror narsani qo'limiz yoki badanimizga tegib ta'sir etish natijasida teri (taktil – biror narsaning terimizga tegishi) yoki bosim sezgisi va shu kabi sezgilar har doim hosil bo'ladi.

Demak, **sezgi** deb, atrofimizdagi narsa va hodisalarning sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etishi natijasida ularning ayrim belgi va xususiyatlarini miyamizda aks ettirilishini aytamiz.

Sezgi bilish jarayonlari ichida oddiy psixologik jarayon bo'lib, tashqi olamdagi narsa va hodisalarni aks ettiradi. Tashqi olamdan kelayotgan qo'zg'atuvchilarning muayyan retseptorlarga bevosita ta'sir etish orqali ayrim belgi va xususiyatlarni va organizm ichki holatini aks ettiradi. Ma'lumki, insondan sezishning dastlabki bosqichi hissiy bilishdan boshlanib, keyinchalik, u mantiqiy bilishga o'tadi. Sezgi ham oddiy psixologik jarayon bo'lgani bilan uning yuzaga kelishi o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

Sezgi a'zolariga ta'sir etadigan narsa va hodisaning bo'lishi.

Sezuvchi apparat, ya'ni analizatorning mavjud bo'lishi. *Masalan*, havoning sovuqligini, temirning qattiqligini, qorning yumshoqligi va boshqalarni sezamiz.

Sezgi idrok bilan bog'liq bo'ladi, lekin narsa va hodisani idrok qilishdan oldin uni sezish lozim, shu bois sezgilar materiyaning sezgi a'zolarimizga ta'siri natijasidir. Sezgi axborotlarini qabul qilib, tanlab, to'plab, har bir sekundda axborotlar oqimini qabul qilib va qayta ishlab miyaga yetkazib beradi. Natijada tevarak - atrofdagi tashqi olamni va organizm o'z ichki holatini adekvat "mos" aks ettirishi hosil bo'ladi. Sezgi a'zolari tashqi olamning inson ongiga olib kiradigan yo'llaridan biridir.

Sezgilarning nerv – fiziologik asoslari

Ma'lumki, sezgilar faqatgina tashqi ta'sirlar natijasida hosil bo'lmay, balki organizmning ichki holatida ham amalga oshiriladi. Sezgi nerv tizimining u yoki bu qo'zg'atuvchidan ta'sirlanuvchi reaksiyalari tarzida hosil bo'ladi va har qanday psixik hodisa kabi reflektorlik xususiyatiga egadir. Sezgilarning nerv–fiziologik asosini qo'zg'atuvchining o'ziga aynan o'xshaydigan analizatorga ta'siri natijasida hosil bo'ladigan nerv jarayoni tashkil qiladi. Shuningdek, sezgilarning nerv fiziologik asosini o'rganishda I.P.Pavlov ta'biri bilan aytganda analizator apparati tashkil etadi.

Analizator – tashqi va ichki muhitdan keladigan ta'sirotlarni qabul qilib olib, fiziologik jarayon bo'lgan qo'zg'alishni psixik jarayonga, ya'ni sezgilarga aylantiruvchi nerv mexanizmlari tizimi. Analizator apparati 3 qismdan tashkil topgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

➤ *periferik (retseptor) – tashqi quvvatni nerv jarayoniga o'tkazadigan maxsus transformator qismi;*

➤ *analizatorning periferik bo'limining markaziy analizator bilan bog'laydigan yo'llarni ochadigan afferent (markazga intiluvchi) va efferent (markazdan qochuvchi) nervlar;*

➤ *analizatorning periferik bo'limlaridan keladigan nerv signallarining qayta ishlanishi sodir bo'ladigan qobiq osti va qobiq bo'limlari.*

Analizatorning qobiq bo'limida retseptor hujayralarining asosiy qismi jamlangan o'zak, ya'ni markaziy qism va qobiqning turli joylarida ma'lum miqdorda mavjud tarqoq hujayra qismlaridan tarkib topgan tashqi qism bo'ladi. Analizatorning o'zak qismida retseptordan markazga intiluvchi nervlar joylashgan bo'lib, ko'plab hujayralardan iborat. Mazkur analizatorning periferik, ya'ni tarqalib ketgan qismlari

boshqa analizatorlarning o'zaklari bilan yondosh sohalariga kiradi va alohida narsalarni izlash jarayonida butun bosh miya qobig'ining katta qismi ishtirok etishiga erishiladi. Analizatorning o'zagi analiz va sintez qilish funksiyasini bajaradi, *masalan*, tovushlarning balandligi.

Tarqoq qismlar dag'al analiz funksiyalarni, *masalan* musiqiy ohang va tovushlarni farqlash bilan bog'liq bo'ladi.

Analizator nerv jarayonlarining yoxud reflektor yoyining butun yo'li manbasi va eng muhim qismini tashkil etadi. Reflektor yoyi retseptordan ta'sirotni miyaga olib boruvchi nerv yo'llari va effektordan tarkib topgandir. Reflektor yoyi elementlarning o'zaro munosabati murakkab organizmning tevarak-atrofdagi olamda to'g'ri mo'ljal olishning organizmning yashash sharoitlariga muvofiq tarzda faoliyatining negizini ta'minlaydi.

Sezgilar tasnifi va turlari

Sezgilar qaysi a'zolar yordamida hosil qilinishiga qarab, quyidagi turlarga, ya'ni *ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, teri, muskul-harakat, organik sezgilarga* ajratiladi. Ular sezgi a'zolari qaerda joylashganligiga qarab tavsiflanadi.

Jahon psixologiyasi fanining so'nggi yutuqlari hamda atamalariga binoan sezgilar quyidagicha klassifikatsiya qilinadi. Ushbu tasniflanishning dastlabki ko'rinishi ingliz olimi *Ch.Sherringtonga* taalluqlidir. U retseptorning qaerda joylashganligiga qarab, sezgilarni uch turga bo'ladi.

Tashqi muhitdagi narsa va hodisalarning xususiyatlarini aks ettirishgamoslashgan hamda retseptorlari tananing sirtqi qismida joylashgan sezgilar, ya'ni *ekstroretseptiv* sezgilar;

Ichki tana a'zolari holatlarini aks ettiruvchi hamda retseptorlari ichki tana a'zolarida, to'qimalarda joylashgan sezgilar, ya'ni *interoretseptiv* sezgilar.

Tanamiz va gadvamizning holati hamda harakatlari haqida ma'lumot (axborot, xabar) beruvchi muskullarda, bog'lovchi paylarda, mushaklarda joylashgan sezgilar, ya'ni *proprioretseptiv* sezgilar.

Sezgilarning tasnifi va bu boradagi tadqiqotlarni tahlil qilamiz. Dastlabki mulohazalar interoretseptiv sezgilar u borasida rus psixologi *A.R.Luriya* tadqiqot ishini olib borgan. Uning fikricha, interoretseptiv sezgilar asl, tub, ma'nodagi sezgilar emas, balki emotsiyalar bilan sezgilar o'rtasidagi oraliq sezgilar sifatida namoyon bo'ladi. Psixologiya fanida mazkur sezgilar to'la o'rganilmaganligi sababli uni "*noma'lum hislar*" deb atalgan. Bu asosan ichki organlarning xastaliklarida vujudga keluvchi holatlarni diagnostika qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Interoretseptiv sezgilar insonning kayfiyatida, emotsional reaksiyalari o'zgarishida ko'zga tashlanadi, bolada esa xatti-harakatning keskin o'zgarishiga sabab bo'ladi. Chunki bola tana a'zolaridagi ichki holatini anglash, his qilish imkoniyatiga ega emas. Shuning uchun undagi xatti-harakatning umumiy o'zgarishi belgilardan buni sezish mumkin.

Interoretseptiv sezgilar organizmdagi ichki jarayonlarni o'zaro o'rin almashtirish muvozanatini ta'minlab turishning asosi hisoblanadi. Bu jarayonni bir so'z bilan aytganda, organizmdagi jarayonlarni o'zaro o'rin almashib turishning

gemostazi (barqarorligi) deb ataladi. Shuningdek, mazkur sezgilar insonda yuzaga keladigan puls, zo'riqish, affekt holatlarini yo'qotish, tug'ilib kelayotgan mayllarni qondirish bilan bog'liq vazifani bajaradi. Natijada ichki tana a'zolarining faoliyatini izdan chiqarish holati yuz berishi mumkin.

Interoretseptiv sezgilarning fiziologik mexanizmlari intero-sepsiya bilan birgalikda *K.M.Bikov, V.N.Chernigovkiylar* tomonidan atroflicha o'rganilgan. Ularning fikriga ko'ra, bu narsalarning barchasi shartli reflektor faoliyati mexanizmlaridan kelib chiqadi

Proprietseptiv sezgilar gavdaning fazodagi holati to'g'risida signallar bilan ta'minlab turadi. Ular inson harakatining boshqaruvchisi hisoblanib va afferent asosini tashkil qiladi.

Pereferik retseptorlar muskullar, pay va bo'g'imlarda joylashgan bo'lib, maxsus tanachalar shakliga ega va ular *Puchchini tanachalari* deb ataladi.

Tanachalarda vujudga keluvchi qo'zg'atuvchilar muskullarning harakatlashuvi natijasida va bo'g'imlar holatining o'zgarishi, nerv tolalari yordamida, orqa miyaning orqa ustunidagi oq suyuqligiga yetkaziladi. Qo'zg'ovchilar Burdax va Goll yadrosining quyi bo'limlariga yetib keladi va undan po'stosti tugunchalaridan o'tib, bosh miya katta yarim sharining qorong'ulashgan zonasida harakatlarini yakunlaydilar.

Proprietseptorlar harakatning afferent asosi ekanligini *A.Orbeli* tomonidan, hayvonlarda *P.K.Anoxin*, odamlarda esa *N.A.Bernshteynlar* tomonidan o'rganilgan.

Psixologik ma'lumotlarga ko'ra, gavdaning fazodagi holati, sezgirligi *statik* sezgilarda o'z ifodasini topadi. Uning markazi ichki quloq kanallarida joylashgan bo'lib, ular o'zaro bir-biriga perpendikulyar bo'shliqda tutash holatda yotadi.

Masalan, bosh holatining o'zgarishi quyidagi sxemada ko'rish mumkin:

- a) endolimfa suyuqligiga bog'liq qo'zg'alish;
- b) eshitish nervi;
- v) vestibulyar nervi;
- g) bosh miya po'stining chakka bo'lmasi;
- d) miya apparatiga o'tadi;

Vestibulyator sezgi apparati ko'rish bilan bevosita aloqada bo'lib, fazoni mo'ljalga olish (orientirlash) jarayonida ishtirok etadi.

Masalan, avtomobil yo'lidan o'tish va hokazo. Bu jarayon patologik holatda ham uchrashi mumkin.

Ekstretseptiv sezgilar *intermodal, nospesifik* sezgi turkumlariga ham ajratiladi. *Masalan*, eshitish organi orqali 10-15 sekundga tebranishni sezish mumkin, lekin quloq bilan emas, balki suyaklar yordamida (miya qopqog'i, tirsak, tizza uchlari) payqash – vibratsiya sezgilari deyiladi. *Masalan*, karlarni tovushlarni idrok qilishi. Odatda vibratsion sezgirlik intermodal sezgi deb ham nomlanadi. *Uning quyidagi ko'rinishlari ham mavjud.*

- a) hid, ta'm va maza sezgilarida;
- b) o'ta kuchli tovushda, o'ta yorqin yorug'likda;
- v) uch xil ta'siming uyg'unlashgan integrativ holatida;

Sezgining nospesifik shakliga terining foto sezgirligi kirib, u ranglarni, nozik jumalarni ajratish, qo'l uchlari bilan sezish orqali ro'yobga chiqadi. Terining foto

sezgirli A.N.Leontev tomonidan kashf qilingan bo'lib, bu narsa ko'pgina holatlarga oqilona yondashish imkoniyatini vujudga keltiradi. Tadqiqot asosan qo'l uchiga yashil va qizil ranglarni yuborish orqali amalga oshirilgan. Terining foto sezgirli tabiati psixologiyada yetarli darajada o'rganilmagan.

Sezgi turlari

Psixologiya fanida uchta katta guruhga ajratilgan sezgilar (ekstrotseptiv, proprioretseptiv, introretseptiv) o'z navbatida quyidagi turlarga ajratiladi:

- ko'rish sezgilari;*
- eshitish sezgilari;*
- hid bilish sezgilari;*
- ta'm bilish sezgilari;*
- terl sezgilari;*
- muskul – harakat (kinestetik);*
- statistik sezgilar;*
- organik sezgilar;*

Ko'rish sezgilari

Insonlar tomonidan rang va yorug'likni sezish ko'rish sezgilari orqali amalga oshadi va seziladigan ranglar *xromatik* va *axromatik* turlarga bo'linadi. Psixofiziologik qonunga ko'ra, yorug'lik nurlari uchburchak shisha prizma orqali o'tib singanda hosil bo'ladigan rang *xromatik ranglar* deb atalib, ularga kamalak ranglar, ya'ni qizil, zarg'aldoq, sariq, yashil, havo rang, ko'k, binafsha tuslarini qamrab oladi. Odatda oq rang, qora rang, kulrang va ularning turlicha ko'rinishlari *axromatik ranglar* deb nomlanadi.

Ko'rish sezgilarining organi ko'z hisoblanib, u ko'z soqqasi undan chiqib keladigan ko'ruv nervlaridan tashkil topgan bo'lib, ko'z soqqasini tashqi tomirlari va to'r pardalari o'rab turadi. Tashqi pardaning tiniq bo'lmagan oq qismi *sklera yoki qotgan qattiq parda* deb nomlanadi. Uning old tomoniga joylashgan bir muncha qavariq qismi tiniq *mugus parda* bo'lib, uning oldingi qismi *rangdor parda* deb ataladi. Mazkur pardaning rangiga binoan uning tovlanishiga qarab, odamlarda ko'z ko'k, qora kabi jilva beradi. Rangdor pardaning o'rt qismida yumaloq tiniq modda bo'lib, uni *qorachig'* deb ataymiz va u orqali ko'z ichiga yorug'lik nurlari kiradi.

Ko'zning uchinchi pardasi *to'r parda* deb nomlanib, u ko'z soqqasining deyarli butun ichki yuzasini qoplaydi. Qorachig' bilan rangdor pardaning orqasida ikki tomoni qavariq, tiniq jism *ko'z gavhari* joylashgan bo'ladi. Yorug'lik nurlari unda to'planib, so'ng sinadi va to'r pardaga narsa yoki jismning aksi, surati tushadi.

Ko'z soqqasining gavhari bilan to'r parda o'rtasidagi butun ichki yuzasi *shishasimon jism* deb nomlanuvchi maxsus tiniq suyuqlik bilan qoplangan bo'ladi. To'r parda rang va yorug'likni sezish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda ko'ruv nervining tarmoqlari joylashgandir. Ushbu tarmoqlarning chekkadagi uchlarida *tayoqcha va kolbachalar* deb ataladigan maxsus nerv xujayralari mavjuddir. Inson ko'zini to'r pardasida 130 millionga yaqin tayoqchalar va kolbachalar deb ataladigan maxsus nerv hujayralari mavjuddir. Inson ko'zining to'r

pardasida 130 millionga yaqin tayoqcha va 7 millionga yaqin kolbacha bor deb taxmin qilinadi. Kolbachalar yordami bilan *xromatik*, ya'ni kunduzgi ranglar ko'riladi.

Tayoqchalar yorug'likni yaxshi sezuvchan bo'lib, xira va qorong'u paytlarda o'z funksiyasini bajaradi, *axromatik* ranglarni aks ettiradi.

To'r pardaning eng sezgir joyi – sariq dog'ning asosan, kolbachalar bilan markaziy chuqurchasi hisoblanib, unga qaysi narsaning aksi tushsa, xuddi shuni hammadan ravshanroq ko'ramiz. Obyektga tik qarash natijasida ko'z muskullari unga qaratiladi va aks ettiruvchining sur'ati sariq dog'ga tushadi. Bunday tarzda ko'rish to'g'ri ko'rish deyiladi.

Odam ko'zi ranglarning taxminan, 380 millimikrondan 780 millimikrongacha uzunlikdagi to'lqinlarning ta'sirini sezadi.

Uch rangli sezgi nazariyasining asosiy qoidalari 1756-yilda M.V.Lomonosov tomonidan bayon qilingan bo'lsa, 1856-yildan keyin nemis fizigi G.Gelmgols tomonidan uni to'la isbotlab berilgan.

Ushbu nazariyaga binoan to'r pardaning kolbachalarida uchta asosiy element mavjuddir, ulardan birining qo'zg'alishi qizil rang sezgisini, ikkinchi qo'zg'alishi yashil rang sezgisi va uchinchi qo'zg'alishi binafsha rang sezgisini hosil qiladi. Nazariyaga ko'ra, yorug'lik to'lqinlari birdaniga uchta elementni bir xilda qo'zg'atsa, oq rang sezgisi vujudga keladi. Lekin yorug'lik to'lqinlari ikki yoki uch elementga ta'sir qilsa-yu, ammo bu bir tekis kechmasa, u holda sezuvchi elementlardan har birining qanchalik qo'zg'aluvchanligiga qarab, har xil rang sezgilari namoyon bo'ladi.

Hozirgi zamon psixologiyasida ranglarni sezish yolg'iz to'r pardasidagi jarayonlar bilangina emas, balki miya po'stida yuzaga keladigan boshqa jarayonlar bilan ham bog'liq ekanligi to'g'risida ma'lumotlar mavjuddir. Zamonaviy ma'lumotlarga binoan tayoqchalarda *ko'rish purpuri* degan maxsus modda borligi isbotlangan. Ko'zga yorug'lik ta'siri etganda ko'rish purpuri kimyoviy yo'l bilan parchalanib, tarkibiy qismlarga bo'linadi va mazkur jarayon ko'rish nervini qo'zg'atib, yorug'lik sezgisini hosil qiladi va qorong'ulikda esa purpur funksional holatini qayta tiklaydi.

Eshitish sezgilari

Eshitish sezgilari tovushlarni eshitishdan iborat bo'lib, *musiqaviy va shovqinli tovushlarni* aks ettiradi. Odatda tovushlar *oddiy va murakkab* turlarga ajratiladi, ularning *birinchisi tonli*, ikkinchisi esa *bir necha tondan* tashkil topadi. Tonlardan boiri asosiy ton hisoblanib, u tovushning balandigini, kuchini belgilaydi, boshqalari keluvchi tovushlar sanalib, ular *obertonlar* deyiladi. Musiqa asboblardan taralayotgan tovushlarning o'ziga xosligi fan tilida *tembr* deb ataladi. Hatto nutq tovushlari ham *ohangli tovushlar (unli tovushlar) yoki shovqinlardan (undosh tovushlar)* tashkil topgan bo'ladi.

Eshitish sezgilari organi quloq bo'lib, tashqi quloqlar suprasi bilan eshituv yo'lidan iborat. O'sha quloqlar nog'ora parda va unga yopishgan *uchta suyakcha: bolg'acha, sopdan va uzangidan* tashkil topgan. Ichki quloq (quloq labirinti) o'zaro birlashmagan uchta bo'lakdan tuzilgan.

Tashqi quloq havo to'liqlarini yig'uvchi karnay vazifasini bajaradi. Nog'ora parda va unga yopishgan suyakchalar havo to'liqlarini ichki quloqqa uzatadi. *O'rtu quloq* maxsus yo'l orqali og'iz va burun bo'shlig'i bilan tutashgan bo'ladi. Ichki quloqlarning yuqori qismi uchta yarim doira kanalidan, o'rta qismi kameradan va pastki qismi chig'anoqdan tashkil topgan.

Ichki quloqlarning uchchala bo'limi *endolimfa* nomli suyuqlikdan iboratdir. Ichki quloqlarning asosiy qismi chig'anoqdan iborat bo'lib, uning ichida *kortiy organ* mavjud, u gumbaz shakliga ega bo'lib, asosida membrana joylashgan. Membrana uzunligi qisqarib boruvchi elastik tolalardan iborat bo'lib, ular tarang tortilgan to'rlarga o'xshaydi. Uning yuqori qismida maxsus, tayoqchasimon hujayralar mavjud va ular *kortiy dugalari* deb yuritiladi. Membrananing tolalari endolimfaga ingichka qo'llari bor maxsus hujayralar yordamida korniy dugalari orqali katta yarim sharlar po'stining bo'lagida joylashgan.

Havo to'liqlarining harakati tufayli tovush chiqaruvchi jismlar tebranganida eshitish sezgilari hosil bo'ladi. Agar musiqaviy tovushlar havo to'liqlarining sekin harakatlari natijasida vujudga kelsa, shovqinli tovushlar esa ularning notekis harakatlari natijasida yuzaga keladi. Odanning eshitish organi bir sekundda 16 martadan 20000 martagacha tebranishli tovushlarni qabul qiladi.

Hid bilish sezgilari

Hid bilish sezgilariga hidlarni his qilish kiradi va ularning organi *burun kavagining yuqori tomoni* hisoblanib, bu yerda hid bilish hujayralari hamda sezuvchi nerv tarmoqlari joylashgan. Ular shilliq pardalarda botib turadi.

Hidli moddalar sezuvchi nervni qo'zg'aydi. Hid bilish markazi bosh miya yarim sharlari orqa yuzasining pastki qismida mavjud deb taxmin qilinadi. Hidli moddalar hid bilish hujayralariga gaz holatida ta'sir etib, kimyoviy reaksiyalar yo'li bilan ularni qo'zg'atadi. Oddiy gaz holatidagi hidli moddalar havo bilan nafas olish jarayonida burun havosiga kirib keladi, natijada aks ettirish holati hosil bo'ladi.

Ta'm bilish sezgilari

Ta'm bilish sezgilari *shirin, achchiq, nordon, sho'r* singari mazalarni his qilish bilan tavsiflanadi. Ta'm bilish sezgilarining organi tilning yuzasi va tanglayning yumshoq qismidan tashkil topgan. Tilning shilliq pardasida maxsus ta'm bilish so'rg'ichlari mavjud bo'lib, ularning tarkibi tayoqchasimon hujayralardan tuzilgan maxsus ta'm bilish "kurtaklari"ga ega. Ta'm bilish so'rg'ichlari til yuzasida bir tekis taqsimlanmaganligi uchun uning *orqa qismi achchiqni, uchi shirin mazani, chetlari esa nordon mazani* sezadi. Lekin ularning o'rtasi bo'lsa mazani aks ettira olmaydi. Ta'm bilish so'rg'ichlarining hujayrali qismlarida maxsus sezuvchi nervlarning chekka uchlari joylashgan, ular ta'm bilish organidagi qo'zg'alishni bosh miyaga uzatib turadi, uning markazlariga yaqin joylashgan.

Teri sezgilari

Teri sezgilari tarkibi tuyish va harorat turlaridan iborat bo'lib, ularning bunday nomlanishining bosh omili bu retseptorlarning tarkibi va organizmning tashqi shilliq pardalarida joylashganligidadir.

Tuyish sezgilari ikki xil axborotni qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lib, *birinchisi tegish* va *tarqalishini tuyish* sezgilari, ikkinchisi esa *silliq yoki g'adir – budurni tuyish* bilan tavsiflanadi. Odatda tana a'zosiga narsalarning tegishini sezish tashqi qo'zg'atuvchi kuchayganda siqiq sezgiga aylanadi, u yanada kuchayganda og'riq sezgisiga aylanadi.

Tuyish sezgilari organi teridagi va tashqi shilliq pardalardagi *tuyish tanachalari* deb nomlanuvchi tanachalardan iborat. Tanachalarning ichida va qisman tashqarisida tuyish nervining chekka tarmoqlari mavjud, ular terida va shilliq pardalarda bir tekis taqsimlangan, barmoqlarning uchlarida til uchida labda zich joylashgan, xuddi shu boisdan sezgirlik darajasi boshqalardan yuksakroqdir.

Psixologiyada tuyish tanachalari va sezuvchi nervning chekka tarmoqlari zichligi *ektziometr asbobi* yordami bilan o'lchanadi. Asbob keriladigan ikki oyoqli sirkuldan tashkil topgan, bo'lib, uning o'zagidagi darajalar oyoqlarning uchlari o'rtasidagi masofani o'lchaydi.

Tuyish sezgilarining markazi bosh miya po'stining orqadagi markaziy nuqtasida joylashgan deb taxmin qilinadi. Tuyish sezgilarining tashqi, ya'ni fizik sababi bu biron- bir narsalarning teriga bevosita tegishidir.

Muskul – harakat sezgilari, statik sezgilar

Muskul-harakat sezgilari **motor sezgilar** deb nomlanib, ularga og'irlikni, qarshilikni, organlar harakatini bilish sezgilari kiradi. Ularning organlari–gavda muskullari, paylar, bo'g'imlardan iboratdir. Organlarning tarkibida sezuvchi nervlarning chekka tarmoqlari mavjud bo'lib, ularning ta'sirida harakat va statik sezgilar vujudga keladi.

Muskul – harakat sezgilarining fizik sababi muskullarga ta'sir etuvchi narsalarning mexanik tazyiqi va gavda harakatlari.

Statik sezgilar gavdaning fazodagi holatini sezish va muvozanat saqlash sezgilari deb ataladi.

Gavdaning fazodagi holatini bilish va muvozanat saqlash sezgisi uchun ichki quloqdagi *vestibulyar apparat* retseptor vazifasini bajaradi. Vestibulyar apparat quloq dahlizi yarim doira kanallaridan tashkil topgan bo'ladi, sezuvchi nerv tarmoqlari esa gavdaning fazodagi harakatini va holatini boshqaradi. Gavda muvozanatini saqlashda alohida ahamiyat kasb etib, ular endolimfada suzib yuradigan mayda ohaktosh kristallardan tashkil topgan.

Organik sezgilar

Organik sezgilarining retseptorlari ichki organlarda, qizilo'ngach, me'da, ichak, qon tomirlari, o'pka va shu kabilarda joylashgan bo'ladi. Ichki organlardagi jarayonlar organik sezgilar retseptorlarining qo'zg'atuvchilari. Ularga quyidagilar

kiradi: a) og'riq sezgilar; b) chanqoq sezgilari; v) noxush tuyg'ular; g) ochlikni sezish.

Sezgilarning umumiy qonuniyatlari

Sezgilarning yuzaga kelishi ma'lum qonuniyatlarning asosida yuz beradi. Sezgilar biror bir sezgi a'zosining qo'zg'alishidan hosil bo'ladi. Qo'zg'atuvchi retseptorga ta'sir etishi bilan oq sezgi hosil bo'lmaydi. Qo'zg'atuvchi ta'sir eta boshlagandan bir necha vaqtdan keyin sezgi hosil bo'ladi. Lekin sezgilarning har xil turlari faqat o'ziga xosligi bilan emas, balki ular uchun umumiy bo'lgan xususiyatlar bilan ham ifodalanadi. Sezgilarning sifati, jadalligi uzoq davom etishi va ko'p joylarda yuz berishi ana shunday xususiyatlar jumlasiga kiradi. Quyida sezgilarning xususiyatlari yaqqol ifodalangan.

Sifat – mazkur sezgining asosiy xususiyati bo'lib, uni boshqa sezgi turlaridan farqlaydi va ayni shu sezgi turi doirasida o'zgarib turadi. *Masalan*, eshitish sezgisi past-balandligi, mayinligi, zo'rliigi bilan farq qiladi va hokazo.

Sezgining jadalligi uning miqdorini ifoda etadigan xususiyat bo'lib, ta'sir kelayotgan qo'zg'atuvchining kuchi va retseptorning funksional holati bilan belgilanadi. Sezgining davomiyliigi uning vaqtinchalik xususiyati hisoblanadi. U ham sezgi a'zosining funksional holati bilan lekin asosan qo'zg'atuvchining ta'sir qilish vaqti va ta'sirning jadalligi bilan belgilanadi. Qo'zg'atuvchi sezgi a'zosiga ta'sir qilishi bilan oq sezgi hosil bo'lmaydi, balki bir oz vaqt o'tgach hosil bo'ladi. Bu sezgining *latent (yashirin) davri* deb ataladi. Latent davri har xil sezgi turi uchun turlicha, *masalan*, taktill sezgilari uchun 130 millisekund bo'lsa, og'riq sezgisi uchun 370 millisekundan iborat.

Bilinear – bilinmas sezgi hosil qiluvchi qo'zg'atuvchining minimal kuchi sezgirlikning *quyi chegarasi* deyiladi. Sezgilarning quyi chegarasi analizatorning absolyut sezgirliigi darajasini aniqlaydi. *Masalan*, 1 gramm qandni 1 piyola choydagi mazasi uncha sezilmaydi. 0.1 sm qog'ozni qo'l kaftiga qo'yilsa, uning og'irligi sezilmaydi. Sezgi chegarasining me'yorl qanchalik kichik bo'lsa, mazkur analizatorning sezgirliigi shunchalik yuksak bo'ladi.

Formulasi $E = \frac{1}{R} I$

Ye – sezgirlik R-qo'zg'atuvchining ta'sir me'yori.

Ko'rish va eshitish analizatorining sezuvchanliigi juda yuksakdir. S.I.Vavilov (1851-1951)ning tajribalarida ko'rsatilganidek, kishining ko'zlari to'r pardagi bor yo'g'i 28 kvant atrofida nur tushgan taqdirda ham yorug'likni ko'ra oladi. Tim qorong'ulikda 27 kilometr masofada yonib turgan shamni ko'rish qobiliyatiga egamiz. Ayni paytda badanimizga biror narsa tekkanini sezishimiz uchun ko'rish va eshitish sezgilari hosil bo'lishiga sarflanganiga nisbatan, 100-10000000 barovar ziyod quvvatni talab qilinadi.

Analizatorning mutlaq sezuvchanliigi sezgining faqat quyi emas, balki yuqori chegarasi bilan kifoyalanadi. Sezgining mutlaqo *yuqori sezuvchanliigi* deb qo'zg'atuvchining kuch bilan ta'sir qilishiga aytiladi. Bunda ta'sir ko'rsatayotgan qo'zg'atuvchiga aynan o'xshaydigan sezgi hosil bo'ladi. Bizning retseptorlarimizga ta'sir qilayotgan qo'zg'atuvchilar kuchining yana ham oshishi og'riq sezgisini hosil qiladi.

Sezgi a'zolari yordamida u yoki bu qo'zg'atuvchining faqat bor yo yo'qligini qayd etmasdan, balki qo'zg'atuvchilarning kuchiga va sifatiga qarab farqlay olishimiz mumkin. Sezgilari o'rtasidagi bilanar–bilinmas farqni hosil qiluvchi ikkita qo'zg'atuvchi o'rtasida mavjud bo'lgan minimal *farq ajratish chegarasi yoki ayirma chegarasi* deb ataladi.

Nemis fiziologi **E. Veber** (1795-1878) kishining o'ng va chap qo'llarida ko'tarib turgan ikkita narsaning qaysi biri og'irroq ekanligini aniqlay bilish qobiliyatini tekshirar ekan, farq ajratish sezgirliги mutloq emas, balki nisbiyligini qayd etgan edi. Bundan qo'shimcha qo'zg'atuvchining asosiy qo'zg'atuvchiga nisbatan doimiy o'lcham bo'lishi kerak, degan ma'no kelib chiqadi. Jumladan, qo'lda 100 gramm og'irlikdagi yuk turgan bo'lsa yukning bilinar–bilinmas og'irligini payqash uchun og'irlik 3.4 gramm atrofida oshirilishi kerak. Yukning og'irligi 1000 gramm bo'lgan taqdirda esa sezgi hosil qilishida salgina farq sezishi uchun og'irlik 33.3 gramm chamasi oshirilishi kerak. Shunday qilib, ilk qo'zg'atuvchining o'lchami qanchalik katta bo'lsa, unga qo'shimcha ham shunchalik katta bo'lishi lozim. Farqlanishning boshlanishi mazkur analizator uchun doimiy bo'lgan nisbiy o'lchash

bilan belgilanadi. Ko'rish analizatori uchun bu nisbat taxminan $\frac{1}{100}$ ni, eshitish analizatori uchun $\frac{1}{10}$ ni, taktil analizatori uchun, $\frac{1}{30}$ ni tashkil etadi. Bu holatni tajriba yo'li bilan tekshirish uning faqat o'rtacha kuchga ega bo'lgan qo'zg'atuvchilar uchun urinish ekanligini ko'rsatadi.

Nemis fiziği **G. Fexner** (1801-1887) **E. Veber** o'tkazgan tajribalaridan olingan ma'lumotlarga asoslanib, sezgilarning jadalligi qo'zg'atuvchining kuchiga bog'liqligini quyidagicha shaklida ifodalangan edi.

$$S = K L g^j + C$$

Bunda **S** – sezgining jadalligini, **j** – qo'zg'atuvchining kuchini, **K** va **C** konstantlar o'zgarimas, doimiyliги va miqdorlarni bildiradi. Asosiy *psixofizik qonun* nomi bilan yuritiladigan qonun quyidagicha izohlanadi. Sezgining jadalligi qo'zg'atuvchi kuchining logarifmiga proporsionaldir. Boshqacha qilib aytganda, qo'zg'atuvchining kuchi geometrik progressiya yo'li bilan osha borgan taqdirda sezgilarning jadalligi arifmetik progressiya yo'li bilan oshadi. Bu qonun *Veber – Fexner* qonuni ham deb ataladi.

Ayirma sezuvchanlik yoxud farq ajratish sezuvchanligi ham farqlanish chegarasining o'lchamiga nisbatan teskari bog'lanishda bo'ladi; farqlanish chegarasi qanchalik katta bo'lsa, ayirma sezuvchanlik ham shunchalik kam bo'ladi.

Sezgilari chegarasining absolyut me'yori bilan belgilanadigan analizatorning sezgirliги barqaror bo'lmasdan qator fiziologik va psixologik shart-sharoitlar ta'siri ostida o'zgarib turadi. Ushbu shart-sharoitlar orasida *adaptatsiya (moslashish)* hodisasi alohida o'rin egallaydi.

Adaptatsiya – yoxud moslashuv – sezgi organlari sezgirliгining qo'zg'atuvchi ta'siri ostida o'zgarishi demakdir.

Adaptatsiya (yoki moslashish) ikki turga bo'linadi:

- a) negativ adaptatsiya;
- b) pozitiv adaptatsiya.

Pozitiv adaptatsiyada kuchsiz qo'zg'atuvchi ta'siri ostida sezgirlik oshadi. Ko'rish analizatorida pozitiv adaptatsiya, qorong'ulik adaptatsiyasi deyiladi.

Negativ adaptatsiya ikki xil bo'ladi:

a) qo'zg'atuvchining davomiy ta'siridan sezgirlik yo'qoladi. *Masalan*, qo'limizga yuk qo'yilsa sezamiz, ammo vaqt o'tishi bilan sezmay qolamiz.

b) kuchli qo'zg'atuvchi ta'siridan sezgirlikning susayishi. *Masalan*, qorong'u xonadan birdaniga chiqib qolsak, avvaliga hech narsa ko'rmaymiz, vaqt o'tishi bilan sezgirlik pasayib biz normal ko'ramiz.

Adaptatsiya teri retseptorlarida tez yuzaga keladi. **I.P.Pavlov** fikricha, "*Adaptatsiya bosh miya po'stloq qismidagi muhofazalovchi tormozlanishi tufayli hosil bo'ladi*". Haroratga, hidlarga nisbatan ham adaptatsiya bo'ladi.

Sensibilizatsiya – analizatorlarning o'zaro munosabati va mashq qilishi natijasida sezgirlikning kuchayishidir.

Sensibilizatsiyaning adaptatsiyadan farqi:

-adaptatsiyada sezgirlik oshadi yoki kamayadi, sensibilizatsiyada esa faqat oshadi;

-adaptatsiyada sezgirlikning o'zgarishi tashqi chegaralarga bog'liq bo'lsa, sensibilizatsiyada psixologik, fiziologik holatlarga bog'liq bo'ladi.

Sinesteziya qo'zg'atuvchining bir analizatorga ta'siri bilan boshqa analizatorga xos sezgining paydo bo'lishidir. Ko'rish, eshitish sinesteziyasi ko'proq uchraydi. Sinesteziyalar har bir shaxs uchun doimiy bo'ladi. *Masalan*, kompozitorlardan Skrebin, A.F.Lest, N.Rimskiy Korsakovlarda "*rangdor eshitish*" qobiliyati bo'lgan. Demak, sinesteziya ikki sezgining bir sezgi bo'lib qo'shilishidir. "*Masalan*, "shirin so'z", "bag'ri tosh".

Sezgililar *kontrasti* qarama-qarshi sifatga ega bo'lgan bir vaqtdagi qo'zg'alish tufayli sezgirlikning o'zgarishidir. *Masalan*, tinch joyda tovush kuchliroq seziladi. Oqimtir fonda qora rang qoraroq, qoramtir fonda oq rang yana ham och bo'lib seziladi. Odam charchaganda sezgirlik pasayadi. Harakat oshganda sovuqqa nisbatan sezgirlik o'tkirlashadi. Sezgirlik kasbga ham bog'liq. *Masalan*, rassomlarda rang sezish, musiqachilarda tovush sezish va shu kabilar.

Sezgi borasidagi nazariyalar

Psixologiya fanida shunday ilmiy dalillar mavjudki, mobodo inson axborotlarning shaxobchasidan mahrum bo'lsa, u holda u uyqu faoliyatiga sho'ng'iydi. *Masalan*, teri tuyish sezgilari patologiyaga uchrasa, unda odam (ko'pincha vaqtincha muvaqqat) ko'rish, eshitish, hid sezgisidan mahrum bo'lishi mumkin. Mobodo axborotlarni kuzatish shaxobchasi ilk bolalik yoshi davrida buzilsa, kar yoki ko'r bo'lib qolsa, u taqdirda uning aqliy rivojlanishida keskin to'xtalish, vaqtincha orqada qolish yuzaga keladi. Agar bola maxsus usul yoki uslubga o'rgatilmasa, tabiiy ravishda mavjud kamchiliklarning o'mini to'ldirib bo'lmaydi.

Nemis faylasufi **Kristian Volf** "*Ratsional psixologiya*" (1732-yil) va "*Empirik psixologiya*" (1734-yil) kitoblarida ongning ichki holati, aqliy fikr yuritishga qobiliyatning tabiiy moddiy asosi zamiridan kelib chiqib, tashqi olamdan kelib tushadigan axborotlar shaxobchasiga, ya'ni sezgi kanaliga hech qanday bog'liq emas,

deb tushuntirishga harakat qildi. Sezgilarga mana bunday yondashish nazariyotchisi *“fanga ratsionalizm”* tushunchasi bilan birga kirib keldi. X.Volf va uning tarafdorlari psixologik jarayonlar (sezgi, idrok, xotira va boshqalar) murakkab ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli emas, degan g‘oyani ilgari surdilar.

Shuning bilan birga *“Ong”*, *“Aql”* tarixiy evalyusiya natijasi emas, deb inson psixikasiga o‘zgacha yondashib, uni izohlab berish mushkul bo‘lgan *“birlamchi”* xususiyat ekanligini tushuntirishga intiladilar. Mazkur nazariyaga asoslangan psixologlar insonning sezgilari uni tashqi olam bilan bog‘lab turuvchi birdan bir shaxobcha ekanligini inkor qilishgacha borib yetdilar va voqelikni mana bunday tarzda izohlashga harakat qildilar; sezgilar insonni tashqi olamdan ajratib turadilar, ular atrof-muhit o‘rtasidagi bartaraf qilib bo‘lmaydigan devor hisoblanadilar. *Berkli, Yung, Myuller, Gelmols* singari olimlar sezgi organlarining *“Spesifik energiyasi”* nazariyasini ishlab chiqdilar. Bu g‘oyaning asoschisi sifatida *Iogann Myuller* qat‘iy pozitsiyada turib, uni butun vujudi bilan himoya qilishga intildi. Ushbu nazariyaga binoan har qaysi sezgi a‘zosi hoh quloq, hoh til, hoh teri bo‘lishidan qat‘iy nazar tashqi dunyoning ta‘sirini aks ettirmaydi, atrof-muhitda bo‘lib turgan real, jarayonlar yuzasidan axborotlar berishga qobil emas, faqat u tashqi ta‘sirdan shaxsiy jarayonlarning qo‘zg‘atuvchisidan turtki oladi, xolos. Mazkur nazariyaga ko‘ra, har bir sezgi a‘zolari o‘zining spesifik o‘ziga xos energiyasiga ega bo‘lib, u har qanday ta‘sirdan qo‘zg‘aladi. *Masalan*, ko‘zni bosib, unga elektr toki bilan ta‘sir qilib ko‘rilsa, yorug‘lik sezgisi hosil qilinadi. Quloqqa elektr qo‘zg‘atuvchisi bilan ta‘sir o‘tkazilsa, u holda tovush sezgisi vujudga keladi. Binobarin, sezgi a‘zolari tashqi ta‘simni aks ettirmaydi, balki ularning ta‘siridan qo‘zg‘aladi. Inson hech qachon tashqi voqelikni, dunyoni obyektiv ta‘sirini idrok qilmaydi, balki sezgi a‘zolari faoliyatida o‘zlarining shaxsiy subyektiv holatlarini aks ettiradi.

Sezgilarning retseptor nazariyasiga ko‘ra, retseptor sezgi a‘zolari ularga ta‘sir qiluvchi qo‘zg‘atuvchilarga nisbatan sust javob qaytaradi, sezgilar harakatga qarama-qarshi turuvchi sust jarayondir. Harakatning o‘zi esa aksincha faol (aktiv)dir.

Hozirgi davrda sezgilarning retseptor nazariyasi mutlaqo sezgi jarayonlarining fiziologik mexanizmini ochib berishga yaroqsiz ekanligi qator tadqiqotchilar tomonidan ishonchli omillarga suyangan holda ta‘kidlab o‘tilgandir.

Sezgi jarayonining faolligini tan oluvchi nazariya sezgilarning *reflektor nazariyasi* deb ataladi. Hayvonlar va jonivorlarning sezgilari sust xususiyatga emas, balki tashqi olam ta‘sirining biologik ahamiyatga molik jihatlari faol ravishda ajratgan holda xatti-harakatni amalga oshiradilar. *Masalan*, asalari bir xil turkumdagi gullarga nisbatan aralash hollardagi gullarga faolroq javob reaksiyasini bildiradi. Mushuk sichqonning qimirlashiga e‘tiborini kuchaytiradi, lekin xuddi shunga o‘xshash kamerton tovushiga aslo parvo ham qilib qo‘ymaydi.

Bu omillar shuni ko‘rsatib turibdiki, *birinchidan*, sezgilar faollik xususiyatiga ega, *ikkinchidan*, ularning vujudga kelishida harakat tarkiblari ishtirok etadi.

AQShlik psixolog *Neffning* ta‘kidlashicha, mikroskop ostiga olib teriga igna sanchilsa, xuddi shu uchastkada reflektor harakat reaksiyalari kuzatilgan: tomirning qisishi, teri galvanik refleksi, goho ko‘z harakati, bo‘yin muskullarining, taranglashuvchi qo‘lning harakat reaksiyasi sodir bo‘lishi mumkin.

Jahon psixologlari tomonidan narsalarning murakkab tomonlarini tanish, farqlash harakatning ishtirokisiz amalga oshmasligi ta'kidlab o'tilgan. *Masalan*, ko'zni yumib, jismni farqlash uchun qo'l bilan uni paypaslash kerak, aks holda uning holati, shakli, qattiq yoki yumshoqligi g'adir-budurligini bilib, sezib bo'lmaydi.

I.M.Sechenovning fikriga ko'ra jismni ko'z bilan idrok qilish uchun ko'z o'sha narsani "qidirsin", faqat shundagina maqsadga muvofiq harakat yuzaga chiqqan bo'ladi. Hozirgi davrda psixologiya fanida ko'z harakatlari nazariyasi ishlab chiqilgan bo'lib, ular makro va mikro ixtiyoriy va ixtiyorsiz ko'rinishlarga ajratiladi.

Ular quyidagi nomlar bilan ifodalanadi: konvergent, divergent, gorizontol, vertikal, parsimon va boshqalar. Ko'z harakati yordami bilan fazoda o'rin almashib turgan jismlarni topish, bilib olish va idenfikatsiyalash amalga oshiriladi. Ko'z harakatlari uch jufti tashqi muskullari, ya'ni miya bosh suyagining III, IV va VI juft nervlari orqali ro'yobga chiqadi, ko'zning makro va mikro harakatlari sezgining mexanizmi rolini bajarish imkoniyatiga ega.

Jahon psixologiya fani ma'lumotlariga qaraganda sezgilar atrof- muhit to'g'risida va o'zimiz haqimizda yagona bilish manbai sifatida xizmat qiladi. Sezgilar shunday bir axborot kanalligi, ular tashqi olamdan va ichki tana a'zolaridan keladigan barcha holatlar, taassurotlar xuddi shu yo'llar orqali miya po'stiga yetib boradi, insonga ta'sirlarga nisbatan to'g'ri javob reaksiyalari qaytarishga yordam beradi.

His etish yoki sezgining filogenetik taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki, hayvonlarda ma'lum narsani sezish, his etish ularning biologik jihatdan zaruriyat ehtiyoj ekanligiga qarab rivojlangan.

Bu holatlar ko'pincha xorij olimlari tomonidan izchil ravishda o'rganilgan, ularning o'ziga xos omillar mexanizmlari mavjudligi ta'kidlab o'tilgan. *Masalan*, turli asalari xatti-harakatlari kuzatilganda, gulga o'xshash murakkab geometrik shaklga nisbatan asalarining differensirovkasi oson kechgan. Agarda shu murakkab geometrik shakl gullarga oid bo'lmasa, u holda arida differensirovka juda qiyinchilik bilan vujudga kelgan. Tadqiqotchi **Bosning** kuzatishicha, jonivorlar qurt-qumursqalarga xos bo'lgan tovushlarga nisbatan xuddi shu turdagi harakatlarga befarqlik bildirmagan, moboda tovushlar qattiq va tez sur'atda kechsa, ularga hech qanday e'tibor bermagan. Ushbu vazifani olim biologik shartlanganlikdan kelib chiqqan tabiiy ehtiyoj, instinkt bilan uzviy bog'lagan.

S.V.Kravkov (1893-1951) ma'lumotlariga ko'ra bir sezgi a'zolarining faoliyati ikkinchisining ta'siri tufayli o'zgaradi, tovush asosan ko'rish sezgisi, yorug'lik sezuvchanligini orttiradi, shunga o'xshash turli hidlar hamda yorug'lik va hid bilishga nisbatan sezgirlikni oshirishi yoki kamaytirishi mumkin. Bunday o'zaro ta'sir sababli miya ustuni yuqori qismi va ko'rish bo'rtiqlariga tegishli o'simtalarning yaqin joylashganligi tufayli boshqasiga o'tishi osonroq amalga oshadi.

Bundan tashqari sezgilarning o'zaro qo'zg'alishi va tormozlanishini o'rganish ham alohida ahamiyatga ega, chunki ayrim hollarda avtomatik boshqarish tufayli unga uchishda sun'iy sezgirlikning pasayishi yoki ortishi zarurati tug'iladi.

I.P.Pavlov tomonidan analizatorlarning murakkab o'zaro ta'sir shakllari mavjud ekanligi qayd etilgandir. Ular bevosita bosh miya po'stida namoyon bo'lib, bir vaqtning o'zida ko'rayotgan jismni, eshityotgan tovushni, kelayotgan hidni sezishimizda o'z ifodasini topadi. Bu bosh miya po'stida kechadigan fiziologik

jarayonlarni bosib o'tishi zarur bo'lgan zonalar *perekretik zonalar* deb nomlanadi. Sezgilarning klassifikatsiyasi ularning turli spesifik tavsiflariga, ya'ni moddalligiga qarab emas, balki tashkil etilishining har xil darajalariga qarab ham ajratiladi.

Sezgilarni obyektiv yo'nalishi bo'yicha Ye.N.Sokolov, *Vinogradovlar* tekshirganlar va ular passiv jarayon emasligi, vegetativ elementlar fiziologik nafas olish tizimida o'zgarishga sabab bo'lishini tushuntirib berilgan. Ushbu vaqt reflektor o'zgarishlarni sezgining obyektiv ko'rsatkichi sifatida ishlashga imkoniyat yaratadi. Ma'lumki, sezgini paydo qiluvchi har bir qo'zg'atuvchi, reflektor jihatdan yuzaga keluvchi jarayonlarni chaqiradi, chunonchi tomirlarning torayishini, teri galvanik reflektorlarning paydo bo'lishi, teri qalinligining o'zgarishi miyaning elektr faoliyatining o'zgarishi, ko'zlarning qo'zg'atuvchi tomon burilishi kabilar. Bularning hammasi sezgi jarayonlarning paydo bo'lishini o'z ichiga oladi. Xuddi shu sababdan ular sezgilarning obyektiv ko'rsatkichlari tariqasida xizmat qila oladi.

Tajribalarda shu narsa qayd etilganki, qo'zg'atuvchilar intensivligi oshgan sari javob reaksiyasi ham intensivroq bo'lib borar ekan. Bu esa sezgilarning intensivligini asos sifatida ishlatishga muhim negiz hozirlaydi. Tomir va elektrofizologik reaksiyalar chegaralarga odatdagi qo'zg'atuvchilarga qaraganda yaqin qo'zg'atuvchilarga nisbatan keskinroq bo'ladi.

Tayanch tushunchalar

Adaptatsiya (lot. *Adaptare* moslashtirnoq) – sezgi a'zolarining qo'zg'ovchi kuchiga moslashuvi natijasida muayyan sezgirlikning o'zgarishi.

Akkomodatsiya (yunon. *Akkomadatio* – moslashish) – ko'zning turli masofadagi narsalarni ko'rishga moslashuvi.

Analizator (yunon. *Analisis* bo'laklarga ajratish) – murakkab neyrofiziologik tizim, odamga ta'sir etuvchi qo'zg'alishlarni idrok etish va uni tahlil qilish.

Afferentatsiya (lot, *afferens* (*afferentis*) – keltiruvchi) – tashqi va ichki qo'zg'atuvchilar orqali sezgi a'zolariga ta'sir etish asosida paydo bo'lgan nerv tizimiga kelib turish jarayoni.

Binokulyar ko'rish – (lot *bini* – juft, *okuliys* – ko'z) – bitta obyektning o'zini har ikkala ko'z bilan barobar ko'rish.

Veber-Fexner qonuni – qo'zg'ovchi kuchning o'zgarishi bilan hosil bo'lgan muayyan sezgi kuchining o'zgarishi o'rtasidagi o'zaro munosabatni ifodalashdan iborat psixofiziologik qonun.

Vestibulyar apparat (lot. *vestibultuu* – boshlang'ich, *apparatus* – asbob) – fazodagi harakatlarning yo'nalishining holati va bunday harakatlar yo'nalishining o'zgarishini kuzatib baholab turishga yordam beradigan analizator (ichki quloqda joylashgan).

Interoretseptiv sezgilar – (lot. *interior* – ichki, *redpiere* – olmoq) – ichki a'zolariga joylashgan retseptorlar.

Kinestetik sezgi (yunon. *kineo* – hapakatga keltiraman) – o'z tana a'zolarining holati va harakatini propreoretseptorlar ta'siri ostida sezish.

Sezgi – psixik aks ettirishning oddiy usuli tariqasida hayvonlarga ham, odamlarga ham xos xususiyat. Voqelikdagi narsa va hodisalarning ayrim belgi va xususiyatlarini bilib olishni ta'minlaydi.

Sezgi a'zolarining o'ziga xos quvvati – sezgi a'zolarning maxsus quvvati haqidagi qonun bo'lib, bu qonunga binoan sezgi a'zolari tashqi olamdagi narsa va hodisalarning ta'sirini aks ettirmay, balki sezgi a'zolarining o'ziga xos quvvatini qo'zg'ovchi tashqi turtki deb hisoblanadi (M.Myuller).

Sezgi chegarasi – sezgining mutloq chegarasi. Minimal kuchga ega bo'lgan qo'zg'ovchining bilinar – bilinmas ta'sirini sezishga sezgining kuchi chegarasi, qo'zg'ovchining eng yuqori kuchga ega bo'lgan ta'sirini sezishga – sezgining yuqori (maksimal) chegarasi deyiladi.

Sezgirlik – o'ta sezuvchanlik, sezgi a'zolarining o'ziga ta'sir etib turgan qo'zg'ovchilarning salgina yoki unchalik farq qilmaydigan ta'sirini ajrata olish qobiliyati.

Proprioretseptiv sezgilar (lot. proprius – xususiy, maxsus, recipere – qabul qilmoq) – tananing turli qismlaridagi holatlardan va ularning harakatlaridan darak beruvchi sezgilar.

Sensibilizatsiya (lotin. sensibilis – sezuvchan) – ichki omillar ta'siri natijasida analizatorlar sezgirligining ortib ketishi.

Sensor sezgilar (lot, sensus – sezgi, his) – sezgi a'zolariga taalluqli sezgilar. Sensorika sezgi va idrokni umumlashtiruvchi tushunchadir.

Sinesteziya (yunon. sineistcsus – birgalikda sezish) – turli xildagi sezgilarning o'zaro ta'siri natijasida qo'shilib ketishi, (jumladan, eshitish va ko'ruv sezgilari kabi).

Ta'm – sezgi turi (shirin, achchiq – chuchuk, tuzli). Analizator til o'zagidagi nerv tugunlari hamda bosh miya po'stloq qismidagi ta'm bilish markazidadir.

Farq qilish chegarasi – qo'zg'ovchilar o'rtasidagi bilinar – bilinmas farqni sezish. Bu avvalgi qo'zg'ovchilar bilan keyingi qo'zg'ovchilar o'rtasidagi qandaydir farq borligini seza olishda ifodalanadi.

Eksteroretseptiv sezgilar – tashqi olamdagi narsa va hodisalarning turli xususiyatlari haqida darak beruvchi sezgilar *mas.*, ko'rish, eshitish, hid va ta'm bilishdan iborat tashqi sezgilar.

Hid bilish sezgisi – sezgi turi, xillarini aks ettirish jarayoni. Uning analizatori burun to'sig'ining shilliq pardasida joylashgan va uning markazi bosh miya po'stloq qismidadir.

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan mavzular

1. Sezgilar haqida umumiy tushuncha.
2. Sezgilarning tasnifi.
3. Sezgilarning turlari.
4. Sezgi sohasidagi qonuniyatlar.
5. Psixologiya fanida sezgi nazariyalari.
6. Veber-Fexner qonuni.

Test topshiriqlar

1. Sezgi bu ...

A) eng oddiy psixik jarayon bo'lib, narsa va hodisalar o'ziga xos xususiyatlarini ongimizda aks etishidir;

B) o'tmishdagi voqea-hodisalarga munosabat;

V) sezgi organlarimizga ta'sir etib, ongimizda to'liq aks etishi;

G) esga tushirish, esda saqlash;

- D) oddiy elementar sezuvchanlik bo'lib, tashqi ta'sirni qabul qilish hisoblanadi.
- 2. Insonning barcha sezgilari qaysi sifatlarga qarab klassifikatsiya qilinadi?**
- A) ekstrotseptiv, introtseptiv, propriotseptiv;
B) interaktiv, kommunikativ;
V) ekstrotseptiv, perseptiv;
G) interotseptiv, perseptiv;
D) ekstrotseptiv, kommunikativ.
- 3. Ekstrotseptiv sezgilarga qanday sezgilar kiradi?**
- A) ta'm bilish;
B) hid bilish;
V) teri;
G) ko'rish, eshitish;
D) barcha javoblar to'g'ri.
- 4. Eshitish sezgilarining sifati qaysi qatorda ko'rsatilgan?**
- A) ovoz balandligi;
B) ovozning kuchi;
V) ovoz tebrisi;
G) kortiyev markazlari;
D) ovoz balandligi va ovozning kuchi.
- 5. Sezgi qonuniyatlari qaysi qatorda ko'rsatilgan?**
- A) birlik;
B) doimiylik ;
V) davomiylik;
G) sezgi ostonasi;
D) barcha javoblar to'g'ri.
- 6. Sezginging kuchi nimaga bog'liq?**
- A) ta'sir kuchiga;
B) himoya kuchiga;
V) eshitish sezgisi;
G) ko'rish sezgisiga;
D) his qilish sezgisiga.
- 7. Interotseptiv sezilar bu ...**
- A) idrok va sezginging birligi;
B) organik sezgilar;
V) kinetik sezgilar;
G) vestibulyar apparat;
D) to'g'ri javob yo'q.
- 8. Sezgi kuchi ta'sir etuvchi kuchiga logarifmik proporsionaldir mazkur qonun mualliflari qaysi qatorda ko'rsatilgan?**
- A) Sechenov, Davidov;
B) Dubrovin, Pavlov;
V) Veber-Fexner;
G) Kuzmina-Lichko;
D) Mexler-Kabanova.
- 9. Sezgilar xususiyati qaysi qatorda ko'rsatilgan?**

- A) adaptatsiya, sensibilizatsiya, senesteziya;
- B) strukturaviyligi;
- V) predmetligi;
- G) konstantligi;
- D) mantiqiyli, konstantligi.

10. Sezgi organlarini ularga ta'sir etuvchi stimullarga moslashish bu..

- .A) sensibilizatsiya;
- B) senesteziya;
- V) adaptatsiya;
- G) konstantligi;
- D) interotseptiv.

11. Sensibilizatsiya bu...

- A) bir sezgiga ta'sir etuvchi qo'zg'atuvchilar yig'indisi;
- B) mashq qilishi natijasida sezgi organlarini sezuvchanligi ortishi;
- V) ko'z gavharini moslashishi;
- G) predmetlarni u haqidagi ma'lumotlarni jamlangan holati;
- D) to'g'ri javob yo'q.

12. Bir sezgiga ta'sir etuvchi qo'zg'atuvchi ikkinchi sezgini yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Mazkur qonuniyat nima deb ataladi?

- A) adaptatsiya;
- B) konstantligi;
- V) senesteziya;
- G) sensibilizatsiya;
- D) kommunikativlik.

13. Adaptatsiya turlari:

- A) negativizm, kommunikativ;
- B) pozitiv, negativ;
- V) subyekt, obyektiv;
- G) taktik negativ;
- D) ta'm bilish, eshitish.

14. Qorni ochlikni, chanqashni sezish qaysi sezgi turiga oid?

- A) to'yish;
- B) organik;
- V) eshitish ;
- G) ta'm bilish;
- D) teri sezgisi.

15. Ekstrotseptiv sezgilar modallikdan tashqari yana qanday turkumlarga ajratiladi?

- A) Proporetseptiv;
- B) Interotseptiv;
- V) Vestibulyator;
- G) Intermodal nospesifik;
- D) hech qanday turlarga ajratilmaydi.

16. Psixologik ma'lumotlarga ko'ra, gavdaning fazodagi holati, qaysi sezgilar orqali seziladi?

- A) Statik sezgilar;
- B) Ekstroretseptiv sezgilar;
- V) Interotseptiv;
- G) Nospesifik;
- D) Organik.

17. Terining foto sezgirligi kim tomonidan kashf qilingan?

- A) I. Myuller;
- B) A. N. Leont'ev;
- V) I. Pavlov;
- G) A. Orbeli, A. R. Luriya;
- D) P. X. Anoxin.

18. Vibratsiya sezgilar qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) Ko'rish, eshitish;
- B) Hidlash, teri sezgilari;
- V) Payqash. G) Payqash, maza- ta'm;
- D) Ko'rish, eshitish hidlash, teri sezgilari.

19. "Ong" va "Aql" tarixiy evolyutsiya natijasi emas, deb inson psixikasiga o'zgacha yondashuv uni izohlab berish mumkin bo'lgan birlamchi xususiyat ekanligini ilgari surgan olim qaysi qatorda ko'rsatilgan ?

- A) I. Pavlov;
- B) A. Orbeli;
- V) X. Volf;
- G) A. R. Luriya;
- D) X. Volf, I. Pavlov;

20. Psixologiya tarixida "Subyektiv idealizm" degan yo'nalish ham yuzaga kelgan bo'lib, ungacha, inson faqat o'ziligini biladi xotos. Bu nazariya o'ziga xos g'oyaga ega bo'lib fan tarixida qanday nom olgan?

- A) Spesifik;
- B) Vestibulyator;
- V) Nospesifik;
- G) Solipsizm;
- D) To'g'ri javob berilmagan

21. Psixologiyada ko'zning tur pardasida rangni sezadigan necha xil xususiyatli element bor deb aytiladi?

- A) 5 xil;
- B) 6 xil va undan ortiq;
- V) 14 xil;
- G) 2 xil;
- D) 3 xil.

22. Tuyish sezgilar fizologik asosi bosh miyaning qaysi qismida joylashgan?

- A) Chap po'stloq qismida;
- B) Bosh miya katta yarim sharlarida;
- V) Ongostida;
- G) Bosh miya po'stining orqadagi markaziy pushtasida;
- D) Chap po'stloq qismida bosh miya po'stining orqadagi markaziy pushtasida

23. A.R.Luriya fikricha Sezgilar asl, tub ma'nodagi sezgilar emas, balki emotsiyalar bilan sezgilar o'rtasidagi oraliq sezgilar sifatida namoyon bo'ladi, mazkur ta'rifda qaysi sezgi turi ko'zda tutilgan?

- A)Ekstrotseptiv;
- B)Interotseptiv;
- V)Proprotseptiv;
- G)Ekstrotseptiv interotseptiv;
- D)To'g'ri javob yo'q.

24. Birinchi turkum sezgilariga nimalar kiradi?

- A)Ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, teri tuyush;
- B)Nerv sistemasi, ko'rish;
- V)Ta'm bilish, harakat sezgilari;
- G)Teri orqali sezish;
- D)Orqa miyadan chiquvchi segmentar qism.

25. Sezgilar klassifikatsiyasi dastlabki kim tomonidan ishlab chiqilgan?

- A)A.R.Luriya;
- B)I.P.Pavlov;
- V)A.Orbeli;
- G)Ch.Sherrington;
- D)N.A.Bernshteyn.

26. Introtseptiv sezgilarning fiziologik mexanizmlari kim tomonidan o'rganilgan?

- A)P.K.Anoxin, A.Orbeli;
- B)N.A.Bernshteyn;
- V)K.M.Bikov, V.N.Chernigovskiy;
- G)A.Orbeli, K.M.Bixov;
- D)A.R.Luriya, P.K.Anoxin.

27. Qaysi analizatorda pozitiv adaptatsiya qorong'ulik adaptatsiyasi deb ataladi?

- A)Ko'rish;
- B)Eshitish;
- V)Ta'm bilish;
- G)Hid bilish;
- D)Organik.

28. Periferik retseptorlarda joylashgan maxsus tanachalar nima deb nomlanadi?

- A)Puchchini;
- B)Afferent;
- V)Eshitish nervi;
- G)Uch tarmoqli nerv;
- D)Teri yuzasida eshitish nervi.

29. Inson qaysi sezgi turidan mahrum bo'lsa, u uyqu holatiga shung'iydi?

- A)Teri tuyush sezgilaridan;
- B)Axborotlar shoxobchasidan;
- V)Ko'rish, eshitishdan;

- G)Hid bilishdan;
- D)Hid bilish va teri tuyushdan.

30. Sezgilarning nospesifik shakliga ko'ra, terining foto sezgilarini, ranglarni nozik jilolarini ajratish qanday ruyobga chiqadi?

- A)Bosh miyadan chiquvchi;
- B)Teri tuyush orqali segmentar qism orqali;
- V)Ko'rish orqali;
- G)Qo'l uchlari bilan sezish orqali;
- D)Teri tuyush orqali segmentar qism orqali, qo'l uchlari bilan sezish orqali.

Nazorat savollari

- 1.Sezgi tushunchasining mazmunini izohlang?
- 2.Sezgilarning nerv-fiziologik asoslari nimalar bilan belgilanadi?
- 3.Sezgi qanday asosga ko'ra, klassifikatsiya qilingan?
- 4.Sezgilarning turlarini sanang?
- 5.Sezgi sohasidagi qonuniyatlarni izohlang?
- 6.Psixologiya fanida sezgi nazariyalarining mohiyatini izohlang?

IDROK

Idrok haqida tushuncha

Idrok sezgilarga nisbatan murakkab va mazmundor psixik jarayon bo'lib, barcha ruhiy holatlar, xususiyatlar, xossalar va inson ongining yaxlit mazmuni egallangan bilimlar, tajribalar, ko'nikmalar bir davrning o'zida namoyon bo'ladi, aks ettirishda ishtirok etadi.

Idrok sezgiga nisbatan bir muncha murakkabroq, to'laroq aks ettirish jarayoni bo'lib, sezgi a'zolarimizga ta'sir etib turgan narsa va hodisalarni butun belgi hamda xususiyatlari bilan butunligicha, ya'ni yaxlit aks ettirishdan iboratdir. *Masalan*, olmani ko'rgan paytimizda uning shakli, rangi, ta'mi, hidi va navi bilan birgalikda bir butun narsa tarzida idrok etamiz. Demak, idrok qilish jarayonida deyarli barcha sezgilarimiz qatnashadi.

Shuning uchun ham idrok sezgiga nisbatan ancha murakkab aks ettirish jarayonidir.

Shaxs tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarning faqat ayrim xossalarini ongda aks ettirib qolmaydi, balki ularning barcha xossalarini birgalikda bir butun holda ham aks ettiradi.

Psixologik adbiyotlarda idrok tushunchasiga turlicha ta'riflar uchraydi. Jumladan, *M.Vohidovning* "Psixologiya" darsligida *idrok* deb sezgi a'zolarimizga ta'sir etayotgan narsa va hodisalarni yaxlit holicha aks ettirishga aytiladi, deb keltiriladi.

V.Karimovanning "Psixologiya" o'quv qo'llanmasida *idrok* bu bilishimizning shunday shakli, u borliqdagi ko'plab xilma-xil predmet va hodisalar orasida bizga ayni paytda kerak bo'lgan obyektini xossa va xususiyatlari bilan yaxlit tarzda aks ettirishimizni ta'minlaydi.

Keltirilgan ta'riflardan kelib chiqqan holda idrokka quyidigicha ta'rif berish mumkin: *Idrok*-deb sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan narsa-hodisalar obrazlarini kishi ongida bir butun holda aks ettirilishiga aytiladi.

Kishi narsa-hodisalarning ayrim xossalarni sezadi. Uni bir butun holda idrok qiladi. Chunki narsa va xossa bir-biridan ajralgan holda mavjud bo'lmaydi. Odam narsalarni idrok qilayotganda uning ayrim xossalarni sezadi. *Masalan*: chaqmoq qandni idrok qilinadi, uning shirinligi seziladi. Quyoshni idrok qilinadi, uning issiqligi seziladi va boshqalar.

Idrok qo'zg'atuvchilarning ayrim xususiyatlarini aks ettiruvchi sezgilardan farq qilib, narsani butunligicha, yaxlitligicha, uning hamma xususiyatlari bilan birgalikda aks ettiriladi. Shuning uchun idrok ayrim sezgilarning oddiy yig'indisidan iboratdir, degan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Idrok o'ziga xos tuzilishga ega bo'lgan hissiy bilishning sifat jihatidan yangi yuksakroq bosqichidir. Idrokning muhim tomonlaridan biri – uning xususiyatlarini turli jabhalar, vaziyatlar, sharoitlarda namoyon bo'lishidir. Idrokning muhim xususiyatlaridan biri – bu faol ravishda bevosita aks ettirish imkoniyatining mavjudligidir. Odatda insonning idrok qilish (perseptiv) faoliyatini uning o'zlashtirilgan bilimlari, to'plagan tajribalari shuningdek, murakkab analitik-sintetik harakatlar tizimi zahirida yuzaga keladi. Idrokning yana bir muhim xususiyati, uning narsa va hodisalarni umumlashgan holda aks ettirilishidir. Ma'lumki, inson psixikasiga kirib borayotgan ko'p qirrali, ko'p yoqlama amallari idrok qilish bilan cheklanib, chegaralanib qolmasdan, balki o'sha majmua aniq qism yoki hodisa sifatida baholanadi.

Idrokning navbatdagi xususiyati uning harakatchanligi va boshqaruvchanligidir. *Masalan*: toshko'mir yorug'likda yog'du sochadi, oq qog'ozdan ko'proq nur balqiydi. Lekin inson bu narsalarni "qora" va "oq" deb idrok qiladi, vujudga kelgan bevosita subyektiv taassurotlarga nisbatan o'zgartirishlar, tuzatishlar kiritadi.

Idrok jarayonida deyarli barcha sezgilarimiz ishtirok etsa ham idrok sezgilarimizning oddiy yig'indisidan iborat deb bo'lmaydi. Idrok jarayonida turli sezgilarimizdan tashqari odamning shu paytgacha orttirilgan turmush tajribasi ham ishtirok etadi. Odam o'z turmush tajribasida juda ko'p narsa va hodisalarni takror-takror idrok qilgani tufayli odamning idroki anglanilgan harakatlarga egadir. Shuning uchun yetarli turmush tajribasiga ega bo'lgan odam (ya'ni katta yoshli odamlar) idrok qilayotgan narsasi nima ekanligini anglashga yordam beradi. Hech qanday turmush tajribasiga ega bo'lmagan odam, (ya'ni chaqaloq, bolalar) idrok qilayotgan narsasi nima ekanini hali mutlaqo bilmaydi.

Idrok jarayoni shunchaki oddiy aks ettirishdan iborat emas. Idrok jarayonida odamning diqqati, xotirasi, tafakkuri, xayoli, hissiyoti va irodasi ishtirok etadi. Chunonchi, odam diqqatini qaratmasdan (yo'naltirmasdan) birorta narsani ham mutlaqo idrok eta olmaydi.

Diqqat qaratilgandagina ta'sir etayotgan narsa va hodisalarni ravshan idrok etamiz. Idrok jarayonida odamning ilgari orttirgan turmush tajribasi ishtirok qilar ekan, binobarin idrok jarayoni odamning xotirasi bilan bog'liqdir.

Idrokda har doim xususan tanish jarayoni ishtirok etadi. Tanish jarayoni qatnashayotganini tufayli odam idrok qilayotgan narsalarini darrov anglab ola biladi.

Mashhur rus fizologlaridan I.I.Sechenovning ta'kidlashicha, odam hozirgi idrokidan hosil bo'lgan obrazlar ilgari idrokida vujudga kelgan va xotirasida saqlanib qolgan obrazlar bilan taqqoslab ko'radi. Agar hozirgi idrokdan hosil bo'lgan obraz ilgari xuddi shu narsani idrok qilishdan vujudga keltirilgan obrazga to'la mos kelsa, ayni choqda idrok qilayotgan narsasini taniydi. Aksincha, agar hozirgi idrokdan hosil bo'lgan obraz ilgari obrazga mos kelmasa, ya'ni ayni choqda idrok qilayotgan narsani odam tanimasa idrok davom ettirila beradi. Idrok jarayonida nutq va tafakkurning qatnashishi shunda namoyon bo'ladi, har bir idrok nihoyasiga borib, hukm shaklida, ya'ni chigal gap shaklida ifodalanadi. Chunonchi odamni yoki biror idishni idrok qilayotganimizda idrokimizni, "bu piyola" deb tugallaymiz. Narsalarning nomini atash bilan idrokimizning mazmunini ravshanlashtiramiz. Agar idrok jarayonida narsalarning nomini atay olmasak, ya'ni idrok qilayotgan narsalar bizga notanish qandaydir yangi narsalar bo'lsa, unday paytda idrok jarayonidagi tafakkur faollashib ketadi. Odam idrok qilayotgan narsasi nima ekanligi haqida o'ylay boshlaydi.

Idrok jarayonida xayolning qatnashishi shunda ko'rinadiki, odam o'zidan allanimalarni qo'shib, idrok qilayotgan narsasidan hosil bo'lgan obrazning mazmunini kengaytirib yuboradi. *Masalan*, osmondagi to'da-to'da bulutlarga qarab, ularning shaklini nimalargadir o'xshatish mumkin. Idrok jarayonida xayolning ishtirok qilishi, xususan, bolalarda yaqqol ko'rinadi.

Idrok jarayonida his-tuyg'ularning ishtirok qilishi shu idrok qilayotgan narsalarimizga nisbatan hosil bo'ladigan munosabatlarimizda ko'rinadi. Odam idrok qilayotgan hamma narsalarga nisbatan bir xilda munosabatda bo'lmaydi. Agar odam ilgari biror narsani idrok qilayotgan paytda qattiq xafa bo'lgan, kayfiyati buzilgan bo'lsa, shu narsani yana ikkinchi marta idrok qilganda yana hissiyotlarga nisbatan bo'lsa ham sodir bo'ladi. Bundan tashqari idrok hissiy holatning ishtiroki yana shunda ochiq ravshan ko'rinadiki, odam qattiq qo'rqinch hissini boshidan kechirayotgan paytda idroki yanglish bo'ladi, ya'ni kuchli hissiy holat ta'sirida ayrim narsalar boshqacha bo'lib ko'rinadi. Chunonchi kechasi qorong'i ko'chada qo'rqib kelayotgan odamga ro'parasidagi to'nka pisib, poylab, o'tirgan odamga o'xshab ko'rinadi. Shuning uchun ham "qo'rqqanga qo'sha ko'rinar" degan xalq maqoli bejiz aytilgan emas. Aksincha, odamning kayfiyati chog', xursand paytida hamma idrok qilayotgan narsalari chiroyli va yoqimli bo'lib tuyuladi.

Ma'lumki, idrok sezgi a'zolari asosida vujudga keladi. Har bir idrok jarayonida bir necha sezgi a'zosi ishtirok etadi. Lekin ulardan biri eng muhim o'rinda turadi. *Masalan*, suratni idrok qilishda ko'rish organi, musiqa va nutqni idrok qilishda eshitish organi yetakchilik qiladi. Idrok jarayonida qaysi sezgi a'zosining yetakchilik rolini o'ynashiga qarab, idrokni bir necha turlarga ajratish mumkin. *Masalan*, ko'rish idroki, eshitish idroki, hid bilish idroki, ta'm bilish idroki va boshqalar. Bundan tashqari idrokning aralash turi ham mavjud bo'lib, bunda bir necha analizator birgalikda ishtirok etadi. *Masalan*, kinofilmni idrok qilishda ko'rish va eshitish sezgisi ishtirok etadi. Sezgilari eng oddiy elementar psixik jarayondir. Idrok esa sezgilarga qaraganda murakkab psixik jarayon hisoblanadi. Idrokning murakkabligi quyidagilarda ifodalanadi:

Har bir idrok tarkibiga ayni vaqtda bir necha sezgi kiradi. Masalan, qovunni idrok qilish, bunda quyidagi sezgilar ishtirok etadi, qovunning shakli va rangini aks ettiruvchi ko'rish sezgisi, hidini aks ettiruvchi hid sezgisi, mazasini aks ettiruvchi ta'm bilish sezgisi, harakatini aks ettiruvchi teri sezgisi va boshqalar. Bu sezgilar tahlil yordamida ajratib olinadi va idrokning perseptiv tomonini tashkil qiladi. Ular ishtirokida narsaning barcha xossalari bir butun holda aks etiriladi. Bu esa idrokning *perseptiv tomonini* tashkil qiladi. Har bir idrok tarkibiga kishining o'tmishda hosil qilingan bilim va tajribalari kiradi.

Idrokning nerv fiziologik asosi

Idrok ham sezgi kabi reflektor jarayon hisoblanadi. *I.P.Pavlov* bo'yicha idrokning negizini tevarak-atrofimizdagi narsa va hodisalar retseptorlarga ta'sir etishi natijasida bosh miyaning katta yarim sharlari qobig'ida hosil bo'ladigan shartli reflekslarning muvaqqat nerv bog'lanishlari tashkil etadi. Tashqi olamdagi narsalar va hodisalar kompleks qo'zg'atuvchi sifatida xizmat qiladi. Analizatorlarning qobiq bo'linmalar o'zagida ana shu kompleks qo'zg'atuvchilarning murakkab tahlili va sintezi amalga oshiriladi. Idrok sezgilarga qaraganda miyaning ancha yuksak darajadagi tahlil qilish, umumlashtirish faoliyati hisoblanadi. Tahlil qilmasdan turib, idrokning anglangan bo'lishi mumkin emas. Jumladan, notanish xorijiy tilda aytilgan nutq boshdan-oyoq tovushlar oqimi tarzida idrok etiladi. Nutqning anglangan holda idrok etilishi, ya'ni u tushunishi uchun nutqning alohida iboralarga e'tibori bilan so'zlarga ajratish shartidir. Ayni paytda nutqni idrok etish jarayonida tahlil bilan babbaravar tarzda sintez qilinadi, shu tufayli biz alohida tarqoq tovushlarni emas, balki so'zlarni va iboralarni idrok etamiz. Muvaqqat nerv bog'lanishlarining o'rnatilishi sintezning negizini tashkil qiladi. Idrokning negizi nerv bog'lanishlarining ikki turidan, bitta analizator doirasida hosil bo'ladigan bog'lanishlardan va analizatorlararo bog'lanishlardan tarkib topadi. Birinchi holat organizmga bitta modallikdagi kompleks qo'zg'atuvchi ta'sir etganda kuzatiladi. Eshitish analizatorlariga ta'sir qiladigan alohida tovushlarning o'ziga xos birikmasidan iborat kuy ana shunday qo'zg'atuvchi bo'lishi mumkin. Ushbu kompleksning hammasi bitta murakkab qo'zg'atuvchi sifatida ta'sir qiladi.

Kompleks qo'zg'atuvchining ta'siri ostida hosil bo'ladigan nerv bog'lanishlarining boshqa bir turi ham borki, ular turli xildagi analizatorlar doirasidagi bog'lanishlardan iboratdir. *I.M.Sechenov* narsani yoki fazoni ko'rish kinestezik, paypaslash assotsiatsiyalari orqali va boshqa sezgilarning assotsiatsiyasi orqali idrok etilishini izohlab bergan edi.

Kishidagi bog'lanishlarga albatta so'zning eshutilishi bilan obrazi ham qo'shiladiki, unda muayyan narsa yoki fazoga munosabat gavdalangan bo'ladi. Idrok negizida hosil bo'ladigan muvaqqat nerv bog'lanishlari tashqi olamdagi narsalar va hodisalar xususiyatlarining obyektiv bog'lanishlar asosida tarkib topadi. Analizatorlar o'rtasida hosil bo'ladigan bog'lanishlar tufayli biz idrokimizda narsa va hodisalarning buning uchun moslashgan analizator bo'lmagan xususiyatlarini (*masalan*, narsaning hajmi, solishtirma og'irligi) ham aks ettiramiz.

Shuning uchun ham biz idrok qilganimizda olamni sezgilarimizga nisbatan chuqurroq qilib olamiz. Bu muvaqqat nerv bog'lanishlar narsa-hodisaning birgina xossasi bilan emas, balki barcha xossalari kompleks qo'zg'atuvchilar ta'siri bilan vujudga keladi. *Masalan*, talaba butun bir dars jarayonida idrok qilayotganda o'qituvchini ko'radi, uning nutqini tinglaydi, yozadi. Bu kompleks qo'zg'atuvchilar ko'rish, eshitish, muskul-harakat retseptorlarini qo'zg'aydi. Kompleks qo'zg'atuvchilar analizatorlarning miya po'sti qismidagi yadrolarida murakkab tahlil va sintez qilishi amalga oshadi. Idrok jarayonida tahlil bilan bir vaqtda sintez ham ro'y beradi. Shuning uchun biz ayrim tovushlarni emas, butun so'z va iboralarni idrok qilamiz. Demak, idrokning nerv-fiziologik asosida ikkinchi signal tizimining muvaqqat nerv bog'lanishlari yotadi. Muvaqqat nerv bog'lanishlarining hosil bo'lish jarayonini sintez asosini ikki xil nerv bog'lanishlari tashkil qildi.

Bir analizator doirasida hosil bo'ladigan bog'lanishlar bir narsadagi kompleks qo'zg'atuvchilarining organizmga ta'sir etishdan vujudga keladi. *Masalan*, eshitish analizatoriga ta'sir qiladigan ayrim tovushlarning o'ziga birikishi shunday qo'zg'ovchi bo'la oladi. Musiqa tinglash, rasm ko'rish, ular analizatorlararo bog'lanishlar, bir narsa yoki bir necha analizatorlarga ta'sir etadi. *Masalan*, ko'rish, muskul analizatorlari, ma'ruza, monolog.

Kuzatish va kuzatuvchanlik

Idrokning o'ziga xos juda muhim xususiyatlaridan yana biri *kuzatuvchanlikdir*. Umuman olganda, idrok jarayonining hammasi kuzatish bilan har doim uzviy bog'liq. Chunki odam idrok qilayotganida nimanidir kuzatadi. Lekin ixtiyorsiz idrok jarayonidagi kuzatiladigan narsa va hodisalar odamning esida saqlanib qola bermaydi.

Kuzatishning muvaffaqiyati oldindan qo'yiladigan tayyorgarlikka, kishining bilim va tajribalariga, diqqatining kuchiga va fikrlash faolligiga bog'liq. Kishining rejali, tizimli va davomli ixtiyoriy idrok qilish qobiliyatini *kuzatuvchanlik* deyiladi. Kuzatuvchanlik shaxsning shunday xislatidirki, bunda u narsa va hodisalarning unga bilinmaydigan muhim xarakterli xususiyatlarini payqay oladi.

Akademik **I.P.Pavlov** kuzatuvchanlikning ilmiy bilimdag i ahamiyatiga yuksak baho bergan. U Sankt-Peterburg yaqinidagi Pavlova shahridagi fiziologiya institutining oldi tomoniga "*Kuzatuvchanlik, kuzatuvchanlik va yana kuzatuvchanlik*" deb yozdirib qo'ygan.

Idrokda obyekt va fon

Odamga juda ko'p narsa va hodisalar ta'sir qilib turadi. Bular shunday ko'p xossalarga egaki, hatto odam bir vaqtning o'zida ularga javob reaksiyasi qaytara olmaydi. Odam ko'p sonli qo'zg'ovchilardan faqat ayrimlarini aniq holda ajratib oladi. Shu ajratib olingan narsa hodisalar esa fon sanaladi. Idrok qilinadigan narsani o'rab turgan boshqa narsa, jism yoki hodisalarga nisbatan *obyekt* hisoblanib, obyektning atrofda gilar i esa *fon* deyiladi. *Masalan*, o'qituvchi bir darsda bir necha

o'quvchilardan so'raydi. Har safar so'rayotganlarni ko'radi. Chaqirilgan o'quvchi uning javobi xatti-harakati idrok obyektini hisoblanadi.

Muayyan sharoitda shaxs tomonidan idrok qilinadigan narsa yoki jism idrokning *obyekti* deb ataladi. Boshqa o'quvchilar faoliyati idrok foni bo'lib qoladi. Idrok foniga kirgan o'quvchi javob berish uchun chaqirilib qolsa, idrok obyektiga aylanadi va aksincha. Demak, idrok obyektini va foni dinamik tabiatga ega bo'lib, doimo o'zgarib turadi. Obyekt va fonning dinamikligi bosh miya katta yarim sharlari po'stida vujudga keladigan optimal qo'zg'atish o'chog'ining almashinishi bilan taqozo etiladigan diqqatning bir obyektidan boshqa obyektga o'tishi bilan izohlanadi. Idrok fonidan obyektini ajratishning psixologik qonuniyatlarini ikkilangan tasvirlar, shrederlar zinapoyasi, predmet konturlarini ajralishi kabilarda aniq ko'rish mumkin.

Juda ko'p hollarda obyektini fondan tez va aniq ajratib olish uchun uni alohida rang, shakl va belgilar bilan ta'kidlab qo'yiladi. *Masalan*, transport belgilari, temir yo'l ishchilari maxsus to'q sariq rangli kiyim kiyadilar va boshqalar.

Appersepsiya

Idrokning o'ziga xos xususiyatlaridan biri idrok jarayoniga butun psixik hayot mazmunining (ya'ni butun ma'naviy boyligining) ta'sir etishidir. Yuqorida aytilganidek, idrok jarayoni odamning turmush tajribasi bilan bog'liq ekan, binobarin, idrok jarayoniga bilim boyligi odamning ishonch, e'tiqodlari, dunyoqarashi, qiziqish va ehtiyojlari hamda kasbi ta'sir qiladi. Psixologiyada idrok jarayoniga odamning butun ma'naviy hayot boyligini ta'sir etishini appersepsiya deb yuritiladi. *Appersepsiya* – idrok jarayonini shaxsning oldingi bilimlari, shaxsiy va ijtimoiy tajribalari, qiziqishlari, motivasiyasi, ehtiyojlari va odatlari, umuman ruhiy hayotining barcha mazmuni bilan belgilanishidir. Appersepsiya hodisasi tufayli odamlar o'zaro idrokining mazmuni bilan bir-birlaridan muayyan darajada tafovutlanadilar, ya'ni ular aynan bir xil narsani o'zining bilimi, saviyasi, nuqtai nazarini, dunyoqarashi va ijtimoiy kelib chiqishiga asoslangan holda turlicha idrok qiladilar hamda aks ettiradilar. *Masalan*, daladagi gullab turgan paxtani oddiy bir talaba bilan tajribali agronom idrok qiladigan bo'lsa, albatta, ularning idroklari, ya'ni paxtani aks ettirishlari juda katta farq bo'ladi. Talaba shunchaki, odatdagi oddiy bir paxta sifatida aks ettirsa, agronom paxtaning qanday navi, taraqqiyotning qaysi bosqichda ekanligi, taxminan qancha hosil berishi va shu kabilar bilan birga chuqur hamda juda to'la idrok etadi. Pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo'lgan tarbiyachi bilan bunday bilimlardan mutlaqo xabarsiz bo'lgan oddiy bir onaning bolalaridagi turli ehtiyojlar va harakatlarni idrok qilishlari o'rtasida keskin farq mavjud. *Masalan*, ildiz tushunchasini bolalar o'simliklarning moddiy asosi sifatida, matematiklar sonlarning ildizi ko'rinishida, ijtimoiy nuqtai-nazardan qarindosh-urug'chilik shaklida ko'z oldiga keltiradilar. Appersepsiya tushunchasi ba'zi hollarda idrokning aniqligi, to'liqligi, ravshanligi, predmetliliigi, tanlovchanlik kabi sifatlarining ma'nosi o'rni qo'llanilgan. *Psixologik nazariyalari*ga ko'ra, appersepsiya hodisasi barqaror va vaqtincha (muvaqqat) deb yuritiluvchi ikki turga ajratiladi. *Barqaror appersepsiya hodisasi* shaxsning dunyoqarashi, qat'iy maslagi, motivasiyasi, qiziqishi, bilim saviyasi, madaniy darajasi, xulq-atvori, ma'naviyati va

kasbiy tayyorgarligiga bog'liq bo'lib, u o'ta murakkab tuzilishga egadir. *Muvaqqat (vaqtincha) appersepsiya* turi esa shaxsning faqat idrok qilishi jarayonidagi emosional holatiga, ya'ni uning kayfiyati, ruhlanishi, shijoati, stress, affekt ko'rinishidagi his-tuyg'ularida, ularning sur'ati, davomiyligi tizimida o'z ifodasini topadi.

Idrok xususiyatining yana bir o'ziga xos xususiyati uning konstantligidir. Idroknig *konstantligi* deganda biz idrok qilishdan ongimizda hosil bo'lgan obrazning real voqelikdagi bizga ta'sir etib turgan narsaning tabiiy holatiga har jihatdan mos bo'lishini tushunamiz. Ma'lumki, narsalarning hajmi (katta yoki kichikligi) shu narsalarni qanday masofadan (uzoqdan yoki yaqindan) idrok qilayotganimizga qarab o'zgarib turadi. Lekin shunday bo'lsa ham idrok qilishdan hosil bo'lgan narsalarning ongimizdagi obrazlari hamma vaqt shu narsaning tabiiy holatiga mos bo'ladi, *masalan*, katta yo'lda ketayotib, uzoqdan gugurt qutichasidek kichkina bo'lib kelayotgan avtobusni ko'rib, "kichkinagina avtobus" kelyapti demaymiz. Uzoqdagi avtobusni idrok qilishda ongimizda hosil bo'lgan obraz avtobusning real hajmiga teng bo'ladi. Yoki tepamizdan katta balandlikda uchib ketayotgan hozirgi zamon yirik passajir samolyotlarini ko'rib, kichkina samolyotchalar uchib ketishayapti, deb aytmaymiz. Biroq, shu narsani aytish kerakki, idroknig konstantligi xususiyati ham odamning turmush tajribasi bilan bog'liqdir. Chunonchi, umrida hech qachon hozirgi zamon katta passajir samolyotlarini ko'rmagan odam baland uchib ketayotgan samolyotni idrok qilib, uning real hajmini (qanchalik kattaligini) tasavvur eta olmaydi. Ko'rishda masofa, rang, shakl, hajm konstantliklari ro'y beradi. Qalamni 20 va 1sm masofadan idrok qilish, doskani 1 va 10 m masofadan idrok qilish, oq qog'oz yoki quyoshda, xona ichida, koridorda ham oq idrok qilinadi. Konstantlik hodisasida odam narsalarni ko'z shuur pardasiga tushgan suratiga aynan muvofiq ko'rmaydi, balki ular haqiqatdan qanday mavjud bo'lsa, shunday ko'radi. Bu kishining tajribasi, ommaviy faoliyati jarayonida vujudga keladi.

Illyuziya

Idrok jarayonining navbatdagi yana bir o'ziga xos xususiyati idrok qilishda ba'zan yuz beradigan illyuziya hodisasidir. *Illyuziya* – bizga ta'sir qilayotgan narsalarni yanglish idrok qilish demakdir. Odatda ikki xil illyuziya farqlanadi: *a) obyektiv illyuziya; b) subyektiv illyuziya.*

Obyektiv illyuziya – hamma odamlar uchun umumiy xarakterga ega bo'lib, uni *geometrik illyuziya* deb ham yuritiladi. Obyektiv illyuziya biz idrok qilayotgan narsalarning o'zaro bir-biriga ta'siri tufayli yuz beradi. Illyuziyaning bu turi har xil geometrik shakllarni idrok qilishda juda yaqqol ko'rinadi. *Masalan*, uzunligi baravar bo'lgan ikkita gorizontol to'g'ri chiziq chizilsa, bu chiziqning uchlariga tashqariga qaratilgan va ichkariga qaratilgan chiziq kattaroq bo'lib ko'rinadi. Idrok jarayonida yuz beradigan illyuziyaning bu turiga juda ko'plab misol keltirish mumkin. *Masalan*, baravar kattalikka ega bo'lgan uchta ketma-ket turgan to'g'ri burchakli ustunchalarni chizib, ularning atrofiga uzoqlashtiruvchi chiziqni chizsak, bu uchta ketma-ket turgan ustunchalar har xil kattalikda bo'lib ko'rinishga boshlaydi. Bu erda uzoqlashtiruvchi chiziqning ta'sirida illyuziya hosil bo'ladi.


Subyektiv illyuziyalar odamning ayni chog'dagi hissiy holati bilan bog'liq bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, odamning hissiy holatida ro'y beradigan o'zgarishlar idrok jarayoniga ta'sir qiladi. *Masalan*, yuqorida aytib o'tilganidek, odam kechasi yolg'iz ko'chada qo'rqib ketayotgan bo'lsa, har bir sharpa uning qo'rqinch hissini kuchaytirib yuboradi. Natijada uning to'parasidan chiqib qolgan butalgan daraxt qandaydir dahshatli mavjudotga o'xshab ko'rinadi.

Hayotda keng tarqalgan har xil ins-u jins, devlar, ajinalar va shu kabi nojins narsalar haqidagi ko'plab gaplar kuchli qo'rqinch hissi ta'sirida noto'g'ri idrok qilish, ya'ni subyektiv illyuziya tufayli vujudga kelgandir. Ba'zan odam qattiq qo'rqan paytida bosh miya katta yarim sharlarining po'stidagi muhim markazlardan birortasi uzoq muddatli tormozlanish holatiga tushib qolishi mumkin.

Buni akademik **I.I.Pavlov** hayotni muhofaza qiluvchi tormozlanish deb atagan edi. Ana shunday paytda tormozlanib qolgan markaz bilan bog'liq bo'lgan organizmning biror qismida keskin o'zgarish paydo bo'ladi. Chunonchi odamning og'zi yoki ko'zi qiyshayib qolishi mumkin yoki qo'li, oyog'i falaj bo'lib qolishi mumkin.

Subyektiv illyuziya hodisasi, ya'ni qattiq qo'rqinch hissi ta'sirida noto'g'ri idrok qilish hodisasi bolalarda ham uchrashi mumkin. Shuning uchun ana shu yuqoridagi mulohazalarni, ya'ni yanglish idrok natijasida paydo bo'ladigan qo'rqinchli obrazlarni nazarda tutib, hech vaqt bolalarni qo'rqitish kerak emas.

Psixologiyada ko'rish illyuziyalarining o'rganilishi muayyan o'zining tadqiqot tarixiga ega. *Masalan*, agarda biz ko'rsatkich va o'rta barmoqlarimizni chalishtirib, no'xot yoki birona dumaloq narsani chalishtirgan holda ikkala barmog'imizning uchi bilan bosib turib, shuningdek ayni bir davrda aylantiraversak, bu holda barmoqlarimizning tagida bitta emas, balki ikkita no'xot bordek his qilamiz. Ana shu holdagi bir narsaning ikkita bo'lib sezilishi *Aristotel (Arastu) illyuziyasi* deb ataladi.



Idrok qiluvchi shaxsning psixikasida ro'y beradigan o'zgarishlar bilan yuzaga keladigan *tasodifiy illyuziyalar* ham mavjuddir. Sahroda chanqagan inson uzoqda yarqirab turgan sho'rthok yerni ko'l deb idrok qilishi (lekin bu illyuziyani sahrodan farq qila olishi joiz) yoki o'rmondagi to'nka qo'rtoq insonning ko'ziga birona yirtqich hayvonga o'xshab ko'rinishi xuddi shu illyuziyalar jumlasidandir.


O'q chiziqlari illyuziyasi uzunligi baravar bo'lgan ikki o'q chiziqning chetlariga ikki xil (kesishmaydigan va kesishadigan) chiziqlar chizilsa, illyuziya paydo bo'ladi. Ya'ni, kesishadigan chiziqlar o'q chizig'iga nisbatan kesishmaydigan

chiziqlar chizilgan, o'q chizig'idan uzunroq bo'lib ko'rinadi. Bu illyuziya kesishadigan va kesishmaydigan chiziqlar tamoyillariga asoslangan.


Parallel qilib chizilgan bir necha chiziqlar parallel emas, balki har xil tomonga kesilgan chiziqlardek tuyuladi.

"Temir yo'l" illyuziyasi kesishadigan to'g'ri chiziqlarning torroq joyiga joylashgan chiziq uzunroq bo'lib ko'rinadi. Aslida esa har ikkala parallel chiziqning uzunligi tengdir.

Ikkita barovar doira shaklini chizib, ulardan birini o'sha doiradan kattaroq, ikkinchisini esa kichikroq doiralar ichiga olinsa, ikkinchi doira kattaroq ko'rinadigan bo'lib qoladi. Ya'ni kichik doiralar o'rtasida berilgan katta doiralar orasida berilganiga qaraganda kattaroq bo'lib ko'rinadi.



Birinchi odamga qaraganda ikkinchisi uzunroq, uchinchi esa undan ham uzunroq bo'lib ko'rinadi. Aslida esa ular balandligi jihatidan bir – biriga teng.



Tik chiziqlarni ortiqcha baholash illyuziyasi silindrning balandligi, hoshiyasining kengligidan kattaroq bo'lib ko'rinadi. Aslida silindrning balandligi va hoshiyasining kengligiga bab-barovar. *"Elpig'ich"* illyuziyasi-parallel chiziqlar orasidagi chiziqlarning ta'siri bilan ba'zida egilgandek, ba'zida esa burilib ketgandek bo'lib ko'rinadi.

Daryoda suzib ketayotgan katta va kichik ikki kema palubasi uzunligi jihatidan bir-biriga barovar to'g'ri chiziq kesmalari bilan tasvirlangan bo'lsada, katta kema palubasi uzunroq bo'lib ko'rinadi.

“Jonli doiralar” illyuziyasi. Katta va kichik doiralar chizilgan rasmlar aylanmaydi, albatta. Lekin kitobni qo‘lga olib, uni o‘ngdan chapga yoki chapdan o‘ngga bir necha sekund aylantirsa, doiralar go‘yo aylanayotgandek tuyuladi.


Gallyusinatsiya

Voqeikdagi narsa va hodisalarning tana a‘zolarini qabul qilish analizatorlarga bevosita ta‘sir etmasdan inson ongida turli obrazlarning (ovozlarning eshitisli, sharpalarning sezilishi) xayolan, fikran paydo bo‘lishidan iborat idrokning psixopatologik (ruhiy xastalik) hodisasiga *gallyusinatsiya* deyiladi. Gallyusinatsiya hodisasi muvaqqat ruhiy xastalikning alomati, ba‘zan qo‘rqinch hissi mahsuli hisoblanib, bosh miya katta yarim sharlari qobig‘idagi qo‘zg‘alish jarayonlarining nuqsonli sust (patologik) harakati natijasida goho asab tizimining zaharlanishi, zaiflashuvi, haddan tashqari toliqishi tufayli yuzaga kelishi mumkin. Gallyusinatsiya hodisasi bir necha xil ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin, ularning eng asosiylari quyidagilardan iboratdir: *a)yo‘q narsalarning ko‘zga ko‘rinishi; b)u yoki bu ovozlari, tovushlari eshitisli; v)yo‘q sharpalar, hidlar sezilishi kabilardir.*

Odatda illyuziyani gallyusinatsiyadan farq qila olish lozim. Illyuziya shu lahzada shaxsning sezgi a‘zolariga ta‘sir etib, turgan biror narsani yanglish, noto‘g‘ri idrok qilish jarayoni bo‘lsa, gallyusinatsiya yo‘q mavjud bo‘lmagan narsalarni tashqi ta‘suropsiz idrok qilishdir. *Masalan, yo‘q narsalarning ko‘zga bordek ko‘rinishi, yo‘q ovozlarning quloqqa eshitisli, yo‘q hidlarning dimoqqa urilishi kabilari gallyusinatsiyaning mahsuli bo‘lib hisoblanadi.* Gallyusinatsiya shaxsning biror narsa va holatni ko‘rgandek, eshitisli, his qilgandek kabi tasavvurning aks etishidir xolos. Gallyusinatsiya hodisasi ko‘pincha kasallikdan (isitma, alahsirashdan) darak beruvchi alomatdir, u nerv tizimini buzadigan kasalliklarning oqibatida ro‘y berishi mumkin.

Idrokning tasnifi

Idrokni klassifikatsiya qilishda quyidagi 3 ta muhim tomoni hisobga olinishi kerak va ular quyidagi jadvalda keltirilgan.



Idrok jarayonida qaysi analizatorning yetakchi rol o'ynashiga qarab: ko'rish, eshitish, teri tuyish knestezik harakat, hid bilish va ta'm bilish idroklari bir-biridan farq qiladi.

Yashash shakllariga qarab idrok: fazoni vaqtni va harakatni idrok qilishga bo'linadi.

Idrok faollik darajasiga qarab: ixtiyorsiz va ixtiyoriy shakllarga bo'linadi. Bunga sabab idrokning diqqat bilan uzviy bog'liqligidir. Diqqat idrokning faolligini oshiradi hamda idrokning mukammal, ravshan, aniq bo'lishiga xizmat qiladi.

Ma'lumki, idrok odatda *ixtiyoriy va ixtiyorsiz* bo'ladi. *Ixtiyorsiz idrok* hamisha ixtiyorsiz diqqat bilan bog'liq bo'lib, muayyan bir maqsadsiz, hech qanday iroda kuchi sarf qilinmasdan amalga oshiriladi. Ixtiyorsiz idrok biror narsani to'satdan, ta'sir etayotgan narsalarning boshqa narsalardan keskin farq qilishi, haddan tashqari originalligi, yorqinligi natijasida yuzaga keladi. Ixtiyorsiz idrok odamning butun faoliyati davomida uzluksiz davom etib, ayrim paytlarda ixtiyoriy idrok bilan almashinib turadi. Lekin shunday bo'lsa ham inson hayotida ixtiyoriy idrokning roli benihoya kattadir.

Ixtiyoriy idrok oldindan belgilangan muayyan bir maqsad asosida amalga oshiriladi. Idrokning ishtiroki asosan ixtiyoriy idrokda namoyon bo'ladi. Chunki ixtiyoriy idrok ko'pincha odamda irodaviy zo'r berishni talab qiladi. *Masalan*, darsni ixtiyoriy idrok bilan eshitib o'tirish odamdan anchagina iroda kuchini talab qiladi. Umuman olganda, har qanday ixtiyoriy idrokda albatta diqqat qatnashadi.

Tevarak-atrofimizdagi narsa va hodisalarni yaxlit aks ettirishdan iborat bo'lgan iroda jarayonining bir qancha o'ziga xos xususiyatlari bordir. Odatda ikki idrok turi farq qilinadi. Ulardan biri *sodda idrok* bo'lsa, ikkinchisi *murakkab idrokdir*. *Sodda idrok* deganda atrofimizdagi turli-tuman narsalari *masalan*, xonadagi stol-stullar, shkaflar hamda shkaflardagi o'yinchoqlarni idrok qilish sodda idrok qilishdan iboratdir. Idrokni tasnif qilishda materiyaning yashash shakllari – fazo, vaqt, harakat asos qilib olinadi, unga ko'ra idrok quyidagi turlarga ajratiladi: *-fazoni idrok qilish; -vaqtni idrok qilish; -harakatni idrok qilish.*

Fazoni idrok qilish

Fazoni idrok qilish voqelikdagi narsa va hodisalarning fazoda egallagan o'rmini, shaklini, miqdorini, bir-biriga nisbatan munosabatlar bilish jarayonining shaklidir. Voqelikni idrok qilish orqali inson borliq to'g'risida, uning xususiyatlari, xajmi, masofasi (ich tomonni, chuqurligi) yuzasida muayyan ma'lumotlar, xossalalar, axborotlar to'plash, ularni farqlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Fazoni idrok qilish undagi narsalarning shaklini, hajmini va o'zaro munosabatlarini aks ettirishdir. Demak, fazodagi narsalar uch o'lchovda idrok qilinadi; *narsalarning shakli:* uch burchakli, to'rt burchakli, kub, kvadrat, doira, konus va boshqalar. *Narsalarning hajmi* katta, kichik, o'rtacha, yirik, mayda va boshqalar. *Narsalarning bir-biriga va idrok qiluvchiga munosabati:* o'ngda, chapda, yuqorida, pastda, uzoqda va hokazo. Fazoni ko'rish, teri, muskul-harakat organlari bilan idrok qilinadi. Fazoni bir ko'z bilan yoki ikki ko'z bilan idrok qilamiz. *Monokulyar idrokda* narsalarning chetlaridan kelayotgan nurlar bitta ko'zning to'r

pardasida aks etadi. Bu nurlar ko'z gavharlarida bir-birini kesib o'tadi va ularning kesishgan joyida ko'rish burchagi hosil bo'ladi. Bu burchakning katta-kichikligiga hamda uning ko'zdan qanchalik uzoq-yaqinligiga bog'liq. Ko'z gavharlarining va umuman ko'zning narsalami eng yaxshi ko'rish uchun moslashuvini *akkomadatsiya* deyiladi.

Odatda fazodagi narsalarning shakli, hajmi va o'zaro munosabatlarini ikki ko'z bilan *binokulyar idrok* qilinadi.

Biz bir narsaga ikki ko'z bilan qaraymiz. Lekin narsa bitta aks etadi. Buning sababi o'sha narsadan keladigan nurlarning ko'z pardasiga mos yoki mos bo'lmagan nuqtalariga to'g'ri kelishidir.

Narsalarning fazo munosabatini *binokulyar idrok* qilishda konvergensiya muhim ahamiyatga ega.

Konvergensiya – biror narsaga qaraganda ikkala ko'z soqqasining qanshar tomon bab-barobar burilishidir. Konvergensiya masofani, chuqurligini aniq, to'liq idrok qilishga imkon beradi.

Vaqtning idrok qilish

Odamda inson tomonidan vaqtning idrok qilish asosan ruhiy hodisalar, holatlar, vaziyatlar, xususiyatlarning o'zaro o'rin almashinuvi tufayli namoyon bo'ladi va o'ziga xos tuzilishi bilan mazkur jarayonning boshqa shakllaridan farq qilib turadi. Vaqtning idrok qilish inson tomonidan aks ettirilayotgan vaqt birligining obyektiv (haqqoniy, xolis) mazmuniga, shaxsning o'ziga nisbatan munosabatiga bog'liq bo'lib, shu mezon orqali uning mahsuldorligi o'lchanadi. *Masalan*, shaxsning ehtiyoji motivatsiyasi, qiziqishi va intilishlariga mutanosib vaqt birligini, idrok birligini idrok qilgan taqdirdagina vaqt obyektiv jihatdan kechinmalar, his-tuyg'ularga nisbatan shaxsning ijobiy, haqqoniy munosabatlarida tez o'tganday idrok qilinadi, odatda yoqtirmaslik idrok maydoniga (qamroviga) nomutanosiblik esa shaxsda zerikish, vaqt "sekin" o'tish tuyg'usini uyg'otadi.

Biz idrok qilib turgan narsa-hodisalar muayyan vaqt davomida paydo bo'ladi, o'zgaradi va o'tib ketadi. Vaqt materiya mavjudligining asosiy shakllaridan biridir. Vaqtning idrok qilish voqealardagi hodisalar va ularning muntazamligini aks ettirishdir. Vaqtning idrok qilish obyektiv reallikni aks ettirib, kishini o'rab olgan muhitda mo'ljal olishiga imkon beradi. Vaqtning mo'ljal olish orientirovkasi miyaning po'st bo'limlari yordamida amalga oshadi. Lekin vaqtning idrok qiluvchi maxsus a'zo mavjud emas.

Vaqtning idrok qilishda turli analizatorlar qatnashadi, biroq vaqtlar oraliq'ining bir muncha aniq farqini kinestezik va eshitish sezgilari beradi.

Markaziy asab tizimida bosh miya katta yarim sharlarida qo'zg'alish va tormozlanishning ritmik almashinuvi vaqtning idrok qilish asosida yotadi. Agar bosh miya po'stida qo'zg'alish jarayoni ustunlik qilsa, vaqt "tez" o'tgandek, agar tormozlanish ustunlik qilsa, vaqt "sekin" o'tgandek idrok qilinadi. Vaqtning "tez" yoki "sekin" o'tishi kishining vaqtga va diqqati yo'naltirilgan obyektga munosabatiga ham bog'liq. *Masalan*, biror darsning o'tishi, kinofilmi ko'rish, avtobus yoki biror kishining kelishini kutish va hokazo. Odamlar vaqtning obyektiv belgilash, uning oraliq'ini to'g'ri farqlashga imkon beradigan narsalar oy, quyosh, yulduzlar harakatidan foydalanib kelganlar.

Harakatni idrok qilish

Biosfera va nosferadagi harakatlarni idrok qilish jismlarning (ba'zan nisbiy jihatdan boshqa ijtimoiy-siyosiy, tabiiy holatlarning) fazodagi (ijtimoiy hayotdagi) o'rin almashinuvini bevosita (bavosita) aks ettirishdan iboratdir. Shu sababdan, harakat taqqoslanmasdan idrok qilinishi ilmiy psixologik manbalarda qayd qilib o'tiladi. Mabodo harakatdagi jism uni qurshab turgan harakatsiz boshqa jismlarga taqqoslangan holda idrok qilinsa, bunday toifadagi harakat nisbatan idrok qilish deb ataladi. Agarda harakatlanayotgan jism hech qanday narsa bilan taqqoslanmasdan idrok qilinsa, bu ko'rinishdagi harakat esa nisbat berilmasdan *nisbatsiz idrok* qilish deyiladi.

Tevarak-atrofdagi narsa-hodisalar muayyan vaqt davomida o'z o'rinlarini almashtirib turadilar. Kishilar narsa-hodisalarning fazoda o'rin almashtirib turishini, ya'ni harakatini ham idrok qiladilar. Harakatni idrok qilishda ko'rish va kinestezik analizator asosiy rol o'ynaydi. Tezlik, tezlanish va harakatning yo'nalishi harakat qilayotgan obyekt parametridir. *Odam narsalarni harakati haqida ikki yo'l bilan ma'lumot olishi mumkin:*

- harakatni bevosita idrok qilish;
- harakat haqida xulosa chiqarish.

Harakatni bevosita ko'rish orqali idrok qilish ikki xildir.

a) ko'zni harakatdagi narsa bilan birga yuritish; b) ko'zni bir nuqtaga qaratib turish.

Harakat tez yoki sekin bo'layotgandek idrok qilinadi. Harakatni bunday idrok qilinishi narsalarning obyektiv tezligiga va uning idrok qilinuvchidan qanchalik uzoq yaqinligiga bog'liq. Harakatni eshitish analizatori yordami bilan ham idrok qilinadi.

Tayanch tushunchalar

Agroziya – idrokning buzilishi. Agraifiya miyaning ma'lum bir jarohatlanishida natijasida sodir bo'ladi

Appersepsiya (lot. ar - ga, qarashli, perceptio - idrok) – shaxs idrokining avvalgi bilim va tajribalariga hamda uning umumiy qiziqish, havaslariga bog'liqligi.

Attraksiya (fr. attraktion - qiziqib intilmoq, talpinmoq) – bir kishini boshqa kishi ko'rib qolganda, idrok etganda yuz beradigan tafakkur turi.

Audivizual idrok (ing. audio – eshitmoq vision – ko'rmoq) – bir vaqtning o'zida ham eshitib, xam ko'rib idrok qilish.

Gallyusinatsiya (lot. - cinatio -- alahlash) – real voqelikdagi narsa va hodisalarning analizatorlarga bevosita ta'sirisiz ongimizda turli obrazlarning xayoliy ravishda paydo bo'lishidan iborat psixopatologik hodisa.

Idrok - sezgi a'zolariga ta'sir etib turgan narsa va hodisalarni bevosita yaxlitligicha aks ettirish jarayoni.

Idrokning konstantligi – (lot. constantis - o'zgarmas, doimiy) – idrok sharoiti o'zgarsada, idrok qilishdan hosil bo'lgan narsa obrazlarning (ularning shakli, rangi, hajmi) nisbatan o'zgarmasligi, turg'unlik holati.

Idrokning predmetligi – jamiki olamdan olingan ma'lumotlarni – axborotlarni ichki olam obyektiga kiritish xususiyati.

Idrokning butunligi ~ idrok xususiyatlaridan bo'lib, bu sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan obyektlarni, ularning belgi va xususiyatlari bilan birgalikda qo'shib idrok qilishdan iborat.

Illyuziya – (lot. *illusio* - aldash) – borliqning noto'g'ri idrok etilishi.

Kuzatuvchanlik – shaxs xususiyatlaridan biri, u kishining idrok qilish jarayonida narsalarni kamdan-kam uchraydigan ammo muhim tomonlarini payqay olishida namoyon bo'ladi.

Perseptiv harakatlar (lot. *regsertio* - idrok etmoq) – idrok jarayonining asosiy tuzilishi birligi, bu idrok obyektlarini bilib olish va uni xotira obrazlari bilan solishtirishdan iborat.

Perseptiv tizim – idrokning muayyan jarayonini ta'minlovchi analizatorlar yig'indisi.

Predmetlilik (idrokda) – obyektivlashtirish holati, unda tashqi olamdan olinadigan ma'lumotlar qayta va shu borliq bilan solishtiriladi va natijada idrokning haqiqiy buyum va narsalarni qabul qilishini ta'minlaydi.

Tanlovchanlik – idrokning xususiyati, buni shaxsning yo'nalishi yoki uning tajribasini belgilab beradi.

Tuyush – idrok turlaridan biri, bu taktil va muskul – harakat sezgilaridan iborat.

Fazoni idrok qilish – voqelikdagi narsa va hodisalarning fazoda tutgan o'zini, shaklini, miqdorini uch o'lchov asosida (balandlik, kenglik, uzunlikda) bevosita aks ettirish.

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan mavzular

1. Idrok haqida tushuncha.
2. Idrokning murakkabligi.
3. Idrokda kuzatish va kuzatuvchanlik.
4. Idrokning xossalari.
5. Idrokda obyekt va fon, appersepsiya, konstantligi.
6. Idrokda illyuziya va gallyusinatsiya.
7. Idrokning tasnifi.
8. Harakatni idrok qilish.
9. Vaqtning idrok qilish.
10. Fazoni idrok qilish.
11. Idrokning anglanganligi va predmetligi.

Test topshiriqlari

1. Idrok bu ...

A) sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning obrazlarining kishi ongida bir butun holda aks ettirilishidir;

B) shaxs tevarak-atrofidagi voqealarni aks etishi;

V) bor narsani noto'g'ri anglash;

G) yo'q narsani his qilish;

D) sezgi a'zolariga ta'sir etib turgan narsa va hodisalar ayrimlarini aks etishi.

2. Sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etib turib, ongimizda bir butun holda aks etishiga ... deyiladi.

A) sezgi;

- B) idrok;
- V) xotira;
- G) xayol;
- D) tafakkur.

3. Gallyusinatsiya – bu ...

- A) bor narsani noto‘g‘ri idrok qilish;
- B) shaxsning idrok qilish qobiliyati;
- V) yo‘q narsalarni idrok qilish;
- G) idrokning shaxs va uning tajribasiga bog‘liqligi;
- D) yo‘q narsani noto‘g‘ri anglash.

4. Yo‘q narsalarni idrok qilish bu ...

- A) idrok;
- B) xayol;
- V) gallyusinatsiya;
- G) illyuziya;
- D) xotira.

5. Narsalarning sharoiti o‘zgarsada obrazining o‘zgarishligi bu...

- A) idrok;
- B) sezgi;
- V) xotira;
- G) gallyusinatsiya;
- D) idrok konstantaligi.

6. Idrok konstantaligi bu...

- A) narsalar sharoiti o‘zgarsada, obrazi o‘zgarishligi;
- B) shaxsning idrok qilish qobiliyati;
- V) idrokning shaxs va uning tajribasiga bog‘liqligi;
- G) vaqtni idrok qilish;
- D) harakatni idrok qilish.

7. Illyuziya bu...

- A) bir nimani his qilib anglash;
- B) shaxsning idrok qilish qobiliyati;
- V) idrokning shaxsiga bog‘liqligi;
- G) bor narsani noto‘g‘ri, yangilash idrok qilish;
- D) yo‘q narsani idrok qilish.

8. Appersepsiya – bu ...

- A) shaxsning adaptatsion davri;
- B) o‘smirlikning o‘tish davri krizisi;
- V) vaqtni, harakatni idrok qilish;
- G) yo‘q narsani idrok qilish;
- D) idrokning shaxs va uning tajribasiga bog‘liqligi.

9. Obyekt va fon bu...

- A) shaxs uchun ayni paytda ahamiyatli narsa (obyekt), muhim bo‘lmagan narsa (fon);
- B) sezgi va idrokning bir-biriga bog‘liqligi;
- V) uyni, gulni batafsil idrok qilish;

G) narsalarning hajmini idrok qilish;

D) to'g'ri javob yo'q.

10. Shaxs uchun ayni paytda ahamiyatli narsa bu ...

A) xotira, xayol;

B) obyekt, fon;

V) sezgi, idrok;

G) obyekt;

D) xotira, xayol, obyekt, fon.

11. Idrokning murakkabligini nimada ko'ramiz?

A) sezgi va idrok bir-biriga uzviy bog'liqligi;

B) har bir idrok tarkibiga ayni paytda bir necha sezgi kiradi;

V) har bir idrok tarkibiga kishining o'tmishda hosil qilingan bilim va tajribalari kiradi;

G) idrok jarayonida his-tuyg'ular ham ishtirok etadi;

D) har bir idrok tarkibiga ayni paytda bir necha sezgi kiradi va har bir idrok tarkibiga kishining o'tmishda hosil qilingan bilim va tajribalari kiradi.

12. Kuzatish tushunchasining mazmuni qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) kuzatish idrokning mustaqil faoliyati;

B) idrokning his-tuyg'ulariga tayanadi;

V) diqqat, idrok faolligini oshirish;

G) narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'liqligi;

D) diqqatni uyushtira olish.

13. Kuzatuvchanlik bo'yicha qaysi olim ko'p ilmiy tadqiqot olib borgan?

A) Jukov;

B) I.P.Pavlov;

V) I.M.Sechenov;

G) Ch.Darvin;

D) Ye.Lichko.

14. Konvergensiya bu --

A) biror narsaga qaraganda ikkala ko'z soqqasining qarash tomon bab-barovar burilishi;

B) narsalarning fazo munosabatini binokulyar idrok qilish;

V) odatdagi narsalarni idrok qilish;

G) ko'z pardasi;

D) vaqtini idrok qilish.

15. Odam narsalarning harakati haqida ikki xil yo'l bilan ma'lumot oladi.

Ular ..

.A) harakatni bevosita idrok qilish;

B) harakat haqida xulosa chiqarish;

V) ko'zni harakatdagi narsaga qaratish;

G) ko'zni nuqtaga qaratib turish;

D) harakatni bevosita idrok qilish va harakat haqida xulosa chiqarish.

16. Harakatni bevosita ko'rish orqali idrok qilish ikki xil ko'rinishga ega.

Ular.....

A) harakatni bevosita idrok qilish;

- B) harakat haqida xulosa chiqarish;
- V) ko'zni harakatdagi narsa bilan birga yuritish;
- G) ko'zni bir nuqtaga qaratib turish;
- D) ko'zni harakatdagi narsa bilan birga yuritish va ko'zni bir nuqtaga qaratib turish;

17. Idrokning o'ziga xos xususiyatlari qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) predmetligi, yaxlitligi;
- B) strukturaligi;
- V) konstantligi, mantiqiyliigi;
- G) tanlanganligi;
- D) barcha javoblar to'g'ri.

18. Akkomadatsiya – bu...

- A) ko'z xrustalini o'zgarishi;
- B) sezgi va idrok birligi;
- V) xotira, idrok birligi;
- G) diqqatni idrok bilan birligi;
- D) xayol va idrok birligi.

19. Insonni inson tomonidan idrok qilinishi nima deb ataladi?

- A) ijtimoiy konstantligi;
- B) ijtimoiy persepsiya;
- V) ijtimoiy kommunikativlik;
- G) ijtimoiy tashkilotchilik;
- D) kommunikatsiya, tashkilotchilik, persepsiya.

20. Tezligi, aniqligi, to'laligi – bu idrokning

- A) xususiyati;
- B) harakat sifatleri;
- V) idrokning sifatleri;
- G) idrokning predmetligi;
- D) idrokning strukturaviyliigi.

21. Idrokning individual xususiyatlari qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- A) analitik turdagi;
- B) elementar;
- V) sintetik-analitik idrok;
- G) sintetik turdagi idrok;
- D) sintetik-analitik idrok, sintetik turdagi idrok.

22. Idrok qilishda shaxs o'z fikrlarini va qarashlarini ham kiritish uning qanday turiga kiradi?

- A) subyektiv tur;
- B) obyektiv tur;
- V) illyuziya;
- G) sintetik tur;
- D) subsensor idrok.

23. Subsensory idrok tushunchasining mazmuni qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) miyaga his etish organlari orqali yetib keladigan signallarni inson tomonidan ongsiz ravishda idrok etilishi va qayta ishlanishi;
- B) idrok qilishda o'z fikrlarini va qarashlarini kiritish;
- V) adaptatsiya – moslashishdir;
- G) perseptiv faoliyatni patologik buzilishi;
- D) inson ongida biron-bir hodisaga munosabatning o'zgarishi,
- 24. Aniq, batafsil, qiziqishlar aralashmagan holda idrok qilish idrokning qaysi turiga bog'liq?**
- A) obyektiv tur;
- B) subyektiv tur;
- V) fazoviy idrok;
- G) harakatli idrok;
- D) vaqtli idrok.
- 25. Ijtimoiy persepsiya kim tomonidan tadqiq qilingan?**
- A) Jukov;
- B) Smimov;
- V) Bodolev;
- G) Sechenov;
- D) Russo.
- 26. Insonni inson tomonidan idrok etilishi kim tomonidan tadqiq etilgan?**
- A) A.R. Luriya;
- B) A.A. Badalev;
- V) I. Pavlov;
- G) A. Orbeli;
- D) N.A. Bernishteyn.
- 27. Psixologik nazariyaga ko'ra, appersepsiya hodisasi qanday turlarga ajratiladi?**
- A) Sust va mustahkam;
- B) Muvozanatlashgan va muvozanatlashmagan;
- V) Sust va mustahkam muvozanatlashgan va muvozanatlashmagan;
- G) Barqaror va vaqtincha;
- D) To'g'ri javob berilmagan.
- 28. Idrok jarayonida muayyan hodisalarni aks ettirish turlicha aniqlikda namoyon bo'lishi jahon psixologiyasida nima deb ataladi?**
- A) Gallyusinatsiya;
- B) Illyuziya;
- V) Attraksiya.
- G) Yaqqol ko'rinish;
- D) Barcha javoblar to'g'ri.
- 29. Attraksiya bu.....?**
- A) Insonni inson tomonidan idrok qilish hodisasi;
- B) Idrokning harakatchan va boshqaruvchanlik xususiyati;
- V) Idrok xususiyatlarining turli vaziyatlarda, sharoitlarda namoyon bo'lishi;
- G) Faol ravishda bevosita aks ettirish imkoniyatining mavjudligi;

D)Narsa va hodisalarni idrok obyektiga tushishi bilan ularning ketma – ket aks ettirilishi.

30. Psixologiya fanida juda kam tadqiq qilingan idrok fenomenlaridan biri qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) Yaqqol ko'rinish;
- B) Gallyusinatsiya;
- V) Illyuziya;
- G) Attraksiya;
- D) To'g'ri javob berilmagan.

Nazorat savollari

1. Idrok tushunchasining mohiyatini ko'rsating?
2. Idrokning nerv-fiziologik asoslarini ko'rsating?
3. Idrokning murakkabligi nimalardan ko'rinadi?
4. Idrokda kuzatish va kuzatuvchanlikning mohiyati nimalarda ko'rinadi?
5. Idrokda illyuziya va gallyusinatsiya hodisalarini izohlang?
6. Idrokning tasnifini izohlang?

XOTIRA

Xotira haqida tushuncha

Xotira biz ilgari idrok qilgan, boshdan kechirgan va bajargan ishlarimizni yodda saqlash, keyinchalik ularni eslash yoki xotirlash jarayonidir. Biz har kuni yangi narsalarni bilamiz, kun sayin bilimlarimiz boyib boradi. Xotira faoliyatida shaxsning g'oyaviy yo'nalishi katta o'rin egallaydi. Bu yo'nalish uning faoliyatini hayot sharoiti ta'sirida shakllantiradi. Kishi o'zining shu faoliyati uchun muhim bo'lgan voqea-hodisalarni yaxshi eslab qoladi. Aksincha, kishi uchun kam ahamiyatga ega bo'lgan narsalar yomon esda qoldiriladi va tezda unutib yuboriladi. Shu o'rinda xotira borasidagi ta'riflarga qaytsak, ko'pgina adabiyotlarda xotira tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi. "Indvidning o'z tajribasida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi *xotira* deb ataladi". Lekin mazkur ta'riflarni tahlil qilgan professor **E.G'oziyev** tomonidan xotira tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi. "*Xotira* atrof-muhitdagi voqelik (narsa)ni bevosita va bilvosita, ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda, passiv va faol holda, reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va nonverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo'l bilan aks ettiruvchi esda olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushirish, unutish hamda tanish hissidan iborat psixik jarayon. Alohida va umumiylik namoyon qiluvchi ijtimoiy hodisa barcha taassurotlarni ijobiy qayta ishlashga yo'naltirilgan mnemik faoliyatdir".

Shuni ta'kidlash joizki, keltirilgan mazkur ta'rif xotiraning murakkab, keng qamrovli jihatlarini to'la ta'kidlash imkoniyatiga ega.

Shaxsning yo'nalishi uning qiziqishida ifodalanadi. Kishining qiziqishi xotiraga aniq va kuchli ta'sir ko'rsatadi, ya'ni yaxshi esda olib qolishni ta'minlaydi. Biz ko'pincha u yoki bu narsa va hodisalarni yomon esda qoldiramiz. Bu xotirani yomonligini emas, balki ularga qiziqish yo'qligini ko'rsatadi. *Masalan*, o'quvchilar hamma fanlarni bir xil o'zlashtira olmaydilar. Bu ularning har xil xotiraga ega

ekanliklar bilan emas, balki o'qitilayotgan fanga qiziqishning har xilligi bilan tushuntiriladi. Esda olib qolishga kishining emotsional munosabati ham katta ta'sir ko'rsatadi. Kishi uchun yaqqol hayajonli reaksiya vujudga keltiruvchi narsalar ongda chuqur iz qoldirib, puxta va uzoq yodda saqlanadi. Biz bir narsadan ta'sirlansak, o'sha uzoq vaqt esda saqlanadi. Samarali xotira kishining iroda sifatlariga ham bog'liqdir. Kuchsiz, irodasiz, ishyoqmas kishilar har doim yuzaki, yomon xotirleydilar. Aksincha, irodali, materialni o'zlashtirishga astoydil kirishadigan kishilar puxta va chuqur eslab qoladilar. Samarali xotira kishining umumiy madaniyatiga, uning aqliy saviyasiga, bilimiga, uquviga fikrlash qobiliyatiga, ko'nikmaa va odatlariga ham bog'liqdir. Shunday qilib, xotiraning tabiati va uning samaraliligi shaxsning xususiyatlari bilan bog'liqdir. Shaxs o'z oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalari asosida o'zining xotirlash jarayonini ongli ravishda tartibga soladi va boshqaradi.

Xotira sohasida quyidagi asosiy jarayonlar: esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish bir-biridan farq qilinadi. Bu jarayonlar faoliyatda tarkib topadi va belgilanadi. Ma'lum materialni esda olib qolish hayot faoliyati davomida individual, ya'ni shaxsiy tajribani to'plash bilan bog'liqdir. To'plangan tajribadan keyingi faoliyatda foydalanish qayta esga tushirishni talab qiladi. Ma'lum materialning faoliyatda qatnashmay qolishi yoddan chiqarishga olib keladi.

Xotiraning nerv-fiziologik asoslari

Esda olib qolish nerv tizimining egiluvchan, ya'ni o'zgaruvchanlik, qo'zg'atuvchilar ta'sirida o'zida go'yo bir iz qoldirish, saqlash imkoniyati tufayli yuzaga keladi. Har qanday insonning miyasi egiluvchanlik xususiyatiga ega bo'lib, uning darajasi har xil bo'ladi. Shaxs xotirasining sifati miyaning faolligi va turli faoliyatga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq ravishda rivojlanadi. Atrofni o'rab olgan borliqni faol biluvchi kishi o'z miyasi faoliyatini to'xtovsiz kuchaytiradi. Shu bilan birga uning egiluvchanlik darajasini oshiradi. Miya egiluvchanligi vaqtincha pasayishi, xotira samarasining susayishi, ba'zi paytda odamning toliqishiga sabab bo'ladi. Dam olgandan keyin yana tiklanadi. Odatda miya egiluvchanligi yosh o'tishi bilan susayadi. *Masalan*, keksa kishilar gaplaridan adashib ketadi, ilgari gapirganlari esdan chiqib, o'sha gapni takrorlayveradilar. Miya egiluvchanligining ko'rsatkichi bosh miya po'stlog'ida muvaqqat nerv aloqalarini tezlikda vujudga kelishi, davomli saqlanishi va ularning tez, oson jonlantirilishi hisoblanadi. Muvaqqat nerv aloqalari assotsiatsiyalarni hosil qiluvchi fiziologik mexanizmdir. *Assotsiatsiya* bizning xotiramizda mustahkamlangan va ongimizda qayd qilingan ayrim voqea-hodisalarning o'zaro bog'lanishidir. Biror buyumni esda olib qolish, boshqa buyumlar bilan bog'lash orqali amalga oshiriladi. Bu o'rinda akademik *I.P.Pavlovning* quyidagi so'zlari juda xarakterlidir. "Muvaqqat nerv bog'lanishlari – deb yozadi I.P. Pavlov hayvonot olamida va bizning o'zimizda ham bo'ladigan eng umumiy fiziologik hodisadir. Shu bilan birga u psixik hodisa hamdir, turli-tuman harakat, taassurot bo'lmasa harflar, so'zlar va fikrlar o'rtasida paydo bo'ladigan bog'lanishlar-ki, bu bog'lanishlarni psixologlar assotsiatsiyalar deb ataydilar".

Xotira, ya'ni esda olib qolish, idrok qilinayotgan narsalardan hosil bo'lgan obrazlar o'rtasida assotsiatsiyalarning yuzaga kelishidan iboratdir. Shu bois, inson xotirasidagi assotsiatsiyalar 3 turga ajratiladi. Bular *yondoshlik assotsiatsiyasi, o'xshashlik assotsiatsiyasi va qarama-qarshilik assotsiatsiyalaridan* iboratdir. *Yondoshlik assotsiatsiyasining* asosida vaqt va fazoviy munosabatlar yotadi. Boshqacha qilib aytganda, yondoshlik assotsiatsiyasi bir necha narsa yoki hodisalarni ayni bir vaqtda yoki ketma-ket idrok qilishdan hosil bo'ladi. *Masalan*, bog'chada bolasi har kuni o'zining tarbiyachi opasi va tarbiyalanayotgan guruhini idrok qiladi. Keyinchalik, ya'ni katta bo'lgandan so'ng bog'chasini eslasa tarbiyachi opasi va aksincha, tarbiyachi opasini eslasa, bog'cha guruhi ko'z o'ngida gavdalanadi.

Hozirgi paytda idrok qilinayotgan narsa bilan ilgari idrok qilingan narsa o'rtasida ma'lum o'xshashlik bo'lsa, bu narsalar o'rtasida o'xshashlik assotsiatsiyasi hosil bo'ladi. *Masalan*, bola dastavval bog'chaga kelgan paytida bog'cha mudirasining tashqi ko'rinishi, ovozi va munosabatlarini o'z onasiga o'xshatishi mumkin. Keyinchalik, bola onasini ko'rganda, mudira opasini va aksincha mudira opasini ko'rganda onasini eslaydigan bo'lib qoladi. Bu ikkala odamning bola tasavvuridagi obrazlari o'rtasida assotsiatsiya hosil bo'ladi.

Hozirgi idrok qilinayotgan narsalar bilan ilgari idrok qilinayotgan narsalar o'rtasida qarama-qarshi belgilar va xususiyatlar bo'lsa, bunday narsalar o'rtasida qarama-qarshilik assotsiatsiyasi yuz beradi. *Masalan* yoz-qish, issiq-sovuq kabi narsalar o'rtasida qarama-qarshilik assotsiatsiyalari hosil bo'ladi.

Shunday qilib, xotiraning nerv-fiziologik asosida bosh miya po'stida hosil bo'ladigan shartli reflekslar, turli assotsiativ bog'lanishlar yotadi. Lekin, odam esda olib qolish paytida assotsiatsiyalar hosil bo'lganligini mutlaqo sezmaydi. Har xil assotsiatsiyalarning hosil bo'lganini odam keyinchalik biror narsani esga tushirish paytida bo'ladi.

Xotiraning nerv-fiziologik mexanizmlari xususida to'xtalar ekanmiz, so'nggi yillarda texnikaning g'oyat tez rivojlanishi natijasida turli esda olib qoluvchi apparatlarga bo'lgan ehtiyoj benihoya ko'payib ketganligini ta'kidlash joiz. Bu o'z navbatida xotiraning nerv-fiziologik mexanizmlarini psixolog va fiziologlardan tashqari injenerlar, bioximiklar, genetiklar hamda kibernetiklar tomonidan o'rganilishiga olib keldi. Natijada xotiraning nerv-fiziologik mexanizmlarini tushuntiruvchi bir qancha yangi nazariyalar maydonga keldi. Ana shunday nazariyalardan eng muhimi molekulalarning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan bioximik nazariyadir. Bu nazariyaga ko'ra, biror narsani esda olib qolish va esda saqlab turish maxsus tuzilishni o'zgarishi bilan bog'liqdir. O'tkazilgan tekshirishlarga ko'ra, biror narsa esda olib qolinganda, asosan nerv hujayralarining (neyronlarning) *dendrit shoxlari* tarkibida o'zgarish yuzaga keladi. Ular qandaydir boshqacharoq tuzilishga kirib oladilar. Dendritlar tuzilishidagi hosil bo'lgan o'zgarish darrov o'tib ketadigan bo'lmay, ancha mustahkam bo'ladi. Shu sababli esda olib qolgan narsa uzoq vaqt xotirada saqlanib turadi.

Xotira turlari

Xotira insonning holati va faoliyatining barcha sohalarida qatnashishi tufayli uning namoyon bo'lish shakllari, holatlari, shart-sharoitlari, omillari ham xilma-xil

ko'inishga egadirlar. Odatda xotirani muayyan turlarga ajratishda eng muhim asos qilib uning tavsifnomasi sifatida esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish, unutish singari jarayonlarni amalga oshiruvchi faoliyatining xususiyatlariga bog'liqligi olinadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ayrim darsliklarda xotira turlari turlicha klassifikatsiya qilinadi. Jumladan, A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" darsligida quyidagi klassifikatsiya uchraydi:

Faoliyatda ko'proq sezilib turadigan psixik faollikning xususiyatiga qarab: harakat, emotsional, obrazli va so'z mantiq xotira.

Faoliyatning maqsadlariga ko'ra: ixtiyorsiz va ixtiyoriy xotira.

Materialni qancha vaqt esda olib qolish va esda saqlash muddatiga ko'ra: qisqa muddatli, uzoq muddatli va operativ xotira.

M.G.Davletshin tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" o'quv qo'llanmasida quyidagi xotira klassifikatsiyasi qayd qilinadi:

Psixik faolligiga ko'ra: ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira.

Faoliyat maqsadiga ko'ra: harakat, emotsional, obraz va so'z-mantiq xotirasi.

Muddatiga ko'ra: uzoq muddatli, qisqa muddatli va operativ xotira.

E.G'oziyev tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" o'quv qo'llanmasida xotira turlari quyidagicha klassifikatsiya qilingan.

1. Ruhiy faoliyatning faolligiga ko'ra: a) harakat yoki motor harakat xotirasi; b) obrazli xotira; v) his-tuyg'u yoki hissiyot xotirasi; g) so'z-mantiq xotira. **2. Ruhiy faoliyatning maqsadiga binoan:** a) ixtiyorsiz; b) ixtiyoriy; v) mexanik. **3. Ruhiy faoliyatning davomiyligiga ko'ra:** a) qisqa muddatli xotira; b) uzoq muddatli xotira; v) operativ (tezkor) xotira. **4. Ruhiy faoliyat qo'zg'atuvchisining sifatiga ko'ra:** a) musiqiy; b) eshitish xotirasi; **5. Ruhiy faoliyatning inson yo'nalishiga qarab:** a) fenomenal; b) kasbiy.


Harakat xotirasi – inson faoliyatining har bir turida ruhiy faollikning u yoki bu ko'inishlarini ustunlik qilishida kuzatiladi. Masalan, harakat, hissiyot, idrok, aql-zakovat kabi ruhiy faoliyatning ko'inishlari mavjuddir. Ana shu ruhiy faollik turlarining har biri tegishli harakatlarda va ularning mahsulotlarida o'z ifodasini topib harakatlarda, hissiy kechinmalarda, tuyg'ularda, obrazlarda, timsollarda, fikr va mulohazalarda aks etadi.

Turli harakatlar va ularning bajarilishi tartibi, tezligi, sur'ati, izchilligi va boshqalarni esda qoldirish, mustahkamlash, esga tushirishdan iborat xotira turi *harakat xotirasi* deb ataladi.

Xotiraning boshqa turlariga qaraganda, harakat xotirasi ba'zi odamlarda aniq ravshan ustunlik qilishi uchrab turadi. Psixologiya fanida klassik misolga aylanib qolgan ushbu holatni keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir: bir musiqa ishqibozi musiqalarni xotirasida mutlaqo qayta tiklay olmas ekan, lekin u yaqindagina eshitgan operani faqat pantomimika tarzidagina qayta tiklash imkoniyatiga ega bo'lgan. Turmushda shunday odamlar uchraydiki, ular o'zlarida harakat xotirasining borligini umuman payqamaydilar. Mazkur xotira turining g'oyat ahamiyati shundan iboratki, u yurish, yozish, ifodali harakat malakalari bilan bir qatorda har xil amaliy mehnat malakalarini tarkib toptirishning asosini tashkil qiladi. Agar insonda harakat xotirasi bo'lmaganda edi, o'zini har gal "boshdan boshlab" o'rganar edi. Figurali uchish, langar bilan sakrash, gimnastika, chopish, xatti-harakatlar, badiiy gimnastika bilan

shug'ullanish harakat xotirasini taqozo etadi. Jismoniy chaqqonlik, mehnat mahorati, "oltin qo'llar", ziyarak ko'zlar, egiluvchanlik va kuzatuvchanlikka ega bo'lish yuksak, barqaror harakat xotirasi mavjudligining alomati bo'lib hisoblanadi.

Keltirilgan xotira turlarini umumiy tarzda quyidagicha ifodalash mumkin:



His-tuyg'u yoki hissiyot xotirasi. Bu xotira his-tuyg'ular, ruhiy kechinmalar, hissiyotlar, ehtiyojlarimiz va qiziqishlarimiz qanday qondirilayotganligidan, atrofimizdagi narsa va hodisalarning xususiyatiga nisbatan munosabatimiz qay tarzda amalga oshirilayotganligidan doimo xabar berib turish imkoniyatiga ega. Shuning uchun har bir kishining hayoti va faoliyatida hissiy *xotira turi* juda katta ahamiyat kasb etadi.

Voqelikdagi narsa va hodisalardan, o'z-o'zimizga bo'lgan munosabatlarimizdan kelib chiqadigan yoqimli hamda yoqimsiz kechinmalarni esda qoldirish, esda saqlash, esga tushirishdan iborat xotira turi *hissiy xotira turi* deb ataladi. Boshimizdan kechirgan va xotiramizda saqlanib qolgan hissiyotlar harakatga undovchi va o'tmishda salbiy kechinmalarga ega bo'lgan harakatlardan saqlanib qoluvchi signal tarzida namoyon bo'ladi.

Hissiy xotira o'zining vujudga kelish xususiyati, tezligi, dinamikasi, davomiyligi bilan xotiraning boshqa turlaridan ma'lum ma'noda ajralib turadi. Har bir odamga o'z turmush tajribasidan ma'lumki, ko'pincha, qachonlardir o'qigan kitoblar, tomosha qilgan kinofilmlar faqat "taassurotlar", bog'lanishlar zanjirini yechishning dastlabki tuguni sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun hissiy xotira ijtimoiy ahamiyat kasb etib, umumiylik alohida olingan odamlar kayfiyatlarini birlariga o'xshashligi, iliq ruhiy muhitni vujudga keltirish yoki noxush kechinmalar

to'liqini barpo etish ehtimoli to'g'risida mulohaza yuritilayotgan alomati ostida ijtimoiy guruhiy, jamoaviy, barqaror va beqaror kayfiyatni vujudga keltiradi.

Obrazli xotira – tasavvurlar va turmush manzaralari, shuning bilan birga, tovushlar, ta'mlar, ranglar shakllar, bilan bog'liq bo'lgan xotira turidir. **Obraz xotirasi deb** yaqqol mazmuni, binobarin, narsa, hodisalarning aniq obrazlarini, ularning xususiyatlari va bog'lanishlarini esda qoldirish, ongda mustahkamlash hamda zaruriyat tug'ilganida esga tushirishdan iborat xotira turiga aytiladi.

Psixologiya fanida **obrazli xotiraning** bir necha turlari ajratib ko'rsatiladi va ular quyidagilardan iborat. Izchil obrazlar sensor xotiraning eng sodda ko'rinishi yoki shakli izchil obrazlardan iboratdir. Izchil obrazlarning namoyon bo'lish hodisasi quyidagilardan tuziladi: agar subyektga bir necha daqiqa oddiy qo'zg'atuvchi yuborilsa, jumladan 10-15 sekund yorqin qizil kvadratga qarab turish taklif etilsa, so'ng tekshiruvchi oldidan kvadrat olib quyilsa, u qizil kvadrat o'rnida xuddi shunday geometrik shakl izini ko'rishda davom etadi. Asosan bu shakl ko'pligi rangda tovlanadi. Mazkur iz o'sha zahoti, ba'zan bir necha sekunddan keyin paydo bo'lib, 15 sekunddan to 45-60 sekundgacha o'sha obyektga saqlanib turadi, shundan so'ng asta-sekin oqara boshlaydi. Natijada o'zining aniq qon turini yo'qotadi, keyinchalik, mutlaqo yo'qolib ketadi. Goho butunlay yo'qolishi uchun qaytadan paydo bo'lishi mumkin. Odamlarning individual-psixologik xususiyatlariga qarab, izchil obrazlarning aniqligi va davomiyligi turlicha bo'lishi ko'zga tashlanadi.

O'zining kelib chiqishi, kuchliligi jihatidan izchil **obrazlar salbiy va ijobiy turlarga** bo'linadi. Agar kuchli ravishda odam qizil rangga qarab turib, so'ngra nigohini oq qog'ozga ko'chirsa, u holda obyektga ko'k-yashil rang paydo bo'lganday ko'rinadi. Izchil obrazlarning ushbu turi salbiy, **izchil obrazlar** deb ataladi. Bu holatni yana bir misol orqali tushuntirilsa, quyidagi ketma-ketlik hodisasi namoyon bo'ladi. Qorong'u xonada ko'z oldida bir narsaga, *masalan*, qo'l yaqinlashtirilsa so'ngra qisqa muddatli (0,5 sek) elektr chirog'i yoqilsa, bu holda chiroq o'chgandan keyin odam bir necha daqiqa davomida narsalarning aniq obrazini ko'rishda davom etadi. Mazkur obraz o'z rangida bir qancha muddat saqlanib, so'ng ko'zdan qo'qoladi.

Izchil obrazlar xotira jarayonining sodda izlariga misol bo'la oladi. Chunonchi, hodisalarga qarab uzaytirish ixtiyoriy ravishda qayta tiklash mumkin emas. Binobarin, izchil obrazlar ushbu xotiraning murakkabroq turlaridan ana shu jihatlari bilan farqlanadi.

Izchil obrazlarning eshitish turi orqali sezishda kuzatish mumkin, lekin bu vaziyatda izchil obrazlar kuchliroq namoyon bo'lishini va qisqa muddat davom etishi kuzatiladi.

Eydetik obrazlar psixologiyada izchil obrazlardan eydetik obrazlarni farqlash an'ana tusiga kirgan bo'lib, "*eydos*" yunoncha "*obraz*" degan ma'noni anglatadi. Xotiraning bu turi, ya'ni eydetik obrazlar o'z vaqtida *nemis psixologiya* maktabining namoyandalari *aka-uka Yenishlar* nomidan ta'riflab berildi. Ba'zi odamlar shu davrlarda kuzatilgan narsa yoki suratlar ko'z o'ngidan olib qo'yilsa ham surat siymosi uzoq vaqt saqlanish xususiyatiga ega.

Mazkur narsa va jismlarning aniq obrazlari, tasvirlarni kuzatish mumkin. Bu hodisa jahon psixologiya fanida tajribada tekshirib ko'rilgan. Tajribada tekshiriluvchiga 3-4 minut davomida rasm ko'rsatilgan va tasvir olib qo'yilgandan

so'ng uning tarkibiy qismlari, tuzilishi haqida qatnashchilarga savollar berilgan. Bu jarayonlarda tekshiruvchilar birorta savolga javob bera olmagan bo'lsalar, aniq texnik obrazga ega bo'lgan ishtirokchilar esa rasmni davom etishgandek har bir savolga aniq javob berishga erishganlar.

Tajribalarning ko'rsatishicha, eydetik obrazlar uzoq vaqt inson ongida saqlanishi mumkin. Mabodo ularning yo'llari yopilib qolgan bo'lsa ham, lekin hech qanday qiyinchiliklarsiz ularning siy mosi qayta tiklanishi mumkin.

Rus psixologiyasida eydetik obrazlarning namoyon bo'lish hodisasi *A.R. Luriya* tomonidan ko'p yillar davomida o'rganilgan va shunga ko'ra eydetik xotiraning individual tipologik xususiyatlari chuqur ta'riflab berilgan. Eydetik obrazlar harakatlanish xususiyatiga ega bo'lib, subyektlarning oldiga qo'yilgan vazifa va uning tasavvurlari ta'siri ostida o'zgartirish mumkin.

Aka-uka Yenishlar tomonidan o'tkazilgan oddiy tajribada eydetik xotiraga ega bo'lgan tekshiruvchiga olma va undan sal uzoqroqda joylashgan ilmoq tasvirlangan rasm ko'rsatilgan. Rasm o'rtasidan bo'lib, qo'yilgandan keyin tekshiruvchida olmani olib qo'yish istagi kuchayib borayotgani so'ralgan. Muayyan yo'l-yo'riq berilgandan keyin tekshiruvchi mana bunday holatni tasvirlab beradi: ilmoq olmaga yaqinlashib, uni iladi va ixtiyorsiz ravishda qatnashchi tomon tortadi. Xullas, eydetik obrazlar harakatchan bo'lib, subyektning ruhiy ko'rsatmasi ostida sifat va miqdor o'zgarishiga yuz tutadi. Ilmiy tekshirishlarning ko'rsatishicha, eydetik obrazlar bolalik va o'spirinlik davrlarida muayyan muddat xukm suradi va vaqtning o'tishi bilan asta-sekin so'na boradi.

Psixofarmakologik tadqiqotlarining ko'rsatishicha, eydetik obrazlarni kuchaytiruvchi kaliy ionlari va shuningdek uning kuchsizlantiruvchi kalsiy ionlari moddalarini mavjuddir. Ilmiy izlanishlardan olingan miqdoriy materiallar eydetik obraz paydo bo'lishining psixologik ildizlarini chuqurroq ochishga xizmat qiladi.

Tasavvur obrazlari xotiraning yanada murakkabroq turi bo'lib hisoblanadi va ularning xususiyatlari haqida tasavvurga egamiz. Inson daraxt, meva, gul to'g'risida tasavvurga ega ekanligi shuni ko'rsatadiki, uning ilgari tajribalari subyektning ongida shu obrazlarning izlarini qoldirgan. Ilmiy tushunchalar talqin qilinganda tasavvur obrazlari eydetik obrazlarga juda yaqindek tuyuladi. Lekin eydetik obrazlar haqidagi psixologik tahlil shuni ko'rsatadiki, tasavvur obrazlari unga qaraganda ancha boy bo'lib, o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Tasavvur obrazlarining eydetik obrazlaridan ajratuvchi farq tasavvur obrazlarining *polimodallik xususiyatidir*. Buning asosiy mohiyati tasavvur obrazlari ko'rish, e'шитish, teri orqali sezish izlarining tarkibiy qismlarini birlashtiradi. *Masalan*, meva to'g'risidagi tasavvur obrazi uning tashqi ko'rinishi, mazasi, og'irligi, vaznini o'zaro birlashtirib aks etadi.

Tasavvur obrazlarining eydetik obrazlaridan asosiy farqi shundan iboratki, u narsa va hodisa haqidagi tasavvurlarni aqliy jihatdan qayta ishlashni o'z tarkibiga kiritadi va jismlarning asosiy xususiyatlari ajratilib, ma'lum kategoriyaga birlashtiriladi. Inson gul obrazini faqatgina esga tushirmaydi, balki uni muayyan bir so'z yoki tushuncha bilan aytadi, nomlaydi, xususiyatlarni ajratib ko'rsatadi, aniq bir kategoriya mohiyatiga kiritadi.

Demak, tasavvur obrazlarida odamning xotirasi idrok qilingan narsalarning izini sust ravishda saqlab balki, bir qator tasavvur bilan boyitadi, narsa mazmuni va mohiyatini tahlil qilib, u haqida o'z bilimlari, tushunchalari kabilarni tajriba bilan bog'lovchi ijodiy sermahsul faoliyatni amalga oshiradi. Bularning barchasi irodaviy sifatlar, aqliy zo'riqish, asabiy taranglashuv natijasida ruyobga chiqishidan dalolat beradi.

Tasavvur obrazlari xotiraning murakkab faoliyati mahsuli bo'lib, ular izchil yoki eydetik obrazlarga nisbatan murakkab psixologik hodisadir. Tasavvur obrazlari xotira izlarining murakkab turi bo'lib uning aqliy jarayon bilan yaqinligi inson bilish faoliyatini muhim tarkibiy qismidan iborat ekanligidan dalolat beradi.

So'z-mantiq xotirasi mazmunini fikr va mulohazalar, aniq hukm hamda xulosa chiqarishlar tashkil etadi. Insonda fikr va mulohaza turli xil shakllar yordamida ifodalanganligi tufayli ularni ifodalash faqat o'zlashtirilayotgan materiallarning asosiy ma'nosini izohlash, talqin qilib berish yoki ularni so'zma-so'z ifodalinishini aynan aytib berishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Agar ma'lumot, axborot, xabar, material ma'no jihatidan qayta ishlanmasa, u holda materialni so'zma-so'z o'zlashtirish, mantiqiy o'rganish bo'lmasdan, balki aksincha mexanik esda olib qolishga aylanib qoladi.

So'z-mantiq xotirasining vujudga kelishida *birinchi signal* bilan bir qatorda *ikkinchi signallar* tizimi asosiy hisoblanadi. Chunki so'z-mantiq xotirasi faqat insongagina xos bo'lgan xotiraning maxsus turi hisoblanib, bu xotira turi o'zining sodda shakllari bilan hayvonlarga ham taalluqli bo'lgan harakat, his-tuyg'u va obrazli xotiralardan sifat, ham miqdor jihatdan keskin farq qiladi. Ana shu boisdan so'z-mantiq xotirasi bir tomondan xotiraning boshqa turlari taraqqiyotiga asoslanadi, ikkinchidan ularga nisbatan yetakchilik qiladi. Shu bilan birga, boshqa turlarning rivojlanishi so'z-mantiq xotirasining takomillashuviga uzviy bog'liqdir. So'z-mantiq xotirasining o'sishi qolgan xotira turlarining barqarorlashuvini belgilaydi.

Xotira turlariga nisbatan boshqacha tarzda yondashish hollari ham uchraydi. Shu bois, xotira faoliyatini amalga oshirayotgan faollik xususiyatlari bilan uzviy bog'liq ravishda turlarga ajratiladi. *Masalan*, faoliyat maqsadiga ko'ra, *xotira ixtiyorsiz va ixtiyoriy turlarga* bo'linadi.

Ixtiyoriy xotira deganda ma'lum maqsadni ro'yobga chiqarish uchun muayyan davrlarda aqliy harakatlarga suyangan holda amalga oshirilishidan iborat xotira jarayoni tushuniladi. Bu faoliyatni odam ongi bevosita boshqaradi. Ko'pincha, psixologiya fanida ixtiyoriy xotiraga ixtiyorsiz esda olib qolish qarshi qo'yiladi. Bu jarayon ma'lum kerakli topshiriq yoki vazifa qo'yilsa, esda olib qolishga yetaklovchi faoliyat biron-bir maqsadni ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan taqdirda yuzaga keladi. Biz matematik topshiriqlarini yechayotganimizda masaladagi sonlarni esda olib qolishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ymaymiz. Mazkur so'z-mantiq xotirada asosiy maqsad faqat masala yechishga qaratiladi. Buning natijasida sonlarni esda saqlashga, hech qanday o'rin ham qolmaydi. Shunga qaramay, biz ularni qisqa muddat bo'lsa-da, esda saqlashga intilamiz. Bu holat faoliyat yakunlangunga qadar davom etadi.

Esda olib qolishni maqsad qilib qo'yish esda olib qolishning asosiy sharti hisoblanadi. *Serb psixologi Radosavlevich* o'z tadqiqotida quyidagi hodisani bayon

etadi. Tajribada tekshiriluvchidan biri sinovda qo'llanilayotgan tilni tushunmaganligi tufayli uning oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarmagan. Buning oqibatida uncha katta bo'lmagan tadqiqot materiali 46 marta o'qib berilganiga qaramay, esda olib qolinmagan. Tajribaning keyingi bosqichida vazifa tekshiriluvchiga tushuntirib berilgandan so'ng u material bilan olti marta o'qib, tanishib, uni takrorlab, qismga ajratib esga qayta tushirishga erishgan.

Xotiraning *ixtiyoriy va ixtiyorsiz turlari xotira* taraqqiyotining ikkita ketma-ket bosqichlarini tashkil etadi. *Ixtiyorsiz xotiraning* turmushda va faoliyatda katta o'rin egallashini har kim o'z shaxsiy tajribasidan biladi. Ixtiyorsiz xotiraning muhim xususiyatlaridan biri ma'lum maqsadsiz aqliy, asabiy, irodaviy zo'r berishsiz hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan keng ko'lamdagi ma'lumot, xabar, axborot, taassurotlarning ko'pchilik qismini aks ettirishdir. Shunga qaramasdan inson faoliyatining turli jabhalarida o'z xotirasini boshqarish zarurati tug'ilib qolishi mumkin. Xuddi mana shunday sharoitlar, holatlar, vaziyatlarda esda saqlash, esga tushirish yoki eslash imkoniyatini yaratadigan xotiraning mazkur turi katta ahamiyatga egaligi shubhasiz.

So'nggi paytlarda rus va xorij psixologiyasida xotira borasidagi tadqiqotchilarning e'tiborini esda olib qolishning dastlabki, boshlang'ich daqiqalarida vujudga keladigan holatlar, jumladan tashqi taassurot izlarining mustahkamlanishigacha bo'lgan jarayonlar, holatlar, mexanizmlar, shuningdek, ularning mustahkamlanish muddatlarini ham o'ziga jalb qilib kelmoqda. *Masalan*, biror material xotirada mustahkam joy olish uchun uni subyekt tomonidan tegishli ravishda qayta ishlab chiqish zarur va materialni bunday ishlab chiqish uchun ma'lum darajada muddat talab etish tabiiydir. Ana shu muddat xotirada qayta tiklanilayotgan izlarni mustahkamlash deb qabul qilingan. Mazkur jarayon inson tomonidan yaqindagina bo'lib o'tgan hodisalarning aks sadosi sifatida kechiriladi va takomillashadi. Inson muayyan daqiqalarda, lahzalarda, ayni paytda bevosita idrok qilinayotgan narsalarni go'yo ko'rishda, eshitishda davom etayotgandek tuyuladi. Ushbu jarayon kelib chiqishi jihatidan beqaror, hatto o'zgaruvchan, lekin ular shu qadar maxsus tajriba orttirish mexanizmlarining faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ularning roli shu qadar ahamiyatli-ki, bu jarayonlarda esda olib qolish, esda saqlash, axborotlar, malumotlar, xabarlar qayta esga tushirishning alohida turi sifatida qaraladi. Ushbu jarayon odatda psixologiya fanida *qisqa muddatli xotira* deb ataladi.

Juda ko'p qaytarishlar va qayta tiklashlar natijasida materialni uzoq muddat davomida esda saqlanib qolishi xarakterli bo'lgan uzoq muddatli xotiradan farq qilgan holda, qisqa muddatli xotira bir marta hamda juda qisqa vaqt oralig'ida idrok qilish va shu andayoq qayta tiklashdan so'ng qisqa muddatli esda olib qolish bilan xarakterlanadi.

Hozir ilmiy adabiyotlarda qisqa muddatli xotirani quyidagi atamalar bilan nomlash uchraydi: "bir lahzalik", "dastlabki", "qisqa muddatli" va boshqalar.

Operativ xotira inson tomonidan bevosita amalga oshirilayotgan faol tezkor harakatlar, usullar uchun xizmat qiluvchi jarayonni anglatuvchi mnemik holat *operativ xotira* deb ataladi. Hozirgi zamon psixologiyasida ushbu holatni namoyon qilish uchun quyidagi misol keltiriladi. Matematik amalni bajarishga kirishar ekanmiz, biz uni muayyan bo'laklarga ajratib hal qilishni maqsad qilib qo'yamiz. Shu

boisdan oraliq natijalarni yodda saqlashga intilamiz, nihoyasiga yaqinlashgan sari ayrim materiallar esdan chiqa boshlaydi.

Mazkur holat matnni talaba yoki o'quvchi tomonidan o'qishda, uni ko'chirib yozishda, ijodiy fikr yuritishda, aqliy faoliyatni amalga oshirishda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xotira jarayonlari

Xotira faoliyati esda qoldirishdan boshlanadi. *Esda qoldirish* idrok qilingan narsa va hodisalarni miya po'stida iz hosil qilishdir. Uning fiziologik asosi miya po'stida *muvaqqat nerv bog'lanishining* vujudga kelishidir. *Esda qoldirish o'zining faolligi jihatidan ikkiga bo'linadi:*

a) *ixtiyoriy esda qoldirish*; b) *ixtiyorsiz esda qoldirish*.

Ixtiyorsiz esda qoldirishda oldindan maqsad quyilmaydi, mavzu tanlanmaydi va iroda kuchi sarflanmaydi. O'zining go'zalligi, hissiy ta'sirchanligi, hajmi, harakatchanligi, tezligi, shakli va boshqa xossalari bilan farq qiladigan narsa va hodisalar ixtiyorsiz esda qoladi. *Masalan*, tasodifiy hodisalar, kamay-sumay ovozi ixtiyorsiz esda qoladi.

Ixtiyoriy esda qoldirishda esa oldindan maqsad qo'yib mavzu belgilanadi. *Masalan*, dars materiallarini esda olib qolish, imtihonga tayyorlanish va boshqalar. *Ixtiyoriy esda qoldirishda quyidagi turli usullardan foydalaniladi:* -maqsad qo'yish, masalan, institutga kirish oldidagi maqsad; - o'quv materiallarini tushunib esda qoldirish; -esda qoldirishning ratsional usullaridan foydalanish, *masalan*, esga tushirish yo'li bilan esda qoldirish.

Beixtiyor esda qoldirishda qiziqish katta rol o'ynaydi. Bizning oldingi tajribamiz bilan bog'liq narsa va hodisalar beixtiyor oson esda qoladi. Biz ba'zi bir faktlarni bilsak, ular haqida tushunchaga ega bo'lsa, shu faktlarga tegishli bo'lgan hamma narsalar oson esda qoladi.

Ixtiyorsiz esda qoldirish inson hayotida katta ahamiyatga ega bo'lib, undan ortiqcha harakat talab qilmagan holda hayotiy tajribalarni kengaytiradi va boyitadi. Biroq ixtiyorsiz esda qoldirish tez bo'lsa ham ko'pincha noaniq bo'ladi, bunday esda olib qolingan narsa va hodisalar keyinchalik yanglish esga tushiriladi.

Ixtiyoriy esda qoldirish ko'zda tutilgan maqsadga muvofiq tanlangan materialni esda qoldirishdir. Kishi ixtiyoriy esda qoldirish uchun esda saqlashning maxsus usullarini saqlagan holda materialni puxta esda qoldirish uchun o'zining kerakli kuchini sarf qiladi. Ammo mexanik esda saqlanishni ma'noli esda saqlash bilan qo'llanilishi foydalidir.

Psixologiya fanida esda olib qolishning quyidagi turlari mavjud:

-ma'lumot, xabar, taassurot, axborot va materiallarni eshitish orqali idrok qilish hamda esda olib qolish;

-egallash yoki o'zlashtirish zarur bo'lgan materiallarni ko'rib idrok qilish yordamida esda olib qolish;

-materiallarni harakat yordamida va eshitish orqali idrok qilish hamda esda olib qolish;

-aralash holatda esda olib qolish, eshitish, ko'rish, harakat kabilar orqali idrok qilish va esda olib qolish yoki bir nechta ta'sir etuvchilar yordamida aks ettirish.

Mana shu yo'llar orqali eshitish, ko'rish, eshitish harakat, kombinotorlash tirilgan (aralash) turlari yordamida xotiraning qaysi turi ustunroq yoki qaysi biri bo'sh ekanligini aniqlash mumkin.

Esda olib qolishda assotsiatsiyalarning ahamiyati muhimdir. Buning uchun esda olib qolish jarayonining bog'lanishlari paydo bo'lish sur'atini aniqlash maqsadida ular xususiyatlariga binoan quyidagi: -sabab oqibat bog'lanish; -bo'lak va yaxlit munosabati; -qarama-qarshilik munosabati; -inkor etish holati; -adekvat yoki anqlik turlarga ajratiladi.

Esda olib qolish inson faoliyatining xususiyatiga bevosita bog'liqdir. **A.A.Smironov, P.I.Zinchenko** tajribalari shuni ko'rsatadiki, esda olib qolish u yoki bu faoliyatdagina samarali bo'lishi mumkin. **A.A.Smironovning** tajribalarida tekshirishlarga qaraganda ikki xil faoliyat taklif qilinsa, *birinchi holda* ular ma'noli matni esda olib qolish nazarda tutiladi. Sinaluvchilar matni yodlar ekanlar, materiallar ustida hech qanday faol ish olib bormaganlar. *Ikkinchi holda* esa esda olib qolish vazifasi qo'yilmaydi-yu, lekin matn ustida muayyan ish olib borish unda uchraydigan ma'naviy xatolarni aniqlash taklif etiladi. Ikkinchi holda esda olib qolish ancha samarali bo'lganligi aniqlangan.

Maxsus vositalar va oqilona usullarni qo'llash orqali esda olib qolish sohasidagi yondashishdan iborat tashkiliy faoliyat alohida ahamiyatga ega. **A.A.Smironov** o'tkazgan tajribasida shuni ko'rsatadiki, matni maxsus tuzib chiqilgan rejaga asoslangan holda yodlash rejasi, tartibsiz esda olib qolishdan ikki barobar samaraliroq ekan, psixolog olimlarning tavsiyasiga binoan yodlash jarayonida materialni takrorlash bilan uni faol esga tushirishni o'zaro almashtirib turish yuqori natijalar beradi. Kuzatishlar va tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar va talabalar bu usullarni mustaqil ravishda egallay olmaydilar, odatda ularni muallimning rahbarligida egallashadi. Aks holda o'quv faoliyati ishtirokchilari materialni bevosita ixtiyorsiz esda olib qolish bosqichida qotib qolishi mumkin, bu hol aqliy o'sishga qarama-qarshidir.

Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish kerakki, o'quv materiallarining ma'nosiga tushunib esda olib qolish yo'li oqilona yo'l bo'lib qolmasdan, balki u mexanik esda olib qolish jarayonidan o'zining samaradorligi bilan keskin darajada ajralib turadi.

Esda olib qolish jarayoni deganda sezgi, idrok, tafakkur, ichki kechinmalarni xotirada saqlanish xususiyati tushuniladi. Kundalik hayotimizda kitob, jurnal, gazeta o'qiyotganimizda materialni esda olib qolish uchun shu materialning ma'nosiga tushunib olishga harakat qilamiz. Jamiki narsa insonga yetarli darajada tushunarli bo'lmasa, u taqdirda ularni esda olib qolish jarayoni juda qiyin kechadi. O'rganilayotgan materialning mazmuni va ma'nosiga tushunib olish uchun odam uni tahlil qilishga, umumlashtirishga harakat qiladi. **A.A.Smironov** ta'kidlaganidek, materialni o'zlashtirib olish xuddi shu jarayonga yaqqol misoldir. Mualliflarning shaxsiy fikriga ko'ra, o'zlashtirayotgan materiallarni esda olib qolish qiyinligi sababli ularni tushuna olmaslikdir. Tushunib olishning esda olib qolishdagi ahamiyati xuddi shu bilan tavsiflanadi.

Jahon psixologiya fani to'plagan ma'lumotlarga qaraganda o'zlashtirilayotgan materialni mexanik tarzda egallashga nisbatan uning ma'nosini tushunib o'zlashtirish bir necha marta mahsuldoir.

Esda olib qolish jarayonida o'zlashtirilayotgan materialning ma'noga ega bo'lishi yoki bo'lmasligi muhimdir. *Assotsiativ psixologiya* maktabining vakili, taniqli psixolog *G.Ebbinghaus* jahon psixologiyasida birinchi bo'lib 1885-yilda oliy ruhiy jarayon bo'lgan xotirani, 1888-yilda intellektni ilmiy tajriba metodi negizida tekshirdi va keng ko'lamda turmushga tatbiq etdi. U xotira jarayonini tajriba orqali tekshirishning asosiy yo'nalishini ishlab chiqdi. Xotirani "sof" ko'rinishda o'rganishga harakat qilib ma'no kasb etmaydigan bo'g'inlardan foydalandi. Uning bu tadqiqoti kishining mantiqiy xotirasi emas, balki mexanik xotirasiga nisbatan qo'llanishiga xos to'g'ri yo'nalishdir.

G.Ebbinghausning bu tadqiqoti psixologiyada introspektiv (o'zini o'zi kuzatish yoki ichki kuzatish) metodiga qarama-qarshi qo'yilgan ilmiy tajribaviy metod yutug'i sifatida ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir. U xotira jarayonini tekshirishda o'z oldiga 38 ta ma'no anglatmaydigan bo'g'inlardan tuzilgan materialni esda olib qolishni maqsad qilib qo'ygan. Bu materialni o'zlashtirish o'rtacha 55 marta takrorlashni talab qiladi. Esda olib qolish uchun 38-40 so'zdan, 11 ta so'z o'zaro bog'liq bo'lmagan so'zlardan foydalangan. Bu materialni o'zlashtirish 6-7 marotaba takrorlashni talab etgan, umumiy hisob esa 9+1 nisbatga to'g'ri keladi.

Rus psixologlari tadqiqotlarining natijalari ma'noga ega bo'lgan materialni o'zlashtirishda esda olib qolish uchun turli xil yo'nalish, *ko'rsatma berish* muhim ahamiyat kasb etadi, degan fikrni tasdiqlaydi. **A.N.Leontev**, **S.L.Rubinshteyn**, **P.A.Ribnikov** va boshqalar bolalarning xotira faoliyatini o'rganganlar. Shuningdek, ular o'qish faoliyatiga asoslangan holda maktab o'quvchilarida tekshirish ishlarini olib borganlar.

I.P.Zinchenko, **M.N.Shardakov**, **A.I.Lipkinalar** tadqiqot ishlarining aksariyati shunga bag'ishlangan bo'lib, turli materialni esda olib qolishda tushinishning ahamiyati muhimligini tasdiqlashga intilgan. Bu materialni esda olib qolishga to'g'ri yo'nalish berilishining natijasida material mazmunini tushunib olgan hamda esda olib qolish tezligi, aniqligi, mustahkamligi va to'liqligi ta'minlanadi.

A.A.Smironovning ta'kidlashicha, shu davrgacha hech kim hech bir ilmiy adabiyotlarda bolalarga va quyi sinf o'quvchilariga ahamiyatli bo'lgan materialni mexanik tarzda esda olib qolishlari ko'rsatilmagan.

Nemis psixologi **Vilyam Shtern** (1871-1938) fikricha, bolalarda ham katta yoshdagi odamlarda ham ma'nosiga tushunib o'zlashtirishga nisbatan mexanik egallash kam miqdordir. Bu mulohaza haqiqatdan ham to'g'ri, **Meymon** fikriga ko'ra, inson ulg'ayishi bilan ma'nosiz materialni esda olib qolish kamayib boradi va kam samara beradi, lekin ma'noga ega bo'lgan bilimlarni esda olib qolishi esa sezilarli darajada rivojlanib boradi. Shunga o'xshash omillar boshqa psixologlar tomonidan ham to'plangan bo'lib, bu haqda boy materiallar umumiy psixologiya xrestomatiyalarida o'z aksini topgan.

A.A.Smironov ma'no anglatmaydigan bo'g'inlarda va ma'no kasb etuvchi so'zlardan tuzilgan material asosida tekshirish o'tkazgan. Katta va kichik yoshdagi ixtiyoriy va ixtiyorsiz esda olib qolishni alohida tekshirish har ikkala yosh davrida mazmunli va mazmunsiz materiallarni esda olib qolishning munosabatini tekshirish maqsad qilib qo'yilgan.

Ma'no kasb etgan materialni esda olib qolish yosh bolalarga nisbatan kattalarda ustunligi lekin, ma'nosiz materialni esda olib qolish kichik yoshdagi bolalarga qaraganda kam samara bermasligi aniqlangan. Ma'nosiz bo'g'inlar nafaqat kichik yoshdagi bolalarda, balki katta yoshdagilarda ham yaxshi o'zlashtiriladi.

A.N.Leontev tadqiqot ishlarida katta yoshdagilarning ma'nosiz bo'g'inlardan tuzilgan materialni yaxshi, puxta esda saqlab qolishi ta'kidlangan. Katta yoshdagilar ma'nosiz bo'g'inlarni qandaydir mazmun bilan tez va oson bog'lay oladilar. Shuning uchun ularda bolalarga nisbatan kuchliroq ma'no kasb etadi. Shuningdek, ma'no anglatmaydigan materialni o'zlashtirish jarayoni tez ko'chadi, mahsuldorroq bo'ladi. Ma'nosiz materiallarni egallash uchun iroda kuchi, irodaviy sifatlarni muhim ahamiyatga egadir.

Esda olib qolishga hech qanday yo'nalish berilmay, materialni yaxshi olib qolinishi kishining jadal faoliyati bilan bog'liq. Ixtiyorsiz esda olib qolish faol irodaviy kuch sarflash hisobiga amalga oshadi. A.A.Smirnov ma'noli materialni esda olib qolishning bolalar uchun yengil ko'chishi ularning yosh xususiyatlariga bog'liq narsa emasligini ta'kidlab o'tadi. Chunki bolalar hali tushunib olmagan materialni go'yo ma'nosi yashirinib yotgandek qabul qiladilar. Matn ma'nosining noma'lumligi unga nisbatan qiziqish, bilishga intilish mazmunini izlashga talabchanlikni uyg'otadi. Odatda ma'nosiz so'zlarni laboratoriya sharoitiga qaraganda kundalik turmushda puxtarok eslab qolinadi.

Qator psixolog olimlarning mulohazalariga binoan: 1) *materialni esda olib qolish darajasi yosh davrlari xususiyatiga ega emas, balki uning yakkahol shaxsiy xususiyatlariga bog'liqdir*; 2) *mexanik esda olib qolishning odati tusiga kirib qolishi ham yosh davrlarining xususiyati emasdir*; 3) *so'zlarni esda olib qolish, mexanik esda olib qolishning biron-bir xususiyatidir*.

Esga tushirish va uning turlari

O'tmishda idrok qilingan narsalar, his-tuyg'u, fikr va ish-harakatlarning ongimizda qaytadan tiklanishi *esga tushirish* deyiladi. Esga tushirishning nerv-fiziologik asoslari bosh miya po'stida ilgari hosil bo'lgan nerv bog'lanishlarning qo'zg'alishidir. Esga tushirishning tanish, eslash, bevosita eslash, oradan ma'lum vaqt o'tkazib eslash, ixtiyorsiz va ixtiyoriy turlari mavjud.

Tanish ilgari idrok qilingan narsa va hodisalarni takror idrok qilish natijasida u yoki bu hodisani esga tushirishdir. Tanish *aniq va noaniq* bo'lishi mumkin. *Noaniq tanishda* biz bu narsani notanish emasligini his qilamiz, xolos. *Masalan*, bir odam ko'zimizga issiq ko'rinadi, lekin uni qaerda ko'rganimizni eslay olmaymiz. *To'liq, aniq tanishda* esa idrok qilinayotgan narsaning nomi katta rol o'ynaydi. *Masalan*, biz bir kishini ko'rib, uni taniy olmasak, uning familiyasini yoki ismini eshitsak, darrov kim ekanligini bilamiz.

Eslash narsa va hodisalarni, uni ayni paytda idrok qilmay esga tushirishdir. *Masalan*, bo'lib o'tgan voqea va hodisalarni, bilib olgan ishlarimizni bema'lol esga tushirishimiz mumkin. Eslash ham *aniq va noaniq* bo'ladi. *Masalan*, biz she'rni yoddan aytib bersak ham uni qaerda va qachon o'qiganimizni eslay olmaymiz. Esga tushirish avval *tanishdan* boshlanadi. *Masalan*, imtihonga kirganda biletni ko'rib,

uning savolini o'qib taniymiz. Demak, bunda predmetning nomi muhim rol o'ynar ekan. *Bevosita esga tushirish* materialni idrok qilish ketidanoq esga tushirishdan iborat. *Masalan*, she'rni yod olganimizda bir necha satrni o'qigan kitobga qaramasdan takrorlaymiz, ya'ni bevosita esga tushiramiz. Bir karra ko'zdan kechirilgan materialni bevosita esga tushirilgan miqdoriga qarab, xotiraning ko'lami aniqlanadi.

Materialning ko'p qismini bevosita esga tushira oladigan kishining *xotira ko'lami keng* hisoblanadi. Masalan, artistlarda so'z va iboralarni esda tutib qolish xotirasining ko'lami keng bo'ladi. Hisob-kitob ishlarini yuritadigan xodimlarda sonlarni esda tushirish xotirasining ko'lami keng bo'ladi.

Vaqt o'tkazib esga tushirish esda olib qolingani oradan bir qancha vaqt o'tkazib esga tushirishdirki, bunda shu orada ongimizda boshqa jarayonlar o'tgandek bo'ladi. *Masalan*, yoshligimizdagi voqea va hodisalarni shu tariqa eslaymiz.

Idrok qilingan narsalar miyamizda o'mashib qolishi, esimizda turishi tufayli turli usulda esimizga tushishi mumkin.

Esda saqlash deganda ilgari tug'ilgan taassurot, fikr, his-tuyg'u va ish-harakatlarning takrorlanishiga moyillik paydo qilishi va mustahkamlanishi tushuniladi. Bunga sabab asab tizimining egiluvchanligidir. Shuning uchun asab tizimi ilgari bo'lib o'tgan taassurotlarni takrorlashga tayyor turadi. Faqat esga tushirish uchun qulay sharoit bo'lsagina esga tushadi. Bunday sharoit bo'lmaganda zarur materialni ixtiyoriy eslash jarayoni qiyinlashadi. Shunday qilib, esga tushirishda ana shu tariqa qiynalib qolib, zarur bo'lgan narsani shu onda esga tushira olmaymiz.

Unutilgan narsalarni yana xotirada qaytadan tiklanishi *reminissensiya hodisasi* (xira esga keltirish) deyiladi. Bu hodisaning sababi shuki, uzoq vaqt bir ish bilan mashg'ul bo'lganda miya charchashi yuz beradi. Charchash haddan tashqari oshishi natijasida nerv xujayralarida tormozlanish yuz beradi. Materialni esda qoldirilgandan keyin 12 soat ichida esga tushirilsa, materialning ko'p qismi unutiladi. Materialni o'qib o'rganib olingandan keyin uni yaxshi xotirlay olmay, ammo oradan bir necha vaqt o'tgandan keyin uni to'la xotirlay olishlikning sababi materialni o'qib, o'rganib olishda ro'y beradigan charchashdir.

Materialni eslash uchun bo'lgan kuchli xohish natijasida tormozlanish yuzaga keladi, bu esa materialni qayta esga tushirishdagi qiyinchilikni kuchaytirib yuborishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan ishga chalg'ib ketgan insonlarda tormozlanish tarqab ketadi. Shunda esga tushirish lozim bo'lgan narsa xotiraga kiradi. Materialni mustahkamlashga bo'lgan qiziqishning bo'lishi materialni uzoqroq esda saqlashga olib keladi. Unutish vaqtga bog'liq bo'ladi. Bu **G.Ebbingauz** tomonidan aniqlangan bo'lib, unutish materialni yod olingandan keyin darhol ayniqsa tez ro'y beradi, undan keyin esa unutish ancha sekinlashadi.

G.Ebbingauz unutishning vaqtga bog'liqligini tajriba orqali aniqlagan. To'plangan natijalarning ko'rsatishicha, materialni yod olgandan so'ng unutish sur'ati tez keyinchalik esa u birmuncha sekinlashadi. Bu qonuniyat ma'nosiz ayrim bo'g'inlarni unutish ustida olib borilgan ishlarida tasdiqlangan. Tajribalarning ko'rsatishiga qaraganda, o'rganilgan narsalar bir soatdan keyin unutiladi. Materialni o'zlashtirish jarayoni maboynda xotirlash natijasida unutish sekinlashib boradi. Muvaqqat asab bog'lanishlari susayishi natijasida qachonlardir sodir bo'lgan narsa va

hodisalarning o'zaro aloqalari xotirada asta-sekin yo'qolib boradi. Vaqtning o'tishi bilan birmuncha unutilib ketilayotgan vaqtli bog'lanishlarni, ya'ni assotsiatsiyalarni qaytadan tiklash jarayoni kuch-quvvat, xatti-harakatlarni talab qiladi.

G.Ebbingauzning izdoshlari va shogirdlari tomonidan o'tkazilgan juda ko'p tadqiqotlarning ko'rsatishicha, unutish sur'ati materialning ma'noli yoki ma'nosizligiga, uning qanchalik anglanilganligiga bog'liqdir. Material qanchalik mazmundor anglanilgan tushunib olingan bo'lsa, u holda unutish ham shunchalik sekin kechadi. Lekin ma'noli materialga nisbatan ham unutish avval tez sur'atda bo'lib, keyinchalik esa u sekinlashadi. Biron-bir materialni o'zlashtirish yoki esda olib qolish insonning ehtiyojlari, qiziqishi, faoliyatning maqsadi bilan bog'liq bo'lsa, bu material sekin unutiladi.

Unutishning tezligi esda olib qolingan materialning mustahkamligiga teskari proporsional xususiyat kasb etadi. Demak, esda olib qolishning mustahkamligiga o'zlashtirilayotgan materialning ma'noga ega yoki ega emasligiga bog'liqlikdan tashqari yana bir nechta omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi va uning faoliyat mazmuniga aylanishiga ham bog'liq. Shuningdek, ular shaxsning shaxsiy, individual xususiyatlariga ham bevosita bog'liqdir.

Xotiradagi individual farqlar

Xotira jarayonlaridagi individual farqlar esda qoldirishning tezligida, aniqligida, mustahkamligida va qayta esga tushirishga tayyorligida ifodalanadi. Bu farqlar malum darajada nerv faoliyati tiplarining xususiyatlari bilan, qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining kuchi va harakatchanligi bilan bog'liqdir. Individual farqlar yana shunday hollarda namoyon bo'ladiki, ba'zi odamlar obrazli materiallarni, rang, tasvir, narsa, tovushlarni samarali va mustahkam esda olib qoladilar.

Boshqa bir odamlar so'zlarni yaxshi eslab qoladilar. Uchinchi bir toifa odamlarda esa malum bir materialni esda olib qolishda yaqqol ustunlik sezilmaydi. Shunga muvofiq psixologiyada xotiraning quyidagi tiplari farqlanadi: ko'rgazmali obrazli xotira, so'z mantiqiy xotira va oraliq tipdagi xotira. *Masalan*, ko'rgazmali obrazli xotira tipi ko'proq rassomlarda, so'z mantiqiy tipi nazariyotchi olimlarda uchraydi. Bundan tashqari xotirlash va esda qoldirish jarayonlarida analizatorlarning qatnashishiga qarab, xotira quyidagi tiplarga ajraladi: *a) ko'rish; b) eshitish; v) harakat; g) aralash xotira.*

Bir xil kishilar ko'rish orqali, ikkinchi xillari eshitish orqali, uchinchi xillari harakat yordamida, to'rtinchi xillari esda qoldirishning birga qo'shilgan usulida yaxshi esda qoldiradilar. Xotiraning aralash tiplari eng ko'p tarqalgan.

Xotiraning individual farqlari kishi faoliyatining xususiyatiga bog'liqdir. **Esda olib qolish va unutish tezligiga ko'ra xotiraning quyidagi tiplari mavjud:**

- 1) *tez esda qoldirib, sekin unutish;*
- 2) *tez esda qoldirib, tez unutish;*
- 3) *sekin esda qoldirib, sekin unutish;*
- 4) *sekin esda qoldirib, tez unutish.*

Xotira tasavvurlari

Ilgari idrok qilingan narsa va hodisalar obrazlarining ongimizda qaytadan gavdalanishiga *xotira tasavvurlari* deyiladi.

Esda olib qolish va qayta esga tushirish tasavvur obrazlari orqali amalga oshiriladi. Xotira va xayol tasavvurlari bir-biridan farq qiladi. Xotira tasavvurlari ilgari idrok qilingan, ammo hozir ko'z o'ngimizda bo'lmagan narsalarning obrazlarini ongimizda gavdalanishdan iborat. *Masalan*, yoshlik vaqtimizdagi hodisalarni eslashimiz, ongimizda qayta tiklashimiz xotira tasavvurlari bo'ladi. Xayoliy tasavvur xotira tasavvuriga qaraganda murakkab bo'lib, ongimizdagi bilimlar tajribalarimiz asosida ilgari idrok qilinmagan, shu paytgacha uchramagan narsalarning obrazlarini yaratishdan iboratdir. Xayoliy tasavvur ijod qilish bilan bog'liq. *Masalan*: ertaklar, romanlar umuman biror asarni o'qiyotganimizda undagi qahramonlarning ko'z o'ngimizda gavdalanishi xayoliy tasavvurdir.

Tasavvurlar paydo qilishda so'zning ahamiyati katta. So'z bilan nomlash tegishli obrazning yaratilishiga yordam beradi. *Masalan*, "ildiz", "o't" so'zlarini to'rt kishiga berib, qanday tasavvur qilishlarini so'rasak, ularning tasavvurlari bir-biridan farq qilishini ko'ramiz, chunki, har bir kishi tajribasiga ko'ra, kasbiga ko'ra tushunadi. *Masalan*, matematik ildizni sonning ildizi deb, botanik o'simlik qismini, uning ildizini, tish doktori esa tish ildizini tushunadi. Tasavvur qilishning fiziologik asosi shartli reflekslarning hosil bo'lishi, bosh miya po'stida paydo bo'lgan izlarning jonlanishidir.

Tasavvur birorta turtki tasirida jonlanadi, *masalan*, biror odam haqida tasavvurlarning tug'ilishi uchun birorta so'z yoki hodisa turtki bo'ladi. Asosan, maxsus qo'zg'ovchi so'zdir, shuning uchun so'z bilan tasvirlash orqali tasavvurlar tug'iladi.

Xotira borasidagi nazariyalar

Inson xotirasining qonuniyatlarini o'rganish psixologiya fanining markaziy masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki, insonning har qanday kechinma, xatti-harakatlari uzoq muddat ongda saqlanib, ma'lum bir sharoitda qayta namoyon bo'luvchi izlar qoldiradi. Shuning uchun, *xotira deganda*, inson tabiat, jamiyat, koinot to'g'risida ma'lumot, xabar va taassurot to'plash imkoniyatini beradigan hamda ilgari tajriba izlarini esda olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushirish, unutishni tushuniladi.

Bunga bog'liq ravishda psixologiya fani oldida xotira jarayonlarini o'rganish bilan aloqador bo'lgan qator murakkab muammolar masalalarini tadqiq qilish masalasi turibdi. Bular quyidagilardan iborat: izlarni esda olib qolishning fiziologik mexanizmlari qanday, esda olib qolishga qanday obyektiv (tashqi), subyektiv (ichki), tabiiy, biologik va ijtimoiy, psixologik sharoitlar ta'sir qiladi, ularning chegaralari qanday kabi masalalarga qaratilgan.

Hozirgi zamon xotirani tadqiq qilish bilan bog'liq tadqiqotlarda markaziy o'rin xotira jarayonining asoslariga ajratilgan. *Xotira jarayonining asoslari 3 yo'nalishda o'rganilgan: psixologik, neyro-fiziologik, bioximik.*

Xotiraning psixologik nazariyalari inson faolligi bilan bog'liq bo'lgan xotira jarayonlarini shakllantirishni tadqiq etadi. Ulardan birinchisi *assotsiativ nazariyadir*. Ma'lum bir bilimlar inson ongida birin ketin o'rin olishi tufayli ularda assotsiativ bog'liqlikni yuzaga keltiradi va ushbu bog'liqlikda biror bir narsa esga tushiriladi. Ushbu assotsiatsiyalarni 3 turga bo'lish mumkin, ya'ni *obyektlarning fazoviy bog'liqligi, bir-biriga mosligi va qarama-qarshiligidir*. Bundan 3 ta assotsiatsiya kelib chiqadi: *bir-biriga bog'liqlik, o'xshashlik va qarama-qarshilik*. Assotsiatsiya nazariyasi bo'yicha xotira assotsiativ bog'lanishlar asosida mavjud ma'lumotni saqlash va qayta tiklash imkoniyatiga ega.

Ikkinchi psixologik nazariya *xotiraning geshtalt nazariyasidir*. Ushbu nazariyaning asosiy ta'limoti narsaning negizi, yaxlitligi, yig'indisidir. Ushbu nazariyaga asosan xotira yaxlit hodisa sifatida tahlil etiladi. *Bixeviorizm* – inson xotirasida, esda olib qolishda takrorlashning ahamiyatiga diqqatni qaratadi. *Freydizm* xotirani emotsiyalar, motivlar va ehtiyojlar bilan bog'laydi.

Xotiraning mantiqiy nazariyasi **A.Bine va Byullerlar** tomonidan ilgari surilib, ular xotiradagi materialni xotiraning mantiqiy esda olib qolinishi bilan bog'laydi.

A.N.Leontev, N.I.Zinchenko, A.A.Smironovlar tomonidan faoliyat nazariyasi ilgari surilib, turli tasavvurlar orasidagi bog'liqlik esda olib qolingan materialning qandayligiga emas, balki odamning u bilan nima qilishiga bog'liqdir.

Bioximik nazariya tashqi ta'sir ostida nerv hujayralarida yuz beradigan o'zgarishlarni qayd qilish va xotira jarayonida DNK va RNK ahamiyatini aniqlashga qaratilgandir. DNK xotirani genetik tug'ma tashuvchi sifatida, RNK esa individual xotiraning ontogenetik asosi sifatida qabul qilinadi. Kibernetik nazariya bo'yicha xotira ma'lumotni qabul qilib olish, qayta esga tushirish va unutishdir.

Adabiyotlarda keltirilishicha, navbatdagi nazariya xotira jarayonlari asoslari haqidagi fiziologik nazariyadir. Vaqt oralig'ida esda olib qolish, saqlash va esga tushirish xotiraning asoslari fiziologik nazariyasini tashkil qiladi. Har qanday tashqi ta'sir nerv tizimida izsiz o'tmaydi va qandaydir "iz" qoldiradi. "Iz"ning fizik ta'siri qayta impuls harakatini yengillashtiradi. Vaqtinchalik nerv munosabatlarining yuzaga kelishi, ularning izini va keyinchalik faollashtirilishini xotira jarayonlari asoslari nazariyasi sifatida ko'rib chiqiladi.

80-yillarda nemis psixologi **German Ebbingauz** o'z "sof" xotira qonunlarini o'rganish imkonini beruvchi, boshqacha so'z bilan aytganda, tafakkurga bog'liq bo'lmagan holda izlarning esda qolish jarayoni tadqiq etishning yangi uslubini taklif qilgan, ya'ni ma'nosiz bo'g'inlarni yod olishdan iborat bo'lgan bu uslub **Ebbingauzga** materialni esda olib qolishning egri chizig'iga oid qonunni kashf qilishga, uning asosiy qoidalarini bayon etishga va ana shularning asosida izlarni xotirada saqlanish muddatini hamda asta-sekin so'nish holatini tekshirishga imkoniyat yaratgan. **XIX asr oxiri XX asr boshlarida** Amerikalik psixolog **Eduard Torndaykning** tekshirishlari paydo bo'ldi. U birinchi bo'lib tekshirish predmeti sifatida hayvonlarda ko'nikmalarni paydo bo'lish jarayonini tanlagan edi.

XX asrning birinchi 10-yilida xotirani tekshirish yangi ilmiy talqinga ega bo'ldi, uning moddiy asosi to'g'risidagi muammolarga mohiyati jihatidan mutlaqo boshqacha yondashish ro'yogba chiqdi.

Xuddi shu davr xotira psixologiyasida keskin burilish nuqtasini vujudga keltiradi. Akademik **I.P.Pavlov** shartli reflekslarni o'rganishning ilmiy metodini taklif etadi, bu narsa o'z navbatida bosh miya yarim sharlarida yangi bog'lanishlar paydo bo'lishiga va mustahkamlanishning asosiy fiziologik mexanizmlarini tekshirish imkoniyatlarini tug'dirdi. Ana shunday qilib, ushbu bog'lanishlar paydo bo'lishiga va saqlab qolishga yordam beradigan shart-sharoitlar, shuningdek, bog'lanishlarning saqlanishiga ta'sir qiluvchi holatlar, omillar va mexanizmlar tasvirlab berildi. **I.P.Pavlov** oliy asab faoliyati ta'limoti va uning asosiy qonunlari xotiraning fiziologik mexanizmlariga oid bilimlarning asosiy manbasiga aylanib qoladi.

Bolalarda xotiraning yuksak (yuqori) shakllarini birinchi marta tadrijiy ravishda tadqiq qilish taniqli psixolog **L.S.Vigotskiyga** nasib etgan. U 20-yillarning oxirlarida maxsus tekshirishlarning predmeti qilib, xotiraning yuksak shakllarining rivojlanishi muammosini tanlagan va u o'z shogirdlari **A.N.Leontev** (1905-1979) va **A.V.Zankov** bilan birgalikda xotiraning yuksak shakllari ruhiy faoliyatning murakkab shakli ekanligini, kelib chiqish jihatidan ijtimoiyligini ko'rsatadi. Shuning bilan birga u murakkab, mohiyatiga ko'ra, esda olib qolishning asosiy bosqichlari rivojlanishini isbotlab berdi.

Psixologlardan **A.A.Smirnov**, **P.I.Zinchenkolar** ham xotira bo'yicha ilmiy tekshirish ishlarini olib bordilar, uning yangi qonunlari va mexanizmlarini ochdilar. Esda olib qolishning faoliyat maqsadiga bog'liqligini yoritdilar, murakkab materialni esda olib qolishning oqilona usullarini ko'rsatib berishga muvofiq bo'ladilar. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, psixolog olimlar tomonidan xotira borasida qator ilmiy izlanishlar olib borilgan va borilmoqda.

Tayanch iboralar

Amneziya (lot. A – inkor etish, mnesus – xotira) – miyaning turli qismlarining jarohatlanishi natijasida xotiraning yo'qolish holati.

Assotsiatsiya (lot. associatio – birlashtirmok) – psixik hodisalar orasidagi o'zaro bog'lanish, u ma'lum qonunlar bo'yicha tarkib topadi (jumladan, fazodagi yondoshlik, xronologik o'xshashlik, qarama – qarshilik va b.).

Mantiqiy xotira – xotira turlaridan, materialni ma'no tomondan o'zaro bog'langan holda tushunib esda qoldirishga asoslanadi.

Mexanik xotira (yunon. Mechane – qurol, mashina) – materialning ma'nosiga tushunmagai holda takrorlashdan iborat xotira.

Operativ xotira (lot. operatio – harakat) – xotira turlaridan biri. By ma'lum faoliyatni bajarish jarayonida ifodalanadi, yzoq muddatli xotiradan vaqtincha foydalanadi.

Paramneziya (yunon. rara – oldida, yonida mnosis – eslash) – sodir bo'layotgan voqealarning qachonlardir boshdan kechirilgandek bo'lib tuyulishidan iborat xotira kasalligi.

Proaktiv tormozlanish (lot. proaktivus – o'ta faol. yunon. tormoz) – avvalgi faoliyatning qayta – qayta kun takrorlanishi natijasida keyingi materiallarni esga tushirishning yomonlashuvi.

Reminissensiya (lot. *reminiscentia* – eslamq) – avval unutilgan deb hisoblangan materiallarning keyinchalik esga tushishidan iborat xotira jarayoni, ya'ni vaqtinchalik unutilish holati.

Retroaktiv tormozlanish – (lot. *Retru* – orqaga, *activus* – faol, harakatchan) – oldin eslab qolingan materiallarni keyingi faoliyat ta'sirida vaqtincha unutilish.

Tanib olish – oldin esda qoldirilgan narsalarni qayta idrok qilish orqali obraz tariqasida esga tushirishdan iborat xotira jarayoni.

Uzoq muddatli xotira – xotira turlaridan. Bu bilimlarni, shu bilan birga ko'nikma va malakalarni uzoq vaqtgacha esda saqlashni ta'minlaydi, hamda g'oyat ko'p hajmdagi axborotni esda tutish bilan xarakterlanadi.

Unutilish – oldin esda olib qolingani ma'lumotlarni keyinchalik qayta esga tushira olish imkoniyatining yo'qligi jarayoni.

Xotira – aks ettirilgan narsa va hodisalarni, tajribani esda qoldirish, esda saqlash va zarur bo'lganda esga tushirishdan iborat psixik jarayon.

Esga tushirish – xotira jarayonlaridai biri, buning natijasida oldin esda olib qolingani bilimlarni faollashtirish yuzaga keladi.

Esda olib qolish – yangi qabul qilingani axborotlarni oldin egallangani bilim va tajribalar bilan bog'langani holda esda saqlashga qaratilgani psixik faoliyat.

Qisqa muddatli xotira – qisqa muddatga esda qoldirish ta'minlaydigan xotira turi.

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgani mavzular

1. Xotira hakida tushuncha.
2. Xotira turlari.
3. Xotira jarayonlari.
4. Xotira tiplari.
5. Xotira tasavvurlari.
6. Xotira borasidagi tadqiqotlar.

Test topshiriqlari

1. Qaysi qatorda xotira tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgani?

- A) miyadagi muvaffiqiyat bog'lanishlar;
- B) miyada iz hosil bo'lishi;
- V) ilgari idrok qilgani boshdan kechirgani va bajargani ishlarimizni yodda saqlash keyinchalik, ularni esga tushirishdan iborat jarayon;
- G) kundalik bilimlarni esda olib qolishga;
- D) zarur vaqtda kerakli materialni esga tushira olish qobiliyati.

2. Qaysi qatorda xotira jarayonlari ko'rsatilgani?

- A) esga tushirish;
- B) esda olib qolish;
- V) unutilish;
- G) esda saqlash
- D) barcha javoblar to'g'ri.

3. Xotirani nerv-fiziologik asosini nima tashkil qiladi?

- A) ikkinchi signallar tizimi;
- B) assotsiatsiyalar;

- V) bosh miyaning po'stloq qismi;
- G) ketma-ketlik assotsiatsiyasi;
- D) dinamik streatip.

4. Qaysi qatorda assotsiatsiya tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan?

- A) miyada iz hosil bo'lishi;
- B) material izini yo'qolishi;
- V) esda qoldirish va unutish tezligiga ko'ra;
- G) xotiramizda mustahkamlangan va ongimizda qayd qilingan ayrim voqea-hodisalarning o'zaro bog'lanishdir biror buyumni esda olib qolish uni boshqa buyumlar bilan bog'lash orqali amalga oshiriladi;
- D) barcha javoblar to'g'ri.

5. "Muvaqqat nerv bog'lanishlari hayvonot olamida va bizning o'zimizga ham bo'ladigan eng umumiy fiziologik hodisadir. Shu bilan birga u psixik hodisa hamdir. Turli-tuman harakat taassurot bo'lmasa harflar so'zlar va fikrlar o'rtasida paydo bo'ladigan bog'lanishlarni psixologlar assotsiatsiyalar deb ataydilar". Mazkur fikr muallifi qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) I.Pavlov;
- B) I.Sechenov;
- V) L.Vigotskiy;
- G) A.Smimov;
- D) Galton;

6. Assotsiatsiyalar nechta turga ajratiladi?

- A) 2ta ketma-ketlik o'xshashlik;
- B) 3ta ketma-ketlik o'xshashlik qarama-qarshilik;
- V) 2ta fazoviy va vaqt;
- G) 3ta fazoviy emotsional harakat;
- D) barcha javoblar to'g'ri.

7. Narsa va hodisalarning fazoviy vaqt munosabatlari aks etadi. Mazkur fikr qaysi assotsiatsiyaga tegishli?

- A) ketma-ketlik;
- B) o'xshashlik;
- V) qarama-qarshilik;
- G) fazoviy ;
- D) harakat.

8. Qaysi qatorda psixik faollik tabiatiga ko'ra, xotira turlari berilgan?

- A) harakat, hissiy, obrazli, so'z-mantiq, mexanik;
- B) ixtiyorsiz, ixtiyoriy;
- V) qisqa muddatli va uzoq muddatli, operativ;
- G) harakat, ixtiyorsiz, operativ;
- D) barcha javoblar to'g'ri.

9. Qaysi qatorda faoliyat maqsadiga ko'ra, xotira turlari keltirilgan?

- A) harakat, hissiy, obrazli, so'z-mantiq, mexanik;
- B) ixtiyorsiz, ixtiyoriy;
- V) qisqa muddatli va uzoq muddatli, operativ;
- G) harakat, ixtiyorsiz, operativ;

D) barcha javoblar to'g'ri.

10. Materialni qancha vaqt esda olib qolish va esda saqlash muddatiga ko'ra xotira turlari qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) harakat, hissiy, obrazli, so'z-mantiq, mexanik;

B) ixtiyorsiz, ixtiyoriy;

V) qisqa muddatli va uzoq muddatli, operativ;

G) harakat, ixtiyorsiz, operativ;

D) barcha javoblar to'g'ri.

11. Turli xil harakatni esda olish, esda saqlash va qayta esga tushirishdan iborat esda olib qolish deb ataladi.

A) harakat xotirasi;

B) hissiy xotira;

V) obrazli xotira;

G) ixtiyorsiz xotira;

D) ixtiyoriy xotira.

12. Tasavvurlar tabiat va hayot manzaralari shu bilan birga tovush hidlar ta'mlar bilan bog'liq xotira

A) harakat xotirasi;

B) hissiy xotira

V) obrazli xotira;

G) ixtiyorsiz xotira

D) ixtiyoriy xotira.

13. Idrok qilingan narsa va hodisalarning obrazlarini miya po'stida iz hosil qilishi..... deb ataladi?

A) esda saqlash;

B) esga tushirish;

V) unutish;

G) esda olib qolish;

D) remensensiya.

14. Esda qoldirish faolligiga ko'ra qanday turlarga ajratiladi?

A) 2ta ixtiyoriy, ixtiyorsiz;

B) 3ta ixtiyoriy, ixtiyorsiz, tasodifan;

V) maqsad qo'yish, o'quv materialini tushunish;

G) ixtiyoriy va beixtiyoriy;

D) barcha javoblar to'g'ri.

15. Ixtiyoriy esda olib qoldirishda qanday usullardan foydalaniladi?

A) material va so'zning ta'sirchanligi;

B) ixtiyoriy va ixtiyorsiz tasodifan;

V) maqsad qo'yish o'quv materialini tushunib esda qoldirish, esda qoldirishning ratsional usullari;

G) maqsad qo'yish, esda qoldirishning ratsional usullaridan foydalanish;

D) hissiy ta'sirchanligi, hajmi, harakatchanligi, tezligi, shakli.

16. Beixtiyor esda qoldirishda qaysi jarayon asosiy rol o'ynaydi?

A) ehtiyoj;

B) tajriba;

- V) shakl va hajmi;
- G) qiziqish;
- D) hissiy ta'sirchanligi.

17. O'tmishda idrok qilingan narsalarning his-tuyg'u, fikr va ish-harakatlarning ongimizda qayta tiklanishi deb ataladi.

- A) esga tushirish;
- B) tanish;
- V) eslash;
- G) bevosita esga tushirish;
- D) vaqt o'tkazib esga tushirish.

17. ilgar idrok qilingan narsa va hodisalarning takror idrok qilish natijasida narsa yoki hodisaning esga tushirishidir.

- A) esga tushirish;
- B) tanish;
- V) eslash;
- G) bevosita esga tushirish;
- D) vaqt o'tkazib esga tushirish.

19. Narsa va hodisalarni uni shu paytda idrok qilmay esga tushirishga..... aytiladi.

- A) esga tushirish;
- B) tanish;
- V) eslash;
- G) bevosita esga tushirish;
- D) vaqt o'tkazib esga tushirish.

20. Materialni idrok qilish ketidanoq esga tushirishdan iborat jarayon nima deb ataladi?

- A) esga tushirish;
- B) tanish;
- V) eslash;
- G) bevosita esga tushirish;
- D) vaqt o'tkazib esga tushirish.

21. esda olib qolingani oradan bir necha vaqt o'tkazib esga tushirishdirki, shu orada ongimizda boshqa jarayonlar bo'lib o'tadi.

- A) esga tushirish;
- B) tanish;
- V) eslash;
- G) bevosita esga tushirish;
- D) vaqt o'tkazib esga tushirish.

22. Ilgari tug'ilgan taassurot fikr, his-tuyg'u va ish-harakatlarning takrorlanishiga moyillik paydo qilishi va mustahkamlanishiga aytiladi. A) esda olib qolish

- B) esda saqlash;
- V) esga tushirish;
- G) unutish;
- D) remensitsensiya.

23. Unitilgandan keyin ham materialni xotiraga qaytishi deb ataladi.
- A) amneziya;
 - B) retrograd amneziya;
 - V) remenissensiya;
 - G) assotsiatsiya;
 - D) takrorlash.
24. Unutishning vaqtga bog'liqligini o'rgangan olim qaysi qatorda ko'rsatilgan?
- A) I.Pavlov;
 - B) A.Smironov;
 - V) I.Sechenov;
 - G) G.Ebbingauz;
 - D) D.Elkonin.
25. Unutishga qarshi vosita bu.....
- A) eslash;
 - B) tanish;
 - V) qisman takrorlash;
 - G) takrorlash;
 - D) qayta esga tushirish.
26. Xotiradagi individual farqlar nimaga bog'liq?
- A) esda saqlash va esga tushirishga;
 - B) esda olib qolish va unutish;
 - V) unutish va esda saqlash;
 - G) vaqt va materialga;
 - D) shakli, hajmi va hissiy ta'sirchanligida;
27. Xotiraning tiplari qaysi qatorda ko'rsatilgan?
- A) tezda esda qoldirib sekin unutish;
 - B) tez esda qoldirib, tez unutish;
 - V) sekin esda qoldirib sekin unutish;
 - G) sekin esda qoldirib, tez unutish;
 - D) barcha javoblar to'g'ri.
28. Ilgari idrok qilingan narsa va hodisalar obrazlarining ongimizda qaytadan gavdalanishiga deyiladi.
- A) unutish;
 - B) esda saqlash;
 - V) xayol tasavvurlari;
 - G) xotira tasavvurlar;
 - D) xotiradagi individual farqlar.
29. Material va xabarlarining so'zma-so'z esda olib qolish sabablari qaysi qatorda ko'rsatilgan?
- A) materialni ta'sirchanlik darajasi;
 - B) shaxsning o'zlashtirishga munosabati;
 - V) o'zlashtiruvchining imkoniyati va qobiliyati ;
 - G) barcha javoblar to'g'ri;

D) to'g'ri javob berilmagan.

30. Idrok qilingan narsa va hodisalarning ularning bog'lanish munosabatlarini favqulodda tez hamda aniq esda qoldirish va esga tushirishga qaratilgan nodir qobiliyat bu

- A) mexanik;
- B) fenomenal;
- V) retrograd;
- G) eshitish;
- D) proaktiv tormozlanish.

Nazorat savollari

1. Xotira tushunchasining mazmuni nimalarda ko'rinadi?
2. Xotiraning nerv-fiziologik asosini nimalar tashkil qiladi?
3. Xotira turlarining mohiyatini ko'rsating?
4. Xotira jarayonlari mohiyatini izohlang?
5. Xotira tasavvurlarining o'rmini qanday izohlaysiz?
6. Xotira borasidagi tadqiqotlarga misol keltiring


TAFAKKUR

Tafakkur haqida tushuncha

Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur orqali biz sezgi a'zolarimiz bilan bevosita aks ettirib bo'lmaydigan narsa va hodisalarni ongimizda aks ettiramiz. Umuman olganda tashqi muhitdagi narsa va hodisalar o'rtasida ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitib bo'lmaydigan ichki munosabatlar hamda qonuniyatlar mavjud. Ana shu ichki bog'lanish hamda qonuniyatlarni biz tafakkur orqali bilib olamiz. Demak, *tafakkur* deb narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar va munosabatlarning ongimizda aks ettirilishiga aytiladi.

Aynan tafakkur orqali biz moddiy olamdagi narsa va hodisalarning mohiyatini bilish imkoniga ega bo'lamiz. Shu bois, dunyoni bilishda bevosita sezish, idrok, tasavvur va bevosita tafakkur muhim rol o'ynaydi.

Tafakkur tushunchasining mazmun mohiyati psixologiya darsliklarida olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Jumladan, umumiy psixologiya darsliklarida tafakkurga berilgan ta'riflar turlicha bo'lib uning ikkita yoki uchta muhim xususiyati ta'kidlab o'tiladi, xolos. Jumladan, P.I.Ivanovning darsligida "*tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq, to'liq, chuqur va umumlashtirib aks ettirishga (bilishga), insonni tag'in ham oqilona amaliy faoliyat bilan shug'ullanishiga imkon beradi*" deb ta'riflanadi. Ushbu ta'rifda tafakkurning to'la, aniq va umumlashtirilgan holda aks ettirishi ta'kidlab o'tiladi, xolos, lekin uning xarakterli xususiyatlari bevosita so'z yordami bilan ifodalanishi muallifning diqqat markazidan chetda qolgan.



M.V.Gamezo tomonidan “*tafakkur voqelikning umumlashgan holda va soʻz hamda oʻtmish tajriba vositalarida aks ettirilishi*” ekanligi bayon qiladi. U tafakkurning umumlashgan soʻz vositasida va vositali atrof- muhit hodisalarini aks ettira olishni taʼkidlaydi.

A.V.Petrovskiy tahriri ostidagi darslikda tafakkurga quyidagicha taʼrif keltiriladi: “*Tafakkur – ijtimoiy sababiy, nutq bilan chambarchas bogʻliq muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir, boshqacha qilib aytganda, tafakkur voqelikni analiz va sintez qilish, uni bavo-sita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir*”.

V.V.Bogoslovskiy tahriridagi darslikda ham tafakkurga berilgan taʼrif uning umumlashgan va bilvosita aks ettirish xususiyatlari yoritilgan, xolos. Xuddi shunga oʻxshash tafakkur xususiyatlari **F.N.Gonobolin**, **K.K.Platonov** darsliklarida ham uchraydi.

Keltirilgan taʼriflar orasida **O.K.Tixomirovning** darsligidagi taʼrif nisbatan toʻliqroq deb hisoblanadi. Unda tafakkur predmetiga kiruvchi tarkibiy qismlar mana bunday ifodalanadi: “*Tafakkur – bu oʻz mahsuloti bilan voqelikni umumlashtirib, bavo-sita aks ettirishni xarakterlaydigan umumlashtirish darajasi va foydalanadigan vositalarga hamda oʻsha umumlashmalar yangiligiga bogʻliq ravishda turlarga ajratishdan iborat jarayon, bilish faoliyatidir*”.

Hozirgi vaqtda tafakkurning predmeti yuzasidan psixologiyada turli-tuman qarash va taʼriflar mavjuddir. Ularning ayrimlariga tavsifnoma berib oʻtamiz. **S.L.Rubinshteyn** nazariyasiga binoan tafakkurni psixologik jihatdan oʻrganishning asosiy predmet, jarayon, faoliyat tariqasida namoyon boʻlishidir. Muallif tafakkur operatsiyalari shakllarini shakllantirishda jarayon, muammoli vaziyatni hal qilishda esa fikr yuritish faoliyati sifatida vujudga kelishini chuqur tahlil qilib beradi. **S.L.Rubinshteyn** tafakkur toʻgʻrisidagi gʻoyani rivojlantirib, uni subyekt faolligining paydo boʻlishi deb ataydi.

A.N.Leontev tafakkur psixologiyasi predmeti yuzasidan mulohaza yuritib, tafakkurni turli koʻrinishlarga ajratadi, fikr yuritish faoliyati ekanligini tan oladi, lekin uni *predmetli-amaliy faoliyat* deb nomlaydi. Shuning bilan birga tafakkurning tuzilishi, fikr yuritish motivatsiyasi toʻgʻrisidagi nazariy metodologik muammolarni oʻrtaga tashlaydi.

P.Ya.Galperin fikriga koʻra, *tafakkur –bu orientirlash-tadqiqot faoliyati, orientirovka jarayondir, yaʼni orientirovka-jarayon, orientirovka faoliyat*. Muallif psixologiya fani intellektual masalalarni yechishda subyektning tafakkuriga orientirovka qilish jarayonini oʻrganishga asoslanadi deb tushuntiradi. **P.Ya.Galperin** tafakkurning boshqa jihatlarini oʻzining aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasidan kelib chiqqan holda yoritishga intiladi. **A.V.Brushlinskiy** tadqiqotlarida tafakkurning muhim yangilikni qidirish va ochish, gipoteza va nazariyalarni bashorat qilish, oldindan payqash xususiyatlari alohida taʼkidlab oʻtiladi.

Tafakkurning nerv-fiziologik asosi

Tafakkur faoliyati muayyan maqsadga qaratilgan alohida ongli jarayon tariqasida sodir bo'ladi. Bosh miyaning biror uchastkasidagi faoliyat emas, balki butun bosh miya po'stining faoliyati mana shu jarayonning fiziologik asosidir. Tafakkur faoliyati uchun avvalo analizatorlarning miyadagi uchlari o'rtasida vujudga keladigan murakkab bog'lanishlar muhim ahamiyatga egadir. Analizatorlarning bosh miya po'stidagi uchastkalari bir-biridan keskin ajralgan holda emas, balki bir-biriga tutashib, bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketganligi sababli mazkur bog'lanishlarning vujudga kelishi yuqorida aytib o'tilganidek, tafakkurning maxsus nerv-fiziologik mexanizmlaridir. Bunda ikkinchi signallar tizimining bog'lanishlari birinchi signal tizimidagi bog'lanishlarga tayanadi.

I.P.Pavlov ikkinchi signal tizimining ishi hamisha birinchi signal tizimi bilan o'zaro o'tkazish jarayonida hozir bo'ladi, deb ta'kidlagan. Ikkinchi signal tizimi asosida birinchi signal bilan o'zaro ta'sir qilish jarayonida dastlab umuminsoniy empirizmni va nihoyat odamning o'z tevaragidagi olamni va uning o'zini bilish uchun oliy qurol bo'lgan oliy tafakkur voq'e bo'ladi. Tafakkurning muayyan bir narsaga qaratilishi uchun nerv-fiziologik asos bo'lgan orientirovka refleksi tafakkur jarayonlarida katta rol o'ynaydi. Akademik **I.P.Pavlov** ta'kidlaganidek, "*avvalo umuminsoniy empirizmni nihoyat, atrof olamni va insonning o'zini ham bilish uchun oliy qurol bo'lgan fanni ham yaratuvchi maxsus insoniy oliy tafakkur zarurdir*".

Tafakkur operatsiyalari

Tafakkur jarayoni insonning bilishga bo'lgan ehtiyojlari, tevarak-atrofdagi olam va turmush to'g'risidagi o'z bilimlarini kengaytirishga va chuqurlashtirishga intilish sababli vujudga keladi. Fikr qiluvchi kishining tafakkuri-obyektni anglashi, bilishi tafakkur jarayonining xarakterli xususiyatidir. Odam o'zi idrok qilayotgan narsalar to'g'risida fikr qiladi. Shuning uchun tushunchalar narsalarning butun bir sinfi, turkumi to'g'risida fikr qiladi, ya'ni bular tafakkurning obyekti bo'ladi. Bir narsaga tayanmagan quruqdan quruq tafakkur bo'lishi mumkin emas.

Analiz, sintez, taqqoslash, abstraksiyalash va umumlashtirish, tasniflash va tizimga solish aqliy operatsiyalarning asosiy turlaridir.


Analiz – shunday bir tafakkur operatsiyasidirki uning yordami bilan biz narsa va hodisalarni fikran yoki amaliy jihatdan xususiyatlarini tahlil qilamiz. Analiz jarayonida butunning uning qismlariga va elementlariga bo'lgan munosabati aniqlanadi. Tahlil obyektlari amalda ajratib bo'lmaydigan elementlarga yoki belgilarga bo'lishda ifodalaniishi mumkin. Allomalarimizning ta'kidlashicha, maymunning yong'oqni chaqishining o'ziyoq boshlang'ich, oddiy analizdir. O'quvchi va talaba yoshlar turmushda va va dars jarayonida analiz yordami bilan ko'pgina ishlarni amalga oshiradilar, topshiriqlar, misol va masalalarni yechadilar. Demak, tabiat va jamiyatdagi bilim va tajribalarni inson tomonidan o'zlashtirib olish analizdan boshlanadi. *Masalan*, buni 214-betdagi sxemada ko'rish mumkin.

Dars jarayoni vaqtida tafakkurning analiz qilish faoliyati katta o'rin tutadi. Chunonchi, savodga o'rgatish nutqni tahlil qilishdan, gapni so'zlarga, so'zlarni

bo'g'inlarga, bo'g'inlarni tovushlarga ajratishdan boshlanadi. Matematik masalani yechish tahlil qilishdan, dastlab bir qancha ma'lum sonlarni topishdan boshlanadi. Agarda inson oldiga avtomashina motorining tuzilishini bilish vazifasi qo'yilsa, u holda bu topshiriqni hal qilish u motorni ayrim qismlarga ajratib, har bir qismni o'z navbatida alohida olib tekshirish lozim bo'ladi va hokazo.



Analiz va sintez jarayonlarining yuzaga kelishini quyidagicha izohlash mumkin



Yuqorida aytib, o'tilgan motor yoki boshqa qismlarning rolini tushunish uchun yolg'iz analizning o'zi kifoya qilmaydi. Chunki tarkibiy qismlarni birlashtirgan holda bir-biriga ta'sir qilib turgan motor va mashinaning butunligicha olib tekshirgandagina uning motor yoki mashina ekanligini anglash mumkin.

Sintez – shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, biz narsa va hodisalarning analizda bo'lingan, ajratilgan ayrim qismlarini, bo'laklarini sintez yordami bilan fikran va amaliy ravishda birlashtirib, butun holiga keltiramiz. Sintez elementlarning, narsa va hodisalarning qismlari va bo'laklarini bir butun qilib qo'shishdan iborat aqliy faoliyat ekanligi ta'rifdan ko'rinib turibdi. Analiz aqliy bo'lgani kabi sintez ham amaliy xarakter kasb etadi. *Masalan*, birinchi sinf bolasi o'z harf xaltasidagi

keltirilgan harflardan foydalanib, bo'g'in, bo'g'inlardan so'z, so'zlardan gap, gaplardan qisqa axborot, undan esa hikoya tuzadi.

Analiz va sintez o'zaro bevosita mustahkam bog'langan yagona jarayonning ikki tomonidir. Agar narsa va hodisalar analiz qilinmagan bo'lsa, uni sintez qilib bo'lmaydi, har qanday analiz predmetlarni narsalarni bir butun holda bilish asosida amalga oshirilishi lozim.

Taqqoslash – shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, bu operatsiya vositasi bilan obyektiv dunyodagi narsa va hodisalarning bir-biriga o'xshashligi va bir-biridan farqi aniqlanadi.

XIX-XX asrlarda yashagan olim K.D.Ushinskiy taqqoslash jarayoni borasida quyidagilarni ta'kidlagan: *"Agar siz tabiatni bir narsasini ravshan tushunib olishni istasangiz, uning o'ziga juda o'xshash bo'lgan narsalardan tafovutini topingiz va uning o'zida juda uzoq bo'lgan narsalar bilan o'xshashligini topingiz. Ana shunda siz shu narsaning eng muhim belgilarini payqab olasiz, demak shu narsani tushunib olasiz"*.

Narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik yoki farqni, teng yoki tengsizliklarni, ayniyat yoki ziddiyatlarni aniqlashdan iborat bo'lgan fikr yuritish operatsiyasi, bilishning dastlabki va zarur vositasi bo'lib hisoblanadi. Ajdodlarimiz taqqoslashning ta'limdagi roli to'g'risida shunday fikrlarni bildirgan edi. Taqqoslash har qanday tushunishning va har qanday tafakkurning asosidir. Olamdagi narsalarning hammasini taqqoslab ko'rish yo'li bilan bila olmasak, boshqa yo'l bilan bila olmaymiz, agar biz hech narsa bilan solishtirishimiz va farqini bilib olishimiz mumkin bo'lmagan biron bir narsaga duch kelganimizda edi, u holda biz shu narsa to'g'risida hech qanday fikr qila olmagan bo'lar edik.


Taqqoslash operatsiyasi ikki xil yo'l bilan amalga oshishi mumkin: *amaliy uniq narsalarni bevosita solishtirish va nazariy tasavvur qilinayotgan obrazlarni va narsalarni ongda fikran taqqoslash*. Agar odam ikki boylam yukni qo'l bilan ko'tarib, bir necha xil taom mazasini qiyoslasa yoki ikki paykal paxtazor hosildorligini taqqoslasa, bu amaliy taqqoslash bo'ladi. Shuningdek, o'quvchilar ikki qalam yoki ikki sterjenning uchini yog'ochga yoki qog'ozga solishtirsalar, u analogik holatga misol bo'la oladi. Bundan tashqari metr bilan masofani, tarozi bilan og'irlikni, termometr bilan haroratni, teleskop bilan osmon jismlarini o'lchash paytida ham taqqoslash jarayoni vujudga keladi.

Inson tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarning barchasini bevosita aks ettirish, qo'l bilan paypaslash imkoniyatiga ega emas. Shu boisdan to'planadigan bilimlarning aksariyati qo'l bilan ushlab, ko'z bilan kuzatish evaziga emas, balki fikr yuritish orqali, mantiq yordamida anglaniladi. Ular o'rtasida o'xshash va farqli alomat hamda belgilar nazariy taqqoslash asosida ajratiladi. Demak, inson olayotgan keng ko'lamdagi axborotlar farqini fikran taqqoslash yordamida anglab yetadi. Jumladan, o'quvchilar dilda o'ylayotgan narsalarni fikran solishtirib ko'radilar. Ba'zan turli yoshdagi kishilar o'z tengdoshlari xarakterida, qiziqishida, yurish-turishida, muomalasida va boshqa xususiyatida o'xshashlik va tafovut borligini topadilar.

Abstraksiya – shunday fikr tafakkur operatsiyasidirki, bu operatsiya yordami bilan moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning muhim xususiyatlarini farqlab olib,

ana shu xususiyatlardan narsa va hodisalarning muhim bo'lmagan ikkinchi darajali xususiyatlarini fikran ajratib tashlaymiz.

Mazkur jarayonni 216-betdagi sxemada ham ko'rishimiz mumkin.



Abstraksiya jarayonida obyektidan ajratib olingan belgi, alomatning o'zi tafakkurning mustaqil obyekti bo'lib qoladi. Abstraksiya operatsiyasi tahlil natijasida vujudga keladi. *Masalan*, sinf devorini tahlil qilish jarayonida uning faqat bir belgisini, ya'ni oqligini ajratib olish mumkin va oq devor to'g'risida emas, balki devorning oqligi to'g'risida, keyin esa umuman oqlik haqida fikr yuritish mumkin. Kishilar quyosh, oy, yulduz, elektr, olov ba'zi planetalar, ayrim tosh va hokozolarning ko'z o'ngilarida yoritishni kuzata turib ularning bitta umumiy belgisini, ya'ni yoritishni fikran ajratib olib, umuman yoritish to'g'risida mulohaza yuritiladi.

Buyumlarni narsa va hodisalarni jism va predmetlarni bir-biri bilan taqqoslash paytida ham abstraksiyalash jarayoni yuzaga keladi. Bunda narsa va hodisalarning mavjud belgilariga, *masalan* tusiga, shakliga, tezligiga, og'irligiga, qiymatiga va shu kabi o'xshash sifatlarga qarab taqqoslanadi.

Abstraksiya operatsiyasi bilan insonni qurollantirish intellektual jihatdan intensiv rivojlanishiga olib keladi, shuningdek mustaqil bilim olish faoliyatini takomillashtiradi.

Umumlashtirish – tafakkurda aks etgan bir turkum narsalarning, o'xshash muhim belgilarning shu narsalar to'g'risidagi bitta tushuncha qilib, fikrda birlashtirish demakdir. Psixologiyada umumlashtirish muammosi bo'yicha yagona yo'nalishdagi nazariya mavjud emas. Shuning uchun psixologlar bu jarayonni turlicha talqin qiladilar, goho uni guruhlarga bo'lib o'rganadilar. Shuningdek, maktab ta'limini qaysi umumlashtirish usuli asosida amalga oshirish to'g'risida olimlar turlicha nuqtai nazardan yondashadilar. **S.L.Rubinshteyn, V.V.Davidov** tomonidan ta'limda nazariy jihatdan umumlashtirish usulini yoqlab chiqsalar, **N.A.Menchinskaya, D.N.Bogoyavlenskiylar** ham nazariy, ham amaliy usulni qo'llashni tavsiya etmoqdalar. Ammo o'quv faoliyatining turli-tumanligi dars jarayonida har xil umumlashtirish usullaridan foydalanish kerakligini taqazo qiladi.

Psixologiyada umumlashtirishning keng qo'llaniladigan *ikki turi*: tushunchali umumlashtirish va hissiy-konkret umumlashtirish yuzasidan ko'proq fikr yuritiladi. Tushunchali umumlashtirishda predmetlar obyektiv muhim belgi asosida umumlashtiriladi. Hissiy-konkret umumlashtirishda esa predmetlar topshiriq talabiga binoan tashqi belgi bilan umumlashtiriladi. Psixologlar noto'g'ri umumlashtirishning hissiy-konkret umumlashtirishdan tafovuti borligini hamisha ta'kidlab kelmoqdalar. O'quvchi va talaba ba'zan predmetlarni muhim bo'lmagan belgisiga asoslanib noto'g'ri umumlashtiradilar, vaholanki, topshiriq shartida bu talab ular oldiga mutlaqo qo'yilmaydi. Lekin bu nazariyaning himoyachilari noto'g'ri umumlashtirishni alohida tur deb hisoblaydilar.

Umumlashtirish, abstraksiyalash operatsiyasidan ajralgan holda sodir bo'lmaydi, har qanday umumlashtirish asosida abstraksiyalash jarayoni yotadi. Umumlashtirish jarayoni abstraksiyasiz mavjud bo'lishi mumkin, lekin abstraksiyasiz umumlashtirishning yuzaga kelishi mumkin emas. Agar abstraksiyalash faoliyatida narsa va hodisalarning o'xshash hamda muhim belgilari tasodif belgilardan fikran ajratib olinsa, umumlashtirishda esa ajratib olingan o'xshash, umumiy va muhim belgilarga suyanan holda narsa va hodisalar birlashtiriladi.

Umumlashtirish jarayoni so'z ta'sirida vujudga kelgan ikkinchi signallar tizimiga asoslanadi. Akademik I.P.Pavlov fikricha, nutq signallari tufayli nerv faoliyatining yangi tamoyili abstraksiyalash va shu bilan birga oldingi tizimning behisob signallarini umumlashtirish vujudga keladiki, bunda ham o'z navbatida ana shu umumlashtirilgan yangi signallar tag'in analiz va sintez qilinaveradi. Fikr yuritishning umumlashtirish operatsiyasi har xil asoslarga ko'ra turlarga bo'lib o'rganiladi. Umumlashtirishni mazmuniga ko'ra, tushunchali umumlashtirish va yaqqol-ko'rgazmali yoki elementar umumlashtirish turiga ajratish qabul qilingan. *Tushunchali umumlashtirish* orqali obyektiv qonuniyatlarni muhim belgilari bo'yicha birlashtirish amalga oshiriladi. Bunda muhim belgilar umumlashtirilib, obyektiv qonuniyatlarni ochish mumkin bo'ladi. *Yaqqol-ko'rgazmali umumlashtirishda* narsa va hodisalar tashqi hamda yaqqol belgilar bo'yicha umumlashtiriladi.

Konkretlashtirish – hodisalarni ichki bog'lanish va munosabatlardan qat'iy nazar bir tomonlama ta'kidlashdan iborat fikr yuritish operatsiyasidir.

Umumiy mavhum belgi va xususiyatlarni yakka yolg'iz obyektlarga tadbiiq qilish bilan ifodalanadigan fikr yuritish operatsiyasi insonning barcha faoliyatlarida faol ishtirok etadi. Voqelik qanchalik yaqqol shaklda ifodalansa, inson uni shunchalik oson anglab yetadi. Insonlar dastavval tevarak-atrofnii aniiq belgilariga asoslanib, aniiq holda aks ettirganlar, yaqqol obrazlarga suyanib tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo'lganlar, shu boisdan to hozirgi kunga qadar aniiqlik belgisi har qanday inson zoti uchun eng yaqin belgi bo'lib hisoblanadi.

Psixologlar tadqiqotlarining ko'rsatishiga qaraganda konkretlashtirish odamda ikki xil vazifani bajaradi. *Birinchi*dan, umumiy abstrakt belgining yakka obyektga tadbiiq etish amalga oshiriladi. *Masalan*, biz "oq" deganimizda ko'z oldimizga qor, qog'oz, paxta va shu kabilar kelishi mumkin. *Ikkinchi*dan, konkretlashtirish umumiy va yakka belgilar kamroq bo'lgan umumiylikni ochishda ifodalanadi. *Masalan*, biz olma, olxo'ri, uzumni mevalar qatoriga stol-stul, divan va shu kabilarnii mebellar

qatoriga qo'shamiz. Umumiy fikrlarni bayon qilish va izohlash chog'ida odatda keltiriladigan misollarning hammasi konkretlashtirishning o'zidir.

Klassifikatsiyalash – bir turkum ichidagi narsalarning bir-biriga o'xshashligiga va boshqa turkumdagi narsalardan farq qilishiga qarab narsalarni turkumlarga ajratish tizimidir. **D.I.Mendelevni** "*Elementlarning davriy tizimi*" jadvali bunga yorqin misoldir. Bunda olim elementlarni atom og'irligi ortib borishiga, kimyoviy sifatning bir tipligiga va boshqa belgi va alomatlariga qarab tartib bilan joylashtirib chiqqan. O'rganish uchun qulaylik tug'dirish maqsadida, shuningdek, amaliy maqsadlarda ko'pchilik narsalarni guruhlarga, turkumlarga bo'lishga to'g'ri keladi. Ko'pchilik narsalarni hodisalarni guruhlarga bo'lish **klassifikatsiyalash yoki turkumlarga bo'lish** deb ataladi. *Masalan*, kutubxonada kitoblar muqovasiga, farmoyishning mazmuniga va shu kabi belgilariga qarab turkumlariga bo'lish mumkin. O'quvchilarning odatda yoshi yoki jinsiy belgilari bo'yicha va shu kabilarga qarab turkumlarga bo'ladi.

Sistemalashtirish – tizimga solish shundan iboratki, bunda ayrim narsalar, faktlar, hodisa va fikrlar muayyan tartibda makondagi, vaqtidagi tutgan o'rniga yoki mantiqiy tartibda joylashtiriladi. Shu sababli makon, xronologiya va mantiqiy belgilar asosida tizimga solish turlariga ajratiladi. Mebelning xonadagi joylashtirilishi, daraxtning boqqa o'tkazilishi, makoniy tizimga namuna bo'la oladi. O'tmishda bo'lib o'tgan voqealarning vaqtga qarab tizimga solishning namunasi bo'la oladi. Matematikaga, falsafaga, mantiqqa doir darsliklarda ilmiy materiallarning joylashtirilishi mantiqiy tizimga solishning namunasi.

Maktab ta'limida o'zlashtirilgan bilimlarni tizimga solish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu ish bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Bilimlar *dastlab* predmetlarning boblari, qismlari bo'yicha, so'ng yaxlit holda o'quvchi ongida tizimlashadi. Tizimlashtirishning *ikkinchi bosqichida* bir-biriga o'xshash predmetlarga oid bilimlar fikran tartibga solinadi. *Uchinchi bosqichida* bir necha predmetlar yuzasidan to'plangan bilimlar ma'lum tartibga tushadi, ularning o'xshash va farqli tomonlari ajratiladi. Tizimga solishning *to'rtinchi bosqichida* darsdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda egallangan bilimlarni tizimlashtirish nazarda tutiladi. Demak, insonning bilish faoliyatida mavzulararo, predmetlararo bilimlarni tizimlashtirish yuzaga keladi. Binobarin bilimlarning tizimga solinishi aqliy rivojlanishning dastlabki pog'onasi hisoblanadi.

Tafakkur shakllari

Psixologiyada nutq fikr yuritish faoliyatining vositasi deb yuritiladi. Odamda nutq tafakkur jarayonida *hukm, xulosa chiqarish va tushunchalar* shaklida ifodalanib keladi.

Hukmlar

Narsa va hodisalarning belgi va xususiyatlari haqida tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan fikr *hukm* deb ataladi.

Hukmlar obyektiv voqelikni aks ettirilishiga qarab chin yoki xato bo'ladi. Narsa va hodisalarda voqelikda haqiqatan o'zaro bog'liq bo'lgan belgilar, alomatlar

hukmlarda bog'liq ravishda ko'rsatib berilsa yoki voqelikda bir-biridan ajratilgan narsalar hukmlarda ajratib ko'rsatilsa bu *chin hukm* deb ataladi. *Masalan*, metallar elektr tokini o'tkazuvchidir; metallar qizdirilganda kengayadi, degan *chin hukmlardir*. Chunki elektr tokini o'tkazish qizdirilganda kengayishi metallarga xos xususiyatdir.

Moddiy olamda haqiqatdan bog'liq bo'lmagan narsa hukmda bog'liq qilib ko'rsatilsa, bunday hukm *xato hukm* deb ataladi. *Masalan*, hozir tashqarida yomg'ir yog'yapti; yer quyosh atrofida aylanmaydi, degan misollar xato hukmlar doirasiga kiradi.

Borliqdagi narsalar, hodisalar va voqelikni miqdoriga ularning biror hukmda aks ettirilgan aloqa va munosabatlariga qarab, *hukm quyidagi turlarga bo'linishi mumkin*:

- hukmlar sifatiga ko'ra*: tasdiqlovchi yoki inkor qiluvchi hukm;
- hukmlarning miqdoriga qarab*: yakka, juz'iy, xususiy va umumiy hukmga;
- hukmlarning munosabatiga ko'ra*: shartli, ayruvchi, va qat'iy hukmlarga;
- hukm taxminiy ko'rinishga* ega bo'lishi ham mumkin.

Bu hukmda aks ettiriladigan narsa va hodisalar belgisining nechog'lik muhim bo'lishiga yoki voqelikka mos kelish-kelmasligiga bog'liq. *Masalan*, ertaga yomg'ir yog'ishi mumkin. Paxta rejasi to'lib qolsa kerak.

Hukmlarda tasdiqlangan yoki inkor qilingan narsalar, hodisalar, alomatlar hukmning mazmunini tashkil qiladi. Narsa bilan belgining aloqasi bog'liqligi borligi aks ettirilgan hukm *tasdiqlovchi hukm* deb ataladi. *Masalan*, O'zbekistonda pilla yetishtirilmaydi. Toshkentda oliy maktablar qurilmagan. Voqelikda ajratilgan narsa inkor qiluvchi hukmda fikran ajratilishi mumkin. Yakka, yolg'iz narsa va hodisa to'g'risidagi hukm *yakka hukm* deb ataladi. *Masalan*, Toshkent – O'zbekiston Respublikasi poytaxtidir; Amudaryo sersuv daryolardan biridir.

Belgining biror turkumigagina taalluqliligini tasdiqlovchi yoki inkor qiluvchi hukm *juz'iy hukm* deb ataladi. *Masalan*, ba'zi metallar elektr tokini o'tkazmaydilar. Qarzdor talabalar sessiyaga qo'yilmaydi. Jamoaning ayrim jamoalari majburiyatga yarasha mehnat qilmaydilar. Bir turkumdagi narsa va hodisalarning hammasi to'g'risida tasdiqlab, yoki inkor qilib aytilgan hukm *umumiy hukm* deb ataladi. Hukmda narsa va hodisa belgisining borligini muayyan sharoitlarda tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan hukm *shartli hukm* deb ataladi. *Masalan*, agar talaba sessiyalarga qunt bilan puxta tayyorlansa, u yaxshi va a'lo baholar oladi. Agar o'quvchi darsga diqqat qilmasa, yangi materialni o'zlashtira olmaydi. Hukmda narsalar va hodisalar bir necha belgiga nisbatan berilib, shu belgilardan farqi bitta unga tegishli bo'lsa, bunday hukmga *ayruvchi hukm* deb ataladi. *Masalan*, jismlar yo qattiq, yoki suyuq, yoki gazsimon holda bo'ladi.

Narsa bilan belgi o'rtasidagi aloqaning bor yoki yo'qligi qat'iy shaklda aks ettirilsa *qat'iy hukm* deb ataladi. *Masalan*, bahorda barcha joylarda ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga oshiriladi. Yonish kimyoviy jarayondir.

Narsa va hodisalar bilan ularning xususiyatlari o'rtasida aloqa bo'lishi ehtimoli faqat faraz qilinsa, u holda inson o'z fikrlarini quyidagi shaklda ifoda qilishi mumkin. Ehtimol, Marsda organik hayot bordir. XXI asrning oxirlarida fan-texnika yanada rivojlanib, taraqqiy etishi mumkin va boshqalar. Bunday hukmlar *ehtimollik*

hukmlari deb ataladi. Narsalar bilan xususiyatlar o'rtasidagi aloqani taxminan emas, balki haqiqatdan aniq bilganimizda biz o'z fikrimizni mana bunday shaklda izhor qilamiz. Fakultet kutubxonasida ko'p yangi kitoblar mavjud. Maktabimizdagi kimyo xonasi juda yaxshi uskunalar bilan jihozlangan. Bunday hukmlar *voqelik (assertorlik) hukmlari* deb ataladi.

Hukmning shunday yuqori shakli borki, unda faqat haqiqatda bo'lgan voqea qayd qilinmasdan, balki narsa bilan xususiyatning aloqasi qonuniy ekanligi aniqlab beriladi. *Masalan*, butun dunyoda tinchlik g'alaba qozonishi muqarrar, sezgilarning intensivligi qo'zg'atuvchi kuchining logarifmiga proporsionaldir. Bunday hukmlar *zaruriy (apodiktik) hukmlar* deb ataladi. Bunday hukmlarda inson narsa, voqelik, hodisa bilan uning xususiyati o'rtasida mustahkam bog'lanish borligini va bu bog'lanishga zid keladigan boshqa bir holning bo'lishi aslo mumkin emasligini aks ettiradi. *Psixologiyada hukmlar ikkita asosiy yo'l bilan hosil qilinishi ta'kidlab o'tiladi. Birinchi yo'l* bilan hukm hosil qilinganda idrok qilish zarur bo'lgan narsalarning bevosita o'zi ifodalanadi. *Ikkinchi yo'l* bilan esa bevosita mulohaza yuritish yordami bilan hukm amalga oshiriladi. *Masalan*, bu avtomobilning yangi modeli. Mazkur misolda hukm chiqarishning birlamchi yo'li aks ettirilgan. Dastavval olimlar kashfiyot yoki ijodiy jarayonda nazariy jihatdan mulohaza yuritish yordamida hukm chiqaradilar. Ular chiqaradigan hukmning to'g'riligi amaliyotda keyinchalik tasdiqlanadi. Bu ikkinchi yo'l bilan hukm chiqarishga misoldir.

Xulosa chiqarish

Bir qancha hukmlarning mantiqiy bog'lanishi natijasida hosil bo'lgan yangi hukm insonning bilish faoliyatida alohida ahamiyatga ega. *Xulosa chiqarish* shunday tafakkur shaklidirki, bu shakl vositasi bilan biz ikki yoki undan ortiq hukmlardan yangi hukm hosil qilamiz. *Masalan*, har qanday harakat materiya harakatidir, issiqlik harakat shaklidir, degan ikkita hukmni olaylik. Bu ikki hukmdan, demak issiqlik materiya harakatidir degan yangi hukm chiqariladi. Bunda birinchi hukm hamisha umumiy hukm bo'lib, ikkinchi hukm *yakka hukm* bo'ladi.

Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, mulohaza yuritish ham xulosa chiqarish ham voqelikni bevosita bilishning asosiy shakli sifatida namoyon bo'lgan oldingi ikki hukmga asoslanib, uchinchi hukm chiqariladi. Mazkur xulosani bevosita tekshirib ko'rishga hech qanday ehtiyoj qolmaydi. Shu sababdan xulosa chiqarishda fikr o'rtasidagi shunday bog'lanish natijasida bir yoki undan ortiq hukmlardan uchinchi hukm keltirib chiqariladi.

Xulosa chiqarish uch turga bo'linadi: induktiv, deduktiv va analogiya.

Induktiv xulosa chiqarish – bu xulosa chiqarishning shunday mantiqiy usulidirki, bunda bir necha yakka va ayrim hukmlardan umumiy hukmga o'tiladi, yoki ayrim fakt va hodisalarni o'rganish asosida umumiy qonun va qoidalar yaratiladi. *Masalan*, temir elektr tokini o'tkazadi, po'lat elektr tokini o'tkazadi, mis elektr tokini o'tkazadi, ruh elektr tokini o'tkazadi. Demak, barcha metallar elektr tokini o'tkazadi, degan umumiy xulosa chiqaramiz.

Deduktiv xulosa chiqarishda umumiy va yakka hukmlardan yakka yoki juz'iy hukm keltirib chiqariladi. Misol uchun barcha metallar elektr tokini o'tkazadi. Temir metallardir. Demak, temir ham elektr tokini o'tkazadi.

Analogiya xulosa chiqarishning shunday shaklidirki, bunda biz ikki predmetning ba'zi bir belgilari o'xshashligiga qarab, bu predmetlarning boshqa belgilarining o'xshashligi to'g'risida xulosa chiqaramiz. *Analogiya* deb narsa va hodisalarning bir-biriga o'xshash bo'lgan ba'zi belgilariga qarabgina hukm yuritishdan iborat xulosa chiqarish shakliga aytiladi. Analogik usulda chiqarilgan xulosa chin, taxminiy hamda yolg'on bo'lishi mumkin. Fikr yuritishning bunday shakli ko'pincha yosh bolalarga xos xususiyatdir. Demak, juz'iy ikki yakka hukmlarga asoslanib, juz'iy yoki yakka hukm keltirib chiqaramiz. *Masalan*, bog'cha yoshidagi bola mana bunday mulohaza yuritadi; adamlar darvozadan ismimni aytib chaqirib keldilar. Ular sovg'a olib kelgan bo'lsalar kerak. Bu bolaning mulohazasini tahlil qilib ko'rsak, uning fikr yuritishi mana bunday tarzda taraqqiy etganligini shoxidi bo'lamiz. O'tgan galda adam ismini aytib chaqirib kelgan edilar, yana chaqirayotirlar. Albatta, adam menga sovg'a olib kelganlar, deb xulosa chiqaradi.

Shunday qilib, analogik yo'l bilan xulosa chiqarganda murakkab qonuniyatlarga to'g'risidagi bilimlar o'zlashtirilmasa-da, lekin turmushning turli jabhalarida undan foydalanib turiladi.

Tushunchalar

Tafakkur tushunchalar shaklida ifodalanadi. *Tushuncha* deganda biz narsa va hodisalarning eng muhim va eng asosiy xususiyatlarini aks ettirishni tushunamiz. Tushunchalar hukmlardan tarkib topadi. Shu sababli tushunchaning mazmunini ochib berish uchun bir qancha hukm yuritishga to'g'ri keladi. *Masalan*, odam ongli mavjudotdir degan tushunchani oladigan bo'lsak, bu yerda odamning eng muhim xususiyati uning ongliligi ekani qayd qilinyapti.

Tushunchalar odamning turmush tajribasi va bilimlarining ortishi jarayonida tarkib topa boradi. Ana shu jihatdan olganda maktabdagi o'qish jarayonida bolada asosan tabiat va jamiyat hodisalari haqida tushunchalar tarkib toptirishdan iboratdir. Demak, katta odamlarga nisbatan bolalarda hali tushunchalar juda oz bo'ladi.

Odatda tushunchalar mohiyati jihatidan *konkret va abstrakt tushunchalarga* ajratiladi. Alohida olingan bir butun narsaga aloqador tushuncha *konkret tushuncha* deb ataladi. *Masalan*, stol, divan, qayrag'och, traktor va hokazo. Moddiy borliqdagi narsalardan fikran ajratib olingan ba'zi xususiyat, sifat, holatlarga, shuningdek, narsalar o'rtasidagi ichki munosabatlarga, qonuniyatlarga qaratilgan tushunchalar *abstrakt tushuncha* deb ataladi. *Masalan*, oqlik, uzunlik, balandlik, kenglik, harakat, yorug'lik, qiymati haqidagi tushunchalar va hokazo. Tushunchalar ko'lami jihatidan 3 turga: *yakka tushunchalar, umumiy tushunchalar va to'planma tushunchalarga* bo'linadi. *Yakka tushunchalar* yakka narsa va hodisalar haqidagi tushunchadir. Bunday tushunchalarga sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Sirdaryo tushunchalarini misol qilib keltirsa bo'ladi. Yakka tushunchalarning xususiyati shuki, bu tushunchalarda hamisha aniq obraz mavjud bo'ladi. *Umumiy tushunchalarda* bir jinsda bo'lgan ko'p narsa va hodisalar gavdalanitiriladi. *Masalan*, kitob, maktab, yulduz, talaba va boshqalar.

To'planma tushunchalar bir jinsda bo'lgan narsa va hodisalar to'plami haqida yaxlit fikr yuritiladigan tushunchadir. *Masalan*, paxtazor, kutubxona, yig'ilish va hokazolar. To'planma tushunchalarning bir qanchasi birdaniga tatbiq qilinganda *umumiy to'planma tushunchalar* bo'ladi. *Masalan*, Alisher Navoiy nomidagi davlat Muzeyi tushunchasi, yakka to'planma tushunchaga oiddir. Guruhi, jamoa, xalq, millat va boshqalar, umumiy to'planma tushunchasiga misol bo'la oladi. Yetti og'ayni yulduzlar to'plami, Hamza teatri jamoasi, Paxtakor futbol jamoasi kabilar yakka to'planma tushunchalar jumlasiga kiradi. Fikr yuritishda tushuncha bilan so'z o'zaro bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. *Bir tomondan* so'z yordamisiz tushuncha vujudga kelmaydi, *ikkinchi tomondan* so'z tushunchaning moddiy asosi va funksiyasini bajaradi. Tushunchalar bir yoki undan ortiq so'zlardan tashkil topishi mumkin. *Masalan*, xalq degan tushuncha bir so'zdan, o'zbek xalqi ikki so'zdan qahramon o'zbek xalqi uch so'zdan, ozodlik uchun kurashayotgan xalqlar, degan tushuncha to'rt so'zdan tashkil topgan. Tushunchalar fikr yuritishning asosiy jarayonlari, ya'ni klassifikatsiyalash, umumlashtirish va abstraksiyalash yordami bilan vujudga keladi. So'zlar, belgilar, simvollar, atamalar tafakkur jarayonida tushunchalarning mazmunini aks ettiradi. *I.P.Pavlov* ta'biri bilan aytganda, so'z ikkinchi signal tizimining, barcha signallarning signallaridir, binobarin shu signallarning hammasini ifodalaydi, shu signallarning hammasini umumlashtiradi.

Shunday qilib, tushunchalar mohiyati hukmlarda yoritiladi, mavjud hukmlar asosida xulosa chiqariladi. Yangi hukm hosil qilinadi, topilgan yangi belgilar, alomatlar tushunchalarni yanada boyitadi. Tafakkur yordamida inson yaratish, kashf etish, ixtiro qilishda davom etishi mumkin. Demak, yangi tushunchalar, atamalar yuzaga kelaveradi, iste'moldagilari esa yangi mazmun kasb etadi. *Determinizm tamoyiliga* binoan so'zlar yangi tushunchalar yaratilishiga vosita bo'lib xizmat qilaveradi, shuning bilan birga tushunchalar zamirida yangi so'zlar va iboralar vujudga keladi, yoinki yangicha talqin qilish kuchayadi. So'z bilan tushunchalarning chambarchas bog'lanishi va munosabati filogenezda ham ontogenezda ham operatsional va funksional xususiyatlarni yo'qotmaydi.

Tafakkur turlari

Muayyan ijtimoiy muhitda turmush kechirayotgan odamlarning ehtiyojlari xatti-harakat motivlari narsalarga qiziqishlar, intilishlar, mayllar, aqliy qobiliyatlari, hatto faoliyatlari ham turli tumandir. Xuddi ana shu boisdan ularning tafakkuri ham har xil holatlarda vaziyatlarda turlicha tarzda vujudga keladi, namoyon bo'ladi.

Psixologiya fanida tafakkur turlari topshiriq xususiyatiga, fikr yoyiqligiga, fikrning originallik darajasiga qarab, quyidagicha shartli klassifikatsiya qilinadi.

Professor E.G'oziyevning "Umumiy psixologiya" darsligida tafakkur turlari quyidagicha klassifikatsiya qilinadi:

Tafakkur turlari	
Shakliga ko'ra	Ko'rgazmali-harakat, ko'rgazmali-obrazli,
Topshiriq xarakteriga ko'ra	Nazariy, amaliy, ixtiyorsiz, ixtiyoriy
Fikr yoyiqligiga ko'ra	Konkret, abstrakt, realistik, autistik intuitiv, diskursiv
Fikrning originallik darajasiga ko'ra	Reproduktiv, produktiv, ijodiy, vizual, fazoviy

V.Karimovanning "Psixologiya" o'quv qo'llanmasida tafakkur turlari quyidagicha klassifikatsiya qilinadi.

Tafakkur turlari	
Shakliga ko'ra	Ko'rgazmali-harakat, ko'rgazmali-obrazli, mantiqiy
Ko'riladigan masalaning xarakteriga ko'ra	Nazariy, amaliy
Ijodiylik elementiga ko'ra	Konvergent, divergent
Yangiligi va noyobligiga ko'ra	Reproduktiv, produktiv (ijodiy)

A.V.Petrovskiy muharrirligida chop etilgan, "*Umumiy psixologiya*" darsligida tafakkurni quyidagi turlari ajratib ko'rsatiladi: *ko'rgazmali-harakat, ko'rgazmali-obrazli, mavhum nazariy tafakkur turlari* va boshqalar.

Ko'rgazmali-harakat tafakkur turi. Tarixiy taraqqiyot davomida odamlar o'z oldilarida turgan maqsadlarni dastlab amaliy faoliyat nuqtai nazaridan yechganlar, keyinchlik, unda nazariy faoliyat ajralib chiqqan. Amaliy va nazariy faoliyat chambarchas bir-biri bog'langandir.

Ko'rgazmali-harakat tafakkur turiga psixologik adabiyotlarda quyidagicha ta'riflar uchraydi. Jumladan, V.Karimova tomonidan *ko'rgazmali-harakat tafakkuri* odamning real predmetlar bilan ish qilayotgan paytda fikrlash jarayonini nazarda tutadi. "Psixologik lug'atda" *ko'rgazmali harakatlil tafakkur* amaliy tafakkurning bevosita idrok qilayotgan narsa va hodisalar haqida harakatlar yordami bilan amalga oshiriladigan fikrlash turi, deb tavsiflanadi.

Sof psixologik faoliyat birlamchi emas, balki amaliy faoliyatning o'zi birlamchidir. Yana faoliyatning taraqqiyoti davomida unga nisbatan mustaqil nazariy fikr yuritish faoliyati ajralib chiqqan. Faqat butun insoniyatning tarixiy taraqqiyoti emas, balki shu bilan birga har bir bolaning psixik taraqqiyoti jarayoni ham dastavval sof nazariy faoliyat emas, balki amaliy faoliyatdir.

Agarda insoniyatning tarixiy taraqqiyoti muammosidan chetlanib, ushbu masalani olib qarasaq, u holda amaliy faoliyat birlamchi ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Buning uchun insonning ontogenetik taraqqiyotini dastlabki fazasiga murojaat qilamiz. Bola tug'ilishdan tortib, to uning bog'cha yoshigacha davrini amaliy faoliyatda ko'rgazmali-harakat tafakkuri o'sishining asosiy pallasi deb atash mumkin. Mazkur yoshdagi inson zoti ana shu amaliy faoliyat negizida aqliy harakatlarni amalga oshiradi, amaliy bilimlarni o'zlashtiradi, natijada ko'rgazmali-harakat tafakkuri o'sa boradi. Ushbu yoshdagi kichkintoylar o'zlari o'ynayotgan o'yinchoqlarni qo'llari bilan bevosita ushlab ko'rish orqali ular bilan tanishadilar, shuning bilan birga ularni idrok qilishga intiladilar. Idrok qilingan predmetlar va o'yinchoqlarni o'zaro solishtiradilar, qismlarga ajratadilar, analiz va sintez qiladilar, bo'laklarga ajratilganlarni yaxlit holga keltirib birlashtiradilar. Kattalar tushuntirishiga ishonch hosil qilmasdan, ayni chog'da ularni obyektini sindirib yoki buzib bo'lsa ham, ularning ichki tuzilishi bilan tanishish ishtiyoqi, mayli kuchli bo'ladi. Shu boisdan, amaliy xarakterdagi muammolarni hal qilishda ko'pincha

buzib, tuzatish yo'li bilan harakat qiladilar. Ko'rgazmali-harakat tafakkuri bog'cha yoshiga yetgandan so'ng bolalarda o'z qiymatini yo'qota boshlaydi.

Ko'rgazmali-obrazli tafakkur turi ham psixologik adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. "Psixologik lug'at"da ta'riflanishicha u konkret tafakkurning bevosita idrok qilinayotgan narsa va hodisalar haqida fikrlashdan iborat bo'lgan turi. Professor E.G'oziyev fikricha, bevosita idrok qilinayotgan predmetlar emas, balki faqat tasavvur qilinayotgan narsa va hodisalar haqida fikrlashdan iborat tafakkur turi *ko'rgazmali-obrazli tafakkur* deb ataladi. V.Karimova tomonidan ko'rgazmali-obrazli tafakkur esa ko'rgan kechirgan narsalar va hodisalarning aniq obrazlari ko'z oldimizda gavdalangan chog'da ularning mohiyatini umumlashtirilib bilvosita aks ettirishimizdir, deb talqin qilinadi. Tafakkurning mazkur ko'rinishi 4-7 yoshgacha bo'lgan bolalarda namoyon bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalarda ko'rgazmali-obrazli tafakkur bosqichiga o'tgandan so'ng ham saqlanib qoladi, lekin u o'zining yetakchi rolini yo'qota boshlaydi.

Ko'rgazmali-obrazli tafakkur sodda shaklda ko'pincha bog'cha yoshidagi bolalarda, ya'ni 4-7 yoshgacha bo'lgan bolalarda paydo bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarda tafakkurning amaliy harakatlar bilan aloqasi avvalgidek to'g'ri va bevosita bo'lmaydi. Bog'cha yoshidagi bolalar faqat ko'rgazmali obrazlar bilan fikr yuritadilar va uncha tushunchaga ega bo'lmaydilar. Bog'cha yoshidagi bolalarda tushunchalarning yo'qligi shveysariyalik psixolog J.Piajening quyidagi tajribasida juda yaqqol namoyon bo'ladi. 7 yoshga yaqin bolalarga xamirdan qilingan mutlaqo bir xil, hajmi jihatidan teng 2 ta soqqa ko'rsatiladi. Bolalar uni teng deb hisoblaydi. Bolalarning ko'z oldida bitta soqqa ezib non shakliga keltiriladi. Endi bolalar non shaklidagi soqqada xamir ko'p deb hisoblaydilar. Bolalarning ko'rgazmali-obrazli tafakkurlari hali ularning idroklariga bevosita to'la bo'ysunadigan bo'ladi. Ularning ko'rgazmali-obrazli shaklda o'tadigan tafakkurlari bolalarni soqqaga qaraganda non shaklidagi xamir ko'proq degan xulosaga olib keladi.

Shuning uchun ular narsa va hodisalarning, jism va predmetlarning ko'zga yaqqol tashlanib turuvchi alomatiga, xususiyatiga, tashqi belgisiga e'tibor qiladilar. Lekin ularning ichki bog'lanishlari o'zaro munosabatlarini bildirib keladigan muhim asosiy sifatlariga ahamiyat bermaydilar. Obyektlarni fazoda joylashgan o'mi tashqi, nomuhim belgisi ularning ko'rgazmali-obrazli tafakkurini vujudga keltiradi. *Masalan*, ularning nazarida odamlarni bo'yining baland va pastligi ularning yoshini belgilaydi.

Tafakkur faolligiga qarab *ixtiyorsiz (intuitiv)* va *ixtiyoriy (analitik)* tafakkur turlariga ajratiladi. *Intuitsiya* deb mantiqiy tafakkur yordamida ko'p vaqtlar davomida hal qilinmagan aqliy vazifalarning to'satdan, kutilmaganda hal qilinib qolishi jarayoniga aytiladi.

Ko'pincha ixtiyoriy tafakkur jarayoni mulohaza, muhokama, isbotlash, gipoteza kabi shakllarda namoyon bo'ladi. *Masalan*, matematika, fizika, kimyo, psixologiya va boshqa fanlardagi misol va muammolarni yechish jarayoni. Bundan tashqari ixtiyoriy tafakkurga *mantiqiy yoki nazorat (kontrol) tafakkuri* ham kiradi. Moddiy borliqni adekvat aks ettirish, fikr yuritish, tanqidiy va sinchkov bo'lishni taqazo etadi. Binobarin, narsa va hodisalarni atroflicha bilish uchun obyektiv baho berish zarurati

tug'iladi, bu esa o'z navbatida fikr yuritish ko'lami keng, analitik-sintetik faoliyat doirasi mustahkam bo'lishini talab qiladi.

Tafakkur jarayoni ixtiyorsiz yuz berishi ham mumkin. Lekin bu holda ular ixtiyoriy tafakkurga suyanan tarzda vujudga keladi. Jumladan, odamning amaliy, maishiy va hokazo faoliyatlarida ixtiyorsiz ravishda qator savollar paydo bo'lishi va ularga beixtiyoriy javoblar axtarish hollari uchrab turadi. Bunday paytlarda inson fikr yurityaptimi yoki yo'qmi buni bilish qiyin, vaholanki, u o'zicha go'yo savollarga javob topadiganday, shirin his-tuyg'ularni boshdan kechirayotganday bo'ladi, shuning uchun ko'pincha "tilimning uchida turibdi" deyiladi. Odamlar qandaydir matn yoki muammo, masala ustida bosh qotirib, o'tirganlarida fikr yuritish mutlaqo beixtiyor ro'y berib qoladi va ular asosiy topshiriqni bajarishdan uzoqlashtiradi.

Insoniyat tarixiy taraqqiyoti tarixidan shu narsalar ma'lumki, yirik ilmiy kashfiyotlar ko'pincha xuddi shunday beixtiyor fikr qilib turgan mahalda to'satdan ochilgan. Jumladan, yunon olimi **Arximed** solishtirma og'irlik qonunini zo'r berib, aqliy mehnat qilish paytida emas, balki hech kutilmagan jarayonda, vannada cho'milib turgan paytida kashf etgan. Ulug' rus olimi **D.I.Mendeleevning** hikoya qilishicha, u elementlar davri tizimi jadvalini tuzish vaqtida uch kecha-yu, uch kunduz beinim mehnat qilgan, ammo bu vazifani nihoyasiga yetkaza olmagan. Undan so'ng charchagan olim ish stoli ustida uyquga ketgan va tushida bu elementlar tartibli joylashtirilgan jadvalni ko'rgan. Shunda **D.I.Mendeleev** uyqudan, uyg'onib, bir parcha qog'ozga tushida ayon bo'lgan jadvalni ko'chirib qo'yg'an.

Ko'pincha psixolog va fiziologlarning ta'kidlashlaricha, muammoning bunday oson ravishda yechimini hech kutilmaganda yuqoridagi kabi beixtiyor hal qilinishi shu kashfiyotlar olam yuzini ko'rganicha bo'lgan davr ichida oylab, yillab qilingan mehnatning yakuni, ya'ni tugallanmay qolgan tafakkur jarayonlarining nihoyasiga yetishidir deb baholamoqda.

Yirik fiziolog hamda psixolog **V.M.Bexterevning** izohlashicha, bunday kutilmagan jarayonlarning ro'y berishiga asosiy sabab bu o'rganilayotgan masala to'g'risida uxlashdan oldin zo'r berib bosh qotirish, o'ylash (fikr yuritish) va butun zehni shuning bilan birga diqqat-e'tiborining tortilishi, kashf qilinishi zarur masalaga to'la-to'kis yo'nalishidan iborat maqsadga muvofiqlashtirilgan murakkab barqaror psixik holati hukm surishidir.

Fikr yuritilishi lozim bo'lgan narsa-hodisalarni idrok yoki tasavvur qilish mumkin bo'lsa, bunday tafakkur *konkret tafakkur* deb ataladi. U o'z navbatida yaqqol-predmetli va yaqqol-obrazli tafakkur turlariga ajratiladi. Agar fikr yuritish obykti bevosita idrok qilinsa, bunday tafakkur *yaqqol-predmetli tafakkur* deyiladi. Fikr yuritilayotgan narsa va hodisalar faqat tasavvur qilinsa, bunday tafakkur *yaqqol-obrazli tafakkur* deb ataladi.

Abstrakt tafakkur narsalarning mohiyatini aks ettiruvchi va so'zlarda ifodalovchi tushunchalarga tayanib fikr yuritishdir. Algebra, trigonometriya, fizika, chizma geometriya, oliy matematika masalalarini yechish mahalida fikr yuritish, mulohaza bildirish, abstrakt tafakkurga xos misollardir.

Abstrakt tafakkur konkret tafakkurdan g'oyat keng ma'no anglanishi bilan qator narsa va hodisalar to'g'risida, abstrakt tafakkur yordamida mulohaza borliq

to'g'risida cheksizlik, sifat, miqdor, tenglik to'g'risida, go'zallik yuzasidan mavhum abstrakt mulohaza yuritish mumkinligi bilan farq qiladi.

Hodisalarni izohlashga, faraz qilishga qaratilgan tafakkur *nazariy tafakkur* deb ataladi. Tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlarni yoritib borish va shu bog'lanishlarni nazariy jihatdan fikr yuritish yo'li bilan izohlash kabi jarayonlarni nazariy tafakkur yordamida amalga oshirish mumkin. Izohlash paytida izohlanayotgan narsa va hodisalar, xossa va xususiyatlar, jism va predmetlar, umuman butun voqelik ma'lum turkumdagi tushunchalar qatoriga kiritiladi va ularning farq qiladigan belgi va alomatlari fikran ajratib ko'rsatiladi. Bundan tashqari muayyan obyektning mohiyati, mazmuni mavjud bo'lishlik sabablari, kelib chiqishi, taraqqiyoti, o'zgarishi, shuningdek, ularning ahamiyati va funktsiya hamda vazifalari izohlab beriladi.

Nazariy tafakkurni ayni bir paytda *abstrakt tafakkur* deb nomlash an'ana tusiga kirib qolgan. Bunday nom bilan atashga asosiy sabab nazariy tafakkurning umumiy hukmlarda ifodalanishidir. *Masalan*, diqqat barcha psixik jarayon va holatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish garovidir.

Abstrakt tafakkur muammosi qator sobiq sovet psixologlari tomonidan izchillik bilan tadqiq etilgan. Sobiq sovet psixologiyasining dastlabki rivojlanishi pallasida ushbu masala bilan L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiylar, keyinchalik S.L.Rubinshteyn, B.G.Ananayev, A.N.Leontev, N.A.Menchinskaya, P.Ya.Galperin, R.G.Natadze, D.B.El'konin, V.V.Davidov, A.M.Matyushkin va boshqalar shug'ullanganlar.

Nazariy tafakkur tufayli voqelikdagi umumiy va muhim bog'lanishlarni, xossalarni, qonuniyatlarni anglab olamiz. Shuning uchun Quyosh va oy tutilishini, yulduzlar tizimini harakatini, ob-havo ma'lumotlarini, yer qimirlash o'choqlarini, voqea sodir bo'lishini ancha ilgari aytib berishimiz mumkin. Shu sababdan nazariy tafakkurni oldindan ko'rish imkoniyatini yaratadigan *umumlashgan tafakkur* deb ataydilar.

Shunday qilib, abstrakt tafakkur orqali narsa va hodisalarni bevosita idrok qilish mumkin bo'lmagan xususiyatlari, o'zaro munosabatlari aniqlanadi, u yoki bu sohaga oid qonuniyatlar ochiladi, sabab-oqibat bog'lanishlari aks ettiriladi.

Voqelikni o'zlashtirish vositasi bilan real narsa va hodisalarni yaratilishiga yo'naltirilgan fikr yuritiladi. U qo'yilgan amaliy va nazariy vazifalarni yangi usullar bilan hal qilish, ongimizda yangi tasavvur, tushuncha va hukmlar hosil qilish, muayyan yangi narsalar yaratish bilan bog'liq murakkab tafakkur jarayonidir. Amaliy tafakkur jarayonining davomi ish-harakatlarini, aqliy harakatlarni tasavvur qilishda, fikrlashda namoyon bo'ladi. *Masalan*, talabalar faoliyatidagi konsept yozish, referat tayyorlash, kurs va diplom ishi ustida ishlash kabilar amaliy tafakkurga yaqqol misoldir.

Muayyan fikmi chin yoki yolg'onligini obyektiv dalillar bilan isbotlash o'rniga, inson shaxsining ijobiy yoki salbiy sifatleri bilangina cheklanib qolishdan iborat tafakkur turi *avtoritar tafakkur* turi deb ataladi. U ko'pincha odamlarning muayyan soha bo'yicha bilim saviyasining, darajasining cheklanganligidan va mustaqil fikr yuritish qobiliyatining yetarli darajada o'smaganligidan dalolat beradi. Shuningdek, psixologiyada bir-birlari bilan uzviy ravishda bog'langan mulohaza yuritishdan iborat tafakkur jarayonini *diskursiv tafakkur* deb ataladi.

Ijodiy tafakkur – murakkab bilish faoliyatidan biri bo‘lib, tadrijiy ravishda izchil o‘zaro bog‘langan jarayonlardan tashkil topadi, dastavval savollar tug‘iladi, vazifa aniqlanadi, masalani yechish va savollarga javob qidirish jarayoni vujudga keladi. Inson oldida turgan aniq vazifa yoki masala bu bajarilishi yoki hal qilinishi zarur bo‘lgan vazifa ko‘pincha ifodalanishi shart bo‘lgan maqsadni ham aks ettirib keladi. Maqsad esa insonning izlanayotgan noma‘lum voqelikni topishga gumon va hayajon, shubha hislaridan xalos etishga qaratilgan maylidir.

Ijodiy tafakkurning navbatdagi tarkibiy qismlari quyidagicha aks ettiriladi: qo‘yiladigan savollarga javob berish, masalani yechishga yordam beradigan yo‘llar, usullar, vositalar, qoidalar va ko‘nikmalarni qidirish, ularni tanlash hamda mazkur faoliyatda ularni tadbiiq qilish va boshqalar.

Ijodiy fikrlashni ta‘minlovchi omillar:

-fikir yuritish faoliyatida eng avval hal qilinishi zarur bo‘lgan masala inson tomonidan aniqlab olinishi kerak;

-muammo yoki masalani hal qilish zarur bo‘lgan barcha bilimlarni tadbiiq qilish uchun intilish;

-masalaga, muammoga taalluqli gipoteza olg‘a suriladi, bosqichlar taxmin qilinadi, yechim to‘g‘risida farazlar ishlab chiqiladi, turli variantlar hamda variatsiyalar haqidagi mulohaza yuritiladi, o‘zaro xayolan solishtirib, eng samarali alomatlar ajratiladi va hokazo;

-muammo oldiga qo‘yilgan farazni tekshirish zarurati tug‘iladi;

-muammoni nazariy jihatdan hal qilish uchun ilgari surilgan gipoteza adekvat emasligi, noto‘g‘ri ekanligi aniqlansa, u fikr yuritish obyektidan siqib chiqariladi va yangi farazlar, o‘ylar taxmin qilinadi yoki o‘ylab topiladi;

-muammo va masalani hal qilish, yechish, olingan natijalarni to‘g‘riligiga qanoat hosil qilish uchun yechuvchi, uni tekshirish bilan tafakkur harakatlarini yakunlaydi.

Psixolog V.A.Kruteskiy ijodiy tafakkurni taraqqiy ettirish maqsadida masalalar tipologiyasini ishlab chiqib, turli yoshdagi o‘quvchilar o‘quv faoliyatida sinab ko‘rgan. **Tipologiyaga kiritilgan masalalarni V.A.Kruteskiy turlicha nom bilan ataydi:**

-savol aniq qilib qo‘yilmagan masalalar;

-berilganlari yetishmaydigan masalalar;

-ortiqcha ma‘lumotlari bo‘lgan masalalar;

-bir necha yo‘l bilan yechiladigan masalalar;

-mazmuni o‘zgarib turadigan masalalar;

-isbotlashga doir masalalar;

-fikrlash, mantiqiy mulohaza yuritishga doir masalalar.

Ijodiy tafakkur turi o‘zining samaradorligi va dolzarbligi, universalligi bilan boshqa fikr yuritish jarayonlaridan farq qiladi, yangi-yangi muammolarni o‘ylab chiqish jarayoni bo‘lib, insonning bilish faoliyatida yetakchi rol o‘ynaydi.

Psixologiya fanida tafakkurni realistik va autistik turlarga ajratiladi. **Realistik tafakkur** qurshab olgan atrof-muhitni o‘rganishga, aks ettirishga qaratilgan fikr yuritish bo‘lib, u mantiqiy qonun va qoidalar yordami bilan voqelikni in‘ikos qiladi. **Autistik tafakkur** insonning hohish va istaklarini amalga oshirish bilan bog‘liq

ravishda sodir bo'ladi. Amalga oshirilishi lozim bo'lgan tafakkur harakatlari o'sha shaxsning o'z tilaklarini ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan fikr yuritilishdan iborat *individuallik yoki individualistik tafakkurdir*.

Masala yechimini qabul qilishga va informatsion tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan fikr yuritish *vizual tafakkur* deyiladi. Vizual tafakkur maqsadga muvofiq harakatlar yoki anglanilmagan operatsiyalar, chunonchi obrazlar manipulyatsiyasi va transformatsiyasi yordami bilan amalga oshiriladi va "aqliy anglanish"dan namoyon bo'ladi.

Yirik sobiq sovet psixologlaridan biri **Z.I.Kalmikova** o'z tadqiqotlarida *tafakkurni produktiv va reproduktiv turlarga* ajratib o'rgangan edi. Qisqa vaqt birligi ichida yangi original fikrlar yaratish yoki muhim ilmiy, amaliy masalalarni hal qilish bilan belgilanadigan tafakkur *produktiv tafakkur* deb ataladi. *Reproduktiv tafakkur* esa passiv, tayyor mulohazalarni o'zlashtirib olishga va "tayyor holda" undan foydalanishga qaratilgan insonning bilish faoliyati ko'rinishidir.

Fazoviy tafakkur muammosi atoqli rus psixologi **B.G.Ananov** va uning shogirdlari tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, keyingi yillarda bu muammo yuzasidan taniqli psixolog **I.S.Yakimanskaya** tomonidan kasb-hunar kolleji o'quvchilarida tadqiqot ishlari olib borilmoqda. *Fazoviy tafakkur* deganda narsa va hodisalarning fazoda ratsional joylashishi, zamon va makon munosabatlarini, murakkab bog'lanishlarini adekvat ravishda aks ettirishdan iborat fikr yuritish jarayoni tushuniladi, tasavvurlar, xotira va xayol tasavvurlari bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Tafakkur sifatlari

Tafakkur boshqa bilish jarayonlari kabi o'zining individual xususiyatlariga ega bo'lib, fikr yuritish faoliyatining shakllari, vositalari va operatsiyalarining munosabatlari kishilarda turlicha namoyon bo'lishida o'z ifodasini topadi. Odatda tafakkurning individual xususiyatlari, sifatlari bilish faoliyatining mazmundorligi, mustaqillik, epchillik, samaradorlik, fikrning kengligi, tezligi, chuqurligi va boshqa sifatlari kiritiladi.

Tafakkur mazmundorligi deganda insonning tevarak-atrofdagi moddiy voqelik to'g'risida ongda qay miqdorda, ko'lamda mulohazalar, muhokamalar, fikrlar, muammolar, tushunchalar joy olganligi nazarda tutiladi. Insonda sanab o'tilgan xarakterdagi g'oyalar to'lib tohsa, shunchalik tafakkur mazmundor bo'ladi. Kishilar bir-birlaridan birinchi navbatda tafakkurning mazmundorligi bilan tafovutlanadi.

Tafakkurning chuqurligi deganimizda moddiy dunyodagi narsa-hodisalarning asosiy qonunlari, qonuniyatlari, xossalari, sifatlari ularning o'zaro bog'lanishlari, munosabatlari, tafakkurimizda to'liq aks etganligini tushunishimiz kerak. Tafakkur arsenalida joylashgan narsalarning qay yo'sinda sistemalashganligiga qarab to'g'ri va ratsional yo'l nazarda tutiladi, u yoki bu shaxsning tafakkur chuqurligi to'g'risida qat'iy bir qarorga kelish mumkin.

Tafakkurning kengligi o'zining mazmundorligi, chuqurligi kabi sifatlari bilan muntazam aloqada bo'ladi. Insonlardagi narsa va hodisalarning eng muhim belgi, xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan o'tmish yuzasidan, hozirgi davr haqida, shuningdek, kelajak to'g'risida mulohazalar, muammolar va tushunchalarni qamrab

olgan tafakkur *keng tafakkur* deyiladi. Fikr doirasi keng bilim saviyasi yuqori serg'oya ijodiy izlanishdagi kishilarni aql zakovatli, bilimdon yoki tafakkuri keng kishilar deb atash mumkin. Demak, insonning aql-zakovati, bilimdonligi mulohazadorligi uning tafakkurining kengligidan dalolat beradi.

Inson tafakkuri o'zining mustaqilligi jihatidan mustaqil va nomustaqil tafakkurga ajratiladi. *Tafakkurni mustaqilligi* deganda kishining shaxsiy tashabbusi bilan o'z oldiga aniq maqsad, yangi vazifalar qo'ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va ilmiy xarakterdagi faraz, gipoteza qilish, natijani ko'z oldiga keltira olishi, qo'yilgan vazifani hech kimning ko'magisiz, ko'rsatmasiz o'zining aqliy izlanishi tufayli turli yo'l, usul va vositalar topib, mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatni tushunish kerak.

Tafakkurning mustaqilligi aqlning sertashabbusligi, pishiqligi va tanqidiyligida namoyon bo'ladi. *Aqlning sertashabbusligi* deganda insonning o'z oldiga yangi muammo, aniq maqsad va konkret vazifalar qo'yishni, ana shularning barchasini amalga oshirishda, nihoyasiga yetkazishda yechimni qidirishda usul va vositalarni shaxsan o'zini izlashi, aqliy zo'r berib intilishi, ularga taaalluqli qo'shimcha belgi va alomatlarni kiritishdan iborat bosqichlarning namoyon bo'lishini nazarda tutamiz. *Aqlning pishiqligi* vazifalarni tez yechishda, yechish paytida yangi usul va vositalarni o'z o'mida aniq qo'llashda, trafaretga aylangan eski yo'l hamda usullardan forig' bo'lishda va boshqa jarayonlarda ifodalanadi.

O'zining o'zgalarning mulohazalarini, bu mulohazalarning chin yoki chin emasligini tekshira bilishda va namoyon bo'lgan mulohazalarga, muhokamalarga, muammoli vaziyatga baho bera bilishda aqlning tanqidiyligi muhim rol o'ynaydi. Tafakkurning tanqidiyligi obyektiv va subyektiv ravishda ifodalanishi mumkin. Mazkur sifat insonni baholash, o'zini o'zi baholash kabi tafakkurning individual xususiyatlari bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Agar tanqidiylik oqilona, muhim belgilarga, muammo mohiyatining to'g'ri ochilishiga, ba'zan etalonga asoslanib amalga oshsa, unday tanqidiylik *obyektiv tanqidiylik* deb ataladi. Mabodo tafakkurning tanqidiyligi subyektiv xatolarga, umuman subyektivizmga og'ib ketsa, bunday holda *subyektiv tanqidiylik* deyiladi. *Subyektiv tanqidiylik* salbiy oqibatlarga olib keladi, shuningdek insonlar o'rtasida anglashilmovchilik g'ovini vujudga keltiradi, ikki shaxs o'rtasida kutilmaganda ziddiyat paydo bo'ladi. Insonda tafakkurning tanqidiyligi oqilona ratsional tarzda vujudga kelsa, unda shaxs muhim sifat bilan boyiydi deb atash mumkin.

Maqsad, muammo va vazifalar o'zga shaxslar tomonidan qo'yilib, tayyor usul va vositalarga tayangan holda o'zga kishilarning bevosita yordami bilan amalga oshirilishi jarayonida bir oz ishtirok etgan *tafakkur nomustaqil* deb ataladi. *Nomustaqil tafakkurli* kishilar tayyor mahsulotlar quliga aylanadilar, o'sishdan orqada qolish xavfi tug'iladi. Natijada aql-zakovatli inson bo'lish o'rniga, kaltabin, aqldan erinchoq, behafsala odam bo'lib voyaga yetadi. Demak, tafakkurning nomustaqillik illati rivojlanishiga to'siq bo'lib, yakka shaxs uchun esa tragediya rolini bajarishi ehtimoldan xoli emas.

Fikrning mustaqilligi uning mahsuldorligi bilan uzviy bog'langan. Agar inson tomonidan muayyan vaqt ichida ma'lum soha uchun qimmatli va yangi fikrlar, g'oyalar, tavsifnomalar yaratilgan hamda nazariy va amaliy vazifalar hal qilingan

bo'lsa, bunday kishining tafakkuri *sermahsul tafakkur* deb ataladi. Demak, vaqt oraliq'ida bajarilgan ish ko'lamini va sifatiga oqilona baho berish tafakkur mahsuldorligini o'lchash mezoni sifatida xizmat qiladi.

Tafakkur ixchamligi deganda muammoni hal qilishning dastlab tuzilgan rejasi mazkur jarayonda masala yechish shartini qanoatlanitirmay qolsa, nomutanosiblik hosil bo'lsa hech ikkilanmay elastik ravishda o'zgartirishlar kiritishdan iborat fikr yuritish faoliyatini tasavvur qilmog'imiz shart. Fikrning operativ jihatdan tezkorlik bilan o'zgartirishdan va to'g'ri yo'nalishga yo'llab yuborishdan iborat tafakkur sifati uning *ixchamligi* deyiladi. *Masalan*, talaba imtihonda avval g'oyani noto'g'ri yoritayotib, o'z-o'zicha birdaniga xatosini anglab to'g'ri javob bera boshlashi kabilar. Demak, tafakkurning mazkur sifati fikrlarni, axborotlarni tinglovchilarga xato va kamchiliklarsiz yetkazib berish garovidir.

Tafakkurning tezligi qo'yilgan savolga va muammoga to'liq javob olingan vaqt bilan belgilanadi. Uning tezligi qator omillarga, jumladan fikrlar uchun zarur materialni tez yodga tushira olishga, muvaqqat bog'lanishlarning tezligi, turli hislarning mavjudligiga, insonning diqqatiga, qiziqishiga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari tafakkurning tezligi boshqa shartlarga – insonning bilim saviyasiga, fikrlash qobiliyatiga, mavjud ko'nikma va malakalariga ham bog'liq ekanligi isbotlangan. Xulosa qilib aytganda, tafakkur jarayonlarining tezligi va jarayonlarning ma'lum fursat ichida qanchalik samara berganligi bilan baholanadi.

Fikrlarning tezligi talabalar va o'quvchilarga zarur psixologik qurol bo'lib xizmat qiladi. Imtihon paytida, seminar mashg'ulotlarida faol ishtirok qilgan talaba hayajonlanib, egallagan bilimlarini vaqtincha unutib o'zini yo'qotib qo'yadi. O'rinsez salbiy emotsiyalar uning tafakkurini tormozlab, muvaffaqiyatsizlikka olib keladi, ya'ni fikrni bayon qilishda inertlik paydo bo'lib, keyinchalik, butunlay tormozlanishga aylanadi. Ba'zi talabalar aksincha, imtihonda hayajonlanib fikrlari ravshanlashadi. Qattiq hayajonlanish, qattiq tashqi ta'sir natijasida uyqudagi ayrim neyronlar uyg'onib, funksiyasi jadallashib ketadi va fikr birdaniga ravshanlashishi mumkin. Shuning uchun o'qitish jarayonida talaba va o'quvchilarning aqliy faoliyatini to'g'ri baholashda ularning individual tipologik xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Jahon psixologlarining ko'rsatishiga qaraganda, yuqorida tahlil qilib chiqilgan tafakkur sifatlari ularning asosiy xususiyati bilan uzviy bog'liqdir. Tafakkurning asosiy va eng muhim belgisi, xususiyati bu moddiy voqealikdagi muhim jihatlarni ajratib mustaqil ravishda yangi mazmundagi umumlashmalarni keltirib chiqarishdir. Inson oddiy narsalar to'g'risida fikr yuritganda ham ularning tashqi belgilari bilan chegaralanib qolmaydi, balki hodisa mohiyatini ochishga intiladi, oddiy turmush haqidagi umumiy qonuniyatni yaratishga harakat qiladi. Shubhasiz, inson tafakkuri hali izlanmagan, to'la foydalanilmagan zahira va imkoniyatlarga ega. Tafakkur psixologiyasining asosiy vazifasi ana shu zahirani to'la ochish fan-texnika rivojini intensivlashdan iborat. Chunki har qanday kashfiyot, yangilik, rivojlanish inson aql-zakovatining mahsulidir. Shu boisdan ham fan va texnikaning rivojlanishi insonshunoslik fanining rivojiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Tafakkur borasidagi psixologik nazariyalar

Tafakkur muammosi xorij psixologiyasida keng doirada tadqiq qilinib, atroflicha bilimlar va ma'lumotlar zahirasi to'plangan. Aynan keltirilgan ma'lumotlarda tafakkur tushunchasi turli nuqtai nazarlardan tahlil qilinadi.

Ekzistensializmning asoschisi bo'lmish nemis faylasufi **Martin Xaydeger** (1889-1978) tushunish uchun o'z diqqatimizni qarata olsakgina biz fikrlashga o'rganamiz-deb yozadi. Uning fikricha, narsa va voqealarning mohiyatini tushunish, anglab yetish, inson fikrlash jarayonida muhim o'rin egallaydi. Tushunishni talab qiladigan narsa insonni fikrlashga undaydi. Tushunishni talab qiladigan narsa hech qachon biz tomonimizdan yaratilmaydi.

Xaydegerning fikricha, tafakkur mavjudligining asosiy xislati bu tasavvurdir. Tafakkur haqidagi ta'limotga asosan tasavvur fikrda ifoda etiladi. Shuning uchun ham tafakkur haqidagi ta'limotni logika, mantiq deb ataydi.

K.R.Megrelidzening ta'kidlashicha, insondagi biror bir ruhiy hodisa ijtimoiy omilni hisobga olmasdan turib, to'g'ri tushuntirilishi mumkin emas. Bu narsa birinchi navbatda tafakkurga taalluqlidir. Tafakkurning ijtimoiy hayotning boshqa ko'rinishlarisiz o'rganish mumkin emas.

Inson tafakkurining usullari nerv tizimida ham, miyasida ham emas, balki bir davrda mana shunday idrok etishga, o'ylashga, ishlashga, boshqa bir davrda esa nerv faoliyatini boshqacha ishlashga yo'llaydigan ijtimoiy sharoitdadir.

Insonlar fikrlari va qarashlari individual tartibda emas, ijtimoiy munosabatlar tufayli sodir bo'ladi. Bu haqda **K.R.Megrelidze** shunday yozadi: inson tafakkuri tabiiy va biologik qonunlar bo'yicha emas, balki ijtimoiy – tarixiy qonuniyatlar yo'lida harakatlanadi. Insonning fikrlash usuli avvalo ijtimoiy hodisadir. Fikr hech qachon o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, fikr biror narsa haqida, biror predmet haqida bo'lishi mumkin. Predmetsiz fikrning bo'lishi mumkin emas. Tafakkurning funksiyasi miya faoliyati jarayonida kechadigan subyektiv psixologik jarayonlar bilangina chegaralanmaydi:

Birinchiidan, ongning subyektiv holatinigina ifodalamasdan, balki obyektga ham tegishli bo'ladi va narsalar munosabatini ifodalaydi.

Ikkinchiidan, yangi fikrning vujudga kelishi bilan bilish jarayoni tugallanmaydi, balki faqatgina boshlanadi. Bu bilishning boshlang'ich bosqichi bo'lib, g'oyaning subyektiv holatidir, endi fikrni amalga oshirish bosqichi boshlanadi.

Uchinchiidan, alohida individning fikri ijtimoiy yetilgan fikrlarning xususiy ko'rinishidir.

Har bir alohida shaxs ijtimoiy tushunchalar, tasavvurlar yordamida fikrlaydi. **K.R.Megrelidze** inson fikrining ijtimoiy ekanligini qayta-qayta ta'kidlaydi. Fikrlar va g'oyalar erkin individual ijodning mahsuli emas, balki individning o'zi kabi jamiyat va ijtimoiy munosabatlar mahsulidir. Shuning uchun inson tafakkuri tafakkur bosqichlari, inson tafakkurining shakllari va usullari haqidagi jumboqning yechimini mantiqiy izlanishlardan an'anaviy psixologiyadan emas, balki avvalo bu g'oyalarning ijtimoiy kelib chiqishidan izlash kerak. U yoki bu individ jamiyatda yetilgan ijtimoiy g'oyalarning tasodifiy ifodalovchisi bo'lib qoladi.

Akademik **A.I.Berg** shunday deb yozadi "Inson faqat tashqi dunyo bilan to'xtovsiz muloqot qilishi sharoitidagina uzoq vaqt fikrlashi mumkin. Tashqi dunyodan to'liq informatsion ajralish bu aqldan ozishning boshlanishidir. Informatsion undovchi tafakkurning tashqi dunyo bilan aloqasi insonga oziq-ovqatdek, issiqlikdek zarur". Psixologiya fani taraqqiyotida nemis psixologiya maktabi muhim o'rinlardan birini egallaydi va asrimizning boshlarida Germaniyada Vyursburg psixologiya maktabi deb nomlangan yangi yo'nalishga ega bo'lgan psixologik oqim paydo bo'ldi. Mazkur yo'nalishning yirik vakillari sifatida **O.Kyulpe** (1862-1915), **K.Byuller** (1879-1922), **A.Messer** (1837-1937), **Ax Narsis** (1871-1946) va boshqalarni sanab o'tish lozim. Ular tomonidan olib borilgan eksperimental tadqiqotlar tafakkur muammosining rivojiga ma'lum darajada hissa qo'sha oldi. Vyursburg psixologiya maktabi vakillari tafakkurni hissiy bosqichda turgan psixik jarayonlarga, ya'ni sezgi va tasavvurlarga ajratib o'rganishda ratsional bosqichdagi murakkab jihatlardan mexanik ravishda vujudga keladi, deb tushuntirish mumkin emasligini eksperimental yo'l bilan isbotlashga harakat qildilar. Olib borilgan tadqiqotlarni o'zlarining ustilarida o'tkazib, natijalami obyektiv bo'lishiga kamroq e'tibor berganlar.

Vyursburg psixologiya maktabining namoyandalari tafakkur bu ichki harakat, aktidir deb qaray boshlaydilar. O'zini o'zi kuzatish metodidan foydalanib, ish tutishda ular mana bunday ifodaning ma'nosini tushuntirib berishlari lozim, tafakkur haddan tashqari mashaqqatliki, shunga qaramay ko'pchilik shunchaki hukm chiqarishni ma'qul ko'radilar. Shuningdek, ular oldida munosabatlarni o'rnatish qism, yaxlit, tur, jins obyektning nisbati va o'zaro munosabatlarini ushbu munosabatlarning aniq a'zolarini idrok qilishni aniqlash vazifalari turadi. Shuning bilan birga ularning barcha tadqiqotlari obyektiv metodlarni izlashga oid faoliyatlarida avj oldi. Jumladan, **N.Ax** tomonidan sun'iy tushunchalarning shakllanishi bo'yicha dastlabki metodika yaratildi. Mazkur nazariya vakillari tafakkurni munosabatlarning aks etishi bilan bog'lab, tafakkurni munosabatlarning birlamchi qarab chiqish, yoinki birlamchi ma'lumot berish manbai sifatida talqin qiladilar. Tafakkur taraqqiyoti masalasini ko'tarib chiqib, o'sishning fikrlarni faollashtirish orqali amaliy faoliyatdan tafakkurni mutlaqo ajratib qo'ydilar. Tafakkurni tadqiq qilishning asosiy metodi – bu *o'zini o'zi kuzatish* ekanligini tan oladi, xolos. Mazkur muammo gnoseologik nuqtai-nazardan olib qaralganda ushbu pozitsiya idealizm izmiga kirib borayotganligini anglab olish unchalik qiyin emas. Vyursburg maktabi namoyandalari tafakkurni alohida mustaqil bilish faoliyati sifatida aniq ko'rsata bildi. Biroq, tafakkurni amaliyotda nutqdan va hissiy obrazlardan qat'iy ajratib tashladilar.

Vyursburg psixologiya maktabi namoyandalaridan biri **O.Zels** tafakkurni intellektual operatsiyalar harakati sifatida qabul qilgan. U o'z oldiga fikr yuritish faoliyatining u yoki bu jihatlari qay yo'sinda shakllanishini kuzatish, intellektual faoliyat bosqichlarini ko'rsatish aqliy faoliyatning produktiv va reproduktiv ko'rinishidagi ziddiyatlarni bartaraf qilish vazifasini qo'ydi. **O.Zels** masala yechish jarayonini o'rganishda umumiylikka ega bo'lgan masalani vujudga keltirish bosqichlariga alohida e'tibor berib, elementlar bilan predmetlar munosabatini ajratib ko'rsatadi. Buning natijasida muammo kompleksi namoyon bo'ladi. *Kompleks o'z*

ichiga ushbu jihatlarni qamrab olishi nazarda tutilgan: a) ma'lumning tavsifnomasini bo'laklarga ajratish; b) qidiriluvchi noma'lumning o'rnini aniqlash; v) noma'lum qidiriluvchi bilan ma'lum o'rtasidagi munosabatlarni ajratib ko'rsatish.

Shunday qilib, Vyursburg psixologiya maktabining namoyandasi **O.Zels** psixologiya tarixida birinchi bo'lib tafakkurni jarayon sifatida eksperimental metodlar bilan tadqiq qilgan, intellektual operatsiyalar va ularning tarkibiy qismlarini nazariy va amaliy jihatdan ta'riflab bergan, izchil ilmiy metodlarga asoslanib, o'rganishga butun vujudi bilan intilgan psixologdir. Germaniyada psixologiyaning geshtaltpsixologiya yo'nalishi vujudga keldi. Uning, ko'zga ko'ringan namoyandalari qatoriga **X.Erenfels** (1859-1932), **V.Keler** (1887-1967), **K.Kofka** (1886-1941) va boshqalar kiradi. Geshtaltchilar fikriga qaraganda, har bir psixik hodisaning mazmuni uning tarkibiga kiruvchi qism va elementlarni birgalikda aks ettirishdan ko'lam jihatidan keng, mazmun jihatidan rang-barangdir. Geshtaltchilarning aksiomatik xarakterga ega bo'lgan ushbu tezislari mazkur ta'limot g'oyasini ochib berishga xizmat qiladi, alohida olingan qism va elementlarning yig'indisi yaxlit tuzilish mazmunini belgilab bera olmaydi, aksincha yaxlit tuzilma qism va elementlarning xususiyatlari va xossalari belgilab berishga qurbi yetadi.

Geshtaltpsixologiyaning markaziy nazariyasi har qanday psixologik jarayonlarning bosh mohiyati ularning sezgilarga o'xshash alohida elementlari emas, balki konfiguratsiya shakli yoki geshtaltchilarning yaxlit yaratishidan iborat.

Geshtaltpsixologiyada tafakkur muammosining tadqiqoti keng qamrovli tarzda olib boriladi. Jumladan, **V.Kelyor** antropoidlarning intellektual harakatlarini eksperimental o'rganish natijasida yuqori darajada taraqqiy qilgan maymunlarning aqliy harakatida inson harakatiga xos o'xshashlik borligi to'g'risida xulosa chiqaradi.

V.Kelyorning fikricha, topshiriqni yechish mexanizmi quyidagilardan iborat: organizmning optik maydonidagi vaziyatlarning muhim elementlari bir butunlikni, ya'ni vaziyat elementlariga, geshtalt ichiga kirib, geshtaltda qaysi joyni egallashga bog'liq ravishda yangi ahamiyat kasb etadi. Vaziyatning muhim elementlaridan namoyon bo'luvchi geshtaltchilar muammosi vaziyatda organizmda ba'zi bir zo'riqishlar ta'sirida vujudga keladi, topshiriqni yechish muammoli vaziyatning qismlari yangi geshtaltda yangi munosabatda idrok qilina boshlaganida tugallanadi. Masalani yechish aniq qadamlarni yuzaga keltiruvchi geshtalt sifatida maydonga chiqadi.

Geshtaltchilarning ayrimlari "yo'nalish" atamasini qo'llab, uni o'tmish tajribasi bilan bog'lashga intiladilar. Shuningdek, ular "tafakkurning evrestik metodlari" to'g'risidagi tushunchadan ham foydalanadilar. Bunda materialni, qo'yilgan maqsadni, konfliktli holatlarni tahlil qilishni nazarda tutadilar.

Geshtaltchilar tafakkur psixologiyasining qator muammolarini ko'tarib chiqadilar, chunonchi ijodiy tafakkurning o'ziga xosligi, tafakkur jarayonida yangilikning vujudga kelishi, bilimlar bilan tafakkur nisbati, topshiriqni bajarish jarayonida asta-sekin va birdaniga yechish yo'lini qo'llash kabilar. Tafakkurni psixologik o'rganishda funksional rivojlanish g'oyasini amaliyotga tadbiiq qilish ham ma'lum darajada geshtaltpsixologiya namoyandalarning xizmati hisoblanadi.

Shunga qaramasdan **V.Kyoler**, **M.Vertgaymer**, **K.Dunkerlarning** eksperimental tadqiqotlari tafakkurning asosiy mexanizmlaridan biri bo'lgan

predmetlarni yangi aloqalar va munosabatlarga fikran jihatini ochishni aniqladilar. Ammo ular ham mazkur muammoli vaziyatda individning amaliy va nazariy aqliy faoliyatlari rolini mutlaqo tan oladilar.

Amerika psixologiyasida vujudga kelgan bixeviorizm yoki hulq psixologiyasi oqimi o'tgan asrning oxirlaridan boshlab hukm surib kelmoqda. Bixeviorizm oqimining asoschilari amerikalik psixologlar **Dj.Uotson** (1878-1958) va **E.Torndayk** (1871-1949) lardir. Keyinchalik bular qatoriga **K.Levin** (1890-1957) **A.Vays** (1974-1931) va boshqalar kelib qo'shiladilar. Ma'lum davrgacha mazkur oqim psixologiya olamida dominantlik rolini o'ynaydi. Hozirgi davrda bu oqim bir necha mustaqil psixologik maktablarga ajralib ketgan. Lekin ularning mohiyatida bixeviorizm nafasi urib turadi. Hammasi uchun umumiy formula **S-R**, ya'ni **stimul-reaksiya** xizmat qilib kelmoqda.

Dj.Uotson tafakkurning ichki nutq va noverbal tovushsiz imo-ishora, mimika, yelka qisishi, qosh suzish, kommunikatsiya, muloqotni birga qo'shib, keng ma'noda tushunadi va uni uchta shaklga ajratib o'rganadi. Nutq shakllaridan biri nutq malakalarini sekin-asta avj oldirish deb ataladi. Bu she'mi yoki sitatani aniq esga tushirishda o'z ifodasini topadi. Tafakkurning ikkinchi shakli subyekt uchun yangi bo'lmagan topshiriqni so'z yordami bilan yechish, yarim-yortisi unutilgan she'mi eslashga harakat va nihoyat, yangi topshiriqni yaqqol ifodali harakat va so'z yordami bilan yechish **Dj.Uotson** uchun malaka u individual egallagan va o'rganilgan xatti-harakatdir. Ushbu nazariya nuqtai nazaridan qarasa, tafakkur malakaga yaqinlashtirilib qo'yiladi, chunki she'mi esga tushirish ham tafakkur deb talqin qilinadi.

Dj.Uotson tilni o'zlashtirishning ijtimoiy jihatlarini umuman hisobga olmagan, nutqning tuzilishi va rivojlanishiga sira e'tibor qilmagan. Nutq bilan tafakkur birligi to'g'risida tamoyilni anglab yetmagan, tafakkur va ongning hulq ko'rinishi sifatida olib qaralgan.

Tayanch iboralar

Abstraksiya (lot. Abstractio mavxumlashtirish) – narsalarning o'ziga xos belgi va xususiyatlarini, ular o'rtasidagi bog'lanishlarni, narsalarning muhim belgi va xususiyatlarini ajratib olishga qaratilgan fikrlash operatsiyasi.

Amaliy tafakkur – ko'pincha vaqt tanqisligi sharoitida yuzaga keladigan va xatti - harakatlarning maqsadini aniqlash, reja loyihalarni ishlab chiqish bilan bog'liq.

Deduksiya (lot. deductio - keltirib chiqarish) – umumiy hukmlardan yakka hukmlarga qarata borish orqali mantiqiy xulosa chiqarishdan iborat tafakkur shakli.

Induksiya – (log. inductio – keltirib chiqarish) – juz'iy yoki yakka hollardan umumiyga, ayrim dalillardan umumlashmalarga qarab boradigan, induktiv xulosa chiqarishga asoslangan mantiqiy bilish metodi, tafakkur shakli.

Intuitsiya (lot. intueri – yaxshilab, diqqat bilan qaramoq) voqelikni bilishning bevosita haqiqatga aylanishi bilan amalga oshiriladigan alohida usul bo'lib, uning yordamida muammoli vaziyatlar yechimini topish mumkin, u ijodiy faoliyat mexanizmi sifatida tushuntiriladi.

Ko'rgazmali obrazli tafakkur – tafakkur turlaridan biri, bu tasavvur qilinayotgan narsa va hodisalar haqida fikrlashni xarakterlab beradi.

Ko'rgazmali harakat tafakkuri – tafakkur turlaridan biri, narsa va hodisalar bilan ishlash jarayonida ularni bevosita idrok qilishda namoyon bo'ladi.

Nazariy tafakkur – tafakkur turlaridan biri, u obyektlarning xususiyatlarini, qonuniyatlarini ochishga qaratilgan bo'ladi.

Sintez – (yunon. sintbasis – birikish, qo'shilish) – tafakkurning yagona analitik–sintetik jarayonida yakka hodisalarni umumiyLashtirishga qaratilgan fikr yuritish operatsiyasi.

So'z – mantiqiy tafakkur – tafakkur turlaridan, bu mantiqiy operatsiyalar, omillar yordamida tushunchalar orqali ifodalanadi.

Taqqoslash – narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlashga asoslangan fikrlash operatsiyasi.

Tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli. Sezgi idrok va tasavvurlar orqali bevosita bilib bo'lmaydigan narsa va hodisalar tafakkurda ongli ravishda aks etadi.

Tahlil – tafakkur qilish usuli, bunda murakkab obyektlar qismlarga bo'lib o'rganiladi.

Tushuncha – voqelikdagi narsa va hodisalarning muhim belgi va xususiyatlarini bitta so'z yoki so'zlar guruhi bilan ifodalashdan iborat tafakkurning mantiqiy shakli.

Umumlashtirish – voqelikdagi narsa va hodisalarni umumiy va muhim belgilariga qarab fikran birlashtirishdan iborat tafakkur jarayoni.

Xulosa chiqarish – tafakkurning mantiqiy shakllaridan, bunda bir qayta hukmlar asosida ma'lum xulosa chiqariladi.

Yaqqol harakatli tafakkur – tafakkur turlaridan, u narsalar bilan ishlash jarayonida ularni bevosita idrok qilishda ifodalanadi.

Hukm – tafakkur – usullaridan, u narsa va hodisalar o'rtasida o'zaro biron-bir bog'lanishlarning borligini tasdiqlash yoki inkor qilinishda ifodalanadi.

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan mavzular

1. Tafakkur haqida tushuncha.
2. Tafakkur operatsiyalari.
3. Tafakkur shakllari.
4. Tafakkur sifatleri
5. Tafakkurning turlari.
6. Tafakkur va masala yechish.
7. Tafakkurdagi individual farqlar.
8. Hissiy bilish va tafakkur o'rtasidagi farq.
9. Abstrakti va konkret tafakkur o'rtasidagi farq.

Test topshiriqlari

1. Qaysi olim tafakkurni predmetli amaliy faoliyat deb ataydi?

- A) M.V. Gamezo;
- B) A.V. Petrovskiy;
- V) S.L. Rubishteyn;
- G) A.N. Leontev;
- D) P.Ya. Galperin.

2. Shakliga ko'ra tafakkur qanday turlarga ajratiladi?

- A) ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-obrazli;
- B) amaliy, nazariy, ixtiyoriy-ixtiyorsiz;
- V) konkret, abstrakt, realistik, autistik, intuitiv, diskursiv;
- G) reproduktiv, produktiv, vizual, fazoviy;
- D) ko'rgazmali-obrazli, ko'rgazmali-harakat, so'z-mantiq.

3. Fikr yoyiqligiga ko'ra, tafakkur turlari qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-obrazli;
- B) amaliy, nazariy, ixtiyoriy-ixtiyorsiz;
- V) konkret, abstrakt, realistik, autistik, intuitiv, diskursiv;
- G) reproduktiv, produktiv, vizual, fazoviy;
- D) ko'rgazmali-obrazli, ko'rgazmali-harakat, so'z-mantiq.

4. Topshiriq xarakteriga ko'ra, tafakkur turlari qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-obrazli;
- B) amaliy, nazariy, ixtiyoriy-ixtiyorsiz;
- V) konkret, abstrakt, realistik, autistik, intuitiv, diskursiv;
- G) reproduktiv, produktiv, vizual, fazoviy;
- D) ko'rgazmali-obrazli, ko'rgazmali-harakat, so'z-mantiq.

5. Fikrning orginallik darajasiga ko'ra, tafakkur turlari qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-obrazli;
- B) amaliy, nazariy, ixtiyoriy-ixtiyorsiz;
- V) konkret, abstrakt, realistik, autistik, intuitiv, diskursiv;
- G) reproduktiv, produktiv, vizual, fazoviy;
- D) ko'rgazmali-obrazli, ko'rgazmali-harakat, so'z-mantiq.

6. Insonning tevarak atrofda moddiy voqelik to'g'risida ongida qay miqdorda (ko'lamda) mulohazalar, muhokamalar, fikrlar, muammolar, tushunchalar joy olganligi nima deb ataladi?

- A) mazmundorligi;
- B) mustahkamligi;
- V) epchillik;
- G) samaradorlik;
- D) tezligi.

7.moddiy dunyodagi narsa hodisalarning asosiy qonunlari, qonuniyatlari, sharoitlari ularning o'zaro bog'lanishlari munosabatlarini tafakkurimizda to'liq aks etishimizga aytiladi.

- A) mazmundorligi;
- B) mustahkamligi;
- V) chuqurligi;
- G) kengligi;
- D) mustaqilligi.

8. "Tafakkur subyekt faoliyatining paydo bo'lishi" degan g'oyani ilgari surgan olim qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) M.V. Gamezo;
- B) A.V. Petrovskiy;

- V) S.L. Rubinshteyn;
- G) A.N. Leontev;
- D) P.Ya. Galperin;

9. Tafakkur-bu orienterlash-tadqiqot faoliyatini orienterovka jarayonidir, ya'ni orienterovka jarayoni, orienterovka faoliyat. Mazkur fikr muallifi qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) M.V. Gamezo;
- B) A.V. Petrovskiy;
- V) S.L. Rubinshteyn;
- G) A.N. Leontev;
- D) P.Ya. Galperin.

10. Qaysi olim o'z tadqiqotlarida tafakkurning muhim yangilikni qidirish va ochish, gipoteza va nazariyalarni bashorat qilish, oldindan payqash xususiyatlari alohida ta'kidlab o'filadi?

- A) A.V. Petrovskiy;
- B) S.L. Rubinshteyn;
- V) A.N. Leontev;
- G) P.Ya. Galperin;
- D) A.V. Brushlinskiy.

11. Qaysi qatorda tafakkur tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan?

- A) insonning fikrlash faoliyati bo'lib atrof-hodisalami to'la anglashga yordam beradi;
- B) muammoli vaziyatni hal qilishga qaratilgan fikrlash faoliyati;
- V) narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik munosabat va farqli jihatlarini ongda aks ettirilishi;
- G) barcha javoblar to'g'ri;
- D) to'g'ri javob berilmagan.

12.....shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, uning yordami bilan biz narsa va hodisalarni fikran yoki amaliy va xususiyatlarni tahlil qilamiz.

- A) analiz;
- B) sintez;
- V) taqqoslash;
- G) klassifikatsiya;
- D) abstraksiyalash.

13..... shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, narsa va hodisalarning ongimizda bo'lingan, ajralgan ayrim qismlarini bo'laklarini fikran yoki amaliy ravishda birlashtirib butun holga keltiradi.

- A) analiz;
- B) sintez;
- V) taqqoslash;
- G) klassifikatsiya;
- D) abstraksiyalash.

14..... shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, bu operatsiya vositasi bilan obyektiv dunyodagi narsa va hodisalarning bir-biriga o'xshashligi va bir-biridan farqi aniqlanadi.

- A) analiz;
- B) sintez ;
- V) taqqoslash;
- G) klassifikatsiya;
- D) abstraksiyalash.

15. “Agar siz tabiatning biror narsasini ravshan tushunib, olishni istasangiz uning o‘ziga juda o‘xshash bo‘lgan narsalardan tafovutini topingiz va uning o‘zidan juda uzoq bo‘lgan narsalar bilan o‘xshashlik topingiz. Ana shunda siz shu narsaning eng muhim hamma belgilarini payqab olasiz demak shu narsani tushunib olasiz” Mazkur fikr qaysi tafakkur operatsiyasining mazmunini ochib berishga qaratilgan?

- A) analiz;
- B) sintez;
- V) taqqoslash;
- G) klassifikatsiya;
- D) umumlashtirish.

16. Bu operatsiya yordami bilan moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning muhim xususiyatlarini farqlab olib, ana shu xususiyatlardan narsa va hodisalarning muhim bo‘lmagan ikkinchi darajali xususiyatlarini fikran ajratib tashlanadi. Mazkur fikr qaysi fikrlash operatsiyasiga tegishli?

- A) analiz;
- B) abstraksiyalash;
- V) taqqoslash;
- G) klassifikatsiya;
- D) umumlashtirish.

17. Qaysi qatorda umumlashtirishning turlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A) nazariy va amaliy;
- B) tushunchali va hissiy-konkret;
- V) o‘xshashlik va umumiylik;
- G) obyektiv va subyektiv;
- D) umumiy va xususiy.

18. Psixologiyada narsa va hodisalardagi xossa, belgi, xususiyat alomatlarini topish va shu umumiylik asosida birlashtirish tushuniladi. Mazkur fikr qaysi fikrlash operatsiyasiga tegishli?

- A) abstraksiyalash;
- B) umumlashtirish;
- V) klassifikatsiyalash;
- G) konkretlashtirish;
- D) sistemalashtirish.

19. Predmetlarni obe‘ktiv muhim belgi asosida umumlashtiradi. Mazkur umumlashtirish qanday nomlanadi?

- A) obyektiv;
- B) subyektiv;
- V) tushunchali;
- G) hissiy-konkret;

D) xususiy.

20. Predmetlar topshiriq talabiga tashqi belgi bilan umumiy lashtirish nima deb nomlanadi.

- A) obyektiv;
- B) subyektiv;
- V) tushunchali;
- G) hissiy-konkret;
- D) xususiy.

21. Hodisalarni ichki bog'lanish va munosabatlardan qat'iy nazar bir tomonlama ta'kidlashdan iborat fikr yuritish operatsiyasi nima deb nomlanadi?

- A) abstraksiyalash;
- B) umumlashtirish;
- V) klassifikatsiya;
- G) konkretlashtirish;
- D) sistemalashtirish;

22. Bir turkim ichidagi narsalarning bir-biriga o'xshashligiga va boshqa turkumlardagi narsadardan farq qilishiga qarab narsalarni turkumlarga ajratish tizimi deb ataladi.

- A) abstraksiyalash;
- B) umumlashtirish;
- V) klassifikatsiya;
- G) konkretlashtirish;
- D) sistemalashtirish;

23. Narsa va hodisalarning belgi va xususiyatlari haqida tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan fikr deb ataladi.

- A) xulosa chiqarish;
- B) hukm;
- V) tushuncha;
- G) konkret tushuncha;
- D) mavhumlashtirish.

24. Qaysi qatorda hukm turlari to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) juz'iy, taxminiy, shartli tasdiqlovchi;
- B) yakka, konkret, umumiy, abstrakt, xususiy, to'planma;
- V) induktiv, deduktiv, analogik;
- G) yakka, juz'iy, xususiy analogik;
- D) yakka, konkret, chin, taxminiy.

25. Qaysi qatorda tushuncha turi to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) juz'iy, taxminiy, shartli tasdiqlovchi;
- B) yakka, konkret, umumiy, abstrakt, xususiy, to'planma;
- V) induktiv, deduktiv, analogik;
- G) yakka, juz'iy, xususiy analogik;
- D) yakka, konkret, chin, taxminiy.

26. Qaysi qatorda xulosa chiqarish turlari to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) juz'iy, taxminiy, shartli tasdiqlovchi;

- B) yakka, konkret, umumiy, abstrakt, xususiy, to'planma;
- V) induktiv, deduktiv, analogik;
- G) yakka, juz'iy, xususiy analogik;
- D) yakka, konkret, chin, taxminiy.

27.....shunday tafakkur shaklidirki bu shakl vositasi bilan biz ikki yoki undan ortiq hukmlardan yangi hukm hosil qilamiz.

- A) xulosa chiqarish;
- B) tushuncha;
- V) hukm;
- G) induktiv xulosa chiqarish;
- D) deduktiv xulosa chiqarish.

28.Narsa va hodisalarning umumiy va muhim belgilarini aks ettiruvchi fikrdir.

- A) xulosa chiqarish;
- B) tushuncha;
- V) hukm;
- G) induktiv xulosa chiqarish;
- D) deduktiv xulosa chiqarish.

29.Inson tomonidan bevosita idrok qilinayotgan predmetlar emas balki tasavvur qilinayotgan narsa va hodisalar haqida fikrlashdan iborat tafakkur turi bu

- A) amaliy;
- B) nazariy;
- V) ko'rgazmali-harakat;
- G) ko'rgazmali-obrazli;
- D) fazoviy.

30.Ulug' rus olimi D.I. Mendeleevning hikoya qilishicha, u elementlar davriy tizimi jadvalini tuzish vaqtida uch kechayu uch kunduz tinim bilmay mehnat qilgan ammo bu vazifani nihoyasiga yetkaza olmagan. Undan so'ng charchagan olim ish stoli ustida uyquga ketgan va tushida bu elementlar tarkibli joylashtirilgan jadvalni ko'rgan. Shunda D.I.Mendeleev uyqudan uyg'olib, bir parcha qog'ozga tushida ayon bo'lgan jadvalni ko'chirib o'tgan. Sizningcha mazkur jarayon tafakkur turining mahsuli?

- A) amaliy;
- B) ixtiyorsiz/intuitiv;
- V) ixtiyoriy/analitik;
- G) ko'rgazmali;
- D) abstrakt tafakkur.

Nazorat savollari

1. Tafakkur tushunchasining mazmunini izohlang?
2. Tafakkur operatsiyalarini ajratib ko'rsating?
3. Tafakkur shakllari nimalarda ko'rinadi?
4. Tafakkur sifatlarining mazmunini izohlang?
5. Tafakkurning turlarining mohiyatini izohlang?
6. Tafakkurdagi individual farqlar nimalarda ko'rinadi?

XAYOL

Xayol haqida tushuncha

Odam o'z hayoti davomida ilgari idrok qilgan narsa va hodisalarni tasavvur etibgina qolmay, balki hech qachon hayotida uchratmagan narsalarni ham tasavvur eta oladi. Boshqacha qilib aytganda, odam faqat ilgari idrok qilgan narsalarinigina eslash bilan cheklanib qolmay, balki shu paytgacha hech qaerda uchratmagan yangi narsalarini ham o'z hayotida yarata oladi.

Shuningdek, avlod-ajdodlarimizning hayotiga doir tarixiy kitoblarni o'qiyotganimizda yoki bo'lmasa, o'qituvchining uzoq chet el mamlakati haqidagi qiziqarli gaplarini eshitar ekanmiz, yuqoridagi narsalarga nisbatan tasavvurlar hosil bo'ladi. Xayol qilish jarayonida idrok qilingan obrazlar orqali hosil qilingan tasavvurlar va bunday tasavvurlarni ongimizda xotira orqali orttirilishi tufayli yuzaga keladi. Demak, xayol jarayonining bo'lishi uchun xotira tasavvurlarining bo'lishi shart. Shuning uchun xayolning rivojlanishi insonning bilim boyligi, turmush tajribasi bilan bog'liq.

Xayol deb odamning ongida ilgari bor bo'lgan vaqti aloqalarning (assotsiatsiyalarni) qaytadan tiklanishi va bir-biri bilan yangicha qo'shilishi orqali narsa va hodisalarning yangi obrazlarini hosil qilishga aytiladi.

Xayol – obraz tasavvur yoki g'oya shaklida yangi narsaning yaratilishi, ong faoliyati, ya'ni ilgari idrok qilinmagan narsalarning obrazlarini mavjud tasavvurlar asosida miyada yaratishda ifodalanadigan faoliyatdir.

Xayolning inson hayotidagi o'rni juda kattadir. Istalgan mehnat faoliyatini oladigan bo'lsak, xayolning ishtirokisiz deyarli amalga oshirib bo'lmaydi. *Masalan*, biror narsa yasash biror o'simlikni o'stirish uchun qo'lga kiritiladigan natijalarni oldindan bilish, ya'ni xayolda tasavvur etib ko'rish lozim bo'ladi. Shuning uchun xayol juda ko'p faoliyatlarning tarkibiy qismiga kiradi.

Kishining butun ruhiy hayoti shaxsning bilish faoliyati va emotsional irodaviy holatlari bilan uzviy bog'liq. Xayol idrok xotira tafakkur kabi mantiqiy bilish jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Xayolning mahsuli shundaki, u orqali avvalgi tajribalar qayta ishlanadi. Xayol tafakkur bilan shunday bog'liq-ki, xayol ham, tafakkur ham muammoli vaziyatlardan kelib chiqadi va shaxs ehtiyojlariga asoslanadi. Tafakkurda fikrlar, tushunchalar asosida ifodalanadi.

Xayol jarayonlarining nerv-fiziologik asoslari

Xayol qilish jarayoni juda ham murakkab aks ettirish jarayoni bo'lishiga qaramay, uning asosida yotgan fiziologik mexanizmlarni akademik. *I.P.Pavlovning* oliy nerv-faoliyati haqidagi ta'limoti asosida ma'lum darajada tushuntirib o'tish mumkin. Xayolning nerv fiziologik asosida ham miyaning po'stida ilgari hosil qilingan vaqti aloqalarning (assotsiatsiyalarning) yana qayta tiklanib, bir-biri bilan yangicha qo'shilish jarayoni yotadi. Shuni ham aytish kerak-ki, bosh miya yarim sharlarida ilgari hosil qilingan vaqti aloqalar birin-ketin tiklanadilar va binobarin ularning qo'shilishlari ham asta-sekin yuzaga keladi. Ana shuning natijasida bosh miyaning po'stida inson o'z shaxsiy hayotida hech qachon idrok qilmagan


narsalarning obrazlari paydo bo'ladi. Bu obrazlarning ko'pi voqelikka mutlaqo to'g'ri kelmaydi va natijada tormozlanib qoladilar. Boshqa birlari esa voqelikka to'g'ri kelganligi hamda inson faoliyati uchun miyadan yangi imkoniyatlar ochib bergani tufayli amaliy faoliyat natijalari bilan mustahkamlanadilar. Xayol qilish jarayoni hamisha nutq orqali amalga oshirilishi tufayli nutqning nerv-fiziologik asosida ikkinchi signallar tizimining faoliyati ham faol qatnashadi. Bundan tashqari xayol qilish jarayonida diqqat, xotira, tafakkur va iroda jarayonlari ham ishtirok qiladi. Ana shu nuqtai nazardan olganda, xayolning (xususan ijodiy xayolning) nerv fiziologik mexanizmlarni to'la tushuntirib berish uchun yetarli ilmiy ma'lumotlar yo'q. Hozirgi kunda fan va texnikaning juda tez temp bilan rivojlanishi ijodiy xayol jarayonining oldiga katta vazifalar qo'yimoqda. *Masalan*, kosmik fazoni zabt etish, insonning oyga chiqishi, murakkab aqlli mashinalarning yaratilishi va shu kabilar inson tafakkuri hamda ijodiy xayolning yuksak taraqqiyoti natijasida qo'lga kiritilmoqda.

Odamning uyg'oq paytida yuzaga keladigan xayol jarayoni ma'lum darajada tartibot va ixtiyoriy xarakterga ega bo'ladi. Shuning uchun odam o'zining xayol qilish jarayonini oldidagi maqsad va vazifalarga bo'ysindira oladi. Odam o'zining bilimlari, tushunchalariga asoslangan holda xayoliy obrazlarning paydo bo'lishini idora qila oladi.

Bosh miya katta yarim sharlarining barcha tomonlari tormozlanib, odam uxlagan paytida ham xayol tush ko'rish shaklida yuzaga keladi. Odatda odam uxlay boshlagan paytida ikkinchi signallar tizimining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan nerv hujayralari hammadan oldin tormozlanadi. Uyqu bilan bog'liq bo'lgan tormozlanish jarayoni miyaning hamma joyiga baravar ravishda tarqalmaydi. Natijada ayrim joylar tormozlanmasdan qoladi va kutilmagan darajada ajoyib munosabatlarga kirisha boshlaydi. Ana shuning uchun tush ko'rish ikkinchi signallar tizimining nazoratisiz juda betartib, pala-partish ravishda yuzaga keladigan assotsiatsiyalardan iborat bo'ladi.

Xayol jarayonlari

Xayol jarayonlari insonning tajribasi va bilim doirasi, o'tmish tajribalari bilan belgilanadi. Shuningdek, xayol jarayonlari sifatida quyidagilar ajratib ko'rsatiladi va ular yaqqol ifodalash maqsadida quyida jadval ko'rinishida aks ettirildi.



Agglyutinatsiya – “elmlash” degan ma’noni bildirib, unda turli qismlarni bitta qilib yangi obraz yaratiladi. *Masalan:* yalmog’iz kampir, suv parisi, kentavr, ssfinks obrazlari va boshqalar.

Giperbolizatsiya – obrazlarni kattalashtirish yoki kichiklashtirish shuningdek, alohida qismlarni o’zgartirishdir. *Masalan:* Gulliver, liliput, Alpomish, Rustam pahlavon obrazlari kabilar.

Tizimlashtirish – o’xshatish orqali ayrim tasavvurlarni ular orasidagi farqlarni silliqlash; tipiklashtirish-bir xil obrazlarni qaytarilishi bo’lib, har bir davr uchun tipik bo’lgan obrazlarni yaratish *Masalan:* A.Kahhor hikoyalari (“O’g’ri”, “Bemor”) A.Qodiriy (“O’tgan kunlar”) romani kabilar.

Aksentlashtirish – ayrim belgilarni ta’kidlash orqali obrazlar yaratish *Masalan:* o’rtoqlik hazillari. Aksentlashtirish badiiy adabiyotlarda juda ko’p qo’llaniladi.


Yuqoridagi xayol jarayonlari orqali yaratiladigan obrazlar analiz va sintez jarayonida ro’y beradi. Chunki har bir narsani yoki hodisani avval analiz (tahlil) qilib ko’riladi, keyin ularni sintez (birlashtirish) qilish orqali yangi obrazlar hosil qilinadi.

Xayol jarayonida xayol tasavvurlarining xotira tasavvuridan farqi muhim ahamiyatga ega:

- xayol tasavvurlari ongda paydo bo’ladi va barqaror bo’ladi;
- xotira tasavvuridagi narsa doimo tanish narsadek his qilinadi. Xayol tasavvurlari esa yangilikni his qilish tuyg’ularini beradi;
- xayol tasavvurlari insonning qiziqish va ideallari bilan bog’liq bo’lgani sababli yangilikni his qilish tuyg’ulari oqibatida vujudga keladi.

Xayol turlari

Odatda biz tasavvur xayoli, ijodiy xayol, ixtiyoriy va ixtiyorsiz xayol deb xayolni bir necha turlarga ajratamiz. Aynan xayol turlarini quyidagi tarzda ifodalash muhim sanaladi.



Tasavvur xayoli deb o’tmishda bo’lib o’tgan yoki hozirda bor bo’lgan lekin bizning turmush tajribamizda shu paytgacha uchratmagan, ya’ni biz idrok qilmagan tasavvur ya obrazlar yaratishga aytiladi.

Tasavvur xayolini odatda *tiklovchi xayol* deb ham yuritiladi. Tiklovchi yoki tasavvur xayolini inson hayotidagi roli g'oyat darajada kattadir. Agar tiklovchi xayol bo'lmaganda odam o'qiy ham olmagan bo'lar edi. Biz juda ko'p narsalarni ko'magan, ya'ni bevosita idrok qilmagan bo'lsak, ham ularni tasavvur eta olamiz: bunda biz boshqa odamlarning aytib bo'lgan so'zlari asosida o'qigan kitoblarimiz asosida xayoliy tasavvur va obrazlar yaratamiz. *Masalan*, bolalar kitobchalardan o'qib berilgan ertaklardagi qahramonlarni ularning bag'oyat botirliklarini, qo'rqquliklarini va bir-birlariga yordam berishlarini xayoliy tasavvur orqali aks ettiradilar. Tiklovchi yoki tasavvur xayoli jarayonida odam ko'z oldiga keltirayotgan obrazning obyekti haqiqatdan ham muayyan bir joyda bo'lganligini anglatadi. Tasavvur yoki tiklovchi xayol bog'cha yoshidagi bolalarda ham bo'ladi. *Masalan*: ularga o'qib berilayotgan hikoyani eshitar ekanlar, hikoyadagi afsonaviy qahramonlar, ularning baland qoyalar ustidagi qurilgan qasrlari ko'z o'ngilarida gavalana boshlaydi.

Ijodiy xayol – deb tajribamizda bo'lmagan va voqelikning o'zida ham uchratmagan narsa va hodisalar haqida tasavvur hamda obrazlar yaratishdan iborat xayol turiga aytiladi.

Ijodiy xayol murakkab aks ettirish jarayoni bo'lib, odamning hayotida juda katta ahamiyatga egadir. Odam o'zining ijodiy xayoli orqali biror yangi, shu paytgacha qo'rilmagan narsa yaratadi. *Masalan*: Yozuvchi asari uchun tipik obraz yaratganda uning xayoli ijodiy bo'ladi. Tadqiqotchining biror tadqiqot ustida ishlaganida ham uning xayoli ijodiy bo'ladi.

Ijodiy xayol obrazlari so'zlarda yoki moddiy obyektlarda tasvirlanishi mumkin. Ijodiy xayol mahsuli, ya'ni tasavvur va obrazlari san'atning hamma turlarida arxitekturada, fan va texnika sohasidagi ixtirolarda namoyon bo'ladi. Shuni ham nazarda tutish kerakki, tasavvur xayoli bilan ijodiy xayol o'rtasidagi farq faqat nisbiy xarakterga egadir. Xuddi ijodiy xayol jarayonidagi kabi tasavvur xayoli jarayonida ham aslida narsalarning obrazlari yangidan ijod qilinadi. Ana shuning uchun xayolning bu ikki turini bir-biridan batamom ajratib bo'lmaydi.

Ijodiy xayolning maxsus turi orzudir. *Orzu* ijodiy xayolning, tilakning kelajakka qaratilgan shaklidir. Orzusiz kishi bo'lmaydi. Orzu odamning u yoki bu faoliyatiga undaydigan stimuly turtkich hisoblanadi. Lekin orzuning boshqa salbiy turlari ham bor. *Masalan*, odamni asosiy ish faoliyatidan boshqa ishga sudraydigan orzular ham bo'ladi. Shunday odamlar ham bo'ladiki, ular o'zlarining aniq faoliyatlarini orzu bilan almashtirib, tilak va istaklariga shirin orzudagina yetib yuradilar. Ularning "*quruq xayolparasilar*" deb yuritiladi.

Xayol qilish jarayoni hamma bilish jarayonlaridagi kabi *ixtiyorsiz va ixtiyoriy xayol* turlariga bo'linadi.

Ixtiyorsiz xayol deb – odam o'zining oldiga hech qanday maqsad qo'ymasdan, irodani ishga solmasdan, qandaydir o'z-o'ziga obraz va tasavvurlarni yaratishiga aytiladi.

Ixtiyorsiz xayol shu topdagi kuchli ehtiyoj tufayli maydonga keladi. *Masalan*: odam juda tashna yoki juda och bo'lgan paytida uning xayolida har turli taomlar, daryo va buloq suvlari paydo bo'la boshlaydi. Odamning ayni shu choqdagi hissiy holati, ya'ni his-tuyg'ulari ham ixtiyorsiz xayolning maydonga kelishiga sabab

bo'ladi. Chunonchi, vahima yoki qo'rqinch hissi paytida odamning xayoliga qo'rqinchli narsalarning obrazlari kela boshlaydi.

Odamning tush ko'rishi ham ixtiyorsiz xayol faoliyatlaridan hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, odam uxlay boshlagan paytda bosh miya po'stining hamma joylari tormozlanmay, ayrim joylari ishlab turadi. Ana shu ishlab turgan joylaridagi nerv hujayralarida ilgari hosil qilingan obraz va tasavvurlar qayta tiklanib, odam tush ko'ra boshlaydi. Bunda miya po'stining eng asosiy markazlari (ikkinchi signallar tizimi) tormozlangan bo'lgani tufayli hech qanday nazorat bo'lmaydi. Natijada obraz va tasavvurlar bir-biri bilan allaqanday munosabatlarga kirib, odam palapartish tush ko'ra boshlaydi.

Ixtiyoriy xayol jarayonlari betartib ravishda, emas balki muayyan bir jarayonda o'tadi. Bu tartib odamning ehtiyojlari, maqsadlari, hissiyotlari fikr hamda maslaklari bilan belgilanadi.

Ixtiyoriy xayol deb oldindan belgilangan maqsad asosida iroda kuchini ishga solib muayyan obraz va tasavvurlarni yaratishga aytiladi. Demak, ixtiyoriy xayol hamisha ma'lum maqsad va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'ladi. Bunday maqsad va vazifalar boshqalar tomonidan qo'yilishi mumkin. *Masalan*, rassom o'zi ishlamoqchi bo'lgan suratning mavzusini o'zi belgilaydi. Yozuvchi yozmoqchi bo'lgan asarning mavzusini o'zi tanlaydi va o'zi badiiy obrazlarni yaratadi. Umuman san'at asarlarining hammasi ixtiyoriy xayol natijasida maydonga keladi.

Biroq shuni ham aytib o'tish kerakki, ixtiyoriy xayol ba'zan ixtiyorsiz xayolga o'tib ketishi mumkin. Shuning uchun ixtiyoriy xayol ixtiyorsiz xayoldan batamom ajralgan holda ro'y bermaydi. Ixtiyoriy xayol jarayoni hamisha beixtiyor qilinadigan xayol daqiqalarini o'z ichiga oladi. *Masalan*, rassomlar yoki kompozitorlar o'zlarining biror yangi asarlarini ixtiyoriy tarzda yaratayotganlarida ba'zan ixtiyorsiz ravishda ayrim fikrlarga berilib ketishlari mumkin.

Realistik xayol – turida voqelik aks ettiriladi, orzular amalga oshadi. *Fantastik xayol* – amalga oshmaydigan xayol turidir.

Xayol sifatlari

Kishilarning xayoli kengligi, mazmundorligi, kuchi va realligi, fantaziya boyligi jihatidan farq qiladi. Xayol kengligi voqelikning kishilar faoliyati uchun bo'ladigan doirasi bilan belgilanadi. *Masalan*, kishi san'at, texnika, sport, bilimga qiziqsa va ular haqida xayol qilsa, bunday kishining xayoli keng bo'ladi.

Xayolning unumdorligi biror narsaga nisbatan xayolning boyligi, xilma-xilligi bilan belgilanadi. Xayol keng bo'lsa, u mazmundor ham bo'ladi. Xayol faoliyatning biror sohasida namoyon bo'ladi. Xayolning kengligi va mazmundorligi kishining bilim va tajribasiga bog'liq.

Xayol kuchi kuchsiz va kuchli bo'ladi. Kuchli xayolda odam juda tez ta'sirlanadi. *Masalan*, biz "O'tgan kunlar" romanini, "Shaytanat" romanlarini o'qiganimizda xayol kuchli bo'lishi natijasida ta'sirlanamiz. Ilmiy asarni, zerikarli, hikoyalarni o'qiganimizda esa xayolimiz kuchsiz bo'ladi. Qiziqish kuchli bo'lsa, xayol ham kuchli bo'ladi. Bolalarning xayoli fantaziyaga boy bo'ladi. Mehnat faoliyati natijasida xayol sifatlari rivojlanadi.

Xayol kuchi quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

-xayol kuchi ehtiyoj, qiziqish, istaklarning kuchiga bog'liq bo'ladi. *Masalan:* faqat shu bugungi kun haqida o'ylasa, odamning xayoli kuchsiz bo'ladi.

-xayol kuchi hissiyotga bog'liq bo'ladi, hissiyot qanchalik kuchli bo'lsa, xayol shunchalik erkin bo'ladi;

-xayol kuchi idrokka bog'liq bo'ladi. Biz idrok qilganimizda diqqat bilan idrok qilsak, xayol kuchayib, kengayadi, agar diqqatimiz xayolga qaratilsa, unda idrok qilsak, xayol kuchayib kengayadi, agar diqqatimiz xayolga qaratilsa unda idrok susayadi. *Masalan,* ba'zan bir xayolga berilib, atrofdagi narsalarni ko'rmaymiz, eshitmaymiz.

Xayol kuchi kishining ahvoliga, asab tizimiga bog'liq bo'ladi, ya'ni asab tizimining tetikligiga, charchab qolganligiga, sog'ligiga va betobligiga bog'liq bo'ladi. *Masalan:* harorat juda baland bo'lishi natijasida obrazlar juda yorqinlashib ketadi. Natijada bunday paytda odam alahsiraydi. Gallyusinatsiya xayolning kuchli namoyon bo'lishidir.

Xayolning realligi – voqelikni to'g'ri aks ettiruvchi xayoliy obrazlarning yaratilishi, geriyalami xayolining kuchi real xayoldir. *Masalan,* kosmosga uchish xayolni oldindan tasavvur etish. Xayolning realligi odamning tajribasiga, bilimiga, tafakkuriga bog'liq bo'ladi. Obrazlar amalga oshmasa, bu real xayol bo'lmaydi, balki fantastik xayol bo'ladi. Bolalarda xayol kattalarga taqlid qilish orqali o'sadi. Bolalarda fantaziya juda kuchli, *masalan,* ular oddiy cho'pni "uchqur ot" deb tasavvur qilib o'ynaydilar. Ularni qahramon deb his qiladilar. Yasli yoshiga nisbatan bog'cha yoshidagi bolalar xayoli bir muncha kengroq bo'ladi. Ularda xayol asosan kengroq bo'ladi. Bola kattalarga taqlid qilib, shofyor, doktor bo'ladi va hokazo. Bog'cha yoshidagi bolalarda xayol ixtiyoriy bo'ladi. *Masalan,* katta odam bolaga kubiklardan uy yasash, rasm chizish kabi topshiriqlar beradi. Bog'cha yoshidagi bolalarning xayoli kattalar bilan muloqotda bo'lish ta'sirida o'sadi. Bolalar eraklarni tinglashni, voqealarni eshitishni yoqiradilar.

Kattalarning fikrlarini eshitish natijasida bolalarda ular hali ko'rmagan narsalar to'g'risida obrazlar paydo bo'ladi. Bolalar o'yin vaqtida erkin obrazlarni yaratadilar.

Kichik yoshdagi bolalar xayolining o'sishi uchun tarbiyachining olib boradigan mashg'ulotlari, turli o'yinlarini tasavvur etishlari katta ahamiyatga ega. Asosan qiziqishlar xayolning o'sishiga yordam beradi.

Xayol faoliyati kuchli bo'lsa uning mazmuni kengroq idrok qilinadi. Xayol tasavvurlari esda olib qolish, esga tushirish bog'lanishlarini vujudga keltirish uchun tayanch bo'ladi. Tafakkur jarayonidagi yaqqollik xayol faoliyati tufayli sodir bo'ladi. Xayol faoliyati tufayli tug'iladigan hislar ko'pincha ancha kuchli va barqaror hislar bo'ladi.

Xayolning asosiy xususiyatlari

Xayol jarayoni va uning vujudga kelishi bir qancha sharoitlarga bog'liqdir. Xayol har doim ma'lum bir yo'nalishga ega. Odatda vujudga kelgan xayol odamning o'z faoliyati davomida nimaga intilayotgani, nimani istayotgani bilan bog'liq bo'ladi. *Masalan,* tarbiyachi tarbiyalangan bolalarning kim bo'lib yetishishlarini xayolan ko'z oldiga keltirib ko'radi.

Xayol jarayonining xususiyatlaridan biri shundan iboratki, xayol odamning ehtiyojlari, qiziqishlari va o'z oldiga qo'ygan vazifalari bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Lekin shuni aytib o'tish lozimki, odamning ehtiyojlari va qiziqishlari hamma vaqt ham istagan narsalarga erishavermaydi. Ko'proq odamning xayolida hamma vaqt qo'rqinchli narsalar gavalana boradi.

Ana shu paytdagi ehtiyojining ta'siri bilan odamning xayoli o'tmishda idrok qilingan narsalardan hosil bo'lgan tasavvurni ijodiy ravishda qayta ishlab, yangi obrazlar yarata boshlaydi.

Xayol jarayonining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, xayol hamisha boy tajriba hamda bilimlarga asoslanadi. Agar bilim yetishmasa, xayoliy tasavvur hosil bo'lmaydi. *Masalan*, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga qadimgi davr insonlari haqida gapirilsa, ular xuddi hozirgi zamon kishilari singari tasavvur qiladilar. Buning asosiy sababi bilimlarning yetishmasligi, shuningdek, mazkur yoshdagi bolalar tarixiy muzeylarda bo'lmaganliklari, teatrlarga tushib, tarixiy asarlarni ko'rmaganliklari, tarixiy kinolarni hali juda kam ko'rganliklari tufayli bunday tasavvurlarni hosil qilishning uddasidan chiqa olmaydilar.

Xayol jarayonining o'ziga xos xususiyatlaridan naybatdagisi xotira tasavvurlarini analiz va sintez qismidan iboratdir. Xayol uchun material bo'ladigan tasavvurlar xayol yaratib berayotgan obrazlarga ko'pincha to'liq holda kirmasdan, balki qisman faoliyatida ro'y beradi. Bunda muayyan tasavvurlardan ajratib olingan elementlarni boshqa tasavvurlar bilan qo'shish va bir turkum qilish jarayoni ro'y beradi. Mana shunday sintez qilish faoliyatida foydalanadilar, ular ya'ni yozuvchilar o'z asarlaridagi qaydnomalarning tiplarini bir qancha ayrim tasavvurlardan vujudga keltiradilar.

Nihoyat xayolning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, agar idrok obrazlari ayni hozirgi paytdagi narsalar bilan bog'liq bo'lsa, xotira obrazlari o'tgan zamondagi narsalarning obrazlarini tiklash bilan bog'liq bo'lsa, xayoliy yo'l bilan yaratilgan obrazlar esa hozirgi va o'tgan zamongagina emas, balki kelajak zamonga, odam kelajakda nima ishlar qilishini xayolan tasavvur qilib ko'rish bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Tayanch iboralar

Agglyutinatsiya (lot. Agglutinate – yopishtirmoq yelimplamoq) – mavjud obraz va tasavvur qismlarini bir – biriga “yopishtirib” qo'shish asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat xayol faoliyati. Mas., suv parisi obrazi.

Aksentlash (yunon. Accentys – urg'u) – narsalarning ayrim qismlarini boshqa qismlariga nisbatan haddan tashqari kichraytirish yoki kattalashtirish asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat xayol faoliyati.

Giperbolizatsiya (yunon. Hyperbole – kattalashtirmoq) – kattalashtirish bilan bog'liq xayol faoliyatining bir usuli.

Orzu – shaxsning o'zi uchun yoqimli bo'lgan istiqbol obrazlarni ongida yaratishdan iborat xayol turi. Orzu shaxsning ehtiyojlari, istak va intilishlari bilan bevosita bog'liq.

Tasavvur – sezgi a'zolariga qachonlardir ta'sir etgan narsa va xodisalarning yaqqol hissiy obrazi.

Xayol – mavjud tasavvurlar asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat psixik aks ettirish jarayonlaridan biri. U ixtiyorsiz va ixtiyoriy, ijodiy xayol turlariga ajratiladi.

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan mavzular

1. Xayol haqida tushuncha.
2. Xayol jarayonlari.
3. Xayol turlari.
4. Xayol sifatleri.
5. Fantaziya.
6. Xayolning xususiyatlari.
7. Xayolning analitik – sintetik xususiyati.
8. Xayol shakllari to‘g‘risida tushuncha
9. Xayolning inson faoliyatidagi o‘rni

Test topshiriqlari

1. Qaysi qatorda xayol turlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A) mexanik, ixtiyoriy, ixtiyorsiz, tasavvur;
- B) tasavvur, ijodiy, ixtiyoriy, ixtiyorsiz;
- V) tasavvur, ijodiy, frenologik, emotsional;
- G) ixtiyoriy, ixtiyorsiz, ijodiy, emotsional;
- D) kasbiy, frenologik, emotsional.

2. O‘tmishda bo‘lib o‘tgan yoki hozirda bor bo‘lgan lekin bizning turmushimizda shu paytgacha uchramagan ya‘ni biz idrok qilmagan narsa va hodisalar to‘g‘risida tasavvur va obrazlar yaratishgaaytiladi.

- A) ixtiyorsiz xayol;
- B) ixtiyoriy xayol ;
- V) ijodiy xayol;
- G) tasavvur xayol;
- D) fantastik xayol;

3tajribamizda bo‘lmagan va voqelikning o‘zida ham uchramagan narsa va hodisalar haqida tasavvur hamda obrazlar yaratishdan iborat bo‘lgan xayol turiga aytiladi.

- A) ixtiyorsiz xayol;
- B) ixtiyoriy xayol;
- V) ijodiy xayol;
- G) tasavvur xayol;
- D) fantastik xayol;

4. O‘quvchilarga o‘qib berilayotgan hikoyani eshitar ekanlar hikoyadagi afsonaviy qahramonlar ularning baland qoyalar ustiga qurilgan qasrlari ko‘z o‘ngilarida gavdalana boshlaydi.

- A) ixtiyorsiz xayol;
- B) ixtiyoriy xayol;
- V) ijodiy xayol;
- G) tasavvur xayol;
- D) fantastik xayol.

5. Yozuvchi asari uchun tipik obraz yaratayotganda uning xayoli qanday nom bilan ataladi?

- A) ixtiyorsiz xayol;
- B) ixtiyoriy xayol;
- V) ijodiy xayol;
- G) tasavvur xayol;
- D) fantastik xayol.

6. Ijodiy xayolning maxsus turi qanday nomlanadi?

- A) tush ko'rish;
- B) fantaziya;
- V) orzu;
- G) tiklovchi;
- D) emotsional.

7. Odam o'zini oldiga hech qanday maqsad qo'ymasdan irodani ishga solmasdan qandaydir o'z-o'ziga obraz va tasavvurlarni yaratishgaaytiladi?

- A) ixtiyorsiz xayol;
- B) ixtiyoriy xayol;
- V) ijodiy xayol;
- G) tasavvur xayol;
- D) fantastik xayol.

8. Odam juda tashna yoki juda och bo'lgan paytda uning xayolida har turli taomlar daryo va buloq suvlari paydo bo'la boshlaydi. Mazkur misol xayolning qaysi turiga taalluqli?

- A) ixtiyorsiz xayol;
- B) ixtiyoriy xayol;
- V) ijodiy xayol;
- G) tasavvur xayol;
- D) fantastik xayol.

9. Tush ko'rish xayolning qaysi turiga taalluqli?

- A) ixtiyorsiz xayol;
- B) ixtiyoriy xayol;
- V) ijodiy xayol;
- G) tasavvur xayol;
- D) fantastik xayol.

10.oldindan belgilangan maqsad asosida iroda kuchini ishga solib, muayyan obraz va tasavvurlarni yaratishga aytiladi?

- A) ixtiyorsiz xayol;
- B) ixtiyoriy xayol;
- V) ijodiy xayol;
- G) tasavvur xayol;
- D) fantastik xayol.

11. Ijodiy xayolning tilakdagi kelajakka qaratilgan shakli bu

- A) tush ko'rish;
- B) fantaziya;

- V) orzu;
- G) tiklovchi;
- D) emotsional.

12. Insonda tush ko'rishning asosiy sababi nimadan iborat?

- A) ixtiyorsiz xayol bilan bog'liq bo'lib tasodifiy ro'y beradi;
- B) qattiq uxlamagan vaqtda yuzaga keladi;
- V) bosh miyada tormozlanmay qo'zg'algan holatda qolgan markazlardir;
- G) biz orzu qilgan kishilarimiz o'ylagan his qilgan narsalar haqida;
- D) tartibga solinmagan maqsadga qaratilmagan jarayon.

13. Tush ko'rishning fiziologik asosi kim tomonidan o'rganilgan?

- A) I.M.Sechenov;
- B) I.P.Pavlov;
- V) I.Kant;
- G) B.Teplov;
- D) Neblitsin.

14. Tush ko'rishning fiziologik asosini tushuntirishda quyidagi fikr ilgari suriladi ya'ni ilmiy taassurotlarning nervda qoldirgan izlari kutilmagan tarzda bir-biri bilan bog'lanishidir. Mazkur fikr muallifini aniqlang?

- A) I.M.Sechenov;
- B) I.P.Pavlov;
- V) I.Kant;
- G) B.Teplov;
- D) Neblitsin.

15. Mazkur xayol turida voqelik aks ettiriladi, orzular amalga oshadi?

- A) ixtiyorsiz xayol;
- B) ixtiyoriy xayol;
- V) ijodiy xayol;
- G) realistik xayol;
- D) fantastik xayol.

16. Amalga oshmaydigan xayol turi qanday nom bilan ataladi?

- A) ixtiyorsiz xayol;
- B) ixtiyoriy xayol;
- V) ijodiy xayol;
- G) tasavvur xayol;
- D) fantastik xayol.

17. Voqelikning kishilar faoliyati uchun bo'ladigan doirasi xayol sifatlaridan qaysi biriga tegishli?

- A) xayolning kengligi;
- B) xayolning mazmundorligi;
- V) xayolning realligi;
- G) xayolning kuchi;
- D) fantaziya.

18. Biror narsaga nisbatan xayolning boyligi xilma-xilligi bilan belgilanadigan xayol sifati.

- A) xayolning kengligi;

- B) xayolning mazmundorligi;
- V) xayolning realligi;
- G) xayolning kuchi;
- D) fantaziya.

19. Kishining ahvoliga asab tizimiga bog'liq bo'lib, ya'ni asab tizimining tipikligiga, charchab qolganligiga sog'lig'iga betobligiga bog'liq bo'ladigan xayol sifati.

- A) xayolning kengligi;
- B) xayolning mazmundorligi;
- V) xayolning realligi;
- G) xayolning kuchi;
- D) fantaziya.

20.voqelikning to'g'ri aks ettiruvchi xayoliy obrazlarning yaratilishi.

- A) xayolning kengligi;
- B) xayolning mazmundorligi;
- V) xayolning realligi;
- G) xayolning kuchi;
- D) fantaziya.

21. Xayolning kuchi nimalarga bog'liq.

- A) ehtiyoj qiziqish istaklarning kuchiga bog'liq bo'ladi;
- B) hissiyotga bog'liq bo'ladi hissiyot qanchalik kuchli bo'lsa, xayol shunchalik erkin jonli bo'ladi;
- V) idrokka bog'liq chunki diqqat bilan idrok qilsak xayol kuchayib ketadi agar diqqatimiz xayolga qaratilsa unda idrok susayadi;
- G) barcha javoblar to'g'ri;
- D) to'g'ri javob berilmagan.

22. Quyidagi javoblardan qaysi birida xayol ta'rifi to'g'ri berilgan?

- A) xayol yoki fantaziya tafakkur kabi faqat insongagina xos bo'lgan bilish jarayonidir;
- B) xayol mehnatning oraliq va oxirgi natijalarini ko'rish imkonini beruvchi bilish jarayonidir;
- V) xayol avval idrok qilingan obrazlar asosida hali idrok qilinmagan narsalarning obrazlarini aks ettirishdir;
- G) xayol noaniq va muammoli vaziyatlarda namoyon bo'luvchi holatlar;
- D) barcha javoblar to'g'ri;

23. Xayolning nerv-fiziologik asosini nima tashkil qiladi?

- A) bosh miyaning po'stida ilgari hosil qilingan vaqtli aloqalarning yana qayta tiklanib bir-biri bilan yangicha qo'shilish jarayoni yotadi;
- B) ikkinchi signallar tizimi;
- V) bilish jarayonlarining uzviy birligi;
- G) barcha javoblar to'g'ri;
- D) to'g'ri javob berilmagan.

24. Xayolning xususiyatlari qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) xayol odamning ehtiyojlari qiziqishlari va o'z oldiga quygan vazifalari bilan bog'liq holda yuzaga keladi;

B) xayol hamisha boy tajriba hamda bilimlarga asoslanadi;

V) xotira tasavvurlarini analiz va sintez qilishdan iborat;

G) xayoliy yo'l bilan yaratilgan obrazlar esa hozirgi va o'tgan zamongagina emas, balki kelajak zamonga odam intilayotgan maqsadga qaratilgan bo'ladi;

D) barcha javoblar to'g'ri.

25. Turli qismlarni bitta qilib yangi obraz yaratish bilan bog'liq xayol jarayoni.

A) giperbolizatsiya;

B) agglyutinatsiya;

V) sxemashtirish;

G) tipiklashtirish;

D) aksentirovka.

26. Obrazilarni kattalashtirish yoki kichiklashtirish shuningdek, alohida qismlarini o'zgartirish bilan bog'liq xayol jarayoni.

A) giperbolizatsiya;

B) agglyutinatsiya;

V) sxemashtirish;

G) tipiklashtirish;

D) aksentirovka.

27. O'xshatish orqali ayrim tasavvurlarni ular orasidagi farqlarni silliqlashdan iborat xayol jarayoni.

A) giperbolizatsiya;

B) agglyutinatsiya;

V) sxemashtirish;

G) tipiklashtirish;

D) aksentirovka.

28. Bir xil obrazlarni qaytarilishi bo'lib, har bir davr uchun tipik bo'lgan obrazlarni yaratishdan iborat xayol jarayoni.

A) giperbolizatsiya;

B) agglyutinatsiya;

V) sxemashtirish;

G) tipiklashtirish;

D) aksentirovka.

29. Ayrim belgilarni ta'kidlash orqali obrazlar yaratishdan iborat xayol jarayoni.

A) giperbolizatsiya;

B) agglyutinatsiya;

V) sxemashtirish;

G) tipiklashtirish;

D) aksentirovka.

30. Xayol tasavvurlarini xotira tasavvurlaridan farqi qaysi qatorda ko'rsatilgan.

A) xayol tasavvurlari ongda tez paydo bo'ladi va barqaror ko'rinishga ega;

B) xotira tasavvurlari doimo tanish narsadek his qilinadi, xayol tasavvurlari esa yangilikni his qilish tuyg'ularini beradi;

V) xayol tasavvurlari insonning qiziqish va ideallariga bog'liq bo'lganligi sababli yangilikni his qilish tuyg'ulari oqibatida vujudga keladi;

G) barcha javoblar to'g'ri;

D) to'g'ri javob berilmagan.

Nazorat savollari

- 1.Xayol tushunchasining mazmunini izohlang?
- 2.Xayol jarayonlarining mohiyatini asoslang?
- 3.Xayol turlarining mazmuni nimalar bilan belgilanadi?
- 4.Xayol sifatlarining mazmuni nimalarda ko'rinadi?
- 5.Xayolning xususiyatlarining mazmuni nimalar bilan belgilanadi?
- 6.Xayol shakllarining mazmunini izohlang?

SHAXSNING HISSIY-IRODAVIY VA MOTIVATSION SOHASI

HISSIYOT

Hissiyot haqida tushuncha

Odam tashqi muhitdagi turli-tuman narsa va hodisalarni idrok qilish ekan, hech vaqt bu narsalarga batamom befarq bo'lmaydi. Odaming aks ettirish jarayoni doimo faol xarakterga egadir. *Aks ettirish jarayoni quyidagilarni qamrab oladi:*

a) *shaxsning ehtiyojni qondirish inkoniyatiga egaligini;*

b) *qondirishga yordam beradigan yoki qarshilik ko'rsatadigan obyektlarga subyekt sifatida qatnashishi;*

v) *uni harakat qildiruvchi bilimga intildiruvchi munosabatlar va hokazo.*

Chunki odam atrofidagi har turli narsalarni idrok qilib aks ettirar ekan, bu narsalarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. *Masalan*, bizga ayrim narsalar yoqsa, ya'ni kayfiyatimizni ko'tarib yuborsa, boshqa bir narsalar yoqmaydi va kayfiyatimizni buzib, dilimizni xira qiladi. Ba'zi bir ovqatni odam juda ham yoqtiradi, boshqa bir ovqatni esa mutlaqo ko'rgisi kelmaydi yoki ayrim odamlar bizga xush keladi yoki boshqa bir odamlar esa noxush keladi. Umuman, odam atrofidagi hamma narsalarga nisbatan munosabatda bo'ladi va uning munosabatlari ham aks ettiriladi.

Kishilar idrok qilayotgan, ko'rayotgan, eshitayotgan, bajarayotgan, o'ylayotgan, orzu qiladigan narsalarga befarq bo'lmaydilar. Bir xil predmetlar, shaxslar, xarakterlar, voqealar bizni quvontiradi, boshqalari xafa qiladi yana boshqalari g'azab, nafratimizni uyg'otadi. Biz xavf ostida qolganimizda qo'rquvni his qilamiz, dushman ustidan g'alaba qozonish yoki qiyinchilikni yengish zavq uyg'otadi.

Hissiyot tushunchasiga adabiyotlarda turlicha ta'riflar uchraydi jumladan, A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" darsligida *hissiyot* – kishining o'z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg'ul bo'layotganiga nisbatan o'zicha turli xil shaklda bildiradigan kichik munosabatdir. M.Vohidovning "Bolalar psixologiyasi" o'quv qo'llanmasida *hissiyot* deb – tashqi olamdagi narsa va hodisalarga bo'lgan ichki kechinmalarimizning ongimizda aks ettirilishga aytiladi. Q.Turg'unov

muallifligidagi lug'atda *hissiyot*-shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, kishilarga hamda o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida kelib chiqadigan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalardan iborat. Professor E.G'oziyev muallifligidagi "Umumiy psixologiya" darsligida *hissiyot* odamda, tirik mavjudotlar miyasida, ya'ni shaxslarning ehtiyojlarini qondiruvchi va unga monelik qiluvchi obyektlarga nisbatan uning munosabatlarini aks ettirish ma'nosida qo'llaniladi.

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, *hissiyot* bizning tuyg'ularimizning o'ziga xos aks ettirish jarayoni bo'lib, bunda narsa va hodisalarni aks ettirish jarayonida bizda tug'iladigan ichki kechinmalar va munosabatlar aks ettiriladi. Demak, hissiyotlar o'z-o'zidan yuzaga kelmasdan, tashqi olamdagi narsa va hodisalarning ta'siri bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi.

Adabiyotlarda hissiyot bilan birga emotsiya tushunchasi ham keng doirada qo'llaniladi. Aynan *emotsiya* tushunchasining mazmuni nimadan iborat va hissiyot tushunchasi bilan o'zaro bog'liqligi qanday degan savol tug'iladi? Shunga muvofiq emotsiya tushunchasining mazmun mohiyatini yoritadigan bo'lsak; jumladan professor E.G'oziyevning "Umumiy psixologiya" darsligida *emotsiya*-odatda tashqi alomatlarini yaqqol namoyon bo'ladigan his-tuyg'ularni, ichki kechinmalarni ifodalashidan iborat psixik jarayonni yuzaga kelishining aniq shaklidir, deb ta'riflanadi.

Emotsiya – shaxsning voqelikka o'z munosabatini his qilishidan kelib chiqadigan, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bog'liq bo'lgan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalaridir. Keltirilgan ta'riflardan ko'rinadiki, *hissiyot* tushunchasi emotsiyaga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, shaxsning kundalik hayoti, turmush tarzidagi barcha jabhalarni qamrab oladi.

Hissiyotlar o'zining yuzaga kelishi nuqtai nazaridan odamning ehtiyojlari, qiziqishlari va intilishlari bilan bog'liq bo'ladi. *Masalan*, odamning organik ehtiyojlarini qondirishi bilan bog'liq bo'lgan hissiyotlar odamda rohatlanish, qanoatlanish tuyg'usini yuzaga keltiradi. Organik hissiyotlarni qondira olmaslik odamning ruhini tushirib, kayfiyatini buzib, azoblanish, toqatsizlanish hissigacha sabab bo'ladi.

Odamning hissiyotlari uning mazmuni hamda shakllari, ijtimoiy- tarixiy sharoit bilan bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy tarixiy taraqqiyot davrida odamning ehtiyojlari o'zgarib boradi. Natijada odamda borgan sari yangi, yangi hissiyotlar, chunonchi, ma'naviy, intellektual va estetik hissiyotlar paydo bo'ladi.

Hissiyotlar ham boshqa bilish jarayonlari kabi odamning faoliyatlari davomida namoyon bo'ladi. *Masalan*, mehnatsevarlik hissini yuzaga keltirish uchun ma'lum muddat davomida ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanish kerak. U yoki bu faoliyat davrida yuzaga kelgan hissiyot ana shu faoliyatning o'ziga ta'sir qilib, uni o'zgartiradi. *Masalan*, hohlamasdan o'zini majbur qilib ishlayotgan odam bilan o'zi hohlab sitqidildan ishlayotgan odam ishining unumdorligi o'rtasida juda katta farq mavjud. Odamning kayfiyati yaxshi xursand, ruhi tetik bo'lganda ishi ham barakali bo'ladi, aksincha odamning dili g'am, qandaydir tashvishli yoki g'amgin bo'lganda qo'li ishga bormaydi. Ana shu jihatdan olganda, hissiyotning inson hayotidagi roli juda kattadir. Hissiyot boshqa bilish jarayonlariga ham ta'sir qiladi. *Masalan*,

odamning ruhi tetik, xursand bo'lgan paytda, idroki hali juda jonli, esda olib qolishi, tuyg'ularga boy, tafakkuri o'tkir, nutqi burro bo'ladi.

Hissiyot odamda sodir bo'layotgan hodisa va narsalardan shaxs sifatidagi odam uchun ahamiyatli bo'lganlari haqida darak beruvchi signallar tizimi hisoblanadi. Mazkur holda sezgi a'zolariga ta'sir qiluvchi cheksiz miqdordagi qo'zg'ovchilardan aniq bo'lib ajraladi, ba'zilar bir-birlari bilan qo'shib ketadi va paydo bo'lgan hissiyot bilan birlashib ketadi. Natijada taassurot uyg'otib, biror hissiy nom bilan ifodalangan xotira obrazlari tariqasida saqlanib qoladi. Buni fiziologik jihatdan shunday tushuntirish mumkin: ma'lum qo'zg'atuvchilar tirik mavjudotlar uchun xotirjamlik haqida darak beruvchiga aylanadi. Hissiy kechinmalar esa insonning shaxsiy tajribasida tarkib topadigan refleklar tizimini mustahkamlash sifatida namoyon bo'ladi. Hissiyotning mana shu darak beruvchilik vazifasi psixologiyada hissiyotning *impressiv tomoni* deb ataladi. *Impressiv* so'zi lotincha taassurot degan ma'noni anglatadi.

I.P.Pavlov tirik mavjudotlarning atrofimizdagi muhitga moslashuvida hosil qiladigan buziladigan dinamik stereotiplar orqali biror hissiyot va emotsional kechinmalarning ijobiy va salbiy sifatlarini tushuntirib beradi.

Dinamik stereotip deganda tashqi qaytarilish natijasida hosil qilingan shartli refleklar, nerv bog'lanishlarining barqaror tizimi tushuniladi. Har turli qiyinchiliklar va qarshiliklarga duch kelishi natijasida dinamik stereotiplarning "o'zgarishi" salbiy emotsional holatni yuzaga keltiradi. Hissiyot bu uning kechirilishining turli shakllari faqat darak vazifasini emas, balki boshqaruvchilik funksiyasini ham bajaradi. Emotsiya harakatlari juda ko'p tana o'zgarishlar ifodalanadi. Odam organizmidagi o'zgarishlar kechirilayotgan hissiyotning obyektiv ko'rsatkichi hisoblanadi. Moslashish xarakteriga oid bo'lgan, ya'ni ovoznig o'zgarishi, mimika, imo-ishora, organizmda sodir bo'ladigan jarayonning qayta o'zgarishidan iborat ixtiyorsiz va ongli harakatlar psixologiyada emotsional harakatlarning *ekspressiv tomoni* deb ataladi. Hissiyotlar odatda juft-juft bo'lib uchraydi. *Masalan*, yoqimli- yoqimsiz, xush-noxush, xursand-xafa, g'azab-muhabbat, nafrat kabi ana shunday hissiyotlar subyektiv xarakterga ega bo'ladilar, lekin ularning tashqi ifodasi ham bo'ladi. *Masalan*, hushchaqchaq odam bilan g'amgin odamning yuz ifodasini ko'z oldimizga keltirib ko'rish mumkin. Aynan mazkur jarayon psixologiyada *ambivalentlik yoki ikki taraflamalik* deb ataladi. *Ambivalentlik* – lotincha har tomonlama kuchga ega ma'nosini anglatib kishining bir obyektning o'ziga nisbatan bir vaqtning o'zida paydo bo'ladigan bir-biriga qarama – qarshi emotsional irodaviy holatdir.

Hissiyotda ambivalentlik bu rohatlanish va azoblanishni birga qo'shib va biri ikkinchisiga o'tib ketmaydigan emas, balki bunda birga bo'lish kechiriladigan hissiyotning zarur xarakterli sifatlaridan birini tashkil qiladi. *Masalan*, rashk hissida muhabbat va nafrat.

Hissiyotning nerv-fiziologik asoslari

Hissiyot boshqa hamma psixik jarayonlar kabi bosh miya po'sti qismining faoliyati bilan bog'liqdir. Bosh miya hissiyotlarning kuchini va barqarorligini idora qilib turadi. Hissiyotlar boshqa bilish jarayonlaridan farqli bosh miya po'stining faoliyatidan tashqari organizmning ichki a'zolari faoliyati bilan ham bog'liqdir,

boshqacha qilib aytganda hissiyotlar vegetativ nerv tizimining faoliyati bilan ham bog'liqdir. Chunonchi, odam qattiq uyalgan paytida qizarib ketadi, qattiq qo'rqqan paytida esa rangi o'chib, qaltirab ketadi, hattoki, odamning ovozi ham o'zgarish paydo bo'ladi. Ana shunday hissiy holat yuz bergan paytda odamning yuragi tez ura boshlaydi, nafas olishi ham tezlashadi.

Demak, odam ma'lum hissiy holatni boshdan kechirayotgan paytda uning qon aylanish tizimi, nafas olish organlari nutq apparatlari ichki sekresiya bezlari ham qatnashadi. *Masalan*, materialni yaxshi bilmaydigan talaba imtihon topshirayotganda terlab ketadi, tomog'iga nimadir tiqilib, gapini gapira olmay qoladi. Odamda qattiq qo'rquish paytida "Yuragi orqaga tortib ketdi", "Sovuq ter bosib ketdi" kabi iboralarning ishlatilishi hissiyot paytida odamning ichki a'zolarining ishtirok etishidan dalolat beradi.

Juda ko'p hissiy holatlar bosh miyaning yaqin po'stloq osti qismlarining oralig'i bilan ham bog'liqdir. *Masalan*, ko'rish tepaligi deb ataluvchi qism ayrim hislamli ifodalaydigan ixtiyorsiz harakatlarning markazi hisoblanadi.

Odanda uchraydigan yuksak ma'naviy hissiyotlar ham o'zining nerv-fiziologik asosiga ega bo'lishi kerak (chunonchi intellektual, ahloqiy, estetik hissiyotlar). Bu jihatdan akademik **I.P.Pavlovning** dinamik streotip haqidagi ta'limoti juda katta ahamiyatga egadir. Bu haqda akademik **I.P.Pavlov** shunday deb yozgan edi: *"Menimcha, ko'pincha odatdagi turmush tartibining o'zgartirilgan paytlarida odat bo'lib, qolgan birorta mashg'ulot yaqin kishidan judo bo'lganda, aqliy iztirob chog'ida kechiriladigan og'ir hissiyotlarning fiziologik asosi xuddi eski dinamik streotipning o'zgarishi, uning yo'qolishi va yangi dinamik streotipning qat'iylik bilan hosil bo'lishidan iborat bo'lsa kerak"*.


Ayrim murakkab hissiyotlarning asosida dinamik streotipning yotishi yaqqol ko'rinadi. *Masalan*, estetik hissiyotni oladigan bo'lsak, biron yoqimli ko'ydan lazzatlanish, yoki biron mashhur rassomning ishlagan ajoyib suratlarini tomosha qilib, rohatlanish estetik hissiyot hisoblanadi. Agar bu hissiyotlarning nerv-fiziologik asoslarini tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagilarni ko'rishimiz mumkin. *Masalan*, bizga juda yoqadigan kuy boshqa millat odamiga yoqmasligi mumkin. Bunda ajablanishga hech qanday o'rin yo'q. Biz yoshlikdan boshlab mazkur kuyni bir necha yuz marotalab eshitib borishimiz natijasida ana shu kuyga nisbatan deyarli buzib bo'lmaydigan nihoyatda murakkab dinamik streotip yuzaga keladi. Ana shuning uchun ayrim kuylar bizga yoqadi, ayrimlari esa yoqmaydi. Suratlar masalasiga kelganda shuni aytish kerakki, qadimgi klassik asarlar ularning ishlanish uslubini realligi bizni hayratda qoldirib zavq tug'diradi. Aksincha, hozirgi rassomlar tomonidan ishlangan rasmlar odamda qandaydir noxush hissiyotni tug'diradi. Demak, uzoq yillar davomida yuzaga keladigan dinamik streotiplar ayrim murakkab hisni tashkil qiladi.

Shunday qilib, hissiyot vegetativ nerv tizimi orqali boshqariladigan ichki a'zo faoliyati bilan bog'liq bo'lsa ham bari bir bosh miya po'sti orqali idora qilinadi. Chunki akademik **I.V.Pavlovning** fikricha, odamning butun a'zoyi badanida bo'ladigan har qanday hodisalarning hammasini bosh miya po'sti qismidagi neyronlar idora qiladi. Ana shu jihatdan olganda hissiyotning nerv-fiziologik asosi bosh miya po'sti bilan bog'liq.

Inson va hayvonlardagi emotsiyalar

Odam his-tuyg'ulari bilan hayvon hissiyotlari o'rtasida juda katta farq bo'ladi. Odamda juda ko'p miqdorda his-tuyg'ular borki, bunday hissiyotlar hayvonlarda uchramaydi. Shuning uchun ham odam ham hayvon uchun umumiy bo'lgan g'azablanish, qo'rqish, jinsiy hissiyot, qiziquvchanlik, xursandchilik, g'amginlik emotsiyalari hayvonlarda sifat jihatidan farq qiladi. Shu o'rinda **S.Shexterni**ng emotsional faktorlarning paydo bo'lishi kognitiv-fiziologik konsepsiyasini keltirib o'tish joiz.

Insoniy emotsiyalar "insoniylashtirilgan" ijtimoiy sharoit bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Emotsiyalarning "insoniylashuvi" shunday namoyon bo'ladiki, ichdan kechadigan hissiyotlar mazmuni, juda boy va murakkabdir. Odamlar bilan mehnat, siyosat, madaniyati, oilaviy hayot o'rtasida paydo bo'lgan munosabatlarning ko'pligi, sof insoniy hissiyotlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Ular bolalarga odob bilan javob berishni, suhbatdoshiga ochiq ko'ngillik bilan jilmayish, keksalar va nogironlarga hurmat bilan joy berishni o'rgatdi. Odam o'z hissiyotlarini o'zi boshqaradi. Ba'zi kishilar emotsiyalarini yashirish niyatida qarama-qarshi emotsiyalarni ifodalaydilar. *Masalan*, qayg'urish yoki qattiq og'riq paytida kulimsirash, kulgilari kelgan paytda yuzlarini jiddiy, o'ychan holga keltira oladilar. Lekin o'zining imo- ishoralari va mimikalarini boshqara olishga qaraganda nafas olish, qon aylanish va ovqat hazm qilish tizimidagi o'zgarishlarni ushlab qolish juda qiyin bo'ladi. Odam hayajonlangan paytda bir maromda nafas ola biladi, ko'z yoshlarini ushlab qola oladi, lekin rangini o'zgartirish yoki qizartirishga qodir emas. Ammo emotsiyalarni paydo qiluvchi narsalardan o'zini chalg'itishi mumkin.



Hissiy holatlarning ifodalanishi

Hissiy holatlarning ifodalanishi *birinchidan*, ifodali harakatlar (yuz ifodasi, qo'l, oyoq harakatlari), *ikkinchidan* organizmdagi turli hodisalarni, ya'ni ichki a'zolar faoliyatining va holatining o'zgarishida, *uchinchidan* tabiatda, ya'ni organizm qon tarkibidagi va boshqa suyuqliklardagi kimyoviy o'zgarishlarni, shuning bilan birga modda almashinuvida bo'ladigan o'zgarishlarni o'z tarkibiga oladi.

His-tuyg'ularning tashqi ifodasiga yuz ifodasi, imo-ishora, vajohat va qaddu-qomatning o'zgarishi, ayiruv, tashqi chiqaruv bezlarining faoliyati (so'lak, ter ajralishi) va ayrim harakatlar xususiyatlaridagi o'zgarishlarni kiritish mumkin. Bunga nutqning faol o'zgarishlari, "ovoz mimikasi" va gaplar tarkibining sintaksis o'zgarishi, "tutilmasdan gapirish", yoki alohida "silliqlik" hamda "ifodalilik"ning yuzaga kelishi nihoyat hissiyot o'zining to'la qisman ifodasini topadigan xatti-harakatlarga taalluqlidir. Kishining emotsional kechinmalari vaqtida nutqning tezligi o'zgaradi. Ko'pincha nutqning sintaksis tuzilishi buziladi, tezligi va ahamiyati o'zgaradi. O'tkazilgan tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, g'amginlik va ma'yuslik hislarini ifodalovchi kishining ovozi beixtiyor pasayib ketadi, so'zlashgan kishining tovushi ham bo'linib-bo'linib chiqadi.

Hislarni kechirish shakllari

Hissiyot kechinmalari turli holatlarda turlicha tezlik bilan paydo bo'ladi. Ba'zan hissiyot to'satdan, darhol paydo bo'ladi. *Masalan*, kishi birdan xursand bo'lib ketadi, darhol g'azabga keladi, achchiqlanadi va hokoza. Lekin ba'zan shu hissiyotlar o'zi dafa'tan qo'zg'almaydi, balki asta-sekin tug'ila boshlaydi. Shunday hissiy kechinmalarning qay darajada tez paydo bo'lmasligini belgilash qiyin yoki butunlay bilib bo'lmaydi. Emotsional kechinmalarning kuchi turlicha bo'lishi mumkin. Hissiyotlarni kuchi avvalo yoqimli va yoqimsiz tuyg'ularning naqadar kuchli bo'lishidir. Hissiyotning kuchi shu hissiyotni shaxsning naqadar ehtiros bilan kechirilganligi bilan belgilanadi.

Hissiyotning qo'zg'alish xususiyatlari paydo bo'lish yo'lini kuchi va barqarorligi bir qancha sabablarga bog'liqdir. Atrof-muhitning holati shu paytdagi ehtiyojlarning kuchi shu xislat tuzilishiga sabab bo'lgan hodisalarning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatini anglashi, odamning dunyoqarashi, bu xislat qanday vaziyatda paydo bo'lishi va o'tmishi hamda shaxsning individual xususiyatlariga bog'liqdir. Hislarning ayni vaqtda naqadar tez kuchli va barqaror bo'lishiga ko'ra, his-tuyg'ularning quyidagi turlari farqlanadi: hissiy ton, emotsiyalar, affekt, stress, kayfiyat va boshqalar.

Hissiy ton. Hissiyot ko'pincha faqat hissiy tus sifatidagi ruhiy jarayonlarning o'ziga xos tomoni tariqasida namoyon bo'ladi. Yoqimli suhbatdosh, kulguli voqea, yoqimsiz hid, zerikarli kitob, ko'ngildagi mashg'ulot, hushchaqchaq sayohat, og'ir ish kabilar. Hissiy ton tushunchasiga ko'pgina adabiyotlarda turlicha ta'riflar uchraydi. Jumladan, A.V.Petrovskiyning "Umumiy psixologiya" darsligida *hissiy ton* sezgi yoki idrok jarayonida shaxsning idrok qilingan narsa va hodisaga munosabatini ifodalovchi maxsus hissiy bo'yoq yoqimli yoki yoqimsiz idrok bilan bog'langan hissiyot, deb ta'riflanadi. Professor E.G'oziyev tomonidan *hissiy ton-u* yoki bu hissiyotning inson tomonidan bevosita kechirilishi (kechishi) jarayonidan iboratdir. *Q.Turg'unov* lug'atida *hissiy ton* – hissiyot sezgi yoki idrok jarayonida shaxsning idrok qilingan narsaga hodisaga munosabatini ifodalovchi maxsus emotsional bo'yoq yoqimli va yoqimsiz kechiama bevosita sezgi yoki idrok bilan bog'langan hissiyot. *Masalan*, og'riq bir qator qo'zg'ovchilar yaqqol ifodalangan yoqimsiz hissiy ton bilan ajralib turadi.

Ko'pincha emotsiyalar o'zining ta'sirchanligi bilan bir-biridan ajralib turishiga qaramay, bunday sifatni hissiy holatlar *stenik* (yunoncha so'zdan olingan bo'lib, kuch degan ma'noni anglatadi) xususiyat deyiladi. Bunda emotsiyalar dadil xatti-harakatlarga, mantiqiy mulohazalarga, nisbiy izlanishlarga kuch quvvat, qanoat bag'ishlaydi. *Masalan*, xursandchilikdan shaxs "parvoz qiladi", "yulduzni narvonsiz oladi", kimlargadir xolis yordam qilishga shoshadi. Faollik qilib, tinchimaslik uning sifatiga aylanadi. Q.Turg'unov lug'atida *stenik hisga* quyidagi ta'riflar uchraydi: *stenik hislar* – shaxsning hayot faoliyatini kuch-g'ayratining orttiradigan barcha bilish jarayonlarini faollashtiradigan ijobiy hissiyot turi. Aksariyat hollarda xushxabar, muvaffaqiyat shaxsda stenik xususiyatli emotsiyalarni vujudga keltiradi.

Ba'zi hollarda emotsiyalar o'zining sustligi, motorli, kuchsizligi bilan tavsiflanadi. Bunday hissiy holat *astenik* (yunoncha so'zdan olingan bo'lib, kuchsizlik, zaiflik ma'nosini bildiradi) deb atashadi. Bunday hissiyot insonni bo'shashtiradi, uni xayolga cho'mdiradi, xayolparast qilib qo'yadi. Shu sababdan favqulotda shaxsdagi befoyda emotsional kechinmaga, uyalish, vijdon azobi, andisha esa qo'rqoqlikka aylanib qolishi xavfi kuchli.

Psixik jarayonlardan ayniqsa, emotsiya o'zining aniq tashqi ifodasiga ega bo'lishi bilan tavsiflanadi. Emotsional o'zgarishlar organizmning tashqi o'zgarishlarida shu qadar yaqqol ifodalanadiki, biz odamni tashqi ko'rinishiga qarab, unda qanday xususiyatlar yuz berayotganini, uning xursand yoki xafaligini, g'azablanganligini yoxud biror narsadan qo'rqib ketganini va shu kabi his-tuyg'ularning ko'pini aytib bera olamiz. Hissiyotlarning tashqi alomatlarini *ifodali harakatlarda* deb ataladi.

Emotsiyalarning tashqi ifodasi turli ko'rinishlarda ro'y beradiki, unda asosiy o'rinni ko'rgazmali jihatlar asosiy o'rin egallaydi:

Birinchidan, emotsiyalar nafas olish a'zolarining ishlarida o'zgarish yasaydi. *Masalan*, yoqimli his-tuyg'ular ishga tushganda nafas olishning tezligi va amplitudasi ortadi, yoqimsiz his-tuyg'ular ustun kelganda kamayadi, qo'zg'algan vaqtda nafas harakatlari tezlashadi hamda chuqurlashadi, zo'r berish vaqtda-sekinlashadi va yuzakilashadi, hayajon vaqtda tezlashadi, hamda kuchsizlashadi, kutilmagan holatda, hayron qolishda zudlik bilan tezlashadi, qo'rquvda sekinlashadi va hokazolar.

Turli emotsional holatlarda nafas olishning o'zgarishi

a) xursandlikda nafas olish bir minutiga 17 marta;

b) faol xafalikda 9 marta;

v) qo'rqishda 64 marta;

d) jahl chiqqanda 40 marta.

Ikkinchidan, emotsiya imo – ishoralarda, mimikada, ya'ni kishining yuzida bo'ladigan harakatlarda hamda butun badanning ma'nodor harakatlarida ko'rinadi.

Uchinchidan, gumoral harakatlardagi, ya'ni organizmning qon tarkibidagi va boshqa suyuqliklardagi kimyoviy o'zgarishlarni va shuning bilan birga modda almashishida bo'ladigan yanada chuqur o'zgarishlarni o'z tarkibiga oladi.

Demak, emotsiyalarning tashqi ifodasiga mimika, imo-ishora, aft-bashara va qad-qomatning o'zgarishlari, ayrim tashqi sekresiya bezlarining faoliyati yosh so'lak,

ter ajralishi hamda ayrim harakatlarning xususiyatlaridagi o'zgarishlar, ya'ni ularning tezligi, kuchi, koordinatsiyasi va hokazolar kiradi.

Emotsiyalarning eng aniq va yaqqol ko'rinishlaridan biri kulgi bilan yig'idir.

L.N.Tolstoy o'z asarlarida odamning ruhiy holatini ifodalovchi nigohlarning 85 xilini va kulishning 97 xilini tasvir etgan. "Har xil sabab bilan yig'lagan paytda odamning boshi va og'zi har xil qiyofada o'zgaradi" - degan edi. **Leonardo da Vinchi**.

Rus psixologi **P.M.Yakobson** tomonidan ishlangan rasmlardan ko'rinish turibdiki, odamning aftidagi qiyofa asosan lablar, qosh va ko'z o'zgarishlarining bir-biriga nisbatan turlicha holatga, shuningdek, ko'zning qanchalik chaqnaq turishiga bog'liqdir. Ko'zning qanchalik chaqnashi ko'z yoshining miqdori, ko'z shilliq pardasidagi tomirlarning kattalashuvi bilan belgilanadi. Maskaning tagida ko'rinish turgan ko'z o'zining ifodasini yo'qotgan bo'ladi. Ko'z, lab, qovoq, qoshning har xil holati, hatto odam chehrasini ham turli qiyofaga kiritadi.

Odam hissiyotlarini bildirishning eng nozigi va eng kuchlisi san'at, xususan, muzika bilan lirik she'rlardir, ularni tom ma'noda hissiyotning tili deyish mumkin.

Odam o'zini va gavda harakatlarini, shuningdek, tovushni ataylab chiroyli qilib ko'rsatishi mumkin. U garchi "muayyan hissiyotlarni o'zi kechirmayotgan bo'lsa ham o'sha hissiyotlarni ifodalaydigan harakatlar qila oladi".

Har bir kishi ham o'z hissiyotlarining tashqi ifodalarini ma'lum darajada o'zgartirishi mumkin. Odamlarni kundalik muomalalarida badanning xilma-xil ifodali harakatlari, imo-ishoralar xususan, ko'z bilan qilinadigan imo-ishoralar, tovushning ohangi, g'amginligi muhim ahamiyatga ega. Shunchaki bir xo'mrayish, salgina jilmayib kulish, yelka qisish kabi ifodali harakatlar kishining maqsadini anglatadi.

Kayfiyat tushunchasiga psixologik manbalarda turli nuqtai nazardan yondashilgan taqdirda ham mazmunan ular bir xillikni anglatadi. Jumladan **K.Turg'unov** lug'atida shaxsning kuchsiz yoki o'rtacha kuchga ega bo'lgan nisbatan barqaror umumiy emotsional holati, **A.V.Petrovskiyning** "Umumiy psixologiya" darsligida **kayfiyatlar** ancha vaqt davomida kishining butun xatti-harakatiga tus berib turadigan umumiy hissiy holatini ifoda etadi, deb ta'kidlanadi. Professor **E.G'oziyev** fikricha, **kayfiyat** shaxsning ruhiy jarayonlariga muayyan vaqt davomida tus berib turuvchi emotsional holatdir.

Kayfiyat, ya'ni odamning xursand yoki g'amgin kayfiyati hech vaqt sababsiz maydonga kelmaydi. Odam bajarayotgan biror ishning mavaffaqiyatli tugashi yoki imtihondan yaxshi o'tish, yaxshi tetik kayfiyatni yuzaga keltiradi. Qilayotgan ishingizni oldinga yurmasligi yoki ishga berilgan yomon baho odamda ma'yuslik, kuchiga ishonmaslik kayfiyatini tug'diradi.

Kayfiyatning xush yoki noxush bo'lishi, birinchi navbatda odamning sihat-salomatligi bilan ham bog'liqdir. *Masalan*, ichimiz qattiq og'rib turgan vaqtda kayfiyat chog' bo'lmaydi.

Odatda odamda kayfiyatning u yoki bu turi, ya'ni xushchaqchqlik xursandlik yoki g'amginlik, ma'yuslik, tushkunlik ustun bo'lishi mumkin. Ana shunga qarab odamlar xushchaqchq, g'amgin, sertashvish deb turli guruhlarga bo'linadilar. Lekin shuni aytish kerakki, odam o'z kayfiyatining quli bo'lib, qolmay, uni boshqara bilishi

kerak. O'z kayfiyatini idora qila biladigan odamlarning har doim ruhi tetik, kayfiyati chog' va ishida unum bo'ladi. Kayfiyatni idora qila olmaydigan odamlar bilan yashash juda qiyin bo'ladi. Bunday odamlar arzimagan narsadan kayfiyatini buzib, to'msayib yuradigan yoki arazlab yotadigan odamlar bo'ladi. Bunday odamlarni odatda "sirkasi suv ko'tarmaydigan" yoki "jahli burnini uchida turadigan" odamlar deyishadi. Agar odam har doim o'ylab, aql bilan ish tutsa, kayfiyatini bo'lgan bo'lmagan narsalarga buzavermaydi.

Inson kayfiyatini paydo bo'lishiga va o'zgarishiga ta'sir qiluvchi quyidagi ikkita omillarni tahlil qilish lozim: Ulardan bittasi *obyektiv va subyektiv xususiyatli vaziyatdir*: a) tabiiy omillarga taalluqli bo'lgan vaziyat (havoning sovuqligi yoki issiqligi); b) shaxslararo munosabatning noqulayligi va boshqalar. *Ikkinchisini* bir manba sifatida talqin qilish mumkin, bu-subyektiv, shart-sharoitlardir. *Masalan*, mehnat va o'qish faoliyatiga kerakli vositalarning mavjudligi. Ikkinchi subyektiv munosabatlar, iliq psixologik muhit, muloqotmandlik maromi, rag'batlantirish, muloqot o'rnatish uslubi, shaxsiyatiga tegmaslik, teng xuquqlilik, shaxsning psixologik xususiyatlarini hisobga olish va hokozo.

Affekt tushunchasiga berilgan ta'riflarga asosiy e'tiborni qaratadigan bo'lsak bu ham shaxsning kuchli emotsional holatlari bilan bog'liqdir. **K.Turg'unovning** lug'atida aytilishicha, *affekt* tez va kuchli paydo bo'lib, shiddat bilan o'tadigan qisqa muddatli emotsional holatdir. **A.V.Petrovskiyning** "Umumiy psixologiya" darsligida *affekt* haddan ziyod tez kechishi bilan miyada paydo bo'luvchi, shaxsni tez qamrab oluvchi, jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltiruvchi jarayonlar ustidan irodaviy nazorat buzilishiga yetaklovchi organizm a'zolari funksiyasini izdan chiqaruvchi emotsional jarayonlarga aytiladi. **M.Vohidov** darsligida *affekt* to'satdan tez paydo bo'lib, tez orada o'tib ketadigan nihoyatda kuchli hissiy holat sifatida e'tirof etiladi.

Affekt lotincha so'z bo'lib, ruhiy hayajon ehtiros degan ma'noni anglatadi. Affektlar ko'pincha to'satdan paydo bo'ladi va ba'zan bir necha minut davom etadi. Affekt holatida kishini ongini tasavvur qilish, fikr qilish qobiliyati torayadi, susayib qoladi. Affektlar vaqtda odamning harakatlari kutilmagan tarzda portlash singari birdaniga boshlanib ketadi. Ba'zan affektlar tormozlanish holati tarzida namoyon bo'ladi va bunday holatda organizm bo'shshib, harakatsiz bo'lib va shalvirab qoladi. Bunday holat ko'pincha odam birdaniga qo'rqqanida, to'satdan quvonganida va shu kabi holatlarda o'zini yo'qotib qo'yish ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Affekt holatini boshlanishida shaxs insoniy qadriyatlarining barchasidan uzoqlashib, o'z hissiyotining oqibati to'g'risida ham o'ylamaydi, hatto tana o'zgarishlari, ifodali harakatlar bilinmay boradi. Kuchli zo'riqish oqibatida mayda kuchsiz harakatlar barham topadi. Tormozlanish miya yarim sharlari po'stini to'liq egallay boshlaydi, qo'zg'alish po'stloq osti nerv tugunlaridan oraliq miyada avj oladi, xolos. Buning natijasida shaxs hissiy kechinmasiga (dahshat, g'azab, nafratlanish, umidsizlik va hokazolar) nisbatan o'zida kuchli hohish sezadi.

Ma'lumotlarning ko'rsatishicha ko'pincha hissiyotlar affektiv shaklda o'tishi tajribalarda sinab ko'rilgan. *Jumladan*: 1) *teatr tomoshabinlarida*; 2) *tantana nashidasini surayotgan olomonlarda*; 3) *jes-xushini yo'qotgan telbasimon odamlarda*; 4) *ilmiy kashfiyot lahasida*; 5) *tasodifiy qizg'in uchrashuvlarda, jo'shqin shodliklarda mujassamlashadi*.

Affektlar vujudga kelishining dastlabki bosqichida har bir shaxs o'zini o'zi tushunish, o'zini qo'lga olish, uddalash qurbiga ega bo'ladi. Ularning keyingi bosqichlarida irodaviy nazorat yo'qotiladi, irodasiz harakatlar amalga oshiriladi, o'ylamasdan xatti-harakat qilinadi. Affektiv holatlar mas'uliyatsizlik, axloqsizlik, mastlik alomatida sodir bo'ladi, lekin shaxs har bir harakati uchun javobgardir, chunki u aql-zakovatli insondir. Affektlar o'tib bo'lgandan keyin shaxsning ruhiyatida osoyishtalik, charchash holati hukm suradi. Ba'zi hollarda holsizlanish, barcha narsalarga loqayd munosabat, harakatsizlik, faollikning barham topishi, hatto uyquga moyillik yuzaga keladi. Shuni ham unutmash kerakki, affektiv qo'zg'alish muayyan davrgacha davom etishi, ba'zan o'qtin-o'qtin kuchayishi yoki susayishi sodir bo'lib turishi mumkin.

Stress tushunchasining mazmuni mohiyati borasida qator ta'riflar uchraydi. Jumladan, A.V.Petrovskiy tomonidan *stress*–affektiv holatga yaqin turadigan, lekin boshdan kechirilishining davomiyligiga ko'ra kayfiyatlarga yaqin bo'lgan his-tuyg'ularni boshdan kechirilishining alohida shaklidir, deb ta'rif beriladi. Profssor E.G'oziyevning "Umumiy psixologiya" kitobida yozilishicha, *stress*-og'ir jismoniy va murakkab aqliy yuklamalar ishlarning me'yoridan oshib, ketib xavfli vaziyatlar tug'ilganida, zaruriy chora-tadbirlarni zudlik bilan topishga intilganda vujudga keladigan hissiy zo'riqishlar sifatida ko'rsatiladi.

Stress – inson organizmini haddan tashqari zo'riqish natijasida paydo bo'ladigan tanglik jarayonidir.

Stress ko'rinishiga qarab ikki turga ajratiladi:

1.Konstruktiv – biz turidagi (ko'pchilik orasida);

2.Destruktiv – men turidagi (yakka shaxs o'zi bilan) kechadigan jarayon.

Stress holatini oddiy tilda aytadigan bo'lsak, bu insonlarda kechadigan tushkunlik holatidir. Insonning aqliy jihatlar va fiziologik tizimida stress holati bo'lmasligi mumkin emas. Bular ko'p hollarda muloqotlarda va boshqa ijtimoiy jarayonlarda yuz beradi. Stressni *fiziologik va psixologik turlari* mavjud. *Fiziologik stress* – bu o'ta jismoniy zo'riqish, biror og'riq, qo'rquv, kasalliklar natijasida vujudga keladi. Fiziologik stress organizm o'ta zo'riqishi, temperaturaning baland yoki past bo'lishi, nafas olishning qiyinlashishi bilan bog'liq bo'ladi. *Masalan*, ba'zida odam organizmida qattiq og'riq bo'lganda, og'riq nimadan kelib chiqqanligini tushunib yeta olmaslik oqibatida odamda qo'rquv, xavotirlanish paydo bo'ladi va stress holatiga olib keladi. *Psixologik stress*-odamning ruhiy holatiga voqealarni ta'siri tufayli paydo bo'ladigan stress. Psixologik stress *informatson va emotional stress* turlariga ajraladi.

Informatson stress axborotlarni haddan tashqari ko'p qabul qilish vazifalarni bajarishda bir qancha yechimlar bo'lsa-da, aniq ulardan qaysi birini tanlash yuqori darajadagi shiddat bilan qaror qabul qilishdagi ikkilanishi natijasida kelib chiqishi mumkin. Axborotlarni haddan tashqari ko'p qabul qilish oqibatida odam psixikasi zo'riqadi (charchaydi) va buyrak usti bezlaridan stressli garmonlar ko'p ishlab chiqara boshlaydi. Haddan tashqari zo'riqish natijasida miyada tormozlanish yuz beradi va oqibatda tanglikka olib kelgan axborotgina miyada aks etaveradi. Miya boshqa axborotlarni tashqi ta'sirni qabul qila olmay qoladi. Bu ba'zi hollarda salbiy yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Miyada stressga olib kelgan axborot

tormozlanib, saqlanib qolganda tanglik holatining yuqori nuqtasiga chiqqanda tanglik holatidan chiqib ketolmay o'z joniga qasd qilishgacha olib kelishi mumkin.

Emotsional stress-ta'qiq qilish, falokat, hayotiy o'zgarishlar (oilaviy mojarolar, to'satdan ishdan bo'shatish yaqin kishisini yo'qotish, uzoq muddatli sevgidan qutila olmaslik sababli, xavf ostida qolganda, atrofdagilar tomonidan noto'g'ri munosabat qilinishida va hokazolarda) ko'rinadi.


Olimlar o'tkazgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, falokat, hayotiy o'zgarishlar, kundalik tashvishlar ko'proq stresslar hisoblanadi. *Falokat* – bu notinchlik, urush, yer qimirlash, suv toshqinlari, avtohalokatlar va hokazo. Bularning hammasi inson ruhiy holatiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Olimlar shuni ta'kidlashadiki, qattiq yer qimirlashi, suv toshqinlari, yong'in bo'lishi kabi falokatlarning inson ruhiyatiga katta ta'sir ko'rsatishi natijasida xavotirlanish darajasi yuqori bo'lishi kuzatiladi. *Hayotiy o'zgarishlar* – bu insonni hayotida yuz beradigan voqea va hodisalardir. *Masalan*, yaqin kishisining halok bo'lishi, kutilmaganda ish o'rmini yo'qotishi, ajralishlar va hokazo. Agarda inson bir qancha inqirozli vaziyatni boshidan o'tkaza, qattiq kasallanishi va hattoki o'limga ham olib kelishi mumkin. *Kundalik tashvishlar* – bu ish joylarida sodir bo'ladigan qiyinchiliklar, o'qish joylaridagi o'quvchilarning o'quvchilarga, o'qituvchilarning o'qituvchilarga noto'g'ri munosabatda bo'lishlari, imtihonlarni muvaffaqiyatsiz yakunlanishi va hokazolarda namoyon bo'ladi. Kundalik tashvishlar mayda stresslarni kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Natijada mayda stresslar to'planib borib inson sog'lig'iga ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, qon bosimining oshishi, yurak faoliyatining buzilishi va boshqalarda kuzatilishi mumkin. Doimiy yuz berib turadigan kundalik tashvishlar, aqliy, jismoniy, emotsional va ruhiy zo'riqishga olib kelishi mumkin

Stress ayrim odamlarda yengil kechadi, ayrim odamlarda jiddiyoq, qiyinroq o'tadi. Bunga asosiy sabab quyidagilar deb belgilanadi: uning hosil bo'lishi stressli vaziyatga qay darajada munosabatda bo'lishimizga va bu holatni baholashimizga va u bilan kurashishimizga bog'liqdir. *Masalan*, optimist odamlar stress holatini taqdirning bir sinovi deb qabul qilsa, pessimist odamlar uning hayotiga xavf-xatar tug'ildi, deb qabul qilar ekanlar. Pessimistlarda xavotirlanish darajasi yuqori bo'ladi va ular vaqtda ovqatlanmasalar ham stress holatiga tushib qolaveradilar. Psixologlar **Maykl Shayer va Marlz Karver** fikricha, *optimist* inson eng og'ir, qiyin vaziyatda ham yaxshi deb oldinga intiladi, o'z organizmida stress moslashib olishiga yo'l qo'ymaydi. Umuman olganda stress atamasi **XX-asrning 40-yillariga** kelib ommaviylashgan. Bunga sabab stress holatini to'g'ri tushunish va undan himoyalaniшни o'rganish, chunki stress turli salbiy munosabatlar natijasida vujudga kelishi mumkin. Birinchi bo'lib stress bo'yicha 1932-yili fiziolog **Uolter Kennon** va 1936-yilda vrach **Gans Sele** chuqurroq tushuncha berishga harakat qilganlar. **U.Kennonning** gomeostaz nazariyasi asosida 1933-yilda "Psixika va tana" asari yaratildi. Bu asarda barcha tashqi sharoit o'zgarishlariga optimal (to'la) moslasha oladigan bir yaxlit organizm haqida yozilgan. Organizmdagi turli o'zgarishlar, ya'ni ochlik, qo'rquv, jahldorlik holatlarini ko'p yillar kuzatib o'rganish natijasida "gomeostoz" ya'ni organizmni ichki holatini davomiyliigi nazariyasi yaratildi. Uning fikricha, gomeostoz va tashqi muhit ta'sirida asosiy o'rinni markaziy va vegetativ nerv tizimi egallaydi. Markaziy nerv tizimi tashqi-muhit, bilan vegetativ nerv tizimi esa

homeostoz holatini saqlab turadi. Bundan organizmni "qochishi va kurashishi" uchun energiya ishlab chiqaruvchi simpatoadrenal tizimi muhim rol o'ynaydi. **Jems Lange va Kennon-Bard nazariyasining** mohiyati 264-betdagi rasmda keltirilgan.

U.Kennon yana shuni ta'kidlab o'tadiki, organizmni stressga qarshi kurashish yoki qochish vaqtida yurak urishi tezlashadi, qon aylanishi buziladi, ya'ni maqsadga intilish uchun tayyorgarlik ko'rishda organizmda qochish va kurashish kechadi. Bu reaksiyani u organizmni moslashish tizimi deb ataydi.

Kanadalik olim vrach **G.Sele** (1936-1976-yillar) o'zini 40-yillik ilmiy izlanishlari bilan **U.Kennon** nazariyalariga qo'shimchalar kiritib, stress psixologiya va tibbiyotda asosiy tushunchalarda biri ekinligini aytib o'tgan. **G.Sele** stress har doim ham zararli emas, ba'zan inson organizmiga yordam, ko'mak foyda berishi mumkin. Ayrim hollarda stressga tushib qolganda odam yashash uchun kurashish o'z ehtiyojini qondirish uchun faollashib, o'zi bilmagan zahiradagi energiyasini ishga solishi mumkin degan. U tirik organizmning noqulay tashqi sharoitlariga moslashuvchanlik muammosini o'rganib chiqqan.



G.Seleni fikricha, shu sabablar muhim va nomuhim stressni keltirib chiqaradi. Bu vaziyatlar bir-biriga bog'liqdir. Bunda 3 bosqich ajratiladi:

- *xavotirlik bosqichi;*
- *moslashish bosqichi;*
- *o'ta charchash bosqichi.*

Xavotirlik bosqichida taloqning kichrayishi, yog' qavatining yo'qolishi, oshqozonda o'tkir yallig'lanishning sodir bo'lishi, buyrak tepasida likotsidlarining kamayishi kuzatiladi. Shu bilan birga teri jarohatini pasayishi, ko'z yoshlanishi,

so'lakning ajralishi kuzatiladi. Agarda ta'sir kuchli bo'lsa, bu bosqichda xavotirlik holati boshlanadi.

Moslashish bosqichida buyrak usti bezlari kattalashadi, organlar va to'qimalarning ishlashi sekinlashadi. Agar stressni keltirib chiqaruvchi omil organizmga kuchli ta'sir etsa etmasa shu holat uzoq vaqt saqlanib qoladi. Agar ta'sir kuchli bo'lsa, uchinchi bosqich boshlanadi.

O'ta charchash bosqichi – organizmda kuzatilayotgan yutuqlarga ko'ra bosqich xavotirli bosqichga yaqin. Bunda odatda organizm kasallanadi.

Chet el mualliflari asosan ijtimoiy, psixik va fiziologik stress shakllarini ajratadilar. Ularning fikricha, ijtimoiy stress asosida shaxsning ijtimoiy, iqtisodiy yashash sharoiti yotadi. Ijtimoiy ziddiyatlar doimiy o'ziga ishonmaslik va keskinlikni yuzaga keltiradi.

Yuksak hislar

Hissiy jarayonlarning har xil shakllari normal odamda alohida, yakka holda mavjud bo'lmaydi. Yuzlab va minglab kechirilayotgan emotsiyalar, affektlar, kayfiyatlarda aniq yashaydigan umumlashtirilgan hislar **yuksak hislar** deyiladi. Yuksak hislar o'z tarkibiga birinchi soddaroq ko'rinishdagi turli hislarni oladi.

Inson faoliyatining qaysi bir turi, yoki qaysi bir sohasi, hislarni qaysi birining asosiy ekanligiga qarab, yuksak hislarning muhim turlari: praksik, axloqiy, intellektual, estetik turlari ajratiladi.

Praksik hislar. Inson amaliy hayotining istalgan sohasi maqsadga muvofiq aqliy faoliyatiga, shaxsning ularga nisbatan muayyan munosabatda bo'lish sohasiga aylanib qoladi. Bu birinchi navbatda biror maqsadni anglabgina qolmay, uni e'tirof etadigan yoki inkor qiladigan maqsadlarga erishish yo'llarini baholaydigan ta'sir qilish usullari va ko'lamlarini ma'qullaydigan va ma'qullamaydigan, ularni to'g'ri tanlanganligiga shubhalanadigan, nihoyat muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik hissini kechiradigan mehnat faoliyatida kuzatiladi. Mehnat inson hayotining asosi bo'lib, insonning mehnatga bo'lgan hissiy munosabati yuksak hislar orasida muhim o'rinni egallaydi,

Mehnat faoliyatida shaxs:

-biror maqsadni anglaydi;

-uni e'tirof qiladi yoki inkor etadi;

-maqsadga erishish yullarini baholaydi;

-uni ta'dbiq etish usullari va qurol vositalarini ma'qullaydi yoki ma'qullamaydi;

-ularning tanlanganligiga shubhalanadi;

-inson muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik hissini kechiradi va hokazo.

Axloqiy hislar odamning boshqa kishilarga, jamoa va o'zining ijtimoiy burchlariga bo'lgan munosabatlarida ifodalanadi. Inson bu hislarni kechirar ekan, ma'lum ahloqqa, ya'ni ijtimoiy ahloq-qoidalari va normalari majmuiga asoslanib, boshqa kishilarning xatti-harakatlariga yoki ruhiy xususiyatlariga hamda o'zining xatti-harakatlariga baho beradi.

Shaxsning yetakchi axloqiy hislaridan biri bu burch hissidir. Bu his odam yashab va ishlab turgan tor doiradagi jamoa (oilalar, maktab, ishlab chiqarish, korxonalar) manfaatlarini nuqtai nazaridan turib, harakat qilish lozimligini anglaganda ham

kechiriladi. Odam o'zining ijtimoiy burchlari nimalardan iborat ekanligini bilib va tushunibgina qolmay, balki ularni bajarish zarurligini ichdan his qilib qayg'uradi. Kishilar hayoti va faoliyatida o'zaro yordamlashish, hamjihatlik, intilish va manfaatlar birligiga asoslangan o'rtoqlik munosabatlari yuzaga keladi.

O'rtoqlik munosabatlarining yuksak cho'qqisi do'stlik hissida namoyon bo'ladi. Do'stlik hissi o'rtog'iga mehribonlikda uni ko'rish u bilan gaplashish o'z fikr hislari bilan o'rtoqlashishda namoyon bo'ladi. Haqiqiy do'stlik hissi do'stga nisbatan yuksak talabchanlik bilan bog'liqdir. Xato va kamchiliklarni tuzatishga ham yordam berish, do'stlikka yaqin bo'lgan muhim ahloqiy his muhabbat hissidir. Muhabbat jamiyatda nikoh va oilaning ahloqiy psixologik asosi hisoblanadi.

Agar odamning jamiyatdagi xatti-harakatlari ahloq normalariga mutlaqo zid bo'lsa, odam vijdon azobiga uchraydi. Vijdon azobi murakkab hissiy holatdir. Mobodo odam biror ahloqsiz harakat qilib, vijdon azobiga uchrasa, undan qutilishi juda qiyin bo'ladi. Chunki vijdon azobiga uchragan odam jamiyat oldida o'zining nohaqligini biladi va o'zini o'zi so'roq qila boshlaydi. Shuning uchun odam o'zidan-o'zi qochib qutila olmagandek, vijdon azobidan ham hech qachon qochib keta olmaydi.

Ma'lumki, vijdon azobi kishining qalbida chuqur ichki kurash hissini tug'diradi. O'z xatti-harakatida ahloq tamoyillariga amal qilmagan, uyati ham vijdoni bo'lmagan kishilarni "vijdonsiz" odamlar deyiladi. Kishi yomon bir ish qilib qo'yanligi bu kishining o'ziga munosib emasligini, anglashi bir tomondan vijdonini qiynaydi, vijdon azobiga soladi, ikkinchi tomondan ahloq talablariga xilof ish qilish bilan boshqalardan malomatga qolishni, ularni o'miga nisbatan salbiy xislat paydo qilishni ham tushunadi. *Masalan*, mazkur jarayonga quyidagi misolni keltirib o'tish joiz. *AQSh prezidenti R. Trumen 1945-yili 6-avgustda Yaponiyaning Xirosima va Nagasaki shaharlariga atom bombasini tashlashga buyruq bergan edi. Amerikaning birinchi darajali uchuvchisi Mayor Klod Izerli Xirosimaga atom bombasini tashlab 300 000 kishini yostig'ini quritishda ishtirok etdi. Atom bombasi zarbidan o'lgan yosh bolalarni qariyalarni, xotin-qizlarni o'z ko'zi bilan ko'rgan Izerli vatamiga qaytganda "Xirosima qahramoni"ni sifatida uni tantana bilan kutib olishadi.*

Izerlini vijdon azobi kundan kunga battarroq qiynay boshladi. U vijdonini tinchitmoq uchun nafaqadan, hamma mukofatlardan voz kechdi, o'ziga berilgan ordenlarni qaytarib bermoqchi bo'ldi. Pul to'plab Xirosimaga yordam yubordi. Ammo vijdon azobi hamon uni ezardi, ta'qib qilardi, kechalari uxlolmasdan o'zini o'zi o'ldirishga urinib ko'vardi. Ammo natija chiqmadi, zora qamasalar, deb jinoyat qildi. Nihoyat Klod Izerli aqldan ozibdi, deb uni jinnixonaga yotqizdilar.

Estetik hislar ham yuksak ahloqiy hislardan hisoblanadi. *Estetik his* deganda biz go'zallikni idrok qilish, go'zallikdan zavqlanish va go'zallik yaratishga intilishni tushunamiz. Estetik hissiyot hamma odamlarga xos bo'lgan hissiyotdir. Atrofdagi tabiat manzaralari estetik hissiyotlarimizning birinchi manbai hisoblanadi. *Masalan*, bahor faslidagi tog' manzaralari yaylovlarda qo'y va qo'zichoqlarning o'tlab yurishlari, baland qorli qoyalarni uzoqlardan mag'rur turishlari odamda estetik lazzatlanish hissini tug'diradi yoki xuddi dengizdek ko'z ilg'amaydigan ko'm-ko'k paxtazorlar uzoqlarda chiroyli bo'lib ko'rinib turgan dala tepaliklari odamda qandaydir ko'tarinki ruh tug'diradi.

Odamlar hayotning turli faktlariga va ularning san'atini aks ettirishiga qandaydir go'zallik yoki xunuklik fojiali yoki kulguli, oliyanoblik va razillik, nozik yoki dag'al hodisalar sifatida munosabatda bo'ladilar. Bu hislar tegishli baholarda estetik didlarda namoyon bo'ladi va o'ziga xos badiiy lazzatlanish holatida kechiriladi.

Estetik hissiyotlarning manbalari juda ko'p va xilma-xildir. *Masalan*, tabiat manzaralaridan lazzatlanishdan tashqari tasviriy san'at asarlari, badiiy-adabiy asarlar, musiqa va xaykaltaroshlik, arxitektura va me'morchilik ishlari ham odamda estetik hisni tug'diradi. Bundan tashqari odamlarning o'zaro bir-birlari bilan bo'lgan munosabat va muomalalari ham estetik hissiyotlarning manbalari bo'la oladi. Odamning kiyinishi, uyining tutishi, qanday jihozlanish, boshqalar bilan muomalasi ham estetik hislarimizning manbai bo'la oladi. *Masalan*; dag'al gaplashadigan kishidan odam nafratlanadi, aksincha muomalali, gapni o'rinli va madaniyatli qilib gapiradigan kishidan odam zavqlanadi. Shunday odamlarga taqlid qilgisi keladi. Umuman odamning estetik hissiyotlari ko'p manbalarga ega bo'lgan murakkab hissiyotlardir.

Intellektual hissiyotlar ham o'z mohiyati jihatidan ahloqiy hissiyotlarga yaqin bo'lgan hissiyotlardir. *Intellektual hissiyotlar* odamning bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan hissiyotlar bo'lib, biror narsadan hayron qolish, hayratda qolish, shubhalanish kabi holatlarda ifodalanadi. Intellektual hissiyotlarga dastavval ajablanishni kiritish mumkin. Ajablanish inson bilish faoliyatining ajralmas tomonidir. Ajablangan va qandaydir tushunib bo'lmaydigan, hayratda qoldiradigan emotsiyalarga berilib qolgan odam o'zining bilish ehtiyojlarini qondirishga intiladi. Haqiqatni izlash shubhalanish hissi bilan bir vaqtda amalga oshirish mumkin. Bu his odam faol bilish faoliyati orqali hosil qilgan g'oya hamda e'tiqodlarni hayotga tadbiiq qilish uchun bo'lgan kurashning qiyin daqiqalarida unga madad bo'ladi.

Tayanch iboralar

Ambivalentlik (yunon. Ambi – tevarak, ikki tomondan, lot. valentia – kuch) – bir vaqtda qarama – qarshi hissiyotlarning namoyon bo'lishi (mas., kulgu va qayg'u, xursandlik va kulfat).

Apatiya (yunon. Apatheia – hissiyotsizlik) – kishining tevarak – atrofda olamga nisbatan hech qanday qiziqishsiz befarq holati.

Astenik (yunon, astheneia – kuchsizlik, holsizlik) – shaxsning faolligini susaytiruvchi kechinmalar.

Asteniya (yunon. Astheneia – kuchsizlik, holsizlik) – kuchli toliqish va organizmning madorsizligida namoyon bo'ladigan asabiy psixik holsizlanish.

Affekt (lot. Affektus – ruhiy – hayajon, ehtiros) – kuchli, jo'shqin va nisbatan qisqa muddatli emotsional kechinmalar tariqasida ro'y beradigan psixologik holat.

Kayfiyat – birorta emotsiyaning barqaror kechishi.

Senzitivlik (lot. sensus hissiyot) – turli ta'sirga nisbatan sezgilarning tez va kuchli qo'zg'alishi.

Stenik hislar (yunon. Sthenos kuch) – shaxsning faoliyatini oshiruvchi hislar (mas., xursandchilik va x.k.)

Stress (ing. Stress – zo'riqish) – kuchli qo'zg'ovchilar ta'sirida yuzaga keladigan ruhiy holat.

Emotsiya (nor. emavere – uyg‘otish, to‘lqinlantirish) – odam yoki hayvonlarning subyektiv ifodalangan ichki yoki tashqi qo‘zg‘ovchilar ta‘siriga javob reaksiyasi.

Hissiyot – odamning yuksak ehtiyojlarini qondirish yoki qondirmaslik qobiliyatining mavjudligi va psixik obraz yarata olish natijasida uning tevarak-atrofidagi olamga bo‘lgan munosabatlarining ongda aks ettirilishidan iborat jarayon.

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan mavzular

1. Hissiyot haqida tushuncha.
2. His-tuyg‘ularning vazifalari.
3. Insoniy emotsiyalar va hayvonlardagi emotsiyalar.
4. Hissiy holatlarning ifodalanishi.
5. Hislarni kechirish shakllari.
6. Yuksak hislar.
7. Hissiyotning o‘ziga xosligi.

Test topshiriqlari

1. tashqi olamdagi narsa va hodisalarga nisbatan bo‘lgan munosabatlarimizning va bu munosabatlarimizdan hosil bo‘ladigan ichki kechinmalarimizning ongimizda aks ettirilishiga aytiladi.

- A) kayfiyat;
- B) ehtiros;
- V) hissiyot;
- G) affekt;
- D) stress.

2. Unchalik kuchli bo‘lmagan lekin juda uzoq vaqt davom etadigan hissiy holat bu.....

- A) kayfiyat;
- B) ehtiros;
- V) hissiyot;
- G) affekt;
- D) stress.

3.to‘satdan paydo bo‘lib tez orada o‘tib ketadigan nihoyatda kuchli holatdir.

- A) kayfiyat;
- B) ehtiros;
- V) hissiyot;
- G) affekt;
- D) stress.

4.uzoq davom etadigan anchagina kuchli hissiy holatdir.

- A) kayfiyat;
- B) ehtiros;
- V) hissiyot;
- G) affekt;
- D) stress.

5.....bu oddiy psixik holat bo'lib, u inson organizmini umumiy holatidan yuzaga keladi va ehtiyojlarni qondirish jarayonida mavjud bo'ladi.

- A)emotsiya;
- B)kayfiyat;
- V)stress;
- G)hissiyot;
- D)affekt.

6.His-tuyg'u psixik holat bo'lib, u qanday xususiyatlar bilan belgilanadi?

- A)qoniqish yoki qoniqmaslik holatini mavjud bo'lishi;
- B)ijobiy va salbiy hislar;
- V)nerv keskinligini yuzaga kelishi va keskinlikni yumshatish;
- G) barcha javoblar to'g'ri;
- D) to'g'ri javob berilmagan.

7.Emotsional holatlarning xususiyatlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A)shaxsni obyektga ijobiy munosabati;
- B)salbiy munosabati;
- V)ikkilamchi munosabat;
- G) barcha javoblar to'g'ri;
- D) to'g'ri javob berilmagan.

8.His-tuyg'uni yuzaga keltiruvchi sabab bu.....

- A)faollik;
- B)qo'zg'atuvchi kuch;
- V)kuchli ta'surot;
- G)stimul;
- D)motivatsion doira.

9.Faolligiga ko'ra, hislar qanday turlarga ajratiladi?

- A)kuchli va kuchsiz, ijobiy va salbiy;
- B) mimika va pantomimika;
- V)apatiya va ekspressiya;
- G)astenik va stenik;
- D)salbiy va ijobiy;

10.Inson faolligini oshiruvchi uni umumiy energiyasiga asos soluvchi hislar

bu.....

- A)astenik;
- B)apatiya;
- V)stenik;
- G)ekspressiya;
- D)mimika.

11.Shaxsdagi faollikni ortga qaytaruvchi hislar bu.....

- A)astenik;
- B)apatiya;
- V)stenik;
- G)ekspressiya;
- D)mimika.

12.Shaxsdagi befarqlik, beparvolik holati bu.....

- A) astenik;
- B) apatiya;
- V) stenik;
- G) ekspressiya;
- D) mimika.

13.....hislarning spesifik namoyon bo'lishi bo'lib, u ovozdan mimika pantomimika yig'i, kulguda namoyon bo'ladi.

- A) astenik;
- B) apatiya;
- V) stenik;
- G) eksperssiya;
- D) mimika.

14.....insonni yuz tuzilishida ifodalanishi bo'lib, bunda idrok etilayotgan narsaga nisbatan munosabat aks etadi.

- A) astenik;
- B) stenik;
- V) mimika;
- G) pantomimika;
- D) eksperssiya.

15.....emotsional holat bo'lib, u biror bir maqsadiga intilganda yuzaga keladi

- A) ko'tarinkilik;
- B) astenik;
- V) stenik;
- G) pantomimika;
- D) eksperssiya.

16. Munozarada asabiylashib affektiv holatga tushgan kishini tilini og'iz bo'shlig'ida 10 marotaba aylantirishini tavsiya etadi. Mazkur fikr qaysi olim tomonidan ilgari surilgan?

- A) L.N.Tolstoy;
- B) I.M.Sechenov;
- V) I.S.Turgenov;
- G) I.P.Pavlov;
- D) G.Sele.

17.....ular jamiyat ahloq normalariga bo'ysunishi yoki bo'ysunmaslik bilan namoyon bo'ladi.

- A) axloqiy hislar;
- B) intellektual hislar;
- V) praksik hislar;
- G) estetik hislar;
- D) to'g'ri javob berilmagan.

18.....inson tomonidan bilish faoliyati jarayonini his etish holatidir.

- A) axloqiy hislar;
- B) intellektual hislar;

- V) praksik hislar;
- G) estetik hislar;
- D) to'g'ri javob berilmagan.

19. Vatanparvarlik, milliy g'urur, tilga hurmat, milliy qadriyatlarga hurmat kabilar qaysi hislar tarkibiga kiradi?

- A) axloqiy hislar;
- B) intellektual hislar;
- V) praksik hislar;
- G) estetik hislar;
- D) to'g'ri javob berilmagan.

20. Hayrat, qiziqish, quvonch, g'urur, yangilikka intilish kabi hislar qanday hislar tarkibiga kiradi?

- A) axloqiy hislar;
- B) intellektual hislar;
- V) praksik hislar;
- G) estetik hislar;
- D) to'g'ri javoblar berilmagan.

21. ijobiy hislar bo'lib, go'zal predmetlar ular orasidagi munosabatni aks etish bilan ifodalanadi.

- A) axloqiy hislar;
- B) intellektual hislar;
- V) estetik hislar;
- G) praksik hislar;
- D) to'g'ri javob berilmagan.

22.....faoliyat natijasida yuzaga kelib, ish jarayonida o'zgaradi, ishni muvaffaqiyati qiyinchilikni tugallanganligiga bog'liq bo'ladi.

- A) axloqiy hislar;
- B) intellektual hislar;
- V) estetik hislar;
- G) praksik hislar;
- D) to'g'ri javob berilmagan.

23. Emotsiya oraliq jarayonlari subyektiv aks etish bo'lib, u ixtiyoriy harakatga qodir va organizmda yuzaga keladi deb ta'kidlaydi Mazkur nazariyaning muallifi qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) A.N.Luk;
- B) Djeyms-Lange;
- V) Kenon-Bard;
- G) Yorks- Dodason;
- D) I.P.Pavlov.

24. "Biz yig'laganimiz uchun xafa bo'lmaymiz, qaltiraganimiz uchun qo'rqamiz, kulganimiz uchun xursand bo'lamiz"- mazkur fikr asosachilari qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) A.N.Luk;
- B) Djeyms-Lange;
- V) Kenon-Bard;

G) Yorks- Dodason;

D) I.P.Pavlov.

25. "Emotsiya signallarini qayta tiklash va uni organizmda aks etishidir", mazkur nazariya muallifi qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) A.N.Luk;

B) Djeyms-Lange;

V) Kenon-Bard;

G) Yorks- Dodason;

D) I.P.Pavlov.

26. Emotsional qo'zg'atuvchanlik bilan insonni ijobiy faoliyati orasida egri chiziqli qo'ng'iroqsimon bog'liqlik mavjud. Mazkur nazariya muallifi qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) A.N.Luk;

B) Djeyms-Lange;

V) Kenon-Bard;

G) Yorks- Dodason;

D) I.P.Pavlov.

27. Stress tushunchasini fanga kiritgan olim qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) A.N.Luk;

B) Djeyms-Lange;

V) Kenon-Bard;

G) Yorks-Dodason;

D)G.Sele.

28. Stress so'zining lug'aviy ma'nosi qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) jiddiylik, keskinlik, zo'riqish;

B) kuchli hissiy zo'riqish;

V) shiddatli jo'shqin;

G) o'xshashlik;

D) belgi, alomat, tuzilma.

29. Bir vaqtda qarama-qarshi hissiyotlarning namoyon bo'lishi bu.....

A) emotsiya;

B) hissiyot;

V) apatiya;

G) ekspressiya;

D) ambivalentlik.

30. Hissiyotning nerv-fiziologik asosi qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) bosh miya po'sti qismining faoliyati;

B) vegetativ nerv tizimi bilan;

V) ko'rish tepaligi;

G) dinamik streotip;

D) javoblarning barchasi to'g'ri.

Nazorat savollari

1.Hissiyot tushunchasining mazmunini izohlang?

2.His-tuyg'ularning vazifalari nimalarda ko'rinadi?

3. Hissiy holatlarning fiziologik asoslarini nima tashkil qiladi?
4. Insoniy emotsiyalar va hayvonlardagi emotsiyalar o'rtasidagi farqni izohlang?
5. Hissiy holatlarning ifodalanishini qanday izohlaysiz?
6. Hislarni kechirish shakllarini qanday baholaysiz?

IRODA

Iroda haqida tushuncha

Ma'lumki, insonning ehtiyojlari ijtimoiy tuzum shakllari taraqqiyotiga qarab o'zgaradi. Shu bois, o'z ehtiyojlarini qondirish uchun inson harakat qiladi. Shaxs o'z harakatlari yordami bilan muhitga moslashadi va undan o'z ehtiyojlari uchun foydalanadi. Lekin shu bilan birga odam muhitni o'z ehtiyojlariga muvofiqlashtirib o'zgartiradi, qayta quradi va o'ziga moslashtiradi.

Odamning shaxs sifatidagi faollik xususiyati shundan iboratki, o'z ehtiyojlarini qondirishga yordam beradigan harakatlari instinktiv harakatlar emas, balki asosan oqilona, ongli harakatlardir. Bu onglik shundan iboratki, odam oldindan biron-bir maqsadni ko'zlab harakat qiladi, shu maqsadga yetishish uchun yordam bera oladigan vositali yo'l va usullarni oldindan qidirib topadi, to'sqinlik va qiyinchiliklarni yengish uchun ongli ravishda kuch-g'ayratini ishlata oladi.

Odam faqat o'ziga xos madaniy-ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishdagina emas, balki, tabiiy-biologik ehtiyojlarini qondirishda ham ongli va oqilona ravishda ish tutadi.


Odam tevarak-atrofdagi narsalarni o'zgartirib o'ziga moslashtirar ekan, yangilik yaratadi, ijod qiladi, shu yangilikni tevarak-atrofdagi voqelikka qo'shadi, voqelikni o'zgartiradi va to'ldiradi. Umuman odam har doim harakat qilmasdan tura olmaydi. Ana shu jihatdan olganda odamning barcha harakatlarini ikki turkumga bo'lish mumkin. Ulardan *birinchisi* ixtiyorsiz harakatlar bo'lsa, *ikkinchisi* ixtiyoriy harakatlardir.

Odamning ixtiyorsiz harakatlari qat'iy bir maqsadsiz, ko'pincha impul'siv tarzda, ya'ni reflektor tarzda yuzaga keladi. *Masalan*, yo'talish, aks urish, ko'z qovog'ini ochib yumilishi va shu kabilar. Bu harakatlarni odam oldindan o'ylab rejalashtirmaydi. Ixtiyorsiz harakatlar har qanday sharoitda yuz berishi mumkin. Ixtiyorsiz harakatlar ba'zan, odamning aqliy faoliyatlari bilan ham bog'liq bo'ladi. Chunonchi, ixtiyorsiz idrok, ixtiyorsiz diqqat, ixtiyorsiz esda olib qolish, ixtiyorsiz esga tushirish holatlari ham bo'ladi. Bunday hollarda odamning ixtiyorsiz harakatlari idrok qilinayotgan narsaning boshqa narsalardan keskin farq qilishi yoki odamning qiziqishlari, ehtiyojlari bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Ixtiyoriy harakatlar iroda bilan bog'liq bo'lgan harakatlardir. Ixtiyoriy harakatlar oldindan belgilangan maqsad asosida to'la ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlardir. Lekin *ixtiyoriy harakat* deganda, faqat jismoniy harakatlar emas, balki, aqliy harakatlar ham tushuniladi. Shunday qilib, iroda tushunchasiga nisbatan adabiyotlarda turlicha ta'riflar uchraydi. Jumladan, A.V.Petrovskiy darsligida *iroda* – bu kishining o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishda qiyinchiliklarni yengib o'tishga qaratilgan faoliyati va xulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o'z-o'zini boshqarishi demakdir, deb ta'riflanadi. **Q.Turg'unov** muallifligidagi lug'atda

ta'riflanishicha, *iroda* – shaxsning ongli harakatlarida, o'z-o'zini bilishida ifodalanadigan, ayniqsa maqsadga erishish yo'lida uchraydigan jismoniy va ruhiy qiyinchiliklarni yengib chiqishda namoyon bo'ladigan ixtiyoriy faolligidir. M.Vohidov fikricha, *iroda* deganda biz oldindan belgilagan, qat'iy bir maqsad asosida amalga oshiriladigan va ayrim qiyinchiliklarni, to'siqlarni yengish bilan bog'liq bo'lgan harakatlarni tushunamiz. Professor E.G'oziyevning "Umumiy psixologiya" darsligida *iroda*-bu tashqi va ichki qiyinchiliklarni yengishni talab qiladigan qiliqlarni va harakatlarni inson tomonidan ongli boshqarilishidir, deb keltiriladi. Umuman olganda iroda shaxs faolligining ko'rinishi hisoblanadi. Shu bois, uning yuzaga kelishi bir qator harakatlarni amalga oshirilishi bilan izohlanadi.

Irodaviy harakatlar bosqichlari



Irodaviy harakatlarda har doim maqsad aniq bo'ladi. Odam o'z oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqadigan natijalarni ham oldindan tasavvur eta oladi. Ana shuning uchun har qanday qiyinchiliklarni yengib bo'lsa ham maqsadini amalga oshirishga intila boradi. *Masalan*, odam biror imorat solayotgan paytda oxirgi natija qanday bo'lib chiqishini juda yaxshi tasavvur etadi va shuning uchun qanday qiyinchiliklar bo'lsa ham yengib ishni davom ettira beradi. Yoki talaba universitetning birinchi kursiga kirganda qanday mutaxassis bo'lib chiqishini yaxshi biladi va shuning uchun barcha qiyinchiliklarga chidab o'qishni davom ettira beradi.

Umumiy irodaviy faoliyatni yoki alohida akti amalga oshirishning muhim xususiyatlaridan biri amalga oshirilayotgan harakatlarning erkin ekanligini anglashdan iboratdir.

Odamning irodaviy harakati to'la-to'kis determinizmga, ya'ni sababiy bog'lanish qonuniga bo'ysunadi. Shu bilan birga irodaviy faoliyatning bevosita sabablari sharoitida irodaviy harakatlarni belgilab beradigan turli-tuman hayotiy sharoitlar bo'lishi mumkin.

Odamning irodaviy faoliyati obyektiv jihatdan bog'langandir. Irodaviy faoliyatning muhim xususiyatlaridan biri, irodaviy harakatlarni odam hamma vaqt shaxs sifatida amalga oshiradi. Xuddi mana shuning bilan bog'liq ravishda irodaviy harakatlar odam to'la ravishda javob beradigan ish sifatida boshdan kechiriladi.

Irodaviy faoliyat tufayli shaxs ko'p jihatdan o'zini ma'lum sharoitda anglaydi, o'z hayot yo'li va taqdirini o'zi belgilashi mumkin.

Irodaning eng muhim xususiyati unda faoliyatni amalga oshirishning puxta o'ylab chiqilgan rejaning mavjudligidir. Avvaldan rejalashtirilmagan xatti-harakatlarni *irodaviy harakat* deb bo'lmaydi. Shu bilan birga iroda avvaldan mavjud bo'lmagan, lekin faoliyatni natijasiga erishishdan so'ng hosil bo'lishi mumkin bo'lgan qoniqishga butun e'tiborini qaratishdan iboratdir.

Ko'p hollarda iroda vaziyat yoki qiyinchilik ustidan g'alaba qozonish emas, balki o'zini o'zi yengish hamdir. Bu ayniqsa, muvozanatsiz, hissiy, qo'zg'aluvchan, sust kishilarga xos bo'lib, o'zlarining tabiiy xarakterologik xususiyatlari bilan kurashishga to'g'ri keladi.

Hech bir muammo irodaning ishtirokisiz hal etilmaydi. Inson kuchli irodasiz katta muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Odamzod boshqa tirik mavjudotlardan o'zining ongi va aqli bilangina emas, balki irodasining mavjudligi bilan ham ajralib turadi.

Irodaning nerv-fiziologik asoslari

Irodaviy ya'ni ixtiyoriy harakatlarning nerv – fiziologik asosida bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'ining shartli reflekslar hosil qilishdan iborat bo'lgan murakkab faoliyati yotadi. Irodaviy harakatlar har doim to'la ongli harakatlar bo'lgani uchun bosh miya po'stlog'ida yuzaga keladigan optimal qo'zg'alish manbalari bilan ham bog'liq bo'ladi. Bu haqda akademik **I.P.Pavlov** shunday deb yozgan edi: *"Mening tasavvurimcha, ong ayni shu chog'da xuddi shu sharoitning o'zida ma'lum darajada optimal (har holda o'rtacha bo'lsa kerak) qo'zg'alishga ega bo'lgan bosh miya katta yarim sharlarining ayrim joylaridagi nerv faoliyatidan iborat"*.

Bundan tashqari irodaviy harakatlar ongli harakatlar sifatida ikkinchi signallar tizimining faoliyati bilan bog'liqdir. Ma'lumki, odam ayrim nojo'ya harakatlardan o'zini so'zlari orqali (ya'ni o'ziga-o'zi pand-nasihatlar qilish yoki tarbiya berish orqali) ushlab qoladi. Shuning uchun irodaviy, ixtiyoriy harakatlarni amalga oshirishda ikkinchi signallar tizimining roli juda kattadir. Ana shu sababdan bo'lsa kerak akademik **I.P.Pavlov** ikkinchi signallar tizimiga baho berib, *"bu signallar tizimi insonlar hulq-atvori va ixtiyoriy harakatlarining yuksak boshqaruvchisidir"* – degan edi. Shuni ham aytish kerakki, iroda ikkinchi signallar tizimi birinchi signallar tizimiga asoslangan holda ishlaydi. Agar ikkinchi signallar tizimi o'z faoliyatida birinchi signallar tizimiga asoslanmasa, odamning aks ettirish jarayoni ma'lum bir tizimli, ma'noli bo'lmaydi. Ikkinchi signallar tizimi birinchi signallar tizimiga asoslanishi bilan birga uning faoliyatini boshqarib, nazorat qilib turadi. Demak, irodaviy, ixtiyoriy harakatlarda ikkinchi signallar tizimi bilan birga birinchi signallar tizimi ham ishtirok etadi.

Irodaviy ixtiyoriy harakatlarni amalga oshirishda nerv tizimining umumiy normal holati ham juda katta ahamiyatga egadir. *Masalan*, uzoq davom etadigan qattiq kasallikdan so'ng nerv tizimi nihoyatda madorsizlanib, odamning irodasi bo'shashib ketadi. Odam biror ishdan qattiq charchagan paytda ham nerv tizimi zaiflashib, irodasi bo'shashib ketadi. Ana shuning uchun irodaning mustahkamligini ta'minlash maqsadida odam vaqti – vaqti bilan dam olib turishi kerak.

Irodaviy akt va uning tuzilishi

Ixtiyoriy harakatning dastlabki boshlang'ich nuqtasi harakat maqsadining vujudga kelishi va shu maqsadning o'rtaga qo'yilishidir va uning tuzilishini quyidagicha izohlash mumkin.

Maqsad-kishining shu paytda ma'qul yoki zarur deb topgan ish harakatini tasavvur etish demakdir. *Masalan*, inson pedagogika universitetiga kirib o'qishni zarur deb topdi yoki viloyatga ish bilan borib kelish zarurligini tushundi, deylik. Bularning hammasida kishining maqsadi o'z-o'zidan zohir bo'layotganga o'xshaydi, ba'zan esa bu maqsad bir qadar fikr yuritish natijasida yuzaga keladi.

Maqsadni tasavvur qilish odatda shu maqsadga erishish istagini va zarur ishni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lib, u quyidagicha ifodalanishi mumkin.

Xatti-harakatdan kutilgan maqsad turlicha ravshanlikda tasavvur etilishi mumkin. Maqsad qancha ravshan bo'lsa, unga yetishish yo'lidagi intilish ham shuncha muayyan bo'ladi.


Maqsad ko'zlash kishining avvalo shaxsiy (biologik va madaniy ruhiy) ehtiyojlariga bog'liq. Ko'pincha kishining maqsad ko'zlashi va biron-bir narsaga intilishi tevarak-atrofdagi tabiiy vaziyatga, yoki xuddi shu paytda kishi yashayotgan jamiyatga bog'liq bo'ladi. *Masalan*, kishi qiyin ahvolga tushib qolsa, shu ahvolidan bir amallab qutilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Kishi shu vaziyatni ma'lum darajada o'zgartirish, bir nimaga barham berish, bir nima qilish, bir nimani ko'rish va shu kabi maqsadni o'z oldiga qo'ya oladi. Kishi jamoat tartibini biron buzayotganligiga bevosita guvoh bo'lishi va tartib buzuvchilarga qarshi kurash uchun shu onda qandaydir choralar ko'rishni maqsad qilib qo'yishi mumkin.

Kishida kelib chiqadigan ehtiyojlar darrov yaqqol tasavvur qilinadigan maqsad tarzida hosil bo'la qolmaydi. Ko'ngildan kechayotgan ehtiyoj va intilishlar turli darajada anglanishi va turlicha tasavvur qilinishi mumkin. *Masalan*, kelib chiqadigan ehtiyoj va intilishlar ba'zan istak tarzida ko'ngildan kechadi-kishi hozirgi ahvoldan noroziligini his qilib turadi-yu, lekin qanday maqsadga yetishilayotganini, binobarin, shu maqsadga erishishga doir yo'l-yo'riqlarni aniqlamaydi. Istak shunday holatki, bunda odam o'ziga allanima kerakligini his qilib turadi-yu, bu narsani nima ekanligini aniqlab ololmaydi, ya'ni uni tasavvur qilolmaydi, fahmiga yetmaydi. Bunday odamning o'zi ba'zan "menga bir narsa kerak, bir narsa yetishmayapti, ammo bu narsaning nima ekanligini o'zim ham bilmayman" degan gapni ko'ngildan o'tkazadi. Boshqa kishilar to'g'risida ham: "nima istayotganini o'zi bilmaydi" deymiz.

Istak paytida kishi qanday maqsadga intilayotganini bu maqsadga erishishning yo'l-yo'riqlarini anglab yetmas ekan, demak, istakni bevosita amalga oshirish ham mumkin emas.

Ehtiyoj ko'ngildan kechib, mudom kuchaygan shu ehtiyojni qondirishga intilish maqsadi ham anglanila boshlaydi. Bunday anglanilgan ehtiyojlar *tilak-havaslar* deb ataladi. Ammo odam o'z intilishlarining maqsadini tasavvur qilganda ham shu maqsadga yetishish yo'llari va vositalarini hali tasavvur qila olmasligi mumkin. Bunday to'la anglanilmagan intilishlar (tilak, havas) ba'zan zo'r xayol surish bilan, ba'zan esa cheksiz orzu bilan bog'liq bo'ladi. Ba'zan (xayolparast insonlarda) bunday

tilak-havaslar ko'ngildan kechirish orqali orzu (fantaziya) doirasida qolib ketaveradi. Xilma-xil tilak havaslari to'lib-toshgan kishilar ham mavjud. Bu kishilar doimo xo'rsinadilar, armon qiladilar, o'zlarini ham tevarak-atrofdagi kishilarni ham tanqid qiladilar. Bu kishilar ko'pincha yaxshi orzular qilishadi-yu, amalda kam faoliyat ko'rsatishadi yoki butunlay faoliyat ko'rsatishmaydi.



Harakat yo'llari, usullari topilib odam ularni tasavvur qilayotgan ekan, demak ehtiyojni qondirishga intilish tamomila anglaniladi, odamning tilak-havasi esa bir narsa bo'lib qoladi. Bunday intilish holati ba'zan *xohish* deb ataladi. Kishi biror ishni qilmoqchiman, falon ishni bajarmoqchiman, o'qishga kirmoqchiman va hokazo deb gapirar ekan buning ma'nosi shuki, mazkur kishi o'z intilishlarining maqsadini va shu maqsadga yetish vositalarini anglash, tasavvur qilish va bilish bilangina cheklanib qolmay, maqsadga yetish mumkinligini, ma'lum bir yo'ldan ish ko'rishga tayyorligini va qilinadigan harakatlarining oqibatini kam anglaydi.

Shunday kishilar borki, ularda muayyan tilak-havaslar tarzida tamomila anglanilgan intilishlar doimo katta o'rin tutadi. Bunday kishilar o'zlariga nimalar kerakligini, nimani hojlayotganliklarini, nima ish qilmoqchiliklarini va uni qanday bajarish kerakligini hamisha biladilar. Bunday kishilar o'z oldilariga hamisha aniq maqsad qo'yadilar va shu maqsadga yarasha ish ko'radilar. Bunday kishilarni ma'lum maqsadni ko'zlaydigan kishilar deyiladi. Ma'lum maqsadni ko'zlash kishining ijobiy

sifatidir. Bu sifatni taraqqiy ettirish, irodani tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalashning vazifalaridan biridir.

Har bir kishining anglab, bilib, ko'ngildan kechiradigan ehtiyojlari ko'p, uning vazifalari va intilishlari ham kam emas. Shuning uchun kishida xilma-xil maqsadlarda doimo zohir bo'lib turadi va bu maqsadlarni ro'yobga chiqarish istagi tug'iladi. Har bir kishida amaliy va nazariy vazifalar vujudga kelib turadi va ana shu vazifalarni hal etish kerak bo'ladi. Barovlar amalga oshirib bo'lmaydigan bir necha maqsad kelib chiqqanda, qanday bo'lmasin faqat bittasini tanlab olib boshqa maqsadlarni qo'yib turishga to'g'ri keladi. Qaysi maqsadni oldinroq, boshqasini esa keyinroq amalga oshirish masalasini hal qilishga to'g'ri keladi. Ba'zi maqsadlarni esa qo'yib turishga to'g'ri keladi.

Ba'zan shunday ham bo'ladiki, kishi oldida bir-biriga zid keladigan bir nechta maqsad ko'ndalang turadi va shu maqsadlardan birini tanlab olish shart bo'ladi. *Masalan*, yigit yoki qiz maktabni tugatib, oliy o'quv yurtiga kirib o'qisam, degan masalani hal etayotganda turli maqsadlar va ularga yetish yo'llari degan maqsadlar o'rtasida ichki qarama-qarshilik, ichki "kurash" ro'y berishi mumkin.

Maqsad qo'yish bilan bir vaqtda yoki undan keyin shu maqsadga qaysi yo'l, usul va vositalar bilan yengish masalasi kelib chiqadi.

Kundalik turmushimizda yoki faoliyatimizda maqsad qo'yish bilan birga uni amalga oshirish usullari darrov anglanadi. Shuning uchun bu yerda maqsad qo'yish bilan to'ppa-to'g'ri harakat boshlanib ketishi mumkin. *Masalan*, kishi qo'lga qalam olishni hojlasa, uni bemalol olishi mumkin, uxlagisi kelsa yotadi va hokazo. Oddiy ixtiyoriy harakatlar shu bilan ta'riflanadi. Ammo yangi maqsadlarni qo'yishda o'sha maqsad usullarini qidirib topish, tasavvur qilish va o'ylab ko'rishga to'g'ri keladi. Bu yerda maqsad bitta bo'lgani holda unga bir necha yo'l va usul bilan yetishish mumkin. Qanday bo'lmasin eng yaxshi yo'l va usulni tanlab olishga to'g'ri keladi. Ayrim ixtiyoriy harakatlarning murakkabligi shular jumlasidan kelib chiqadi.

Bir necha maqsad ko'ngilga kelib, shulardan biriga turli yo'l va usullar bilan erishish mumkin bo'lsa, kishi muayyan bir maqsadni tanlab olishi va shu maqsadga yetish uchun muayyan eng muvofiq yo'lni tanlab olishi kerak. Shunga ko'ra, ijtimoiy mehnat faoliyatda ham, kasb-korda ham, shaxsiy ishlarda ham, boshqa kishilarga bo'lgan munosabatda ham kishi o'z intilishlarini va ixtiyoriy harakatlarini oldindan rejalashtiradi.

Rejalashtirish murakkab aqliy faoliyat bo'lib, aniq, muayyan va ravshan maqsadni belgilash, shuningdek, shu maqsadga yetish uchun eng to'g'ri usul va vositalarni qidirib topishdan iborat. Rejalashtirish jarayonida mumkin va zarur bo'lgan hamma harakatlar, mumkin bo'lgan qiyinchiliklar va to'siqlar hisobga olinadi, ish-harakat natijalariga dastlabki baho beriladi. Odam asosiy rejaga ega bo'lgan bir qarorga kelishi, maqsadiga yetishishi mumkin.

Harakat motivlari va motivlar kurashi. Kishi biron maqsadni, ayniqsa, shu maqsadga yetish uchun biron yo'l va usulni tanlar ekan, nega boshqa maqsadni emas, xuddi shu maqsadni tanlashi kerak, bu maqsadga nima uchun boshqa yo'llar bilan emas, balki mana shu yo'llar bilan hal etishi kerak degan savolni ko'ngildan o'tkazadi. Maqsadni va unga yetish yo'lini tanlash jarayonida unga ma'qul yoki noma'qulligi nuqtai nazaridan baho beriladi.

Maqsadni va unga yetishish yo'llarining ma'qulligi yoki noma'qulligini belgilab beradigan hamma narsa *ish-harakat motivlari* deb ataladi. Kishi nega boshqa bir maqsadni emas, balki xuddi shu vositalar bilan ish ko'rishni, yoki ish ko'rmoqchi bo'layotganining sababi nima degan savolga javob motiv mazmunini tashkil etadi.

Irodaviy ixtiyoriy harakatlar g'ayri ixtiyoriy (irodadan tashqari) harakatlardan farq qilib, motiv tufayli sodir bo'ladi.

Inson irodaviy faoliyatining motivlari xilma-xildir, kishining intilishi va hohishlari qaysi ehtiyojlardan kelib chiqsa, avvalo shu ehtiyojlar *ixtiyoriy motivlarga* kiradi. Ma'lum maqsad va unga erishish yo'llarini tanlash ko'pincha biror ehtiyojning mazmuniga va ahamiyatiga bog'liq. Kuchliroq ehtiyoj boshqa motivlar orasida kuchliroq motiv bo'lishi mumkin.

Bir necha maqsad yoki ularga olib boruvchi bir necha yo'l bo'lgan taqdirda ularning ma'qul yoki noma'qul ekanligi chamalab ko'riladi. Biron maqsad va bu maqsadni amalga oshirish yo'llarini belgilab beruvchi yoki belgilab bermaydigan har qanday narsa *harakatning motivi* deb ataladi. "*Motiv – deb yozadi I.P.Ivanov – kishi nima uchun o'z oldiga boshqa bir maqsadni emas, balki aynan shu maqsadni qo'yishi kerak, nima sababdan u o'z maqsadiga erishmoq uchun boshqa bir yo'llar bilan emas, balki xuddi shu yo'l bilan harakat qilishi kerak degan savolga javobdir*".

Maqsad va unga erishish yo'llarini tanlash jarayonida odatda tafakkur va hissiyot ishtirok etadi.

Tafakkur faoliyati (fikir qilish) bu yerda asosan har bir motivga "qarshi "yoki "tarafdor"likni muhokama qilib asoslashdan iborat bo'ladi. Kishi motivlarni muhokama qilishda va asoslab berganda odatda ayni hodisa yuzasidan yoki o'zining xatti-harakatlarida doimo asoslanadigan ma'lum bir faktlardan tamoyil va qoidalardan foydalanadi. Motivni shu tariqa muhokama qilish va asoslab berish *motivatsiyalash* deb ataladi.

Maqsadni va unga erishish yo'lini tanlash jarayonida hissiyot turtki rolini o'ynaydi. Hissiyot ayrim tasavvur va motivlarni yorqin, jonli va jozibali qilib ko'rsatadi. Hissiyot kishining intilishlarini faollashtiradi va susaytiradi, hissiyot biron maqsadni, biron harakat yo'lini tanlab olishga turtki beradi.

Maqsadlarga, erishish yo'llarini va vositalarini tanlash sharoiti ba'zan ichki kurash xarakteriga ega bo'ladi, bu kurashda turli kuch va jozibaga ega bo'lgan bir necha motiv maydonga chiqadi. Shuning uchun ham bu jarayon *motivlar kurashi* deb yuritiladi.

Motivlardan biri ko'proq asosli, ikkinchisi kamroq asosli ekanligi ularning kurash jarayonida oydinlashib qoladi, ba'zi motivlar kuchliroq hissiyot bilan maydonga chiqsa, ba'zi motivlar sust hissiyot bilan maydonga chiqadi.

Ko'pincha motivlar kurashi tafakkur (aql) bilan hissiyot o'rtasidagi kurashdan iborat bo'ladi. Odam ba'zan "ikkiga bo'linib" qoladi: "Aql uni desa, hissiyot (ko'ngil) buni deydi".

Motivlar kurashi ba'zan har xil hislar o'rtasidagi, *masalan*, burch hissi bilan unga zid bo'lgan qandaydir boshqa shaxsiy his o'rtasidagi kurash tarzida boradi.

Bu motivlar ko'pincha bir-biriga qarshi ta'sir ko'rsatadi, qarorga kelish va uni ijro etishni paysalga solib, iroda jarayonini susaytiradi. Motivlarning bunday kurashida kishida ichki konflikt holati vujudga keladi.

Ana shunday ichki ziddiyat holati bu ziddiyatdan qutilishga intilishi bilan ko'pincha shu zid holatidan qutilish yo'lini yengillashtiruvchi yo'llarni axtarish bilan bog'langan bo'ladi.

Ichki nizo holati g'oyat ko'ngilsiz noxush holat sifatida kechishini har kim o'z tajribasidan biladi. Kishi dunyo va hayotni ravshan tasavvur qilgandagina ish va harakatlarga, ahloq qoidalariga amal qilgandagina uning shaxsiy motivlari jamiyat manfaatlariga qo'shilib ketgandagina ichki nizo holatiga yo'l qo'yimasligi yoki undan qutilishi mumkin.

Qarorga kelish. Maqsadga yetishish yo'llarini va vositalarini tanlash jarayonida rejalashtirish, motivlar kurashi bilan bog'langan bo'lib, qarorga kelish bilan tugaydi. **Qarorga kelish**-muayyan bir maqsadni va shu maqsadga erishish yo'lida harakat usullaridan birini tanlab olish demakdir. Motivlar kurashida buning ma'nosi shuki, motivlardan biri hal qiluvchi rol o'ynagan bo'ladi. *Masalan*, kechqurun qayoqqa borish kerak – teatrgami yoki o'rtog'ining yonigami-degan motivlar kurashi natijasida kishi bormoqchi bo'lgan joyi haqida qarorga keladi.

Kishi ba'zan tez qarorga keladi, bu qarorning bajarilishi mumkinligiga ishonadi. Buni qat'iyat deb ataymiz. Ba'zi motivlar kurashi uzoq vaqtga cho'zilib ketadi va qaror bajarilishiga ishonchsizlik hamda ikkilanishlar bilan qabul qilinadi. Bu qat'iyat sezgirikdir. *Masalan*, o'rta maktabni bitirayotgan va bitirgan ba'zi yigit-qizlar qaysi o'quv yurtiga yoki korxonaga kirish masalasini tez hal qiladilar, boshqalari esa juda uzoq vaqt ikkilanib, xayolga tolib yuradilar. Qat'iyat odamda jiddiylik vaziyatining yengillashtirishi mamnunlik tuyg'usini tug'dirsa, qat'iysizlik ikkilanish hissi, jiddiylik tuyg'usi va alohida noaniq holat bilan birga sodir bo'ladi.

Biror qarorga kelish sur'ati bir qancha sabablarga, jumladan, ehtiyojga, hal qiluvchi motiv kuchiga, vaziyatga, hissiyatga tafakkur va xayolning taraqqiyot darajasiga, kishining turmush tajribasi va bilimlariga, temperamenti va xarakteriga, boshqa kishilarning nasihat, buyruq, iltimos takliflariga quloq solishiga bog'liq bo'ladi. Biror qarorga kelish sur'ati asosan qo'yilgan maqsadning ahamiyatiga, biror qarorga keltiruvchi faoliyatning xarakteriga bog'liq bo'ladi.

Murakkab tarzda motivlar kurashi va qarorga kelish faqat shunday hollarda bo'ladiki, bunda odamning hayoti va faoliyati uchun ayniqsa, muhim ahamiyatga ega bo'lgan yangi maqsadlar qo'yiladi va bu maqsadlarni amalga oshirish uchun yangicha usullar va vosita talab qiladi.

Qat'iyat faqat tezlik bilan qarorga kelishdagina emas, shuningdek, bu qarorni tez va dadil bajarishda ham zohir bo'ladi. Tezlik bilan qarorga kelish va uni aniq belgilangan muddatda bajarish – qat'iyatni namoyon qilish demakdir.

Qaror qabul qilinsa-yu, keyin o'zgartirilsa, yoki boshqa qaror bilan almashtirilsa, yoxud butunlay bekor qilinsa, bunday **qarorni yuzaki yoki bo'sh qaror** deb ataladi. Qat'iyat va mustahkam qarorga kelish-irodaning yuksak sifatidir.

Qabul qilingan qarorning o'zgarishi ko'pincha yana bu qaror to'g'risida yetarli darjada o'ylamaslikdan, emotsional holatning o'zgarishidan yoki kishi harakat qilayotgan sharoit o'zgarishidan kelib chiqadi. Qarorning o'zgarishi ko'pincha motivlar kurashining qaytadan boshlanib ketishiga va oxirgi marta qat'iy qaror qabul qilishga olib keladi.

Qarorni ijro etish. Qaror unga muvofiq keladigan choralar ko'rish va harakat qilish uchun qabul qilinadi. Qarordan harakatga o'tishni *ijro qilish* (yoki bajarish) deyiladi. Irodaviy jarayonda eng muhim narsa-qabul qilingan qarorni ijro etishdir.

Irodaviy harakatlar ikki xil bo'ladi: *jismoniy va aqliy harakatlar*. Jismoniy harakatlarga har xil mehnat operatsiyalari, o'yin, sport mashg'ulotlari va boshqalar kiradi. Aqliy harakatlarga esa masala yechish, yozma ishlar, dars tayyorlash, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish va shu kabilar kiradi. Ko'p vaqt takrorlanib, o'zlashib ketgan ko'nikma va odat bo'lib ketgan harakatlar ham murakkab irodaviy harakatlardandir.

Qarorni ijro etish odatda ma'lum vaqt, muddat bilan bog'liq bo'ladi. Qaror kechikmasdan belgilangan vaqtda ijro etilsa bu irodaning ijobiy sifatidan dalolat beradi. Bu esa ishchanlik, puxtalikni bildiradi.

Ammo qabul qilingan qaror hamisha bajarilavermaydi. Ayrim hollarda esa o'z vaqtida ijro etilmay qoladi. Kishining ba'zi bir holatlarida a'zoyi-badani bo'shshib turganda, xafalik chog'ida o'z kuchlari va imkoniyatlaridan hafsalasi pir bo'lib turganda qaror ha deganda bajarilavermaydi. Qarorni bajarishda ro'y beruvchi to'sqinliklar oldindan nazarda tutilmaganda yoki maqsadning o'zi vaziyat o'zgarishi bilan kerak bo'lmay qolganda shunday bo'ladi.

Shunday hollar ham bo'ladiki odam ko'pgina qaror qabul qiladi, ammo qarorning ijrosi cho'zilib ketadi, paysalga solinadi, boshqa muddatlarga ko'chiriladi. Ijrosi paysalga solinadigan yoki butunlay ijro etilmaydigan qarorlar ko'pincha *niyatlar* deb ataladi. Ancha vaqtdan keyin, lekin muayyan muddat o'tgach ijro etiladigan qarorlar ham *niyatlar* deb ataladi. *Masalan*, o'quvchi yoki talaba o'quv yilining boshida barcha imtihonlarni faqat "a'lo" baholar bilan topshirishga qaror qilishi mumkin.

Irodaviy zo'r berish. Qabul qilingan qaror to'g'ridan-to'g'ri, avtomatik ravishda amalga oshirilavermaydi. Qabul qilingan qarorni amalga oshirish uchun ongli ravishda irodaviy zo'r berish ham kerak.

Irodaviy zo'r berish ongning avvalo nerv-muskul apparatining zo'riqishida ifodalanadi va organizmning tashqi ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Irodaviy zo'r berishning ana shu ifodali tomoni odamning iroda holatini tasvirlovchi badiiy asarlarda gavdalanitirilganini ko'p uchratish mumkin.

Ba'zi odam irodaviy zo'r berolmagani sababligina qabul qilgan qarorni muddatida ijro etolmaydi. Bunday hollarda "bajarsammikan yoki yo'qmi" degan yangi kurash ham boradi. Zo'r berish uchun yana kuch sarflashga to'g'ri keladi. Kuch sarflay olmaslik yoki bu masalada ikkilanish irodaning shu paytdagi bo'shligini ko'rsatadi. Qabul qilingan qarorni zo'r berish yo'li bilan ijro etish irodaning muhim belgisi hisoblanadi.

Irodaning o'ziga xosligi ongli ravishda zo'r berishning biron darajasida bajariladigan harakatlardan iborat.

Irodaviy zo'r berish va irodaviy harakat maqsadga erishish yo'lida uchraydigan to'siqlarni yengishda namoyon bo'ladi. Kishining irodasi juda katta to'siqlarni yengishga to'g'ri kelganda, ayniqsa yaqqol ko'rinadi. Irodaviy zo'r berish va irodaviy harakatlar yo'li bilan yengishga to'g'ri keladigan to'sqinliklar ikki xil: *ichki va tashqi to'sqinliklarga* bo'linishi mumkin.

Irodaviy zo'r berish yo'li bilan yengishga to'g'ri organizmi va psixikasining holatidir. Odam tinc faoliyatsiz holatda bo'lishi mumkin, *masalan*, dam o paytida shunday holat bo'ladi. Biron ish bilan shug'lanishni yalqovlikka undovchi mayl ham shunday holat

Irodaviy zo'r berish yo'li bilan avvalo organizm uni faol holatga keltirish zarur bo'ladi. *Masalan*, kurashi) turlicha qaror qiladi va o'zini majbur qil yengish uchun ba'zan juda ko'p zo'r berishga to'g'ri

Irodaviy zo'r berish yo'li bilan kishining aqli keltiriladi. *Masalan*, ma'ruza boshlanishi bilan talat solib, diqqatni bir joyga to'playdi, irodaning barqaror esda olib qolish jarayonlarini kuchaytiradi.

"Harakat qilish o'ziga qanday o'rgatilgan b harakatni to'xtatib qolishni boshqarishga ham shunda

Kishi irodaviy zo'r berish yo'li bilan ixtiyorsiz yubormaydi, balki shu faollik ko'rinishlarini faqat o ixtiyorsiz faollik ko'rinishlarini bosilishi *vazminlik* de

Iroda-avvalo kishining o'zini qo'lga olib bilishi ehtiroslarini bosa bilishi demakdir. Iroda kishining c xulqi va faoliyatini anglab, bilib tartibga solish va bos

Kishining ichki to'siqlarni yenga olish, o'zi hukmronlik qila olish qobiliyati odatda *ichki iroda* de berish yo'li bilan tevarak-atrofdagi voqeilikda uchray zarur bo'ladi. Kishi o'z oldiga qo'yilgan maqsad qilayotgan to'sqinliklarni yengib o'tadi, voqelikni o' o'zgartiradi va uni o'z ehtiyojlariga moslashtiradi qi'yinchiliklarini yenga olish qobiliyati *tashqi iroda* de

Ammo irodani faqat shartli ravishda ichki va tas Inson irodasi bitta, lekin u tashqi olamdagi o'zgarti bilan birga shaxsiy, subyektiv holatlarni va jarayonlar mumkin. Modomiki, shunday ekan, tashqi to'sqinlikle yengish bilan chambarchas bog'liqdir.

Inson tashqi olamga ta'sir etar ekan, tashqi ola bir vaqtda o'zini, o'z organizmini, qo'l-oyoq muskul tarangligini kuchaytiradi yoki susaytiradi, ularning butun organizmning moslashish vaziyatini vujudga vaziyatni o'zgartiradi va hokazo. Shu bilan birga ixti faoliyatida odamning ixtiyoriy faollik ko'rinishlari to'g'ri keladi. Shuning uchun odamning irodaviy zo'r tashqi to'sqinliklarni yengishga qaratilishi bilan b ahvolini ham o'zgartiradi. Inson tevarak-atrofdagi v vujudini ham o'zgartiradi.

Irodaviy harakatlar bajarilgandan keyin ular etilgandan keyin, ba'zan esa qarorni bajarish jarayon

baho berish, qarorni qanday ijro etilganligiga baho berish kerak bo'ladi. Qarorni ijro etish yuzasidan qilingan baho berish qabul qilingan qarorni hamda qilinadigan ishni ma'qullash, oqlash yoki qoralashdan iborat bo'ladi. Bu baho qabul qilingan qaror yoki bajarilgan harakatlardan mamnun bo'lish yoki mamnun bo'lmaslik tufayli kelib chiqqan maxsus hissiy kechinmalarda ifodalanadi. Salbiy baho ko'pincha qilingan ishlarga pushaymon bo'lish, achinish, uyalish va afsuslanish kabi hislar tug'ilishiga sabab bo'ladi. Qilinayotgan yoki qilinadigan ishlarga beriladigan baho qabul qilingan qarorni yoki bajarilgan harakatlarni ma'qullovchi, oqlovchi yoki qoralovchi maxsus hukmlarda ifodalanadi.

Qilinayotgan yoki qilinadigan ishlarga ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, estetik va boshqa nuqtai nazardan baho beriladi. Mana shunday baho berishdan kelib chiqadigan his va hukmlarda kishining dunyoqarashi, ahloqiy sifatlari va tamoyillari, shu bilan birga xarakteri va qiziqish – havaslari ham yaqqol namoyon bo'ladi.


Qarorni bajarish yuzasidan qilingan ishlarda kishining o'zi baho beribgina qolmaydi, balki kishi qaysi jamiyatda yashasa va ishlasa o'sha jamiyat ham baho beradi.

Odam qilgan yoki qilayotgan ish harakatlariga tevarak-atrofdagi kishilar ijobiy baho bergandan keyin ichki ma'naviy qanoat his qiladi hursand bo'ladi va kuchiga kuch qo'shilgandek bo'ladi. Ayrim ish-harakatlariga salbiy baho berilganda esa kishi o'ziga xos uyalish hissini ko'nglidan kechiradi va vijdon azobiga uchraydi.

Qilingan ish-harakatga berilgan baho kishining faoliyatida katta amaliy ahamiyatga egadir. Bu baho kishining keyingi faoliyati uchun rag'bat va motiv bo'lib qoladi. Salbiy baho odatda ayni faoliyatni to'xtatish yoki o'zgartirishga motiv bo'ladi. Ijobiy baho faoliyatni davom ettirish, kuchaytirish va yanada yaxshilashga, jumladan mehnat unumdorligini oshirishga rag'batlantiradi.

Shaxsning irodaviy sifatlari

Kishining irodaviy sifatlari ya'ni iroda kuchi, mustaqilligi jihatidan ayrim hollarda turlicha namoyon bo'ladi. Irodaviy sifatlarning klassifikatsiyasi sxema tarzida quyidagicha ifodalanadi.



Har bir kishida irodaning ayrim sifatlari umr bo'yi mustahkamlanib, shu odamning xususiy sifatlari (ya'ni doimiy xislatlari) bo'lib qolishi mumkin. Shaxsning bu o'ziga xos xususiyatlari *xarakter xislatlari* deb ataladi. Har bir kishidagi biron bir

irodaviy sifatlarning har qanday namoyon bo'lishi shu kishi xarakterining xislati bo'lavermaydi.

Ayrim hollarda hatto tasodifiy ravishda kishi kuchli iroda ko'rsatishi mumkin, ayrim hollarda mazkur kishining irodasi, umuman kuchli iroda kuchi shu kishi xarakterining xislati ekanligidan dalolat beravermaydi. Bu kishining irodasi kuchli deb aytish uchun uning iroda kuchini bir marta emas, bir necha marotaba namoyon qilganini bilmoq kerak.

Kishining xarakterini ta'riflaganimizda falon kishi dadillik qildi, rost gapirdi demasdan, balki bu odam dadil, rostgo'y, to'g'riso'z deb ataymiz. Buning ma'nosi shuki dadillik va rostgo'ylik, to'g'riso'zlik shu odamning xususiyatlaridir, xarakter xislatlaridir, tegishli sharoitda bu kishi dadillik, rostgo'ylik, to'g'riso'zlik xislatlariga ega ekanligini namoyon qildi deb aytamiz. Kishi xarakterini, xislatlarini bilib olgach, uning biron ish-harakatda qanday yo'l tutishini ancha aniq bilib olamiz, oldindan aytib bera olamiz.

Iroda kuchi va xarakter qat'iyati. Iroda ma'lum kuch bilan yuzaga chiqadi: ba'zi hollarda kishining irodasi kuchli sur'atda namoyon bo'lsa, boshqa hollarda kuchsiz namoyon bo'ladi.

Iroda kuchi irodaning muhim sifatidir. Iroda kuchining turli darajasi irodaviy jarayonning hamma bosqichlarida ko'rinadi. Iroda kuchi avvalo ehtiyojlarni his qilishda va intilishda ko'rinadi, biz kuchli hamda kuchsiz intilishlarni, kuchli hamda kuchsiz xohishlarni farq qilamiz.

Iroda kuchi ravshan va aniq maqsad qo'yishda, shuningdek mazkur maqsadga yetishishga yordam beradigan yo'l, vosita va usullarni ochiq tasavvur qilishda namoyon bo'ladi. Bu ochiq ravshanlik darajasi esa kishining turmush tajribasiga, bilimiga va umumiy saviyasiga bog'liq. Aniq maqsad qo'yishda inson tafakkuri va ayniqsa real xayollar (fantaziya) ning taraqqiy etishi xususiyatlari katta rol o'ynaydi.

Iroda kuchi tezlik bilan qarorga kela olishda va qarorni mustahkamligida, sabotlilikda ko'rinadi. Yuksak g'oyaviy tamoyillarga asoslangan oqilona qat'iyatlik va sabotlik kuchli iroda belgilaridandir. Qat'iyatsizlik ikkilanish, qabul qilingan qarorning bajarilishiga shubha bilan qarash va sabotsizlik kuchsiz iroda belgilaridandir.

Iroda kuchi jasorat deb ataladigan dadillikda ayniqsa ravshan ko'rinadi. Jasorat kishining shunday holatiki, bunda kishi tez qarorga keladi va uni bajarishga ahd qiladi. Hatto salomatligini va hayotini xavf ostida qoldirishi mumkinligi hayoliga ham kelmaydi. Jasorat kishining boshqa kishilarga emas, balki o'ziga bergan amridir. Kishi ahloqiy burchining talabiga ko'ra, buyuk maqsadga erishish uchun bir zumda hayot bilan o'limdan birini tanlab olsa, bunday jasorat iroda kuchi ekanligini ko'rsatadi.

Jasorat shunday qarorki, u go'yo ish-harakatga aylanadi. Bu ish-harakat esa kuchli zo'r berishni talab qiladi. Xarakter xislati bo'lgan dadillikda odamning qanchalik puxta o'ylab ish ko'rishiga qarab, bu dadillik maxsus tusga kiradi.

Puxta o'ylab ish ko'rishni o'zi yuksak g'oyaviylikka va kishining axloqiy tamoyillariga asoslangan taqdirda ijobiy xislat hisoblanadi. O'ylab, shoshmasdan bir qarorga keladigan kishilarni *mulohazakor kishilar* deb ataymiz.

Odatda o'zgaruvchan ayrim hislar kayfiyatlar ta'sirida tez bir qarorga keladigan xarakterli, dadil kishilar ham mavjud. Bular hissiyotga beriladigan tasodifiy kayfiyatli kishilardir. Bunday kishilar odatda sabotsizligi, shoshma-shosharligi va kalta o'ylashi bilan ajralib turadilar. Kishi uncha ikkilanmasdan o'ylab, e'tibor bilan to'g'ri bir qarorga kelsa va shu qarorni dadil amalga oshira bilsa, dadillik xarakterning ijobiy xislati bo'ladi.

Bir necha imkoniyatdan birini tanlab olishga to'g'ri keladigan ish – harakat bir qadar xavf-xatar bilan bog'langan bir murakkab vaziyatda dadillik ayniqsa yaqqol ko'rinadi. Qat'iyatsizlik xarakterning salbiy xislatidir, qat'iyatsizlikda kishi sustlik bilan bir qarorga keladi, qabul qilgan qarorini ko'pincha o'z vaqtida bajarmaydi. Bunday odam qabul qilgan qarori to'g'riligiga shubhalanadi, turli imkoniyatlardan birini tanlab olishda ikkilanadi, ayniqsa qiladigan ish-harakatlari xavf-xatar bilan bog'langan bo'lsa, shunday ahvolga tushadi. Shu sababli qat'iyatsiz kishilar ko'pincha kam faolliklari bilan ajralib turadilar yoki umuman passiv bo'lib, yalqov, tanbal degan taassurot tug'diradilar.

Sabotlilik dadillikka chambarchas bog'liq bo'lib, xarakterning ijobiy xislati hisoblanadi. Xarakterning bu xislatiga ega bo'lgan kishilar qabul qilgan qarorlarini odatda o'zgartirmaydilar, bekor qilmaydilar va bu qarorlarini bajarmasdan qo'ymaydilar. Bu kishilar va'dalarining ustidan chiqadilar, aytgan so'zlarini albatta qiladilar, ularning gapi bilan ishi bir bo'ladi. Ularga ishonsa bo'ladigan subutli insonlardir.

Qabul qilingan qarorlarini ko'pincha bekor qiladigan, bergan va'dalarini ustidan chiqmaydigan, aytgan so'zidan tonadigan kishilar subutsiz hisoblanadi.

Kishi irodasining kuchi va qat'iyati xarakterning irodaga bog'liq bo'lgan qaysi xislatlarida ifodalangan bo'lsa o'sha xislatlar eng yorqin xislatlardan hisoblanadi. Bu xislatlar har bir kishining xarakterida bir qadar namoyon bo'ladi. Ammo hamma kishilarni va har qanday odamni irodasi kuchli, xarakteri kuchli deb bo'lmaydi. Balki shu sifatleri bilan boshqa kishilardan ajralib turgan odamlargina irodasi kuchli, xarakteri qat'iy deb ataladi. Iroda kuchi va qat'iyati odamning o'zini tuta bilishida, jasurligida, matonatida va chidamliligida namoyon bo'ladi.

Iroda kuchi qabul qilingan qarorni o'z vaqtida bajarishda ko'rinadi. Shuning uchun qarorni bajarmaslik yoki uning bajarish muddatini doimo paysalga solish, galdan-galga qoldiraverish, boshlagan ishini oxiriga yetkaza bilmaslik irodaning kuchsizligi alomatidir.

Lekin qabul qilingan qarorni bajarish har qanday qilingan ish-harakatning, irodaning kuchli ekanligidan darak beravermaydi. Iroda kuchi asosan irodaviy harakatlar yordami bilan qanday to'siqlar yengilganiga va shu yo'l bilan qanday natijalarga erishilganligiga qarab aniqlanadi. Irodaviy zo'r berish vositasida bartaraf qilinadigan qarshilik va qiyinchiliklar darajasi va xarakteri iroda kuchining obyektiv ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Kishi katta to'sqinliklarni, qiyinchiliklarni, qarshiliklarni irodaviy zo'r berish va irodaviy harakatlar yordami bilan bartaraf qilib, zo'r muvafaqqiyatlarga erishsa, bu kishi irodasi kuchli ekanligini ko'rsatadi.

Kosmonovtlar mislsiz iroda kuchini butun jahonga namoyish qilishadi. Bu qahramonlar kosmik parvozlarga tayyorlanish davrida ham, parvoz paytida ham o'z

irodalarining yuksak sifatlarini namoyish etadilar. Bu qahramonlar kuchli iroda va uning xilma-xil ko'rinishlari o'z xarakterining asosiy xislati bo'lgan kishilarning yorqin misolidir.

Kishi irodasining kuchsizligi uning juda arzimas to'sqinliklarni ham bartaraf qila olmasligida ko'rinadi. *Masalan*, ba'zan kishi biron kerakli xatni yozishga yoki biron zarur ishni boshlashga o'zini majbur eta olmaydi.

Irodaning kuchsizligi odatda *irodasizlik* deb ataladi. Qarorni bajarish jarayonidagi ixtiyoriy ish-harakatlardagi iroda kuchi o'zini tuta bilishda, jasurlik, sabot va matonat, chidam va toqatda namoyon bo'ladi.

O'zini tuta bilish nomidan ham bilinib turibdiki, kishining o'zini idora qila bilishi va o'zini qo'lga ola bilishi demakdir. O'zini tuta bilish kishining oldiga qo'ygan maqsadlariga yetishuvda to'sqinlik qiluvchi, irodasini bo'shashtiruvchi ichki holatlarni yengishda ko'rinadigan kuchli irodadir. Bunday holatlarga *masakan*, qo'rqish, o'z kuchlariga ishonmaslik, zerikish, qayg'urish hissi kiradi. Bunday holatlar kishini faoliyat ko'rsatmaslikka rag'batlantiradi yoki qo'yilgan maqsadlarga qarama-qarshi bo'lgan g'ayri ixtiyoriy harakatlarda o'z ifodasini topadi. Bunday holatlar har kimda bo'ladi. Ammo odamning shaxs sifatidagi xususiyati shundan iboratki, u o'zidan ana shu salbiy va keraksiz holatlarni iroda kuchi bilan o'zgartira oldi yoki bartaraf qila oladi. Bu borada **K.D.Ushinskiy** quyidagi so'zlamni keltirib o'tadi: "*Qo'rquvni his qilmasdan xavf-xatarga o'zini uradigan kishi mard emas, balki eng kuchli qo'rquvni ham bosa oladigan va qo'rquv ta'siriga berilmagan, xavf-xatarni o'ylamaydigan kishi marddir*".

O'zini tuta bilish kishi xarakterining xislati bo'lib, asosan ichki irodaning namoyon bo'lishidan iborat. Bu xislat kishining o'z xulq-atvorini nazorat qila bilishda o'zini, o'z harakatlarini, nutqini qo'lga ola bilishida, shu sharoitda keraksiz yoki zararli deb qaraladigan harakatlardan o'zini tiya bilishida ifodalanadi. Xarakter shu xislatiga ega bo'lgan kishilar o'zlarini qo'lga ola biladilar. Ular o'zlarini tuta biladilar, ular uyushqoq kishilardir.

O'zini tuta bilmaslik irodaning kuchsizligini yaqqol ko'rsatuvchi belgidir. Odam o'zini qo'lga ola bilmaganda o'z mayllarini, ixtiyorsiz harakatlarini nazorat qila olmaganda g'ayri ixtiyoriy faollik ko'rinishlari reflekslar, instinktlar, tasodifan ko'ngildan kechadigan hislar, qo'rquv, hadik-shubha, gumon, g'azab, rashk, ichiqoralik, affektiv holatlar va shu kabilar kishi irodasini bo'g'ib qo'yadi. Bunday hollarda odam o'zini tiya olmay qoladi.

O'zini tiya olmaslikning eng yomon ko'rinishi buzuqlikdir. Buzuqlik butunlay instinktlar va salbiy emotsiyalar ta'sirida bo'lish demakdir.

Jasurlik kishining omonligi va hayoti uchun havfli bo'lgan to'sqinliklarni bartaraf qilishda ko'rinadigan iroda kuchidir. *Masalan*, parashyutchi har gal o'zini samolyotdan tashlaganda jasurlik qiladi. Jasurlik o'zini tuta bilishga chambarchas bog'liq. Jasurlik bor joyda o'zini tuta bilishlik mavjud. Kishi o'zini tuta bilsa jasurlik qila oladi. Biron maqsadga yetishish yo'lida mutassil jasurlik ko'rsatish, dovyuraklik *jasorat* deyiladi.

O'zining hayoti uchun xatarli to'sqinliklarni yengishga doimo tayyor turgan va shunday to'sqinliklarni yenga oladigan kishilarni *jasur kishilar* deb ataymiz. Bular xavf-xatardan cho'chimaydigan, xarakteri kuchli, dovyurak, botir kishilardir.

Jasurlikning yo'qligi irodaning kuchsizligini ko'rsatadi. Buni *qo'rqoqlik, nomardlik* deb ataymiz. Irodasi kuchsiz bo'lgan bunday kishilar odatda *qo'rqoq, yuraksiz kishilar* deb ataladi. Sabot, matonat ma'lum maqsadga yetishda ko'pincha uzoq vaqt davomida irodamizga ta'sir etib turuvchi katta to'sqinlik va qiyinchiliklarni bartaraf qilishga to'g'ri keladi. Irodaning bunday ko'rinishi shaxsning eng muhim sifati bo'lib, iroda kuchining yaqqolligini ko'rsatadi.

Sabot, matonat – qandaydir bir aniq maqsadni ko'zlab, muntazam ravishda irodaviy zo'r berish demakdir.

Ammo kishilarning hayoti va faoliyatida ba'zan shunday hollar ham bo'ladiki, kishi o'z oldiga qo'ygan qandaydir zarur maqsadlarni bajarishda yetib bo'lmaydigan yoki kishiga shunday bo'lib tuyuladigan to'sqinliklarga uchrab qoladi. Bunday hollarda kishi ba'zan qabul qilgan qarorni o'zgartiradi, bekor qiladi, u qiyinchiliklardan qo'rqishi va o'z oldiga qo'ygan maqsadidan voz kechishi mumkin. Ba'zan shunday bo'ladiki, talaba to'satdan o'qishni tashlaydi. Ilgari tanlagan ehtiyojidan voz kechadi, boshlagan ishini oxiriga yetkazmay, o'lda-jo'lda qoldirib ketadi.

Kishi o'z harakat, maqsadini yaxshi o'ylamaganda maqsadga yetishsa, yordam bera oladigan vosita va usullarni puxta o'ylamaganda, o'zining kuch – imkoniyatlarini yetarli yoki to'g'ri hisobga olmaganda odamda belgilangan maqsaddan shu tariqa qaytadi, irodasida chekinadi. Dastlabki muvaffaqiyatsizlikka haddan tashqari katta ahamiyat berilganda, bu muvaffaqiyatsizlikka noto'g'ri, yoki yengil baho berilganda, unga faqat salbiy tomondan qaraganda shunday bo'ladi. Kishi muvaffaqiyatsizlikka uchrash bilan bir vaqtda o'z kuchlariga, o'z imkoniyatlariga, o'z qobiliyatlariga ishonmaganda odam "ruhi tushib", o'zini passivlikka qo'l qovushtirib o'tirishga mahkum etadi. Albatta umuman irodasi kuchsiz kishilarda shunday bo'ladi. Bunday kishilar irodasining o'smaganligi, yetarlicha tarbiyalanmaganligi bilan farq qiladi.

Ammo irodali mavjudot bo'lgan odam hayot va faoliyatida jamiyat yoki o'zi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan maqsadidan qaytmasligi ham mumkin. U iroda kuchiga zo'r berib, to'sqinliklarga qarshi kurashni kuchaytirishi, qabul qilingan qaroriga yarasha uzoq vaqt ish ko'rishi mumkin. Barcha to'sqinlik va qiyinchiliklarga qaramay u zarur natijani qo'lga kiritmoq uchun damba-dam, orada vaqt o'tkazib zo'r berishi, g'ayratini ko'rsatib ishlashi mumkin.

Kutilgan maqsadga yetishda katta qiyinchiliklar va yengib bo'lmaydigan to'siqlar bo'lsa, kishi shu maqsadga yetishi uchun zarur yo'l, vosita va usullarni o'zgartirib, yangi usullarni qidirib topishi mumkin. Katta to'sqinliklarni bartaraf qilib, uzoq qunt qilib, maqsadga yetishda ko'rinadigan bunday iroda kuchi *sabot-matonat* deb ataladi. Shunday iroda sifatiga ega bo'lgan kishi esa sabot-matonatli, kuchli irodali, *qat'iy xarakterli kishi* deb ataladi.

Har qanday faoliyatning, jumladan o'qib, o'rganishning muvaffaqiyati sabot-matonatga bog'liq. Bilimli bo'lmoq uchun sabot-matonat kerak. Har bir sohada-texnika, san'at, muzika, sport va shu kabi sohalarda bilim va malaka ortirmoq uchun sabot-matonat kerak.

Sabot-matonat xarakterning eng qimmatli xislatidir. Bu xislat kishining maqsadga yetish yo'lida qanday qiyinchilik va to'sqinliklar bo'lishidan qat'iy nazar shu maqsadga erishishida o'z ifodasini topadi.

Xarakter xislati bo'lgan sabot-matonat ba'zi kishilar faoliyatining hamma sohalarida namoyon bo'ladi boshqa kishilarda esa bu xislat ularning manfaatlari bilan bog'langan, va ayrim faoliyat sohalarida ko'rinadi.

Sabot-matonatli kishilar boshlagan ishlarini hamisha oxiriga yetkaza biladilar. Ular o'zlariga nisbatan ham boshqa kishilarga nisbatan ham talabchan bo'ladilar.

Sabot-matonatli kishilar muvaffaqiyatsizlikka uchraganda ruhini tushirmaydi, balki aksincha, maqsadga erishish uchun ishga yanada qat'iyroq kirishadi, shu maqsadga erishishning yangi yo'l va vositalarini izlab topadi.

Sabot-matonatli kishilar o'ziga va boshqa kishilarga nisbatan talabchanligi bilan ajralib turadilar. Ular belgilangan yo'ldan yurishlariga to'sqinlik qila oladigan hamma narsaga qarshi tura oladigan, bu to'sqinliklarni yenga oladigan matonatli kishilardir.

Sabot-matonat irodaning chidam va toqat degan sifati bilan ham chambarchas bog'liq.

Maqsadga yetishda bartaraf qilinadigan to'sqinlik va qiyinchiliklar kishidan kuch va vaqt sarf qilishni talab etibgina qolmay, balki ko'pincha jismoniy va ruhiy azob beradi ham.

Kishining o'z faoliyatida ba'zan sovuq va issiqdan, yomg'ir va qordan, qattiq toliqish, och qolishdan, hamma turli kasalliklardan azob chekadigan kishi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga sodiq bo'lib shu maqsadga yetishga intilaversa, bunday intilishlarda ko'rinadigan iroda *chidam va toqat* deb ataladi. Odamning organizmidagi yemirilish jarayonlarini yengishda ifodaladigan ajoyib iroda o'zini tuta bilish va matonatni ko'rsatadigan misollar talaygina bo'lib, u quyidagi misollardan birida keltirib o'tiladi.

Sobiq sovet uchuvchisi Aliyevning bir o'zi havo jangida dushmanning yetitta samolyotiga qarshi mardonavor kurashdi va hammasini urib tushirdi. Kuchlar teng bo'lmagan bu jangda Aliyevning samolyotini dushman o'qlari teshib yuborgan edi. Aliyev o'zi bir necha bor yaralandi. Ammo u o'zini yo'qotib qo'ymay, samolyoti bilan o'z aerodromiga borib qo'ndi. Aerodromiga yetib borguncha dushman egallab olgan yerlardan uchib o'tishi kerak edi. Dushmanning zenit to'plari Aliyevning samolyotini qattiq o'qqa tutdi va samolyotining bir necha joyini snaryad parchalari teshib yubordi. Uchuvchi yana bir necha marta yaralandi. Lekin Aliyev bu safar ham sarosimaga tushmay samolyotini boshqarib boraverdi va uni o'z aerodromiga eson-omon qo'ndirdi. Samolyot kabinasi ochilganda uchuvchi o'lgan edi. U ikki qo'lidan, oyog'idan, kuragidan, yelkasidan, orqasidan, jag'idan va boshidan yaralangan edi. Vrachning aniqlashishicha, og'ir yarador bo'lgan Aliyevning bu holda ucha olishi sira mumkin emas edi. Ammo Aliyev samolyotini boshqarib, aerodromga to'g'ri qo'na olgan. Uchuvchining irodasi va o'zini tuta bilishi tufayli o'qning yemiruvchi kuchlaridan g'olib kelib, umrining so'nggi daqiqalarini cho'zishga erisha oldi.

Sabot-matonatli chidamli va toqatli kishilar maqsadga yetishishda va qiyinchiliklarga qarshi kurash jismoniy va ruhiy azoblarga hamda boshqa

mashaqqatlarga chiday oladilar. Ular har qanday vaziyatda o'zlarini tuta oladilar, jasurlik, mardlik, botirlik, qat'iyat ko'rsata oladilar.

Bunday xarakterli kishilarga optimallik kayfiyati, hayotga quvnoqlik bilan qarash, porloq kelajakka doim ishonch bilan boqish, boshqa kishilarga o'z kuchlari va mehnat imkoniyatlariga yetishish kabi xislatlar xosdir.

O'zini tuta bilish jasurlik sabot-matonat, chidam va toqatda ko'rinadigan kuchli iroda *mardlik* deb ataladi. Shu sifatlar bilan farq qiladigan kishilar esa *mard kishilar* deb ataladi.

Kishilarning hayoti va faoliyatida shunday hollar ko'p bo'ladiki, bunda odam zarur paytida o'zini tuta olmay qoladi, jasurlik, sabot-matonat, intizomlilik ko'rsata olmaydi. Xarakter xislati irodasiz kishilar mavjud, bunday kishilar *irodasi kuchsiz yoki irodasiz kishilar* deyiladi. Bunday kishilar *irodasi kuchsiz yoki chidamsiz kishilar* deyiladi. Bular hatto arziyasiz qiyinchilik va to'sqinliklarni ham bartaraf qila olmaydigan kishilardir. Bular salgina muvaffaqiyatsizlik yoki qiyinchilik kelib chiqqanda ham o'z oldiga qo'ygan maqsaddan voz kechib ish-harakatini to'xtatadigan, o'z qarorini bekor qiladigan yuraksiz, qo'rqqoq kishilardir. Ular vaziyat talab qilganda zarur jasurlik sabot-matonat, chidam, toqat, qat'iyat ko'rsatmaydilar. Bular cho'chima, yalqov joni paxta kishilardir. Bunday kishilarning xatti-harakatlari odatda ularning o'zidan ko'ra tashqi sharoitga bog'liq bo'ladi.

Bunday xarakter xislatlarga ega bo'lgan kishilar pessimistik kayfiyatda bo'lib, dunyoga va hayotga umidsizlik bilan qaraydilar. Ular doimo barcha kishilarning salbiy, yomon tomonlarini ko'radilar, bu kishilarning fikricha, o'zlarining barcha kamchiliklari va muvaffaqiyatsizliklarining sababchisi boshqa kishilardir. Bu xildagi ba'zi kishilar passiv beparvo kayfiyatda bo'ladilar.

Irodaning mustaqilligi. Kishilarning irodaviy harakatlariga ularning mustaqillik darajasiga qarab ham baho beriladi. Irodaviy harakatlarning mustaqilligi kishining avvalo tashabbuskorligida ko'riladi. Tashabbuskorlik biror bir ishni shaxsan boshlab yuborish demakdir. Tashabbuskorlik odatda tevarak-atrofdagi sharoit hamda ijtimoiy hayot talablarini epchillik, mohirlik bilan hisobga olish va ko'pincha kelajakni, yangilikni oldindan ko'ra bilish qobiliyati bilan bir vaqtda namoyon bo'ladi.

Tashabbuskor kishi shaxsiy hayotida ham, ijtimoiy faoliyatida ham vaziyat va turmush talablarini hisobga olib biladi, shu bilan bir vaqtda vazifalarni ilgari suradi, qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun yo'l va vositalari tanlaydi va bu vazifalarni hal etishda faol ishtirok etadi. Mustaqillik qilinmagan va qilingan ish-harakatlar uchun javobgarlik sezishda ko'rinadi. *Javobgarlikni sezish* ayni harakatlarning to'g'riligiga, maqsadga muvofiq ekanligiga va zarurligiga ishonch hosil qilish demakdir.

Irodaning mustaqilligi yana boshqa kishilarning fikr, maslahat va takliflarini tanqidiy ko'z bilan mulohaza qilib chiqishda ham ko'rinadi. Tanqidiy ko'z bilan mulohaza yuritish xarakter xislati bo'lib, boshqa kishilarning birga maslahat va takliflarini diqqat bilan tahlil qilishda ko'rinadi, xarakterning shu xislati bo'lgan kishi boshqa kishilarning fikr va maslahatlariga e'tibor bilan quloq soladi, ularga muayyan tamoyillar nuqtai nazaridan baho beradi, ijobiy foydali narsani qabul qilib undan foydalanadi, salbiy befoyda narsani dalillar bilan rad etadi.

Ayrim kishilarning iroda mustaqilligi ba'zan qaysarlik kabi maxsus holatda ko'rinadi. Bu holat shundan iboratki, odam boshqa kishilarning aytgan hamma gaplariga, maslahat, iltimoslariga qarshilik ko'rsatadi. Qaysarlik qilayotgan odam yo buyirilgan ishni qilmasdan, o'z bilganini qilaveradi yoki buyirilgan ishni teskarisini qiladi.

Intizomlilik – xarakter xislati bo'lib, jamiyat talablariga ongli ravishda o'z ixtiyori bilan bo'ysina bilishda ko'rinadi. Intizomlilik, jumladan, belgilangan tartibga aniq rioya qilishda, olingan va'dani vijdonan bajarishda, o'z burchiga ongli ravishda bo'ysinishda o'z ifodasini topadi. Intizomli kishi mustaqil tashabbuskor bo'lib, ayni vaqtda qabul qilingan qarorlarni so'zsiz ijro etadi, jamiyat manfaatlariga va ahloq tamoyillariga itoat qila biladi.

Mustaqillik ayni vaqtda irodaning kuchli ekanligini ham ko'rsatadi. Iroda kuchi katta to'sqinliklarni bartaraf qila olish qobiliyati bilangina ifodalanmay, tashabbuskorlik ko'rsatish, mustaqillik, dadillik ko'rsatish va qabul qilingan qarorlar uchun, o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyat sezish bilan ham ta'riflanadi.

Irodaning axloqiyligi hayot va faoliyatda iroda kuchi, uning mustaqilligiga ijobiy yoki salbiy baho berganda qanday to'sqinlik va qiyinchiliklar bartaraf qilinganligini nazarda tutish bilangina cheklanib qolmay, asosan kishining axloqiy qiyofasi irodaviy harakatlarda qanchalik ifodalanishi, biron odamning irodasi naqadar ahloqiy ekanligi ham nazarda tutiladi.

Irodaning ahloqiyligi deganda odatda kishi o'z oldiga qanday maqsadlar qo'yilishi, bu maqsadlarga qanday vositalar bilan erishishi, irodaviy intilishlar (xohishlar) qanday mayllar tufayli kelib chiqishi va ma'lum bir qarorga kelishida qanday tamoyillarga amal qilishni nazarda tutamiz.

Irodaviy harakatlarda kishining axloqiy xislatlari namoyon bo'lsa, iroda kuchi ijobiy ahamiyatga ega deb hisoblaymiz. Ikkinchidan, kishilarning axloqiy hislarlari haqida fikr yuritilganda aytilgan so'zlarni emas, balki ularning ma'naviy qiyofasini ko'rsatadigan irodaviy harakatlarni nazarda tutamiz. Shuning uchun kuchli irodaning mardlik, o'zini tuta bilish, sabot-matonat, chidam va jasurlik kabi xususiyatlari irodaning axloqiy sifatleri deb hisoblaymiz.

Kishi biror qarorga kelishda o'z qarori va harakatlari uchun axloqiy mas'uliyat sezsa, uning irodasi axloqiy hisoblanadi. Kishining chinakam axloqiyliigi ma'naviy qiyofasi, so'zida va muhokamalarida emas, balki faoliyatida, ishida va asosan mehnatda, ya'ni mehnatga va ishning o'ziga mehr qo'yishida namoyon bo'ladi. O'zining intilish (mayllarida), qaror va harakatlari har doim ahloq tamoyillariga amal qiladigan kishilarni **axloqli kishilar** deb ataymiz.

Iroda borasidagi nazariyalar

Irodaning tadqiqoti uzoq tarixga ega bo'lib, u inson ongining mohiyatini kashf qilishdan boshlanib, muayyan bilimlar to'planishi tufayli shaxsning irodasi tabiatini tushunishga ilmiy yondashuv vujudga kelgan davrgacha bo'lgan tarixiy yo'lni bosib o'tgan.

Arastu o'z davrida irodani jon haqidagi fanning muhim tushunchasi deb e'tirof etgan. Uning fikricha, iroda inson xulq-atvorini o'zgartirishini boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgan omil hisoblanadi.

Gumanitar yo'nalish, ya'ni inson muammolariga e'tiborning ortishi bilan o'z-o'zidan irodani o'rganish ham dolzarb masalaga aylanib bormoqda. XVIII-XIX asrlarda bu muammo eng markaziy psixologik tadqiqot masalalaridan biri edi. Biroq psixologiya fanida XX asr boshlarida ro'y bergan inqiroz tufayli u ikkinchi rejaga o'tib qoldi, uni mutlaqo inkor etish mumkin emas.

XVII asrdayoq Gobbs va Spinozalar ta'kidlab o'tganlaridek, faollik manbaini bemahsul sohaning paydo bo'lishi, deb tushuntirish mumkin emas, chunki uning shaxsiy kuch-quvvatini hissiy intilish bilan uzviylikda qarash lozim. Spinozaning fikricha, iroda bilan aql aynan bir narsadir. Unga bunday yondashish irodaning ilmiy nuqtai nazardan tushuntirishni shakllantirgan bo'lsa, *ikkinchi* bir tomondan u mustaqil substansiya sifatida tan olindi. V.Vundtning mulohazasicha, irodaning negizida appersepsiya aktining subyekt tomonidan ichki faollik uniki ekanligini his etish yotadi. Uning bu konsepsiyasi emotsional yoki affektiv nom bilan psixologiya faniga kirib keldi. U.Djeymsning tan olishicha, irodaviy harakatlar boshqa ruhiy jarayonlarga qorishitirib bo'lmaydigan birlamchi xususiyatga egadirlar. Har qanday g'oya dastlab dinamik tendensiyaga ega bo'lganligi tufayli irodaviy aktning vazifasi diqqat yordami bilan bir g'oyaning boshqasi ustidan ustuvorligini ta'minlashdan iboratdir.

Yetarli darajada qat'iy fikr qaror topganligi, *iroda* – bu insonning qo'yilgan maqsadlariga erishish uchun qilgan faolligidir. Iroda tushunchasi mohiyatiga inson tomonidan maqsad qo'ya olish kabi shaxsiy gavdasini va xulqini idora qilish ham kiritiladi. I.V.Selivanov irodani tadqiq etish negizidan kelib chiqqan holda ayrim xulosalami chiqaradi:

a) *iroda*–bu shaxsning o'z faoliyatini va olamdagi o'zini-o'zi boshqarish shakllarini anglashning tavsifidir;

b) *iroda*–inson yaxlit ongining bir tomoni hisoblanib, u ongning barcha shakl va bosqichlariga taalluqlidir;

v) *iroda*–bu amaliy ong, o'zgaruvchi va qayta quriluvchi olam, shaxsning o'zini ongli idora qilishlikdir;

g) *iroda*–bu shaxsning hissiyoti va aql-zakovati bilan bog'liq bo'lgan xususiyatidir, ammo qaysidir harakatining motivi, turtkisi hisoblanadi.

V.I.Selivanov irodaning psixologik jabhalarini yoritayotib, u shunday g'oyani ilgari suradi, insonning ongini jarayonlar, holatlar, xislatlarni o'zida mujassamlashtiruvchi yaxlit tizim sifatida tasavvur qilish mumkin. Shaxsning u yoki bu ongli harakati o'zining tuzilishiga ko'ra bir davrning o'zida ham aqliy, ham hissiy, ham irodaviy hisoblanadi.

Tadqiqotchi V.I.Ivannikov esa irodani motivatsiyaning ixtiyoriy shakli sifatida tushunadi. Shuningdek, harakat ma'nosining o'zgarishi hisobiga tarmoqlovchi yoki qo'shimcha turini yaratuvchi imkoniyat yangi real motivlarni harakat bilan birlashtiruvchi, yoinki vaziyatning tasavvur motivi tariqasida talqin qiladi. Irodaviy boshqaruv esa harakatni "ixtiyoriy boshqaruv ko'rinishlarining bittasi sifatida"

tushuniladi, bunda boshqaruv motivatsiyaning ixtiyoriy o'zgarishi orqali amalga oshirilishi sifatida qaraladi.

Keltirilgan mulohazalardan ko'rinib turibdiki, psixologiya fanida irodani tushunish, ta'riflash bo'yicha bir xil munosabat yaratilmaganday, irodaviy sifatlarning ma'naviy asosini tahlil qilish yuzasidan ham umumiylik, mustaqillik, qat'iyatlilik, sabr-toqatlilik, intizomlilik, dadillik, jasoratlilik va tirishqoqlilikni kiritadi.

P.M.Yakobson bo'lsa, irodaning muhim sifatlari sifatida mustaqillik, qat'iylik, tirishqoqlik o'zini uddalashni ko'rsatadi. Insonda namoyon bo'ladigan irodaviy sifatlarni sarasiga **A.I.Shcherbakov** quyidagilarni kiritadi: sobitqadamlik va tashabbuskorlik, tashkillashganlik va intizomlilik, urinchoqlik va qat'iyatlilik, chidamlilik va o'zini uddalashlik, botirlik va jasoratlilik.

Iroda borasidagi tadqiqotlarda "ishonch" atamasi qo'llanilishi kamdan-kam hollarda qo'llaniladi. Shunga qaramasdan ishonch, iroda sifati tariqasida tadqiq etilishga haqlidir. Buning uchun **A.I.Shcherbakov** tomonidan quyidagicha tadqiqot ishi amalga oshirilgan. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, bir talabaga qisqa vaqt (fursat) ichida insitutni tugatish taklif qilingan, lekin sinaluvchi bu ishni uddasidan chiqolmaslikni oshkora bildirgan. Shundan so'ng tadqiqotchi talabada o'z kuchiga ishonch uyg'otishni maqsad qilib qo'ygan va unda irodaviy zo'r berish, qiyinchiliklarni yengish vositalarini shakllantirgan. Buning natijasida talaba o'z maqsadiga erishishga musharraf bo'lgan. Xuddi shu bois, hozirgi zamon psixologiyasining irodaga oid nazariyasi zaifligi tufayli irodaviy sifatlarni tasniflashning asosiy tamoyili ishlab chiqilmagandir.

Tayanch iboralar

Abuliy (yunon. Abule – irodani inkor etmoq) – eng oddiy, osongina masalalar bo'yicha ham ma'lum qarorga kelish qobiliyati yo'qligida namoyon bo'ladigan o'ta irodasizlik.

Iroda erkinligi – falsafiy – ahloqiy kategoriyani ifoda etuvchi tushuncha. U o'z - o'zini aniqlash jarayonida kishi irodasining moslashishiga bog'liq.

Lokus nazorat (lot. lokus joy) – odamning o'z faoliyati natijalariga javobgarligini tashqi kuchlardan ko'rish (eksternal, tashqi lokus nazorati) yoki o'zining qobiliyatlarini intilishlardan ko'rish xislati (internal, ichki lokus nazorati).

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan mavzular

1. Iroda haqida tushuncha.
2. Irodaviy faoliyatning umumiy xususiyatlari.
3. Iroda nazariyalari.
4. Irodaviy akt va uning tuzilishi.
5. Shaxsning irodaviy sifatlari.
6. Irodani tarbiyalash.
7. Irodaning individual xususiyatlari.

Test topshiriqlari

1. Qaysi qatorda iroda tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan?

- A) maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan irodaviy zo'r berish;
- B) muammoning hal etishning biror usulini tanlash;
- V) ong tomonidan to'liq nazorat qilinmaydigan va beixtiyor tarzda bajariladigan harakatlar

G) maqsadga erishish yo'lida turgan qarama qarshiliklarni bartarf qilish uchun zo'r berish bilan bog'liq bo'lgan va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan ongli harakatlar;

D) ichki va tashqi qiyinchiliklarni yengish uchun xatti-harakatlarni tanlash imkoniyatida namoyon bo'ladigan ruhiy aks ettirish shakli.

2. Qaysi qatorda irodaviy harakat tushunchasining mazmuni keltirilgan?

- A) maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan irodaviy zo'r berish;
- B) muammoning hal etishning biror usulini tanlash;
- V) ong tomonidan to'liq nazorat qilinmaydigan va beixtiyor tarzda bajariladigan harakatlar;

G) maqsadga erishish yo'lida turgan qarama-qarshiliklarni bartarf qilish uchun zo'r berish bilan bog'liq bo'lgan va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan ongli harakatlar;

D) ichki va tashqi qiyinchiliklarni yengish uchun xatti-harakatlarni tanlash imkoniyatida namoyon bo'ladigan ruhiy aks ettirish shakli.

3. Qaysi qatorda iroda kuchi tushunchasining mazmuni keltirilgan?

- A) maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan irodaviy zo'r berish;
- B) muammoning hal etishning biror usulini tanlash;
- V) ong tomonidan to'liq nazorat qilinmaydigan va beixtiyor tarzda bajariladigan harakatlar;

G) maqsadga erishish yo'lida turgan qarama-qarshiliklarni bartarf qilish uchun zo'r berish bilan bog'liq bo'lgan va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan ongli harakatlar;

D) ichki va tashqi qiyinchiliklarni yengish uchun xatti-harakatlarni tanlash imkoniyatida namoyon bo'ladigan ruhiy aks ettirish shakli.

4. Qaysi qatorda impulsiv harakat tushunchasining mazmuni keltirilgan?

- A) maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan irodaviy zo'r berish;
- B) muammoning hal etishning biror usulini tanlash;
- V) ong tomonidan to'liq nazorat qilinmaydigan va beixtiyor tarzda bajariladigan harakatlar;

G) maqsadga erishish yo'lida turgan qarama-qarshiliklarni bartarf qilish uchun zo'r berish bilan bog'liq bo'lgan va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan ongli harakatlar;

D) ichki va tashqi qiyinchiliklarni yengish uchun xatti-harakatlarni tanlash imkoniyatida namoyon bo'ladigan ruhiy aks ettirish shakli.

5. Insondagi irodaviy harakat qanday tamoyilga asoslanadi?

- A) ong va faoliyat birligi;
- B) ongni faoliyatda rivojlanishi;
- V) determinizm;
- G) evolyutsion qonuniyatga;
- D) hech qanday tamoyilga.

6. Iroda erkinligi ta'limotiga ko'ra

- A) irodaviy harakatlar odamga irsiy yo'l bilan beriladi;

- B) irodaviy harakatlar inson shaxsiga ongiga bog'liq emas;
- V) irodaviy harakatlar ilohiy kuchga bog'liq;
- G) odamning irodasi azaldan belgilangandir;
- D) irodaviy harakatlar hech qanday sababga bog'liq emas.

7. Irodaviy harakatlarning nerv-fiziologik asosini nima tashkil qiladi?

A) bosh miya katta yarim sharlari po'stining shartli reflekslari va ikkinchi signallar tizimi;

- B) ikkinchi signallari tizimi;
- V) oliy nerv faoliyati tiplari;
- G) shartsiz va shartli reflekslar;
- D) dinamik stereotip.

8. Iroda inson xulq-atvorini o'zgartirishga boshqarishga imkoniyatiga ega bo'lgan omil hisoblanadi. Mazkur fikr muallifi qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) Aflotun;
- B) Arastu;
- V) Suqrot;
- G) V.A.Ivannikov;
- D) V.I.Selivanov.

9. Iroda borasidagi tadqiqotlar qachondan boshlandi?

A) inson ongining mohiyatini kashf qilinishi;

B) iroda borasidagi muayyan bilimlarni to'planganligi ;

V) inson ongining mohiyatini kashf qilinishi va iroda borasidagi muayyan bilimlarni to'planganligi;

- G) shaxs muammosiga qiziqishning ortib borishi bilan;
- D) barcha javoblar to'g'ri.

10. Iroda va aql aynan bir narsadir. Mazkur fikr muallif qaysi qatorda keltirilgan?

- A) Gobss;
- B) Spinoza;
- V) U.Djems;
- G) V.Vundt;
- D) V.I.Selivanov.

11. Irodani negizida appersepsiya aktining subyekt tomonidan ichki faollik unga tegishli ekanligini his etishi yotadi. Mazkur fikr muallifi qaysi qatorda keltirilgan?

- A) Gobss;
- B) Spinoza;
- V) U.Djems;
- G) V.Vundt;
- D) V.I.Selivanov.

12. Irodaviy harakatlar boshqa ruhiy jarayonlarga qorishtirib bo'lmaydigan birlamchi xususiyatga egadirlar. Mazkur fikr muallifi qaysi qatorda keltirilgan?

- A) Gobss;
- B) Spinoza;

- V) U.Djems;
- G) V.Vundt;
- D) V.I.Selivanov.

13. V.Vundt tomonidan ishlab chiqilgan iroda borasidagi konsepsiyasi qanday nom bilan nomlanadi?

- A) tarixiy madaniy;
- B) aqliy harakatlarni bosqichma bosqich shakllantirish nazariyasi;
- V) emotsional;
- G) emotsional yoki affektiv;
- D) affektiv kognitiv.

14. V.I.Selivanov tomonidan iroda borasidagi xulosasi qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) iroda – bu shaxsning o'z faoliyatini va tashqi olamdagi o'zini o'zi boshqarish shakllarini anglashning tavsifidir;
- B) iroda – insonning yaxlit ongining bir tomoni hisoblanib u ongning barcha shakl va bosqichlariga taalluqlidir;
- V) iroda – bu amaliy ong o'zgaruvchan va qayta quriluvchi olam shaxsning o'zini ongli idora qilishlikdir;
- G) iroda – bu shaxsning hissiyoti va aql-zakovati bilan bog'liq bo'lgan xususiyatidir, omma qaysidir harakatning motivi (turtkisi) hisoblanadi;
- D) barcha javoblar to'g'ri.

15. Iroda ongli bajarilishi maqsadga yo'naltirilgan harakatni amalga oshirish uchun ichki va tashqi qiyinchiliklarni yengib ketish imkoniyati borligini bilish deb ta'riflanadi. Mazkur ta'rif muallifi qaysi qatorda keltirilgan?

- A) V.A.Selivanov;
- B) V.A. Ivannikov;
- V) V.A.Kruteskiy;
- G) P.M.Yakobson;
- D) A.I.Shcherbakov.

16. Iroda – inson xulq-atvoridagi reaktivlik va faollikning o'zaro ko'rinishidir. Mazkur fikr muallifini aniqlang?

- A) V.A.Selivanov;
- B) V.A. Ivannikov;
- V) V.A.Kruteskiy;
- G) P.M.Yakobson;
- D) A.I.Shcherbakov.

17. Qaysi olim o'z asarlarida irodaviy sifatlar tarkibiga sobitqadamlik mustaqillik qat'iyatilik sabr-toqatlilik intizomlilik dadillik jasoratlilik va tirishqoqlikni kiritadi?

- A) V.A.Selivanov;
- B) V.A. Ivannikov;
- V) V.A.Kruteskiy;
- G) P.M.Yakobson;
- D) A.I.Shcherbakov.

18. Qaysi olim irodaning muhim sifatlariga mustaqillik qat'iyatlilik tirishqoqlik o'zini uddalashlarni kiritadi?

- A) V.A.Selivanov;
- B) V.A. Ivannikov;
- V) V.A.Kruteskiy;
- G) P.M.Yakobson;
- D) A.I.Shcherbakov.

19. Irodaviy sifatlar muammosiga turlicha yondashib quyidagi sifatlarga ajratgan psixolog olimni aniqlang, ya'ni irodaviy sifatlarga sobitqadamlik va tashabbuskorlik tashkillashganlik va intizomlilik urinchqlik va tirishqoqlik dadillik va qat'iyatlilik chidamlilik va o'zini uddalashga botirlik va jasoratlik va boshqalar.

- A) V.A.Selivanov;
- B) V.A. Ivannikov;
- V) V.A.Kruteskiy;
- G) P.M.Yakobson;
- D) A.I.Shcherbakov.

20. Qaysi olim tomonidan iroda sifatlarini tasniflashni amalga oshirilgan?

- A) V.A.Selivanov;
- B) V.A. Ivannikov;
- V) V.K.Kalin;
- G) P.M.Yakobson;
- D) A.I.Shcherbakov.

21. "Tirishqoqlik – qiyinchilikka va muvaffaqiyatsizlikka qaramasdan maqsadga erishish yo'lida uzluksiz ravishda intilishning paydo bo'lishidir". Mazkur fikr muallifini aniqlang?

- A) Ye.P.Ilin;
- B) V.A. Ivannikov;
- V) V.A.Kruteskiy;
- G) P.M.Yakobson;
- D) A.I.Shcherbakov.

22. Psixologiyada irodani eksperimental usulda o'rgangan olim qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) V.A.Selivanov;
- B) V.A. Ivannikov;
- V) V.A.Kruteskiy;
- G) P.M.Yakobson;
- D) Ye.I.Ignatev.

23. Iroda sifatlarini tadqiq qilishda test o'rniga gimnastik stoldan foydalangan psixolog olimni aniqlang?

- A) V.A.Selivanov;
- B) V.I.Markova;
- V) V.A.Kruteskiy;
- G) P.M.Yakobson;
- D) A.I. Shcherbakov.

24. Irodaviy faoliyatning xususiyatlari nimalardan iborat?

A) irodaviy harakatlarni shaxs hamisha ularning subyekt sifatida amalga oshiradi;

B) irodaviy akt harakat shaxs to'la to'kis ma'sullikni zimmasiga olgan ish amal sifatida ichdan kechiriladi;

V) irodaviy faoliyat tufayli inson ko'p jihatdan o'zini o'zi shaxs sifatida anglaydi;

G) irodaviy faoliyat sababli shaxs o'z hayot yo'li va taqdirini o'zi belgilashni tushunib yetadi;

D) barcha javoblar to'g'ri.

25. Insonning shaxsiy faoliyati natijalari uchun mas'uliyatni tashqi kuchlarda va sharoitlarda qayd qilish shuningdek, shaxsiy kuch va g'ayratiga moyillikni anglaydigan mezonlar.....deb ataladi?

A) impulsiv harakatlar;

B) nazoratni lokallashtirish;

V) nazorat lokusi;

G) iroda kuchi;

D) motivlar kurashi;

26. Shaxsning individual faoliyati natijalari uchun mas'uliyatni tashqi kuchlarda va sharoitlarda qayd qilinishi shuningdek, ularning kuch g'ayratiga moyilligini belgilaydigan sifatlar majmui..... deb ataladi?

A) impulsiv harakatlar;

B) nazoratni lokallashtirish;

V) nazorat lokus;

G) iroda kuchi ;

D) motivlar kurashi.

27. Nazoratni lokallashtirish qanday turlarga ajratiladi?

A) 2 ta ekstravert va interovert;

B) 3 ta ichki, tashqi va oraliq;

V) 3 ta keng, tor, aralash;

G) 2 ta ekstrenal, internal;

D) 2 ta yuzaki, chuqur.

28. Inson xulq-atvorining irodaviy boshqarilishi qanday amalga oshiriladi?

A) ixtiyorsiz xatti-harakatlarni ixtiyoriy harakatlarga qayta o'zgartirish;

B) o'z xatti-harakatlari ustidan nazorat o'rnatish;

V) shaxsning irodaviy sifatlarini tarbiyalash;

G) barcha javoblar to'g'ri;

D) to'g'ri javob berilmagan.

29. Amalga oshirishning xususiyatlaridan biri bo'lib bu bajarilayotgan harakatlarning erkin ekanligini shaxs tomonidan anglashdan iborat jarayon bu.....

A) impulsiv harakatlar;

B) nazoratni lokallashtirish;

V) nazorat lokusi;

G) iroda kuchi;

D) iroda akti.

30. Miya tuzilishini shikastlanishi tufayli yuzaga keladigan harakatlar maqsadga muvofiqligini murakkab buzilishidan iborat psixopatalogik holatdir. Mazkur tushunchaning nomi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan.

- A) abuliya;
- B) apraksiya;
- V) aleksiya;
- G) yalqovlik;
- D) agroffiya.

Nazorat savollari

1. Iroda tushunchasining mazmunini izohlang?
2. Irodaviy faoliyatning umumiy xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?
3. Iroda nazariyalarining mohiyatiga ta'rif bering?
4. Irodaviy akt va uning tuzilishini mazmunini ko'rsating?
5. Shaxsning irodaviy sifatlariga nimalar kiradi?
6. Irodaning individual xususiyatlarining mazmunini izohlang?

MOTIVATSIYA

Motiv va motivatsiya tushunchasining mazmuni

Garchand psixologik adabiyotlarda ayniqsa yosh va pedagogik psixologiyaga oid manbalarda motiv va motivatsiya masalasi ko'p bora ko'tarilgan bo'lsa-da, batafsil yoritilmagan. *Masalan*, ayrim psixologlar maktabgacha yoshda ayrim tarqoq situatsion mayllar ma'lum motivlar tizimlariga aylanib borishini qayd etadilar. Biroq bu fikr atroflicha chuqurroq o'rganilmagan. Shunga muvofiq adabiyotlarda psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida motiv va motivatsiya tushunchasi turlicha talqin qilingan.

Eng keng tarqalgan ta'riflarga ko'ra, *motiv* – bu kishini faoliyatga undovchi kuch, sabab yoki ehtiyojlar yig'indisidan iboratdir.

Motiv tushunchasiga olimlar tomonidan quyidagicha ta'rif beriladi:

A. Maslouning fikricha, *motiv* bu ehtiyojlar yig'indisidir.

S.L. Rubinshteynning ta'kidlashicha, *motiv* bu ehtiyojning his qilinishi va qondirilishi.

S.L. Rubinshteyn "*Motivatsiya* – bu psixika orqali amalga oshuvchi determinatsiyadir".

A.N. Leontev – *motivni* inson faoliyatiga yo'nalgan aniq ehtiyojlar va uni qo'zg'atadigan voqe'lik deb hisoblaydi.

Motiv – ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sabab.

Motivatsiya keng ma'noda inson hayotining (uning xulq-atvori, faoliyatining) murakkab ko'p qirrali boshqaruvchisi deb qaraladi.

Motivatsiya – insonni faoliyatga undashning murakkab, ko'p darajali tizimi bo'lib, u o'zida ehtiyojlarni, motivlarni, qiziqishlarni, ideallarni, intilishlarni, ustanovkalarni, emotsiyalarni, normalarni, qadriyatlarini mujassamlashtiradi.

Motivatsiya – murakkab tuzilma, faoliyatni harakatlantiruvchi kuchlar majmuasi bo‘lib, u o‘zini mayllar, maqsadlar, ideallar ko‘rinishida namoyon qiladi va inson faoliyatini bevosita aniqlab, boshqarib turadi.

Motivatsiya – odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmuidir.

V.S.Merlin motivlar tizimlarining ayrim jihatlarini ancha batafsil yoritib bergan. U motivlar tizimlarining shakllanish jarayonini quyidagicha tasavvur etadi: *“Turli motivlar bora-bora o‘zaro bog‘liq va bir-biriga tobe bo‘lib boradi hamda oxir oqibatda motivlarning yaxlit tizimi vujudga keladi”*. **V.S.Merlin** fikricha, motivlar tizimining shakllanishi jarayonida nafaqat motivlar barqarorligi, balki motivlarni anglash kabi shartlar bajarilishini talab etiladi. Demak, **V.S.Merlin** bo‘yicha motivlari tizimlari o‘zaro bog‘liq va bir-biriga tobe shaxs motivlarining bir butun yig‘indisidan iborat. Ammo **V.S.Merlin** garchi motivlar tizimlarining ayrimlarini haqiqatdan ham muhim jihatlarini ko‘rsatib o‘tgan bo‘lsa ham, motivlar o‘rtasidagi tizimli munosabatlarni motivlar tizimlari va faoliyat ko‘rsatish muammosini tadqiq etmagan.

Chet el psixologlari orasida **A.Maslou ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi** bilan mashhurdir. O‘z nazariyasida **A.Maslou** ehtiyojlarning quyidagi ierarxik qatorini ajratadi: *fiziologik ehtiyojlar, xavfsizlikka bo‘lgan ehtiyoj, muhabbat va boshqalar bilan bog‘liq bo‘lish ehtiyoji, hurmatga bo‘lgan ehtiyoj, insonning o‘z yashirin imkoniyatlarini to‘laroq namoyon etish va ro‘yobga chiqarish ehtiyoji* va boshqalarni kiritadi. **A.Maslou** fikricha, muayyan ehtiyojning qondirilishi uchun avval ierarxik qatorda undan oldingi ehtiyoj qondirilgan bo‘lishi talab etiladi. Boshqacha qilib aytganda, **A.Maslou** konsepsiyasida ierarxiyada yuqori o‘rinni egallovchi ehtiyojlar quyi o‘rindagi ehtiyojlarga tobedir. **A.Maslou** konsepsiyasida motivatsion jarayonlar boshqaruvida odam ongining ishtiroki, boshqaruvdagi roli e‘tiborsiz qoldirilgan. Olim ehtiyojlar ierarxiyasidagi vertikal munosabatlarni tahlil qilib, bir darajada joylashgan ehtiyojlar orasidagi gorizantal munosabatlar esa o‘rganilmagan.

Mashhur nemis olimi **Kurt Levin** motivlar muammosi, ayniqsa, shaxsdagi ijtimoiy xulq motivlari borasida katta, keng qamrovli tadqiqotlar olib borib, shu narsani aniqlaganki, har bir odam o‘ziga xos tarzda u yoki bu vaziyatni idrok qilish va baholashga moyil bo‘ladi.

Motivatsiya tushunchasini turlicha ifodalash, motivatsiyaning mazmuni va energetik tomoni haqidagi muhim savol psixologlar tomonidan ifodalab berildi. Xorij psixologlari uchun motivatsiya tushunchasini xarakterli aniq bir tomonlama energetik faollik manbai sifatida qaraladi, ular mazmunli tomoniga e‘tibor bermay, aniq mexanizmlar sifatida energiya, boshqaruv va xulq-atvorga taqsimlaydilar.

Ierarxik, darajaviy tuzilish – bu tizimlilik xususiyatiga ega bo‘lgan hodisalarning bir jihatidir. Shu tufayli shaxs motivatsion sohasining ierarxiyasini samarali tadqiq etish uchun uni motivatsion hodisalarning boshqa jihatlarini bilan aloqadorlikda o‘rganish zarur bo‘ladi. Motivatsion hodisalar tizimlilikini tadqiq etishda asosiy e‘tibor esa bu hodisalar o‘rtasidagi tizimli munosabatlarni o‘rganishga qaratilishi kerak. Bu borada **R.S.Vaysmanning** shaxs motivatsion sohasining tizimlilik haqida bildirilgan fikri alohida e‘tiborga loyiq. *Uning yozishicha, Motivatsion sohaning tizimlilik – motivatsion o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi aloqadorlik, xilma-xil munosabatlar mavjudligida namoyon bo‘ladi. Shunday munosabatlardan biri*

ierarxik munosabatdir. Yana bir turdagi munosabatni "ro'yobga chiqarish" munosabati deb atash mumkin. Bu munosabat shuni anglatadiki, har bir ehtiyojning qondirilishida turli motivlar yig'indisining ro'yobga chiqarilishi mumkin. Uchinchi turdagi munosabat shunda namoyon bo'ladiki, har xil ehtiyojlarning qondirilishida bir motiv ishtirok etadi yoki aksincha, bir ehtiyoj qondirilishida turli motivlar qatnashadi. Bunday munosabat "o'zaro tobelik" munosabati nomini oldi.

R.S.Vaysman shaxs motivatsion sohasidan tizimli munosabatlarning juda qiziq tasnifini keltiradi. Ammo ajratilgan munosabatlar qatorini boshqaruv, tartiblashtirilganlik va shu kabi munosabatlar bilan to'ldirish mumkin bo'ladi. Qolaversa, **R.S.Vaysman** motivatsion o'zgaruvchilar o'rtasidagi tizim hosil qiluvchi asosiy munosabatni ajratmagan, bir turdagi va har xil turdagi motivatsion hodisalarni bir-biridan farqlamagan.

Chet el olimlarining motivatsiya sohasidagi tadqiqotlari orasida **G.Ollportning** motivlar funksional avtonomiyasi nazariyasi alohida o'rin egallaydi. Bu nazariyada motivlar transformatsiyasi, tizimli rivojlanishi jarayon sifatida talqin etiladi. **G.Ollport** o'z konsepsiyasida tizimlarning umumiy nazariyasi g'oyalariidan, ayniqsa, ochiq tizimlar haqidagi g'oyadan keng foydalangan. Olimning fikricha, shunday motivlar borki, ular yarim yopiq tizimlarning tabiatiga monand faoliyat ko'rsatadi va rivojlanadi, ya'ni funksional avtonomiyaga ega. Bir tizimga kiruvchi motivlarni **G.Ollport** reaktiv, tashqi undovga muhtojlik qonunlariga bo'ysunuvchi motivlar, deb ataydi. Ammo **G.Ollportning** ta'kidlashicha, shaxs ochiq tizimlar kabi o'zgaruvchi va rivojlanuvchi motivlar bilan tavsiflanadi, degan fikr haqiqatga yaqinroqdir. Agar avvalgi tizim motivlarning perseverativ funksional avtonomiyasi, deb atalgan bo'lsa, keyingi tizimni **G.Ollport** propriativ funksional avtonomiyasi, deb ataydi. Ochiq, yopiq va yarim ochiq tizimlar haqida to'xtalar ekan u yopiq tizim modelini shaxs va uning motivatsiyasiga qo'llab bo'lmasligini ta'kidlagandi. Ochiq funksional tizim taraqqiyot uchun zamin hozirlaydi, uni esa undovchi muhtojlik doirasida tushuntirib bo'lmaydi.

G.Ollport tomonidan shaxs motivlarining ochiq tizimlar sifatida tahlil etilishi, shaxs va shaxs motivlari taraqqiyoti chegarasiz jarayon ekanligini ta'kidlash uchun imkoniyat beradi.

Shunday qilib, biz shaxs motivatsion sohasi haqidagi turli qarashlar, ularda tizimli yondashuv g'oyalariining aks etishi masalasini ko'rib chiqdik. Mazkur qarashlar motivatsiya sohasidagi zamonaviy tadqiqotlarning ajralmas qismiga aylandi. Ko'rsatib o'tilganidek, psixolog olimlar tomonidan motivatsion soha tizimlilikiga oid turli jihatlarini qayd qilinmoqda. Ayni damda motivatsion mexanizmlar haqidagi tizimli yondashuvga asoslangan tasavvurlar turli yo'nalishlarda tadqiq etilmoqda. Biroq tadqiqotlarning barchasini bir yo'nalish – motivatsion hodisalar o'rtasidagi ma'no hosil qiluvchi aloqa va munosabatlarni tadqiq etish atrofida birlashtirish mumkin.

Ko'pchilik psixologlar fikricha, motivatsiya muammosi shaxs psixologiyasining markaziy muammosidir. Shaxs psixologik tuzilishining butunligi, xulq-atvor va uni harakatga keltiruvchi kuchlar o'rtasidagi aloqadorlik motivatsiya muammosini o'rganishda tizimli yondashuvni qo'llash uchun keng imkoniyat yaratib beradi.

Xorij psixologlaridan **neofreydistlar** hisoblanmish **A.Adler**, **K.Yung** kabilar tomonidan ilgari surilgan motiv va motivatsiya borasidagi nazariyalarga asosiy e'tiborni qaratamiz. **A.Adlerning** fikricha, insonni harakatga undovchi asosiy kuch uning faoliyati maqsadini aniqlovchi, ularga erishish yo'llari manbai hisoblanadi. **Xorning** ta'kidlashicha, inson xulqi motivatsiyasini boshqa motivlar yordamida aniqlash mumkin. Jumladan, birlamchi bezovtalanish atrof-muhitga nisbatan dushmanlik hissini tug'diradi, xavfsizlikka ehtiyoj esa insonni boshqa odamlar tomonidan baholash va o'z-o'zini baholashga nisbatan ichki intilishini vujudga keltiradi. **E.Fromm** ham o'z qarashlarida libido masalasiga katta e'tibor bermaydi, chunki uni qiziqtirgan muammo inson xulqi jabhalarida ijtimoiy va psixologik omillarning o'zaro ta'sir o'tkazish jarayonidir.

Geshtalt psixologiya maktabi namoyandalari uchun motivatsiya o'ziga xos talqinga ega bo'lib, uning mohiyatini eksperimental tarzda o'rganishga nisbatan intilish yuqori ko'rsatkichga ega ekanligi bilan boshqalardan ajralib turadi. **K.Levin** (1890-1947) motivlarni eksperimental o'rganish metodikasini ishlab chiqib, ularni mutlaqo mustaqil holat sharoitida tushuntirishga harakat qilgan va bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishgan. Geshtalt psixologiya maktabining namoyandalariga obraz tushunchasi qanchalik o'ta ahamiyatli bo'lsa, **K.Levinning** maydon nazariyasi uchun motiv kategoriyasi xuddi shunday muhim ahamiyat kasb etadi. Obraz va motiv o'zaro aloqasiz hukm surishi ta'kidlanadi, motivatsiyani amalga oshiruvchi vaziyatning predmetli ma'noviy mazmuni esa inkor qilinadi.

K.Levin motivni quyidagicha ifodalaydi: *motiv* – muayyan muvaffaqiyatli mikrointervalda shaxsning bevosita yaqqol muhit bilan munosabatlaridan kelib chiquvchi voqeelikdir. Uning mazkur nazariyasida insonda har xil ma'no anglatuvchi ikkita motivatsion o'zgarish hukm surishi tan olinadi. Geshtalt psixologlarning asarlarida shunday holatlar ham mavjudki, ularda xulq motivatsiyasi muammolari shaxsning muhim xususiyatlarini tahlil qilish negizidan kelib chiqib qaraladi. Ushbu holat **G.Ollport** konsepsiyasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Uningcha, eng muhim jihat bu inson xulqini o'zgarish sabablarini ochishdir. Shuning bilan birga mazkur vaziyatga olib keluvchi motivlar omillarini tekshirishlari ham alohida ahamiyatga ega ekanligini anglab yetish qiyin emas.

Rus psixologlari orasida **V.G.Aseevning** tadqiqotlarida motivatsion tizim masalasi ancha chuqur o'rganilgan. Uning fikricha, inson motivatsion sohasining ontogenetik taraqqiyoti davomida bu soha tizimli rivojlanishga nisbatan moyillikni namoyon etadi. Bu moyillik **V.G.Aseev** ko'rsatishicha, stixiyali shakllanuvchi, undovchi kuchlarning kattaroq motivatsion birliklarni o'zaro qo'shilib hosil qilishda namoyon bo'ladi. Motivatsion tizimning birligi sifatida **V.G.Aseev** undovchi kuchlarni qayd etadi. Bu tushuncha doirasiga u motiv, ehtiyoj, qiziqish, intilish, maqsad, ideal, mayl, motivatsion ustanovka va boshqalarni kiritadi. Shunday qilib, **V.G.Aseev** turli motivatsion hodisalar, mayl turlari o'rtasida tizimli munosabat mavjud deb hisoblaydi. Demak, bunday yondashuvda motivatsion tizim komponenti mayl bo'lib hisoblanadi.

V.G.Aseev shaxs motivatsion sohasining tuzilishi muammosiga ham katta e'tibor beradi. *Uning qayd etishicha, inson motivatsion sohasining tuzilishi quyidagi xususiyatlarga ega:* situatsion va impulsiv undovchilarning yonma-yon

joylashganligi, shaxsiy mayllarning mazmun va dinamik sifatlariga ko'ra bir-biriga yaqinligi. Bu xususiyatlar motivatsiyaning tizimli sifatlarini o'rganishda katta ahamiyatga ega.

Ayrim tadqiqotchilar masalan, **V.E.Chudnovskiy**, **V.I.Kovalev** motivlar tizimi va shaxs yo'nalishi o'rtasida aloqadorlik mavjudligini qayd etmoqda. **P.T.Yakobson** esa xulq-atvor motivatsiyasi muayyan qadriyatlar tizimlari bilan bog'liqligini ta'kidlab, motivlarni shaxs qadriyatlari orientatsiyasiga tobe birliklar sifatida o'rganishni taklif etadi. Uning fikricha, bunday izlanish ijtimoiy psixologik yo'nalishda amalga oshirilishi kerak.

Motivlar tizimi tushunchasiga berilgan ancha keng ta'riflarni adabiyotlarda uchratish mumkin. Jumladan, **V.S.Morozovning** qayd etishicha, "Shaxs motivlar tizimini uning subyektiv ehtiyojlari, maqsadlari, g'oyalari, qarashlari, tasavvurlari shuningdek, intilishlari, shakllari va boshqalar tashkil etadi". Bunday ta'rifda "tizim" tushunchasi qanday ma'noda qo'llanilayotgani ancha noma'lum. Uni aniqlashtirish talab etiladi.

Yuqorida tilga olingan muammolar bilan shaxs motivatsion sohasining darajaviy tuzilishi muammosi bevosita bog'liq. Psixik hodisalarning darajaviy tuzilishi g'oyasi psixologiyada keng tarqalgan va tadbiiq etib kelinmoqda va bu bejiz emas, zero darajali tuzilish haqidagi tasavvurlar turli psixik hodisalarning muayyan tizimga keltirilgan modellarini hosil qilish imkoniyatini beradi. Shaxs motivatsion sohasida o'z darajasi va murakkabligiga ko'ra turlicha bo'lgan motivatsion hodisalarning mavjudligi darajaviy tuzilishi haqidagi g'oyalarning bu yo'nalishda ham samarali qo'llash uchun sharoit yaratadi.

Inson motivatsion sohasining ierarxik darajaviy tuzilishi masalasi motivatsiya bilan bog'liq eng o'tkir va keskin bahslarga sabab bo'luvchi muammolardan biridir. Hozirgacha alohida olingan motivatsion hodisalarning ierarxik tuzilishi ehtiyojlar ierarxiyasi va boshqalar tadqiq etib kelingan. Ammo barcha motivatsion hodisalarning yagona ierarxik tuzilishi haqidagi masala yetarlicha o'rganilmagan.

Rus psixologlari orasida motivlar ierarxiyasi masalasi **A.N.Leontev**, **L.I.Bojovich** va boshqalar tomonidan o'rganilgan. **A.N.Leontev XX asrning 40-yillarida** maktabgacha yosh davrida shaxs shakllana boshlashini ta'kidlar ekan, bu jarayon bolada motivlar ierarxiyasi tarkib topishi bilan bog'liqligini uqtirgan edi. **A.N.Leontev** fikricha, subyektning tashqi olam bilan birga munosabatlari kengayib borgan sayin motivlarning o'zaro solishtirilishi yuz beradi, buning oqibatida esa ular o'rtasida ierarxik munosabatlar shakllanadi. Motivlar ierarxiyasi olimning fikriga ko'ra, motivlar funksiyalari bilan belgilanadi. Boshqacha qilib, aytganda ierarxiyada yuqori o'rinni, ma'no hosil qiluvchi funksiyani bajaradigan motivlar quyi o'rinni esa stimullar motiv egallaydi. Demak, **A.N.Leontev** motivlar funksiyasining ikki darajasini: ma'no hosil qiluvchi va stimullar darajalarini ajratadi. Ammo **A.N.Leontev** o'z nazariyasida motivlar ierarxiyasining shakllanish jarayonida shaxsning subyektiv, faol roli qanday bo'lishini ko'rib chiqmaydi.

L.I.Bojovich tadqiqotlarida, shuningdek, ayrim boshqa ilmiy izlanishlarda motivlar ierarxiyasining shakllanishi dominant motivlarning hosil bo'lishi bilan bog'lanadi. Har xil yosh bosqichlarida turli motivlar dominantlik qiladi. Ayrim motivlarning ustunlik qilishi shaxsning yo'nalishini belgilab beradi. Bunday

yoʻnalish shaxs motivlari oʻrtasida nafaqat subordinatsion, balki koordinatsion munosabatlar ham hukm surishini taqozolaydi.

Shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy xulqi va oʻz-oʻzini qanday tutishi egallagan mavqei ham sababsiz oʻz-oʻzidan roʻy bermaydi. Faoliyatning amalga oshishi va shaxs xulq-atvorini tushuntirish uchun psixologiyada “motiv”, “motivatsiya” tushunchalari ishlatiladi.

Shaxsning jamiyatda odamlar orasidagi xulqi va oʻzini tushunishi sabablarini oʻrganish tarbiyaviy ahamiyatga ega boʻlgan narsa boʻlib, masalani yoritishning ikki jihati farqlanadi: a) ichki sabablar, yaʼni holati, harakat egasining subyektiv psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi (motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, moʻljallar, istaklar, qiziqishlar va hokazolar); b) tashqi sabablar – faoliyatning tashqi shart-sharoitlari va holatlari, yaʼni bular aynan aniq holatlarni keltirib chiqarishga sabab boʻladigan tashqi stimullardir.

Har qanday motivlarning asosida shaxsning ehtiyojlari yotadi, yaʼni maqsadli hayotda shaxsda avval u yoki bu ehtiyojlar boʻladi va aynan ularning tabiat va zaruriyatiga bogʻliq tarzda xulq motivlari namoyon boʻladi. *Masalan*, talabaning oʻquv faoliyatini olish mumkin. Bilim olish maqsadi bilim, ilm olish, qizquvchanlik ehtiyojini paydo qiladi. Bu ehtiyoj taraqqiyotning maʼlum bir davrida, *masalan*, bogʻcha yoshidan boshlab qondirila boshlaydi. Bolaga sotib olib berilgan kitoblar, daftar va boshqa oʻquv qurollari, maʼlum taʼlim maskanida tashkil etilgan shart-sharoitlar va u yerdagi bevosita bilim olishga qaratilgan faoliyatning oʻzi bola uchun motiv oʻrmini bosadi.

Rus olimi **R.Nemov** shaxsdagi motivatsion sohani quyidagicha tasavvur qiladi.

Umuman har qanday shaxsdagi mavjud ehtiyojlarni ikki guruhga boʻlish mumkin:

1. Biologik ehtiyojlar – fiziologik, jinsiy moslashuv ehtiyojlari.

2. Ijtimoiy ehtiyojlar – bu mehnat qilish bilan estetik va ahloqiy, maʼnaviy ehtiyojlar.

Ehtiyojlarni biologik hamda ijtimoiy turlarga boʻlgani bilan shu narsani unutmashimiz lozimki, shaxsdagi har qanday ehtiyojlar ham ijtimoiylashgan boʻladi, yaʼni ular oʻsha jamiyat va muhitdagi qadriyatlar, madaniy normalar va insonlararo munosabatlar xarakteriga bogʻliq boʻladi.

Xorij psixologiyasida oʻqish motivlarining nazariy tahlili

Oʻqish, oʻquv faoliyati motivlari haqidagi chet el olimlarining asarlarida ilgari surilgan gʻoyalarni tahlil qilar ekanmiz, quyidagilarga eʼtiborni qaratish joizdir. Jumladan, **Z.Freyd** va **U.Makdaugall** motivatsion omil sifatida hayvonlardagi organik ehtiyojlarni, yaʼni instinktni odamlarga nisbatan qoʻllay boshlashdi va inson feʼl-atvoriga boʻlgan qarashlar ichida birinchi nazariya sifatida maydonga chiqdi.

Bulardan tashqari **XX asr boshlarida** yana ikki yangi yoʻnalish paydo boʻladi, bu motivatsiyaning xulq nazariyasi va oliy asab faoliyati nazariyasidir.

Inson xulqi affektiv kognitiv determinatsiyasi muammosini tahlil qila turib, kognitiv psixologiyaning boshqa vakili **X.Xekxauzen** shunday xulosaga keladi-ki, faoliyat determinatsiyasi kognitiv (bilish) va affektiv jihatlarini bir-biri bilan

chambarchas bog'liq ekan, ulardan qaysi biri rag'batlantiruvchi kuch ekanligi haqidagi savol o'z ma'nosini yo'qotmadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qish motivatsiyasining o'rni butun dunyo olimlari tomonidan tan olingan va har tomonlama o'rganilgan. O'quv samaradorligini oshirishda o'quv motivatsiyasining rolini chet el olimlari o'z tadqiqotlarida tadqiq qildilar. Shu nuqtai nazardan turib, qo'zg'atuvchilardan tashqarida sodir bo'ladigan xatti-harakatlarni tushuntirish bo'yicha bir talay modellar ishlab chiqilgan bo'lib, ularni ko'rib chiqish ichki motivatsiyaning mexanizmlarini tahlil qilishda qo'l keladi. Shunday modellardan birini **G.Oilport** taklif qiladi. **G.Oilport** ichki motivatsiya bilan bog'liq bo'lgan uchta motivatsion tushunchalarni tahlil qiladi; funksional avtonomiya, yetarli darajadagi harakat va "Men"ning jalb kilinganligi. U funksional avtonomiya tamoyilini faoliyat dastavval boshqa sabab bo'yicha paydo bo'lishi mumkin bo'lgan holda, o'zi uchun maqsadga aylanishi holatini tushuntirish uchun kiritadi.

E.Torndayk tajribalarining alohida tomoni ularning juda tor va cheklangan xarakterga ega ekanligidir: ular real o'quv jarayoni bilan juda oz darajada bog'langandir.

Amerikalik mualliflar ko'proq o'quv jarayoni anglab yetilgan motivlari bilan emas, balki ayrim jihatlari kamroq fahmlanadigan ko'rinishda bo'lib, o'quv jarayoniga mayl-istak uyg'otadigan muammo o'qishni motivlashtirish masalalari bilan shug'ullanadilar. Bunday ilmiy ishlarning mualliflari, *masalan*, o'quvchining sonlarni yodlashiga, alohida xatti-harakatlariga qaysi psixologik jihatlar ta'sir ko'rsatishlarini o'rganadilar va shu yo'l orqali motivlashtirishning ayrim komponentlarini aniqlashga harakat qiladilar. Bu sohada ular **E.Torndayk**ning izdoshlari hisoblanadilar.

E.Torndayk o'quv jarayonini shunday ta'riflaydi: "O'quv jarayoni u yoki bu javob reaksiyasining ma'lum holati bilan muayyan bo'shqlikda, ya'ni ushbu reaksiya hamda vaziyat o'rtasida ma'lum aloqa o'rnatilishi bilan izohlanadi".

E.Torndayk kishi o'zi hohlagan reaksiyaning takrorlanishiga nisbatan ro'yxushlikning hamda o'zi hohlagan reaksiyaga nisbatan bo'lgan maylning ta'sirini o'rganishga harakat qiladi va shunday xulosaga keladi: "Bir xil sharoitda yuzaga kelgan jazolash omillari rag'batlantirish omillaridan ancha bo'sh va kuchsizdir". Keyingi kitobida esa: "Rag'batlantirish umuman o'ziga eltuvchi barcha aloqalami yoqlash va kuchaytirish an'anasiga ega, jazolash esa tez-tez (lekin har doim ham emas) aloqalami muayyandan noaniqqa o'zgartirish xususiyatiga egadir", – deb yozadi.

Bruner ham o'qishni motivlashtirish masalasiga **E.Torndayk**dan boshqacha qaraydi.

"O'quv jarayoni" nomli izlanishlarida **Bruner** o'quvchining real, yetarli darajada uzoq davom etadigan o'qish jarayoni tufayli tug'iladigan amaliy va nazariy muammolarni izohlashga harakat qiladi. **Bruner** o'qishni motivatsiyalash, yoki o'qish jarayoniga nisbatan o'quvchilarning moyilligini orttiruvchi omillar haqida emas, balki uning bilan birga, o'quvchining motivlari haqida ham fikr yuritadi. Garchi uning fikrlari umumiy xarakterda bo'lsa ham, ulardagi ayrim yo'nalishlar diqqatga sazovordir. Bu birinchi galda, o'qish jarayonida bilish xarakteridagi

motivlarning ahamiyati va yangi narsani bilishdan paydo bo'ladigan ichki qanoat hissi, himoya masalalarining qo'yilishidir.

Ta'lim berishda rag'batlantirish va jazolashning roli haqida juda ko'p yozilgan, lekin "yangilikni ochish"da qiziqishning, ichki kechinmalarning ahamiyati haqida juda kam gapirilgan. Agar biz pedagog sifatida bolalarni borgan sari kattaroq o'quv mavzularini egallashga o'rgatishni istasak, aftidan, o'quv dasturini puxta maydalab o'rganishda ko'proq ichki "rag'batlantirishni" qo'llashimiz lozim. Keyingi paytlarda muhokama etilayotgan predmetning murakkab bo'limlarini o'rganish usullaridan biri shundaki, o'quvchilarning imkoniyatlari hisobga olinsin, ularning o'z qobiliyatlari va kuchlarini yetarli darajada sarflay olishlari uchun sharoit yaratilsin, toki ular samarali mehnat faoliyatidan qoniqish hosil qilsinlar. Tajribali pedagoglar bunday mehnat gashining kuchini yaxshi biladilar. Biron-bir muammoni hal qilishga chuqur sho'ng'ib ketgan kishi nimalarni his qilishini o'quvchilar bilishi lozim.

Murakkab o'quv materialini o'zlashtirishda ichki motivning moyillik uyg'otuvchi kuch sifatidagi ahamiyati haqida Bruner shunday deb yozadi: *"Shubhasiz, masalan, mavzu o'rganilishi jihatidan qanchalik davomli va materiali jihatidan keng bo'lsa, o'quvchi shunchalik ko'p intellektual "rag'batlantirish" olishi kerakki, ana shunda u keyingi mavzuni yetarli qiziqish bilan o'rganishga kirishadi. O'quvchi uchun materialni u qadar chuqur tushunmaslik, deylik, navbatdagi sinfga ko'chish singari tashqi jihatlar rag'batlantirish bo'lib xizmat qilgan hollarda, navbatdagi bilimlarni egallash uchun bo'lgan intilish bola sinfdan-sinfga ko'chishni tark etganda, ya'ni maktabni tugatganda to'xtaydi"*.

O'quvchining ta'limini motivatsiyalash va diagnostika qilish haqida fikr yuritgan olimlar G.Levald (1985) va G.Rozenfeldlarning fikricha, bu ish amalga oshiriladigan vaziyatni ham hisobga olish kerak, chunki bu ta'lim motivatsion diagnostikasi uchun muhimdir.

G.Levald (1985) ta'lim diagnostikasi vaziyatni, yo'nalishni hisobga oladigan yoki tabiiy sharoitga mos bo'lishi lozim, -deydi. *Masalan*, rag'batlantiruvchi material haqiqiy hayotga mos kelishi lozim, chunki sun'iy shart-sharoit, muhit shaxsiy xususiyatlarning yuzaga chiqishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Vaziyat nazariyasini diagnostika qilish vazifalarini tadbiq qilgan G.Rozenfeld (1975) ko'rsatadiki, vaziyat atrof-borliqning vaqtinchalik va fazoviy tavsifidir va u subyekt bilan obyektning integratsiyasi tomonidan belgilanadi.

O'quv motivlari – bu o'quvchilarni o'quv faoliyatining turli tomonlariga yo'naltirishdir. *Masalan*, o'quvchining o'zi o'rganayotgan obyekt bilan bajaradigan ishiga qaratilgan bo'lsa, ularni *bilish motivlari* deb atash mumkin. Agar o'quv faoliyati o'quv jarayonida turli kishilar bilan to'g'ri muloqot qilishga yo'naltirilgan bo'lsa, *ijtimoiy motivlar* namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, ba'zan o'quvchilarda bilish jarayoni, qolganlarida esa boshqalar bilan muloqot o'qish faoliyatini motivlashtirib turadi.

A.K.Markova motivlarni 2 ta katta guruhlariga ajratgan:

1. O'quv faoliyatining mazmuni va uni bajarish bilan bog'liq bilish motivlari.
2. O'quvchining boshqa kishilar bilan o'zaro ijtimoiy motivlari.

Bu motiv turlari psixologik adabiyotlarda keng o'rganilgan.

Psixologlar tomonidan o'quv motivatsiyasining salbiy va ijobiy tomonlari mavjudligi ta'kidlab o'tilgan. Salbiy motivlar o'quvchi tomonidan agar u o'qimasa, ko'ngilsizlik, noqulayliklar va noaniqliklarni vujudga kelishi bilan bog'liq holda anglangan undovchilardir.

Ijobiy motivlar o'qish bilan bog'liq ijtimoiy ahamiyatga ega burchni bajarish, muvaffaqiyat qozonish, bilim egallashning yangi usullarini o'zlashtirib olish, atrofdegilar bilan yaxshi munosabat o'rnatishda o'z aksini topadi.

Motivlarning yana bir xususiyati uning vujudga kelishi tezligi va kuchida o'z aksini topadi. Bu xususiyat o'quvchi qancha vaqt mobaynida ushbu motiv tomonidan undalgan o'quv faoliyati bilan shug'ullana olishida namoyon bo'ladi. O'qituvchining diqqat markazida o'quv motivlarining namoyon bo'lish shakllari turishi kerak. Bu asosda o'qituvchi o'quvchi faoliyatining motivlari haqida dastlabki tasavvurga ega bo'ladi. Shundan so'ng motivlarning ichki xususiyatlari salbiy modallikka ega bo'lgan ko'ngilsizlikdan qochish kabi beqaror motivlarga e'tibor berishimiz lozim.

Psixologik ma'lumotlarga ko'ra, har qanday faoliyat muayyan motivlar ta'sirida vujudga keladi va yetarli shart-sharoitlar yaratilgandagina amalga oshadi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida o'zlashtirish, bilimlarni egallash va o'rganishni amalga oshirishni ta'minlash uchun o'quvchilarda o'quv motivlari mavjud bo'lishi shart.

Bilish motivlari shaxsning (subyektning) gnesologik maqsad qo'yish sari, ya'ni belgilangan maqsadni qaror toptirishga, bilim va ko'nikmalarni egallashga yo'naltiriladi. Odatda bunday turdosh va jinsdosh motivlar nazariy ma'lumotlarning ko'rsatishicha, tashqi va ichki nomlar bilan atalib, muayyan toifani yuzaga keltiradi.

Tashqi motivlar jazolash, taqdirlash, xavf-xatar va talab qilish, guruhiy tazyiq, ezgu niyat, orzu-istak kabi qo'zg'atuvchilar ta'sirida vujudga keladi. Bularning barchasi bevosita o'quv maqsadiga nisbatan tashqi omillar, sabablar bo'lib hisoblanadi. Mazkur holatda bilimlar va malakalar o'ta muhimroq boshqa hukmron (etakchi) maqsadlarni amalga oshirishni ta'minlash vazifasini bajaradi (yoqimsiz holat va kechinmalar yoki noxush, noqulay vaziyatdan qochish ijtimoiy, yoki shaxsiy muvaffaqiyatga erishish; muvaffaqiyatga erishuv muddaosi mavjudligi va hokazo). Bu turdagi yoki jinsdagi tashqi motivlar ta'sirida ta'lim jarayonida bilim va ko'nikmalarni egallashda qiyinchiliklar kelib chiqadi va ular asosiy maqsadni amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. *Masalan*, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning asosiy maqsadi o'qish emas, balki ko'proq o'yin faoliyatiga moyillikdir. Mazkur vaziyatda o'qituvchining o'qishga ularni jalb qilish niyati o'quvchilarning o'yin maqsadining ushaliishiga halaqit berishi mumkin, lekin bunga izoh, talab dalillar yetishmaydi.

Motivlarning navbatdagi toifasiga, ya'ni ichki motivlar turkumiga individual xususiyatli motivlar kiradiki, ular o'quvchi shaxsida o'qishga nisbatan individual maqsadni ruyobga chiqaruvchi qo'zg'alish negizida paydo bo'ladi. Chunonchi bilishga nisbatan qiziqishning vujudga kelishi shaxsning ma'naviy (madaniy) darajasini oshirish uchun undagi intilishlarning yetilishidir. Bunga o'xshash motivlarning ta'sirida o'quv jarayonida nizoli, ziddiyatli holatlar (vaziyatlar) yuzaga kelmaydi. Albatta, bunday toifaga taalluqli motivlar paydo bo'lishiga qaramay, ba'zan qiyinchiliklar vujudga kelishi ehtimol, chunki bilimlarni o'zlashtirish uchun irodaviy zo'r berishga to'g'ri keladi. Bunday xossalarga ega bo'lgan irodaviy zo'r

berishlar tashqi halaqit beruvchi qo'zg'atuvchilar (qo'zg'ovchilar) kuchi va imkoniyatini kamaytirishga qaratilgan bo'ladi. Pedagogik psixologiya nuqtai nazaridan ushbu jarayonga yondashilganda, muloqotli vaziyatgina optimal (oqilona) deyiladi.

Hozirgi davrda o'qish motivatsiyasini diagnostika qilishning boshqa yo'llari tavsiya qilinayapti: laboratoriya eksperimentlarini pedagogik tajribalar bilan (tabiiy diagnostika uslublarini qo'llash), shuningdek, real o'quv jarayoni sharoitida o'quvchining ijtimoiy xulqini uzoq muddat o'rganish bilan to'ldirish mumkin (**A.K.Markova**), bu o'qish motivatsiyasini diagnostika qilish natijalarini tekshirish sifatida xizmat qilishi mumkin deb ta'kidlaydi.

O'qish motivatsiyasini diagnostika qilish uni o'tkazish uchun uslub tanlash tamoyillarini aniqlashtirishni talab qiladi. Ta'lim motivatsiyasini diagnostika qilishga bo'lgan zamonaviy yondashuvlardan kelib chiqqan holda, eng kamida, quyidagilarni ajratish mumkinligi N.E.Efimova tomonidan tavsiya qilingan bo'lib, ularning ketma-ketligiga to'xtalib o'tamiz:

1. *Diagnostika o'tkazish uchun asos bo'ladigan ta'lim motivatsiyasi ko'rsatkichlarini belgilash.*

2. *Uch toifadagi diagnostika uslublarini tanlash, bevosita loyihaviy va bilvosita-ta'lim motivatsiyasi ko'rsatkichlarini diagnostika qilishga yo'naltirilgan uslublar.*

3. *Har bir uslubning ajratilgan ko'rsatkichlarga bo'lgan diagnostikaviy imkoniyatlarini aniqlash.*

4. *Mazkur metodika natijalarini namoyon qilish chog'ida hisobga olinadigan nazariyani uslubning metodologik asosini hisobga olish.*

5. *Metodika matnlarining o'quvchilar yosh xususiyatlariga mosligi.*

6. *O'quvchilar shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish.*

7. *Diagnostikani o'tkazish.*

Agar ijtimoiy motivlar ham ta'lim faoliyati uchun yetakchi hisoblansa, bir qator mualliflar (**P.Ya.Galperin** va boshqalar) ta'lim faoliyatiga nisbatan ularga tashqi motivlar sifatida qarashadi.

P.Ya.Galperin fikricha, tashqi motivlar ta'lim jarayoni va predmetiga nisbatan "amaliy" munosabatda namoyon bo'ladi, bunda bilim keyingi faoliyat uchun tashqi shart-sharoit sifatida qaraladi va u ichki ta'limga bo'lgan barqaror qiziqish bilan bog'liqdir. Tashqi motivlar ichida aynan tashqi yoki utilitar motivlar (bunda harakatning shakllanishi, subyekt moyil bo'lgan faoliyatni amalga oshiradigan shart-sharoit hisoblanadi) va musobaqaviy motivlar ajratiladi, bunda subyekt: boshqalarga va o'z-o'ziga o'zining oldingi muvaffaqiyatlarini qiyoslagan holda muvaffaqiyatlarga intiladi.

P.M.Yakobson ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan ijobiy yoki salbiy motivlarni *tashqi motivlar* deb, ta'lim jarayoniga singdirilgan motivlarni esa *ichki motivlar* deb hisoblaydi.

Ammo bir qator zamonaviy tadqiqot mualliflari, mazkur motivlarning o'qish sharoiti uchun ahamiyatini tushunishdan kelib chiqqan holda, o'qishning ijtimoiy motivlariga nisbatan "tashqi" degan terminni ishlatishdan qochadilar. *Masalan, A.K.Markova* bilish motivlari ichida keng ta'limiy (yangi bilimlarni o'zlashtirishga

yo'naltirilgan), o'quv-bilim (bilim olish usullarini egallashga yo'naltirilgan) motivlarni farqlaydilar.

Ijtimoiy motivlar ichida: keng ijtimoiy (jamiyatga foyda keltirish uchun bilim olishga intilish), pozitsiyaviy (atrofdagilarning ma'qullashiga va obro' orttirishiga intilish), o'qish davomida boshqalar bilan hamkorlik motivlari farqlanadi.

M.V.Matyuxina ham o'qsh faoliyati jarayoniga singdirilgan quyidagi ikki toifa motivlarni ajratadi:

A) mazmun vositasida motivlashish (uchta darajasi mavjud, qiziqish-qiziqarililik, dalillarga bo'lgan qiziqish, voqealar mohiyatining kelib chiqishiga qiziqish):

B) jarayon vositasida motivlashish (uchta darajasi mavjud, ijrochilik faoliyatini bajarish sifatida, qidiruv ijrochilik qoidalarini keltirib chiqarish sifatida, ijodiy-mustaqil ravishda masalalar tuzish).

O'quv faoliyatidan tashqarida mavjud bo'lgan motivlar:

A) keng-ijtimoiy; B) tor-shaxsiy; V) salbiy.

O'qish motivlarini ichki va tashqi motivlarga bo'lishga kelsak, bu bo'linish funksional tabiatga ega va o'qish harakatlari va ular o'rtasidagi tuzilish jihatidan tahlil qilishni talab qiladi: ular orasida bevosita aloqa bo'lsa, tashqi motiv haqida gapirish mumkin.

A.N.Leontevning fikricha, biz "faqat tushuniladigan" va real harakatdagi motivlarga duch kelamiz. Bola ko'pincha qancha o'qish zarurligini yaxshi tushunadi (anganiladigan motivlar), lekin bu narsa ham unga o'quv faoliyati bilan shug'ullanish uchun turtki bo'la olmaydi. Bu bilim mayl shaklini olsagina, biz real harakatda motiv bilan ish ko'rgan bo'lamiz. Faqat tushuniladigan motivlarga ma'lum sharoitda harakatdagi motivlar shaklini oladi. Bu narsa motivatsiyani qayta qurish uchun jiddiy ahamiyatga egadir. Maktabning vazifasi ham bola motivatsiyasini qayta qurishdan iboratdir.

Ta'kidlash kerakki, A.N.Leontev nazariy tafakkurga ega bo'lish, asos sifatidagi bilish motivlarining rivojlanish masalasiga katta e'tiborni qaratgan. U psixik jarayonlarining shunday dinamikasini ochishga harakat qildiki, bunday dinamika motivatsiya rivojlanishi asosida o'quvchilarni bilimlarni egallashga olib keladi.

L.N.Bojovich ta'limni motivatsiyalash muammosi bo'yicha o'z oldiga o'quvchilarning o'kishga bo'lgan munosabati, psixologik jihatlari qanday maydonga chiqadi degan masalani hal qilishni maqsad qilib qo'yadi. Bu munosabatning psixologik mohiyatini ochadigan muhim jihatlardan biri "o'quvchilar o'qish faoliyati"ni belgilaydigan motivlarning yig'indisi hisoblanadi. Bunda ta'lim motivlari deganda, biz bola nima uchun o'qishga majbur bo'lishini tushunamiz.

L.N.Bojovich ta'kidlashicha, o'qish motivlari bolaning asosiy munosabatlari bilan, uning ehtiyojlari va intilishlari bilan ichki aloqada bo'ladi. Aynan shu tufayli ular yetarli majburlash kuchiga ega bo'ladi.

O'zbekiston psixologlari tadqiqotlarida motiv va motivatsiya muammosi

O'quv faoliyati motivatsiyasi muammosi hamdo'stlik davlatlari qatori respublikamizda ham ilmiy tadqiqot olib borayotgan olimlar tomonidan keng miqyosda o'rganib kelinmoqda. Jumladan, keyingi yillarda mazkur ilmiy muammolarning turli jabhalariga nisbatan qiziqish yanada kuchayib bormoqda. Bunga yaqqol misol sifatida respublikamiz miqyosida ushbu muammo yuzasidan

tadqiqot ishlarini olib borayotgan taniqli psixolog olimlarni ta'kidlab o'tish joizdir. Bular sirasiga respublikamizda psixologiya fanining rivojlanishiga amaliy va nazariy hissasini qo'shib kelayotgan **M.G.Davletshin** rahbarligidagi uning shogirdlari **A.Q.Saitova**, **F.I.Haydarovlar** hamda **E.G.'G'oziyev** va **E.Z.Usmonova**, **V.A.Tokareva**, **A.A.Fayzullayev**, **R.Asomova**, **U.Jumayev** va boshqalarning ushbu muammo yuzasidan olib borgan tadqiqotlarini kiritishimiz mumkin.

Keyingi o'n yilliklar mobaynida **M.G.Davletshin** rahbarligida ushbu muammo yangicha ilmiy asosda talqin qilinib, keng ko'lamda o'rganilmoqda. **M.G.Davletshinning** fikrlariga ko'ra, O'zbekiston kelajagi bo'lgan yoshlar har xil sohaning mazmuniga ongli ravishda yondashuvi orqali, ularni mumkin qadar ertaroq, to'g'ri va oqilona tasavvur qiladi. **M.G.Davletshin** konsepsiyasidan kelib chiqqan holda olib borilgan tadqiqotlardan biri **A.Q.Saitovanning** "*O'smir yoshidagi o'quvchilarning o'quv motivlarini va qadriyatlarini o'rganishga*" bag'ishlangan ishdir. Bu ishda muallif o'smir yoshining xususiyatlariga tayangan holda bir qator xulosalarga kelgan. Xususan tadqiqotchi fikriga ko'ra, o'smirlar o'quv faoliyatida potensial hisoblangan motiv o'z-o'zini namoyon qilish motividir; o'quv faoliyati o'smir o'quvchilarda o'z-o'zini takomillashtirishga, bu esa o'quv faoliyati bilan bog'liqdir. Muallif tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda shaxsdagi qadriyatlar yo'nalganligining o'quv faoliyatga bog'liqligi masalalari tadqiq qilinadi.

V.A.Tokarevning "*Kichik maktab yoshidagi bolalarning ijtimoiy burchga nisbatan shakllanish psixologiyasiga*" bag'ishlangan tadqiqotlarida o'quvchilar o'quv faoliyati motivlarini o'rganish borasida olib borilgan tadqiqotlarda va izlanishlarida burch motivini shakllanishiga jamiyatning ta'sirini o'rganish muhim sanalishi ko'rsatib o'tiladi

E.E.G'oziyev tadqiqotlarida o'smir o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish xususiyatlari o'quv faoliyatini rejalashtirish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini baholash jarayonlari haqida mulohaza yuritiladi. Tadqiqotchi o'quv faoliyatini boshqarishning diagnostik metodini ishlab chiqib, psixologiya fanining kam o'rganilgan sohalaridan biri bo'lgan o'qish faoliyatini boshqarish muammosining nazariy va amaliy, empirik tomonlarini yoritib beradi. Shuningdek, mazkur tadqiqotlarda o'qish va o'qitish jarayoni uchun tavsiyanoma ishlab chiqilgan, o'z-o'zini anglash bosqichlari to'g'risida ma'lumot berilgan.

A.A.Fayzullayev ilmiy tadqiqotlarida shaxsning motivatsion o'z-o'zini boshqarishning turli-tuman omillari ham ko'rib chiqilgan. Aniqlangan bu omillar shaxs motivatsiyasining xususiyatlariga motivatsion boshqarishning amalga oshirish usullari va natijalariga tegishlidir. Bundan tashqari motivatsion tuzilmalarning shaxs tomonidan obyektivlashtirish va o'z motivatsiyasini boshqarishdagi turli psixologik strategiya va usullari masalalari ham aniqlab berilgan. Shaxsning hayot faoliyatida motivatsion o'z-o'zini boshqarishning boshqa bir qator sohalari ham o'rganilgan.

E.Z.Usmonovning ilmiy tadqiqotida o'quvchilarning o'quv faoliyati jarayonidagi qarama-qarshilik, motivatsiya, ijod va shaxs muammolari o'rganilgan. Tadqiqot davomida ikki asosiy motivatsiya toifasining munosibligini tushunish muhim bo'lgan, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini odamda tashqi motivatsiyaga kiritiladi.

F.I.Haydarovning “*Qishloq maktabi o‘quvchilarida o‘qish motivlarining shakllanishi*” nomli ilmiy izlanishlarida o‘quv motivlari ularning xususiyatlari, o‘qitish jarayonida ijobiy va salbiy motivlarning ta’siri keng qamrovda o‘rganilgan. Shuningdek, muallif o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga bog‘liq holda o‘qish motivlarini namoyon bo‘lishining regional tafovutlarni o‘rganishga asosiy e’tiborni qaratgan. Muallifning ishlariga nazar tashlar ekanmiz, o‘qish motivlarini bir qator turkumlarga ajratgani, ya’ni obro‘ga intilish, kasbga qiziqish, muvaffaqiyatga erishish va boshqalarni yuzaga kelishiga ta’sir ko‘rsatuvchi obyektiv, subyektiv omillarni, shuningdek rivojlanish mexanizmlarini ishlab chiqqanligini ko‘ramiz. Bu esa ta’lim faoliyatida o‘quvchiga samarali yondashish mezonini hisoblanadi.

Tayanch tushunchalar

Motiv (lot. movere – harakatga keltirmoq) – ma’lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq faoliyatga undovchi sabab.

Motivatsiya – odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmui.

Motivlar kurashi (lot. motivus – harakatchan) – qaror qabul qilish bilan bog‘liq irodaviy harakatlar bosqichi.

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan mavzular

- 1.Motiv tushunchasining mohiyati.
- 2.Motivatsiya tushunchasining mazmuni
- 3.Motivatsiya va motivlarning nazariy muammolari.
- 4.Motiv muammosiga doir mulohazalar.
- 5.Shaxs shakllanishida motivatsiyaning roli.

Test topshiriqlari

1. Motivatsiya –bu psixika orqali hosil bo‘ladigan determinatsiyadir. Mazkur fikr muallifi qaysi qatorda ko‘rsatilgan?

- A) Z.Freyd;
- B) A.G.Kovalev;
- V) A.Adler;
- G) K.Yung;
- D) S.L.Rubinshteyn.

2. Motiv – bu shaxs hulq-atvorining kognivistik jarayonini bevosita tashqi olam bilan bog‘lovchi subyektiv tarzda aks ettirish demakdir. Mazkur fikr muallifini aniqlang?

- A) Z.Freyd;
- B) A.G.Kovalev;
- V) A.Adler;
- G) K.Yung;
- D) S.L.Rubinshteyn.

3. Psixolog olim Ollport tomonidan ichki motivatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan uchta motivatsion tushunchalarni tahlil qilgan ular qaysi qatorda ko‘rsatilgan

- A) funksional avtonomiya;
- B) yetarli darajadagi harakat;

V) "Men" ning jalb qilinganligi;

G) to'g'ri javob berilmagan;

D) barcha javoblar to'g'ri.

4. "Qiziqish- motivatsiyaning o'ta teran darajalarida qatnashadi". Mazkur fikr muallifi qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) Z.Freyd;

B) A.G.Kovalev;

V) G.Ollport;

G) K.Yung;

D) S.L.Rubinshteyn.

5. O'quv faoliyati jarayonidagi qarama-qarshilik, motivatsiya ijod va shaxs muammolari qaysi olim tomonidan o'rganilgan?

A) A.A.Fayzullayev;

B) V.I.Ivannikova;

V) S.L.Rubinshteyn;

G) M.G.Davletshin;

D) E.Usmonova.

6. O'smir yoshidagi o'quvchilarning o'qish motivlarini va qadriyatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqot ishi qaysi olim tomonidan olib borilgan?

A) A.A.Fayzullayev;

B) A.Saitova;

V) S.L.Rubinshteyn;

G) M.G.Davletshin;

D) E.Usmonova.

7. Kichik maktab yoshidagi bolalarning ijtimoiy burchni shakllanishi o'quv motivlariga bog'liqligi masalasi qaysi olim tadqiqotlarida uchraydi?

A) A.A.Fayzullayev;

B) V.I.Ivannikova;

V) V.A.Tokareva;

G) M.G.Davletshin;

D) E.Usmonova.

8. Qaysi olim tadqiqotida shaxsning motivatsion o'z-o'zini boshqarishning turli-tuman omillari aniqlangan va ko'rib chiqilgan?

A) A.A.Fayzullayev;

B) V.I.Ivannikova;

V) S.L.Rubinshteyn;

G) M.G.Davletshin;

D) E.Usmonova.

9. O'smir o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish xususiyatlari o'quv faoliyatini rejalashtirish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini baholash haqida tadqiqot olib borgan olim qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) A.A.Fayzullayev;

B) V.I.Ivannikova;

V) E.G'oziyev;

G) M.G.Davletshin;

D) E.Usmonova.

10. Psixologiyada motivlar qanday kategoriyalarga ajratiladi?

A) 3 ta tabiiy, ijtimoiy, bilish;

B) 3 ta keng, tor, bilish;

V) 2 ta ichki va tashqi;

G) 2 ta tabiiy va ma'naviy;

D) 2 ta ma'naviy va madaniy.

11. Qaysi qatorda motiv tushunchasiga to'liq ta'rif berilgan?

A) odamni faoliyatga undovchi asosiy sabab;

B) odamni muayyan xatti-harakatga undaydigan bosh sabab;

V) shaxsning rivojlanishida eng ajoyib ko'rinishlaridan biri;

G) intilish maqsad ehtiyojlarni hali yuzaga chiqmagan kelajak holatlariga intilish;

D) barcha javoblar to'g'ri.

12. Motivlar orasida qaysi jarayon muhim o'rin egallaydi?

A) mayl;

B) ishtiyoq;

V) qiziqish;

G) ehtiyoj;

D) maqsad.

13. Qaysi qatorda motivatsiya tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan?

A) odamni muayyan xatti-harakatlarga undaydigan bosh sabab;

B) motivlar yig'indisi;

V) intilish maqsad ehtiyojlarni hali yuzaga chiqmagan kelajak holatlarga intilish holati;

G) shaxsning nima uchun ma'lum vaqt boshqa fikr va harakatlarini emas aynan shu fikr va harakatni bajarishga qaror qilganligini asoslab berishdan iborat mantiqiy jarayon;

D) shaxsning rivojlanishida eng ajoyib ko'rinishlardan biridir.

14. "Motivni u yoki bu mayl zarurat qiziqish inson uchun maqsad bilan munosabatda harakat motiviga aylanadi". Mazkur fikr muallif qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) L.I.Bojovich;

B) P.M.Yakobson;

V) S.L.Rubinshteyn;

G) A.N.Leontev;

D) N.E.Efimova.

15. Hozirgi kunda o'qish motivatsiyasi qanday yo'llar bilan diagnostika qilinmoqda.

A) testlar turli psixodiagnostik metodikalar;

B) turli laboratoriyalarda maxsus asboblarda yordamida;

V) laboratoriya eksperimentlarini pedagogik tajribalar bilan real o'quv jarayoni sharoitida o'quvchining ijtimoiy xulqini uzoq muddat o'rganish bilan;

G) proektiv metodikalar va testlar asosida;

D) barcha javoblar to'g'ri.

16. Ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan ijobiy yoki salbiy motivlarni tashqi motivlar deb ta'lim jarayoniga singdirilgan motivlarni esa ichki motivlar deb hisoblaydilar. Mazkur fikr muallifi qaysi qatorda keltirilgan?

- A) L.I.Bojovich;
- B) P.M. Yakobson;
- V) S.L.Rubinshteyn;
- G) A.N.Leontev;
- D) N.E.Efimova.

17. Psixologiyada motivlar ierarxiyasi qaysi olimlar tomonidan o'rganilgan?

- A) M.V.Matyuxina, A.K.Markova;
- B) S.L.Rubinshteyn, P.Ya.Galperin;
- V) A.N.Leontev, L.I.Bojovich;
- G) A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn.
- D) L.I.Bojovich, P.Ya.Galperin.

18. Psixologiyada motivatsion soha doirasida tadqiqot ishini olib borgan olim qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) A.Adler;
- B) K.Xoll;
- V) E.Torndayk;
- G) Dj.Uotson;
- D) B.Skinner.

9. Motivlar mutassil shakllanadi va shaklini o'zgartiradi. Mazkur fikr muallifi qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) Berlayn;;
- B) Ollport;
- V) A.Maslou;
- G) Z.Freyd;
- D) V.Vudvors.

20. Ichki motivatsiya borasida tadqiqot ishi olib borgan olimni aniqlangan?

- A) Berlayn;
- B) Ollport;
- V) A.Maslou;
- G) Z.Freyd;
- D) V.Vudvors.

21. Qaysi olim tomonidan motivatsiya borasida olib borgan tadqiqotlari natijasiga ko'ra, qiziqishlar nazariyasini ishlab chiqdi?

- A) Berlayn;
- B) Ollport;
- V) A.Maslou;
- G) Z.Freyd;
- D) V.Vudvors.

22. Yangi paydo bo'ladigan motivlarni hamisha asosiy tug'ma holda berilgan biologik instinktning xatolari deb hisoblashadi. Mazkur nazariya qaysi yo'nalish namoyandalari tomonidan ishlab chiqilgan?

- A) freydizm;
- B) bixevioral;
- V) kognitiv;
- G) psixoanalitik;
- D) nofreydistlar.

23. XX asrning 20-yillarida instinktlar nazariyasini o'rniga qanday konsepsiya yuzaga keldi?

- A) evolyutsion rivojlanish;
- B) instinkt va ehtiyojlar o'rtasidagi irratsional farqlar;
- V) ekologik o'zgarishlar;
- G) biologik ehtiyojlarga tayangan holda inson tabiatini tushuntiruvchi;
- D) affektiv-kognitiv.

24. Xorij psixologiyasida o'quv motivlari muammosiga bag'ishlangan tadqiqotlar qaysi olim nomi bilan bog'liq?

- A) J.Nyutten;
- B) K.Xoll;
- V) E.Torndayk;
- G) Dj.Uotson;
- D) B.Skinner.

25. Quyida keltirilgan o'quv jarayoni borasidagi ta'rif qaysi olim tomonidan ilgari surilgan. "O'quv jarayoni u yoki bu javoblar reksiyasining ma'lum holati bilan muayyan bog'liqlikda ya'ni ushbu reaksiya hamda vaziyat o'rtasida ma'lum aloqa o'rnatilishi bilan izohlanadi".

- A) J.Nyutten;
- B) K.Xoll;
- V) E.Torndayk;
- G) Dj.Uotson;
- D) B.Skinner.

26. Motivlarni ekspremental o'rganish metodikasi qaysi olim tomonidan ishlab chiqildi?

- A) J.Nyutten;
- B) K.Xoll;
- V) E.Torndayk;
- G) Dj.Uotson;
- D) K.Levin.

27. Motiv borasidagi quyidagi fikr qaysi olim tomonidan ilgari surilgan. "Insonni harakatga undovchi asosiy kuch uning faoliyati maqsadini aniqlovchi ularga erishishi yo'llari hukumat va qudratga ega erkdir".

- A) A.Adler;
- B) K.Xoll;
- V) E.Torndayk;
- G) Dj.Uotson;
- D) B.Skinner.

28. "Motivatsiyaning manbai instinkt, u, tur va individning saqlanish shartidir". Mazkur g'oya muallif qaysi qatorda keltirilgan?

- A) A. Adler;
- B) K. Xoll;
- V) E. Torndayk;
- G) Z. Freyd;
- D) B. Skinner.

29. Shaxsning munosabati pozitsiyaga asoslangan holda motivlar muammosi bilan shug'ullangan olim qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) L.I.Bojovich;
- B) P.M.Yakobson;
- V) S.L.Rubinshteyn;
- G) A.N.Leontev;
- D) V.N.Myasishchev.

30. Motivga shaxsning ehtiyoji bilan uyg'unlashuvi nuqtai nazaridan yondashadi va ularning o'zaro ta'siri o'rin almashuvi tenglashuvi mumkinligi to'g'risidagi mulohaza qaysi olim tomonidan ilgari surilgan?

- A) L.I.Bojovich;
- B) P.M.Yakobson;
- V) S.L.Rubinshteyn;
- G) A.N.Leontev;
- D) A. G Kovalev.

Nazorat savollari

1. Motivatsiya va motivlarning nazariy muammolarini izohlang?
2. Motiv muammosini nazariy o'rganishga doir tadqiqotlarni bilasizmi?
3. Shaxs shakllanishida motivatsiyaning rolini ko'rsating?
4. Motivatsiya tushunchasining mohiyatini asoslang?
5. Motiv tushunchasining mazmuni nimalar bilan belgilanadi?
6. Shaxs shakllanishida motivatsiyaning o'zini qanday baholaysiz?

SHAXSNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Temperament. Temperament haqida tushuncha

Insonning ruhiy olami beto'xtov harakatlar majmuasidan iborat bo'lib, biri ikkinchisini bevosita taqazo etadi va ular uzluksiz zanjir tizimiga o'xshash tarzda hukm suradi. Xuddi shu bois shaxs ruhiyatida tashqi atrof-muhit to'g'risidagi taassurotlar, o'tmish xotiralari, kelajak yuzasidan ijodiy xayollar, ezgu niyatlar, xohish istaklar, maqsad va tilaklar, mulohaza, fikr va muammo, hissiy kechinmalar, irodaviy sifatlar uzluksiz tarzda o'zaro o'rin almashtirib turish evaziga ontogenetik dunyoga mustahkam negiz hozirlanadi. Ruhiy olam kechishi, uning sur'ati, mazmuni, shakli, ko'lam, xususiyati, xislati, sifati, mexanizmi alohida, yakkahol insonda rang-barang tarzda namoyon bo'lishi kuzatiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, insonlar tabiat hodisalariga, ijtimoiy turmush voqeliklariga, omillariga, ta'sir kuchlariga tez yoki sekin, engil yoki mushkulot bilan javob qaytarishga moyillik ko'rsatadilar.

Psixologiyada temperamentga taalluqli individual dinamik xususiyatlar o'rtasida muayyan darajada tafovut mavjudligi alohida ta'kidlanadi, ular orasidagi farqlarni

ajratib ko'rsatish maqsadida quyidagicha belgilar kiritiladi va o'ziga xos tarzda tavsiflab beriladi, ularning ayrimlarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq:

1. Favqulotda temperamentning bir xil xususiyatlari motiv, psixik holat va hodisalardan farqli o'laroq, aynan shu shaxsning o'zida, uning turli faoliyatlarida, muomalasida ifodalanadi.

2. Temperament xususiyatlari tabiiy shartlanganlik omiliga taalluqli bo'lganligi tufayli inson hayoti va faoliyatining (umrining) davomida yoki uning muayyan bir bo'lagida (ta'sirga beriluvchanligi sababligidan qat'iy nazar) barqaror, o'zgarmas va mustahkamdir.

3. Yakkahol shaxsda dahldor temperamentning turli xususiyatlari o'zaro bir-biri bilan g'ayriqonuniy ravishda birlashgan bo'lmasdan, balki ular o'zaro bir-biri muayyan qonuniyat asosida mujassamlashib, xuddi shu xususiyatlar uning tiplarini tavsiflovchi o'ziga xos tuzilmani vujudga keltiradi.

Psixologiya fanida *temperament xususiyatlari* deganda, alohida bir shaxsning psixik faoliyati dinamikasini belgilovchi psixikaning barqaror, o'zgarmas individual-tipologik xususiyatlari majmuasi tushuniladi. Mazkur xususiyatlar turli shakl va mazmunga ega bo'lgan motivlarda, psixik holatlarda, maqsadlarda, faoliyatlarda nisbatan o'zgarmas temperament tipini tavsiflovchi tuzilmani tashkil qiladi.

Psixologiya fanining ijtimoiy tarixiy-taraqqiyoti davrida temperamentga nisbatan bildirilgan mulohazalar, uning moddiy asosi to'g'risidagi talqinlar xilma-xil bo'lib, shaxsning psixologik xususiyatlarini o'ziga xos tarzda tushuntirish uchun xizmat qilib kelgan. *Temperament* lotincha "temperamentum" degan so'zdan olingan bo'lib, buning ma'nosi "aralashma" degan tushunchani anglatadi. Temperament to'g'risidagi dastlabki ta'limotni yunon olimi **Gippokrat** (eramizdan oldingi 460 – 356-yillarda yashagan) yaratgan bo'lib, uning tipologiyasi to hozirgi davrgacha qo'llanilib kelinmoqda.

Temperamentning fiziologik asoslari

Qadimgi yunon olimi **Gippokrat** ta'limotiga binoan, insonlarning temperament xususiyatlari jihatidan o'zaro bir-biridan tafovutlanishi, ularning tana a'zolaridagi suyuqliklarning (xiltlarning) turlicha nisbatda joylashuviga bog'liq ekanligi tasavvur qilinadi. **Gippokrat** ta'biricha, inson tanasida to'rt xil suyuqlik (xilt) mavjud bo'lib, ular o't yoki safro (yunoncha "chole"), qon (lotincha sanguis yoki sanguinis), qora o't (yunoncha melas "qora", chole "o't"), balg'am (yunoncha "phlegma") kabilardan iboratdir. Uning mulohazasicha:

1. *O'tning xususiyati – quruqlikdir, uning vazifasi-tana a'zolarida quruqlikni saqlab turish yoki badanni quruq tutishdir.*

2. *Qonning xususiyati-issiqlikdir, uning vazifasi tanani isitib turishdir.*


3. *Qora o'tning xususiyati-namlikdir, uning vazifasi badan namligini saqlab turishdir.*

4. *Balg'amning (shilinishiq moddani) xususiyati-sovuqlikdir, uning vazifasi badanni sovutib turishdan iboratdir.*

Gippokrat ta'limotiga muvofiq har bir insonda shu to'rt xil suyuqlik mavjud bo'lib, uning bittasi ustuvorlik kasb etadi. Mazkur aralashma (lotincha temperamentum)lardan qaysi biri salmoqliroq bo'lsa, shunga qarab insonlar

temperament jihatdan farqlanadilar, chunonchi xolerikda sariq o't, sangvinikda qon, flegmatikda balg'am, melanxolikda qora o't ustun bo'lishi ta'kidlanadi.

Gippokratning to'rt xil moddalar (suyuqliklar) aralashmasi, ya'ni temperament tushunchasi va uning tipologiyasi (sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik) ramziy ma'noda hozirgi zamon psixologiyasida ham qo'llanilib kelinmoqda.



Temperamentning fiziologik asoslariga ulkan o'z hissasini qo'shgan olimlardan biri rus fiziologi **I.P.Pavlov** (1849-1936) hisoblanadi. **I.P.Pavlov** temperament ham shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlarini keltirib chiqaruvchi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, degan xulosa chiqaradi. **I.P.Pavlov** ta'limoti bo'yicha, shartli reflekslar paydo bo'lishining individual xususiyatlari ro'yobga chiqishining sabablari nerv sistemasini xususiyatlari mohiyatidandir. *Unga ko'ra quyidagi 3 ta xususiyatni ajratib ko'rsatadi:*

- 1) qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining kuchi;
- 2) qo'zg'alish kuchi bilan tormozlanish kuchi o'rtasidagi muvozanatlilik darajasi;
- 3) qo'zg'alishning tormozlanish bilan almashinish tezligi yoki nerv jarayonlarining harakatchanligi.

I.P.Pavlov shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlari bilan temperamentga aloqador nerv sistemi xususiyatlarining o'zaro qo'shiluvini *nerv sistemasining tipi* deb nomlaydi va uni to'rtta tipga ajratadi. *Ular quyidagilardan iborat:*

1. Kuchli, muvozanatli, epchil;
2. Kuchli, muvozanatsiz, epchil;
3. Kuchli, muvozanatli, sust;
4. Kuchli, muvozanatsiz sust.

Yirik rus psixologlaridan biri **B.M.Teplov** (1896 - 1965) va uning shogirdlari, maslakdoshlari **I.P.Pavlovning** tadqiqotlarini davom ettirib, inson nerv jarayonlari xususiyatlarining o'ziga xos tomonlarini ochishga muvaffaq bo'ldilar. Ular nerv-fiziologik jarayonlarning nozik qirralarini o'rganishga maxsus moslamalar yordami bilan o'zgarishlarni qayd qilish hamda olingan natijalarni (omillarni) matematik statistika metodlari orqali hisoblashni tatbiq etdilar. Shuningdek, **B.M.Teplov** ilmiy maktabining namoyandalari tomonidan ijobiy va tormozlovchi shartli reflekslarning hosil bo'lish tezligini tavsiflovchi individual xususiyatlar turkumi ham ta'riflab berilgandir. Ushbu individual xususiyatlar mohiyatida ifodalanuvchi nerv sistemasining notanish xususiyati *dinamiklik* deb nomlangan ham tavsiflangan.

Bundan tashqari, ular shartli reflektor faoliyatining bir guruh individual xususiyatlari qo'zg'alish jarayoni to'xtalishining tezligi mahsuli sifatida taxmin qilingan xususiyatni (yangi xislatni) *labillik* deb atay boshlaganlar. Shuning bilan birga nerv sistemasining boshqa xususiyatlari mavjudligi to'g'risida ilmiy taxminlar ilgari sunilgan, chunonchi: senzitivlik, reaktivlik va hokazo.

Nerv sistemasi tiplarining kelib chiqishi

Nerv sistemasining umumiy tiplari kelib chiqishi yuzasidan mulohaza yuritilganda, albatta **I.P.Pavlovning** ta'limotini eslash maqsadga muvofiqdir, chunonchi irsiyat yo'li bilan shartlangan tip—*bu genotip* demakdir. Hozirgi davrda nerv sistemasining umumiy tipi (genotip) irsiyatga bog'liq ekanligi haqidagi ma'lumotlar, juda ko'p bo'lib, ular qiyosiy jihatdan hayvonlarni o'rganish natijasida topilgandir.

Temperamentning tipologiyasi mobodo insonlar temperamentlari bo'yicha qiyoslangan, u holda uning xususiyatlari jihatidan o'zaro o'xshash shaxslarning guruhi mavjudligi namoyon bo'ladi. Bu asnoda eramizdan oldingi davrda ham temperament tiplari to'g'risida materiallar to'plangan. **I.P. Pavlov** ta'limoti bo'yicha nerv sistemasi tiplarining va **Gippokrat** ta'limoti bo'yicha temperamentning o'zaro munosabatlari

Temperament Tiplari	Nerv sistemasining kuchi	Nerv tizimining muvozanati	Nerv tizimining ildamligi
Xolerik	Kuchli jo'shqin	Muvozanatsiz qizg'in	Serharakat
Sangvinik	Kuchli serharakat	Muvozanatli	Serharakat
Flegmatik	Kuchli vazmin	Muvozanatli	Inert (sust)
Melanxolik	Kuchsiz	Muvozanatsiz tormozli	Serharakat yoki inert

Ularda *temperament tipi* deyilganda, insonlarning muayyan guruhlarini tavsiflovchi psixik xususiyatlarning yig'indisi (majmuasi) tushuniladi. Hozirgi davrda *temperament tipi* deganda, ma'lum insonlar guruhi uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarning sodda majmuasi emas, balki mazkur xususiyatlarning qonuniy, zaruriy o'zaro bog'liqligi tushuniladi. Temperament tipini tavsiflovchi xususiyatlarning qonuniy tarzda o'zaro bog'liqligi quyidagicha aks etishi mumkin.


Nerv sistemasi va temperamentning bog'liqligi

<i>nerv tizimining turlari</i>			jonli	inert	
nerv jarayonlari xususiyatlari	kuch vazminlik harakatlanish	kuchli harakatlanish	kuchli harakatlanish	kuchli sust	kuchsiz harakatchan yoki sust
temperament		xolerik	sangvinik	flegmatik	melanxolik

Temperament va psixik reaksiyaning bog'liqligi

	Tezkorlik	Kuch
Sangvinik	Tez	o'рта
Xolerik	Tez	haddan tashqari
Flegmatik	Sekin	kuchli
Melanxolik	Sekin	kuchsiz

Temperament tiplarining psixologik tavsifi quyidagi muhim xususiyatlar yordami bilan aniqlanishi mumkin va ularning psixologik tavsifini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.



1. Sensitivlik (lotincha Sensus – sezish, his qilish degan ma'no anglatadi). Sensitivlik yuzasidan insonda birorta psixik reaksiyani hosil qilish uchun zarur bo'lgan o'ta kuchsiz tashqi taassurot kuchiga qarab mulohaza yuritiladi. Jumladan, sezgilarning paydo bo'lishi uchun kerak qo'zg'ovchining ozgina kuchi (ularning quyi chegarasi), ehtiyojlar qondirilmasligining sezilar-sezilmas darajasi (shaxsga ruhiy azob beruvchi) mujassamlashadi.

2. Reaktivlik. Bu to'g'rida aynan bir xil kuch bilan ta'sir etuvchi tashqi va ichki taassurotlarga shaxs qanday kuch bilan emotsional reaksiya qilishiga qarab munosabat bildiriladi. Reaktivlikning yorqin ro'yobga chiqishi-emotsionallik, ta'sirlanuvchanlikda ifodalanishidir.

3. Faollik. Bu borada inson qanday faollik darajasi bilan tashqi olamga ta'sir etishi va maqsadlarni amalga oshirishda obyektiv hamda subyektiv qarama-qarshiliklarni faollik bilan engishga qarab fikr yuritiladi.

4. Reaktivlik bilan faollikning o'zaro munosabati. Odamning faoliyati ko'p jihatdan nimaga bog'liqligiga binoan, chunonchi tasodifiy tarzdagi tashqi va ichki sharoitlarga (kayfiyatga, favquloddagi hodisalarga) yoki maqsadlarga, ezgu niyatlarga, xohish-intilishlariga ko'ra fikr bildirish nazarda tutiladi.

5. Reaksiya tempi. Turli xususiyatli psixik reaksiyalar va jarayonlarning kechish tezligiga, nutq sur'atiga, farosatligiga, aql tezligiga asoslanib xulosa chiqariladi.

6. *Harakatlarning silliqligi va unga qarama-qarshi sifat rigidlik (qotib qolganlik)*, shaxsning o'zgaruvchan tashqi taassurotlarga qanchalik engillik va chaqqonlik bilan muvofiqlashishiga (silliqlik bilan moslashishga), shuningdek, uning xatti-harakatlari qanchalik sust va zaifligiga (rigidligi qotib qolganligicha) nisbatan baho berishdan iboratdir.

7. *Ekstravertlik va introvertlik*. Shaxsning faoliyati va reaksiyasi ko'p jihatdan kechinmalarga bog'liq, chunonchi favqulodagi tashqi taassurotlarga (ekstravertlik) yoki aksincha, timsollarga, tasavvurlarga (introvertlik) taalluqligiga asoslangan holda munosabat ifodasidir.

Temperament tiplarining tavsifnomasi

Turli temperament tipiga mansub insonlarda har xil xarakter xususiyatlari, shaxs sifatleri, holatlari ro'y beradi. Temperament tiplariga mos xususiyatlarni muhimlari quyidagi jadvalda aks ettiriladi.



Sangvinik yuksak reaktivlik. Bo'lar-bo'lmas narsalarga qattiq xoxolab kulaveradi. Muhim bo'lmagan fakt qattiq jahlini chiqaradi. Diqqatini jalb qilgan hamma narsalarga tetik va zo'r qo'zg'alish bilan javob beradi. Imo-ishoralari va harakatlari yaqqol ko'rinib turadi. Uning aft-basharasiga qarab kayfiyatining qandayligini, narsalarga yoki odamga bo'lgan munosabatlarini bilish oson. Diqqatini tez bir joyga to'playdi.

Sust senzitivlikka ega. Sezgirlik chegarasi yuksak. Juda kuchsiz tovushlarni va yorug'lik qo'zg'ovchilarni payqamaydi. Faolligi yuksak, juda g'ayratli va ishchan, darlarda tez-tez qo'l ko'tarib turadi, toliqmasdan uzoq vaqt ishlashi mumkin, yangi ishlarga g'ayrat bilan kirishadi. Faolligi va reaktivligi muvozanatli. Uni intizomga chaqirish oson. U o'z hissiyotlarining namoyon bo'lishini va o'zining ixtiyorsiz harakatlarini tez ushlab qola oladi. Harakatlari shiddatli, nutqi tez, yangi ishga tezlik bilan kirishadi, diqqatini tez to'playdi. Aqli tez ishlaydi, topqir. Harakatlari nihoyat darajada silliqlik xususiyatiga ega. Hissiyotlari, kayfiyatlari, qiziqishlari va intilishlari juda o'zgaruvchan. U yangi kishilar bilan tez kirishib ketadi. Yangi talablar, yangi sharoitga osonlik bilan o'rganadi. Bir ishdan ikkinchi ishga tez ko'cha oladi.

Malakalarni tez o'zlashtiradi va tez qayta o'zgartiradi. Aqli ixcham. Ekstrovertlik xususiyatiga ega. O'tgan va kelajak hayot haqida tasavvurlariga qaraganda quyiroq tashqi taassurotlarga javob beradi.

Xolerik xuddi sangvinik kabi sust sezitivlik, yuksak reaktivlik hamda faollik bilan ajralib turadi, lekin faollikdan reaktivlik ustunlik qiladi. Shuning uchun u tinimsiz o'zini ushlab olmaydigan, betoqat, serzarda. Sangvinikka qaraganda ozroq silliq va qo'proq qotib qolgan. Shuning uchun intilishlari va qiziqishlarida katta barqarorlik, zo'r qatilylik bor, diqqatini ko'chirishda qiyinchilikka uchraydi. Psixik tempi tez. Bir ishini boshlasa oxiriga yetkazadi, ammo unga qiziqsa.

Flegmatik – sezitivligi sust, hissiy qo'zgaluvchanligi oz, kuldirish, jahlini chiqarish, kayfiyatini buzish qiyin. Ammo bir narsa yuzasidan qattiq kulganda u vazminligicha qolaveradi. Katta ko'ngilsiz hodisa yuz berganda ham osoyishtaligini buzmaydi. Imo-ishoralari oz, harakatlari ifodasiz. G'ayrati ishchanligi bilan ajralib turadi. Yuksak faolligi oz, reaktivligidan ancha ustunlik qiladi. Chidamliligi, matonati, o'zini tuta bilish bilan ajralib turadi. Harakatlarining tempi va nutqining tempi sust, ifodasiz. Diqqatini sekinlik bilan to'playdi. Rigid (qotib qolgan), diqqatini qiyinchilik bilan ko'chiradi. Yangi sharoitga qiyinchilik bilan moslashadi. Introvert. Yangi odamlarga qiyinchilik bilan qo'shiladi. Tashqi taassurotlarga qiyinchilik bilan javob qaytaradi.

Melanxolik – yuksak sezitivlik xususiyatiga ega. Sezgirligi yuksak (sezgi chegaralari yuqori). Arzimagan sababga ko'ra, ko'zlaridan yosh oqib ketaveradi. Nihoyatda arazchan, sekin yig'laydi. Samimiy, juda oz kuladi, faolligi sust. O'ziga ishonmaydi, tortinchoq, o'zgina qiyinchilik tug'iladigan bo'lsa, qo'lini yuvib qo'ltig'iga urib qo'ya qoladi. G'ayratsiz qatiy emas. Diqqati tez chalg'iydi, barqaror emas. Psixik tempi sust. Rigid (qotib qolgan). Introvertlik xususiyatiga ega.

Faoliyatning individual uslubi va temperament

Faoliyatning individual uslubi insonda o'zidan o'zi vujudga kelmaydi, u shaxs kamolotining barcha bosqichlarida (bog'cha yoshidan e'tiboran to kasbiy mahorat egallagunga qadar) shakllanib boradi. Insonning temperamenti faoliyatning individual uslubini tarkib toptiradi. Xuddi shu boisdan, faoliyatning individual uslubi deyilganda shaxs uchun o'ziga xos va muvaffaqiyatga erishishning maqsadga muvofiq yo'llari individual tizimi tushuniladi.

Temperament xususiyatlarining o'ziga xos yig'indisi inson faoliyati munosabatlari va bilish jarayonlarida faolligining individual uslubi jarayonida namoyon bo'ladi.

Faoliyatning individual uslubi faqat temperamentga emas, balki boshqa sabablarga, shaxsiy tajriba jarayonida hosil bo'lgan ko'nikma va malakalarga ham bog'liqdir. Faoliyatning individual uslubini inson organizmini tug'ma xususiyatlari va asab tizimi tiplarining faoliyat sharoitlariga moslanishi deb qarash mumkin. Faoliyatning individual uslubi asosini asab tizimi xususiyatlari yig'indisi tashkil qiladi. **Faoliyatning individual uslubiga kiruvchi ikki xil xususiyatlar mavjud.**

1. Asab tizimi individual xususiyatlari nuqsonlarining o'rmini to'ldiruvchi tajriba jarayonida shakllangan xususiyatlar.

2. Insonda mavjud layoqat va qobiliyatlardan maksimal darajada foydalanish imkonini beruvchi xususiyatlar.

Temperamentning xususiyati faollikning samaradorligida emas, balki usullarning o'ziga xosligidadir. Shu ma'noda Ye.A.Klimov tomonidan olib borilgan tadqiqotga ko'ra, stanokchi, to'quvchilarning ishini kuzatish natijalari muhim sanalgan. Ma'lum bo'ldiki, bir necha stanokda ishlashda nerv tizimi harakatchan tipdagi ham, harakatsiz tipdagi xodimlar ham ishlab chiqarishda muvaffaqiyatlarga erishadilar. Temperamentni harakatchanligiga ko'ra, qarama-qarshi xususiyatli kishilar bir xil mehnat vaziyatida turlicha harakat taktikasiga murojaat qilishlari aniqlandi. Harakatchanlari shoshilinch, tezroq bajaradi, temperamentning sust tipdagi kishilar esa shoshilinch harakatning zarurligini bildiradigan tayyorlov ishlariga ko'p e'tibor berishi bilan ajralib turadi.

Faollikning individual uslubini V.S.Merlin, Ye.A.Klimovlar o'rganib, uning kishida darrov paydo bo'lmashligi va faqat stixiyali tarzda paydo bo'lishini ko'rsatishdi. Agar kishi o'z temperamentiga muvofiq yaxshi natijalariga erishishiga yordam beradigan o'zining yo'llari va usularini faol izlasa, individual uslub yuzaga keladi.

Odamlarning birgalikdagi faolligi sharoitlarida ular temperamentning dinamik fazilatlarini ular faoliyatining pirovard natijasiga har biri individual ishlagan holdagiga qaraganda ancha jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda mazkur faoliyatni bajarish uchun ancha qulay va kamroq qulay bo'lgan temperamentning har xil tiplarini birga qo'shib ketishi aniq bo'ladi. Chunonchi, xolerik temperamentli kishining faoliyati sangvinik yoki xolerik temperamentli kishi bilan sherik bo'lib ishlaganiga qaraganda flegmatik yoki melanxolik bilan birgalikda ishlagan hollarda ancha samarali bo'ladi. Bunday faktlar shuni ko'rsatadiki, temperamentning u yoki bu xususiyatlarining ahamiyatini ko'pgina faoliyat turlarini birgalikdagi xarakterini hisobga olmasdan baholab bo'lmaydi. O'z temperamentining xususiyatlarini egallash va ularning o'rnini to'ldirish, faoliyatning individual uslubini shakllantirish bolalik yillaridan boshlanib, ta'lim va tarbiya ta'sirini negizida yuzaga keladi.

Tayanch tushunchalar

Labillik (lot. labilis – beqaror, o'zgaruvchan) – nerv hujayralarining tezlik bilan qo'zg'alish holatidan tormozlanish va tormozlanishdan qo'zg'alish holatiga o'tish xususiyati.

Melanxolik (yunon. Melas – qora, chole – o't, safro) – temperament turlaridan, psixik faollikning sust, tez ta'sirlanuvchanlik, hatto arzimagan narsalar uchun xam juda chuqur ta'sirotda berilishi bilan xarakterlanadi.

Rigidlik (lot. regidus – qattiq ustahkam) – subyektiv tomonidan dasturlashtirilgan faoliyatda qayta qurishning talab qilinishi natijasida ro'y beradigan qiyinchiliklar.

Sangvinik (yunon. Sanguis qon) – temperament turlaridan. By tur chaqqon, harakatchan, taassurotlari tez-tez o'zgarib turadigan, boshqa kishilarga nisbatan dilkashlik va mexribonlik qilish xislatlari bilan tavsiflanadi.

Temperament (lot. temperamentum – qismlarning bir-biriga munosabati) – shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmui. Bu kishida faoliyat va hulq-atvorning dinamik va emotsional tomonlari bilan xarakterlanadi.

Flegmatik (yunon. flegma balg‘am, shilimshiq modda) – temperament turlaridan biri. Bu harakatlarning sekinligi, barqarorligi, emotsional holatlarning tashqi ko‘rinishlari kuchli emasligida namoyon bo‘ladi.

Xolerik (yunon. chole – safro, sarik o‘t) – temperament turi, u hissiyotning jo‘shqinligi, kayfiyatning birdaniga tez o‘zgarib qolishi, hissiyotning muvozanatsizligi va umuman harakatchanligi bilan ifodalanadi.

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan mavzular

1. Temperament haqida tushuncha.
2. Oliy nerv faoliyati tipi va temperament.
3. Temperament xususiyatlari.
4. Temperament tiplari.
5. Faoliyatning individual uslubi va temperament.
6. Temperamentni tarbiyalash.
7. Temperament borasidagi psixologik nazariyalar.

Test savollari

1. Temperament tushunchasining lug‘aviy ma‘nosi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A) lotincha “aralashma”;
- B) yunoncha “qorishma”;
- V) yunoncha “aralashma”;
- G) lotincha “nisbatlar aralashmasi”;
- D) yunoncha “qismlarning nisbati”.

2. Temperament borasidagi dastlabki ta‘limot kim tomonidan yaratilgan?

- A) Gippokrat;
- B) Galen;
- V) I.P.Pavlov;
- G) Lesgaft;
- D) I.M.Sechenov.

3 fikricha, insonlarning temperament xususiyatlari jihatidan o‘zaro bir-biridan tafovutlanishi ularning tana a‘zolaridagi suyuqliklarning turlicha nisbatda joylashuviga bog‘liq ekanligi tasavvur qilinadi?

- A) Galen;
- B) U.Sheldon;
- V) Lestgaft;
- G) Gippokrat;
- D) I.P.Pavlov.

4. Gippokrat fikricha inson organizmdagi suyuqliklar nechta guruhga ajratiladi?

- A) 2ta;
- B) 3 ta;

- V) 5 ta;
- G) 6 ta;
- D) 4 ta.

5. O'ning xususiyati quruqlikdir uning vazifasi tana a'zolarida quruqlikni saqlab turish yoki badanni quruq tutishdir. Mazkur ta'rif qaysi temperament tipiga taalluqli?

- A) xolerik;
- B) sangivinik;
- V) flegmatik;
- G) melanxolik;
- D) bu xarakter xususiyati.

6. Qonning xususiyati issiqlikdir, uning vazifasi tanani isitib turishdir. Mazkur ta'rif qaysi temperament tipiga taalluqli?

- A) xolerik;
- B) sangivinik;
- V) flegmatik;
- G) melanxolik;
- D) bu xarakter xususiyati.

7. Qora o'ning xususiyati namlikdir uning vazifasi badan namligini saqlab turishdir. Mazkur ta'rif qaysi temperament tipiga taalluqli?

- A) xolerik;
- B) sangivinik;
- V) flegmatik;
- G) melanxolik;
- D) bu xarakter xususiyati.

8. Balg'amning xususiyati badanni sovutib turishdan iboratdir. Mazkur ta'rif qaysi temperament tipiga taalluqli?

- A) xolerik;
- B) sangivinik;
- V) flegmatik;
- G) melanxolik;
- D) bu xarakter xususiyati.

9. Temperamentning fiziologik asoslari qaysi olim tomonidan keng doirada tadqiq kilgan?

- A) I.M.Sechenov;
- B) I.P.Pavlov;
- V) I.Kant;
- G) Lestgaft;
- D) Gippokrat.

10. Qaysi qatorda temperament tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan?

A) odamning ijtimoiy munosabatlarida yaqqol namoyon bo'ladigan individual xususiyatdir;

B) shaxsning hissiy qo'zg'aluvchanligi va umumiy harakatchanligi bilan sifatlanadigan individual xususiyatlar yig'indisi;

V) shaxsda his-tuyg'ularning paydo bo'lishi tezligi va kuchida hamda kishining umumiy harakatchanligida namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyatlarning majmuasidir;

G) barcha javob to'g'ri;

D) to'g'ri javoblar berilmagan;

11. Temperamentga taalluqli individual dinamik xususiyatlar qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) temperamentning ayni bir xil xususiyatlari xuddi bir odamning o'zida faoliyatning har xil turlarida va har turli maqsadlarda namoyon bo'ladi;

B) temperamentning xususiyatlari odam hayotining butun davomida va ma'lum bir qismida barqaror va o'zgarasdir;

V) mazkur odamlarda temperamentning turli xususiyatlari bir-biri bilan tasodifan birlashmay balki bir-biri bilan qonuniy bog'langan bo'lib bu xususiyatlar temperament tipini aniqlovchi muhim tuzilmani hosil qiladi;

G) barcha javoblar to'g'ri;

D) to'g'ri javob berilmagan.

12. Qaysi qatorda temperament xususiyatlariga to'g'ri ta'rif berilgan?

A) bir inson psixik faoliyati tezligini ifodalovchi psixikaning barqaror individual xususiyatlari;

B) odamning ijtimoiy munosabatlarida yaqqol namoyon bo'ladigan individual xususiyatlar

V) shaxs faoliyati xulq-atvorining tezligi va hissiy tomonini ifodalovchi shaxsning barqaror xususiyatlari yig'indisi;

G) hissiy qo'zg'aluvchanligi va umumiy harakatchanligi bilan sifatlanadigan individual psixologik xususiyatlari majmuidir;

D) barcha javoblar to'g'ri.

13. Qaysi qatorda I.P.Pavlov tomonidan klassifikatsiya qilingan temperament tiplari ko'rsatilgan?

A) qo'zg'alish va tormozlanish jarayonining kuchi;

B) qo'zg'alish kuchi bilan tormozlanish kuchi o'rtasidagi muvozanatlilik darajasi;

V) qo'zg'alishning tormozlanish bilan almashinishning tezligi yoki nerv jarayonining harakatchanligi;

G) barcha javoblar to'g'ri;

D) to'g'ri javob berilmagan.

14. I.P.Pavlov tomonidan ajratib ko'rsatilgan asab tizimining tipi qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) kuchli muvozanatsiz epchil;

B) kuchli muvozanatli epchil;

V) kuchli muvozanatli sust;

G) kuchsiz muvozanatsiz sust;

D) barcha javoblar to'g'ri.

15. Temperamentga bog'liq bo'lgan asab tizimining ochilgan tiplari inson va hayvonlar uchun umumiy bo'lib, ular.....tiplar deb ataladi?

A) aralash;

- B) umumiy;
- V) qorishma;
- G) yakkahol;
- D) konstruktiv.

16. Temperamentning nerv-fiziologik asosini nima tashkil qiladi?

- A) shartli reflekslar;
- B) oliy nerv faoliyat tiplari;
- V) asab tizimining umumiy tiplari;
- G) shartsiz reflekslar;
- D) barcha javoblar to'g'ri.

17. Temperament asab tizimining umumiy tipiga emas, balki tana gavda tuzilishining nisbatiga bog'liq deb hisoblaydilar. Mazkur nazariya tarafdorlari qaysi qatorda keltirilgan?

- A) I.M.Sechenov va I.P.Pavlov;
- B) Galton va Galen V) Lestgaft va I.Kant;
- G) Krechmer va Sheldon;
- D) Arastu va Gippokrat.

18. Psixik reaksiyani yuzaga keltirish uchun zarur bo'lgan nihoyatda kuchsiz tashqi taassurot kuchiga qarab xulosa chiqarishdeb ataladi?

- A) senzitivlik;
- B) reaktivlik;
- V) faollik;
- G) reaktivlik va faollikning o'zaro munosabati;
- D) reaksiya tempi.

19.bir xil kuch bilan ta'sir qiluvchi tashqi va ichki taassurotlarga odam qanday kuch bilan emotsional reaksiya qilishiga qarab xulosa chiqarish ya'ni hissiylik va ta'sirlanuvchanlik.

- A) senzitivlik;
- B) reaktivlik;
- V) faollik;
- G) reaktivlik va faollikning o'zaro munosabati;
- D) reaksiya tempi.

20.odam qanday faollik darajasi bilan tashqi olamga ta'sir etishi va maqsadlarini amalga oshirilishida tashqi hamda ichki qarshiliklarni faollik bilan yengishdir.

- A) senzitivlik;
- B) reaktivlik;
- V) faollik;
- G) reaktivlik va faollikning o'zaro munosabati;
- D) reaksiya tempi.

21. odamning faoliyati ko'p jihatdan nimaga bog'liqligiga qarab, ya'ni tasodifiy tarzdagi tashqi yoki ichki sharoitlariga yoki maqsadlarga intilish va niyatlariga bog'liqligiga qarab xulosa chiqarish.

- A) senzitivlik;
- B) reaktivlik;

- V) faollik;
- G) reaktivlik va faollikning o'zaro munosabati;
- D) reaksiya tempi.

22.turli reaksiyalar va jarayonlarning o'tishi tezligiga ya'ni harakat tezligiga nutq tempiga farosatligiga aql tezligiga qarab xulosa chiqarish.

- A) senzitivlik;
- B) reaktivlik;
- V) faollik;
- G) reaktivlik va faollikning o'zaro munosabati;
- D) reaksiya tempi.

23. o'zgaruvchan tashqi sharoitlarga qanday yengillik bilan yoki sust va qoloqlik bilan moslasha olish.

- A) senzitivlik;
- B) reaktivlik;
- V) faollik;
- G) harakatlarning silliqligi va unga qarama-qarshi sifat rigidlik;
- D) reaksiya tempi.

4. Tez ta'sirlanuvchan arzimagan hodisalar haqida chuqur qayg'uradigan kishilar qaysi temperament tipiga kiradi?

- A) xolerik;
- B) sangiviniq;
- V) flegmatik;
- G) melanxolik;
- D) oliy nerv faoliyati .

25. Oliy nerv faoliyati xususiyatlarining ya'ni kuchi harakatchanligi muvozanatligining barqaror yig'indisi qanday nom bilan ataladi?

- A) xolerik;
- B) sangiviniq;
- V) flegmatik;
- G) melanxolik;
- D) oliy nerv faoliyati.

26. Harakatchan taassurotlari tez o'zgarishga moyil muloqotga kirishuvchan faol kishilar qaysi temperament tipiga kiradi?

- A) xolerik;
- B) sangiviniq;
- V) flegmatik;
- G) melanxolik;
- D) oliy nerv faoliyati.

27. Hissiy holatlari kuchsiz ifodalanadigan barqaror sekin harakat qiladigan kishilar qaysi temperament tipiga kiradi?

- A) xolerik;
- B) sangiviniq;
- V) flegmatik;
- G) melanxolik;

D) oliy nerv faoliyati.

28. Kuchli his hayajon tez-tez o'zgarib turuvchi kayfiyat muvozanatsiz asab tizimi va umumiy harakatchanlikka ega kishilar qaysi temperament tipiga kiradi?

- A) xolerik;
- B) sangivirik;
- V) flegmatik;
- G) melankolik;
- D) oliy nerv faoliyati.

29. Xorij psixologik adabiyotlarda temperament nerv tizimining umumiy tipining nerv fiziologik xususiyatlariga emas balkimazkur nazariya qaysi qatorda keltirilgan?

- A) tashqi ko'rsatkich badanning jismoniy tuzilishiga;
- B) uning ba'zi qismlari o'rtasidagi aloqaga;
- V) organizm turli tarkiblarining munosabatlaridan tuzilgan organizmning umumiy tuzilmasiga bog'liqdir;
- G) to'g'ri javob berilmagan;
- D) barcha javoblar to'g'ri.

30. Tana tuzilishi temperament xususiyatlari ham ichki sekresiya bezlari faoliyatidagi o'zaro munosabatlarning nasliy belgilarga bog'liqdir. Mazkur nazariya tarafdorlari qaysi qatorda keltirilgan?

- A) E.Krechmer va U.Sheldon;
- B) I.Pavlov va I.M.Sechenov;
- V) Gippokrat va Galen;
- G) Neblitsin va Teplov;
- D) E.Krechmer va B.Teplov.

Nazorat savollari

1. Temperament tushunchasining mohiyatini asoslang?
2. Oliy nerv faoliyati tipi va temperament o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsating?
3. Temperament xususiyatlariga ta'rif bering?
4. Temperament tiplarining mohiyatini izohlang?
5. Faoliyatning individual uslubi va temperament o'rtasidagi munosabatni aniqlang?
6. Temperament borasidagi psixologik nazariyalarning mohiyatini asoslang?

XARAKTER

Xarakter haqida tushuncha

Har bir odam har qanday boshqa odamdan o'zining individual psixologik xususiyati bilan ajralib turadi. Bu jarayonda asosiy e'tibor xarakter muammosiga qaratiladi. "*Xarakter*" so'zi grekcha so'zdan olingan bo'lib "*tamg'a, belgi*" degan ma'noni anglatadi. Ijtimoiy turmushda hayot va faoliyat ko'rsatayotgan har qanday shaxs o'zining individual-psixologik xususiyatlari bilan boshqa insonlardan ajralib turadi va bu farqlar uning xarakter xislatlarida ifodasini topadi. Shu boisdan

insonning barcha individual xususiyatlarini xarakter xislati tarkibiga kiritib bo'lmaydi. Chunonchi, aqlning topqirligi, xotiraning barqarorligi, ko'rishning o'tkirligi kabi individual psixologik xususiyatlar bunga misoldir.

Psixologiya fanida xarakterga turlicha ta'rif berilishiga qaramay, uning asosiy belgilari ta'kidlanganligi bilan bir-biriga muvofiq tushadi. *Masalan*, shaxs xulqining tipik usullar bilan bog'liq faoliyat muomala va munosabatda namoyon bo'luvchi, mujassamlanuvchi uning barqaror xususiyatlari majmuasi *xarakter* deyiladi. Shaxsning jamiyatga nisbatan munosabatlari uning asosiy belgisi hisoblanadi.

Xarakter deganda mazkur shaxs uchun tipik hisoblangan, faoliyat usullarida namoyon bo'ladigan, shaxsning turli sharoitlarga munosabati bilan belgilanadigan individual-psixologik xususiyatlari yig'indisi tushuniladi. Xarakter xususiyatlarining namoyon bo'lishi har bir tipik vaziyat, hissiy kechinmalarning individual o'ziga xos xususiyati shaxs munosabatlariga bog'liq. Xarakterning intellektual, hissiy va irodaviy xislatlarini ajratish mumkin. *Xarakter* deganda shaxsda muhit va tarbiya ta'sirida tarkib topgan va uning irodaviy faoliyatida, atrofdagi olamga o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan individual xususiyatlarni tushunamiz. Xarakterning juda ko'p xususiyatlari odamning ish harakatlarini belgilovchi chuqur va faol moyillik hisoblanadi. Mana shu moyilliklarda xarakter xislatlarining undovchilik kuchi namoyon bo'ladi. Odam xarakter xislatlarining ana shunday undovchilik kuchi tufayli ko'pincha obyektiv sharoitlarga zid ish qiladi va mutlaqo maqsadga nomuvofiq harakat usullarini qo'llaydi. *Xarakter xislatlari* ma'lum tarzda harakat qismlariga, ba'zan esa sharoitga qarama-qarshi harakat qilishga undar ekan, ular hayotiy qiyin daqiqalarda yaxshiroq namoyon bo'ladilar va bu xarakterni, shuningdek, barkamol avlodni tarbiyalashning muhim vazifasidir. Shaxsning qa'tiyatlilik, tanqidiylik, fahm-farosat, kuzatuvchanlik kabi xislatlari intellektual, quvnoqlik, mehribonlik hissiy-irodaviy sifatlarga kiradi. *Odatda shaxsning munosabatlari xarakter xislatlarining individual xususiyatlarini ikki xilini aniqlash imkoniyatiga ega:*

-shaxs xarakterining xususiyati ro'yobga chiqadigan har qanday vaziyat hissiy kechinmalarning o'ziga xos xislati uning munosabatlariga bog'liq.

-har qanday favquloddagi tipik (muhitdagi) xarakterning sifatlari hamda individual usullari shaxsning munosabatlariga taalluqlidir.

-shaxs harakatlarining sifati va ularning oqilona usullari insonning irodasi, hissiyoti, diqqati, aqliy sifatlariga yoki psixik jarayonlarning individual xususiyatlariga bog'liqdir. Chunonchi, mehnatda ko'zga tashlanadigan tirishqoqlik, puxtalik mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni aks ettirishga emas, balki *boshqa omillarga:*

-diqqatning to'planishiga;

-harakatlarning maqsadga yo'nalganligiga;

-irodaviy zo'r berishga;

-usullar mahsuldorligiga;

-aqlning ishtirokiga bog'liq.

Xarakterning fiziologik asoslari

Xarakterning psixologik va fiziologik sabablari haqida faqat taxminiy fikrlar, xulosalar mavjud. Kishi temperamenti uning xakteri tarkibiga kiradi, shu sababli ham xarakterning fiziologik asosi asab tizimining tipidan iborat.

Xarakter xislatlari shaxsning qiyin hosil qilinadigan va mustahkamlanib qoladigan xususiyatlari bo'lganligi tufayli, xarakterning fiziologik asosi ham individual hayot jarayonida asab tizimining o'zgarigan xususiyatlaridan iborat. Hayvon asab faoliyatining tug'ma konstitutsion turi *genotip*. Lekin hayvon tug'ilganidan keyin tashqi sharoitlarning g'oyat xilma-xil taassurotlariga duch keladi va bunga muayyan faoliyat orqali muqarrar javob berishi lozim bo'ladiki, ko'pincha bu faoliyatlar mustahkamlanib, butun hayoti davomida saqlanib qoladi. Shu sababli hayvonning batamom tarkib topgan asab faoliyati tipga oid belgilardan tashqari muhit ta'siri ostida hosil bo'lgan o'zgarishlarning qotishmasi-*fenotip* xarakteridir. *Dinamik stereotip* shaxsdagi mustahkam odat bo'lib qolgan xususiyatlarning, jumladan, xarakter xislatlarining ham nerv-fiziologik asosidir. Xarakterning nerv-fiziologik asosini tushunish uchun **I.P.Pavlovning** ikkinchi signal tizimi haqidagi ta'limoti katta ahamiyatga egadir. Ikkinchi signal tizimi nutq va tafakkurning fiziologik asosi bo'lish bilan birga, kishi hulqini ham idora qiladi. Xarakterning fiziologik asosi xarakterning mazmunini tashkil qiladigan sifatleri, chunonchi, ijtimoiy maslak, mardlik, o'z burchiga sadoqatli bo'lishlarini o'z ichiga olmaydi va ololmaydi ham, albatta xarakter psixologiyasining mazmuni o'zining kelib chiqishi jihatidan ijtimoiy hodisadir. Xarakterning mazmunini tashkil qilgan tomonlarini yoritilishi tufayli, psixologiya ijtimoiy fanlar qatoriga kiradi.

Xarakter xislatlari kelib chiqishining muhim fiziologik sharoitlaridan biri – xarakter xususiyatlarining fiziologik hamda psixologik jihatdan ifodalanishi o'rtasida o'xshashlik bo'yicha taxminiy xulosa chiqarishdir. Ma'lumki, **I.P.Pavlov** ilmiy maktabi materiallarida e'tirof etilishicha, laboratoriya sharoitida ovqatlanish orqali, shuningdek, teriga elektr toki bilan ta'sir qilish tufayli mustahkamlashda aynan bir hayvonda bir xil shartli qo'zg'ovchiga javoban ikki xil dinamik stereotipni hosil qilish mumkin. Xarakter stereotiplar va so'lak ajralishidan iborat ijobiy va tormozlanish shartli reaksiyalari bilan javob qaytaradi. Teriga elektr toki bilan ta'sir qilish sharoitda esa qo'zg'ovchilarning o'ziga mudofaa harakatlari stereotiplari reaksiyasi bilan javob beradi. Bu hodisalar negizida yotgan fiziologik mexanizm *ko'chirish mexanizmi* deyiladi. *Ko'chirish mexanizmining mohiyati* shuki, sharoitga bog'liq tarzda markaziy nerv sistemasida har xil funksional holat paydo bo'ladi, chunonchi, ovqatlanishning markazlarida kuchli qo'zg'alish yuzaga keladi va bunda ovqatlanish bilan bog'liq dominantaga tug'iladi. Teriga elektr toki bilan ta'sir qilishda mudofaa bilan bog'liq harakat markazlari kuchli qo'zg'alish tufayli muhofaza (mudofaa) dominantasi vujudga keladi.

Hayvonlardagi mazkur hodisalarning shaxs xakteri xislatlari namoyon bo'lishi bilan o'xshashligi mavjud. Bular: 1) ular hayvonlar va odamlar uchun stereotip xususiyatga ega; 2) sharoitga bog'liq holda odamlarda va hayvonlarda bir qo'zg'ovchiga javoban xilma-xil stereotip xususiyatli reaksiyalar tizimi vujudga keladi; 3) funksional holatlar har ikkalasida ham barqaror va doimiy xususiyat kasb

etadi. Funktsional holatlar hosil bo'lishining tashqi omillariga asoslanib, xarakter xislatlari shakllanishining fiziologik sharoitlaridan biri-ko'chish mexanizmi asosida dinamik stereotiplarning vujudga kelishidir.

Xarakter xislatlarining dinamik stereotiplarga bog'liq nerv tizimining shartli reflektor funksional holati shaxsning sharoitiga nisbatan turlicha munosabatiga bog'liqdir. *Masalan*, tajribaga nisbatan tekshiriluvchining munosabati o'zgartirilsa, unda nerv jarayonlarining qo'zg'aluvchanligi, harakatchanligi, to'xtalishi kuchayadi, demak nerv tizimining funksional holati o'zgaradi. Shunday qilib, xarakter xislatlarining asosi ko'chish mexanizmi insonlarda hayvonlamikidan keskin tafovutlanadi, chunki unda ikkinchi signal tizimi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xarakter xislatlarining namoyon bo'lishi bilan nerv tizimiga qiyoslansa, u holda birinchisining ruyobga chiqishi o'zgacha fiziologik sharoitga asoslanishi mumkin. Sobiq sovet psixologiyasida ta'kidlanishicha, nerv sistemasi umumiy tipining zid xususiyatlari psixologik jihatdan zid harakat usullariga mos tushadi. **B.M.Teplov, V.M.Merlin, Ye.A.Klimovlarning** tadqiqotlarida o'qish, sport va mehnat faoliyatlarida harakat usullarining individual farqlari aniqlangan. Xuddi shu bois xarakter xislatlari paydo bo'lishining o'zgacha fiziologik sharoiti nerv tizimi umumiy tipining xususiyatlari hisoblanadi. Ma'lumki, nerv tizimining umumiy tipi – bu temperamentning fiziologik asosi hamdir. Shuning uchun temperament tipi xarakterning individual o'ziga xos xislatlarining ruyobga chiqishidagi muhim psixologik sharoitlardan biri bo'lib hisoblanadi. **I.P.Pavlov** tajribasining ko'rsatishicha, muayyan tizimda tashqi ta'sir hukm surganda nerv tizimi umumiy tipining xususiyatlariga taalluqli dinamik stereotipning shakllanishiga qulaylik vujudga keltirish yoki, aksincha, halaqit berishi mumkin.

Xarakter tarkibi

Shaxsning xakteri tuzilishi turli xususiyatlarning tasodifiy yig'indisidan iborat emas, balki o'zaro bir-biriga bog'liq, hatto tobe yaxlit tizimdan tarkib topadi. Xarakter xislatlarining muayyan qismidan xabardor bo'lishlik notanishlarni tashxis qilish imkoniyatini yaratadi. Misol uchun, shaxsning shuhratparastligi ma'lum bo'lsa, uning dili (ko'ngli) qoraligi yuzasidan taxmin qilish mumkin, yoki inson kamtar, mo'min, yuvosh xususiyatli bo'lsa, albatta u ko'ngilchan ekanligi ko'nglimizga keladi.

Odatda psixik xususiyatlarning o'zaro bog'liq tizimi *simptomokomplekslar (omillar)* deyiladi. "*Simptom*" yunon *symptoma* belgi, mos tushish, "kompleks" lotincha, aloqa, majmua degan ma'no anglatadi. Misol uchun, qarama-qarshi simptomokomplekslar haqida mulohaza yuritilsa, u holda insonlarda bu tizim o'ziga ishonish o'zidan mag'rurlanish, maqtanchoklik, o'zbihtarmonlik, urushqoqlik, kek saqlash kabilar birikmasida yuzaga keladi. Boshqa toifadagi shaxslar o'zlarining kamtarinligi, ko'ngilchanligi, iltifotliligi, dilkashligi, haqqoniyliги bilan ajralib turadilar. Voqelikka shaxsning bir xil munosabati xarakter xislatlarining o'zaro bir-biriga bog'liqligini bildiradi.

Hozirgi zamon psixologiyasida shaxsning turli munosabatlari bilan belgilanadigan xarakter xususiyatlarining to'rtta tizimi farqlanadi:

-jamo'a va ayrim odamlarga bo'lgan munosabatlarini ifodalovchi xususiyatlar (yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik va shu kabilar);

-mehnatga bo'lgan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar: (mehnatsevarlik, yalqovlik, vijdonlilik, mehnatga mas'uliyat yoki mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'lishi kabilar);

-narsalarga bo'lgan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar: (ozodalik va ifloslik, narsalar bilan ayab yoki ayamasdan munosabatda bo'lish kabilar);

-odamning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini ifodalovchi xususiyatlar (izzat-nafslilik, shuhratparastlik, mag'rurlik, o'zini katta olish, kamtarlik kabilar).

Bundan tashqari, kamroq ahamiyatga ega bo'lgan boshqa juda ko'p xususiyatlar ham mavjud: o'ziga ishonish, o'zbiarmonlik, o'ziga bino qo'yish, maqtanchoqlik.

Xarakterning tarkibi faqat ayrim xususiyatlarining o'zaro bog'liqligi bilan emas, balki bir butun xarakterga xos bo'lgan xususiyatlar bilan belgilanadi. Xarakterning xususiyatlari jumlasiga *birinchidan*, ularning chuqurlik darajasi kiradi. Shaxsning markaziy, asosiy munosabatlari bilan belgilanadigan xususiyatlarini biz xarakterni bir muncha chuqurroq xususiyatlari deb ataymiz. *Masalan*, barkamol shaxsda odamlarga, jamoa va mehnatga nisbatan vijdonan munosabatda bo'lish bilan belgilanadigan xususiyatlar chuqurroq xususiyatlar hisoblanadi. *Ikkinchidan*, xarakter kuchi yoki faolligi. Xarakter faolligi xarakter xususiyatlarining kishini biror narsaga qarshilik ko'rsatish darajasi bilan belgilanadi. *Uchinchidan*, xarakterning tarkibiy xususiyatlariga uning barqarorlik va o'zgaruvchanlik darajasi kiradi. Xarakter barqarorligi va o'zgaruvchanligi ham moslashish faoliyatining zarur shartlaridandir.

Agar tashqi sharoitning o'zgarishi bilan har gal xarakter boshqacha bo'lib, o'zgarib qoladigan bo'lsa, unday paytda odamning xatti-harakatlari tashqi sharoit ta'siriga nisbatan passiv javob reaksiyasiga aylanib qolgan, xatti-harakat batamom passiv moslashishga aylangan bo'lar edi. Odamning xarakter xususiyatlari juda xilma-xil hayot sharoitlarida ham qarshilik qiluvchi sharoit bo'lishiga qaramay uning xatti-harakatlarini boshqaradi.

Xarakter ma'lum darajada plastikdir (egiluvchandir). Xarakterning plastikligi ikki xil ma'noga ega, *birinchidan*, xarakterning barqarorligi singari muhim faol ta'sir qilishidir. *Ikkinchidan*, xarakter ma'lum darajada plastik bo'lganligi uchungina istalgan odamning xarakterini qayta tarbiyalay olamiz.

Kishiga mustahkamlanib, uning shaxsiy xususiyatiga aylanib qolgan iroda sifatleri xarakterning iroda bilan bog'liq bo'lgan xislatlaridan, bu sifatlar alohida ko'rinib emas, balki shaxsning fazilatiga aylanib qoladi, qat'iyat, sabr-toqat, chidamlilik, dadillik, o'zini tuta bilish, mustaqillik, intizomlilik, mas'uliyatni his qilish, o'zini o'zi tanqid qilish axloqiy xislatlardir.

Xarakter aksentuatsiyasi

Xarakterning u yoki bu xususiyati miqdoriy ifodaliligi oxirgi marraga yetib va normaning eng oxirgi chegarasiga borib qolganda *xarakterning aksentuatsiyasi (ortiqcha urg'u berilishi)* deb ataladi. Xarakterga ortiqcha urg'u berilishi ayrim

xarakter xususiyatlarining kuchayishi natijasi sifatida normaning oxirgi variantlaridan biri sanaladi. Bunda individda boshqalariga nisbatan barqarorlik bo'lgani holda bir xil stressogen (qattiq hayajonlanuvchi) omillarga zaiflik ortishi kuzatiladi. Xarakterning aksentuatsiyasi o'ta noqulay vaziyatlarda patologik buzilishlarga va shaxs xulq-atvorining o'zgarishlariga, psixopatiyaga olib borishi (xarakter shaxsning adekvat ijtimoiy adaptatsiyaga to'sqinlik qiluvchi va amalda takrorlanmaydigan patologiyasi, garchi to'g'ri davolash sharoitlarida ba'zi tuzatishlarga berilsa ham) mumkin, lekin uni patologiyaga oid deb hisoblash noo'rindir.

Xarakterning aksentuatsiyasi (ortiqcha urg'u berilishi) turlarini tasniflash ancha murakkablik tug'diradi va har xil nomenklaturasi bo'yicha bir-biriga mos kelmaydi (K.Leongard, A.Lichko). Lekin aksentuatsiyalashgan xususiyatlarning tavsifi ma'lum darajada bir xil bo'lib qoladi. Bu har ikkala tasnif sxemalaridan muvaffaqiyatli terminlarni olib va bunda psixiatrik terminologiya ("shizofreniya xususiyatlari", "epilepsiya" xususiyatlari va hokazo) bilan to'g'ridan-to'g'ri o'xshashlik bo'lishidan qochgan holda ortiqcha urg'u beriladigan xususiyatlar ro'yxatini keltirish imkoniyatini beradi. Xarakterni ortiqcha urg'u berilgan holda baholash psixiatrning emas, balki pedagogning diqqatini jalb qilishini taqozo etadi, garchi aksentuatsiya muammosining o'rtacha qo'yilishi tarixi psixiatriya va psixonevrologiyaga borib taqalganda ham shunday hisoblanadi.

Nemis psixiatri K.Leongard fikricha, 20-50% kishilarda ba'zi xarakter xususiyatlari shu darajada kuchliki, ba'zan bir xil tipdagi ziddiyat va hissiy portlashlarga olib kelishi mumkin.

Xarakter aksentuatsiyasi – biror xususiyatning boshqalari zarariga kuchli rivojlanishi va atrofdagilar bilan munosabatlarning yomonlashuviga olib kelishidir. Xarakter aksentuatsiyasi turli darajada yengil va hatto psixopatiya darajasigacha bo'lishi mumkin. O'smirlar orasida xarakter aksentuatsiyasi ko'p (50-80%) uchraydi.

K.Leongard tomonidan xarakter aksentuatsiyasi muammosi o'rganilib uni shaxsda namoyon bo'lishiga qarab quyidagilar tasniflanadi:

-Gipertim tip – haddan tashkari aloqaga kirishuvchan, ko'p gapiradi, imo-ishora, mimikaga boy, suhbat mavzusini burib yuborishga moyil, ko'pincha xizmatga doir va ommaviy majburiyatlarni unutilib qo'yanligi sababli ziddiyatlar kelib chiqadi.

-Distim tip – kamgap, muloqotga kirishishga qiyinaladi, pessimist, ziddiyatlardan o'zini olib qochadi, uyda yolg'iz qolishni yoqtiradi.

-Sikloid tip – kayfiyati tez o'zgarishga moyil, kayfiyati yaxshi paytda – gipertim, yomon paytda distim tipga o'xshab qoladi.

-Qo'zg'aluvchan tip – muloqotda passiv, verbal va noverbal reaksiyalari sust, qaysar, ba'zan urushqoq, ko'pincha turli mojarolarning tashabbuskori.

-Kuchaytiruvchi tip – kamgap, aql o'rgatishni yoqtiradi, yuqori natijalarga erishishni hohlaydi, tez xafa bo'ladi, shubhalanuvchan, qasoskor. Kichik-kichik muammolarni kattalashtirishga, bo'rtirishga moyil.

-Pedant tip – ziddiyatlarga kam qo'shiladi, ko'pincha passiv holatda bo'ladi, atrofdagilarga ko'plab rasmiy talablarni qo'yadi, tartibli, jiddiy ishonchli xodim.

-Xavotirli tip – kamgap, odamovi, o'ziga ishonmaydi, ziddiyatlardan o'zini olib qochadi, tinchliksevar, o'z-o'zini tanqid qiladi. Topshiriqlarni vaqtda bajaradi.

-*Emotiv tip* – tor doiradagi kishilar bilan muloqotga kirishishni yoqtiradilar, xafa bo'lsa tashqaridan sezdirmaslikka harakat qiladi, mehribon, g'amxo'r, ma'suliyatni his qiladi. Boshqalarning yutuqlaridan quvonadi.

-*Namoyishkorona (demonstrativ) tip* – muloqotga tez kirishadi, yetakchilikka intiladi, hokimiyat va maqtoovni yoqtiradi, boshqalarni o'ziga jalb qila oladi, noyob tafakkurga, xulq-atvoriga ega.

-*Ekzaltirlashgan tip*. O'ta mulokotga kirishuvchan, ko'p gapiradi, qiziquvchan, do'stlari va yaqinlarga e'tiborli, boshqalarga yordam beradi, did-farosatli, samimiy.

-*Ekstrovertlashgan tip* – muloqotga kirishuvchan, do'stlari ko'p, ziddiyatlardan o'zini olib qochadi, boshqalarni diqqat bilan eshitish mumkin. Topshiriqlarni vaqtda bajaradi.

-*Introvertlashgan tip* – muloqotga kirishishga qiynaladi, "ichimdagini top", falsafiy fikr yuritishni yoqtiradi, qat'iyatli, e'tiqodi mustahkam, qaysar, tafakkuri qotib qolgan.

To'g'ri tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonida xarakter aksentuatsiyasini tarbiyalash va tuzatish mumkin.

Xarakter tipologiyasi

Psixologiya tarixida xarakterning tipologiyasini yaratishga bir necha bor urinib ko'rilgan. Nemis psixologi va psixiatri **E.Krechmer** tomonidan XX asr boshlarida tavsiya etilgan tipologiya eng mashhur va dastlabki urinishlardan biri edi. Keyinchalik, uning hamkasblari **U.Sheldon**, **E.Fromm**, **K.Leongard** va **A.E.Lichkolar** tomonidan ham shunday tipologiyalar tavsiya etilgan. Inson xarakterining barcha tipologiyalari quyidagi asosiy g'oyalarga muvofiq tarzda tashkil etilgan.

-inson xakteri uning ontogenetik taraqqiyoti mobaynida namoyon bo'la boshlaydi va butun hayot davomida barqaror bo'lib boradi;

-xarakter tarkibiga kirgan xususiyatlar tasodifiy uyushgan emas. Ular xarakter tipologiyasini tuzish imkonini beruvchi bir-biridan farq qiluvchi tiplardan iborat;

Mazkur tipologiyaga ko'ra ko'pchilik kishilarni ma'lum guruhlariga birlashtirish mumkin.

E.Krechmer odam tanasining tuzilishi va konstitutsiyasiga ko'ra, eng ko'p uchraydigan uchta tipni ajratib ko'rsatgan (astenik, atletik, piknik). Ularning har biri shaxsni ma'lum xarakter tiplari bilan bog'langan bo'lsa ham, aslida hech qanday ilmiy asoslab bo'lmaydi.

Astenik tip – **Krechmer** fikricha, uncha katta bo'lmagan gavda tuzilishli, o'rtacha yoki undan balandroq bo'yli, oriqli kishilardir. Asteniklarning tana va yuz terisi nozik, yelkasi tor, yassi, mushaklari yaxshi rivojlanmagan.

Atletik tip – skelet va mushaklar yaxshi rivojlangan, o'rtachadan yuqori, baland bo'yli, keng yelkali, kuchli ko'krak qafasi, boshini tik tutib yuradigan kishilardir.

Piknik tip – bosh, ko'krak qafasi va qorin bo'shlig'i yaxshi rivojlangan, semirishga moyil, tayanch-harakat a'zolari yaxshi rivojlanmagan kishilardir.

E. Krechmer mazkur tiplar bilan ayrim ruhiy kasallik o'rtasida muvofiqlik bor, degan fikmi ilgari suradi. *Masalan*, atletik va astenik tiplar shizofreniyaga moyilroq deb hisoblaydi.

E. Krechmer tipologiyasi hayotiy kuzatishlar asosida xulosalar chiqarish orqali tuzilgan bo'lsa ham kamchiliklarga ega. Ba'zi ilmiy tadqiqotlar ma'lum tana tuzilishiga ega kishilar ruhiy kasalliklarga moyil ekanligini aniqladi va xarakter aksentuatsiyasi haqidagi fikrlarni ilgari surish imkonini berdi.

Xarakter borasidagi nazariyalar

Xarakter borasidagi ta'limotlar tarixi uzoq o'tmishga borib tarqaladi. Xususan, **Arastu va Aflotun** kishi xarakterini basharasiga qarab aniqlashni taklif qilgan edilar. Ularning xarakterologiyasi asosi qanchalik sodda bo'lsa, shunchalik g'aroyib faraz yotardi. Kishining tashqi ko'rinishida qandaydir hayvon bilan o'xshashlik belgisini topish tavsiya qilinardi, so'ngra esa uning xarakterini ana shu hayvonning xakteri bilan aynan bir xil deb qarash kerak edi. Jumladan, **Arastuning** aytishi bo'yicha, buqaniki singari yo'g'on burun ishyoqmaslikni bildiradi, chuchqanikiga o'xshash teshiklari katta-katta keng burun ahmoqlikni, arslonnikini kabi burun mag'rurlikni, echkilar, qo'ylar, va quyonlarniki singari junining mayinligi qo'rqqqlikni, sherlar va yovvoyi chuchqalarniki kabi junning dag'alligi botirlikni anglatadi.

Xarakterni aniqlashning bu va shunga o'xshash fiziologik tizimi aql-sadosini biz, *masalan*, o'rta asrlik **Suriyalik yozuvchi Abul-Faraj Bar Ebreyda** ko'ramiz. *Uning kitobida shunday ko'rsatma mujassamlashgandir: "Yo'g'on va kalta bo'yni kishi bo'yval singari qahr g'azabga kelishi moyilligiga ega". Uzun va ingichka bo'yni qo'rqqqlik alomati. Bunday kishi bug'u singari hurkadigan bo'ladi, "Qaysi birtning bo'yni juda kichik bo'lsa, tulki singari makkor bo'ladi".*

XVIII asrda **Iogann Kaspar Lafaterning** fiziologik tizimi mashhur bo'lib ketdi. U inson boshi "Qalbini ko'rsatadigan oyna" bo'lib sanaladi va uning tuzilishini, bosh suyagining konfiguratsiyani, imo-ishorasini o'rganish kishi xarakterini o'rganishning asosiy yo'li deb hisobladi. **Lafater** taniqli odamlar shaxsi ustidan bir qator oqilona kuzatishlar qoldirdi. Ular uning ilmiy jihatdan mutlaqo ahamiyatsiz, lekin juda qiziqarli "Fiziognomika" kitobida yig'ilgandir. **Lafaterning** fikriga ko'ra, **Gyotening** geniyli haqida eng ko'p darajada uning, "burni dalolat beradiki, u **Gyote** pozitsiyasining "mahsuldorligini, mazmuni va muhabbatini - qayd etadi".

Lafaterning o'limidan keyin ko'p o'tmay paydo bo'lgan yangi xakteriologik ta'limot *frenologiya* degan nom oldi.

Frenologiya nemis vrachi **Frans Gallning** nomi bilan bog'langandir. **Gall** ta'limotining asosida xakterning barcha xususiyatlari bosh miya yarim sharlarida o'zlarining qat'iy ixtisoslashgan markazlarga ega degan tasdiq yotadi. Bu fazilatlarining rivojlanish darajasi miyaning tegishli qismlari kattaligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. **Gallning** maslagiga ko'ra, bosh suyaklari miyaning qavariq va chuqurcha joylariga aniq mos kelganligi uchun ham, uning ruhiy belgilarini aniq aytib berish uchun kishining bosh suyagiga bir nazar tashlash yoki shunchaki boshning "Bo'rtik joylarini" ushlab ko'rish atidan yetarli bo'lsa kerak.

Bu ta'limotda umuman miya yarim sharining tuzilishi shaxs xususiyatlariga bog'liq bo'ladi, degan to'g'ri boshlang'ich fikrdan tashqari barchasi nihoyat darajada noto'g'ridir.

Charlz Darvin ham o'zining "Odamda va hayvonlarda his-tuyg'ularning ifodalanishi to'g'risida" degan kitobida yozgan ediki, fiziognomistik har bir individning o'z shaxsiy qiziqishlariga erishib, faqat yuzlaridagi asosan ma'lum bir muskullarni qisqartirishi, bu muskullar kuchliroq rivojlangan bo'lishi mumkinligi va shuning uchun bu liniyalar va ularning odatdagi qisqarishidan paydo bo'ladigan yuz qisqarishi ancha chuqur va ko'zga ko'rinarli bo'lishi mumkinligini jiddiy ravishda bilishi kerak.

Ch.Darvinning bu g'oyalari ko'pgina psixologlarning izlanishlari uchun asos bo'ldi. Ular o'zlarining fiziognomik ta'limotlarini yuz ifodasining tavsiflanishi va tushuntirilishi hamda uning yumshoq to'qimalari holati asosiga qurila boshladilar. Mimikani psixologik jihatdan tushuntirib beradigan o'ziga xos fiziognomik ma'lumotlar tuzildi.

Xarakterning shakllanishi

Organizmning nasliy xususiyatlari xarakter xususiyatlarining paydo bo'lishidagi shartlardan biridir. Xarakter xususiyatlari irsiyatning biologik qonuniyatlari bilan emas, balki ijtimoiy qonuniyatlari bilan belgilanadi (egizaklar). Egizaklar temperament xususiyatlari jihatdan o'xshashlar ham xarakter xislatlari bir-biridan farq qiladi. Xarakterning har bir xususiyati shaxs munosabatlari bilan bog'liqdir. Lekin, shaxs munosabatlari o'z navbatida ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi. Kishining xarakteri tug'ma, doimiy va o'zgarmaydigan narsa emas. Hech bir bola mehnatsevar yoki dangasa, rostgo'y yoki yolg'onchi, qo'rqqoq yoki jasur bo'lib tug'ilmaydi. Har bir odamning xarakteri, temperamenti asosida, ijtimoiy muhit ta'siri bilan, tarbiya, amaliy faoliyat jarayonida va kishining o'zini o'zi tarbiyalashi bilan taraqqiy qilib, o'zgarib boradi. Xarakterning taraqqiyoti kishining irodasi, aql-idroki va hissiyotlarining rivojlanib borishi bilan mustahkam bog'liqdir.

Kishining butun hayoti davomida uning xarakteri tarkib topishiga ijtimoiy muhit, avvalo shu kishi bilan birga yashab turgan va ishlab kelgan jamoa katta ta'sir ko'rsatadi. Kichik bolalarda xarakterning tarkib topishida taqlidning roli katta. Bolalar ota-onasiga, yaqin kishilariga va kattalarga o'xshashlikka harakat qiladi. Ular kattalarning yurish-turishlari, dasturxon atrofida o'zini tutishi va boshqalarga taqlid qiladilar, kichiklar va jonivorlarga munosabatlarini kuzatadilar. Ota-onalar va o'qituvchilar, umuman katta yoshdagilar hammasi o'zlariga ham e'tibor bilan qarashlari, o'zlarida ijobiy xarakter xislatlarini har doim tarbiyalab borishlari lozim.

Bolalarda ijobiy, irodaviy va ahloqiy sifatlarni tarbiyalab yetkazmoq uchun ota-onalar va tarbiyachilarning o'zleri bunday sifatlarga ega bo'lishlari lozim. Xarakterning o'sishida tarbiya va o'zini o'zi tarbiyalashning roli katta. O'sib kelayotgan yosh avlodning xarakteri, avvalo oilada va maktabda tarbiyalanadi. Bolalarning xarakterini tarbiyalashda katta mas'uliyatli vazifa ota-onalar, o'qituvchilar va bolalar bog'chasi tarbiyachilari zimmasiga tushadi. Xarakterni tarbiyalashda pedagog bolaning temperamenti ijobiy va salbiy tomonlarini yaxshi bilishi lozim. Xarakterni tarbiyalash, jumladan, temperamentning ijobiy tomonlarini

o'stirishdan, uning salbiy tomonlarini yo'qotishdan va bu salbiy tomonlarni xarakterning ijobiy xislatlari bilan almashtirishdan iborat. Xarakterning salbiy tomonlarini yo'qotish, ijobiy tomonlarini tarbiyalash uchun tarbiyalanuvchining o'z temperamentini o'zi idora qilishga o'rgatishi lozim. O'z temperamentini idora qila bilish xarakterning ijobiy xislatidir.

Bola karakterining tarkib topishida jamoaning tarbiyalovchi roli nihoyatda katta. Inson yakka, bir-biridan ajralgan tarzda hayot kechirmaydi, muayyan jamoada, ya'ni muayyan oilada, maktabda, sexda va hokazolarda hayot kechiradi. Jamoa shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'indir. Har bir o'qituvchi va tarbiyachi bola karakterining ayrim xislatlarini tarbiyalashda faqat jamoa orqali ta'sir qilib, ijobiy natijalarga erishishi mumkin.

Xarakterning tashabbuskorlik, qat'iyatlilik, dadillik, sabotlilik singari ijobiy xislatlari bolalar bog'chasida o'yin faoliyatida tarkib topa boshlaydi. To'g'ri uyushtirilgan maktab jamoasi sharoitida o'quvchilarda uyushqoqlik, intizom, saranjom-sarishtalik, o'z-o'zini tuta bilish, o'zini idora qilish, o'ziga nisbatan talabchan bo'lish kabi xarakter xislatlari tarbiyalanib yetishadi. Kishi jamoada bir-bir bilan aloqa qilish jarayonida boshqalarning va o'zining xarakter xususiyatlarini bilib oladi. Xakterni bir xili ijobiy, boshqa bir xili salbiy ekanligini ajratib oladi. Bunday sharoit kishini o'z xarakterini o'zi tarbiyalash, jumladan, o'z xarakterini qaytadan tarbiyalashni yo'lga soladi.

Har bir kishi ma'lum yoshdan boshlab o'z xakteri va uning sifatleri uchun o'zi javobgardir. O'z xakterini tarbiyalashda kishi avvalo yaxshi fazilatlarini ko'zda tutmog'i lozim. O'z kamchiliklariga iqror bo'lish kamchiliklarini yo'qotishga boshlaydi.

Tayanch iboralar

Genotip (yunon. Genos – kelib chiqish, typos - namuna) – ota – onadan farzandga o'tadigan genlar majmui, irsiy asosi.

Dinamik stereotip (yunon. dynamikos – kuchli, stereos – qattiq tipos – iz) – bosh miya katta yarim sharlarining faoliyatini yaxlitlab turish turi bo'lib, u shartli reflekslarning ketma-ketligini ta'minlab turadi.

Introversiya – shaxsning o'z fikrlari, sezgilari, kechinmalarining o'z-o'ziga tayanishi.

Milliy xarakter (yunon. karakter – xususiyat, belgi) – biror bir millatga xos xususiyatlar.

Milliy stereotip (yunon. Stereos – qattiq typos – iz shakl) – ma'lum illatning obrazi bo'lib, u o'zida o'sha millatga xos shaxs xususiyatlari, madaniyati, hulq – atvorini namoyon qiladi.

Fenomen (yunon. phainomenon – yuz beruvchi, sodir bo'luvchi) – his-tuyg'ular tajribasi bilan payqaladigan hodisani anglatuvchi tushuncha;

Fizionomika (yunon. physis – tabiat, gnomon – biluvchi) – insonning tashqi ko'rinishi va uning biror shaxs turiga mansubligi o'rtasidagi qat'iy bog'liqlik.

Xiromantiya (yunon, cher – qo'l, man – fol) – odamning kaftiga qarab uning xakteri, taqdiri bo'yicha fol ochish.

Xarakter (yunon. karakter – xususiyat, belgi) – kishidagi barqaror psixik xususiyatlarning individual birligi. U shaxsning mehnatga, atrof-dagi narsa va hodisalarga, boshqa kishilarga va o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlarida ifodalanadi.

Xarakter aksentuatsiyasi (yunon. karakter – xususiyat, belgi, lot. accentus – urg‘u) – xarakterning alohida xususiyatlarini haddan tashqari ifodalanishi (psixopatiyaga yaqin namoyonlashuvi).

Ekstraversiya (lot. Extra – haddan tashqari, verso – o‘zgarish) – shaxsning tevarak – atrof-dagi odamlarga, tashqi hodisalarga yo‘nalishi.

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan mavzular

- 1.Xarakter haqida tushuncha.
- 2.Xarakter tipologiyasi.
- 3.Xarakter aksentuatsiyasi.
- 4.Xarakter tarkibi.
- 5.Xarakterning shakllanishi.
- 6.Xarakter tuzilishi va xususiyatlari.
- 7.Xarakter borasidagi talimotlar tarixida.

Test topshiriqlari

1. Xarakter tushunchasiga to‘g‘ri ta‘rif berilgan qatorni aniqlang?

- A) tag‘ma, qiyofa, xislat;
- B) tamg‘a, xususiyat, qiyofa;
- V) xususiyat, qiyofa, aralashma;
- G) aralashma, tamg‘a, urug‘;
- D) qiyofa, urug‘, xislat.

2. Qaysi qatorda xarakter tushunchasiga to‘g‘ri ta‘rif berilgan?

A) mazkur shaxs uchun tipik hisoblangan faoliyat usullarida namoyon bo‘ladigan tipik sharoitlarda ko‘rinadigan va bu sharoitlarga shaxsning munosabati bilan belgilanadigan individual psixologik xususiyatlar yig‘indisi;

B) shaxsning voqelikka bo‘lgan munosabatlarini ifodalovchi uning xulq-atvori va xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladigan barqaror xususiyatlarning individual tarzdagi yig‘indisi;

V) shaxsda muhit va tarbiya ta‘siri ostida tarkib topgan va uning irodaviy faolligida tevarak-atrofdagi olamga o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlarda namoyon bo‘ladigan individual psixologik xususiyat;

- G) to‘g‘ri javob berilmagan;
- D) barcha javoblar to‘g‘ri.

3. Xarakterning fiziologik asosi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A) asab tizimining tipi ;
- B) individual hayot jarayonida asab tizimining o‘zgargan xususiyatlari;
- V) dinamik sterotip;
- G) barcha javoblar to‘g‘ri;
- D) to‘g‘ri javob berilmagan.

4. Xarakterning fiziologik asosini tushunishda qaysi olimning nazariyasi muhim ahamiyatga ega?

- A) I.P.Pavlovning oliy nerv faoliyati borasidagi nazariyasi;
- B) I.M.Sechenovning shartli reflekslar borasidagi nazariyasi;
- V) I.P.Pavlovning ikkinchi signallar sistemasi haqidagi nazariyasi;
- G) B.Teplovning oliy nerv faoliyati funksiyalari borasidagi nazariyasi;
- D) L.S.Vigotskiyning tarixiy madaniy konsepsiyasi.

5. Xarakter tipologiyasi birinchi marta qaysi olim tomonidan ishlab chiqilgan?

- A) E.Krechmer;
- B) E.Fromm;
- V) K.Leongard;
- G) U.Sheldon;
- D) A.Lichko.

6. Inson xarakterining barcha tipologiyalari qanday g'oyalarga asoslanadi?

A) inson xakteri uning ontogenetik taraqqiyoti mobaynida juda erta namoyon bo'la boshlaydi va butun hayoti davomida barqaror bo'lib boradi;

B) xarakter tarkibiga kirgan xususiyatlar tasodifiy uyushma emas ular xarakter tipologiyasini tuzish imkonini beruvchi bir-biridan farq qiluvchi tiplardan iborat;

V) ko'pchilik kishilarni ma'lum guruhlarga birlashtirish mumkin;

G) to'g'ri javob berilmagan;

D) barcha javoblar to'g'ri.

7.E.Krechmer inson tana tuzilishiga ko'ra qanday tiplarga ajratadi?

A) gipertim, distim, sikloid;

B) astenik, atletik, qo'zg'aluvchan;

V) xavotirli, emotiv, piknik;

G) astenik, atletik, piknik;

D) sikloid, emotiv, pedant tip;

8. E.Krechmer tomonidan ishlab chiqilgan tipologiyaga muvofiq astenik tipdagi insonlar qanday xususiyatlarga ega?

A) uncha katta bo'lmagan gavda tuzilishi o'rtacha yoki undan balandroq bo'yli oriq kishilardir;

B) skelet va mushaklar yaxshi rivojlangan o'rtadan yuqori baland bo'yli keng yelkali kuchli ko'krak qafasli boshini tik tutib yuradigan kishilardir;

V) bosh ko'krak qafasi yaxshi rivojlangan semirishga moyil tayanch-harakat a'zolari yaxshi rivojlangan kishilardir;

G) kamgap muloqotga kirishishga qiynaladigan pessimist ziddiyatlardan o'zini olib qochadigan uyda yolg'iz qolishni yoqtiradi;

D) kayfiyati tez o'zgarishga moyil kayfiyati yaxshi paytida gipertim yomon paytida distim tipga o'xshab qoladi.

9. E.Krechmer tomonidan ishlab chiqilgan tipologiyaga muvofiq atletik tipdagi insonlar qanday xususiyatlarga ega?

A) uncha katta bo'lmagan gavda tuzilishi o'rtacha yoki undan balandroq bo'yli oriq kishilardir;

B) skelet va mushaklar yaxshi rivojlangan o'rtadan yuqori baland bo'yli keng yelkali kuchli ko'krak qafasli boshini tik tutib yuradigan kishilardir;

V) bosh ko'krak qafasi yaxshi rivojlangan semirishga moyil tayanch-harakat a'zolari yaxshi rivojlangan kishilardir;

G) kamgap muloqotga kirishishga qiynaladigan pessimist ziddiyatlardan o'zini olib qochadigan uyda yolg'iz qolishni yoqtiradi;

D) kayfiyati tez o'zgarishga moyil kayfiyati yaxshi paytida gipertim yomon paytida distim tipga o'xshab qoladi.

10. E.Krechmer tomonidan ishlab chiqilgan tipologiyaga muvofiq piknik tipdagi insonlar qanday xususiyatlarga ega?

A) uncha katta bo'lmagan gavda tuzilishi o'rtacha yoki undan balandroq bo'yli oriqli kishilardir;

B) skelet va mushaklar yaxshi rivojlangan o'rtadan yuqori baland bo'yli keng yelkali kuchli ko'krak qafasli boshini tik tutib yuradigan kishilardir;

V) bosh ko'krak qafasi yaxshi rivojlangan semirishga moyil tayanch-harakat a'zolari yaxshi rivojlangan kishilardir;

G) kamgap muloqotga kirishishga qiynaladigan pessimist ziddiyatlardan o'zini olib qochadigan uyda yolg'iz qolishni yoqtiradi;

D) kayfiyati tez o'zgarishga moyil kayfiyati yaxshi paytida gipertim yomon paytida distim tipga o'xshab qoladi.

11. Xarakter xususiyatlari nechta tizimga farqlanadi?

A) 2ta;

B) 6ta;

V) 4ta;

G) 8 ta;

D) 5ta;

12. Qaysi qatorda xarakter xususiyatlari tarkibidagi tizim to'g'ri ko'rsatilgan?

A) jamoa va ayrim odamlarga bo'lgan munosabatlarni ifodalovchi xususiyatlar;

B) mehnatga bo'lgan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar;

V) narsalarga bo'lgan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar;

G) odamning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini ifodalovchi xususiyatlar;

D) barcha javoblar to'g'ri.

13. Qaysi qatorda jamoa va ayrim odamlarga bo'lgan munosabatlarni ifodalovchi xususiyatlar keltirilgan?

A) yaxshilik, mehribonlik talabchanlik, takabburlik;

B) mehnatsevarlik yalqovlik vijdonlilik mehnatga mas'uliyat yoki mas'uliyatsizlik;

V) ozodalik yoki ifloslik narsalar bilan ayab yoki ayamasdan munosabatda bo'lish;

G) izzat-nafslilik shuhratparastlik mag'rurlik o'zini katta olish kamtarlik;

D) barcha javoblar to'g'ri.

14. Qaysi qatorda mehnatga bo'lgan munosabatlarni ifodalovchi xususiyatlar keltirilgan?

A) yaxshilik, mehribonlik talabchanlik, takabburlik;

B) mehnatsevarlik yalqovlik vijdonlilik mehnatga mas'uliyat yoki mas'uliyatsizlik;

V) ozodalik yoki ifloslik narsalar bilan ayab yoki ayamaşdan munosabatda bo'lish;

G) izzat-nafslilik shuhratparastlik mag'rurlik o'zini katta olish kamtarlik;

D) barcha javoblar to'g'ri.

15. Qaysi qatorda narsalarga bo'lgan munosabatlarni ifodalovchi xususiyatlar keltirilgan?

A) yaxshilik, mehribonlik talabchanlik, takabburlik;

B) mehnatsevarlik yalqovlik vijdonlilik mehnatga mas'uliyat yoki mas'uliyatsizlik;

V) ozodalik yoki ifloslik narsalar bilan ayab yoki ayamaşdan munosabatda bo'lish;

G) izzat-nafslilik shuhratparastlik mag'rurlik o'zini katta olish kamtarlik;

D) barcha javoblar to'g'ri.

16. Qaysi qatorda odamning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarni ifodalovchi xususiyatlar keltirilgan?

A) yaxshilik, mehribonlik talabchanlik, takabburlik;

B) mehnatsevarlik yalqovlik vijdonlilik mehnatga mas'uliyat yoki mas'uliyatsizlik;

V) ozodalik yoki ifloslik narsalar bilan ayab yoki ayamaşdan munosabatda bo'lish;

G) izzat-nafslilik shuhratparastlik mag'rurlik o'zini katta olish kamtarlik;

D) barcha javoblar to'g'ri.

17. Xarakter tarkibida nechta xil xususiyatlar guruhini ajratish mumkin?

A) 2ta;

B) 6ta;

V) 4 ta;

G) 3 ta;

D) hech qanday guruhlarga ajratilmaydi.

18. Xarakterning plastikligi necha xil ma'noga ega

A) 2ta;

B) 6ta;

V) 4 ta;

G) 3 ta;

D) hech qanday guruhlarga ajratilmaydi.

19. Qaysi qatorda xarakter xususiyatlar to'g'ri ko'rsatilgan?

A) barqarorligi plastikligi o'zgaruvchanligi;

B) chuqurligi kuchi va faolligi barqaror va o'zgaruvchanligi;

V) ahloqiy irodaviy;

G) barcha javoblar to'g'ri;

D) to'g'ri javob berilmagan.

20. Biror xususiyatning boshqalari zarariga kuchli rivojlanishi va atrofdagilar bilan munosabatlarning yomonlashishiga olib kelishidir. Mazkur ta'rif qaysi tushunchaning mazmunini belgilab beradi?

A) xarakter;

B) xarakter xususiyatlari;

- V) xarakter aksentuatsiyasi;
- G) manmanlik;
- D) qaysarlik.

21. Xarakter aksentuatsiyasi tushunchasi qaysi olimlar tomonidan fanga kiritilgan?

- A) K. Leongard, Ye. Lichko;
- B) K. Leongard, E. Krechmer;
- V) Ye. Lichko, U. Sheldon;
- G) E. Fromm, U. Sheldon;
- D) K. Leongard, E. Fromm.

22. Xarakter xislatlari qanday turlarga ajratiladi?

- A) irodaviy o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarga;
- B) axloqiy, emotsional;
- V) axloqiy, intellektual;
- G) axloqiy, irodaviy;
- D) axloqiy, irodaviy emotsional.

23. Shaxsdagi mustaqillik, prinsipiiallik, qat'iylik, chidamlilik, matonat, o'zini tuta bilishlik kabi sifatlar shaxsning qanday xislatlari tarkibiga kiradi?

- A) axloqiy;
- B) emotsional;
- V) irodaviy;
- G) intellektual;
- D) mehnatga munosabat.

24. Intizomlilik mas'uliyatni his qilish samimiylik haqqoniylik insonparvarlik mehnatsevarlik kabi sifatlar shaxsning qanday sifatleri tarkibiga kiradi?

- A) axloqiy;
- B) emotsional;
- V) irodaviy;
- G) intellektual;
- D) mehnatga munosabat;

25. Keltirilgan olimlardan qaysi birlari xarakterni inson basharasiga qarab aniqlashni taklif etganlar?

- A) Arastu va Suqrot;
- B) Arastu va Aflotun;
- V) Galton va Suqrot;
- G) Suqrot va Aflotun;
- D) Gall va Arastu.

26. Buqaniki singari yo'g'on burun ishyoqmaslikni bildiradi, chuchqanikiga o'xshash teshiklari katta-katta keng burun ahmoqlilikni, arslon kabi burun mag'rurlikni, echkilar qo'ylar va quyonniki singari junning mayinligi chuchqalarniki kabi junning dag'alligi botirlikni anglatadi. Mazkur tasnif qaysi olim tomonidan ilgari surilgan?

- A) Aflotun;
- B) Arastu;

- V) Dekart;
- G) Gall;
- D) Suqrot.

27. XVIII qaysi olimning xarakter borasidagi nazariyasi mashhur bo'ldi?

- A) P.P.Blonskiy shaxsda xarakterni tarkib topishi;
- B) Iogann Kaspar Lafaterning fiziologik tizimi;
- V) Frans Gallning frenologik xaritasi;
- G) Iogann Kaspar Lafaterning xarakterning individual xususiyatligi;
- D) Ch.Darvining evolyutsion nazariyasi.

28. Uning fikricha inson boshi "Qalbini ko'rsatadigan oyna bo'lib sanaladi va uning tuzilishi bosh suyagining konfiguratsiyasini imo-ishorasini o'rganish kishi xarakterining o'rganishning asosiy yo'li deb hisoblaydi".

- A) Aflotun;
- B) Arastu;
- V) Gall;
- G) Lafater;
- D) Lestgaft.

29. Frenologiya ta'limotining asoschisi qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) Aflotun;
- B) Arastu;
- V) Gall;
- G) Lafater;
- D) Lestgaft.

30. Mazkur ta'limotga ko'ra, xarakterning barcha xususiyatlari bosh miya yarim sharlarida o'zlarining qat'iy ixtisoslashgan markazlariga ega degan tasdiq yotadi?

- A) xarakterologik ta'limotlarda;
- B) frenologik ta'limotlarda;
- V) fizoginomikada;
- G) evolyutsion qonuniyatda;
- D) barcha javob to'g'ri.

Nazorat savollari

- 1.Xarakter tushunchasining mazmunini izohlang?
- 2.Xarakterning fiziologik asoslarini nima tashkil qiladi?
- 3.Xarakter tipologiyasining mazmuni nimalarda ko'rinadi?
- 4.Xarakter aksentuatsiyasining mazmunini asoslang?
- 5.Xarakter tarkibini nimalar tashkil qiladi?
- 6.Xarakterning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsating?

QOBILIYAT

Qobiliyat haqida tushuncha

Qobiliyat insonning shunday psixologik xususiyatidirki, bilim, ko'nikma, malakalarini egallash shu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. Lekin, bu xususiyatlarning o'zi bu bilim va ko'nikmalarga taalluqli bo'lmaydi. Malaka, ko'nikma va bilimlarga

nisbatan odamning qobiliyatlari qandaydir imkoniyat tarzida namoyon bo'ladi. Qobiliyatlar imkoniyatlardan iborat bo'lib, biror bir ishdagi mahorat darajasi haqiqatdir. Bolada namoyon bo'ladigan musiqaga qobiliyati uning musiqachi bo'lishi uchun imkoniyatlar, maxsus ta'lim berilishi, qat'iylik, salomatligining yaxshi bo'lishi, musiqa asbobi, notalar va boshqa ko'pgina sharoitlar bo'lishi kerak. Bularsiz qobiliyatlar taraqqiy etmay turib qo'shib ketishi mumkin.

Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham faqat ana shu qobiliyatsiz amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan faoliyatlardagina namoyon bo'ladi. O'quvchida ham zaruriy ko'nikma va malaka tizimi hamda mustahkam bilimlar tarkib topish uslublari yo'qligiga asoslanib, jiddiy tekshirib ko'rsala, shoshilinch ravishda unda qobiliyatlar yo'q, deb xulosa chiqarish pedagogning jiddiy psixologik xatosi bo'ladi.

Masalan, Albert Eynshteyn o'rta maktabda uncha yaxshi o'qimaydigan o'quvchi hisoblangan va uning kelajakda genial bo'lishidan hech narsa dalolat bermas edi.

Qobiliyat bilim va malakalarning o'zida ko'rinmaydi, balki ularni egallash tizimida namoyon bo'ladi ya'ni, boshqacha qilib aytganda mazkur faoliyat uchun muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida turli sharoitlarda qanchalik tez, chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirishida namoyon bo'ladi.

Qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar bo'lishi bilan aql sifatleri xotira xususiyatlariga, hissiy xususiyatlar va shu kabilarni qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi, hamda qobiliyatlarni shaxsning bu xususiyatlari bilan bir qatarga qo'yish ham mumkin emas. Agar shu sifatlarining birortasi yoki ularning yig'indisi faoliyat talablariga javob bersa yoki bu talablar ta'siri bilan tarkib topsa bu shaxsning mazkur individual xususiyatlarini qobiliyatlar deb hisoblashiga asos bo'ladi.


Qobiliyat kishining psixologik va fiziologik tuzilishi xususiyatidir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit bo'lib, shuning bilan birga u ma'lum darajada bilim olish mahsuli hamdir. Umumiy va maxsus bilimlarni o'zlashtirish, shuningdek, kasbiy ko'nikmalarni egallab olish jarayonida qobiliyat mukammallashib va rivojlanib boradi. Qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko'nikma va malakadir. Ular faoliyat mexanizmini tashkil qiladilar. Shuningdek, ular qobiliyat bilan birgalikda mahoratga erishishni ta'minlaydilar, buning natijasida mehnatda katta yutuqlar qo'lga kiritiladi. Qobiliyatli, ammo noshut inson ko'p narsaga erisha olmaydi. Qobiliyat ko'nikmada ro'yobga chiqadi.

Darhaqiqat, qobiliyatli kishining ko'nikma va malakalari ko'p qirrali va mukammallashgan bo'ladi. Shuning bilan birga ko'nikma va malakalar yetishmagan qobiliyatni bir muncha to'ldirish yoki undagi kamchilikni tugatish mumkin. Ko'nikmalarni umumlashmasi *mohirlik* deb ataladi. *Mohirlik bu* endi qobiliyatning o'zginasidir. Demak, qobiliyat ko'nikma va malakalarning paydo bo'lishi jarayonida shakllanadi.

Har qanday qobiliyat ham murakkab bo'lib, u kishiga turli-tuman talablar qo'yadi. Agar shaxs xususiyatlari tizimi shu talabga javob bera olsa kishi faoliyatni muvaffaqiyat bilan amalga oshirish uchun o'z qobiliyatligini ko'rsata oladi, agarda xususiyatlardan qaysi biri rivojlanmagan bo'lsa, shaxs mehnatning muayyan turiga nisbatan ham qobiliyatli deb baholanadi. Har bir qobiliyatning o'ziga xos tuzilishi

mavjud. Qobiliyat tarkibida *tayanch va yetakchi xususiyatlarni*, muayyan asosiy yoki yordamchi xususiyatlarni farq qilish lozim.

Barcha qobiliyatlar uchun asosiy *tayanch xususiyat* kuzatuvchanlik, bilish ko'nikmasidir. Bu individual narsaning o'ziga xos tomoni, ijodiy faoliyat uchun boshlang'ich materialni ko'ra bilish demakdir, Qobiliyatning yetakchi xususiyati ijodiy tasavvur qilishlik hisoblanadi.



Quyidagilarni *yordamchi xususiyat* deb hisoblash mumkin: xotira (u faoliyat talablariga muvofiq ravishda o'ziga xos tuzilishda bo'ladi), emotsionallik, ya'ni his tuyg'uga beriluvchanlik (bu xususiyat shaxsning faoliyatini oshiradi) va shunga o'xshashlar, Amaliy faoliyatning ba'zi ko'rinishlarida shaxsning irodasi oldingi o'ringa chiqadi. Qobiliyat tuzilishidagi turli xususiyatlarning tarkibi faoliyatning turli davrlarida yoki ijodiyotning bosqichlarida turlicha bo'lishi mumkin. Demak, tuzilish ham barqaror, ham o'zgaruvchidir

Qobiliyatlarning miqdor va sifat tavsifi

Psixologiyada qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar sifatida tavsiflanadi va buning asosida tafovutlanadigan xislatlar fazilatlar yotadi. Shuning uchun har bir shaxsda bir xil natija bir xil sifat kutish mumkin emas, chunki insonlar o'z qobiliyatlari bo'yicha bir-birlaridan muayyan darajada farq qiladilar, binobarin ular o'rtasidagi farqlar sifat va miqdor jihatidan bo'lishi mumkin.

Qobiliyatlarning sifat tavsifi shaxsning qaysi individual psixologik xususiyatlari faoliyat muvaffaqiyatlarining majburiy sharti tariqasida xizmat qilishini anglatadi. Ularning miqdor tavsifi esa faoliyatga qo'yiladigan talablarni shaxs tomonidan qay yo'sinda bajarish imkoniyati mavjudligini bildiradi, ya'ni mazkur inson boshqa odamlarga qaraganda malaka, bilimlardan nechog'lik tez, yengil, puxta foydalana olishini namoyish qiladi.

O'quvchining qobiliyatlari nimaga namoyon bo'lishini va binobarin o'quvchi shaxsini qanday individual psixologik xususiyatlari faoliyatni qay darajada bajarish qobiliyatiga ega ekanligi, ya'ni o'quvchining boshqalarga nisbatan malaka va bilimlarni qanchalik tez, yengil va mustahkam egallab olishini bilish pedagog uchun muhimdir.

Qobiliyat xususiyatlarining sifat tomonidan qaralishi maqsadga har turli yo'llar bilan borishga imkon beruvchi "o'zgaruvchan miqdor" to'plami sifatida, faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi inson psixologik xususiyatlarining yig'indisi sifatida

ko'riladi. Bir xususiyatlarni o'zini ikkinchi bir xususiyatlar bilan bosishning keng imkoniyatlari mavjud, buni odam o'zida chindan qat'iylik bilan ishlash orqali rivojlantirishi mumkin. Pedagog va psixolog **Skolovinskiy** ko'r-kar Olga Skoroxodovada faqat ilmiy xodimlik qobiliyatini emas, balki adabiy qobiliyat bilan, boshqarish yordami bilan to'ldirish xususiyati har bir odam oldida kasb tanlash va uni takomillashtirishning nihoyatda keng imkoniyatlarini ochib beradi.

Qobiliyatlarning sifat jihatdan tavsifi odam mehnat faoliyatining qaysi sohasida (pedagog, sport, savdo va boshqalar) yengillik bilan "o'zini topa oladi" va qanday qilib katta yutuq va natijalarga erisha oladi degan savolga javob berish imkoniyatini beradi. Qobiliyatlarni miqdor tavsifi va ularni o'lchash muammosi bilan ko'proq chet el psixologlari (Kettell, Termen, Spirmen) va boshqalar shug'ullanganlar. Ular kattalarda kobiliyatni o'lchash usuli sifatida aqliy iste'dod testlaridan foydalananglar. Bolaning aqliy iste'dod koeffitsenti

I Q aqliy yoshi

Bolaning haqiqiy yoshi

Bu usul odamning aqliy qobiliyatlar egasi ekanligini emas, balki odamda qobiliyatlar bilan aralashtirib bo'lmaydigan biror bir xildagi ma'lumotlar, ko'nikma va malakalar borligini namoyon qiladi.

L.S.Vigotskiy bu usulni tanqid qilib, o'zining kelajak taraqqiyot zonasini belgilash "metodi" deb ataladigan usulini taklif qildi. Qobiliyatlar odamning faoliyatidan tashqarida mavjud bo'lmaydi. Qobiliyatlarining tarkib topishi esa ta'lim-tarbiya jarayonida bolaning yutuqlari tezligida namoyon bo'ladi.

Qobiliyatlar tasnifi

Psixologiya fanida qobiliyatlar quyidagicha tavsiflanadi:

1. *Tabiiy qobiliyatlar* odamlar va hayvonlar uchun xos bo'lib, idrok qilish xotirada saqlash, oddiy muloqotga kirisha olish shular jumlasidandir. Biologik jihatdan asoslangan bu qobiliyatlar asosini shartli reflekslar hosil bo'lish jarayoni tashkil etadi. Insondagi va yuksak darajada rivojlangan hayvonlardagi bu qobiliyatlar bir-biridan farq qiladi.


2. *Maxsus insoniy qobiliyatlar* ijtimoiy-tarixiy tabiatga ega bo'lib, ijtimoiy hayot va taraqqiyotni ta'minlaydi. Maxsus insoniy qobiliyatlar o'z navbatida umumiy va xususiy qobiliyatlarga bo'linadi.

3. *Umumiy qobiliyatlar* insonning turli faoliyatlari muvaffaqiyatini ta'minlovchi aqliy qobiliyatlar xotira va nutqning rivojlanganligi, qo'l harakatlarini aniqligi va boshqa xususiyatlardan iborat. Xususiy qobiliyatlar alohida olingan bir faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Bu qobiliyatlar alohida muloqotning bo'linishini taqozo etadi. *Masalan*, matematika, texnika, badiiy ijodiy, sportga bo'lgan qobiliyatlar shular jumlasidandir.

Ayrim adabiyotlarda umumiy qobiliyatlar mohiyati turlicha talqin qilinadi. Jumladan, *umumiy qobiliyat* deganda muvaffaqiyatli ravishda bilim olishni ta'minlaydigan shaxsning yuksak intellektual taraqqiyoti tushuniladi. Biroq bunday tushuncha tor va noto'g'ridir, chunki intellektual taraqqiyot faqat ixtiyoriy faoliyat uchun umuman talab qilinadi, xolos. Umumiy qobiliyat faoliyatning hamma turlariga

jumladan amaliy faoliyatga ham ta'sir qiladi, deb hisoblovchi psixologlar topildi. Ammo bu fikrda qarama-qarshilik mavjud, agar umumiy qobiliyat universal ahamiyatga ega bo'lgan ekan, unda qandaydir maxsus qobiliyatlar haqida gapirib o'tirishning hojati yo'q.

Nihoyat, shunday psixologlar ham borki, ular faqat maxsus qobiliyatlarni tan oladilar. Umumiy qobiliyat haqida gapirganda ham maxsus qobiliyatlar yig'indisi ta'sirini ko'zda tutadilar. Kishining turli-tuman faoliyatlari orasida bittasi asosiy yoki yetakchi faoliyat sharoitida shaxsning maxsus taraqqiyotini belgilovchi faoliyat bo'lib ajralib turadi. Bu faoliyat tug'ma spesifik zehn nishonalariga mos tushishi mumkin.



Hamma maxsus qobiliyatlarni, inson faoliyatining *asosiy turlarini uch turga*: fan, san'at, amaliyotga ajratish mumkin. Shunga binoan qobiliyatni milliy, badiiy va amaliy deb klassifikatsiyalash mumkin. Bu turlarning har biri o'z navbatida mayda turlarga bo'linadi.

Ilmiy qobiliyat abstrakt, evristik fikrlashning yuksak rivojlangan bo'lishini, og'zaki mantiqiy xotirani, qat'iyat va sabr-toqatni talab qiladi. Bu qobiliyatga quyidagi mayda qobiliyatlar kiradi: fizik, matematik qobiliyat, ximiya, filozofiya, tarix, biologiya fanlariga nisbatan bo'lgan qobiliyatlar.

Badiiy qobiliyat sensor obrazli fikrlashning alohida rivojlangan bo'limini, o'tkir emotsional ta'sirchanlik va reaktivlikni talab qiladi. Bu qobiliyatga tasvirlash, musiqaviy, artistik va adabiy qobiliyatlar kiradi.

Amaliy qobiliyat praktik aqlning yuksak darajada rivojlanganligini, fahm-farosatning kuchliligi, iroda va yetuk kirishuvchanlikni o'z ichiga oladi. Amaliy qobiliyatga konstruktiv-texnikaviy qobiliyat, boshqaruvchanlik qobiliyati, shu jumladan tashkilotchilik va boshqalar kiradi.

Nazariy va amaliy qobiliyatlar ham inson qobiliyatlaridan bo'lib, nazariy qobiliyatlar mavhum, mantiqiy harakatlarga moyillikda namoyon bo'ladi. O'quv qobiliyatlari bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, shaxs – shakllanishi, pedagogik ta'sirlar samaradorligini ortishida ijobiy rol o'ynaydi. Ijodiy qobiliyatlar moddiy va ma'naviy madaniyat asarlarini yaratish, yangi g'oya, kashfiyot va yangiliklar yechishda namoyon bo'ladi.

Qobiliyatlar tarkibi

Odam egallaydigan faoliyat uning xususiyatlariga yuksak talablar qo'yadi. Bu talablarni qandaydir bitta sifat taraqqiyotining juda yuksak darajasida bo'lsa ham qondira olmaydi. Qobiliyatlar murakkab tuzilishga ega bo'lgan psixik sifatlar yig'indisidan iboratdir. Qobiliyatlar tarkibi aniq faoliyat talabi bilan belgilanadi va har turdagi faoliyatlar uchun turlicha bo'ladi. *Masalan*, matematik qobiliyat, adabiy qobiliyat, pedagogik, musiqaviy, ixtirochilik va shifokorlik qobiliyatlari tuzilishi maxsus tarkibga ega. Aniq qobiliyatlar tarkibini tashkil qiluvchi shaxsning xislatlari orasida ayrimlari yetakchi o'rinni egallasa, ayrimlari yordamchilik rolini egallaydi. *Masalan*, pedagogik qobiliyatlar tarkibida yetakchi sifat pedagogik takt, kuzatuvchanlik, bolalarni sevisish, ularga nisbatan yuksak talabchanlik, bilimlarni berishga ehtiyoj, yordamchi tarzda tashkilotchilik qobiliyati hisoblanadi. Har turli qobiliyatlarda bir emas, balki bir necha turdagi faoliyat turlari talablariga javob beradigan birmuncha umumiy sifatlarini ajratishimiz mumkin, bundan tashqari, mazkur faoliyatni bir muncha torroq doirasi uchun javob beruvchi maxsus sifatlarini ajratishimiz mumkin. Bu narsa ularda har tomonlama qobiliyatlar borligi, har turli kasblar, mashg'ulotlarning keng sohasiga doir umumiy qobiliyatlar borligi haqida gapirish imkonini beradi. Bu ikkinchi signallar tizimi haqidagi ta'limot bilan bog'liqdir.

Shaxs egallashi shart hisoblangan faoliyat, u hoh ta'lim, hoh mehnat, hoh o'yin, hoh sport bo'lishidan qat'i nazar uning bilish jarayonlariga, aqliy xislatlariga, hissiy-irodaviy jabhalariga, somomotor sohasiga, xarakterologik xususiyatlariga muayyan talablar qo'yadi va ularning hamkorligidagi sa'i-harakati tufayli muvaffaqiyatlarga erishiladi. Psixologik ma'lumotlarga qaraganda, insondagi yuksak ko'rsatkichga erishgan sifat qanchalik ustuvorlikka ega bo'lmasin, u talablarni qondirish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Ayrim hollarda alohida namoyon bo'lgan psixik xususiyat (xislat) faoliyatning yuksak mahsuldorligi va samaradorligini ta'minlash qurbiga ega, u qobiliyatlarni uddalay oladigan imkoniyat bilan bab-baravar kuch-quvvat tariqasida vujudga keladi, degan faraz o'zini oqlamaydi. Shuning uchun qobiliyatlar murakkab tuzilishga ega bo'lgan psixik sifatlar (xislatlar) majmuasidir deyish juda o'rinlidir.

Qobiliyatlar sifatida ro'yobga chiqadigan psixik xislatlar majmuasining tuzilishi yaqqol va alohida faoliyat talabi bilan belgilanganlik tufayli har qaysi turdagi faoliyatlar uchun o'ziga xos tarzda qo'yilishi aynan haqiqatdir. *Buning uchun ayrim misollarni tahlil qilib o'tamiz.*

1) *Matematik qobiliyat* matematik materiallarni umimlashtirish, mulohaza yuritish jarayonini qisqartirish, matematik ish amallarini kamaytirish, masalani idrok

qilish bilan natijasi o'rtasida aloqa o'rnatish, to'g'ri va teskari fikr yuritishdagi yengillik, unumlilik, masala yechishda fikr yuritishni epchilligi kabilar.

2) *Adabiy qobiliyat* nafosat hislarining yuksak taraqqiyoti darajasi xotirada yorqin ko'rgazmali obrazlarning jonligini, "til zehni", behisob xayolan ruhiyatga qiziquvchanlik, intiluvchanlik va boshqalar. Ajratib ko'rsatilgan qobiliyatlar tarkibidan ko'rinib turibdiki, matematik va adabiy qobiliyatlar o'zaro bir-biriga o'xshamagan manbalari bilan tafovutga egadir. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, pedagogik, musiqaviy, texnik, konstruktorlik, tibbiy qobiliyatlar va shunga o'xshash qobiliyatlar tuzilishi maxsus xususiyatga ega bo'lib kasbiy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Rus olimi **I.P.Pavlov** o'z ta'limotida "badiiy", "fikrlovchi", "o'rta" tiplarga ajratilgan shaxslarning ana shu uchta tipdan bittasiga taalluqli ekanligini tavsiflab beradi. Muallif ushbu tipologiyani yaratishda oliy nerv faoliyatining *birinchi va ikkinchi signal tizimidan* iboratligi to'g'risidagi ta'limotga asoslanadi. *Birinchi signallar tizimi* obrazlar, emotsiyalardan va *ikkinchi signallar tizimi* esa obrazlar haqida so'zlar orqali signal berishdan iboratdir. Ikkinchi signal tizimi **I.P.Pavlov** tomonidan "signallarning signali" deb nomlangan edi. *Ushbu tipologiyani osonroq qilib quyidagicha tushuntirish mumkin:*

1) shaxs faoliyatida birinchi signallar tizimining signallari nisbatan ustunlik qilsa, bu inson "*badiiy*" tipga taaluqlidir;

2) mabodo "signallarning signali" nisbatan ustuvor bo'lsa, bu shaxs "*fikrlovchi*" tipga mansubdir;

3) agarda har ikkala signallar aralashib ketgan bo'lsa (birortasining ustunligi sezilmasa) bu inson "*aralash*" tipga mansub odamdир.

Tipologiyaning o'ziga xos tomonlari qisqacha ifodalanganda yoki tavsif qilinganida quyidagilar namoyon bo'ladi:

1. "*Badiiy tip*" uchun bevosita u taassurotlar jonli tasavvur, yorqin idrok, his-tuyg'ular (emotsiyalar) natijasida vujudga keladigan obrazlarning yorqinligi xosdir.

2. "*Fikrlovchi tip*" uchun mavhumlarning, mantiqiy tizimlarning, nazariy mulohazalarning, metodologik muammolarning ustunligi muvofiqdir.

Badiiy tipning mavjudligi aqliy faoliyatning zaifligi yoki aqlning yengilmasligini bildirmaydi, lekin bu o'rinda gap psixika obrazli jabhalarini fikrlovchi tomonlari ustidan nisbatan ustuvorligi haqida beradi. Biroq shuni ta'kidlash joizki, shaxsning ikkinchi signallar tizimidan ustunlik qiladi va bu ustuvorlik mutloqlik xususiyatiga egadir. Ma'lumki, insonlarning hayot va faoliyatlarida til bilan tafakkurning o'rni hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, shaxs tomonidan borliqning aks ettirish jarayoni so'zlar, fikrlov vositasida ro'yobga chiqariladi.

Qobiliyatlarning tabiiy asoslari

Odatda qobiliyatlar insonga shaxsning barcha individual psixologik xususiyatlari kabi tabiat tomonidan tug'ma ravishda tayyor holda berilmaydi. Balki hayot davomida va faoliyat jarayonida shakllanadi. Ilmiy psixologiya qobiliyatlarning tug'maligi nazariyasini inkor etib shaxs qobiliyatlarining noma'lum tabiiy omillar tomonidan azaliy belgilanishi to'g'risidagi tasavvurlarga qarshi zarba beradi.

Qobiliyatning tug'maligini inkor qilish absolyut tabiatga ega emas. Psixologiyada qobiliyatning tug'ma ekanligini tan olinmas ekan, bu bilan miyaning tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan differensial xususiyatlarning tug'maligini inkor qilmaydi. Qobiliyat taraqqiyotining dastlabki tabiiy sharti sifatida namoyon bo'ladigan miya tuzilishining sezgi a'zolariga va funksional xususiyatlariga *layoqat* deb ataladi. Layoqat ko'p qirralidir. Shaxs tomonidan qo'yilgan talablarning tabiatiga bog'liq ravishda aynan bir xil layoqatlar asosida har xil qobiliyatlar rivojlanishi mumkin.

F.A.Gallning fikricha, odamning hamma qobiliyatlari "aql" va "qobiliyat" sifatleri miya yarim sharlarida o'zining maxsus qat'iy markazlariga ega, ya'ni bu sifatarning taraqqiyot darajasi miya tegishli qismlarining miqdoriga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Shuning uchun odamning kalla suyagiga bir qarash yoki boshidagi do'mboqchalarni shunchaki paypaslab ko'rish orqali go'yo odamning qobiliyatlarini aniqlasa bo'ladi. Layoqatning miya miqdori, massasi va og'irligiga bog'liqligi haqidagi faraz ham bekor qilingan. Katta yoshdagi odam miyasining o'rtacha og'irligi 1400 grammga yaqin bo'ladi. U.S. **Turgenev** miyasining og'irligi 2001 gramm, **D.G Bayronniki** 1800 grammni, mashhur ximik **Yu.Libixniki** 1360 grammni, yozuvchi **Afransniki** 1017 grammi tashkil qilgan. Eng katta miya aqliy jihatdan nuqsoni bor odamga taalluqli ekanligi aniqlangan.

1675-yilda **F.Galtonning** "Talantning irsiyatga bog'liqligi qonunlari va oqibatleri" degan kitobi nashr etildi. Bunda muallif bir necha yuzlab mashhur kishilarning qarindoshlik aloqalarini o'rganib, talant ota-onadan irsiyat yo'li orqali o'tadi degan xulosaga kelgan. Biroq, **F.Galtonning** xulosalari ilmiy jihatdan asoslanmagan edi. **Baxlar** oilasida musiqaga bo'lgan talant dastavval 1550-yilda ma'lum bo'lgan. Bu talant 1800-yillarda yashagan qandaydir Regina Susanadan so'ng tamom bo'lgan. Umuman **Baxlar** oilasida 57 dan ko'p musiqachi bo'lgan. Ularning 20 tasi mashhur bo'lgan.

Bend degan skripkachilar oilasida 9 ta mashhur musiqachi bo'lgan. Goydon oilasida 2 ta mashhur musiqachi bo'lgan. Ko'pchilik hollarda mashhur odamlarning nasl-nasablarini o'rganish biologik irsiyatdan emas, balki hayot sharoitining nasdan naslga o'tishidan, ya'ni qobiliyatlar taraqqiyotiga yordam berishdan ekanligi ma'lum bo'ladi.

XX asming ikkinchi yarmida paydo bo'lgan layoqatni miyaning mikrotuzilishi va sezgi a'zolari bilan bog'lovchi faraz mahsuldor bo'lib hisoblanadi. Miya hujayralarini tadqiq etish iste'dodli nerv hujayralarining morfologik va funksional xususiyatlarida farq borligini aniqlash mumkmligi faraz qilinadi. Layoqatlar bilan nerv jarayonlarining ayrim differensial xususiyatlari hamda oliy nerv faoliyatining tiplari o'rtasida bog'liqlik mavjudligi to'g'risida faraz ham haqiqatga yaqindir.

Rus psixologi **B.M.Teplov** va uning shogirdlari ishlarida oliy nerv faoliyati tiplarining xislatlari ta'siri tufayli shaxs qobiliyatlarining tuzilishida qandaydir sifat xususiyatlari paydo bo'lishini aniqlashga urinishgan. Jumladan, nerv tizimining alohida sezgirliigi ma'lum qobiliyat nishonasi sifatida vujudga kelishi mumkin.

Qobiliyatning tabiiy sharti, layoqati nerv tizimining tuzilishi va funksiyalarining xususiyatlari tarkibida ekanligi haqidagi barcha morfologik va funktsionallik sifatlar singari umumgenetika qonunlariga bo'ysunish farazining haqqoniyligini dalillaydi.

F.Galtonning irsiyat qonunlari to'g'risidagi g'oya qobiliyatning tabiiy shartlangan xususiyatlari tavsifini ochib bera olmaydi. Chunki unda dalilga muhtoj juda ko'p o'rinlar mavjuddir. Shuning uchun qobiliyat tabiatini biologik irsiyatdan emas, balki turmush muhitining nasldan naslga o'tishidan qidirish maqsadga muvofiqdir, agarda insonning taraqqiyoti ijtimoiy-tarixiy qonunlar bilan boshqarilishi tan olinar ekan, qobiliyatning taraqqiyoti biologik irsiyat qonunlarga bo'ysunishi mumkin emas.

Yuqoridagi mulohazalarga asoslangan holda xulosa qilish mumkinki, qobiliyat va layoqatlar tabiiy zaminga bog'liq bo'lsa-da, lekin ular faqat tabiatning in'omi emas, balki insoniyat tarixiy taraqqiyotining bebaho mahsulidir. Xuddi shu bois qobiliyatlarning namoyon bo'lishi shaxslar tomonidan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish davomida ijtimoiy shartlangan bilimlar va ko'nikmalarni tarkib toptirishning yaqqol usullariga bevosita bog'liqdir. Shuning uchun qobiliyatlar taraqqiyotining uzluksiz ta'lim tizimiga bog'liq ekanligini ta'kidlab o'tish muhim ahamiyatga ega.

Talantning paydo bo'lishi va rivojlanishi

Talantning ijtimoiy-tarixiy, tabiiy nuqtai nazardan talqini qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichi ekanligidan dalolat beradi. *Talant* yunoncha qimmatbaho, noyob narsa, irsiy tabiiy xislat degan ma'noni anglatib, muayyan faoliyatning muvaffaqiyatli va ijodiy ravishda bajarilishini ta'minlaydigan qobiliyat hamda iste'dodlar majmuasidan iborat individual xususiyatdir. Psixologik adabiyotlarda unga turlicha ta'rif berilishiga qaramay, ularda asosiy belgilar ta'kidlab o'tiladi, chunonchi shaxsqa qandaydir murakkab mehnat faoliyatining muvaffaqiyatli, mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar majmuasiga *talant* deyiladi.

Talantning asosiy belgilari

a) muvaffaqiyatni ta'minlash;
b) faoliyatni mustaqil bajarish;
v) originallik unsurining mavjudligi qobiliyat hamda iste'dodlar yig'indisidan iborat ekanligi;

d) individual psixologik xislatiligi;

ye) ijtimoiy turmushni o'zgartiruvchi yaratuvchilik imkoniyati kabilar;

Psixologik ma'lumotlarni umumlashtirgan holda ikki xil xususiyatli fikrni alohida ta'kidlab o'tish talant tuzilishini yaxshiroq tushunish imkoniyatini yaratadi:

1) *talant – bu shaxs psixik xislatlarining shunday birikmasidirki, uni a) alohida yagona maxsus qobiliyat bilan; b) xotiraning yuksak mahsuldorligi orqali; v) hatto noyob sifat tariqasida o'lchab bo'lmaydi.*

2) *shaxsda u yoki bu qobiliyatning mavjud ekanligi hamda yetarli darajada taraqqiy etganligi talantning murakkab tarkibiga kiruvchi boshqa qobiliyatlarning jadal takomillashuvi orqali ularning o'rnini bosib yuborishi (konsensatsiya qilish) mumkin.*

Moskvaning umumiy va pedagogik psixologiya instituti xodimlari tomonidan o'quvchilarning talanti, iste'dod tushunchasi o'rganilgan. Aniqlangan muhim

qobiliyatlar yig'indisi aql, iste'dod tuzilishini vujudga keltirilgan. *Ilmiy tadqiqotchilarning fikricha, yuksak iste'dod quyidagi bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin:*

-bunday shaxsning birinchi xususiyati ziyraklik, shaylik, jiddiy faoliyatni bajarishga tayyor turishlikdir;

-shaxsning ikkinchi xususiyati uning mehnatga tayyorgarligi (mehnatga moyilligi, mehnatga intilishi, mehnatning ehtiyojga aylanishi)dir;

-insonning uchinchi xususiyati unda tafakkur xususiyatlari va fikr yuritishning tezligi, aqlning tartibli, tahlil va umumlashtirishning yuqori imkoniyatlari, aqlning mahsuldorligi. Ma'lumotlar tahlilining ko'rsatishicha, maxsus iste'dod tuzilishi yuqoridagi sifatlardan tashqari aniq faoliyat talablariga muvofiq keluvchi bir qator qobiliyatlar bilan to'ldiriladi.

Talant o'zining umumiy va maxsus sifatlari yig'indisi bilan ijodiy yutuq imkoniyatining ayniyatidir. Talant mahoratning dastlabki sharti hisoblansa-da, lekin ular bir-birlaridan muayyan darajada tafovutlanadi. Talant – katta ijodiy va zo'r mehnat mahsulidir. Mehnat esa hayotiy tajriba ko'nikmalarning zaruriy majmuasi manbaidir. Ijodiyotning sharti va hayotiy tajriba zaruriy ko'nikma, malakalar yig'indisining mavjudligidir. Ijodiy faoliyat talantning ajralmas qismi hisoblanib, bunda *ruhlanish* deb nomlangan psixologik holat alohida ahamiyat kasb etadi. *Ruhlanish* esa faoliyat mahsuldorligi ortishiga qaratilgan ijodiy lahzadan iboratdir. Talant imkoniyat tariqasida psixologik hodisa hisoblansa, u holda mahorat haqiqatga aylangan imkoniyat gavdalanishdir. Psixologik nuqtai nazardan haqiqiy mahorat bu shaxs talantining faoliyatda namoyon bo'lishidir.

Agar jamiyat taraqqiyoti bunday kishilarga muhtoj bo'lsa bunday kishilarning paydo bo'lish imkoniyati tug'iladi. Iste'dod qobiliyatlar yig'indisidan, ularning majmuidan iboratdir. Alohida olingan yakka qobiliyatlar garchi u taraqqiyotning juda yuksak darajasiga erishgan va yorqin ifodalangan bo'lsa ham iste'dod bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Bu haqda g'oyat o'tkir fenomenal xotiraga ega bo'lgan kishilar haqida o'tkazilgan tadqiqotlar dalolat beradi.


Moskvalik psixologlar bir necha yillar davomida kuzatgan shaxslar o'zida xotiradan boshqa qobiliyatlarni rivojlantirmadi va shuning uchun u o'zining ajoyib qobiliyatlariga mos keladigan ijobiy muvaffaqiyatga erisha olmadi.

Shunday qilib, iste'dod shaxs psixik sifatlarning shu qadar murakkab birikmasidirki, u qandaydir birorta yagona qobiliyat bilan bu qobiliyat xotiraning yuksak mahsuldorligi kabi muhim ahamiyatga ega.

Psixologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha birorta ham qobiliyatning yo'qligi yoki yetarli taraqqiy etmaganligi iste'dod sifatlarning murakkab turiga kiruvchi boshqa qobiliyatlarning jadal taraqqiyoti yo'li bilan muvaffaqiyatli ravishda o'rni bosib boriladi.

Har qanday layoqat qobiliyat darajasiga ko'tarilishi uchun eng murakkab yo'lni bosib o'tishi kerak bo'ladi. Qobiliyatlar ilk davrlardan oq rivojlana boshlab, bir necha bosqichda amalga oshadi.

Qobiliyatlar rivojlanishini quyidagi jadval orqali ko'rish mumkin:



Qobiliyatlarning rivojlanishi va shakllanishi *birinchidan*, ma'lum bir faoliyatga moyillik yoki intilish borligiga va faoliyat natijalarining sharoitga qarab tegishli tabiiy zehn, nishonalarni aniqlash yo'li bilan, *ikkinchidan* mutaxassis (muzikant, artist, rassom va hokazo) rahbarligida tizimli faoliyatga jalb etish orqali shaxsning tabiiy xususiyatlarini chiniqtirish va rivojlantirish yo'li, bilan *uchinchidan*, umumlashgan aqliy operatsiyalarni shakllantirish yo'li bilan borishi kerakki, bu operatsiyalar umumiy va maxsus axborotni yengil va samarali o'zlashtirishni, tanlagan faoliyat bo'yicha ko'nikma va malakalarni hosil qilishni ta'minlasin. *To'rtinchidan*, o'quvchining maxsus qobiliyatini kamol toptirishni jadallashtirishni ta'minlovchi shaxsni har tomonlama rivojlantirish yo'li bilan. *Beshinchidan*, shaxsning faollik alomatlarini tarbiyalash yo'li bilan borish kerakki?, bu alomatlar dastavval mehnatsevarlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, puxtalik, qat'iyatlik, sinchkovlik va tanqidiylikdan iborat. Bularsiz individning potensial imkoniyatlari va qobiliyati faoliyatda maksimal ravishda rivojlana olmaydi. *Oltinchidan*, maktab o'quvchilariga nisbatan individual munosabatda bo'lishni umumiy talablar bilan to'g'ri qo'shib olib borishdir. Qobiliyatning muayyan izchillikda namoyon bo'lishi va rivojlanishini hayot tajribasi ko'rsatib turibdi.

Qobiliyat turli rivojlanish darajasiga ega bo'lishi mumkin. Ilmiy abstraksiyalash qobiliyatning ikki darajasini farqlash imkonini beradi; reproduktiv va ijodiy aks ettirish darajalari. O'z qobiliyatini rivojlantirishning *birinchi darajasidagi* kishi bilimlarni juda mohirlik bilan o'zlashtiradi. Faoliyatni o'rganib oladi va uni biror namuna orqali amalga oshiradi. *Ikkinchi darajada* turgan kishi esa yangilik yaratishga qodirdir. Bu darajalarni tekshirishga metafizik munosabatda bo'lish yaramaydi albatta, *birinchidan* har qanday reproduktiv aks ettirish, faoliyat ijodiy faoliyat elementlarini ijodiy aks ettirish faoliyati esa reproduktiv faoliyat elementlarini, o'z ichiga qamrab oladi, busiz ularni tasavvur qilib bo'lmaydi. *Ikkinchidan*, yuqorida aytilgan darajalar ham qandaydir o'zgarmas va qotib qolgan narsalar emas. Kishi bilimlarni o'zlashtirib, ko'nikma hosil qilish jarayonida faoliyat bir darajadan ikkinchi darajaga o'tib turadi. Qobiliyatning tabiiy manbai ham mavjud bo'lib va u *tabiiy zehn* deb yuritiladi.

Qobiliyatlar borasidagi psixologik nazariyalar

G'arbiy Yevropalik olimlar psixologiyadagi irsiyat nazariyasiga qarshi chiqadilar. *Masalan*, shveysariyalik psixolog **V.Boven** qalbaki doktrina deb tarbiyaviy tadbirlardan voz kechish jinoyat bo'lur edi, deb ta'kidlaydi.

Ingliz bioximigi **S.Gouz** kishi qobiliyatining rivojlanishi uchun to'siqlar biologiyaga qaraganda ijtimoiy sharoitda ko'proqdir, deb uqtiradi.

Ingliz psixologi, **D.Kidjin** ham aynan shunday xulosaga kelib, tarbiyaning kishi intellektual rivojlanishiga hal qiluvchi ta'siri haqida fikr yuritiladi.

Ikkinchi konsepsiyaning vakillari qobiliyatni butunlay hayot va tarbiyaning ijtimoiy sharoiti belgilaydi deb uqtiradilar. *Masalan*, **Gelvesiy** o'z vaqtida tarbiya yordamida geniyni yaratsa bo'ladi, degan edi. Rus olimi **A.N.Leont'ev** ham o'zining funksional organlar nazariyasi bilan bu nazariyaga **A.Uxtomskiy** asos solgan bo'lib, shunga o'xshash konsepsiyani yoqlaydi. *Masalan*, tabiiy qobiliyatni muhitga bog'liq deb hisoblaydi. Modomiki, ishchilarning bolalari ulg'ayadigan og'ir ijtimoiy muhitdagi kishilarning madaniy va intellektual rivojlanish darajasi past ekan. Mutlaqo tabiiyki, bu bolalar ham o'z ota-onalarining rivojlanishi darajasidan o'tib keta olmaydilar deydi u.

Ko'zga ko'ringan rus psixologi **S.L.Rubinshteyn**, **A.N.Leontevning** konsepsiyasiga norozilik bildirdi. Uning fikricha tug'ma iste'dod nishonalari bu reallikdir, uni rivojlantirish lozim.

Hayotiy kuzatishlar va maxsus tekshirishlar qobiliyatning tabiiy zaminini inkor qilib bo'lmasligini ko'rsatadi. Bir qator maxsus faoliyatlar borki, ular uchun tabiiy zamin xususan muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun zehn nishonalari bo'lgan kishi noqulay sharoitda ham zehn nishonalari bo'lmagan, lekin qulay hayotiy sharoitdagi kishiga nisbatan yuksak qobiliyat ko'rsata oladi. Va aksincha, *masalan*, bir oilada va bir maktabda rivojlanayotgan aka-ukalar yoki opa-singillar yaxshi yoki yomonligidan qat'iy nazar, bir xil ijtimoiy sharoitda bo'lganlarida ularning qobiliyati va rivojlanishi paytida ba'zan keskin farqlar kuzatiladi.

Qobiliyatning uchinchi konsepsiyasining tarafdorlari ancha to'g'ri pozitsiyada turadilar. Ya'ni qobiliyat qulay ijtimoiy sharoit mavjud bo'lganda faoliyat jarayonida shakllanadi. Bu oxirgi konsepsiyada hayot o'zining butun xilma xilligi bilan aks ettiriladi va maxsus tadqiqotlar bilan tasdiqlanadi.

Shubhasiz, qobiliyat miya tuzilishining qandaydir tug'ma anatomik xususiyatlari bilan, birinchi navbatda miya mikrostrukturasi xususiyatlari bilan bog'liqdir. Bu xususiyatlar in'ikos jarayonining xususiyatiga va shaxsning xatti-harakatiga ta'sir qiladi.

Bolada juda erta seziladigan psixologik xususiyatlar zehn yoki dastlabki tabiiy xususiyatlardir. Shuni aytib o'tish lozimki, **B.M.Teplov** haqli ravishda aytgandek, psixologik xususiyat har taraflama ahamiyatga ega bo'lib, ular xarakterning ham, qobiliyatning ham tabiiy asosini tashkil qiladi. Umumiy tipdagi xususiyatlar kuchda va tonusda ifodalanadigan faollik, vazminlik, in'ikos va harakat jarayonlarining sezgirlik darajasi, shubhasiz qobiliyatning tashkil topishiga ta'sir qiladi.

Badiiy tipning xarakterli belgisi shundaki, ular *birinchidan*, voqelikni yaxlit, to'la va jonli tarzda idrok etadilar, holbuki mutafakkirlar uni bo'lib-bo'lib qabul qiladilar va shuning bilan go'yo uni jonsizlantiradilar.

Ikkinchidan, badiiy tip vakillarida tasavvur abstrakt fikrlashdan ustun bo'ladi. **Fantaziya** – deydi **LP.Pavlov** – bu badiiy qobiliyat bo'lib birinchi signal tizimiga tegishlidir. Fikrlovchi tipda esa aql nazariy bo'lib, u so'z bilan bog'liqdir.

Uchinchidan, badiiy tip yuksak emosionallik bilan ajralib turadi, chunki birinchi signal tizimi **LP.Pavlov** tili bilan aytganda asosiy emosional fondni tashkil qiluvchi miya qobig'i bilan yaqin bog'liqdir. badiiy tip hayajonli, muqarrar, *emosional tipdir* degan edi **LP.Pavlov** va aksincha, mutafakkir tipda emosional fon va birinchi signal tizimi zaif bo'lsada, lekin u sog'lom va soddadil odam bo'ladi.

Ko'pchilik olimlar vunderkindlar jismonan zaif deb biladilar. Lekin bu xulosa noto'g'ri. Vunderkindlarning hammasi aqlan va jismonan soppa sog'. Buni isbotlash uchun 20-yillarda amerikalik psixologlar tomonidan tadqiqotlar o'tkazilgan. Bu tadqiqotga **A.Termen** boshchilik qilgan. Ular tadqiqot uchun 15000 o'quvchilarni o'g'il bola va qizlarni saralab oldilar. Ular umumiy aqlan rivojlangan, o'ziga xos xususiyatli 6 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar edi. Saralash jarayoni test natijalari va o'qituvchilarning tavsifnomasi asosida o'tkaziladi. So'ng bu o'quvchilar 10-yil mobaynida tadqiq etiladilar. Bu o'quvchilar boshqalarga nisbatan sog'liqlarining farqi yo'q, ular ham kasal bo'ladilar, asablari charchaydi. Lekin baribir ular boshqalarga nisbatan sog'lom, har tomonlama rivojlangan yetti muchali sog' bolalardir.

Rus psixologi **A.G.Kovalev** o'z tadqiqotlarida qobiliyatning tabiati va tashxis qilish yo'llarini tekshirishga muvaffaq bo'lgan. Muallifning ta'riflashicha, *qobiliyat* deganda birorta xususiyatning o'zi emas, balki inson shaxsining faoliyat talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlay oladigan xususiyatlar ansambli yoki sintezini tushunish kerak. Uning ta'kidlashicha, qobiliyatning tuzilishida tayanch va yetakchi xususiyatlarni va nihoyat, muayyan fonni yoki yordamchi xususiyatlarni farq qilish kerak. Hamma qobiliyatlar uchun asosiy tayanch xususiyati-kuzatuvchanlik ko'ra bilish ko'nikmasidir. Uning yetakchi xususiyati ijodiy tasavvur qilishdir. **A.G.Kovalyov** yordamchi xususiyatlar qatoriga

xotirani kiritadi, u faoliyat talablariga muvofiq ravishda o'ziga xos ko'nikishga ega, emotsional ya'ni his-tuyg'uga beriluvchanlik xususiyati shaxsning faolligini oshiradi.

Muallifning ta'kidlashicha, ilmiy mavhumlash qobiliyatning quyidagi darajasini farqlash imkonini beradi, reproduktiv aks ettirish darajasi va ijodiy aks ettirish. O'z qobiliyati rivojlanishining *birinchi darajasida* turgan shaxs bilimlarni juda mohirlik bilan o'zlashtiradi, faoliyatni o'rganib oladi va uni biror namuna orqali amalga oshiradi. *Ikkinchi darajada* turgan inson esa yangilik yaratishga qodir bo'ladi. Psixologiya fanida qobiliyat to'g'risida fikr ketganda uchta konsepsiya mavjudligi ta'kidlanadi. **A.G.Kovalyov** asarida bayon qilinishicha, ulardan biri, qobiliyat shaxsning biologik jihatdan determinlashgan, ya'ni biologik jihatdan bog'langan xususiyatlaridir qobiliyatning ro'yobga chiqishi va rivojlanishi esa tamomila irsiy fondga bog'liq deb tushuntiriladi. **XIX asrda F.Galton XX asrda Kotslar** talant irsiydir, faqat imtiyozli tabaqalarning vakillarigina boy irsiy merosga ega bo'ldilar, degan xulosaga keldilar.

Ikkinchi konsepsiyaning vakillari qobiliyatni butunlay hayot va tarbiyaning ijtimoiy sharoiti belgilaydi, deb uqtiradilar. *Masalan, Gelvesiy* o'z davrida tarbiya yordamida geniy yaratsa bo'ladi, degan edi. Amerikalik olim U.Eshbi insonning qobiliyati yashab turgan davrida stixiyali ravishda o'zidan o'zi va ongli tarzda ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadi, shularning natijasi o'laroq masatalarni yechish uchun tegishli dastlabki rejalar va dasturlar vujudga keladi. Fiziolog olimlar miyaning tuzilishida individual xususiyatlar bo'lsa, bu hol miyaning funksiyalarida o'z aksini topmasligi mumkin emas, deb qayd qiladilar.

A.G.Kovalyov ta'kidlashicha, qobiliyatning uchinchi konsepsiyasi tarafdorlari ancha noto'g'ri pozitsiyada turadilar. So'nggi nazariyada talqin qilinishicha, tabiiy kuchlar, zehn nishonalari va qobiliyatning rivojlanishi uchun qulay ijtimoiy sharoit mavjud bo'lishi kerak. Muallif *zehn nishonalari* deganda, anatomik-fiziologik xususiyatlardan ko'ra, ko'proq psixologik-fiziologik xislatlarni tushunish kerakligini uqtiradi. Zehn muayyan bir faoliyatga (maxsus qobiliyat) yoki hamma narsaga nisbatan ustuvor qiziquvchanlikda (umumiy qobiliyat), moyillikda va intilishda ko'rinadi.

A.G.Kovalyov Edikson fikriga asoslanib ("bunda faqat 1 foizgina geniy bo'lsa, 99 foiz ter to'kish bo'lgan"), hamma buyuk kishilar bag'oyat mehnatsevarlikka va katta ishchanlikka ega bo'lganlari holda hatto nerv tizimi tabiiy kuchsiz bo'lsa-da, subyektiv ravishda yutuqlarini qobiliyatdan emas, balki mehnatdan deb baholaganlar.

A.G.Kovalyovning ta'rifi, adabiy ijodga qobiliyat shaxs iste'dodining badiiy tipiga tegishli bo'lib, badiiy tipdagi qobiliyatning hamma ko'rinishlaridan uni ajratib turadigan o'ziga xos sifatlarga ham egadir. Uning ta'kidlashicha, umuman qobiliyat va xususan adabiy ijodga xos qobiliyat murakkab bo'lib, uning tuzilishida har xil xususiyatlar yoki tarkiblar mavjud. Bu jabhalarning *biri* yetakchi, *boshqalari* tayanch xususiyatlar, *uchinchilari* esa sermahsul faoliyat uchun zarur bo'lgan muayyan bir fonni tashkil qiladi. Adabiy qobiliyatda uch tomonni mujassamlashtirish muhim ahamiyatga ega, ya'ni o'tkir kuzatuvchanlik, kuchli ijodiy tasavvur, til vositasida ko'rgan va ravshan tasavvur etgan narsalarni tasvirlay olish.

Muallif mulohazasiga ko'ra adabiy qobiliyatning tayanch xususiyati yumshoq ko'ngillilik va ta'sirchanlikdir. *Ta'sirchanlik* deganda idrokning jonliligi va

o'tkiriligini emotsional iltifotgo'ylikning naqadar kuchliligini tushunish kerak. Ijod uchun yolg'iz ko'ra bilish qobiliyatining o'zi kamlik qiladi, ko'rganlarni qayta o'zgartira bilish, kuzatilayotgan narsani boshqa hayotiy taassurotlar bilan fikran bog'lay olish ham muhimdir. Kuzatilayotgan narsalar ayniqsa yaratilayotgan obrazlarni aniq va ravshan ko'z oldiga keltirish qobiliyatida namoyon bo'ladi hamda bu adabiyotda ko'pincha ichdan *ko'rish qobiliyati* deb ataladi.

Adabiy qobiliyatni tekshirish shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning qobiliyatlari qobiliyatsizlaridan, **V.P.Yagunkovning** ma'lumotlari bo'yicha idrok qilishning aniqligi va xotirasi bilan, yangi original obraz va syujetlar tuzishdagi tafakkur kuchi va tasavvur bilan, ijodiy vaziyatning yengilgina yuzaga kelishi bilan, so'z boyligi va til sezgisi bilan farqlanadilar. Ba'zi birlarida voqelikka mulohazali, mantiqiy munosabatda bo'lish ustun tursa, boshqalarida obrazli emotsional munosabat ustundur, uchinchilarida esa bularning har ikkisi ham mujassamdir. **V.P.Yagunkova** sinaluvchilarning adabiy qobiliyatini tashxis qilishda quyidagi ko'rsatkichlarni mezon tariqasida oladi, *chunonchi a) idrok etish va xotiraning aniqligi; b) emotsional ta'sirchanlik; v) tasavvurning kuchi va jonli tilni his qilish kabilar.*

S.P.Kudryavseva tadqiqotida ilk o'spirinning adabiy qobiliyati ikki tipga ajratiladi, ya'ni *adabiy-tanqidiy tip va badiiy-ijodiy. Birinchi tipda* badiiy asarlarni tushunchalar asosida tahlil qilishning o'sganligiga e'tibor qilinadi. *Ikkinchi tipda* adabiy asarlarni o'qish vaqtida va adabiy mavzuga bayon yozishda hayajonlanish, ijodiy yondashishga ahamiyat qaratiladi.

V.A.Kruteskiy matematik qobiliyat tuzilishiga quyidagilarni kiritadi:

1) qobiliyatda bolalarning matematik materialni qabul qilish borasidagi qobiliyatiga matematik obyektlar, munosabat va amallarni shakl holiga keltirib idrok qilish matematik materialga o'ziga xos "yig'ma" analitik-sintetik ishlov berish qobiliyati qayd qilish lozim;

2) qobiliyatli o'quvchilarning fikrlashi quyidagilar bilan: a) miqdoriy va fazoviy munosabatlar, sonlar va belgilar simvolikasi sohalarida mantiqiy fikrlash qobiliyati; b) matematik materialni tez va keng umumlashtira olish; v) matematik mulohazalar jarayonida qisqacha aqliy xulosalar yordamida fikrlashga moyillik; g) fikrlash jarayonlarining nihoyatda moslashuvchan va harakatchanligi; d) yechishda ravshanlik, soddalik, ratsionallik va ixchamlikka intilish

3) matematik axborotni xotirada saqlash va hokazo.

Matematik qobiliyatning borligini taxmin qilishga asos bo'ladigan tashqi alomatlarini belgilash mumkin. Muallif taxminicha bular quyidagilardir:

-o'quvchining matematikaga oid ochiq-oydin qiziqishini namoyish qilishi, hech kim majbur qilmasdan, o'zining bo'sh vaqtini sarflab, matematika bilan bajonidil shug'ullanishga moyillik;

-muayyan matematik ko'nikma va malakalarni odatdagidan kichikroq yoshda o'zlashtirish qobiliyati;

-matematikani o'zlashtirish sohasida tez siljib borish;

-matematik taraqqiyot va yutuqlarning yuqori darajasi.

Mamlakatimiz psixologi **M.G.Davletshin** texnikaviy qobiliyat ustida tadqiqot ishlari olib borgan yetakchi mutaxassis hisoblanadi. Muallif *texnikaviy qobiliyat deganda* shaxsning individual psixik xususiyatlaridan tuzilgan shunday o'ziga xos

birikmalarini tushunadiki, u shaxsning texnikaviy faoliyatga yaroqlilik darajasini va u bilan muvaffaqiyatli ravishda shug'ullana olishini aniqlaydi.

M.G.Davletshin ham an'anaviy yo'ldan borib, texnikaviy qobiliyatlarni ikkita o'sha nomdagi tipga ajratadi hamda yetakchi tayanch xususiyatlarini o'zgarishsiz qoldiradi. Lekin boshqalardan farqli o'laroq, bunda yetakchi xususiyatlar rivojlangan texnikaviy fikrlash va fazoviy tasavvurdan iboratdir. Uning talqinicha, texnikaviy iste'dodli shaxs bo'lish uchun unda a) amaliy jihatdan fahmli; b) texnik moslamalarni tahlil qila olish qobiliyati; v) narsalarni montaj qilib qismlardan butun hosil qila olish qobiliyati bo'lishi shart.

M.G.Davletshin texnikaviy iste'dod ko'rsatkichlarini an'anaviy baholashni tan olgan holda (ko'z bilan chamalash, fazoviy tasavvur, texnikaviy tahlil, konstruksiyalash qobiliyati) o'zining original yondashuvini ishlab chiqqan. *Texnikaviy qobiliyat* darajasini tashxis qilish uchun tekshirishlarda ishlab chiqilgan eksperimental masalalarning to'qqizta seriyasidan foydalanadi.

Keyingi yillar ichida O'zbekiston psixologiyasida ham qobiliyat va iste'dod masalalari bo'yicha bir qancha psixologlar ish olib bormoqdalar. Bu sohada **B.R.Qodirov, B.S.Sodiqov, E.G'.G'oziyev, V.A.Tokareva, Z.Nishonovalarning** tadqiqot ishlari ma'lum bo'lib, qobiliyat, iste'dod tushunchalariga o'z ta'riflarini berganlar.

B.R.Qodirovning fikricha: *"Ma'lum bir faoliyatga qiziqmay turib qobiliyat haqida gapirib bo'lmaydi. Va o'z navbatida har qanday qobiliyatli bola hali iste'dodli degani emas. Ko'p qirrali va rivojlangan qobiliyatlar iste'dodli bola shaxsining moddiy asosini tashkil etadi, xolos. Aksincha, iste'dodli bola qobiliyatsiz bo'lishi mumkin emas. Bu fikrlardan ko'rinib turibdiki, iste'dodli bola sof fikrli, har xil qobiliyatga va umuman aqliy rivojlanishga tayyor turgan hozirjavob, nodir shaxsiy xususiyatlarga to'la boladir"*.

Tayanch iboralar

Aqliy rivojlanish mezon (ong JQ – aqliy yosh (AYo) va xronologik yosh (XYo) orasidagi munosabatni bildiruvchi mezon. A.r.m. ushbu formula orqali aniqlanadi:

$$JQ = x \frac{AY}{XY}$$

Intellektning biror bir yosh shkalasiga suyangan holda test natijalari orqali rivojlanishini aniqlash mumkin.

Geniallik (lot. Genius – aql zakovat, buyuk iste'dod) – shaxsning eng yuksak darajadagi ijodiyoti bilan o'zmi namoyon qilish hodisasi.

Zehn, layoqat – nerv tizimining ba'zi genetik nazariyalari anatomik-fiziologik xususiyati bo'lib, u kishida qobiliyatlar tarkib topishi va rivojlanishining dastlabki individual tug'ma tabiiy zaminidir.

Iste'dod – shaxsning ma'lum faoliyatida ifodalanadigan qobiliyatining yuqori darajasi.

Kommunikatsion qobiliyatlar – kishining boshqa odamlar bilan bo'ladigan muloqotni yaxshilaydigan va birgalikdagi faoliyatda psixologik qovushuvchanlikni ta'minlaydigan qobiliyat.

Layoqat – nerv tizimining ba’zi irsiy determinlashgan anatomfiziologik xususiyati. Odamda qobiliyatlarni tarkib toptirish va rivojlanishining dastlabki yakka tug‘ma, tabiiy zaminidir.

Mayl – shaxs qiziqishlari va fikrlarining biror faoliyat bilan shug‘ullanishga jalb etilganligi, shaxsda kuchli istak, hohish tarzida namoyon bo‘lib, bajo keltirilganda odamga mamnuniyat baxsh etadi.

Musiqiy qobiliyat – shaxsning musiqiy layoqatini belgilovchi psixologik xususiyatlari.

Umumiy iste’dod – kishining qobiliyatlari birligi. Bu shaxsning aqliy (intellektual) imkoniyatlari doirasi bilan faoliyatining o‘ziga xosligi darajasini belgilab beradi.

Frenologiya (yunon. phren – ong, logos – ta’limot) – odamda u yoki bu xildagi qobiliyatlarning o‘sganligini bosh suyagining tuzilishiga qarab aniqlash mumkin degan nazariya. Bu nazariya avstriyalik vrach F.Gall tomonidan tavsiya etilgan.

Qobiliyatlar – shaxsning ma’lum faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta’minlaydigan individual psixologik xususiyatlar.

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan mavzular

1. Qobiliyatlar haqida tushuncha.
2. Qobiliyatlarning sifati va miqdor tavsifi.
3. Qobiliyatlar tuzilishi.
4. Talantning paydo bo‘lishi va tuzilishi.
5. Qobiliyat va talantlarning tabiiy shartlari.
6. Qobiliyat borasidagi nazariyalar.
7. Qobiliyatlarning tabiiy asoslari.
8. Qobiliyatlarning rivojlanishi.
9. Qobiliyat va irsiyat.

Test topshiriqlari

1. I.P.Pavlov insonlarni qanday tiplarga ajratadi?

- A) badiiy fikrlovchi o‘rta;
- B) mavhum mantiqiy;
- V) jonli tasavvur yorqin idrokli;
- G) badiiy fikrlovchi aralash;
- D) fikrlovchi o‘rta yetakchi.

2. I.Pavlov insonlarni tiplarga ajratishda nimalarni asos qilib oladi?

- A) shartli reflekslar;
- B) shartsiz reflekslar
- V) oliy nerv faoliyati tiplari;
- G) birinchi va ikkinchi signallar tizimi;
- D) nerv jarayonlarining qonuniyatlari.

3. I.P.Pavlov ikkinchi signallar tizimini qanday nom bilan ataydi?

- A) signallarning signali;
- B) birinchi signallar tizimi;
- V) ikkinchi signallar tizimi;
- G) fikrlovchi signallar tizimi ;

D) badiiy signallar tizimi.

4. Shaxsning psixik faoliyatida birinchi signallar tizimi ustunlik qilsa bu inson qanday tipga taalluqli bo'ladi?

A) badiiy tipga;

B) fikrlovchi tipga;

V) o'rta tipga;

G) obrazli;

D) mulohazali.

5. Agarda ikkinchi signallar tizimi ustunlik qilsa, bu inson qanday tipga taalluqli bo'ladi deb o'ylaysiz?

A) badiiy tipga;

B) fikrlovchi tipga;

V) o'rta tipga;

G) obrazli;

D) mulohazali.

6. Agarda har ikkala signallar tizimi aralashib kegan bo'lsa, bu inson qanday tipga taalluqli?

A) badiiy tipga;

B) fikrlovchi tipga;

V) o'rta tipga;

G) obrazli ;

D) mulohazali.

7. Bu tip uchun taassurotlar jonli tasavvur yorqin idrok his-tuyg'ular emotsiyalar natijasida vujudga keladigan obrazlarning yorqinligi xosdir.

A) badiiy tipga;

B) fikrlovchi tipga;

V) o'rta tipga;

G) obrazli;

D) mulohazali.

8. Bu tip uchun mavhumlarning mantiqiy tizimlarning nazariy mulohazalarining metodologik muammolarning ustunligi xosdir.

A) badiiy tipga;

B) fikrlovchi tipga;

V) o'rta tipga;

G) obrazli;

D) mulohazali.

9. Qobiliyatning tabiati va tashxis qilish yo'llarini tekshirishga muvofiq bo'lgan olim qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) V.P.Yagunkova;

B) V.A.Kruteskiy;

V) S.P.Kudryasev;

G) F.Galton;

D) A.V.Kovalyov.

10. Qaysi olim tomonidan matematik qobiliyatlar o'rganilgan?

A) V.P.Yagunkova;

- B) V.A.Kruteskiy;
- V) S.P.Kudryasev;
- G) F.Galton;
- D) A.V.Kovalyov.

11. O'zbek psixologlaridan qaysi olim texnik qobiliyatlar muammosi bilan shug'ullangan?

- A) V.Karimova;
- B) B.Qodirov;
- V) M.Davletshin;
- G) G'.Shoumarov;
- D) R.Sunnatova.

12. Qaysi qatorda qobiliyat tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan?

- A) shaxsning aqliy imkoniyatlari qo'llanilishini ifodalovchi layoqat;
- B) shaxs ijodiy faolligining eng yuqori darajasi;
- V) faoliyatni egallash va amalga oshirish muvaffaqiyatini ta'minlovchi shaxsning individual psixologik xususiyati;

G) shaxsning biror faoliyatga bo'lgan qobiliyatining mustaqil orginal tarzda bajarish imkoniyati;

D) qobiliyatlarning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan irsiy jihatdan asoslangan asab tizimining analitik-fiziologik xususiyati.

13. Qaysi qatorda layoqat tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan?

- A) shaxsning aqliy imkoniyatlari qo'llanilishini ifodalovchi layoqat;
- B) shaxs ijodiy faolligining eng yuqori darajasi ;
- V) faoliyatni egallash va amalga oshirish muvaffaqiyatini ta'minlovchi shaxsning individual psixologik xususiyati;

G) shaxsning biror faoliyatga bo'lgan qobiliyatining mustaqil orginal tarzda bajarish imkoniyati;

D) qobiliyatlarning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan irsiy jihatdan asoslangan asab tizimining analitik- fiziologik xususiyati.

14. Qaysi qatorda talant tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan?

- A) shaxsning aqliy imkoniyatlari qo'llanilishini ifodalovchi layoqat;
- B) shaxs ijodiy faolligining eng yuqori darajasi;
- V) faoliyatni egallash va amalga oshirish muvaffaqiyatini ta'minlovchi shaxsning individual psixologik xususiyati;

G) shaxsning biror faoliyatga bo'lgan qobiliyatining mustaqil orginal tarzda bajarish imkoniyati;

D) qobiliyatning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan irsiy jihatdan asoslangan asab tizimining analitik- fiziologik xususiyati.

15. Faoliyatni egallash va amalga oshirish muvaffaqiyatini ta'minlovchi shaxsning individual psixologik xususiyati nima deb ataladi?

- A) talent;
- B) qobiliyat;
- V) doholik;
- G) layoqat;
- D) iqtidor.

16. Odamlar va hayvonlar uchun asos bo'lib idrok qilish xotirada saqlash oddiy muloqotga kirisha olish bilan bog'liq qobiliyat turi nima deb ataladi?

- A) maxsus qobiliyatlar;
- B) umumiy qobiliyatlar;
- V) xususiy qobiliyatlar;
- G) nazariy qobiliyatlar;
- D) tabiiy qobiliyatlar.

17. Ijtimoiy-tarixiy tabiatga ega bo'lib, ijtimoiy muhitdagi hayot va taraqqiyotni belgilovchi qobiliyat turi qanday nom bilan yuritiladi?

- A) maxsus qobiliyatlar;
- B) umumiy qobiliyatlar;
- V) xususiy qobiliyatlar;
- G) nazariy qobiliyatlar;
- D) tabiiy qobiliyatlar.

18. Insonning turli faoliyatlari muvaffaqiyatini ta'minlovchi aqliy qobiliyatlar xotira va nutqning rivojlanganligi qo'l harakatlarining aniqligi bilan bog'liq qobiliyat turi qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) maxsus qobiliyatlar;
- B) umumiy qobiliyatlar;
- V) xususiy qobiliyatlar;
- G) nazariy qobiliyatlar;
- D) tabiiy qobiliyatlar.

19. "Qobiliyatlar tug'ma ravishda beriladigan bo'ladi va odam foydalanadigan barcha bilimlar uning absolyut bilimlar ideal olamida bo'lishligi haqidagi tasavvurlardan iboratdir" degan edi. Mazkur fikr muallifi qaysi qatorda ko'rsatilgan.

- A) Platon;
- B) Gal;
- V) Dekart;
- G) I.Pavlov;
- D) Spermin;

20. fikricha odamning hamma qobiliyatlari "aql" va "qobiliyat" sifatlari miya yarim sharlarida o'zining maxsus qat'iy markazlari mavjud ekan, ya'ni bu sifatlarning taraqqiyot darajasi miyaning tegishli qismlarining miqdoriga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir?

- A) Platon;
- B) Gal;
- V) Dekart;
- G) I.Pavlov;
- D) Spermin.

21. "Talantning irsiyatga bog'liqligi uning qonunlari va oqibatlari" nomli kitobining muallifi qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) Platon;
- B) Gal;
- V) Dekart;

G) I.Pavlov;

D) Spermin.

22. Qaysi qatorda talantning asosiy belgilari ko'rsatilgan?

A) muvaffaqiyatni ta'minlash;

B) faoliyatni mustaqil bajarish orginallik unsurining mavjudligi;

V) qobiliyat va iste'dodlar yig'indisidan iborat ekanligi;

G) individual psixologik xislatligi va ijtimoiy turmushni o'zgartiruvchi yaratuvchi imkoniyatliligi;

D) barcha javoblar to'g'ri.

3. Yuksak iste'dod bosqichlari qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) bunday shaxsning birinchi xususiyati ziyraklik, shaylik, jiddiylik, faoliyatni bajarishga tayyor turishlikdir;

B) uning mehnatga tayyorlikdir;

V) unda tafakkur xususiyatlari va fikr yuritishning tezligi aqlning tartibliliigi tahlil va umumlashtirishning yuqori imkoniyatlari aqlning mahsuldorligidir;

G) barcha javoblar to'g'ri;

D) to'g'ri javob berilmagan.

24. Frenalogik ta'limot qaysi olim tomonidan ishlab chiqilgan?

A) Platon;

B) Gal;

V) Dekart;

G) I.Pavlov;

D) Spermin.

25. Frenologik ta'limotga ko'ra, inson bosh miya suyagi nechta bo'lakka ajratilgan?

A) 25;

B) 32;

V) 37;

G) 17;

D) 27.

26. Namlari keltirilgan olimlardan qaysi birlari oliy nerv faoliyati tiplarining xislatlari ta'siri shaxs qobiliyatlarining tuzilishida qanday sifat xususiyatlari paydo bo'lishini aniqlashga urinishgan.

A) I.P.Pavlov;

B) N.D.Neblitsin;

V) I.M.Sechenov;

G) A.G.Kovalyov;

D) B.M.Teplov.

27. Qobiliyat borasidagi qaysi nazariya layoqatning inson ichki tuzilishiga bog'liqligini asoslab bergan?

A) ikkinchi signallar haqidagi ta'limot;

B) adabiy qobiliyatlar shaxs o'z faoliyatini o'zagi sifatida;

V) irsiyat qonunlari ya'ni layoqat tug'ma irsiy belgilarga asoslanishi;

G) layoqatni miyaning mikrotuzilishi va sezgi a'zolari bilan bog'lovchi farazi;

D) barcha javoblar to'g'ri.

28. Qaysi qatorda iste'dod tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan?

- A) qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichi;
- B) bu kishiga qandaydir murakkab mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar majmui;
- V) qobiliyatlar yig'indisidan ularning majmuasidan iboratdir;
- G) shaxs ijodiy faolligining eng yuqori darajasi;
- D) shaxsning aqliy imkoniyatlari qo'llanishini ifodalovchi umumiy qobiliyatlar.

29. Inson qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim omillaridan biri qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) barqaror maxsus qiziqishlar;
- B) layoqat;
- V) talant;
- G) irsiyat;
- D) ta'lim-tarbiya.

30. Qobiliyatlarning rivojlanishi inson bosh suyagining tuzilishiga bog'liqligi haqidagi ta'limot qanday ataladi?

- A) xiromantiya;
- B) fizoginomika;
- V) frenologiya;
- G) grafalogiya;
- D) xarakterologiya.

Nazorat savollari

1. Qobiliyatlar tushunchasining mazmunini izohlang?
2. Qobiliyatlarning sifati va miqdor tavsifi nimalarda ko'rinadi?
3. Qobiliyatlar tuzilishini tarkibini ko'rsating?
4. Qobiliyat borasidagi nazariyalarning mazmuni nimalarda ko'rinadi?
5. Qobiliyatlarning tabiiy asoslarini ajratib ko'rsating?
6. Qobiliyatlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar nimalar bilan belgilanadi?

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Гамезо М.В., Домашенко И.А. Атлас по психологии М; «Просвещение» 1986 г
2. Гиппенрейтпер Ю. Б., Введение в общую психологию: Курс лекций: Учебное пособие для вузов. — М.: ЧеРо, 1997.
3. Davletshin M.G Umumiy psixologiya T-2002
4. Джемс В. Психология. - М., 1991
5. Дружинин В.Н. Психология общих способностей. — 2-е изд. — СПб.: Питер, 1999.
6. Karimova V.M. Psixologiya T-2002 y
7. Кузмина Н. В. Способности, одаренность, талант учителя. — Л., 1985.
8. Маклаков А.Г. Общая психология М.; “Питер” 2003
9. Немов Р. С. Психология: Учебник для студ. высш. пед. учеб. заведений: В 3-х кн. Кн. 1: Общие основы психологии. — 2-е изд. — М: Владос, 1998.
10. Общая психология: Курс лекций/ Сост. Е.И.Рогов.-М.: Владос, 1998
11. Psixologiya qisqacha izohli lug‘at T-1998y
12. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. — СПб.: Питер, 1999.
13. Теплов Б. М. Избранные труды: в 2-х т. Т. 1. — М.: Педагогика, 1985.
14. Turg‘unov Q Psixologiya terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati T; “O‘qituvchi” nashriyoti 1975 y
15. Umumiy psixologiya (A.V.Petrovskiy tahriri ostida) T; “O‘qituvchi” 1992y
16. G‘oziyev E.G‘ Umumiy psixologiya 1-2 kitob T-2002 y

MUNDARIJA

KIRISH	3
BIRINCHI BO'LIM. PSIXOLOGIYAGA KIRISH	
I BOB. PSIXOLOGIYANING PREDMETI	4
Psixologiya haqida tushuncha	4
Psixologiyaning fan sifatida shakllanishi	5
Miya va psixika	9
Ong haqida tushuncha	15
II BOB. PSIXIKA VA ONGNING TARAQQIYOTI	23
Psixikaning filogenetik taraqqiyoti	23
Seskanuvchanlik va tropizm	24
Hayvonlarning instinktlari	25
Hayvonlarning ko'nikmalari	27
Hayvonlarning intellektual harakatlari	28
Psixikaning muhit va a'zolar tuzilishiga bog'liqligi	31
Inson ongining rivojlanishi	31
III BOB. HOZIRGI ZAMON PSIXOLOGIYASINING TUZILISHI VA TADQIQOT METODLARI	38
Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'rni	38
Hozirgi zamon psixologiyasining tamoyillari	43
Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi	45
Hozirgi zamon psixologiyasining ilmiy tadqiqot metodlari	48
IKKINCHI BO'LIM. FAOLIYAT. MULOQOT. SHAXS	
I BOB. FAOLIYAT	62
Faoliyat haqida tushuncha	62
Faoliyatning interorizatsiyasi va ekstrorizatsiyasi	65
Faoliyatning tarkibi	66
Faoliyatning asosiy turlari	71
II BOB. MULOQOT	79
Muloqot haqida tushuncha	79
Muloqotning kommunikativ tomoni	81
Muloqot kishilar o'rtasidagi o'zaro ta'sir etish	85
Muloqot kishilarning bir-birini tushunishi	87
III BOB. SHAXS	95
Shaxs haqida tushuncha	95
Endopsixika va ekzopsixika haqida tushuncha	97
Jahon psixologiyasida shaxs nazariyalari	98
Sobiq sovet psixologiyasida shaxs ta'rifi	100
Shaxsning faolligi	102
Shaxsning malaka va odatlari	109
Shaxsning psixologik tuzilish modellari tahlili	110
UCHINCHI BO'LIM. BILISH JARAYONLARI	
I BOB. DIQQAT	118
Diqqat haqida tushuncha	118
Diqqatning nerv-fiziologik asoslari	120

Diqqat turlari	121
Diqqat xususiyatlari	123
Diqqat borasidagi psixologik nazariyalar	126
Diqqatning buzilishi	132
II BOB. SEZGI	140
Sezgi haqida tushuncha	140
Sezgi nerv-fiziologik asoslari	141
Sezgilar tasnifi va turlari	142
Sezgilarning umumiy qonuniyatlari	148
Sezgi borasidagi nazariyalar	150
III BOB. IDROK	159
Idrok haqida tushuncha	159
Idrokning nerv-fiziologik asosi	162
Kuzatish va kuzatuvchanlik	163
Idrokda obyekt va fon	163
Apperepsiya	164
Ilyuziya	165
Gallyusinasiya	168
Idrokning tasnifi	168
IV BOB. XOTIRA	177
Xotira haqida tushuncha	177
Xotira nerv-fiziologik asosi	178
Xotira turlari	179
Xotira jarayonlari	186
Xotiradagi individual farqlar	191
Xotira tasavvurlari	192
Xotira borasidagi nazariyalar	192
V BOB. TAFAKKUR	200
Tafakkur haqida tushuncha	200
Tafakkur nerv-fiziologik asosi	202
Tafakkur operatsiyalari	202
Tafakkur shakllari	207
Tafakkur turlari	211
Tafakkur sifatlari	217
Tafakkur borasidagi psixologik nazariyalar	220
VI BOB. XAYOL	230
Xayol haqida tushuncha	230
Xayol jarayonlarining nerv-fiziologik asoslari	230
Xayol jarayonlari	231
Xayol turlari	232
Xayol sifatlari	234
Xayolning asosiy xususiyatlari	235
TO'RTINCHI BO'LIM. SHAXSNING HISSIY-IRODAVIY-MOTIVATSION SOHASI	
I BOB. HISSIYOT	242
Hissiyot haqida tushuncha	242
Hissiyotning nerv fiziologik asoslari	244
Inson va hayvonlardagi emotsiyalar	246

Hissiy holatlarni ifodalanishi	246
Hislarni kechirish shakllari	247
Yuksak hislar	254
II BOB. IRODA	262
Iroda haqida tushuncha	262
Irodaning nerv-fiziologik asoslari	264
Irodaviy akt va uning tuzilishi	265
Shaxsning irodaviy sifatleri	272
Iroda borasidagi nazariyalar	279
III BOB. MOTIV VA MOTIVATSIYA	287
Motiv va motivatsiya tushunchasining mazmuni	287
Xorij psixologiyasida o'qish motivlarining nazariy tahlili	292
BESHINCHI BO'LIM SHAXSNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	
I BOB TEMPERAMENT	304
Temperament haqida tushuncha	304
Temperamentning fiziologik asoslari	305
Nerv sistemasi tiplarini kelib chiqishi	307
Temperament tiplarining tavsifnomai	309
Faoliyaning individual uslubi va temperament	310
II BOB XARAKTER	317
Xarakter haqida tushuncha	317
Xarakter fiziologik asoslari	319
Xarakter tarkibi	320
Xarakter aksentuatsiyasi	321
Xarakter tipologiyasi	323
Xarakter borasidagi nazariyalar	324
Xarakterning shakllanashi	325
III BOB QOBILIYAT	332
Qobiliyat haqida tushuncha	332
Qobiiyatlarining miqdor va sifat tavsifi	334
Qobiliyatlar tasnifi	335
Qobiliyatlar tarkibi	337
Qobiliyatlarining tabiiy asoslari	338
Talantning paydo bo'lishi va rivojlanishi	340
Qobiliyatlar borasidagi psixologik nazariyalar	343

**XAYDAROV FAZLIDDIN IKROMOVICH
XALILOVA NARGIZA IKROMALIYEVANA**

**UMUMIY PSIXOLOGIYA
DARSLIK**

TOSHKENT - "INNOVATSIYA -ZIYO" - 2019

Muharrir Xolsaidov F.B.

Litsenziya AI № 023. 27.10.2018.
2019-yil 25- mayda chop etishga ruxsat berildi.
Bichimi 60x84 1/16. "Tayms" garniturası.
Ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tobog'i 8,25.
Adadi 50 nusxa.